B.I.NURMUXAMEDOVA
SH.K.XAMDAMOV

DAVLAT MOLIYASI



65.261
N89

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

B.I. NURMUXAMEDOVA, SH.K. XAMDAMOV

DAVLAT MOLIYASI

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan darslik sifatida tavsiya etilgan

...versiteti
...markazi
336267
...DU QIRO...

TOSHKENT
«IQTISOD-MOLIYA»
2021

UO'K: 336 (075.8)
KBK: 65.261.3

Taqrizchilar: *i.f.d., prof.* **T.S. Malikov;**
DSc., prof. **D.X. Pulatov**

N 87 Davlat moliyasi: Darslik / B.I. Nurmuxamedova, Sh.X. Xamdamov; – T.: "Iqtisod-Moliya", 2021. – 436 b.

Ushbu darslik oliy ta'limning "Moliya" bakalavriat ta'lim yo'nalishining Davlat ta'lim standartlari, namunaviy rejalari va fan dasturlari asosida tayyorlangan bo'lib, davlat moliyasi to'g'risidagi fanning nazariy va ilmiy asoslarini o'rganish va davlat moliyaviy munosabatlarini tashkil etish bo'yicha amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

UO'K: 336 (075.8)
KBK: 65.261.3

ISBN 978-9943-13-951-0

© B.I. Nurmuxamedova,
Sh.K. Xamdamov, 2021
© "IQTISOD-MOLIYA", 2021

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–2909-sonli, 2017-yil 27-iyuldagi “Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–3151-sonli, 2018-yil 4-iyundagi “2018–2019-o‘quv yilida O‘zbekiston Respublikasining Oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga qabul qilish to‘g‘risida”gi PQ–3769-sonli, 2018-yil 5-iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ–3775-sonli qarorlarida va O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Devonining 2018-yil 4-apreldagi 5002–xx-sonli topshirig‘ida belgilangan talablar, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining shu mazmundagi tegishli buyruqlarida belgilangan vazifalar ichida oliy ta’lim yo‘nalish (mutaxassislik)lari o‘quv rejalari fanlarining o‘quv-uslubiy ta’minotini takomillashtirib borish alohida o‘rin tutadi. Fanlarning o‘quv-uslubiy ta’minotining asosini avvalo ushbu fanlarning o‘quv dasturlari asosida tayyorlanadigan darsliklar va o‘quv qo‘llanmalar tashkil etadi va fanlarni o‘zlashtirishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Yangi avlod o‘quv adabiyotlarini yaratish konsepsiyasi talablariga ko‘ra, o‘quv-uslubiy ta’minot materiallari mazmunan va uslubiy jihatdan tizimlashgan bo‘lishi, tarkibiy komponentlarining o‘zaro uzviyligi ta’minlanishi hamda ta’lim oluvchi o‘z qobiliyatini namoyish etishiga yordam berishi zarur.

Davlatning qator ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarini o‘z vaqtida va to‘liq bajarish ma’lum moliyaviy asosni talab etadi. Bu borada davlat moliyasini boshqarish tizimidagi islohotlar doirasida amalga oshirilayotgan qator chora-tadbirlar, davlat moliyasining mamlakat iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotida muhim o‘rin egallab turganligidan

dalolat beradi. Shu ma'noda e'tiboringizga taqdim etilayotgan darslikda davlat moliya munosabatlarini tashkil qilishning huquqiy asoslari, davlat moliyasini boshqarish, tartibga solish masalalari, davlat byudjeti daromadlari va xarajatlari tizimi, davlat moliyasining holatlari va byudjet taqchilligi, turli soha va tarmoqlardagi davlat korxonalarini tashkil qilish asoslari, shuningdek, davlat moliyaviy nazoratini tashkil qilish masalalari fanning o'quv dasturiga kirgan mavzular doirasida bayon qilingan.

Oliy ta'limning bir qator bakalavriat ta'lim yo'nalishlarining talabalari uchun mo'ljallangan ushbu o'quv adabiyotining davlat moliyasi bo'yicha nazariy bilimlarni egallashlarida talabalarga ishonchli yordamchi bo'ladi hamda oliy ta'lim tizimi professor-o'qituvchilari uchun dasturulamal bo'lib xizmat qiladi, deb umid bildiramiz.

Darslikning yaratilishiga hissa qo'shgan barcha professor-o'qituvchilarga hamda taqrizchilar – i.f.d., prof. T.Malikov va DSc, prof. D.Po'latovga o'z minnatdorchiligimizni bildiramiz, shuningdek, darslikning shakli va mazmunini yaxshilashga qaratilgan taklif va tavsiyalarni mamnuniyat bilan qabul qilamiz.

1-BOB. DAVLAT MOLIYASINING MOHIYATI VA AHAMIYATI

1.1. "Davlat moliyasi" faniga kirish: fanning predmeti, tarkibiy tuzilishi, maqsadi va vazifalari

O'zbekiston Respublikasida iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida davlat moliyasi mamlakat moliya tizimida alohida o'rin egallaydi. Davlat moliyasi orqali davlatning qator ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ekologik va boshqa funksiyalarini amalga oshirishning moddiy-moliyaviy asosi yaratiladi, davlat moliyasi mamlakat moliya tizimining barcha bo'g'inlari bilan, byudjet-moliya qonunchiligi bilan tartibga solinadigan muayyan munosabatlarga kirishadi.

O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning ustuvor vazifalarini bajarish, iqtisodiyotni barqaror va mutanosib rivojlantirish, jahon bozorlarida mustahkam o'rin egallash, shular asosida izchil iqtisodiy o'sishni ta'minlash, aholining hayot darajasi va farovonligini yanada oshirish borasidagi vazifalarni to'liq va samarali amalga oshirish sharoitida davlat moliyasining amal qilish mexanizmlarini puxta o'rganish har qachongidan ham dolzarblik kasb etadi. Davlat moliyasi tizimida faoliyat yurituvchi mutaxassislardan davlat moliyaviy munosabatlarini to'g'ri va samarali tashkil etish mexanizmlarini puxta bilish va amaliyotda qo'llay olish talab etiladi. Shu sababli bakalavriat ta'lim yo'nalishlari o'quv rejasiga "Davlat moliyasi" nomli fan kiritilgan bo'lib, ushbu fan dasturi davlat moliyasining mohiyati, iqtisodiyotni tartibga solish va ijtimoiy aiyosatni amalga oshirishdagi ahamiyati, davlat moliyasining tarkibi, davlat moliyasining tashkiliy-huquqiy asoslari, davlat moliya siyosatining asosiy yo'nalishlari, davlat moliyasini boshqarishda davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining vakolatlari, byudjetdan tashqari jamg'armalar faoliyatini tashkil etish mexanizmlari, davlat krediti va davlat qarzlarini boshqarish masalalari, ijtimoiy-iqtisodiy sohalar taraqqiyotida davlat moliyasining ahamiyatini oshirish kabi masalalar qamrab olingan.

Davlat moliyasining mazmuni bevosita davlatning ijtimoiy-iqtisodiy funksiya va majburiyatlaridan kelib chiqadi. Davlatning ijtimoiy-iqtisodiy siyosati tadbirlarini, ijtimoiy soha va tarmoqlarni moliyaviy mablag'lar bilan ta'minlashda davlat moliyaviy resurslari asosiy moliyaviy manba bo'lib xizmat qiladi. Davlat moliyasi barqarorligini ta'minlash, ijtimoiy barqarorlikni qaror topdirish, har bir davrning ustuvor taraqqiyot vazifalarini muvaffaqiyatli bajarish vazifalarining samarali ijrosi davlat moliyasi amal qilishining tegishli samarali mexanizmlarini ishlab chiqish va amalda qo'llash bilan ta'minlanadi.

"Davlat moliyasi" fanini o'zlashtirish uchun o'qitishning ilg'or va zamonaviy usullaridan foydalanish, yangi axborot-pedagogik texnologiyalarni tatbiq qilish muhim ahamiyatga ega. Fanni o'zlashtirishda darslik, o'quv va uslubiy qo'llanmalar, ma'ruza matnlari, tarqatma materiallar, elektron materiallar, keyslardan foydalaniladi.

"Davlat moliyasi" fanining predmetini davlatning markazlashgan pul fondlari va boshqa markazlashgan moliyaviy resurslarining shakllanishi, taqsimlanishi va ishlatilishi bilan bog'liq bo'lgan tashkiliy, huquqiy, iqtisodiy va moliyaviy munosabatlar tashkil qiladi.

Fanni o'qitishdan maqsad – davlat moliya tizimining tuzilishi va faoliyati yuzasidan nazariy va amaliy bilimlarni shakllantirish hamda ularni amaliyotga tatbiq etishdan iborat.

Har bir mamlakatning normal ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy jihatdan rivojlanishi uchun samarali faoliyat yurituvchi davlat zarur. Davlat jamiyatga va mamlakat fuqarolariga zarur tovarlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish, iqtisodiyot va ijtimoiy tarmoqlarning samarali faoliyat qilishi uchun me'yoriy va institutsional tuzilmalarning qonuniy asoslarini yaratish va shu bilan o'z fuqarolarining yashashi va ishlashi uchun moddiy va boshqa shart-sharoitlarni yaratib berish vazifalarini bajaradi. Shu vazifalardan kelib chiqqan holda, davlatning asosiy funksiyalari quyidagilardan iborat (1.1-rasm):



1.1-rasm. **Davlatning asosiy funksiyalari**

Davlat yuqorida bayon qilingan o'z funksiyalarini muvaffaqiyatli bajarishi, shuningdek, mamlakat taraqqiyotining har bir bosqichida dolzarb bo'lgan strategik maqsad va vazifalarni amalga oshirishi uchun mamlakatda yaratilgan moliyaviy resurslarning ma'lum bir qismini o'z qo'lida to'plamog'i obyektiv zaruriyatdir. Aynan shu obyektiv zaruriyatning mavjud bo'lishi *davlat moliyasining* mavjud bo'lishini va amal qilishini taqozo etadi.

1.2. Davlat moliyasining mohiyati va ahamiyati

Davlat moliyasi davlatning markazlashgan pul daromadlarini shakllantirish va ulardan o'z funksiyalarini to'laqonli bajarish maqsadida turli yo'nalishlarda foydalanish bilan bog'liq munosabatlar yig'indisidir. Bu munosabatlarning turli-tumanligi asosida davlat moliyasining bir qator aniq tashkiliy shakllari amal qiladi. Bular:

- davlat byudjeti;
- davlatning byudjetdan tashqari maqsadli jamg'armalari;
- davlat krediti;
- davlat korxonalari moliyasi.

Iqtisodiy mazmuniga ko'ra *davlat moliyasi* – davlat va uning mulkidagi davlat korxonalarining ixtiyorida moliyaviy resurslarning shakllanishi va kengaytirilgan takror ishlab chiqarish, jamiyat

a'zolarining ortib borayotgan ijtimoiy-madaniy ehtiyojlarini qondirish, mamlakat mudofaasi va davlat boshqaruvini ta'minlash bo'yicha xarajatlarning amalga oshirilishi bilan bog'liq bo'lgan, yalpi ichki mahsulotning qiymatini taqsimlash va qayta taqsimlash asosida sodir bo'ladigan pul munosabatlari yig'indisidir.

Davlat moliyasi sohasida sodir bo'ladigan pul munosabatlarining subyektlari sifatida davlat (hukumatning tegishli organlari timsolida), yuridik shaxslar (korxona va tashkilotlar timsolida) va jismoniy shaxslar ishtirok etadilar.



1.2-rasm. **Mamlakat moliya tizimining tarkibiy tuzilishi**[1]

Davlat moliyasining iqtisodiy mazmuni bir xilda emas: uning tarkibida alohida bo'g'inlarni ajratib ko'rsatish mumkin, ularning har biri o'ziga xos funksiyalarni bajaradi. Davlat moliyasining tarkibini tashkil qiluvchi davlat byudjeti, davlatning byudjetdan tashqari

[1] Nurmuxamedova B., Kabirova N. "Moliya", O'quv qo'llanma.T:, "IQTISOD-MOLIYA", 2017. 28-b.

maqsadli jamg‘armalari, davlat krediti, davlat korxonalari moliyasi (1.2-rasm) kabi bo‘g‘inlar turlicha funksional tayinlanishga ega, shu tufayli davlat keng miqyosdagi iqtisodiy-ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatishda, tarmoq va hududiy muammolarni hal qilishda moliyadan foydalanadi.

Shunday qilib, davlat moliyasi – moliyaviy resurslarning markazlashgan jamg‘armalarini shakllantirish, taqsimlash va ulardan foydalanish bilan bog‘liq real pul aylanmasida yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlar majmuidir.

Moliyalashtirishning moddiy asosini pul aylanmasi tashkil qiladi. Real pul aylanmasi – bu qiymat harakatini yuzaga keltiruvchi hamda pul to‘lovlari va hisob-kitoblar oqimlari bilan birga kuzatiluvchi iqtisodiy jarayon. Real pul aylanmasi obyekti sifatida kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni moliyalashtirish manbalari hisoblanuvchi moliyaviy resurslar namoyon bo‘ladi.

Davlat moliyasi iqtisodiyotning davlat va mahalliy sektorlari, ishlab chiqarishni rivojlantirish va ijtimoiy sektorning eng muhim dasturlari, byudjetdan mablag‘ oluvchi tashkilotlar va muassasalar kabilarni markazlashgan manbalar bilan ta’minlashga oid iqtisodiy munosabatlarni ifodalaydi. Ularning faoliyati ijtimoiy yo‘naltirilgan iqtisodiyotni rivojlantirishning umumiy maqsadlariga erishishga qaratilgan[2].

Davlat moliyasi – makroiqtisodiy tartibga solishning kuchli dastagi hisoblanadi. Ushbu dastakdan mohirona foydalangan holda davlat iqtisodiy o‘sish sur’atlarini tartibga solish, milliy valyuta barqarorligini saqlab turish, ssuda foizlari darajasini tartibga solish, konyunkturaviy tebranishlarni silliqlash kabi turli vazifalarni hal qilishi mumkin.

Davlat moliyasi davlat faoliyatining asosini tashkil qiladi, faqat yetarli miqdordagi mablag‘larni tasarruf etgan holdagina davlat iqtisodiyotning alohida tarmoqlarini qo‘llab-quvvatlashi, ijtimoiy siyosatni amalga oshirishi, ilmiy tadqiqotlar o‘tkazishi yoki mudofaani ta’minlashi mumkin.

[2] И.Н.Мысляева Государственные и муниципальные финансы .-М.:Инфра-М, 2013.-С.393.

Davlat moliyasini tashkil etish va tashkiliy tamoyillarini belgilab olish muhim metodologik omil sanalib, bu iqtisodiyotning davlat va mahalliy sektorlarini rivojlantirishga moliyaning ta'sir yo'nalishlarini aniqlash, ularni nazorat qilish mezonlarini ishlab chiqishga imkon beradi.

Davlat va mahalliy moliya axborot oqimlariga tayanadi. Hukumat qarorlarini qabul qilish axborotlar majmuiga asoslangan. Kelib tushayotgan axborotlar tahlili qaror qabul qilish vaqtida ham, uni bajarish jarayonini nazorat qilishda ham muhimdir. Ushbu axborotlar tezkor va statistik hisobotlarda, shartnoma va bitimlarda, hisob-kitob hujjatlari va boshqalarda mujassam bo'ladi.

Davlat moliyasi aniq maqsadli yo'nalishga ega, u jamiyatning alohida qatlamlarining muayyan ijtimoiy-siyosiy manfaatlariga ta'sir qiladi. Biroq o'zining barcha jihatlariga ko'ra u davlat va mahalliy vazifalarni hal etishga yo'naltirilgan.

O'tgan ming yillar davomida inson tafakkuri, insonning yashash maqsadi va rivojlanish tendensiyalari bo'yicha nazariyalar turlicha bo'lgan. Ma'lum bir shaxslar taraqqiyotni umumiy jamiyatda, boshqalari kommunizmda yana kimlardir narigi dunyo masalalarida va boshqalarda ko'rgan. Jamiyat rivojlanishining va inson taraqqiyotining bugungi bosqichida ma'lum bo'ldiki, inson hayotining mohiyati borliqda, taraqqiyotda bo'lib, takror ishlab chiqarishga bog'liqdir.

D. Karnegi aytganidek, har bir normal shaxs sog'lom bo'lishni, ovqatlanishni, uyqu va dam olishni, pul va pulga sotib olinadigan predmetlarni, narigi dunyodagi yaxshi hayotni, his-tuyg'ularni, o'z farzandlarining muvaffaqiyatlarini, o'zining kerakli inson sifatida his etishni va boshqalarni istaydi.

Ma'lumki, har bir shaxs (bola va katta yoshdagi shaxs, ayol va erkak, boy va kambag'al, bog'bon va prezident) obyektiv ravishda beshta guruhga bo'lingan ehtiyojga ega bo'ladi:

1. Moddiy ehtiyoj (oziq-ovqat, kiym-kechak, uy-joy, muhit);
2. Sensor ehtiyoj (his-tuyg'u, turmush qurish);

3. Taraqqiyot ehtiyoji (o'qish, o'rganish);

4. Ma'naviy va madaniy ehtiyojlar (kino, san'at, adabiyot);

5. Ijtimoiy ehtiyojlar (o'zini anglash, boylik, boshqaruvchilik).

Ehtiyojlar ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning xususiyatlari, va jamiyat taraqqiyotiga qarab o'zgarib turadi va har doim mavjud bo'ladi. Ehtiyojlar shaxsning fiziologik organizm sifatida mavjud bo'lishini, inson shajarasining mavjud bo'lishini, o'rab turgan ijtimoiy muhitda o'zini anglashni va takomillashib borishini ta'minlaydi.

Inson ehtiyojining asosiy qismi, ayniqsa fiziologik qismi individual ravishda hayot boyliklarini (oziq-ovqat, uy-joy va boshqalar) mustaqil o'zlashtirish asosida qanoatlantiriladi. Shuningdek, birlamchi ehtiyojga ega bo'lgan shunday ehtiyojlar borki, ular:

birinchidan, har bir shaxsga birdek zarur;

ikkinchidan, bajarilishi shart bo'lgan;

uchinchidan, ma'lum bir to'lovlarni talab etadi.

Ularga avvalo insonning yashash huquqi kiradi. Albatta ushbu ehtiyoj ma'lum bir subyektlar va davlat organlari orqali tartibga solinadi. Ushbu xizmatlar avvalo ma'lum bir to'lovlarni talab etadi. Boshqa tomondan olib qaralganda, inson dunyoga hech qanday boyliksiz va hech nimasiz keladi.

Bozor munosabatlari sharoitida pul barcha tovar va xizmatlar uchun umumiy ekvivalent hisoblanadi. Bu sharoitda inson uchun uning asosiy faoliyatida ko'proq pul topish ilinji yotadi. Pul miqdori qanchalik ko'p bo'lsa, inson ehtiyoji shuncha ko'p va to'liqroq qoplanishiga yordam beradi va uning ustuvorligi ortib boradi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida fuqarolar va jamiyat himoyasi, huquq-tartibotni ta'minlash davlatning mavjud bo'lishini talab etadi. Bundan esa, pul mablag'larini shakllantirish va ularni sarf etish barcha iqtisodiy subyektlar: shaxs, jamoa va davlatning asosiy, obyektiv va birinchi darajali vazifasiga aylanib boradi.

1.3. Davlat moliyasining funksiyalari, ularni davlatning funksiyalari bilan bog‘liqligi

Davlat moliyaviy resurslarining mavjud bo‘lishining eng muhim obyektiv omillaridan biri – bu davlatning o‘z funksiyalarini amalga oshirish uchun muayyan miqdorda moliyaviy mablag‘larga bo‘lgan ehtiyojidan kelib chiqadi. Davlat ixtiyoriga kelib tushadigan va ijtimoiy xizmatlar uchun sarflanadigan moliyaviy resurslar asosan quyidagi yo‘llar bilan: soliqlar, bojxona va davlat bojlari, maqsadli jamg‘armalar, xususiylashtirishdan tushgan mablag‘lar, yerosti tabiiy boyliklarini tasarruf etishdan tushgan mablag‘lar va boshqalardan shakllanadi. Markazlashtirilgan moliyaviy resurslar asosan davlat byudjetida mujassamlashadi. Jamiyat iqtisodiy hayotida aylanmadagi moliyaviy resurslar byudjet tizimi, xo‘jalik subyektlari va aholi ishtirokida va ular orqali harakatda bo‘ladi. Xo‘jalik subyektlarining moliyaviy resurslari ularda ishlab chiqarilgan mahsulotning sotilishi bilan tushgan tushumning taqsimlanishi asosida shakllanadi va birlamchi taqsimotning mahsuli hisoblanadi. Byudjet tizimi aylanmasidagi moliyaviy resurslar iqtisodiy mazmuniga ko‘ra ikkilamchi moliyaviy resurslardir, chunki ular milliy daromadning qayta taqsimlanishi asosida shakllanadi.

Davlat moliyasi davlatning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy funksiyalarni bajarish uchun zarur bo‘lgan pul mablag‘lari bilan ta’minlash uchun mo‘ljallangan mamlakat moliya tizimining muhim sohasidir. Iqtisodiy funksiyasi jihatidan davlat moliyasi – bu yalpi ichki mahsulot qiymati va milliy boylikning bir qismini taqsimlash va qayta taqsimlash bilan bog‘liq bo‘lgan pul munosabatlaridir. Mazkur pul munosabatlarining zarurligi quyidagilar bilan bog‘liq:

1) davlat va uning korxonalari tasarrufida moliyaviy resurslarni shakllantirish;

2) davlat mablag‘larini ishlab chiqarishni kengaytirish xarajatlari uchun sarflash;

3) o‘sib borayotgan ijtimoiy-madaniy ehtiyojlar, davlat

boshqaruvi, mudofaasi, milliy xavfsizligi, tabiat muhofazasi kabi umumdavlat va umumjamiyat ehtiyojlarini qondirish.

Davlat moliyasining mohiyati uning iqtisodiy kategoriya sifatidagi funksiyalarida namoyon bo'ladi. Turli davr va turli maktab iqtisodchilari moliyaning funksiyalarini yoritishga turlicha yondashadilar. Turli davrda va turli iqtisodiy maktab vakillari tomonidan yaratilgan darslik va ilmiy adabiyotlarda moliya bajaradigan funksiyalarning turlicha talqini keltiriladi. Ko'pchilik iqtisodchi-olimlar o'rtasida moliyaning funksiyalari haqidagi munozaralar hali-hanuz davom etmoqda, ushbu mavzu moliya yo'nalishida olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarning diqqat markazida bo'lib kelmoqda. Moliyaning amalda namoyon bo'lish shakllarini o'rgangan hamda ko'pchilik iqtisodchi-olimlarning fikriga qo'shilgan holda, davlat moliyasi ham, "moliya" umumiqtisodiy kategoriyasining bir qismi sifatida quyidagi asosiy *funksiyalarni* bajaradi, deyishga asos bor:

1. Taqsimlash.
2. Nazorat.

1) Taqsimlash funksiyasi moliyaning bosh va asosiy funksiyasidir. Moliya yordamida amalga oshiriladigan taqsimlash jarayoni murakkab va ko'p qirrali jarayondir. Moliya YaIMni taqsimlashning turli bosqichlariga xizmat qilib, uning birlamchi taqsimlanishida va qayta taqsimlanishida ishtirok etadi. Avvalo, moliyaning taqsimlash funksiyasi milliy daromadning birlamchi taqsimlanishida namoyon bo'ladi, bunda milliy daromadning qiymati moddiy xarajatlar qiymati, ish haqi, foyda kabi tarkibiy qismlarga ajraladi. Bu taqsimot *birlamchi taqsimot* deb ataladi. Biroq, birlamchi taqsimotda shakllangan daromadlar milliy xo'jalikning ustuvor tarmoqlarini rivojlantirish, mamlakat mudofaa qudratini ta'minlash, aholining moddiy va madaniy ehtiyojlarini qondirish uchun ijtimoiy pul fondlarining shakllanishini ta'minlay olmaydi. Buning uchun milliy daromad qiymatini qayta taqsimlash zarur bo'ladi, bu zaruriyat quyidagilar bilan bog'liq:

– xo'jalik yurituvchi subyektlar daromadlari va jamg'armalaridan samarali va oqilona foydalanish maqsadida mablag'larni tarmoqlararo va hududlararo qayta taqsimlash zarurligi;

– ishlab chiqarish sohasi bilan bir qatorda, noishlab chiqarish sohasining (maorif, sog'liqni saqlash, ijtimoiy sug'urta va ijtimoiy ta'minot, boshqaruv va h.k.) mavjudligi va uning faoliyatini mablag' bilan ta'minlash zarurligi;

– aholining turli ijtimoiy qatlamlari o'rtasida daromadlarni qayta taqsimlashning zarurligi.

Moliya yordamida amalga oshiriladigan YaIM va milliy daromadni taqsimlash va qayta taqsimlashning pirovard maqsadi ishlab chiqaruvchi kuchlarni rivojlantirish, iqtisodiyotning bozor tarkibiy tuzilmasini shakllantirish, davlatning o'z funksiyalarini to'laqonli bajarishi uchun moddiy va moliyaviy asosni yaratish va mustahkamlash, aholining keng qatlamlarini yashash va ishlash sharoitlarini yuqori sifatli bo'lishini ta'minlashdan iborat.

Umuman, moliyaning taqsimlash funksiyasi:

– xo'jalik subyektlari, aholi, davlat va mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlari darajasida maqsadli pul mablag'lari fondlarini shakllantirishga;

– xo'jalik ichida, tarmoq ichida, tarmoqlararo, hududlararo, shuningdek, ishlab chiqarish va noishlab chiqarish sohalari, aholi ijtimoiy guruhlari o'rtasida qayta taqsimlashni amalga oshirishga;

– xo'jalik subyektlari va davlat darajasida zaxiralar yaratishga, fuqarolar tomonidan jamg'arishni amalga oshirishga imkoniyat va shart-sharoit yaratib beradi.

2) Moliyaning nazorat funksiyasi YaIMning tegishli tartibda taqsimlanishi va taqsimlangan mablag'larning maqsadga muvofiq sarflanishi ustidan nazoratni amalga oshirish orqali namoyon bo'ladi. Shu ma'noda, moliyaning taqsimlash va nazorat funksiyalari yagona iqtisodiy jarayonning ikki tomonidir, ya'ni moliya taqsimlash funksiyasini bajarayotganda uning nazorat funksiyasi ham ishga

tushadi. Moliyaning har ikkala funksiyasining bir vaqtda amal qilishi uning mohiyatini yanada to'laroq ochib beradi. Chunki moliya taqsimlash jarayonlaridagi qiymat proporsiyalarini miqdor jihatdan aks ettira olish xususiyatiga ega.

Moliyaning nazorat funksiyasini asosini moliyaviy resurslarning harakati tashkil qiladi. Moliya takror ishlab chiqarish jarayonlarining barcha soha va bosqichlarida amal qilar ekan, jamiyat tomonidan YaIMni ishlab chiqarish, taqsimlash va iste'mol qilish ustidan nazorat qilishning universal quroli bo'lib xizmat qiladi.

Moliyaning nazorat funksiyasi orqali:

– markazlashgan va markazlashmagan pul fondlarining to'g'ri va o'z vaqtida shakllanishi nazorat qilinadi;

– turli maqsadlarga mo'ljallangan pul fondlaridan samarali va oqilona foydalanish ustidan nazorat qilinadi;

– davlat byudjetiga, davlatning boshqa maqsadli fondlariga ajratmalar va tushumlarning to'liq va o'z vaqtida tushishi nazorat qilinadi;

– xo'jalik subyektlari moliyaviy resurslarining shakllanishi, taqsimlanishi va ishlatilishi nazorat qilinadi va hokazo.

Moliyaning nazorat funksiyasini amalga oshirish quroli *moliyaviy axborotdir*. U *moliyaviy ko'rsatkichlarda* o'z aksini topadi. Moliyaviy ko'rsatkichlar esa buxgalteriya, statistika va operativ hisobotlarda aks ettiriladi. Moliyaviy ko'rsatkichlarga asoslangan moliyaviy axborot to'g'ri va haqqoniy bo'lgandagina takror ishlab chiqarish jarayonlarini o'zgartirish, sifat jihatdan yaxshilashga qaratilgan asoslangan qarorlarni qabul qilish mumkin. Buning uchun xo'jalik yuritishning barcha sohalarida va bosqichlarida *moliyaviy intizomga* amal qilish kerak. Moliyaviy intizom bu moliyaviy xo'jalik yuritishning belgilangan me'yorlar va qoidalariga rioya qilishning, hamkorlar, moliya-kredit tizimi va davlat oldidagi moliyaviy majburiyatlarni bajarishning barcha korxonalar, tashkilotlar, firmalar va alohida mas'ul shaxslar uchun majburiy tartibidir.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Davlat moliyasining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati nimalarda namoyon bo'ladi?
2. Davlat moliyasi funksiyalarining amal qilishini misollar asosida ta'riflab bering.
3. Davlat moliyasi mamlakat moliya tizimida qanday o'rin egallaydi, uning boshqa bo'g'inlari bilan qanday munosabatlarga kirishadi?

Mavzu yuzasidan topshiriqlar

1. Turli iqtisodiy maktab vakillari tomonidan "Davlat moliyasi" tushunchasiga berilgan ta'riflarni aniqlang, ularning davlat moliyasining shakllanishi va rivojlanishi bilan bog'liq ma'lumotlarini solishtiring.
2. Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda yalpi ichki mahsulotning davlat moliyasi orqali qayta taqsimlash nisbatlarini xarakterlovchi ma'lumotlarni to'plang, solishtiring va taqsimlash nisbatlarining turlicha bo'lish sabablarini tushuntirib bering.

2-BOB. DAVLAT MOLIYASI TO‘G‘RISIDAGI NAZARIYALAR

2.1. Turli davr va iqtisodiy maktablar namoyandalarining davlat moliyasiga oid nazariyalari

Iqtisodiy fan o‘z taraqqiyotida uzoq yo‘lni bosib o‘tdi, natijada turli xil ilmiy yo‘nalishlar shakllandi. Ularning tashqi ko‘rinishi jamiyat rivojlanishining obyektiv sharoitlariga mos keldi va o‘z davrlari uchun dolzarb bo‘lgan muammolarni hal qildi. Mamlakatning markazlashtirilgan pul fondini shakllantirish va undan foydalanish shakllarini belgilab bergan davlat moliya nazariyalari olimlar tomonidan ishlab chiqilgan nazariy tushunchalarning bir qismi edi.

Xorijiy iqtisodchilarni moliyaga oid nazariyalarining birinchi guruhi siyosiy iqtisod klassiklarining konsepsiyalari bilan izohlanadi. Kapitalistik taraqqiyotning dastlabki bosqichidayoq barcha iqtisodiy nazariyalarda moliyaviy konsepsiyalar alohida o‘ringa ega bo‘lgan. Davlat xarajatlari, soliqlar, kredit va byudjetning iqtisodiyotga ta’siri masalalari siyosiy iqtisod klassiklari (Buyuk Britaniyada – U.Petti, A.Smit va D.Rikardo, Fransiyada – P.Baugilber) tomonidan tadqiq qilingan.

Tarixiy jihatdan birinchi iqtisodiy nufuzli maktab siyosatning klassik yo‘nalishi bo‘lib, uning asosiy g‘oyalari qator zamonaviy tushunchalarda qo‘llaniladi. Ushbu tendensiyaning asoschisi A.Smit (1723-1790) hisoblanadi. U o‘zining “Xalqlar boyligining tabiati va sabablarini o‘rganish” (1776) fundamental ishida davlat moliyasiga oid alohida qoidalarni ishlab chiqdi. Uning fikriga ko‘ra, davlat xarajatlari kapital to‘plash va milliy daromad o‘sishi imkoniyatlarini kamaytiradi. Bundan uning soliqlarga bo‘lgan salbiy munosabati yuzaga keldi. A.Smit yaratilgan qiymatlarni samarasiz sarf qiladigan va shu bilan ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishini cheklaydigan davlat xarajatlarini kamaytirish kerak degan xulosaga keldi. Ushbu xulosa A.Smitning erkin muvozanatni bozor muvozanatini saqlashdagi rolidan kelib chiqqan. Klassik siyosiy

O‘zDJU QIRQ 336264

iqtisodiyot konsepsiyasining asosiy g'oyasi kapital to'plash uchun iqtisodiy jihatdan qulay sharoitlarni ta'minlashdan iborat. A.Smit davlat xarajatlari siyosatini tanqid qilib, ularning ma'lum bir ulushi zarurligini tan oldi. Chunki ular ishlab chiqarishning umumiy sharoitlarini himoya qilish uchun mo'ljallangan.

A.Smit nazariyasida soliqlarga katta e'tibor berilgan. U soliq solishni maqsadga muvofiq tashkil etishning bugungi kunda ham ahamiyatli bo'lgan to'rtta asosiy prinsipini ishlab chiqdi:

– adolat prinsipi – soliqlar to'lovchilarning qobiliyatlari va kuchlariga mos ravishda to'lanadi;

– aniqlik prinsipi – soliqlar miqdori va ularni to'lash muddati aniq belgilanishi va to'lovchiga oldindan ma'lum bo'lishi kerak;

– qulaylik prinsipi – soliqlarni undirilish vaqti soliq to'lovchi uchun qulay bo'lmog'i zarur;

– tejamkorlik prinsipi – soliqlarni yig'ishda minimal xarajatlar ta'minlanishi kerak.

A.Smit soliqlarning turlarini tahlil qilib, ularga jamiyatning iqtisodiy rivojlanishi nuqtayi nazaridan baho berdi. Iste'mol tovarlariga bilvosita soliqlar ular uchun narxlarning oshishiga olib keldi, natijada ishlab chiqarish xarajatlari oshdi, ularni sotish va iste'mol qilish kamayadi. Ish haqiga solinadigan soliqni baholagan holda, u buni iqtisodiyot uchun zararli deb atadi, chunki ishchining daromadiga soliq solish tadbirkorning ilgarigi kapitalini ko'payishiga yoki ishchining sotib olish qobiliyatining pasayishiga olib keladi, bu esa bozor talabiga salbiy ta'sir qiladi.

A.Smit jamiyatning iqtisodiy taraqqiyoti nuqtayi nazaridan ularga baho bergan. Iste'mol tovarlariga nisbatan o'rnatilgan egri (bilvosita) soliqlar ular bahosining oshishiga olib kelgan. Buning natijasida ishlab chiqarish xarajatlari o'sgan va oxir-oqibatda esa, ularni sotish kamaygan va iste'mol qilish qisqargan. Ish haqidan olinadigan soliqni baholab, bu soliqni iqtisodiyot uchun xonavayronlik keltiruvchi deb hisoblagan. Chunki ishchi daromadining soliqqa tortilishi tadbirkor avanslashtirilgan kapitalining oshishiga yoki bozor talabiga salbiy

ta'sir ko'rsatuvchi ishchi kuchi sotib olish qobiliyatining pasayishiga olib keladi.

Shunday qilib, A.Smitning soliq konsepsiyasi yagona maqsadga – kapitalning jamg'arilishini rag'batlantirish va ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishini tezlashtirishga qaratilgan edi[3].

2.2. Siyosiy iqtisod klassiklari konsepsiyalarining moliyaviy jihatlari

Siyosiy iqtisod klassigi D.Rikardo (1772-1823) foyda stavkasining erkin raqobat sharoitida pasayish tendensiyasini ochib berdi, yer rentasi shakllarining to'liq nazariyasini ishlab chiqdi. Aynan shunday qarashlarni D.Rikardo o'zining "Siyosiy iqtisod va soliqqa tortish asoslari" asarida himoya qilgan. Uning fikricha, barcha soliqlar muqarrar ravishda kapitalga ham, daromadga ham ta'sir qiladi. Narxlarning oshishiga olib keladigan asosiy ehtiyojlar uchun soliqlar iste'molchiga ular iste'mol qiladigan tovarlar miqdoridan ancha yuqori darajada tushadi. D.Rikardoning fikriga ko'ra, tovarlarga va ish haqiga har qanday soliq eng kam yashash sharoitlariga bog'liq bo'lgan ish haqining oshishiga olib keladi. Natijada, foydaning pasayishi kuzatiladi, ya'ni, soliqlarni almashtirish amalga oshiriladi. Shu munosabat bilan u umuman soliqlarni "katta yovuzlik" deb xulosa qildi. U soliq o'sishi yoki davlat xarajatlari oshishi bilan odamlar iste'moli kamayadi va bu oxir-oqibat ishlab chiqarishga ta'sir qiladi deb hisobladi, shuning uchun kapital to'plashni rag'batlantirish hukumatning vazifasidir, dedi. Mamlakatning kelajakdagi ishlab chiqarish hajmini pasaytirmaslik uchun u foyda solig'ini to'lamasligi kerakligini aytib o'tdi.

D.Rikardo A.Smitning mutlaq ustunliklari nazariyasini ishlab chiqdi va tijorat ikki mamlakatning hattoki ularning hech biri aniq tovarlarni ishlab chiqarishda mutlaq ustunlikka ega bo'lmasa ham, har biri uchun foydali ekanligini ko'rsatib o'tdi.

[3] Malikov T.S., Olimjonov O.O. Moliya. Darslik. – T.: "IQTISOD-MOLIYA". - 2020. 186-b.

D.Rikardo iqtisodiy liberalizm konsepsiyasining tarafdori bo'lib, u iqtisodiyotga davlatning aralashuviga yo'l qo'ylmasligining, erkin tadbirkorlik va erkin savdoning tarafdori edi.

Klassik burjua siyosiy iqtisodi davlat xarajatlari va soliqlarga nisbatan rasmiy iqtisodiy siyosatning konsepsiyasini, ko'p jihatdan, aniqlab bergan edi. XVIII asrning oxiri va XIX asrning boshlarida ilg'or mamlakatlarning moliyaviy siyosati, yangi sinf – burjuaziyaning manfaatlarini ifoda etib, mamlakatning xo'jalik hayotiga davlatning aralashmasligi prinsipini e'lon qilgan edi. Buning oqibatida davlat xarajatlari va foydani soliqqa tortish biroz qisqardi.

XIX asrda ishlab chiqarishning yuqori sur'atlarda rivojlanishi mehnat va kapital o'rtasidagi ziddiyatlarning keskinlashuviga olib keldi. Xuddi shu davrning o'zida turli sotsial guruhlarning manfaatlarini hisobga olgan holda o'z siyosatini o'zgartirishga hukumatni chaqiruvchi iqtisodchilarning tovushlari eshitila boshlandi[4].

Shveytsariyalik iqtisodchi Jak Sismondi (1773-1842) A.Smitning g'oyalariga soliq solinmaydigan eng kam ish haqi darajasini belgilash prinsipini qo'shdi. J.Sismondi proteksionizm siyosatiga qarshi o'laroq, mayda tovar ishlab chiqarish xo'jaligini qo'llab-quvvatlash g'oyasini ilgari surdi, uning fikricha, proteksionizm siyosati millatga zarar keltiradi. Milliy ishlab chiqaruvchi kuchlarni rivojlantirish uchun sharoit yaratadigan proteksionizm siyosatida ijobiy tomonlarni ko'rmagan J.Sismondi mamlakat milliy iqtisodiyotida tobora kattaroq ahamiyat kasb etadigan va rivojlanayotgan katta kapitalning ahamiyatini kamsitdi.

Ingliz olimi Jon Styuart Mill (1806-1873) mamlakatda ijtimoiy keskinlikni yumshatish maqsadida daromadlarni taqsimlashni o'zgartirish taklifini bildirdi. Boylikni yanada teng taqsimlash uchun u ratsional soliq tizimining yangi tamoyillarini ishlab chiqdi. J.Sismondi singari u hayot kechirish uchun daromadni soliqqa tortiladigan va soliqqa tortilmaydigan minimal miqdorni joriy etish g'oyasiga egalik

[4] Malikov T.S., Olimjonov O.O. Moliya. Darslik. – T.: "IQTISOD-MOLIYA". - 2020. 186-b.

qildi, bu esa hayot kechirish uchun zarur bo'lgan daromadga teng bo'lishi kerak deb hisobladi.

J.S.Mill "xizmatlarning soliq nazariyasini" batafsil ishlab chiqdi, unga ko'ra har bir shaxs davlatga undan olgan yordami uchun o'z daromadining bir qismini berishi kerak hisoblandi. U soliqlarni davlat xarajatlari bilan chambarchas bog'lab, ular o'rtasida qat'iy aloqalar mavjudligini ta'kidlagan. J.S.Mill davlat bozor tizimi tomonidan hal etilmaydigan muammolarni: ilm-fan, infratuzilma va ijtimoiy ta'minot tizimini rivojlantirishni o'z zimmasiga olishi kerak deb hisoblar edi.

Bu holatlar keyinroq shved iqtisodchilari K.Viksel va E.Lindal tomonidan yanada rivojlantirildi. Bizning davrimizda esa bu nazariya amerikalik iqtisodchi-olim P.Samuelson qarashlarining shakllanishiga o'z ta'sirini ko'rsatdi. U soliqlarning o'sishi davlat xizmatlariga bo'lgan ehtiyojning o'sishi bilan kuzatilishi kerak, deb hisobladi.

Yangi tarixiy maktab konsepsiyalari. 1870-yillarda yangi tarixiy maktab paydo bo'ldiki, uning boshlanishi nemis olimlarining (G.Shmoller, M.Veber, A.Vagner va boshqalar) nomlari bilan bog'liq. Davlat moliyasini tadqiq qilish bilan ko'proq A.Vagner shug'ullanib, u davlat yordamida kapitalni jamg'arish taklifini ilgari surdi. Davlat faoliyatining (ma'muriy, ijtimoiy-madaniy va investitsion) ko'lamini kengaytirish nuqtayi nazaridan muammoni hal etishda yondashib, u soliqqa tortishning to'qqiz prinsipini ishlab chiqdi va ularni quyidagi guruhlarga birlashtirdi:

- yetarlilik va harakatchanlik;
- kerak bo'ladigan manba va obyektni tanlash;
- eng umumiylik va tenglik;
- aniqlik, qulaylik, arzonlik.

XIX asrning o'rtalaridan deyarli oxirigacha moliya faniga marksistik ta'limot ta'sir ko'rsatib keldi. Kapitalizm sharoitida moliyaning mohiyati, ayrim moliyaviy toifalarning o'rni va ahamiyati K.Marks (1813-1883) va F.Engels (1820-1895) tomonidan ishlab chiqildi. Ularda davlat moliya masalalariga bag'ishlangan yirik maxsus asarlar mavjud emas, lekin kapitalizmning ko'plab moliyaviy

muammolari va XIX asrning o'rtalaridagi ingliz byudjetlari, 1840-yillardagi pruss va fransuz byudjetlarining tavsifiga bag'ishlangan, ularning bir qator yirik asarlarida ("Siyosiy iqtisod tanqidi", "Kapital") va maqolalarida aks etgan. K.Marks monopolistik kapitalizmgacha bo'lgan davrdagi davlat byudjetlarining sinfiy xususiyatini, davlat xarajatlarining samarasiz va xalqqa qarshi xususiyatini ochib berdi va davlat ssudalari bilan soliqlar o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsatib o'tdi. Dastlabki kapitalni to'plash usullarini o'rganib chiqqan K.Marks haqli ravishda ularga birinchi navbatda moliyaviy usullarni – davlat xarajatlari, davlat krediti va soliq tizimini kiritgan. Aynan ular kapitalistik ishlab chiqarishning jadal rivojlanishi uchun moddiy zaruriyatlarni yaratib, kapital to'planishining tez o'sishini ta'minladi. K.Marks va F.Engels eng katta moliyaviy toifaga – soliqlarga katta e'tibor berishgan. Ularning mohiyatini o'rganib, ular doimiy ravishda barcha mehnatkashlar uchun soliqlar qo'shimcha ekspluatatsiya vositasi ekanligini ta'kidladilar. Soliqlarga baho berishda K.Marks soliqlarning progressiv shakllarini yoqlab, to'g'ridan to'g'ri va birinchi navbatda daromad solig'iga ustunlik berdi. Eng og'ir bo'lgan bilvosita soliqlarni "kekirdakdan oladigan" progressiv soliqlar deb atadi.

Davlat byudjeti mohiyatini tahlil qilib, K.Marks byudjetning asosiy masalasi bo'lgan xarajatlar va daromadlarning nisbati, ya'ni byudjetning balansliligi (profitsit yoki defitsit holati) masalasidir, deb e'tirof etdi. Aynan ana shu qoldiq soliqqa tortishning qisqarishi yoki kengayishini aniqlab beradi.

Biroq moliyaviy siyosat (davlat xarajatlari va proteksionizm) ta'siri ostida amalga oshiriladigan kapital jamg'arilishining oshib borishi bilan ishchilar sinfining ahvoli og'irlashib boradi, degan K.Marksning tasdig'i e'tirozga muhtojdir. U foyda, foiz, renta va ish haqi o'rtasidagi nisbatning davlat va uning moliyasi yordamida o'zgartirilishi imkoniyatini inkor etgan edi. Ortiqcha ishlab chiqarishning siklik tanazzullari tahlilida davlatning iqtisodiy, shu

jumladan, moliyaviy siyosati yordamida ularning kuchsizlanishi mumkinligiga yo'l qo'ymadi[5].

XIX asrning oxiri va XX asrning boshlari foydalilikning cheklanganligi nazariyasining tarqalganligi bilan tavsiflanadi. Bu nazariya marksistik ta'limotga qarshi aks ta'sir samarasi o'laroq maydonga kelgan edi. Bu nazariya moliya sohasiga ham aloqadorlik kasb etdi. Uning vakillari, o'z baholashlaridagi katta farqlarning mavjud bo'lishiga qaramasdan, mehnatning qiymat nazariyasiga qarshi chiqdilar va uni sotib oluvchilarning xohish-istaklari yordamida aniqlanadigan baholar tahlili bilan almashtirdilar. Muhim moliyaviy kategoriyalar bo'lgan davlat xarajatlari va soliqlar ular tomonidan davlat va xususiy shaxslar o'rtasidagi ko'p sonli individual bitimlar sifatida talqin qilindi. Bir vaqtning o'zida, ularning fikricha, davlat xizmatlarining cheklangan foydaliligi soliqlarning cheklangan foydaliligi bilan hamnafas bo'lmog'i lozim edi.

Birinchi jahon urushiga qadar iqtisodiy fan, asosan, tadbirkorlik erkinligi prinsipiga tayangan holda, davlat va uning moliyasini mamlakat iqtisodiyotiga aralashuviga nisbatan qarshi turdi. Ishlab chiqarish va taqsimlashni davlat tomonidan tartibga solish faqat Birinchi jahon urushi yillaridanoq amalga oshirila boshlandi. Jahon iqtisodiy tanazzuli yillariga (1929-1933) kelib bu jarayon yanada kuchaydi[6].

2.3. Keyns moliyaviy konsepsiyasining asosiy g'oyasi

Keynschilik – iqtisodiyot nazariyasidagi yetakchi yo'nalishlardan biri bo'lib, jamiyat hayotida bir qator makroiqtisodiy hodisalarning o'zaro ta'sir ko'rsatishini tahlil qilish asosida bozor xo'jaligi faoliyati mexanizmlarini sharhlaydi va davlatning iqtisodiyotga faol aralashuvi amaliyotini asoslab beradi. Ushbu nazariya XX asrning 30-yillarida paydo bo'ldi. Asoschisi ingliz iqtisodchisi J.M.Keyns. Keynsning

[5] Malikov T.S., Olimjonov O.O. Moliya. Darslik. – T.: "IQTISOD-MOLIYA". - 2020.189-b.
[6] O'sha yerda. 189-190 b.

asosiy tamoyillari uning "Bandlikning umumiy nazariyasi, foiz va pullar" (1936) asarida bayon etilgan.

Ingliz iqtisodchisi J.M.Keynsning (1883-1946) iqtisodiy nazariyasi davlat tomonidan tartibga solishda kapitalistik ishlab chiqarishning ehtiyoji sifatida vujudga keldi hamda u moliyaviy konsepsiyani shakllantirishga va moliyaviy siyosatni ishlab chiqishga juda katta ta'sir ko'rsatdi.

Keyns o'zining "bandlik nazariyasi" asosida iqtisodiyotni tartibga solish tamoyillarini ilgari surdi va davlatning inqirozga qarshi iqtisodiy siyosati dasturini ishlab chiqdi. Ushbu nazariyada muvozanat holatida aholining ish bilan ta'minlanishi, bandlik darajasi umumiy taklif, iste'molga moyillik va investitsiya hajmiga bog'liqligi ta'kidlandi. Bandlik darajasi iste'molga moyillik ortgan sharoitlarda, investitsiyalar hajmi ko'payganda ham ro'y beradi, iste'mol tovarlari va ishlab chiqarish vositalariga talabning ortishi taklifning o'sishiga olib keladi, o'z navbatida, o'sib boruvchi taklif yanada bandlik ortishini ta'minlaydi. Mehnat taklifi unga bo'lgan talabdan oshib ketsa ishsizlik kelib chiqishini ta'kidlaydi. Uning fikricha, ishsizlikning bo'lishi bozor iqtisodiy tizimining o'zida mavjud. Ishsizlik tufayli nisbatan ortiqcha ish kuchining bir qismi ishsizlar qatoriga siqib chiqariladi va tizimda yana muvozanat tiklanadi. Bunday sharoitda davlat iste'mol va investitsion tovarlar xaridori sifatida iqtisodiyotdagi umumiy talabga ta'sir etishi mumkin. Fiskal yoki kredit-pul siyosati, ayniqsa, soliq tizimi orqali umumiy talabni oshirish mumkin. Demak, Keyns nazariyasiga ko'ra, to'la bo'lmagan bandlik sharoitida ham umumiy muvozanat saqlanishi mumkin.

Keyns davlat tomonidan iqtisodiy jarayonlarni tartibga solishning samaradorligi investitsiyalar uchun mablag'lar topish, imkoni boricha aholini ish bilan to'la band qilish va foiz normasini qat'iy belgilashga bog'liq bo'lishini ta'kidlaydi. U foiz stavkalari qanchalik past bo'lsa, investitsiyalarga rag'bat shunchalik ko'payadi, investitsion talab oshadi, bandlik o'sadi, ishsizlik kamayib boradi deb hisoblaydi. Ishlab chiqarish omillari (kapital, mehnat, yer) qanchalik to'la jalb etilsa,

amalda o'sib boruvchi narxlar yuzaga keladi (pulning miqdoriy nazariyasi). Resurslar to'liq foydalanilmagan paytda ham narxlarning mo'tadilligi saqlanishi mumkin deb hisoblaydi.

J.M.Keyns soliqlar va ularning asosiy "psixologik qonun"ga ta'siri masalalariga alohida ahamiyat bergan. Ana shu "qonun"ga muvofiq, insonlar o'z iste'mollarini oshirib borishga moyildirlar, lekin insonlarning bu moyilligi ularning daromadlarini oshirishga bo'lgan moyilligidan ustun emas. Bu narsa, o'z navbatida, tovarlarga bo'lgan talabning pasayib ketishiga va ishlab chiqarishning qisqarishiga olib keladi. Davlat ana shunday "qonun"ning paydo bo'lishiga to'sqinlik qilishi hamda soliq tushumlari, qarzlar hisobidan o'z xarajatlarini oshirishi yoki turli usullar orqali xususiy investitsiyalarni rag'batlantirish yo'li bilan yetmayotgan talabni to'ldirishi kerak[7]. Keynsning fikricha, davlatning asosiy vazifasi daromadlar ko'payishiga olib keladigan "samarali talab"ning yuqori hajmini ta'minlashdan iborat.

Keyns ommaviy ishsizlikning muqarrarligini tan olmadi va milliy miqyosda tartibga solinadigan milliy iqtisodiyotning mumkin va zarurligiga ishondi. U makroiqtisodiy o'zgaruvchanlikning umumiy miqdordagi miqdoriy aloqalarini – yalpi investitsiyalar va milliy daromadlarni o'rganib chiqdi; investitsiya va ish bilan ta'minlash; milliy daromad, iste'mol va jamg'arma; muomaladagi jami pul miqdori, narxlar darajasi, ish haqi, daromad va foizlar. Keyns mavjud bo'lgan iqtisodiy tizim ichida hukumat tomonidan nazorat qilinishi yoki boshqarilishi mumkin bo'lgan o'zgaruvchan narsalarni topishga harakat qildi. U tabiatan mumkin bo'lgan va iqtisodiy prognozlash uchun zarur bo'lgan "kutilgan toifalar"dan keng foydalangan.

Shunday qilib, J.M.Keyns ishlab chiqarishning monopollashuvi sharoitida iqtisodiyotni tartibga solishga yo'naltirilgan va prinsipial jihatidan yangi bo'lgan moliya nazariyasini ishlab chiqqan.

[7] Malikov T.S., Olimjonov O.O. Moliya. Darslik. – T.: "IQTISOD-MOLIYA". - 2020. 190-b.

1970-yillarga qadar sanoati taraqqiy etgan ko'pgina mamlakatlar moliyaviy siyosatining asosini tartibga solishni keynscha nazariyaning boshlang'ich nuqtalari tashkil etdi[8].

2.4. Neokeynschilar nazariyalarining moliyaviy jihatlari

50–60-yillarda J.M.Keynsning izdoshlari uning nazariyasiga dinamik elementni kiritdilar, bu esa iqtisodiy o'sish nazariyasini yaratishga imkon berdi. Unda ko'plab mamlakatlarning iqtisodchilari tomonidan ishlab chiqilgan moliyaviy konsepsiya muhim o'rin egallagan (AQSh – A. Xansen, S.Xarris, Buyuk Britaniya – R.Harrod, A.Ilersik, A.Tovus; Fransiya – F.Perro, Germaniya – F.Nemark va boshqalar). Ular fiskal antisiklik nazariyani yaratishni yakunladilar. Ushbu nazariyaning mohiyati muvozanatli iqtisodiy rivojlanish uchun davlat daromadlari va xarajatlari o'zgarishiga bog'liq edi. Neokeynschilar "defitsitli moliyalashtirish" g'oyasini samarali talabga erishish usuli sifatida qo'llab-quvvatladilar. Ular davlat qarzining o'sishidan qat'i nazar, katta davlat xarajatlari zarurligini ta'kidladilar.

Biroq, surunkali holatga kelayotgan byudjetning katta kamomadlari ma'lum bir guruh iqtisodchilarni, shu jumladan Stokgolm maktabi deb atalmish (E.Lindahl, G.Mirdal va boshqalarni) byudjet muammosini yangi usulda hal qilishga majbur qildi. Ushbu maktab "byudjetning siklik balansliligi" nazariyasini, ya'ni daromadlar va xarajatlarni iqtisodiy siklga moslashtirishni taklif qildi. Davlat inqiroz paytida paydo bo'lgan kamomadlarni iqtisodiy tiklanish davrida hosil bo'lgan qo'shimcha tushumlar bilan qoplashi kerak. Ushbu tavsiyalardan so'ng bir qator kapitalistik mamlakatlar hukumatlari siklik tartibga solish uchun maxsus pul fondlarini yaratdilar. Bunday fondlarning mablag'lari iqtisodiy tiklanish davrida to'ldirilib, ishlab chiqarishning iqtisodiy pasayishi boshlangan davrda ishlatilgan.

[8] O'sha yerda 191-b.

Neokeynschilarning iqtisodiyotni tartibga solish va rag'batlantirish uchun davlat byudjetidan faolroq foydalanishga bo'lgan talablari "soliq stabilizatorlari"ning Keynscha qarashlariga asoslangan "o'rnatilgan fiskal stabilizator" nazariyasida o'z aksini topdi.

Keynsning fikriga ko'ra, "soliq stabilizatorlari" avtomatik ravishda harakat qilib, davriy tebranishlarni to'g'rilab, ularni yumshatishi va biroz moslashuvchanlikni ta'minlashi kerak. Neokeynsliklar ularni "boshqariladigan stabilizatorlar", ya'ni yangi iqtisodiy sharoitlarga muvofiq davlatning doimiy ravishda o'zgarib turadigan soliq choralari bilan to'ldiradilar.

2.5. Yangi klassik nazariyalarning moliyaviy jihatlari

Ikkinchi Jahon urushidan keyingi yillarda yangi keynschilarning nazariyalari bilan bir qatorda davlat tomonidan tartibga solishni cheklash orqali erkin tadbirkorlik g'oyalarini targ'ib qiluvchi yangi mumtoz nazariyalar ham jonlandi. Yangi mumtoz maktabning nazariyotchilari (AQShda R.Slou, J.Kenrik; Buyuk Britaniyada – A.Robbins, J.Mid) iqtisodiyotga davlatning aralashmasligi asosiy prinsipini himoya qilib, bir vaqtning o'zida maorif va fanga sarf qilinadigan xarajatlar salmog'ini oshirish orqali ularning tarkibiy tuzilmasini o'zgartirib, davlat xarajatlari umumiy hajmining qisqartirilishini yoqlab chiqdilar. Shuningdek, "inson kapitaliga investitsiyalar"ga alohida e'tibor qaratildi. Bir vaqtning o'zida, soliqlarning darajasini pasaytirish taklif etildi va defitsitsiz byudjetga erishilishi talab qilindi[9].

Takror ishlab chiqarish sharoitlarining yomonlashuvi va inflyatsiya tendensiyalarining kuchayishi bilan iqtisodiy qiyinchiliklar uchun javobgarlik yuklatilgan keynschilik va yangi keynschilik qoidalarini tanqid qilish ham kuchaya bordi. Ana shunday murakkab iqtisodiy vaziyatda yangi mumtoz maktabdan "taklif iqtisodiyoti"

[9] Malikov T.S., Olimjonov O.O. Moliya. Darslik / "Iqtisod-Moliya" nashriyoti. – Toshkent: 2020. 192 b.

nazariyasini ishlab chiquvchi yangi konservativ yo'nalish (AQShda – G.Steyn, M.Ueydenbaum; Buyuk Britaniyada – J.Xau, A.Uolters) ajralib chiqdi. Bu yo'nalishning moliyaviy konsepsiyasi iqtisodiy o'sishning jamg'armalar va jamg'arma bilan belgilanishiga asoslanadi. Davlat soliq tizimi orqali mamlakatda investitsiyalarning yetarliligini ta'minlash uchun jamg'armalarni shakllantirishda yetarli shart-sharoitlarni yaratish kerak. Davlat va uning moliya tizimiga ilmiy-texnik taraqqiyotni rag'batlantirish vazifasi yuklatildi. Moliyaga iqtisodiy o'sishni uzoq muddatli rag'batlantirishni ta'minlash biriktirildi. Umumiy tarzda, bu jarayonlarda davlatning ishtiroki minimallashtirildi. Bu nazariya mualliflarining ayrimlari davlatga "kechki qorovul va politsiyachi" funksiyalarini berish bilan cheklanishni taklif etdi[10].

Boshqa nazariyalar bilan bir qatorda "taklif iqtisodiyoti" nazariyasida soliqlarga faxriy o'rin ajratilgan. Uning vakillari – soliqlarni qisqartirish tarafdori. Biroq soliqlarni antisiklik konyunkturaviy tartibga solishning vositasi sifatida qaragan keynschilardan farqli o'laroq, ular jamg'armalar va investitsiyalarning yuqori darajasini qo'llab-quvvatlash uchun soliq undirmalarining darajasini pasaytirishni talab etdilar.

Amerikalik iqtisodchi A.Lafferning soliq konsepsiyasi ham keng tarqaldi. U, grafik model asosida soliqlarning yuqori stavkalari iqtisodiy o'sishning sur'atlarini pasaytiradi, degan xulosaga keldi. Bu olimning tavsiyalari 1980–1990-yillarda dunyoning ko'pgina mamlakatlarida amalga oshirilgan soliq islohotlarining negizini tashkil qildi.

Yangi klassik maktab vakillari nazariyalarining ma'lum darajada rivojlangan bo'lishiga qaramasdan keynschilar ta'limoti yangi sharoitlarga muvofiq rivojlanishda davom etmoqda. 1970-yillarda postkeynschilar yo'nalishi shakllandiki, uning yirik namoyandalari qatoriga AQShda X.Minskiy, R.Klauer, Buyuk Britaniyada – N.Kaldor, G.Shekl va boshqalarni kiritish mumkin. Bu yo'nalish ham

[10] O'sha yerda.

yangi keynschilarning, ham yangi maktab vakillarining asosiy qoidalarini tanqid ostiga oldi. Postkeynschilar nazariyasining asosini hamon moliya mexanizmi yordamida davlat aralashuvini kengaytirish g'oyasi yotmoqda. Moliyaviy siyosat asosiy siyosatga aylanmog'i va u monopoliyalar faoliyatini cheklashga hamda harbiy xarajatlarni qisqartirishga yo'naltirilgan bo'lmog'i lozim. "Daromadlar siyosati"da ular sotsial islohotlarni amalga oshirish va sotsial muammolarni hal etish tarafdorlari sifatida maydonga chiqmoqdalar. Ularning fikricha, eng yaxshi soliqqa tortish metodi bu xarajatlarni soliqqa tortishdir. Ingliz tadqiqotchisi N.Kaldor daromad solig'ini iste'mol solig'i bilan almashtirish g'oyasini rivojlantiradi. U iste'mol solig'ini shaxsiy xarajatlarni qondirishga sarflanadigan daromadlarning bir qismini soliqqa tortish sifatida talqin qiladi. Uning nazarida, bu chora jamg'arishni rag'batlantirishi va inflyatsiya darajasini pasaytirishi mumkin.

N.Kaldorning fikri G'arb olimlari tomonidan keng qo'llab-quvvatlanildi. Ular ham soliq tizimini xarajatlardan olinadigan yagona soliqqacha soddalashtirish tarafdori bo'lib, fuqarolarning faqat iste'mol xarajatlari soliqqa tortilishi kerak.

XX yuz yillikning oxiri va XXI yuz yillikning boshlarida iqtisod ilmi, yaxlit holda bozor tizimini, biznes qonunlarini, iqtisodiyotning har qanday sohasidagi amaliy faoliyatni afzal ko'rmoqda. Bir vaqtning o'zida esa, amerikalik mashhur olimlar K.R.Makkonnell va S.L.Bryular o'zlarining "Ekonomiks. Prinsiplar, muammolar, siyosat" asarida yozganlaridek, moddiy ehtiyojlar cheklanmagan, resurslar esa (kapital, yer, mehnat, tadbirkorlik qobiliyati va boshqalar) aksincha, cheklangan. Shuning uchun ham, iqtisodiyot taraqqiyotining turli davrlarida uning darajasi turlicha bo'lishiga qaramasdan iqtisodiy jarayonlarni tartibga solish doimiy ravishda talab qilinadi. Yuqoridagi har ikkala muallif taklifga yo'naltirilgan fiskal siyosatni qo'llab-quvvatlaydilar. Fiskal siyosat esa jami talabga va soliqlarni o'zgartirish orqali esa taklifga ham ta'sir ko'rsatadi. Byudjetdan

transfert to'lovlari va soliq tizimi, bu olimlar fikricha, turli iqtisodiy vaziyatlarda talab qilingan muvozanatni ta'minlashi mumkin[11].

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Turli davr va iqtisodiy maktablar namoyandalarining davlat moliyasiga oid nazariyalarining asosiy yo'nalishlari nimalardan iborat?
2. Siyosiy iqtisod klassiklari konsepsiyalarining moliyaviy jihatlari nimalardan iborat?
3. Keyns moliyaviy konsepsiyasining asosiy g'oyasi nimalarni o'z ichiga qamrab olgan?
4. Neokeynschilar nazariyalarining moliyaviy jihatlari nimalarni o'z ichiga qamrab olgan?
5. Yangi klassik nazariyalarning moliyaviy jihatlari nimalardan iborat?

Mavzu yuzasidan topshiriqlar

1. Turli davr olimlarining davlat moliyasini shakllanishi va rivojlanishiga oid nazariyalarining asosiy yo'nalishini qamrab oluvchi tizimli jadval shakllantiring.
2. Turli davr olimlarining davlat moliyasi to'g'risidagi ilmiy va nazariy qarashlari o'rtasidagi farqlar va ularning evolyutsiyasiga oid toifali jadval ishlab chiqing.
3. Mamlakatimizda davlat moliyasi to'g'risidagi nazariyalarning rivojlanishiga bag'ishlangan ilmiy ishlarni o'rganib chiqish asosida ular mualliflarining ilmiy-nazariy qarashlari to'g'risida taqdimot tayyorlang.

[11] Malikov T.S., Olimjonov O.O. Moliya. Darslik. – T.: "IQTISOD-MOLIYA". - 2020. 193-b.

3-BOB. DAVLAT MOLIYASI TIZIMI

3.1. Davlat moliyasi tizimi, uning tarkibi va tuzilishi

Yuqoridagi boblarda davlat moliyasining davlat ixtiyoridagi pul mablag'larining shakllanishi, taqsimlanishi va ishlatilishi bilan bog'liq bo'lgan iqtisodiy pul munosabatlari ekanligi ta'kidlandi. Haqiqatan ham davlatning qo'lida turli byudjetlarda, maqsadli jamg'armalarda, davlat korxonalarining ixtiyorida jamlangan mablag'lar umumjamiyat, umummilliy manfaatlar yo'lida sarflanadi, davlatning keng qamrovli funksiyalarini bajarishga xizmat qiladi. Davlat moliyasi pul jamg'armalari, ularni shakllantirishga xizmat qiluvchi moliya mexanizmi, davlatning moliyaviy institutlari (idoralari) va davlatning moliya siyosatini o'zida mujassamlashtiradi.

Dastlab "Davlat moliyasi" atamasi XVI asrda Fransiyada ishlatila boshladi. O'sha davrda davlatning moliyasi turli soliqlarni joriy etilishi va undirilishi asosida shakllandi. Yirik davlatlarning vujudga kelishi va ularning xarajatlarini ortib borishi bilan naqd pulga ehtiyoj oshdi, shu bilan birga, tovar-pul munosabatlari shakllanib va rivojlanib borgan sari aholidan olinadigan soliqlar, asosan, pul shaklida yig'ib olinadigan bo'ldi, majburiy soliqlar va zayomlar davlat zayomlari bilan almashindi. Buning oqibatida davlat moliyasining murakkab tizimi vujudga keldi.

Zamonaviy davlatchilikda davlatning iqtisodiy va moliyaviy siyosatini amalga oshirishda davlat moliyasi katta ahamiyatga ega. U aholining moddiy va ma'naviy turmush farovonligini oshirish, davlat organlarining normal faoliyatini ta'minlash, mamlakat iqtisodiyotining o'sish sur'atlarini qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy sohani moliyalashtirish, iqtisodiyotni investitsiyalash, aholini ijtimoiy himoya qilish, davlatning milliy xavfsizligini ta'minlash, davlatni idora qilish va boshqarishda yetakchi vosita hisoblanadi.

Ma'lumki, davlat boshqaruvining turli pog'onalarida (markaziy va mahalliy darajada) hamda xo'jalik yuritishning turli sohalarida (ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish, ishlar bajarish) sodir bo'ladigan ko'p qirrali moliyaviy munosabatlarning sohalari va bo'g'inlari yig'indisi mamlakat moliya tizimini tashkil qiladi.

Bir turdagi iqtisodiy munosabatlarning murakkab tizimini tashkil qilar ekan, moliya tizimi quyidagi o'zaro bog'liq elementlardan iborat (3.1-rasm):

– moliyaviy munosabatlarning sohalari va bo'g'inlari yig'indisi;

– har bir bo'g'inning ichida tuziladigan pul mablag'lari jamg'armalari yig'indisi;

– moliyani boshqarish organlari yig'indisi.



3.1-rasm. **Moliya tizimining elementlari**

Moliya tizimining muhim elementlaridan biri moliyaviy munosabatlarning sohalari va bo'g'inlari yig'indisidir. Bu munosabatlar bir-biridan farq qiladi, lekin shu bilan birga, ular bir

qator umumiy xususiyatlarga egaki, bu holat ularni alohida guruhlarga (bo'g'inlarga) birlashtirish imkonini beradi.

Iqtisodiy subyektlar daromadlarining shakllanish usullariga ko'ra moliya tizimi quyidagi bo'g'inlardan iborat:

– davlat (yoki markazlashgan) moliyasi;

– xo'jalik subyektlari va uy xo'jaliklari (yoki markazlashmagan) moliyasi.

Davlat moliyasi (markazlashgan moliya) deganda yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash asosida tuziladigan pul mablag'lari fondlarining shakllanishi va ishlatilishi yuzasidan kelib chiqadigan moliyaviy munosabatlar tushuniladi. Bu munosabatlar asosida davlat byudjeti, davlatning byudjetdan tashqari maqsadli fondlari kabilar shakllanadi. Ularning mablag'lari ta'lim (maktabgacha ta'lim muassasalari, umumta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, oliy ta'lim muassasalari va shu kabilar), sog'liqni saqlash (davlatga qarashli turli davolash-profilaktika muassasalari), aholini ijtimoiy himoya qilish tadbirlari (turli nafaqalarni to'lash, ijtimoiy yordam ko'rsatish), ijtimoiy ta'minot (pensiya ta'minoti, bolalar va qariyalar uylarini saqlash), davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarini saqlash hamda boshqa shu kabi davlat ahamiyatidagi tadbirlarni moliyalashtirishga safarbar qilinadi.

Markazlashmagan moliya xo'jalik subyektlari va uy xo'jaliklariga tegishli pul fondlarini shakllantirish va ishlatish bilan bog'liq moliyaviy munosabatlarni aks ettiradi. Bu subyektlarning ixtiyorida barcha majburiy to'lovlarni to'lab bo'lgandan keyin qolgan daromad (foyda)dan ishlab chiqarish ehtiyojlarini hamda xodimlarning ijtimoiy va shaxsiy ehtiyojlarini qondirishga mo'ljallangan turli xil fondlar tuziladi. Bu fondlarning mablag'lari asosiy vositalar va aylanma mablag'larni to'ldirishga, yangi texnika va texnologiyalarni o'zlashtirish va joriy etishga, xodimlarni moddiy rag'batlantirishga va shu kabi markazlashmagan tadbirlarni moliyalashtirishga safarbar qilinadi. Yuqorida bayon qilinganlar asosida shuni xulosa qilish

mumkinki, davlatning ixtiyorida (davlat byudjeti va davlatning maqsadli fondlarida) markazlashgan tarzda shakllangan moliyaviy resurslar markazlashgan fondlarni, xo'jalik subyektlari tasarrufida shakllangan resurslar esa markazlashmagan fondlarni tashkil qiladi.

Shunday qilib, moliyaviy resurslarni shakllantirish va ishlatish mexanizmiga ko'ra moliya tizimining uchta muhim sohasini ajratib ko'rsatish mumkin:

– davlat moliyasi;

– korxonalar, tashkilotlar va muassasalardan iborat bo'lgan xo'jalik subyektlari moliyasi;

– uy xo'jaliklari moliyasi.

Davlat moliyasi tizimining tarkibiy tuzilishi quyidagi rasmda aks ettirilgan (3.2-rasm):



3.2-rasm. **Davlat moliya tizimining tarkibiy tuzilishi**

Iqtisodiy mazmuniga ko'ra davlat moliyasi – davlat va uning mulkidagi davlat korxonalarining ixtiyorida moliyaviy resurslarning shakllanishi va kengaytirilgan takror ishlab chiqarish, jamiyat a'zolarining ortib borayotgan ijtimoiy-madaniy ehtiyojlarini qondirish, mamlakat mudofaasi va davlat boshqaruvini ta'minlash bo'yicha xarajatlarning amalga oshirilishi bilan bog'liq bo'lgan, yalpi ichki mahsulotning qiymatini taqsimlash va qayta taqsimlash asosida sodir bo'ladigan pul munosabatlari yig'indisidir.

Davlat moliyasi sohasida sodir bo'ladigan pul munosabatlarining subyektlari bo'lib davlat (hokimiyatning tegishli organlari timsolida), yuridik shaxslar (korxona, tashkilotlar, birlashmalar, muassasalar timsolida) va jismoniy shaxslar (aholi) ishtirok etadilar.

Davlat moliyasining iqtisodiy mazmuni bir xil emas: uning tarkibida alohida bo'g'inlarni ajratib ko'rsatish mumkin, ularning har biri o'ziga xos funksiyalarni bajaradi. Davlat moliyasining tarkibiga quyidagilar kiradi: davlat byudjeti; davlatning byudjetdan tashqari maqsadli fondlari; davlat krediti; davlat korxonalari moliyasi. Har bir bo'g'inning turlicha funksional tayinlanishga ega ekanligidan foydalanib, davlat keng ko'lamli iqtisodiy va ijtimoiy xizmatlarni ko'rsatadi, tarmoq va hududiy muammolarni hal qiladi.

Davlat moliyasining bosh va markaziy bo'g'ini davlat byudjetidir. *Davlat byudjeti* – davlatning markazlashgan pul fondi bo'lib, asosan yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan to'lanadigan soliqlar va majburiy to'lovlar evaziga shakllanadi va davlatning turli vazifalari va funksiyalarini moliyaviy ta'minlashga yo'naltiriladi.

Davlat byudjeti davlatning qonun kuchiga ega bo'lgan asosiy moliyaviy rejasi hisoblanadi. Davlat byudjeti hokimiyatning qonun chiqaruvchi organi tomonidan tasdiqlanadi.

Davlat moliyasining muhim bo'g'inlaridan yana biri – *davlatning byudjetdan tashqari maqsadli jamg'armalari* bo'lib, ular jamiyatning ayrim ehtiyojlarini mablag' bilan ta'minlash maqsadida davlat tomonidan jalb qilingan moliyaviy resurslarni taqsimlash va ishlatish shakli hisoblanadi. Bu fondlarning asosiy tayinlanishi maxsus maqsadli ajratmalar va boshqa qator manbalar hisobidan davlatning aniq maqsadli tadbirlarini moliyalashtirishdan iborat.

Byudjetdan tashqari maqsadli fondlarning turlari, maqsadli tayinlanishi, ularga egalik qilish huquqi, amal qilish davomiyligi turlicha bo'lishi mumkin. U yoki bu fondni tuzish to'g'risida qaror qabul qilishda davlat va jamiyat taraqqiyoti oldida turgan vazifalarning ustuvorligi muhim ahamiyatga ega.

Davlat byudjeti tarkibida konsolidatsiyalashgan fondlar davlat maqsadli jamg'armalari deb ataladi. Bu fondlarning xususiyati shundaki, davlat byudjetida defitsit yuzaga kelganda ularning ijobiy qoldig'i byudjet defitsitini qoplashga safarbar etilishi mumkin. Shuningdek, byudjetdan tashqari fondlarning joriy faoliyatida

kassaviy uzilishlar bo'lgan hollarda davlat byudjetidan byudjet dotatsiyalari berilishi yoki boshqa shakldagi moliyaviy yordam ko'rsatilishi mumkin.

Davlat krediti – davlat bilan (uning hokimiyat va ijroiya organlari timsolida) yuridik va jismoniy shaxslar, xorijiy davlatlar, xalqaro moliya-kredit tashkilotlari o'rtasidagi muddatlilik, qaytishlilik va to'lovlilik asosida pul mablag'larining harakati bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlar yig'indisidir. Bu munosabatlarda davlat qarz oluvchi, qarz beruvchi (kreditor) yoki olingan (berilgan) qarzlar bo'yicha garant (kafil) sifatida ishtirok etadi.

Davlat korxonalari moliyasi davlat moliyasining o'ziga xos bo'g'ini bo'lib, bunda u YalMning birlamchi taqsimotida bevosita ishtirok etadi. Davlat korxonasi ustav kapitalining shakllanishida byudjet mablag'lari, boshqa davlat korxonalarining badallari, markazlashgan fondlar va vazirliklar, mahkamalar, uyushmalar qoshida tuziladigan rezervlari asosiy moliyaviy manba bo'lib xizmat qiladi.

3.2. Davlat moliyasi tizimi bo'g'inlarining o'zaro bog'liqligi

Mamlakatning moliya tizimida davlat byudjeti markaziy o'rin egallaydi. Markazlashtirilgan pul fondini shakllantirish orqali davlatning qo'lida katta hajmdagi moliyaviy resurslar to'planadi va ular umumdavlat ehtiyojlarini qondirishga sarf etiladi. Davlat byudjeti umumdavlat manfaatlarini inobatga olgan holda iqtisodiyot va ijtimoiy rivojlanishning ustuvor yo'nalishlari uchun moliyaviy resurslarni jamlashda asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi. Ustuvor yo'nalishlar uchun davlat byudjeti yordamida moliyaviy resurslarni jamlash bir necha usullar yordamida amalga oshirilishi mumkin. Ayrim hollarda iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini jadal sur'atlar bilan rivojlanishini ta'minlash maqsadida byudjet ajratmalarining hajmi oshiriladi. Boshqa hollarda esa, o'sha sektorlardan mablag'larni davlat byudjetiga olishda qulay sharoit yaratiladi.

Davlat byudjeti iqtisodiyotning alohida tarmoqlarini rivojlanishida asosiy manba rolini ham o'ynashi mumkin. Masalan, fan-texnika taraqqiyoti asosida milliy iqtisodiyotda yangi tarmoq vujudga kelayotgan bo'lsa, uning paydo bo'lishini hozirgi sharoitda byudjetdan moliyalashtirishsiz tasavvur etib bo'lmaydi.

Faoliyat ko'rsatayotgan subyektlarning moliyaviy barqarorligini ta'minlashda byudjet katta ahamiyat kasb etadi. Turli obyektiv va subyektiv omillarning ta'siri ostida ayrim subyektlarning o'z moliyaviy resurslari ularning sog'lom faoliyat ko'rsatishi uchun yetarli bo'lmay qolganda chetdan mablag' jalb qilishga ehtiyoj tug'iladi. Bunday sharoitda davlat byudjeti tartibga soluvchi manba sifatida maydonga chiqishi mumkin. Albatta, bunday hollarning barchasida davlat byudjeti mablag'laridan iqtisodiy subyektlarning o'z manbalari, tarmoq ichidagi resurslar, bank kreditlaridan so'ng oxirgi tartibga soluvchi manba sifatida foydalaniladi.

Iqtisodiy subyektlar faoliyatini moliyaviy resurslar bilan ta'minlashda davlat byudjetini tartibga soluvchining roli quyidagi ko'rinishda bo'lishi mumkin:

– moliyaviy resurslarga bo'lgan yangi talabni kelgusi byudjet yilida byudjetning xarajatlari tarkibiga kiritish;

– moliyaviy resurslarga bo'lgan qo'shimcha ehtiyojni mavjud byudjet resurslarini bir obyektdan ikkinchisiga o'tkazish yo'li bilan qondirish. Bunday imkoniyatning mavjudligi amaliyotda ayrim subyektlarning o'zlariga taqdim etilgan moliyaviy resurslarni to'liq o'zlashtirishning uddasidan chiqa olmasligi bilan izohlanadi;

– qo'shimcha ehtiyojni hukumatning zaxira fondlari hisobidan qoplash va boshqalar.

Davlat byudjeti milliy iqtisodiyot korxonalarini texnika vositalari bilan qayta qurollantirishda alohida ahamiyatga ega. Byudjetdan iqtisodiyotga qilinayotgan xarajatlar va markazlashtirilgan investitsiyalarni moliyalashtirish, eng avvalo, ana shu maqsadlarga xizmat qiladi. Ayniqsa, ijtimoiy soha (ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat va sport, fan, ijtimoiy ta'minot) xarajatlarini

4-BOB. DAVLAT MOLIYASI AMAL QILISHINING HUQUQIY ASOSLARI

4.1. Davlat moliyasi amal qilishining qonuniy-huquqiy asoslari, byudjet qonunchiligi

O‘zbekiston Mustaqillikka erishgandan so‘ng, xo‘jalik yuritishning bozor tizimiga o‘tilishi, iqtisodiyot bozor infratuzulmasining shakllanishi va rivojlanishi mamlakat xo‘jalik jarayonlarini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan huquqiy asosni yaratishni talab etdi. Bundan tashqari, jahondagi globallashuv jarayonlarida faol qatnashayotgan O‘zbekiston uchun davlat boshqaruv institutlarini shakllantirish va tubdan isloh qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu boradagi islohotlar davlat moliyasi, davlat byudjeti va byudjet jarayonini boshqarish va tartibga solish organlari faoliyatining samaradorligini oshirishni ko‘zda tutadi. Shu sababli ular faoliyatini amalga oshirilayotgan iqtisodiy va demokratik islohotlar talablariga moslashtirish, so‘nggi ijobiy natijalarni ko‘zlagan holda muvofiqlashtirish, shaklan va mazmunan yangi sifat pog‘onasiga ko‘tarish talab etilmoqda.

Bizga ma’lumki, mamlakatda sodir bo‘layotgan har qanday jarayonlar tegishli qonuniy-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solib turiladi. Bosh hujjat esa – bu O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasidir. Davlat moliyasining amal qilishi bilan bog‘liq pul munosabatlarini tartibga solib turuvchi asosiy qonuniy hujjat ham Konstitutsiya hisoblanadi, davlat moliyasi bilan bog‘liq bo‘lgan barcha huquqiy-me’yoriy hujjatlar ham Konstitutsiya bilan belgilab qo‘yilgan normalar asosida ishlab chiqiladi va qabul qilinadi. Masalan, davlat byudjeti va uning tuzilishi bilan bog‘liq normalar Konstitutsiyaning XXV bobida “O‘zbekiston Respublikasi o‘z moliya va pul-kredit tizimiga ega. O‘zbekistonning Davlat byudjeti respublika byudjetidan, Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjetidan va mahalliy

byudjetlardan iborat"[12] ekanligi, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi hududida yagona soliq tizimi amal qilishi[13], yagona bank tizimini respublika Markaziy banki boshqarishi[14] tegishli moddalarda belgilab qo'yilgan.

Ma'lumki, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda mos huquqiy bazaga tayanilishi lozim. Shu sababli, yangi qonunlar turkumini ishlab chiqish zaruriyati tufayli O'zbekistonda iqtisodiy munosabatlarni tartibga soluvchi qator qonunlar qabul qilindi. Bunday qonunlar avvalgi "markazlashtirilgan rejali tizim ruhi bilan sug'orilgan", haddan tashqari mafkuralashtirilgan, xalqaro me'yorlar va qoidalarning talablarini inkor etuvchi sovet davri qonunlarining o'rniga keldi va yosh mustaqil davlatimizning huquqiy demokratik yo'ldan og'ishmay ravnaq topishi uchun xizmat qila boshladi.

Qonun hujjatlari	1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 2. O'zbekiston Respublikasining qonunlari 3. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari
Qonunosti hujjatlar	4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari 5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari 6. Vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarning buyruqlari hamda qarorlari 7. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari

O'zbekiston Respublikasida davlat moliyasining amal qilishi, byudjet qurilishi, byudjet tizimi byudjetlarining faoliyati, davlat

[12] O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 122-modda. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 14-son, 213-modda
[13] O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 123-modda.
[14] O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 124-modda.

hokimiyati va boshqaruvi organlarining barcha darajalaridagi (markaziy, hududiy va mahalliy) moliya-byudjet borasidagi vakolatlari moliya-byudjet qonunchiligi bilan tartibga solinadi.

Moliya-byudjet qonunchiligi – moliya-byudjet munosabatlarini huquqiy jihatdan tartibga solib turishga xizmat qiluvchi barcha qonuniy va me'yoriy-huquqiy hujjatlar yig'indisi. Huquqiy me'yorlarning mazmunidan kelib chiqqan holda, shuningdek, 2012-yil 24-dekabrda qabul qilingan "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi O'RQ–342-son Qonuniga asoslanib, O'zbekiston Respublikasining moliya-byudjet qonunchiligini bir necha darajaga ajratish mumkin.

1-daraja – O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, moliya-byudjet masalalariga bag'ishlangan qonunlar, kodekslar (Byudjet kodeksi, Soliq kodeksi, Bojxona kodeksi va sh.k.);

2-daraja – O'zbekiston Respublikasi hukumatining (Vazirlar Mahkamasining) moliya-byudjet masalalaridagi qarorlari;

3-daraja – O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining buyruqlari, farmoyishlari va moliya-byudjet masalalaridagi boshqa me'yoriy hujjatlari (nizomlar, yo'riqnomalar, qoidalar);

4-daraja – mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari va boshqa me'yoriy hujjatlari (Masalan, tegishli viloyat, tuman (shahar) mahalliy byudjeti parametrlarini tasdiqlash to'g'risidagi Deputatlar Kengashlari va hokimlarining qarorlari).

Shunday qilib, O'zbekiston Respublikasi moliya-byudjet qonunchiligi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga asoslangan bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksi, O'zbekiston Respublikasi Soliq va Bojxona kodekslari, "Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjet huquqlari to'g'risida"gi, O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi qonuni, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining tegishli moliyaviy yil uchun qabul qilinadigan "Davlat byudjeti to'g'risida"gi qonuni va byudjet masalalari bo'yicha boshqa qonuniy va me'yoriy hujjatlardan tashkil topgan.



4.1-rasm. **Moliya-byudjet qonunchiligi darajalari**

O'zbekiston Respublikasida davlat moliyasini isloh qilish bo'yicha muhim qadamlardan biri 2004-yil 26-avgustda O'zbekiston Respublikasining "Davlat byudjetining g'azna ijrosi to'g'risida"gi 664–II-sonli Qonunining qabul qilinishi bo'ldi. Ushbu qonunning maqsadi davlat byudjetining, davlat maqsadli jamg'armalarining va byudjet tashkilotlari byudjetdan tashqari mablag'larining g'azna ijrosi sohasidagi munosabatlarini tartibga solishga xizmat qildi. Mazkur qonunda davlat byudjeti g'azna ijrosini tashkil etish va g'aznachilik faoliyati bilan bog'liq holatlar o'zining huquqiy asosiga ega bo'ldi.

Keyingi yillarda ham davlat moliyasining me'yoriy-huquqiy asoslarini mustahkamlashga qaratilgan qator chora-tadbirlar amalga oshirildi. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-iyundagi "Mahalliy davlat hokimiyati organlarining byudjet vakolatlarini kengaytirish va mahalliy byudjet daromadlarini shakllantirishdagi mas'uliyatini oshirish to'g'risida"gi PQ–3042-sonli Qarorining, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 22-avgustdagi "Byudjet ma'lumotlarining ochiqligini va byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ–3917-son Qarorining qabul qilinishi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 29-iyundagi "O'zbekiston

Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi to‘g‘risida”gi PF–5468-son Farmoni bilan soliq qonunchiligini qayta ko‘rib chiqishga kirishilganligi va natijada O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 30-dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ–599-son Qonuni bilan yangi tahrirdagi Soliq kodeksi qabul qilinib, 2020-yil 1-yanvardan boshlab amalga kiritilishi, 2020-yilning davlat byudjeti Oliy Majlisda qonun shaklida qabul qilinishi (“O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ–589-sonli qonuni) davlat moliyasi amal qilishining qonuniy-huquqiy asoslari zamon talablariga mos ravishda rivojlanib, takomillashib borayotganidan dalolat beradi.

4.2. O‘zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksi, mazmuni va ahamiyati

Ma’lumki, byudjet qonunchiligini yanada rivojlantirish va takomillashtirish asosida byudjet faoliyatini rivojlantirish davlat moliyasini boshqarish tizimini isloh qilishning asosiy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. 2000-yil 14-dekabrda “Byudjet tizimi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining qabul qilinganidan beri o‘tgan davr mobaynida byudjet tizimi amaliyotida bir qator o‘zgarishlar sodir bo‘ldi, ular:

– davlat byudjeti ijrosi g‘aznachilik tizimining joriy etilishi;

– bir qator davlat maqsadli jamg‘armalari va boshqa nobyudjet fondlarining tuzilishi va amal qilishi;

– byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari qo‘shimcha mablag‘larni jalb qilish manbalarining kengayishi va ular ustidan nazoratni yaxshilash zarurligi;

– byudjet tasnifi, byudjet hisobi va hisoboti tizimining takomillashuvi;

– yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining qabul qilinishi va amalga kiritilishi hamda boshqa holatlar bilan

bog‘liq bo‘lib, byudjet qonunchiligini yanada takomillashtirish zarurligini taqozo etdi.

Natijada amaldagi “Byudjet tizimi to‘g‘risida”gi hamda “Davlat byudjetining g‘azna ijrosi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunlarida belgilangan normalar mukammal tarzda qayta ishlangan holda Byudjet kodeksida o‘z aksini topdi.

Byudjet tizimidagi islohotlar doirasida 2014-yildan boshlab amalga kiritilgan yangi Byudjet kodeksi davlat moliyasini boshqarishning huquqiy asoslarini yanada mustahkamlash, byudjet siyosatining ustuvorliklarini belgilab olish, byudjet mablag‘laridan foydalanish samaradorligini oshirish va davlat xizmatlarini taqdim etish sifatini oshirishga qaratildi.

Ushbu Kodeks O‘zbekiston Respublikasining byudjet tizimi byudjetlarini shakllantirish, tuzish, ko‘rib chiqish, qabul qilish, tasdiqlash, ijro etish, davlat tomonidan mablag‘ jalb qilish va byudjet to‘g‘risidagi qonun hujjatlari ijrosini nazorat qilish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishga xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksi 2013-yil 26-dekabrda qabul qilingan bo‘lib, u 9 ta bo‘lim, 28 ta bob, 192 moddadan iborat. Ushbu Kodeks:

– O‘zbekiston Respublikasining byudjet tizimi tuzilishi va uni boshqarish asoslarini;

– O‘zbekiston Respublikasining davlat byudjetini tuzish prinsiplari va uning tuzilmasini;

– davlat byudjetini tuzish, ko‘rib chiqish, qabul qilish va ijro etish tartibini;

– davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg‘armalari daromadlarini shakllantirish va ularning xarajatlarini amalga oshirish prinsiplarini;

– davlat byudjeti tuzilmasiga kiruvchi byudjetlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni;

– davlat byudjeti mablag‘lari bilan operatsiyalarni amalga oshirish jarayonida hisobga olish, hisobot va nazorat qilish tartiblarini belgilab beradi.

Kodeksda byudjet tizimi va byudjet tuzilmasiga kiruvchi byudjetlar tarkibi, davlat byudjetining daromad va xarajatlari tarkibi, respublika va mahalliy byudjetlarning daromadlari va xarajatlari tarkibi va ularning byudjet bo'g'inlari o'rtasida taqsimlash tartiblari, byudjet jarayonini tashkil qilish tartiblari; byudjet taqchilligini moliyalashtirish manbalari, davlat maqsadli jamg'armalari, ularni tashkil qilish va ular mablag'laridan foydalanish tartibi kabilar belgilab berilgan.

Yangi Byudjet kodeksi byudjet jarayonini xalqaro amaliyot tajribalaridan kelib chiqqan holda tartibga solish, byudjet amaliyotida mavjud bo'lgan ziddiyatlarni bartaraf etish, eskirgan tartib-qoidalarni bekor qilish, byudjet jarayonini tashkil etishdagi me'yorlar, nizomlar va byudjet jarayoni ishtirokchilarining vakolatlarini tizimlashtirish maqsadida ishlab chiqildi.

Byudjet kodeksining alohida boblarida byudjet tizimi, uning tamoyillari, byudjet tizimini boshqarish organlarining byudjet sohasidagi vakolatlari, byudjet tizimi tarkibiga kiruvchi byudjetlarning daromadlari va xarajatlari kabilar belgilab berilgan.

Umuman olganda, Byudjet kodeksi 50 ga yaqin qonun hujjatlari va qonunosti hujjatlarini o'z ichiga oladi. Moliya-byudjet tizimida mazkur huquqiy hujjatning qabul qilinishi bilan O'zbekiston Respublikasi Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi davlatlari orasida o'z Byudjet kodeksiga ega bo'lgan davlatlar safiga qo'shildi (4.1-jadval).

Xalqaro tajribada Byudjet kodeksi – ma'lum bir mamlakat byudjet tizimining asoslarini, uning tuzilishi, umumiy prinsiplarini, turli darajadagi byudjetlar va ularning vakolatlarini, byudjet jarayoni asoslari va byudjetlararo munosabatlarni, byudjet qonunchiligini buzganlik uchun javobgarlik choralarini belgilovchi qonun hujjati hisoblanadi. O'zbekistonda mazkur Kodeks mamlakatimizning mustaqillik davridagi qonunchilik faoliyatida qabul qilingan o'n oltinchi kodeks bo'lib, u ko'pqirrali moliyaviy munosabatlarni tartibga solishga xizmat qiluvchi Bojxona va Soliq kodekslaridan keyin qabul qilingan byudjet-moliya sohasiga taalluqli bo'lgan uchinchi kodeksdir.

4.1-jadval

MDH davlatlarida Byudjet kodeksining mavjudligi to‘g‘risida ma’lumot

№	MDH davlatlari	Byudjet kodeksining mavjudlik holati
1.	Armaniston	mavjud emas
2.	Belorussiya	mavjud, 16.07.2008-yilda qabul qilingan
3.	Moldaviya	mavjud emas
4.	Ozarbayjon	mavjud emas, loyihasi ustida ishlanmoqda
5.	Rossiya	mavjud, 31.07.1998-yilda qabul qilingan
6.	Tojikiston	mavjud emas
7.	Turkmaniston	mavjud emas, loyihasi ustida ishlanmoqda
8.	Ukraina	mavjud, 21.06.2001- yilda qabul qilingan
9.	Qozog‘iston	mavjud, 04.12.2008-yilda qabul qilingan
10.	Qirg‘iziston	mavjud emas, loyihasi ustida ishlanmoqda
11.	O‘zbekiston	mavjud, 26.12.2013-yilda qabul qilingan

Keyingi yillarda byudjet jarayonining takomillashtirilishi munosabati bilan bir qator qonun hujjatlariga o‘zgartishlar kiritildi. Jumladan, 2020-yildan boshlab mamlakatimiz davlat byudjeti Oliy majlisda qonun asosida qabul qilinishi munosabati bilan Byudjet kodeksiga ham tegishli tuzatishlar kiritildi. Kodeks “birinchi va ikkinchi darajali byudjet mablag‘larini taqsimlovchi”, “umumiy fiskal balans”, “hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchi” kabi tushunchalar bilan to‘ldirildi. Kodeksdan byudjet xarajatlariga o‘zgartirish kiritish tartibiga oid moddalar chiqarib tashlandi.

Yuqorida sanab o‘tilgan o‘zgartirishlar va yangiliklar ilg‘or xalqaro tajribani o‘rganish asosida joriy etilgan bo‘lib, ularda mamlakatimiz byudjet tizimining samaradorligi hamda ochiq-oydinligini yanada oshirish ko‘zda tutilgan.

4.3. Soliq kodeksi, uning davlat moliyasining huquqiy asosi sifatidagi ahamiyati

Mamlakatimizda kechayotgan iqtisodiy jarayonlar, tadbirkorlar va ishbilarmonlarga biznesni yuritish va qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish borasidagi yengilliklar, kichik biznes subyektlariga berilayotgan preferensiyalar soliq mexanizmlarini ham yanada takomillashtirishni hamda yangi tahrirdagi Soliq kodeksini ishlab chiqish zaruriyatini yuzaga keltirdi.

2007-yilgacha amalda bo'lgan Soliq kodeksi 135 moddadan iborat bo'lib, soliq munosabatlarini tartibga solishda kodeks bilan birga ko'pgina yo'riqnoma, nizom va tartiblar ham qo'llanilar edi. Soliq qonunchiligiga tez-tez o'zgartirishlar kiritilishi va soliq normalarining boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinishi muayyan noaniqlik, tushunmovchilik va soliq normalarining har xil talqin qilinishiga olib kelardi, bu aksariyat hollarda soliq to'lovchilarning haqli e'tirozlariga sabab bo'lardi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining XII yalpi majlisida soliq siyosati va soliq tizimini yanada isloh qilish hamda erkinlashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Soliq kodeksi ma'qullanib, Prezident tomonidan imzolanganidan so'ng, 2008-yil 1-yanvardan e'tiboran kuchga kirdi. Kodeksda ko'zda tutilgan me'yor va qoidalar, avvalo, soliq tizimi va soliq munosabatlarini unifikatsiya qilish, mamlakat iqtisodiyotini barqaror va mutanosib rivojlantirishda soliqlarning rag'batlantiruvchi rolini kuchaytirishga qaratilgan.

"O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksini tasdiqlash to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 2-moddasiga binoan, ikki yil davomida O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi normalarining amal qilishi va samaradorligini muntazam monitoring va tahlil qilib borish, zarur bo'lgan hollarda esa uni yanada takomillashtirish uchun takliflar kiritish belgilandi. Shu maqsadda Vazirlar Mahkamasi huzurida idoralararo maxsus guruh va uning

doimiy ishchi organi tuzildi. Ikki yil mobaynida ushbu ishchi organga Soliq kodeksini takomillashtirish bo'yicha mingdan ortiq takliflar kelib tushdi. Ular asosan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi hamda Moliya vazirligi va Davlat soliq qo'mitasi tomonidan o'tkazilgan seminarlarda, davra suhbatlarida xo'jalik yurituvchi subyektlar, tadbirkorlar, tijorat banklari, xalqaro moliya tashkilotlari va ekspertlar tomonidan berilgan takliflar bo'lib, 2008-yildayoq ana shu takliflar asosida Soliq kodeksining 79 ta moddasiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritilgan edi.

2008-yil 1-yanvardan amalga kiritilgan yangi tahrirdagi Soliq kodeksi soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni belgilash, joriy etish, hisoblab chiqarish hamda O'zbekiston Respublikasi davlat byudjetiga va davlat maqsadli jamg'armalariga to'lash, shuningdek, soliq majburiyatlarini bajarish bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solish uchun xizmat qildi. Kodeks 64 ta bob, 392 moddadan iborat bo'lib, u o'sha davrda soliq masalalarini tartibga soluvchi barcha me'yor va qoidalarni mujassamlashtirdi va to'g'ridan to'g'ri amal qiluvchi hujjatga aylandi. Jumladan, yangi Kodeksda iqtisodiyotni liberallashtirishga qaratilgan Prezident farmonlari va qarorlarida bayon etilgan normalar to'liq ifodasini topdi.

Yangi tahrirdagi Soliq kodeksining tadbirkorlar imkoniyatlarini kengaytirish va manfaatlarini himoya qilishdagi ahamiyati ortdi. Unga muvofiq, soliqqa tortish masalalarida bahsli holatlar yuzaga kelganda, masala soliq to'lovchi foydasiga hal etiladi. Soliq kodeksiga (avvalgi tahrirdagi kodeksda mavjud bo'lmagan) soliq to'lovchining haqligi prezumpsiyasi prinsipi kiritildi, ya'ni soliq to'g'risidagi qonun hujjatlaridagi bartaraf etib bo'lmaydigan barcha qarama-qarshiliklar va noaniqliklar soliq to'lovchi foydasiga talqin etiladi va bu Soliq kodeksining tamoyillarida alohida belgilab qo'yildi.

Soliq kodeksiga muvofiq, soliq to'g'risidagi qonun hujjatlari soliq solishning majburiyligi, aniqligi, adolatliligi, soliq tizimining yagonaligi, soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarining oshkoraligi va yuqorida ta'kidlanganidek, soliq to'lovchining haqligi prezumpsiyasi

prinsiplariga asoslanadi. Soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlarining qoidalari Kodeksda belgilangan ushbu prinsiplarga zid bo‘lishi mumkin emasligi belgilandi.

Bundan tashqari, Soliq kodeksining soliq ma’murchiligi masalalariga bag‘ishlangan umumiy qismi avvalgisiga nisbatan tubdan o‘zgartirildi va kengaytirildi. Mazkur qismda fuqarolarga sodda va tushunarli bo‘lishi uchun soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar tushunchalariga, shuningdek, yuridik shaxs, jismoniy shaxs, yakka tartibdagi tadbirkor kabi tushunchalarga alohida ta’riflar berildi. Endilikda barcha soliq to‘lovchilar soliqlarni qaysi maqsadda to‘layotganliklari to‘g‘risida to‘liq va kengroq tasavvurga ega bo‘ladilar, bu esa, o‘z navbatida, soliq madaniyatini yanada yuksaltirishga xizmat qiladi.

Soliq kodeksi soliq masalalarini tartibga soluvchi barcha me’yor va qoidalarni mujassamlashtirgan, to‘g‘ridan to‘g‘ri amal qiluvchi hujjatga aylantirilganligi bois, uning amalga kiritilishi munosabati bilan o‘z ahamiyatini yo‘qotgan bir qator qonun hujjatlari butunlay bekor qilindi. “Muddatida to‘lanmagan soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni undirib olish to‘g‘risida”gi, “Davlat boji to‘g‘risida”gi, “Patta to‘lovi to‘g‘risida”gi qonunlar shular jumlasidandir.

Lekin keyingi yillarda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 18-iyuldagi “Soliq ma’muriyatchiligini tubdan takomillashtirish, soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning yig‘iluvchanligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni talablarini amalga oshirish borasida ko‘rilayotgan chora-tadbirlarga qaramasdan, respublika va mahalliy byudjetlar daromadlarini oshirishning qo‘shimcha zaxiralarini aniqlash, soliq ma’muriyatchiligi jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, xorijiy mamlakatlarning soliq qonunchiligi va ma’muriyatchiligi sohasidagi sinalgan ilg‘or yutuqlarini implementatsiya qilish ishlaridagi kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida 2018-yil 13-fevralda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Soliq

qonunchiligini tubdan takomillashtirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoyishi qabul qilindi. Farmoyishda Soliq ma'muriyatchiligi va soliqqa tortishning zamonaviy usullarini, soliqlarning to'liq yig'iluvchanligi va byudjetga o'z vaqtida tushishi ustidan samarali nazorat mexanizmlarini joriy etish orqali soliq-byudjet siyosatini yanada takomillashtirish, byudjet jarayoni shaffofligi darajasini oshirish maqsadida bir qator chora-tadbirlar belgilandi. Jumladan, birinchi bosqichda – 2018-yil 1-aprelga qadar O'zbekiston Respublikasi soliq-byudjet siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi loyihasini, ikkinchi bosqichda – 2018-yil 1-iyulga qadar O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi yangi tahriri loyihasini ishlab chiqishni ta'minlash belgilandi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining yangi tahririni ishlab chiqishga xalqaro ekspert va maslahatchilarni jalb qilish nazarda tutildi.

Natijada O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 30-dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RQ–599-son Qonuni bilan yangi tahrirdagi Soliq kodeksi qabul qilinib, 2020-yil 1-yanvardan boshlab amalga kiritildi. Ushbu qonunning 4-moddasida metodologik nuqtayi nazardan muhim bo'lgan quyidagi qoidalar belgilab berilgan: O'zbekiston Respublikasining 2007-yil 25-dekabrda qabul qilingan O'RQ–136-sonli Qonuni bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksida nazarda tutilgan imtiyozlar 2020-yilning 1-apreliga qadar amal qiladi; 2020-yilning 1-yanvarigacha qabul qilingan soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarida, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlarida nazarda tutilgan imtiyozlar ularning amal qilish muddati tugaguniga qadar amal qiladi. Yagona ijtimoiy to'lov, yagona soliq to'lovi va qat'iy belgilangan soliq o'rniga tegishlicha ijtimoiy soliq, aylanmadan olinadigan soliq hamda qat'iy belgilangan miqdorda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i kiritildi, ularning to'lovchilariga qonun hujjatlarida ilgari

belgilab qo'yilgan imtiyozlar va alohida hisoblash tartibi tatbiq etiladigan bo'ldi; 2020-yildan boshlab soliq stavkalari O'zbekiston Respublikasining tegishli yil uchun Davlat byudjeti to'g'risidagi Qonuni hamda Soliq kodeksining moddalarida belgilab qo'yilgan qoidalar asosida o'rnatiladi. Ushbu Soliq kodeksining qabul qilinishi soliqlarning uslubiy asoslarni hamda davlat moliyasini tashkil etishning huquqiy asoslarini takomillashtirishda muhim asos bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, Soliq kodeksi mamlakatimiz iqtisodiyotining jadal sur'atlar bilan o'sishiga, uning makroiqtisodiy mutanosibligini ta'minlashga qaratilgan islohotlarni chuqurlashtirishga, xususan, tadbirkorlik, kichik biznes va fermerlik harakatining izchil rivojlanishiga kafolat va imtiyozlar beradigan siyosatni davom ettirishda huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi. U soliq tizimi va soliq munosabatlarini unifikatsiya qilish, mamlakat iqtisodiyotini barqaror va mutanosib rivojlantirishda soliqlarning rag'batlantiruvchi rolini yanada kuchaytirish, yurtimizda islohotlarni amalga oshirish uchun ilg'or zamonaviy soliq solish tizimiga mos keladigan, byudjetning daromad qismining shakllanishini barqaror ravishda ta'minlaydigan hamda iqtisodiy o'sishga ta'sirchan omil bo'ladigan samarali soliq tizimi barpo etilishini ta'minlaydi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Davlat moliyasini tashkil qilishning qonuniy-huquqiy va me'yoriy asoslarini nimalar tashkil qiladi? Ular qanday guruhlangan?
2. Byudjet kodeksining mazmuni va byudjet munosabatlarini tashkil qilishdagi ahamiyatini sharhlab bering.
3. Yangi tahrirdagi Soliq kodeksining zarurligi va ahamiyati nimada? Misollarda tushuntiring.

4. So‘nggi yillarda amalga oshirilgan qanday chora-tadbirlar davlat moliyasining huquqiy asoslarini takomillashtirishga xizmat qildi?

Mavzu yuzasidan topshiriqlar

1. Davlat moliya-byudjet qonunchiligini aks ettiruvchi klasster tuzing va izohlab bering.
2. Davlat moliyasining huquqiy asoslarini tashkil qiluvchi hujjatlar ro‘yxatini tuzing va har biriga qisqacha izoh yozing.
3. Yangi tahrirdagi Soliq kodeksini tayyorlash zarurligini keltirib chiqargan omillar haqida taqdimot tayyorlang.

5-BOB. DAVLATNING MOLIYAVIY SIYOSATI

5.1. Davlatning moliyaviy siyosati, uning turlari, maqsad va vazifalari. Moliya siyosatining taktikasi va strategiyasi

Siyosat – bu jamiyat ustqurmasiga taalluqli tushuncha bo'lib, davlatning o'z funksiyalari va vazifalarini amalga oshirishga qaratilgan rivojlanish yo'nalishlari va chora-tadbirlari yig'indisidir. Davlat tomonidan amalga oshiriladigan siyosat o'zaro bog'liq elementlardan iborat bo'ladi:



Davlat moliyaviy siyosati – moliyaviy munosabatlarni tashkil etish tamoyillarining bajarilishini ta'minlash, davlat va jamiyat oldida turgan maqsad va vazifalarni davlat moliyasi orqali amalga oshirish usullari, chora-tadbirlari va maqsadli faoliyatlari yig'indisi

Davlat moliyaviy siyosati davlat va jamiyat rivojlanishining turli bosqichlarida turlicha bo'lishi, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot darajasiga qarab o'zgarib turishi mumkin. Davlat moliyaviy siyosati:

- byudjet siyosati;
- soliq siyosati;
- davlat investitsiya siyosati;

– ijtimoiy siyosat;

– davlat boj siyosati;

– davlat krediti va davlat qarzlarini boshqarish siyosati kabilarning uyg'unligi asosida amalga oshiriladi.

Demak, davlat moliyaviy siyosati umumdavlat moliyaviy resurslarini (manbalarini) shakllantirish va jalb etish, taqsimlash, ulardan maqsadga muvofiq foydalanishga qaratilgan davlatning chora-tadbirlari va faoliyatining asosiy yo'nalishlari yig'indisidir.

Davlat moliyaviy siyosatining asosiy maqsadi jamiyatda yaratilgan boylik va ne'matlarning jamiyat a'zolari o'rtasida maksimal darajada adolatli taqsimlanishini ta'minlashdan iborat

Davlat moliyaviy siyosatining asosiy vazifalari jamiyat taraqqiyotining turli davrlarida turlicha bo'lishi, davlat va jamiyat oldidagi vazifalarning o'zgarishi bilan o'zgarib turishi mumkin. Masalan, davlat moliyaviy siyosatida bugungacha dolzarb bo'lib turgan vazifalar qatorida quyidagilarni ta'kidlash muhim:

– davlat byudjeti va davlat maqsadli Jamg'armalarining barqaror daromad bazalarini mustahkamlash;

– iqtisodiyot ustuvor tarmoqlarining rivojlanishini davlat moliyasi (soliq siyosati, investitsiya siyosati, boj siyosati) orqali rag'batlantirish;

– fan-texnika taraqqiyotining, innovatsion texnologiyalarning jadallashuviga ta'sir ko'rsatish;

– mamlakatda kambag'allik va ijtimoiy tengsizlikka barham berish;

– rivojlanish darajasi orqada qolayotgan hududlarning rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish;

– mamlakat hududlaridagi aholining yashash sharoitlarini yaxshilash va shu yo'l bilan siyosiy va ijtimoiy beqarorlikning oldini olish;

– davlat tomonidan kafolatlangan ijtimoiy xizmatlarning sifatli va aholi ijtimoiy muhofazasining manzilli bo'lishini ta'minlash;

– davlat moliyaviy siyosatining muvaffaqiyatli amalga oshirilishini ta'minlovchi maqbul moliya mexanizmini ishlab chiqish va uning samarali ishlashini ta'minlash va sh.k.

Davlat moliyaviy siyosati o'z-o'zidan yaxshi yoki yomon bo'lishi mumkin emas. Uning samarasini baholash uchun jamiyatning ehtiyoji qanchalik qondirilayotganligini, qo'yilgan maqsadlar va vazifalar qanchalik darajada muvaffaqiyatli amalga oshirilganligini to'g'ri belgilash, xolis baholash lozim.

Davlat moliyaviy siyosati quyidagilarni amalga oshirish orqali hayotga tatbiq etiladigan murakkab va ko'p bosqichli jarayondir:



1. *Davlat moliyaviy munosabatlarini rivojlantirishning ilmiy asoslangan konsepsiyalarini ishlab chiqish.* Bu konsepsiyalar quyidagilarni o'rganish asosida ishlab chiqiladi:

– iqtisodiy qonunlar talablarini o'rganish;

– milliy xo'jalik holatini har tomonlama tahlil qilish;

– ishlab chiqaruvchi kuchlar va ishlab chiqarish munosabatlarining bundan keyingi rivojlanish istiqbollarini o'rganish;

– aholining talab va ehtiyojlarini o'rganish.

2. *Istiqbolda va joriy davr mobaynida davlat moliyasidan foydalanishning asosiy yo'nalishlarini belgilab olish.* Bunda iqtisodiy va moliyaviy siyosatda belgilangan maqsadlarga erishish yo'llaridan

kelib chiqiladi, xalqaro omillar inobatga olinadi va moliyaviy resurslarni yanada ko'paytirish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi.

3. *Qo'yilgan maqsad va vazifalarni amalga oshirishga qaratilgan amaliy xatti-harakatlar qilish, chora-tadbirlar belgilash, maqbul moliya mexanizmining dastak va vositalarini ishlab chiqish.*

Faqat hozirgi kundagi joriy davrga mo'ljallangan, kundalik ehtiyojlarni qondirishga qaratilgan siyosat samarasizdir, shuningdek, uzoq davrni mo'ljallab, istiqbolni ko'zlab ishlab chiqilgan konsepsiyalar va yo'nalishlar, ular qanchalik oliyjanob, jozibali bo'lmasin, davlatning tegishli amaliy xatti-harakatlari, ta'sirchan dastak va vositalari bilan ta'minlanmasa, inqirozga yuz tutadi, ko'zlangan maqsadlar amalga oshirilmay qoladi.

Davlat oldida turgan va muayyan davrda hal qilinishi lozim bo'lgan vazifalarning xarakteri, murakkabligi va ko'zlangan davrning uzoqligiga ko'ra davlat moliyaviy siyosati:

- moliyaviy strategiya;
- moliyaviy taktikadan iborat.



Moliyaviy strategiya – ijtimoiy va iqtisodiy strategiya belgilab bergan uzoq istiqbolga mo'ljallangan va yirik ko'lamdagi vazifalarni bajarishga qaratilgan bo'lib, u rivojlanishning asosiy konsepsiyalarini ishlab chiqish, moliyaviy munosabatlarni tashkil etishning umumiy tamoyillarini ishlab chiqishni, uzoq muddatga mo'ljallangan rivojlanish istiqbollarini belgilashni ko'zda tutadi

Moliya strategiyasi uzoq muddatli maqsadlarni tanlash va maqsadli dasturlarni zarur moliyaviy resurslar bilan ta'minlash, ularni iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning asosiy yo'nalishlariga safarbar qilishni nazarda tutadi.

Masalan, mustaqillikning dastlabki yillarida davlatning moliyaviy strategiyasini asosiy vazifalaridan biri – davlat byudjetining barqarorligini ta'minlash, ortib borayotgan byudjet defitsitini jilovlash

bo'lgan bo'lsa, bu vazifani bajarish uchun: ma'muriy-buyruqbozlikka asoslangan iqtisodiyotdan bozor iqtisodiyotiga o'tish davri uchun xos bo'lgan yangi byudjet qonunchiligini ishlab chiqish; mustaqil davlatning yangi soliq tizimini shakllantirish; davlat byudjetining xarajatlar qismini qayta tuzish; byudjet daromadlari va xarajatlarini balanslashtirish kabi chora-tadbirlar belgilandi va ma'lum muvaffaqiyat bilan amalga oshirildi.



Moliyaviy taktika – strategiya belgilab bergan vazifalarni jamiyat rivojlanishining aniq bosqichida va aniq sharoitlarida moliya-byudjet munosabatlarini tashkil etish usullari orqali amalga oshiradi

Masalan, 2020-yilda O'zbekiston ham boshqa mamlakatlar qatori, COVID-19 pandemiyasining salbiy oqibatlari bilan to'qnash keldi. Karantin cheklovlari choralarini kiritish sharoitida epidemiologik holatning sezilarli yomonlashuvi hamda iqtisodiy faollikning pasayishi byudjet-soliq siyosatini yumshatish, sog'liqni saqlash xarajatlarining ortishi va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha tezkor choralar ko'rishni taqozo etdi. Natijada, iqtisodiy o'sishning sekinlashuvi sharoitida qo'shimcha tashqi qarzning jalb qilinishi bilan byudjet taqchilligi va tashqi qarz hajmining ortishi kuzatildi. Yuzaga kelgan vaziyatda keyingi yillar uchun davlat moliyasining barqarorligini ta'minlashga qaratilgan tezkor choralar ko'rildi, saqlanib qolayotgan noaniqliklarni hisobga olgan holda, boshlangan islohotlarni davom ettirish uchun ham davlat byudjetida mablag'lar ko'zda tutildi.

Moliyaviy siyosatning strategiyasi va taktikasi o'zaro bog'liqdir. Strategik vazifalarni hal qilish uchun taktika qulay shart-sharoit yaratadi. Taktika iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotning hal qiluvchi sohalarini, rivojlanishning muhim muammolarini aniqlab, moliya-byudjet munosabatlarini tashkil etish shakllari va usullarini o'z

vaqtida o'zgartirish yo'li bilan strategiya belgilab bergan vazifalarni qisqa muddat ichida, eng kam xarajatlar bilan amalda bajaradi.

5.2. Mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasi davlat moliyaviy siyosatining rivojlanish bosqichlari

O'zbekiston o'zining davlat suverenitetini e'lon qilib, mamlakatni inqiroz holatidan olib chiqish, iqtisodiyotni barqarorlashtirish, iqtisodiy va siyosiy jihatdan mustaqil, qudratli, rivojlanib boruvchi, ko'pqirrali demokratik davlat yaratish dasturini belgilab oldi. Shu nuqtayi nazardan, O'zbekiston davlat moliyasining tarixiy jihatdan juda qisqa, lekin yosh mustaqil davlat uchun sermazmun, serqirra davrdagi rivojlanish bosqichlari boshlandi. Respublika hukumati tomonidan iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlarning ustuvor yo'nalishlari va bozor mexanizmlarini ishga tushirish choralari ko'rildi, natijada qator moliyaviy institutlarning samarali faoliyati ta'minlandi.

Respublikaning davlat byudjetiga uning ichki daromadlari jalb qilindi va ular 1991-yilgacha bo'lgan sobiq Ittifoq davlat byudjetidan ajratilgan transfertlar summasidan oshib ketdi. Qat'iy moliyaviy cheklashlarning qo'llanilishi natijasida davlat byudjetining daromadlari, xarajatlari va taqchilligi hajmi YaIM dinamikasiga muvofiq ravishda tartibga solib turildi. Ijtimoiy sohaga xarajatlarning o'sish sur'atlari umumiy xarajatlarning o'sish sur'atlariga bog'liq bo'ldi, ya'ni O'zbekistondagi bozor islohotlari mamlakat byudjetiga, uning xarajatlar tarkibi va tuzilishiga o'z ta'sirini ko'rsatdi.

O'zbekiston Respublikasining davlat moliyasi o'z rivojlanish jarayonida quyidagi bosqichlarni bosib o'tdi:

- Fiskal bosqich (1991-1995);
- Noinflyatsion bosqich (1996-2002);

– Davlat moliyasini boshqarish tizimini isloh qilish bosqichi (2003-2017);

– Harakatlar strategiyasini amalga oshirish bosqichi (2017-yildan bugunga qadar).

Fiskal bosqich (1991-1995) vazifalari:
– yangi moliya-byudjet qonunchiligini yaratish;
– soliq islohotlarini o'tkazish;
– davlat byudjetining xarajatlar qismini qayta tarkiblash;
– byudjet daromadlari va xarajatlarini balanslashtirishga erishish

Davlat moliyasi rivojlanishining birinchi bosqichi juda og'ir kechdi. Bunga sabab, ma'muriy-buyruqbozlikka asoslangan rejali iqtisodiyotdan bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan davlatning moliyasini va uning muhim tarkibiy qismi bo'lgan davlat byudjetini shakllantirish mamlakatda kechayotgan iqtisodiy inqiroz sharoitida (YaIM ishlab chiqarishning keskin pasayishi, bu esa o'z navbatida, davlat byudjeti daromadlarining qisqarishiga olib keldi) amalga oshirildi. Daromadlar va xarajatlarning samarasiz tarkibi byudjet inqirozining yuzaga kelishiga sabab bo'ldi.

Bu bosqichda davlat moliyasi yaqqol namoyon bo'luvchi fiskal xususiyatga ega edi. Turli-tuman soliqlarning mavjudligi va yuqori soliq stavkalarining amal qilishi davlat byudjetini muayyan darajada daromadlar bilan ta'minlashga xizmat qildi. Byudjetning asosiy vazifalari davlatni iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy islohotlarni amalga oshirish uchun zarur mablag'lar bilan ta'minlash, milliy iqtisodiyotni barqarorlashtirish va yanada rivojlantirish uchun sharoit yaratishdan iborat edi.

Fiskal bosqich davri yuqori soliq stavkalari va soliq solish bazasining kengligi bilan tavsiflanadi, bu hol mamlakatda ishlab chiqarishning jadal rivojlanishiga to'sqinlik qilar, iqtisodiyotni

barqarorlashtirish uchun sharoit yaratish, ishlab chiqarish hajmini kengaytirish va tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirish talablariga javob bermas edi. Ko'p sonli imtiyozlarning kiritilishi esa ishlab chiqarishni kengaytirish va tadbirkorlikni rivojlantirishda kutilgan natijani bermadi, balki aksincha, soliq to'lashdan bo'yin tovlashga imkoniyat yaratdi.

Iqtisodiy islohotlarning zamonaviy xalqaro amaliyoti davlat byudjetining makroiqtisodiy tartibga solish va boshqarish vositasi ekanligini ko'rsatadi. Hukumat byudjet qonunchiligi yordamida xarajatlarning umumiy darajasini, byudjet taqchilligi va davlat qarzi hajmini nazorat qiladi. Natijada, qonunchilik makroiqtisodiy siyosatning quyidagi jihatlarini namoyon etadi:

– Qonun chiqaruvchi va ijroiya hokimiyatlari o'rtasida byudjet vakolatlarining taqsimlanishi;

– hukumatning byudjet tartib-taomillari nazoratini cheklovchi va shaffofligini pasaytiruvchi yashirin yoki kvazi byudjet faoliyatining taqiqlanishi;

– makroiqtisodiy nazoratni ta'minlash maqsadida byudjet taqchilligi, davlat qarzi va chetdan mablag' jalb qilishning cheklanishi.

Noinflyatsion bosqich(1996-2002) vazifalari:
– balanslashgan davlat byudjetini shakllantirish;
– soliqqa tortish tizimini yanada takomillashtirish va unifikatsiyalash;
– byudjet xarajatlarini optimallashtirish, xususan, xalq xo'jaligi tarmoqlarini mablag'lar qaytimini ta'minlay olmaydigan moliyalashtirish amaliyotidan ularni investitsiyalashga o'tish;
– moliya-byudjet qonunchiligini yanada rivojlantirish vazifalarini hal qilish

Davlat moliyasidagi islohotlarning ikkinchi bosqichi 1995-yilda davlat byudjeti va byudjetdan tashqari davlat maqsadli jamg'armalari

mablag'larini yagona konsolidatsiyalashgan byudjetga jamlash bilan boshlanib, buning natijasida davlat byudjetining shakllanishi va taqsimlanishi jarayoni ustidan ta'sirchan moliyaviy nazoratni kuchaytirish imkoniyati vujudga keldi.

Milliy valyuta – so'mning joriy etilishi, pul muomalasini tartibga solish va qat'iy pul-kredit siyosatini olib borish yordamida pul islohotlarining o'tkazilishi keyingi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish va o'sishga sharoit yaratdi. O'tish davrida moddiy ishlab chiqarish tarmoqlari va ijtimoiy sohaning moliyaviy ehtiyojlari mamlakatda yaratilayotgan milliy daromadni ishlatish bo'yicha davlatning real imkoniyatlaridan yuqori bo'ladi. Shu sababli bu davrda moliya organlarining muhim vazifasi moliyaviy resurslarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning muhim yo'nalishlarida mujassamlashuvini byudjet taqchilligining oshib ketishiga olib keladigan xarajatlarni oshirish evaziga emas, balki oqilona soliq tizimini yaratish evaziga amalga oshirishdan iborat bo'ldi. Iqtisodiy o'sishning muhim sharti, shuningdek, byudjet taqchilligini, ichki va tashqi davlat qarzini cheklash hisoblanadi.

Davlat moliyasi borasida amalga oshirilgan islohotlar ikkinchi bosqichining muhim jihatlari quyidagilardir:

- moliya-byudjet qonunchiligining shakllanishini davom ettirish;
- soliq tizimining takomillashuvi va unifikatsiyalashuvi;

Davlat moliyasini boshqarish tizimini isloh qilish bosqichi (2003-2017) asosiy yo'nalishlari:

- zamonaviy markazlashgan g'aznachilik tizimini shakllantirish;
- yangi byudjet tasnifi va buxgalteriya hisobining yangi hisoblar rejasiga asoslangan yagona byudjet va hisob tizimini yo'lga qo'yish;
- o'rta muddatli byudjet strategiyasini va dasturiy byudjetlashtirishni joriy qilish;
- byudjet qonunchiligini yanada rivojlantirish va takomillashtirish asosida byudjet faoliyatini rivojlantirish;
- davlat byudjeti daromadlarining barqarorligini ta'minlash asosi sifatida soliq siyosatini yanada takomillashtirish va sh.k.

– byudjet xarajatlarini optimallashtirish, shu jumladan, milliy iqtisodiyot tarmoqlarini beg‘araz moliyalashtirish amaliyotidan investitsiyalashga o‘tish;

– balanslashgan davlat byudjetini shakllantirish.

Ushbu davrda davlatning moliyaviy siyosati quyidagilarga yo‘naltirildi:

– byudjet xarajatlarining ijtimoiy yo‘naltirilganligini yanada kuchaytirish;

– davlat xarajatlari samaradorligi va oqilonaligini oshirish, buning uchun byudjet mablag‘laridan foydalanish samaradorligini va manzilliligini oshirish maqsadida davlat byudjetini rejalashtirish usullarini takomillashtirish;

– davlat byudjetini ijro etishning g‘aznachilik tizimini joriy etish asosida davlat moliyasini boshqarish va nazorat qilishning samarali tizimini yaratish;

– iqtisodiyotdagi tarkibiy o‘zgarishlarni, davlat xarajatlarini qishloq xo‘jaligida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish; sug‘oriladigan dehqonchilik yerlarini suv bilan ta’minlash, fermer xo‘jaliklarini rivojlantirish bo‘yicha yo‘nalishlarda kengaytirish;

– qishloqda ishlab chiqarish munosabatlarini takomillashtirish, bozor iqtisodiyoti tamoyillariga asoslangan qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini boshqarish tashkiliy tuzilmasini joriy etish, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarning mustaqilligini kengaytirish;

– markazlashgan investitsiyalarga xarajatlarning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, YaIMning barqaror iqtisodiy o‘sish sur’atlarini ta’minlaydigan, bandlik va aholi daromadlarini oshirish muammolarini hal qiladigan, iqtisodiyotda tarkibiy o‘zgarishlarni davom ettirishga xizmat qiladigan, strategik ahamiyatga ega bo‘lgan ijtimoiy dasturlarni amalga oshirishga qaratilgan kapital mablag‘lar hajmini oshirish;

– byudjetlararo munosabatlarni takomillashtirish.

5.3. O‘zbekiston Respublikasining yaqin va o‘rta istiqboldagi byudjet-soliq siyosatining asosiy yo‘nalishlari

Mustaqillik yillarida mamlakatda huquqiy demokratik davlat, kuchli fuqarolik jamiyati qurishga, erkin bozor munosabatlariga va xususiy mulk ustuvorligiga asoslangan iqtisodiyotni rivojlantirishga, xalq osoyishta va farovon hayot kechirishi uchun shart-sharoitlar yaratishga, xalqaro maydonda O‘zbekistonning munosib o‘rin egallashiga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirildi. Bugungi kunda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va mamlakat taraqqiyotini jadallashtirishning muhim ustuvorliklarini hamda aniq marralarini belgilash vazifasini amalga oshirish yo‘lida aholining keng qatlamlari, jamoatchilik va ishbilarmon doiralar vakillari, davlat organlarining rahbarlari va mutaxassislari bilan amaliy suhbat hamda muhokamalar olib borildi, shuningdek, amaldagi qonun hujjatlari, milliy va xalqaro tashkilotlarning axborot-tahliliy materiallari, ma’ruzalari, tavsiyalari va sharhlari o‘rganildi, rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasi tahlil qilindi. Shular asosida 2017–2021-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi[15] ishlab chiqildi.

HARAKATLAR STRATEGIYASI
2017-2021

Harakatlar strategiyasining asosiy maqsadi – olib borilayotgan islohotlar samaradorligini tubdan oshirish, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishini ta’minlash uchun shart-sharoitlar yaratish, mamlakatni modernizatsiyalash va hayotning barcha sohalarini erkinlashtirishdan iborat

Harakatlar strategiyasining ushbu asosiy maqsadiga erishish uchun Strategiyada O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi belgilab olindi, ular quyidagilardan iborat:

1. Davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirish;

[15]O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmoni, O’R QHT, 2017 y., 6-son, 70-modda

2. Qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilish;

3. Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirish;

4. Ijtimoiy sohani rivojlantirish;

5. Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash, chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosat yuritish.

Mazkur yo'nalishlarning har biri mamlakatdagi islohotlarni va yangilanishlarni yanada chuqurlashtirishga oid aniq bo'limlardan iborat. Xususan, "Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirish" deb nomlangan yo'nalish yaqin va o'rta istiqbolda quyidagilarni amalga oshirishni nazarda tutadi:

– makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlab qolish;

– milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish;

– qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirish;

– iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish bo'yicha institutsional va tarkibiy islohotlarni davom ettirish;

– xususiy mulk huquqini himoya qilish va uning ustuvor mavqeini yanada kuchaytirish;

– kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojini rag'batlantirish;

– hududlar, tuman va shaharlarni kompleks va mutanosib holda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiy ettirish;

– investitsiyaviy muhitni yaxshilash orqali mamlakatimiz iqtisodiyoti tarmoqlari va hududlariga xorijiy sarmoyalarni faol jalb etish.

Yuqorida sanab o'tilgan ustuvorliklarni bajarish byudjet-soliq siyosatida ham muayyan o'zgarishlarni amalga oshirish zarurligini nazarda tutadi. Bugungi kunda mamlakatimizda davlat moliyasi sohasida olib borilayotgan islohotlar zamirida aholi turmush farovonligini yuksaltirish, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning jadal rivojiga keng imkoniyat yaratish maqsadlari mujassamlashgan. Xususan, iqtisodiyotda soliq

yukini yanada kamaytirish, soliq solish mexanizmini soddalashtirish hamda soliq ma'murchiligini takomillashtirish borasidagi chora-tadbirlar ana shu maqsad ro'yobiga qaratilgan.

Ma'lumki, mamlakatimizda ishlab chiqarishni rag'batlantirish, davlat byudjeti barqarorligini ta'minlash maqsadida har yili Byudjet-soliq siyosatining asosiy yo'nalishlari qabul qilinadi. Xususan, 2018-yilga mo'ljallangan soliq-byudjet siyosatining asosiy yo'nalishlarida soliq yukini yanada qisqartirish, soliq va majburiy to'lovlar miqdorini kamaytirish, mahalliy byudjetlar daromad bazasini mustahkamlash va ularning mustaqilligini oshirish, mablag'lardan oqilona foydalanish hamda byudjetga tushumlarning to'liqligini ta'minlash belgilangan. Soliq siyosatida amalga kiritilgan o'zgarishlar soliq majburiyatlarini bajarishda soliq to'lovchilarga har tomonlama ko'maklashishga, soliqqa oid huquqbuzarliklar profilaktikasining ta'sirchan mexanizmlarini ishlab chiqishga va soliq to'lovchilarning huquqiy madaniyatini oshirishga, soliq nazoratiga oid zamonaviy uslublarni joriy etishga, soliqqa tortish borasida muammoli masalalarning kamayishiga, davlat byudjetiga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning to'g'ri hisoblanishi, o'z vaqtida va to'liq hajmda tushishi ta'minlanishiga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o'zining O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga Murojaatnomasida byudjet tizimini qayta ko'rib chiqish, byudjet daromadlari va xarajatlarining xalqimiz uchun ochiq-oshkora bo'lishini ta'minlash zarurligini ta'kidlagan edi. Zero, davlat va jamiyat boshqaruvidagi ochiqlik, mamlakat byudjetining taqsimlanishi va sarflanishidagi shaffoflik chinakam xalq hokimiyatini qaror toptirish va fuqarolik jamiyatiga asoslangan huquqiy demokratik davlat qurishning muhim shartidir. Ushbu holatlar mamlakatimizda yaqin va o'rta istiqbolga mo'ljallangan byudjet-soliq siyosatining asosiy yo'nalishlarini ishlab chiqishda inobatga olingan. Natijada 2020–2024-yillarda davlat

moliyasini boshqarish tizimini takomillashtirish strategiyasining asosiy yo'nalishlari etib quyidagilar belgilandi[16]:

– soliq-byudjet siyosatiga strategik yondashuvni tatbiq etish maqsadida o'rta muddatli byudjet asoslarini ishlab chiqish hamda yillik byudjetni shakllantirishning yangi "natijaga yo'naltirilgan byudjet" tizimini joriy etish;

– makrofiskal prognozlar ishonchliligini ta'minlash bo'yicha institutsional salohiyatni va byudjet jarayoni ishtirokchilarining mas'uliyatini oshirish;

– byudjet mablag'larini taqsimlovchilar va mahalliy davlat hokimiyati organlarining byudjet sohasidagi vakolatlarini va hisobdorligini oshirish hamda ularning mas'uliyatini kuchaytirish;

– fiskal tavakkalchiliklarni baholash, moliyaviy aktivlar va majburiyatlar hisobini yuritish hamda ularni samarali boshqarish tizimini joriy etish;

– byudjet hisobi standartlarini unifikatsiya qilish, ichki nazorat va audit tizimini takomillashtirish orqali moliyaviy intizomni mustahkamlash;

– byudjet ma'lumotlarining ochiqligi, to'liqligi va xalqaro standartlarga mosligini ta'minlash;

– byudjet jarayoni ustidan parlament va jamoatchilik nazoratini kuchaytirish.

Xulosa qilib aytganda, byudjet-soliq sohasida bo'layotgan yangiliklar, byudjet-soliq qonunchiligidagi o'zgarishlar mamlakatimizda ishlab chiqarish, biznes subyektlari va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, iqtisodiyot barqarorligini ta'minlash, aholiga munosib yashash va ishlash sharoitlarini yaratishdek ezgu maqsadlarga xizmat qiladi.

---

[16] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasining "2020-yil uchun O'zbekiston Respublikasining davlat byudjeti to'g'risida"gi Qonuni ijrosini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4555-son Qarori.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Davlat moliyaviy siyosati, uning turlari, maqsad va vazifalari to‘g‘risida nimalarni bilasiz?
2. Moliya siyosatining taktikasi va strategiyasini misollarda tushuntirib bering.
3. Mustaqillik yillarida O‘zbekiston Respublikasi byudjet-soliq siyosatining rivojlanish bosqichlari va har bir bosqichning ustuvor vazifalari nimalardan iborat bo‘ldi?
4. 2017–2020-yillarga mo‘ljallangan byudjet-soliq siyosatini amalga oshirish yo‘llari va mexanizmlari qanday hujjatlarda va amalga oshirilgan qanday chora-tadbirlarda o‘z aksini topdi?

Mavzu yuzasidan topshiriqlar

1. Byudjet-soliq siyosatining bosqichlari va har bir bosqichning asosiy vazifalarini aks ettiruvchi ma’lumot (mustaqil ish, taqdimot, tahliliy ish) tayyorlang.
2. O‘zbekiston Respublikasining yaqin va o‘rta istiqbolga mo‘ljallangan byudjet-soliq siyosatininig asosiy yo‘nalishlari haqida taqdimot tayyorlang.
3. 2020–2024-yillarga mo‘ljallangan byudjet-soliq siyosatining asosiy yo‘nalishlari bo‘yicha loyiha ishi tayyorlang.

6-BOB. DAVLAT MOLIYASINI BOSHQARISH

6.1. Davlat moliyasini boshqarish to'g'risida tushuncha. Boshqarish obyektlari, subyektlari, ularning guruhlanishi, asosiy vazifalari

Davlat moliyasini boshqarish masalalari iqtisodiyot va moliya nazariyasida markaziy o'rinni egallaydi. Iqtisodiyotni va davlat moliyasini boshqarishdagi muammolar shundan iboratki, bozor xo'jaligi o'zini o'zi tartiblovchi va rivojlantiruvchi tizim (bozorning "ko'rinmas qo'li") bo'lishiga qaramasdan, hech qachon davlat aralashuvisiz samarali ishlamagan. Tarixiy taraqqiyotdan ma'lumki, umuman olganda, kapitalistik bozor xo'jaligining yuzaga kelishi faol davlat aralashuvi bilan birga sodir bo'lgan. Masalan, 1563-yilda ingliz qirolichasi Yelizaveta I milliy baliqchilikni qo'llab-quvvatlash va unga bo'lgan talabni oshirish maqsadida o'z xizmatkorlariga haftasiga 2 marta go'sht mahsulotlarini iste'mol qilishni taqiqlagan[17]. 1666-yilda esa Angliyada jun mahsulotlarini sotish bilan bog'liq qiyinchiliklarni tugatish uchun bir qator tadbirlar amalga oshirildi. Xususan, dafn etilayotgan marhumlarni jun matodan bo'lgan liboslarda dafn etish majburiy qilib qo'yildi. Bu qonunni buzganlarga 5 funt-sterling miqdorida jarima belgilandi.

Aksariyat hozirgi zamon iqtisodchi-olimlarining fikricha, bozorning "ko'rinmas qo'li" davlatning "ko'rinadigan qo'li" bilan to'ldirilib turishi kerak. Bu borada kelishmovchiliklar, qarama-qarshi fikrlar yuzaga kelishining sababi – bu aralashuvning qay darajada bo'lishi bilan bog'liq, lekin davlatning tartiblovchi prinsipi asosan ko'pchilik olimlar tomonidan e'tirof etilmoqda. Bunday yakdillikning asosiy sababi shundaki, olimlarning fikriga ko'ra, bozor mavjud iqtisodiy va ijtimoiy muammolarning barchasini o'z-o'zidan hal qila olmaydi. Misol uchun, monopoliya sharoitida o'z-o'zini tartiblash

[17] Экономическая история зарубежных стран: учебное пособие / Т.М.Тимошина; под ред. проф. М.Н.Чепурина. – 9-ое изд., стер. – М.: Юстицинформ, 2013. -504 стр.

raqobatni rivojlantira olmaydi, bu esa tovarlar ma'lum turlari narxining oshishiga olib keladi va natijada aholi daromadlari iqtisodiyotning alohida bir sektorida ushlanib qoladi. Bunday hollarda bozor mexanizmi samarasiz ishlay boshlaydi va iqtisodiy tanglik davrida iqtisodiyotni barqarorlashtirishda bozor mexanizmi sust qatnashadi. Shuning uchun, iqtisodiyotni tartiblovchi qo'shimcha mexanizmlarni ishlab chiqish ehtiyoji tug'iladi. Ana shunday mexanizmlardan biri – bu davlatning iqtisodiyotni tartiblovchi unsurlari – dastak va vositalaridir. Ana shu dastak va vositalar ichida davlat moliyasi asosiy o'rinni egallaydi. Davlat moliyasi davlatning qo'lidagi iqtisodiyot va ijtimoiy jarayonlarni boshqarish va tartibga solish quroli bo'lish bilan birga, iqtisodiy kategoriya sifatida muayyan iqtisodiy munosabatlar yig'indisini tashkil etadi, bu munosabatlarni boshqarish davlat byudjetini, davlat moliyaviy resurslarini, va, umuman, mamlakat moliya tizimini boshqarishda namoyon bo'ladi.

Davlat moliyasi tizimini boshqarish quyidagilarni nazarda tutadi:

– moliya tizimining asosiy tamoyillariga amal qilgan holda davlat moliyaviy munosabatlarini boshqarish;

– barcha darajadagi byudjetlarni, davlat maqsadli jamg'armalarini tuzish, ko'rib chiqish, qabul qilish, ijro etish jarayonlarini boshqarish;

– davlatning qarz olish va qarz berish bilan bog'liq munosabatlarni boshqarish;

– davlat moliyaviy resurslarining shakllanishi, taqsimlanishi va ishlatilishi jarayonlarini boshqarish;

– by jarayonlarda ishtirok etuvchi subyektlar, vakolatli organlar va davlat mablag'laridan foydalanuvchilar faoliyatini boshqarish.

Davlat moliyasini boshqarish ham boshqarish kategoriyasining barcha funksiyalarini bajaradi, ular orqali davlat moliyasini boshqarish oldidagi maqsad va vazifalar amalga oshiriladi. Bu funksiyalar: rejalashtirish, tashkil etish, muvofiqlashtirish, nazorat va rag'batlantirish. Davlat moliyasini boshqarish tushunchasi subyektiv tushuncha bo'lib, u alohida vakolatli organlar tomonidan amalga oshiriladi, ularning

vakolatlari O‘zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksi, tegishli boshqaruv organlari Nizomlari va boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlar bilan belgilab berilgan.



Davlat moliyasini boshqarish *obyektlari* bo‘lib davlat moliyasi bilan bog‘liq munosabatlar, davlat byudjeti va maqsadli jamg‘armalarning daromadlar bo‘yicha shakllanishi va xarajatlar bo‘yicha bajarilishi, byudjetlararo munosabatlar, davlat qarzini jalb qilish va unga xizmat ko‘rsatish, davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dasturlarini mablag‘ bilan ta’minlash, favqulodda jamg‘armalar tuzish va ularga ichki va tashqi manbalardan mablag‘ jalb qilish va shu kabi ijtimoiy-iqtisodiy pul munosabatlari, shuningdek, byudjet tashkilotlari va byudjetdan (yoki davlatning boshqa jamg‘armalaridan) mablag‘ oluvchilarning ularga ajratilgan mablag‘lardan foydalanish asosidagi xo‘jalik-moliyaviy faoliyati hisoblanadi. davlat moliyasini *boshqarish subyektlari* esa bevosita shu munosabatlarni boshqarish, tashkil etish, muvofiqlashtirish va nazorat qilishda ishtirok etuvchi muayyan vakolatlarga ega bo‘lgan davlatning qonunchilik-ijroiya institutlari – *boshqaruv organlaridir.* davlat moliyasini boshqarish subyektlarini, boshqarishdagi vakolatlariga ko‘ra, quyidagicha guruhlash mumkin:



6.1-rasm. **Byudjet tizimini boshqarish subyektlarining guruhlanishi**

Davlat moliyasini boshqarish organlarining vakolatlari, funksiya va vazifalari O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksi, tegishli boshqaruv organlarning nizomlari va boshqa me'yoriy hujjatlar bilan belgilab beriladi.

6.2. Markaziy va mahalliy davlat hokimiyati organlarining davlat moliyasini boshqarish sohasidagi vakolatlari

O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksida quyidagi davlat hokimiyati organlari va joylardagi davlat hokimiyati organlarining davlat moliyasini boshqarish sohasidagi vakolatlari tegishli moddalarda belgilab berilgan:

– O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining byudjet sohasidagi vakolatlari;

– O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasining byudjet sohasidagi vakolatlari;

– Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesining, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar Kengashlarining byudjet sohasidagi vakolatlari;

– Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashining, viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar hokimlarining byudjet sohasidagi vakolatlari;

– O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining byudjet sohasidagi vakolatlari;

– Hududiy moliya organlarining byudjet sohasidagi vakolatlari;

– Byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarning byudjet sohasidagi vakolatlari;

– Byudjet tashkilotlarining va byudjet mablag‘lari oluvchilarning byudjet sohasidagi vakolatlari;

– Davlat maqsadli jamg‘armalarini taqsimlovchi organlarning byudjet sohasidagi vakolatlari.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesining, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar Kengashlarining byudjet sohasidagi vakolatlari quyidagilardan iborat:

– Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjetini, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlarini, tumanlar va shaharlar byudjetlarini tegishincha Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar hokimlarining taqdimnomasiga muvofiq ko‘rib chiqadi va qabul qiladi;

– Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari, tumanlar va shaharlar byudjetlarining tegishli davrdagi ijrosi to‘g‘risidagi hisobotlarni tegishincha Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar hokimlarining taqdimnomasiga muvofiq har chorakda ko‘rib chiqadi va tasdiqlaydi;

– mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning stavkalarini qonun hujjatlarida belgilangan miqdorlar doirasida belgilaydi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining, viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar hokimlarining byudjet sohasidagi vakolatlari quyidagilardan iborat:

– tegishli byudjet loyihasini ishlab chiqish va uni ijro etish jarayonini tashkil etadi hamda muvofiqlashtirib boradi;

– byudjet so'rovi olinishiga qarab tegishli byudjetlarning loyihalarini tuzish to'g'risida qarorlar qabul qiladi, ularni tayyorlash tartibi va muddatlarini belgilaydi;

– Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti loyihasini, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari, tumanlar va shaharlar byudjetlari loyihalarini tegishincha Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesiga, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar Kengashlariga ko'rib chiqish va qabul qilish uchun taqdim etadi;

– Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesining, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar Kengashlarining qarorlariga muvofiq Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari, tumanlar va shaharlar byudjetlari parametrlarini tasdiqlaydi;

– moliya yili mobaynida Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari, tumanlar va shaharlar byudjetlari parametrlariga o'zgartirishlar kiritish to'g'risidagi takliflarni ko'rib chiqadi;

– Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari, tumanlar va shaharlar byudjetlarining tegishli davrdagi ijrosi to'g'risidagi hisobotlarni Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesiga, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar Kengashlariga tasdiqlash uchun taqdim etadi;

– Davlat byudjetiga va davlat maqsadli jamg‘armalari byudjetlariga tushumlar to‘liq va o‘z vaqtida tushishi ustidan nazoratni tashkil etadi;

– byudjet mablag‘larining maqsadli sarflanishi ustidan nazoratni tashkil etadi;

– Qoraqalpog‘iston Respublikasi respublika byudjetining, viloyatlar viloyat byudjetlarining va Toshkent shahri shahar byudjetining, tumanlar va shaharlar byudjetlarining qo‘shimcha manbalaridan foydalanish to‘g‘risida qarorlar qabul qiladi;

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining davlat moliyasini boshqarishdagi vakolatlari:

— davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg‘armalari byudjetlari, shuningdek, soliq va byudjet siyosatining asosiy yo‘nalishlari loyihalarini ishlab chiqish jarayonini tashkil etadi hamda muvofiqlashtirib boradi;

— davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg‘armalari byudjetlari, shuningdek, soliq va byudjet siyosatining asosiy yo‘nalishlari loyihalarini ko‘rib chiqish hamda tegishli xulosa taqdim etish uchun O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasiga yuboradi;

— byudjetnoma loyihasini ko‘rib chiqadi va tasdiqlaydi;

— byudjetnomani O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalariga taqdim etadi;

— davlat boshqaruvi organlarining davlat byudjetini va davlat maqsadli jamg‘armalari byudjetlarini ijro etish borasidagi faoliyatini muvofiqlashtirib boradi hamda nazorat qiladi;

— davlat byudjetining va davlat maqsadli jamg‘armalari byudjetlarining ijrosi to‘g‘risidagi hisobotlarni har chorakda ko‘rib chiqadi;

— o‘tgan moliya yili uchun davlat byudjetining va davlat maqsadli jamg‘armalari byudjetlarining ijrosi to‘g‘risidagi hisobotlarni tashqi audit o‘tkazish hamda baholash uchun O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasiga yuboradi;

— davlat byudjetining va davlat maqsadli jamg‘armalari byudjetlarining tegishli davrdagi ijrosi to‘g‘risidagi hisobotlarni tasdiqlash uchun O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga taqdim etadi;

— moliya yili mobaynida davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg‘armalari byudjetlari parametrlariga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risidagi takliflarni ko‘rib chiqadi;

— O‘zbekiston Respublikasi respublika byudjetining qo‘shimcha manbalaridan foydalanish to‘g‘risida qarorlar qabul qiladi;

— O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining zaxira jamg‘armasi mablag‘laridan foydalanish to‘g‘risida qarorlar qabul qiladi.

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksi (O‘RQ–360-son. 26.12.2013). 25-modda.

– Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari ushbu moddaning birinchi qismida ko‘rsatilgan vakolatlar bilan bir qatorda tegishincha Qoraqalpog‘iston Respublikasi respublika byudjetining, viloyatlar viloyat byudjetlari va

Toshkent shahri shahar byudjetining zaxira jamg'armalari mablag'laridan foydalanish to'g'risida qarorlar qabul qiladi.

6.3. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, uning davlat moliyasini boshqarishdagi vakolatlari

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi O'zbekiston Respublikasi davlat boshqaruvi organi hisoblanadi. Moliya vazirligi respublikaning markaziy moliya-iqtisodiy organi sifatida O'zbekiston Respublikasining moliyaviy, narx siyosatini hayotga tatbiq etadi va uning butun hududida moliya, narx-navoni tashkil etish faoliyatiga umumiy rahbarlikni amalga oshiradi.

Moliya vazirligi O'zbekiston Respublikasining vazifalari va funksiyalarini amalga oshirish uchun zarur moliyaviy negiz yaratishni, respublika byudjetini ishlab chiqish va ijro etishni, uning daromad qismi barqarorligini ta'minlashni, valyuta rejasini tuzish va ijro etishni, pul resurslaridan oqilona va tejab sarflashni ta'minlaydi.

Moliya vazirligi respublika byudjeti ham daromadlar, ham xarajatlar bo'yicha ijro etilishi, moliyaviy resurslarni umumrespublika ehtiyojlariga safarbar etish ishlarini tashkil etish uchun javob beradi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Moliya vazirligi, viloyatlar va tumanlar hokimliklari boshqarmalari va bo'limlari, davlat sug'urta idoralari, shuningdek, ularga qarashli davlat korxonalari, muassasalari va tashkilotlari O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining yagona tizimini tashkil etadi.

Moliya vazirligi o'z tizimiga kiruvchi korxonalar, muassasalar va tashkilotlar faoliyatini to'g'ridan to'g'ri yoki o'zi tashkil etadigan organlar orqali muvofiqlashtiradi va yo'naltiradi.

Moliya vazirligi tizimiga kiruvchi organlarni boshqarish jarayonida Vazirlik O'zbekiston Respublikasining moliyaviy va narx-navo siyosatini amalga oshirishning birligini ta'minlaydi.

2017-yilga qadar Moliya vazirligining byudjet tizimini boshqarish bo'yicha vakolatlari, asosiy vazifalari va funksiyalari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1992-yil 23-noyabrdagi 553-son qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi to'g'risidagi Nizom"[18] bilan tartibga solinib kelingan.

2017-yilga kelib, respublikadagi barcha moliya organlari faoliyatini tubdan takomillashtirish, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining soliq-byudjet siyosatiga qat'iy rioya etilishini ta'minlash, iqtisodiyotning real sektori tarmoqlarini hamda ijtimoiy sohani barqaror, mutanosib va jadal rivojlantirish, mahalliy byudjetlarning daromad bazasini mustahkamlash, byudjet mablag'laridan samarali foydalanishga yo'naltirilgan vazifalari, funksiyalari, ish shakllari va uslublarini qayta ko'rib chiqish maqsadida 2017-yil 18-martda "Moliya organlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ–2847-sonli Qarori[19] qabul qilindi. Ushbu qaror bilan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va uning hududiy bo'linmalari faoliyatining quyidagi ustuvor vazifalari hamda yo'nalishlari belgilab berildi:

– iqtisodiy o'sishning barqaror yuqori sur'atlarini, iqtisodiyot va ijtimoiy sohaning moliyaviy mutanosibligini ta'minlashda, davlatning ijtimoiy majburiyatlarini to'liq va o'z vaqtida bajarishda, yirik investitsiya loyihalarini moliyalashtirish va mamlakatning mudofaa qobiliyatini mustahkamlashda moliya organlarining rolini oshirishga yo'naltirilgan yagona davlat soliq-byudjet siyosatini amalga oshirish;

– iqtisodiyot va aholiga soliq yukini kamaytirish, ishlab chiqarish samaradorligini ta'minlash, mineral-xomashyo, yer-suv hamda boshqa resurslar va uskunalardan oqilona foydalanishda soliq hamda boshqa majburiy to'lovlarning rag'batlantiruvchi rolini kuchaytirish yo'li bilan soliq tizimini izchil takomillashtirib borish, soliq ma'muriyatchiligi samaradorligini oshirish, soliqlar hamda boshqa

[18] O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami,2015-y., 27-son, 355-modda
[19] O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 13-son, 201-modda

majburiy to‘lovlarni hisoblash va to‘lash tartibini soddalashtirish, shuningdek, soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘liq yig‘ilishini ta’minlash maqsadida ularning stavkalarini optimallashtirish;

– byudjetlararo munosabatlarni tubdan takomillashtirish, Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlarining daromad bazasini barcha choralar bilan kengaytirish, viloyatlar va tumanlarni subvensiyadan chiqarib, ularning mutanosibligi va o‘zini o‘zi qoplay olishini ta’minlash, hududlar hokimliklari bilan birgalikda Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar hamda Toshkent shahrini kompleks va intensiv rivojlantirish asosida davlat byudjetiga qo‘shimcha manbalar jalb etish yuzasidan tizimli ishlarni amalga oshirish, tabiiy va iqtisodiy salohiyatdan yanada to‘liq va samarali foydalanish, hududlar iqtisodiyotini modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash;

– moliyaviy resurslarni iqtisodiy taraqqiyotning eng ustuvor yo‘nalishlariga, ijtimoiy sohani, ayniqsa qishloq joylarida jadal rivojlantirishga, maqsadli investitsiya dasturlarini moliyalashtirishga, belgilangan me’yorlarga muvofiq ularni real moliyalashtirish manbalari bilan mustahkamlashga, ushbu asosda kreditorlik va debitorlik qarzlarini kamaytirishga jamlash;

– iqtisodiyot bazaviy tarmoqlarining moliyaviy barqarorligini ta’minlash borasidagi ishlarni muvofiqlashtirish, qishloq xo‘jaligini moliyaviy qo‘llab-quvvatlashning samarali usul va mexanizmlarini joriy etish, tovarlar va xizmatlarning ayrim turlariga narx va tariflar belgilash tartibini takomillashtirish hamda to‘lov intizomini mustahkamlash;

– byudjet tizimidagi byudjet mablag‘laridan maqsadli hamda oqilona foydalanish ustidan davlat moliyaviy nazoratini amalga oshirish, qat’iy iqtisod qilish, ishlab chiqarish va muomala xarajatlarini kamaytirish, nobudgarchilik va talon-torojlikni, maqsadga nomuvofiq chiqimlarni tugatish yuzasidan vazirliklar,

idoralar, xo'jalik subyektlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari bilan birgalikda keng qamrovli profilaktika ishlarini olib borish;

– O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki va boshqa valyuta nazorati organlari bilan birgalikda valyuta-moliya siyosatining asosiy tamoyillari va usullarini shakllantirish, davlatning valyuta resurslarini ko'paytirish va ulardan samarali foydalanish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

– fuqarolarning pensiya ta'minoti sohasida davlat siyosatining asosiy yo'nalishlarini ishlab chiqish, Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi daromadlari va xarajatlarining mutanosibligini ta'minlash, Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi tomonidan uning zimmasiga yuklangan vazifalar va funksiyalar, xususan pensiyalar hamda boshqa tegishli to'lovlarni tayinlash va o'z vaqtida to'lash bo'yicha o'rnatilgan qoidalarning qo'llanilishini muvofiqlashtirish hamda ularni nazorat qilish;

– sug'urta tashkilotlarining sug'urta munosabatlari barcha qatnashchilarining huquq va qonuniy manfaatlari himoya qilinishini ta'minlashga qaratilgan faoliyatini nazorat qilish, buxgalterlik hisobi va hisobotining yagona metodologiyasini shakllantirish va amalga oshirish, auditorlik faoliyatini tartibga solish, mamlakatning moliya bozorlarini rivojlantirish bo'yicha davlat siyosatini amalga oshirishda ishtirok etish;

– davlat moliya siyosati sohasida kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini tashkil etish, Moliya vazirligi, uning markaziy apparati hamda tarkibiy bo'linmalarining ish shakllarini va usullarini tubdan takomillashtirish, moliya organlari faoliyatida byurokratizm va sansalorlik hollariga yo'l qo'ymaslik, inson huquqlari, erkinliklari va manfaatlariga rioya etilishini ta'minlash, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlariga o'z vaqtida e'tibor qaratish, zimmasiga yuklatilgan vazifalarning o'z

vaqtida va sifatli bajarilishi uchun moliya organlari xodimlarining mas'uliyatini oshirish.

Yuqorida nomi keltirilgan Prezident qarori bilan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi to'g'risidagi Nizom, Moliya vazirligi va vazirlik markaziy apparatining tashkiliy tuzilmasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Moliya vazirligining, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari moliya bosh boshqarmalarining, shahar hokimliklari moliya bo'limlarining, tuman va shaharlar hokimliklari moliya bo'limlarining namunaviy tuzilmalari ham tasdiqlandi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Davlat moliyasini boshqarish obyektlari va subyektlari qaysilar? Misollarda tushuntiring.
2. Davlat moliyasini boshqarishga mas'ul organlarning asosiy vazifalari nimalardan iborat?
3. Markaziy va mahalliy ijroiya hokimiyati organlarining davlat moliyasi borasidagi vakolatlari va mustaqilligi shartlari va mezonlari qanday?
4. Byudjet istiqbolini belgilash, byudjetlararo munosabatlarni muvofiqlashtirishda markaziy va mahalliy davdat hokimiyati organlari faoliyatida qanday muammolar mavjud, ularni hal etish yo'llari qanday? Bu borada Harakatlar strategiyasida qanday ustuvor yo'nalishlar belgilab berilgan?
5. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining davlat moliyasini boshqarishdagi ahamiyatini nimalar bilan izohlash mumkin?
6. Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va uning tarkibiy bo'linmalarining davlat moliyasini boshqarish borasidagi vakolatlari nimalardan iborat?

Mavzu yuzasidan topshiriqlar

1. Davlat moliyasini boshqarishga mas'ul organlarning vakolatlari, vazifalari va funksiyalari aks ettirilgan me'yoriy-huquqiy hujjatlar katalogini ishlab chiqing.

2. O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning 2017–2021-yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasini o'rganish asosida "Davlat moliyasini boshqarishdagi muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari" mavzusida taqdimot tayyorlang.

7-BOB. DAVLAT BYUDJETI

7.1. Davlat byudjetining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati va funksiyalari

Davlat byudjetining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati. Davlat byudjetining mazmunini yoritishga turli davr va turli yo'nalishdagi iqtisodiy maktablar vakillari bo'lgan iqtisodchi olimlar turlicha yondashganlar. Masalan, iqtisodiy ilm ahllari orasida o'zining teran ilmiy qarashlari, moliya, soliq, sug'urta, davlat byudjeti kabi iqtisodiy kategoriyalarning mazmun-mohiyati, funksiyalari, kishilik taraqqiyotidagi o'rni, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlardagi ahamiyati, amaliyotda namoyon bo'lish shakllari to'g'risidagi fundamental ilmiy tadqiqotlari va o'quv-uslubiy ishlanmalari bilan tanilgan o'zbek iqtisodchi olimlari i.f.d., professor T.Malikov va i.f.d., professor N.Xaydarovlarning "Davlat byudjeti" nomli o'quv qo'llanmalarida "davlat byudjeti" tushunchasi haqida quyidagi fikrlar keltirilgan: "Davlat byudjeti deyilganda, eng avvalo, ikki tushunchaning qo'shilishini tushunmoq kerak: birinchisi davlat miqyosida yalpi ichki (milliy) mahsulotni taqsimlash natijasida vujudga keladigan iqtisodiy (moliyaviy) munosabatlar (iqtisodiy kategoriya) va ikkinchisi shu kategoriyaning namoyon bo'lish shakli sifatida davlatning asosiy moliyaviy rejasi"[20].

Agar xorijiy adabiyotlardagi "davlat byudjeti" tushunchasining talqiniga nazar tashlasak, masalan, "Public budgeting systems"[21] nomli qo'llanmada keltirilishicha, "davlat byudjetining kelib chiqishi, rivojlanishi va isloh qilib borilishi davlat boshqaruvidagi rasmiy shaxslarni o'z xatti-harakatlari uchun javobgarlik va mas'uliyatga

[20] Malikov T.S., Xaydarov N.H. Davlat byudjeti. O'quv qo'llanma – T.: "IQTISOD–MOLIYA", 2007. 5-b.
[21] Robert D.Lee Jr., Ronald W.Johnson,Philip G. Joyce. Jones & Bartlett Learning; 9 edition. USA, 2012.

chaqirishga bo'lgan intilish bilan bog'liq"[22]. "Demokratik jamiyatda byudjet – bu hukumatning kuch va imkoniyatlarini cheklash, bir qolipga solish vositasi sifatida qaralishi mumkin"[23].

Bir qator ilmiy adabiyotlarda davlat byudjetining *ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatini* yoritishda uning:

– iqtisodiy kategoriya sifatida;

– moddiy tushuncha sifatida;

– huquqiy kategoriya sifatida mavjud ekanligi va amal qilishi nazarda tutilgan (7.1-rasm).



7.1-rasm. **Davlat byudjetining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati**[24]

Iqtisodiy kategoriya sifatida davlat byudjeti – davlat bilan yuridik va jismoniy shaxslar o'rtasida mamlakatda yaratilgan yalpi ichki

[22] White,M.(1978). Budget policy: where does it begin andend?GovernmentalFinance,7, 2-9. Credits
W. F.Willoughby's The problemofa nationalbudget (1919) with anearly statement ofbudgetingasa process for holding government accountable.
[23] Robert D.Lee Jr., Ronald W.Johnson,Philip G. Joyce. Jones & Bartlett Learning; 9 edition. USA, 2012. P. 7
[24] Nurmuxamedova B.I., Kabirova N.V. Moliya. O'quv qo'llanma. T.: IQTISOD-MOLIYA. 2017. 102-bet.

mahsulotning, uning faol qismi bo'lgan milliy daromadning (qisman milliy boylikning) qiymatini qayta taqsimlash yuzasidan kelib chiqadigan pul munosabatlari tizimi bo'lib, ular natijasida iqtisodiyotni, ijtimoiy-madaniy sohalarni, mudofaa, davlat boshqaruvi va boshqa davlat ehtiyojlarini moliyalashtirishga mo'ljallangan pul fondi bo'lgan davlat byudjeti shakllanadi va maqsadga muvofiq tarzda ishlatiladi.

Moddiy tushuncha sifatida davlat byudjeti – markaziy hukumat va tegishli darajadagi mahalliy hokimiyatlar faoliyatini ta'minlovchi, ular oldidagi siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik vazifalarni bajarishga mo'ljallangan markazlashtirilgan pul mablag'lari fondidir.

Huquqiy kategoriya sifatida davlat byudjeti – markaziy va tegishli mahalliy hokimiyat va ijroiya organlari tomonidan ishlab chiqiladigan va belgilangan tartibda tasdiqlanadigan, markazlashgan pul mablag'lari fondini shakllantirish, taqsimlash va maqsadli ishlatishni ko'zda tutuvchi asosiy moliyaviy reja, yuridik hujjatdir. Yuridik hujjat sifatida O'zbekiston Respublikasida davlat byudjeti qonun hujjatlarida belgilangan tartibda va muddatlarda har moliya yili[25] uchun tuziladi, ko'rib chiqiladi, qabul qilinadi va ijro etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining 3-moddasida esa "davlat byudjeti" iborasi "davlatning davlat vazifalari va funksiyalarini moliyaviy jihatdan ta'minlash uchun mo'ljallangan markazlashtirilgan pul jamg'armasi"[26], deb ta'riflanadi. Ushbu ta'rif davlat byudjetining yuqorida sharhlangan moddiy tushuncha sifatidagi mazmun-mohiyatiga mos keladi.

"Public budgeting systems" nomli qo'llanmada "davlat byudjeti nima?" deb qo'yilgan savolga "Sodda qilib ta'riflaganda, byudjet – bu

[25] O'zbekiston Respublikasida moliya yili kalendar yiliga mos keladi, lekin dunyo mamlakatlarida ularning an'analari va mamlakat hayotidagi muhim, hal qiluvchi tarixiy sanalariga muvofiq, byudjet yili kalendar yiliga mos kelmasligi mumkin.

[26] O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksi. O'zbekiston Respublikasi qonuni. O'RQ–360-son, 26.12.2013. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2015 y. 52-son, 645-modda.

tashkilotning (masalan, oila, korporatsiya, hukumat) moliyaviy holati va kelgusi rejalarini, ya'ni daromadlar, xarajatlar rejasi, maqsadlar va natijalar to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oluvchi hujjat yoki hujjatlar yig'indisi"[27], deb ta'rif berilgan. Retrospektiv xarakterga ega bo'lgan, ya'ni o'tgan davr ma'lumotlarini aks ettirishga asoslangan buxgalteriya hisobotidan farqli o'laroq, (garchi byudjet ishlab chiqilayotganda byudjetning o'tgan davrdagi daromadlari va xarajatlari ijrosining buxgalteriya hisobi ma'lumotlaridan foydalanilsa-da) byudjet – kelgusida kutilayotgan daromadlar, xarajatlar va natijalarni ko'rsatuvchi perspektiv hujjat hisoblanadi. Lug'aviy ma'nosiga ko'ra, *byudjet* so'zi charm karmon, hamyon, sumka ma'nosini anglatgan. Tarixan, xususan, "Britaniya davlatida Xazina kansleri (Moliya vaziri) hukumatning ehtiyojlari va resurslari hajmi aks etgan bayonotini mamlakat parlamentiga charm sumkada taqdim etgan va bu hujjat keyinchalik byudjet nomini olgan"[28].

Davlat byudjetining funksiyalari. Davlat byudjetining mohiyati uning iqtisodiy kategoriya sifatidagi *funksiyalarida* namoyon bo'ladi. Turli davr va turli maktab iqtisodchilari davlat byudjetining funksiyalarini yoritishga turlicha yondashadilar. Masalan, T. Malikov, N. Xaydarov hammuallifligidagi "Davlat byudjeti" o'quv qo'llanmasida davlat byudjetining funksiyalari quyidagi tarzda bayon qilingan: "Davlat byudjeti moliyaning tarkibiy qismi sifatida, uning boshqa bo'linmalari singari, ikki xil funksiyani bajaradi: 1) taqsimlash; 2) nazorat"[29].

Bu va shu kabi boshqa adabiyotlarni o'rganish asosida, davlat byudjetining amalda namoyon bo'lish shakllarini o'rgangan hamda ko'pchilik iqtisodchi olimlarning fikriga qo'shilgan holda, davlat

[27] Robert D.Lee Jr., Ronald W.Johnson,Philip G. Joyce.. Jones & Bartlett Learning; 9 edition. USA, 2012. P. 14
[28] Burkhead, J. (1956). Government budgeting, 2.
[29] Malikov T.S., Xaydarov N.H. Davlat byudjeti. O'quv qo'llanma – T.. "IQTISOD-MOLIYA", 2007. 5-bet.

byudjeti quyidagi *asosiy funksiyalarni* bajaradi, deyishimiz mumkin (7.2-rasm):

- yalpi ichki mahsulot qiymatini qayta taqsimlash funksiyasi;
- iqtisodiyotni tartibga solish v boshqarish funksiyasi;
- ijtimoiy funksiyasi;
- nazorat funksiyasi.



7.2-rasm. **Davlat byudjetining funksiyalari**[30]

Yalpi ichki mahsulot qiymatini qayta taqsimlash funksiyasi. Davlat byudjeti mamlakatda yaratilgan yalpi ichki mahsulot va uning tarkibiga kiruvchi milliy daromadning qiymatini qayta taqsimlashda o'zining qayta taqsimlash funksiyasi bilan ishtirok etadi. Bunday qayta taqsimlash jarayonlari natijasida yaratilgan YaIMning qiymatidan to'lanadigan soliqlar va soliq xarakteridagi boshqa majburiy to'lovlarning to'lanishi asosida byudjet daromadlari

[30] Nurmuxamedova B.I.O'quv qo'llanma. T.: IQTISOD-MOLIYA. 2018. 19-bet.

shakllanadi. Byudjet daromadlari davlat markazlashgan moliyaviy resurslarining bir qismi sifatida, davlatning funksiyalarini bajarish uchun sarflanadi. Ular pul mablag'lari jamg'armalarini shakllantirish jarayonida vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlarni o'zida ifoda etadi va turli darajadagi hokimiyat organlarining ixtiyoridagi markaziy va mahalliy byudjetlarga kelib tushadi. O'zbekiston Respublikasida har yili davlat byudjeti orqali mamlakat YaIMining 24-25 foizi qayta taqsimlanadi. Davlat maqsadli jamg'armalari bilan birga hisoblaganda esa bu ko'rsatkich bugungi kunda 34-35 foizni tashkil etmoqda.

Iqtisodiyotni tartibga solish va boshqarish funksiyasi. Soliqlar va byudjet xarajatlari orqali davlat byudjeti iqtisodiyotni tartibga solish, investitsiyalarni rag'batlantirish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning hal qiluvchi va muhim quroli bo'lib xizmat qiladi. Bunda byudjet mablag'lari hisobidan iqtisodiyotning ilg'or tarmoqlari – aviasozlik, kosmik dasturlar va loyihalar, atom sanoati, energetika va mashinasozlik sanoatlari, ilmiy tadqiqotlar olib borish kabilar qo'llab-quvvatlanadi. Samaradorligi yuqori bo'lgan va o'zini tez qoplovchi loyihalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash ham muhimdir. Lekin davlat byudjetining bu funksiyasidan orqada qolayotgan va qoloq ishlab chiqarishlarga moliyaviy yordam berish kabi o'tmishda mavjud bo'lgan va o'zini oqlamagan maqsadlarda foydalanish iqtisodiyotning raqobatbardoshligini ta'minlashga, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga jiddiy putur yetkazishini unutmaslik lozim.

Davlat byudjetining ijtimoiy funksiyasi. Davlat ijtimoiy siyosatini amalga oshirishda davlat byudjeti katta o'rin egallaydi. Davlatning ijtimoiy kafolatlari doirasidagi xizmatlarni ko'rsatadigan ta'lim, sog'liqni saqlash, fan, madaniyat sohalarini mablag' bilan ta'minlash, aholining kam ta'minlangan qatlamlarini (pensionerlar, nogironlar, bolalar, kam ta'minlangan oilalar) ijtimoiy himoya qilish – ijtimoiy siyosatning ustuvorliklari hisoblanadi. Bundan tashqari, madaniyat

sohasi keng ma'noda iqtisodiy taraqqiyotning muhim komponentlaridan biridir, bu borada jamiyat a'zolarining imkoniyatlarini rivojlantirish taraqqiyotning harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi. Shunday ekan, bu yo'nalishdagi davlat tadbirlarini mablag' bilan ta'minlashda davlat byudjetining ijtimoiy funksiyasi yanada yaqqolroq namoyon bo'ladi.

Davlat byudjetining nazorat funksiyasi orqali byudjet daromadlarining shakllanishi, byudjet mablag'larining oqilona va maqsadga muvofiq ishlatilishi, byudjetdan mablag' oluvchilarning moliya-xo'jalik faoliyati, ular tomonidan byudjet qonunchiligiga rioya qilish holati, yalpi ichki mahsulot va milliy daromadning taqsimlanish va qayta taqsimlanish nisbatlari nazorat qilinadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat moliyaviy resurslarining shakllanishi va ishlatilishi ustidan nazoratning zarurligi va ahamiyati yanada ortib bormoqda.

Xulosa qilib aytganda, davlat o'z funksiyalarini bajarishi, shuningdek, taraqqiyotning u yoki bu bosqichida uning oldida turgan strategik maqsadlarni amalga oshirish uchun mamlakatda yaratilgan moliyaviy resurslarning ma'lum bir qismini o'z qo'lida to'plamog'i obyektiv zaruriyatdir. Shu bilan birga, mablag'larni davlat moliyasi orqali qayta taqsimlash ko'lami ko'p jihatdan mamlakat iqtisodiyotining holati va rivojlanish darajasiga, davlatning iqtisodiy jarayonlarga aralashish ko'lamlariga, ijtimoiy sohadagi davlatning majburiyatlari ko'lamiga, aholini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash dasturlarining qamrovliligiga bog'liq. Milliy iqtisodiyotni boshqarish va taribga solishda, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda, har bir davrning ustuvor taraqqiyot vazifalarini muvaffaqiyatli bajarishda davlatning boshqa iqtisodiy instrumentlari qatori, davlat byudjeti ham muhim ahamiyat kasb etadi va ma'lum vazifalarni bajaradi. Lekin bu vazifalarning samarali bajarilishi tegishli byudjet mexanizmining ishlab chiqilishini va samarali ishlashini taqozo etadi.

7.2. Byudjet tuzilishi va byudjet tizimi, byudjetlararo munosabatlar

Byudjet tuzilishi. Byudjet tuzilishining qanday bo'lishi mamlakatning ma'muriy-hududiy tuzilishiga va hukumat organlarining vakolatlari taqsimotiga bog'liq bo'ladi. Markaziy hukumat bilan mamlakatning ma'muriy-hududiy tuzilmalari (shtatlar, provinsiyalar, oblastlar, o'lkalar, yerlar kabi) o'rtasida hokimiyat vakolatlarining taqsimlanishiga ko'ra barcha davlatlar *unitar va federativ* (federativ davlatlarda davlat tuzilishining ikki shakli – federativ va konfederativ davlat tuzilishi mavjud) davlatlarga bo'linadi. Unitar va federativ davlat tuzilishining o'ziga xos xususiyatlari quyidagi chizmada aks ettirilgan (7.3-rasm).



7.3-rasm. **Turli davlatlarning davlat tuzilishi shakllari xususiyatlari**[31]

Unitar (yagona) davlat – bu tarkibidagi ma'muriy-hududiy birliklar (tuzilmalar) o'z davlatchiligiga yoki muxtoriyatiga ega bo'lmaydigan davlat tuzilishidir. Mamlakatda yagona konstitutsiya, hamma uchun umumiy bo'lgan huquq tizimi va yagona hokimiyat

[31] Nurmuxamedova B. Moliya. O'quv qo'llanma. –T.: IQTISOD-MOLIYA. 2017. 117-bet

organlari, iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy jarayonlarni markazlashtirilgan boshqarish tizimi amal qiladi.

Unitar davlatlarga Angliya, Fransiya, Italiya, Vengriya, Qozog'iston, Yaponiya, Shvetsiya, Polsha, O'zbekiston kabi davlatlar kiradi[32].

Federatsiya davlat tuzilishining ancha murakkab shakli hisoblanadi. Federativ davlat bir qancha boshqa davlatlardan yoki federatsiya a'zosi (subyektlari) bo'lgan davlat tuzilmalari(shtatlar, kantonlar, ittifoqdosh yoki avtonom respublikalar va b.)dan tarkib topadi. Ularning har biri o'z ma'muriy-hududiy bo'linishiga ega. Butun federatsiya uchun umumiy bo'lgan davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari bilan bir qatorda, har bir federatsiya subyektining hududida o'z davlat hokimiyati va boshqaruvining oliy va mahalliy organlari faoliyat ko'rsatadi. Federatsiya a'zolari (subyektlari) o'zining sud organlari va boshqa adliya organlariga ham ega bo'ladi, o'z konstitutsiyasi va qonunlarini qabul qiladi[33]. Federativ davlatlarga Rossiya Federatsiyasi, Germaniya Federativ Respublikasi, AQSh, Kanada, Meksika, Avstriya, Belgiya, Shveytsariya kabi davlatlar kiradi.

Konfederatsiya nisbatan kam tarqalgan davlat tuzilishi shaklidir. Konfederatsiya davlatlar birlashmasi yoki ittifoqi bo'lib, uni tashkil etuvchi davlatlar o'z mustaqilligini to'la saqlab qoladi, o'zining hokimiyat, boshqaruv va adliya organlariga ega bo'ladi. Konfederatsiyaga a'zo davlatlar o'z faoliyatini muvofiqlashtirish uchun qo'shma organlar tuzadi. Mazkur organlar qat'iy belgilangan sohalarda faoliyat ko'rsatadi va qat'iy belgilangan (iqtisodiy, siyosiy, harbiy va b.) maqsadlarni ko'zlaydi. Konfederatsiyaga ba'zan

[32] Konstitutsiyaviy huquq. Ensiklopedik lug'at. Mas'ul muharrir va mualliflar jamoasining rahbari B. Mustafoyev – T.: "O'zbekiston" nashriyoti, 2006-yil. – 584 bet. Manba: http://www.lex.uz/dictionary.

[33] Konstitutsiyaviy huquq. Ensiklopedik lug'at. Mas'ul muharrir va mualliflar jamoasining rahbari B. Mustafoyev – T.:"O'zbekiston" nashriyoti, 2006-yil. – 584 bet. Manba: http://www.lex.uz/dictionary.

davlatlarning federatsiyaga birlashish sari tutgan yo'lidagi oraliq bo'g'in deb ham qaraladi. Konfederatsiya alomatlari Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH)da ham mavjud.

Konfederatsiya – davlatlarning ittifoqi bo'lib, xalqaro-huquqiy xarakterga ega. Konfederatsiya yangi davlatning vujudga kelishiga olib kelmaydi. Jahon tarixida konfederatsiyalar vujudga kelib, ulardan federativ davlatlar ajralib chiqqanligi bilan bog'liq voqealar uchrab turadi. Ayrim davlatlar amalda federativ davlatlar bo'lsada (Shveytsariya, Kanada), o'z nomlarida konfederatsiya qo'shimchasini saqlab qolganlar. Yaqin o'tmishga qaraydigan bo'lsak, ayrim konfederatsiyalar tashkil etilib, uzoqqa cho'zilmaganligiga guvoh bo'lamiz (masalan, Senegambiya – Senegal va Gambiyaning 1981–1988-yildagi ittifoqi)

Byudjet tuzilishining asosini mamlakatning davlat tuzilishi shakli, amaldagi qonun hujjatlari, davlat byudjetining iqtisodiyot va ijtimoiy hayotdagi o'rni belgilab beradi.

Byudjet tuzilishi mamlakatning davlat byudjetini, uning bo'g'inlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni tashkil qilish shakllarini, byudjet tasnifini, byudjet tizimiga kiradigan barcha darajadagi byudjetlar faoliyatining huquqiy asoslarini, byudjet tizimi byudjetlari tarkibi va tuzilmasini, byudjet mablag'larini shakllantirish va sarflashdagi tartib-qoidalar va boshqalarni belgilab beradi.

Unitar davlatlarda odatda, ikki pog'onali byudjet tizimi shakllangan:

– davlat byudjeti (bu bo'g'in turli mamlakatlarda turlicha nomlanadi, masalan, davlat byudjeti, markaziy byudjet, respublika byudjeti, hukumat byudjeti kabi);

– mahalliy (munitsipal) byudjetlar.

Federativ asosda tarkib topgan davlatlarda uch pog'onali byudjet tizimi shakllangan bo'lib, quyidagi bo'g'inlarni o'z ichiga oladi:

– federal byudjet (turli mamlakatlarda turlicha nomlanadi, masalan: davlat byudjeti, markaziy byudjet, federal byudjet);

– federatsiya subyekt (a'zo)larining byudjetlari;

– mahalliy (munitsipal) byudjetlar.

Jahon amaliyotida davlat tuzilishining shakllariga mos ravishda bir qancha *byudjet tuzilishi modellari* shakllangan:

– markazlashmagan (nomarkazlashgan) model;

– markazlashgan model;

– aralash model.

Byudjet qurilishining *markazlashmagan (nomarkazlashgan) modelida* markaziy va mahalliy byudjetlar avtonom (mustaqil) bo'lib, ularning har biri o'z xarajatlarini to'liq qoplay oladigan daromad manbalariga ega bo'ladi.

Markazlashgan model barcha darajadagi byudjetlarni yagona davlat byudjetida birlashtirishni nazarda tutadi, bunda markaziy byudjet barcha mahalliy byudjetlar uchun (daromadlilik darajasini) tartibga soluvchilik vazifasini bajaradi.

Byudjet qurilishining aralash modeli barcha darajadagi byudjetlarni yagona davlat byudjetida birlashtirishni nazarda tutadi, lekin bunda har bir mahalliy byudjetning o'z xarajatlarini qoplashga mo'ljallangan o'z daromad manbalari mavjud bo'lgani holda, har bir yuqori turuvchi byudjet o'zidan quyi turuvchi byudjetlarning daromadlilik darajasini tartibga solish vazifasini o'taydi.

Byudjet tuzilishining har qanday modeli byudjetlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni tashkil etish shakli sifatida, quyidagi uchta holatning mavjudligiga asoslanadi:

birinchidan, hokimiyatning barcha darajalarida xarajat vakolatlarining aniq chegaralanishi;

ikkinchidan, bu vakolatlarni to'liq bajarish uchun har bir darajadagi hokimiyatning yetarli fiskal resurslar bilan ta'minlangan bo'lishi;

uchinchidan, byudjet tizimidagi vertikal va gorizontal nomutanosiblikni byudjet transfertlari yordamida tekislash va shu

asosda mamlakatning barcha hududlarida davlat xizmatlarining bir xildagi standartini ta'minlash.

> **Fiskal federalizm** – federal hukumat va hududiy hokimiyatlarning moliya sohasidagi vakolatlarining o'zaro taqsimlanishi.
> *Manba: Экономика и право: словарь-справочник. - М.: Вуз и школа.Л. П.Кураков и др. 2004*

Lekin jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, hech bir mamlakatda fiskal federalizmning eng mukammal modelini yaratishga muvaffaq bo'linmagan. Mamlakatlardagi siyosiy, tarixiy va milliy omillarning ta'sirida dunyoda turlicha byudjet tizimlari shakllangan bo'lib, ular bir-biridan jiddiy farq qilish bilan birga, ko'p hollarda nazariy jihatdan eng oqilona hisoblangan modellarga ham zid keladi.

Byudjet tizimi. Byudjet qurilishining asosiy tarkibiy qismi *byudjet tizimidir*. Bir qator adabiyotlarda byudjet tizimi tushunchasiga keng va tor ma'nodagi yondashuvlardan kelib chiqib, quyidagicha ta'riflar berilgan:

Keng ma'noda byudjet tizimi – iqtisodiy munosabatlarga asoslangan, davlat tuzilishi shakliga mos ravishda tuzilgan, huquq normalari bilan tartibga solinadigan markaziy va mahalliy byudjetlar, shuningdek, har bir byudjet bo'g'iniga tegishli bo'lgan soliq va yig'imlar, markaziy va mahalliy hokimiyatlarning xarajat vakolatlari taqsimoti hamda byudjetlararo transfertlar yig'indisidan iboratdir.

O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining "Asosiy tushunchalar" deb nomlangan 6-moddasida: "*Byudjet tizimi* barcha darajadagi byudjetlar, davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlari va byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari jamg'armalari, byudjet tizimi byudjetlarini tuzish va tashkil etish prinsiplari, ular o'rtasida byudjet jarayoni mobaynida yuzaga keladigan o'zaro munosabatlar yig'indisini o'zida ifodalaydi"[34], – deb ta'rif berilgan.

Tor ma'noda byudjet tizimi mamlakat ma'muriy-hududiy tuzilishiga mos ravishda shakllangan va yagona byudjet tizimiga kiruvchi barcha darajadagi byudjetlar yig'indisidan iborat.

[34] O'zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksi. 2-bob, 6-modda.

O‘zbekiston Respublikasining byudjet tizimini shakllantirish, shuningdek, byudjet tizimi byudjetlari o‘rtasidagi munosabatlarni tashkil etish O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O‘zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining har moliyaviy yil qabul qilinadigan “O‘zbekiston Respublikasining davlat byudjeti to‘g‘risidagi” Qonuni va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining har moliyaviy yil uchun tasdiqlanadigan “O‘zbekiston Respublikasining davlat byudjeti to‘g‘risidagi” Qonunini ijrosini bajarishga qaratilgan Qarorlari va boshqa qonun hujjatlari asosida amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi byudjet tizimi tuzilishining *asosiy tamoyillari* quyidagilardan iborat[35]:

1. *Byudjet tizimining yagonaligi prinsipi* – byudjet hujjatlari va byudjet hisobotlarining shakllari, byudjet tasnifi yagona bo‘lishi hamda byudjet tizimi byudjetlarining daromadlari va xarajatlarini shakllantirish hamda ijro etish, byudjet hisobini yuritish va byudjet hisobotini tuzishning yagona tartibini nazarda tutadi.

2. *Byudjet tizimining O‘zbekiston Respublikasi ma’muriy-hududiy tuzilishiga muvofiqligi prinsipi* – byudjet tizimi O‘zbekiston Respublikasining ma’muriy-hududiy tuzilishiga muvofiq bo‘lishini belgilab beradi. Ushbu prinsipga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasining har bir ma’muriy-hududiy birligi (Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyat, shahar, tuman) o‘z byudjetiga ega bo‘lib, u mamlakatdagi yagona byudjet tizimining tegishli darajadagi bo‘g‘inini tashkil qiladi.

3. *Byudjet tizimi byudjetlarining balansliligi va o‘zaro bog‘liqligi prinsipi* – byudjet tizimi byudjetlarida nazarda tutilgan xarajatlar hajmi ularning daromadlari va taqchillikni qoplash manbalari yig‘indisining hajmiga muvofiq bo‘lishi kerak. Bu prinsip byudjet tizimi tuzilmasidagi har bir byudjet (respublika byudjeti, mahalliy byudjetlar)ning moliyaviy jihatdan barqaror bo‘lishini, shu bilan birga, byudjet ijrosida daromad va xarajatlarning yuzaga kelishi

[35] O‘zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksi, I-bo‘lim, 2-bob, 7–17-moddalar.

mumkin bo‘lgan nomutanosibligi byudjetlararo transfertlar mexanizmlari yordamida tekislanishi lozimligini nazarda tutadi, ya’ni byudjet tizimi byudjetlarini tuzish va ijro etishda ularning mablag‘lari mazkur byudjetlarning balansliligini ta’minlash uchun turli darajadagi byudjetlar o‘rtasida qayta taqsimlanishi mumkin.

4. *Byudjet tizimi byudjetlari daromadlarini prognoz qilish va xarajatlarini rejalashtirish prinsipiga* ko‘ra, byudjet tizimi byudjetlarini tuzishda byudjet tasnifiga muvofiq, daromadlar ularning aniq manbalari bo‘yicha prognoz qilinadi, xarajatlar esa yo‘nalishlar bo‘yicha rejalashtiriladi.

5. *Byudjet tizimi byudjetlari mablag‘laridan foydalanishning aniq yo‘naltirilganligi va maqsadlilik xususiyati prinsipi* byudjet tizimi byudjetlarining mablag‘lari muayyan byudjet tashkilotlari va byudjet mablag‘larini oluvchilarga ushbu mablag‘lardan belgilangan maqsadlarni moliyalashtirishda foydalanish uchun ajratiladi. Tasdiqlangan byudjetda nazarda tutilmagan, yoki byudjet tashkilotlarining xarajatlar smetalariga kiritilmagan yoxud byudjet tasnifida ko‘zda tutilmagan maqsadlarga xarajat qilinishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

6. *Byudjet tizimi byudjetlarining mustaqilligi prinsipi* har bir byudjet o‘z daromad manbalariga ega ekanligi, xarajat yo‘nalishlarini belgilashda mahalliy hukumat organlari ma’lum xarajat vakolatlariga ega ekanliklari, mahalliy byudjetlarni tasdiqlash, shuningdek, ijrosi yuzasidan hisobotlarni ko‘rib chiqish va tasdiqlash vakolatlari mahalliy boshqaruv organlariga berib qo‘yilganligi bilan izohlanadi.

7. *Byudjet tizimi byudjetlari mablag‘laridan foydalanishning natijadorligi prinsipi* byudjet jarayoni ishtirokchilari byudjet tizimi byudjetlarini tuzish va ijro etishda o‘zlariga berilgan vakolatlar doirasida o‘z byudjetlarining belgilangan hajmdagi mablag‘laridan foydalangan holda muayyan natijaga erishish zaruriyatidan kelib chiqadi. Bu prinsip “natijaga yo‘naltirilgan byudjetlashtirish” talablaridan kelib chiqqan holda Byudjet kodeksiga kiritilgan bo‘lib, byudjet xarajatlarini amalga oshirishda bevosita rejaning bajarilishiga

emas, balki ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash maqsadida xarajatlarning natijaviylikka yo'naltirilganligi bilan izohlanadi.

8. *Kassaning yagonaligi prinsipi* byudjet tizimi byudjetlarining barcha daromadlari Moliya vazirligi G'aznachiligining Yagona g'azna hisobvarag'iga kiritilishini va ularning barcha xarajatlarini to'lash ushbu hisobvaraqdan amalga oshirilishini nazarda tutadi. Ushbu prinsipning amal qilishi davlat byudjeti mablag'larining hajmi va harakati to'g'risida tezkor axborotlarga ega bo'lish, byudjet mablag'larini samarali boshqarish, vaqtinchalik kassaviy uzilishlarning oldini olish, byudjet ijrosining operativ joriy nazoratini amalga oshirish imkonini beradi.

9. *Byudjet jarayoni ishtirokchilarining javobgarligi prinsipi* byudjet jarayonining har bir ishtirokchisi byudjet jarayonining har bir bosqichida o'z harakatlari uchun javobgar bo'lishini nazarda tutadi, chunki davlat byudjetining shakllanishida jamiyatning ko'pchilik a'zolari – yuridik va jismoniy shaxslar bevosita yoki bilvosita ishtirok etadi, keng jamoatchilikning mablag'lari evaziga shakllangan moliyaviy resurslarning maqsadga muvofiq ishlatilishi uchun javobgarlik iqtisodiy, ma'muriy (ayrim hollarda jinoiy) huquq normalari bilan tartibga solinadi.

10. *Ochiqlik prinsipi* davlat byudjetini va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlarini ko'rib chiqish hamda qabul qilish tartib-taomillarining jamiyat va ommaviy axborot vositalari uchun ochiqligini, tasdiqlangan davlat byudjeti to'g'risidagi axborotning ommaviy axborot vositalarida va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining rasmiy veb-saytida e'lon qilinishini, byudjet ijrosining borishi to'g'risidagi axborot ommaviy axborot vositalarida chop etilishini, shuningdek, Moliya vazirligining rasmiy veb-saytida joylashtirilishi va yangilab borilishini anglatadi.

Barcha darajadagi byudjetlarni shakllantirish, ko'rib chiqish, qabul qilish va ularning ijrosi hisobini yuritish O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasi – so'mda amalga oshiriladi.

Barcha darajadagi byudjetlar yagona byudjet tasnifi – daromadlar va xarajatlarni tasnif obyektlariga ko'ra guruhlovchi xos raqam (kod)lar berish bilan guruhlash ko'rsatkichlari doirasida shakllantiriladi va ijro etiladi. *Byudjet tasnifi* – O'zbekiston Respublikasi davlat byudjeti, davlat maqsadli jamg'armalari tuzilmasiga kiruvchi byudjetlar daromadlari va xarajatlarini, shuningdek, uning taqchilligini qoplash manbalarining guruhlanishidan iborat.

Byudjet tasnifi davlat byudjetini tuzish, ko'rib chiqish, qabul qilish hamda ijro etish maqsadida byudjet ma'lumotlarini tizimga solish uchun foydalaniladi va byudjet ma'lumotlarini xalqaro tasnif tizimlarining aynan shunday ma'lumotlari bilan qiyoslash imkonini beradi.

Byudjet tasnifi:

– davlat byudjeti daromadlari tasnifi;

– davlat byudjeti xarajatlari tasnifi;

– davlat byudjeti taqchilligini qoplash manbalari tasnifini o'z ichiga oladi.

Byudjet tasnifi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi.

O'zbekiston Respublikasining yuqorida ta'riflangan davlat byudjeti tuzilmasi *O'zbekiston Respublikasi respublika byudjeti, Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlaridan* tashkil topgan. Bu byudjetlar mamlakatimizdagi davlat byudjeti amal qilishining tashkiliy shakli bo'lib xizmat qiladi.

Respublika byudjeti byudjet tizimining markaziy bo'g'ini hisoblanadi. Respublika byudjeti Byudjet kodeksida va boshqa qonun hujjatlarida belgilangan tartibda shakllantiriladi va ishlatiladi. *Respublika byudjeti* davlat byudjetining umumdavlat ahamiyatidagi tadbirlarni moliyalashtirishda foydalaniladigan qismi bo'lib, unda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek,

moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag'lar sarfi yo'nalishlari va miqdori nazarda tutiladi.

Mahalliy byudjetlar darajasida Qoraqalpog'iston Respublikasi davlat byudjeti, viloyatlar byudjetlari va Toshkent shahar byudjeti e'tirof etiladi. Ularning tarkibiga, o'z navbatida, mamlakatning ma'muriy-hududiy tuzilishiga muvofiq ravishda quyi (shahar, tuman) byudjetlari kiradi.

O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining 5-bob, 35-moddasiga muvofiq, mahalliy byudjetlar tarkibiga kiruvchi byudjetlar tuzilmasiga quyidagi byudjetlar kiradi:

– *Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti* tuzilmasiga Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika byudjeti, Qoraqalpog'iston Respublikasi tumanlari va shaharlarining byudjetlari kiradi;

– *viloyatlar mahalliy byudjetlari* tuzilmasiga viloyat byudjeti, tegishli viloyatlar tumanlari va shaharlarining byudjetlari kiradi;

– *Toshkent shahar mahalliy byudjeti* tuzilmasiga shahar byudjeti va shahar tarkibiga kiruvchi tumanlarning byudjetlari kiradi.

Huquqiy jihatdan mahalliy byudjetlar byudjet yili davomida daromad manbalari va ulardan tushumlar miqdori, aniq maqsadlar uchun mo'ljallangan xarajat yo'nalishlari aks ettiriladigan moliyaviy hujjat hisoblanadi.

Byudjetlararo munosabatlar. Ma'lumki, mahalliy byudjetlarning daromadlari va xarajatlari hajmi, mahalliy byudjetlarning barqarorlik ko'rsatkichlari ko'p jihatdan shu hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanganlik darajasiga bevosita bog'liq. Barcha darajadagi byudjetlarning mustaqilligi byudjet tizimining asosiy tamoyili sifatida belgilangan bo'lib, ushbu tamoyil turli darajadagi vakolatli hokimiyat organlarining o'z vakolatlari doirasida byudjet jarayonini mustaqil ravishda amalga oshirish huquqlarini anglatadi. Har bir darajadagi byudjet daromadlarining o'z manbalari, shuningdek, hududlardagi vakolatli hokimiyat organlarining soliq qonunchiligida belgilangan

mahalliy soliqlar va yig'imlar stavkalarini o'zgartirish huquqi qonun asosida mustahkamlab qo'yilgan. Daromadlar manbalarining belgilanishi va ular qonun asosida mahalliy byudjetlarga biriktirib qo'yilishi mahalliy hokimiyat organlarining mustaqilligi va byudjetlarning daromad manbalarini mustahkamlashdan manfaatdorligini oshiradi. Bunda mahalliy byudjetlarga kelib tushadigan mablag'larning tartibga soluvchi manbalari belgilangan bo'lib, ular jumlasiga belgilangan me'yorlar bo'yicha umumdavlat soliqlaridan ajratiladigan mablag'lar kiradi. Barcha darajalardagi byudjetlar xarajatlarining yo'nalishlari aniq taqsimlab qo'yilganligi, shuningdek, qo'shimcha daromadlarga egalik qilishda muayyan mustaqillikka ega ekanliklari mahalliy hokimiyat organlarining byudjet mablag'larini hududiy rivojlanish dasturlariga muvofiq samarali sarflab borish imkoniyatini beradi.

Xorijiy mamlakatlar byudjet amaliyoti tajribalaridan ma'lumki, mamlakatlarda ularning geografik joylashuvi, iqtisodiyot tarmoqlari rivojlanish darajasining turlicha ekanligi va boshqa omillar sababli mintaqalarning ishlab chiqarish, daromad va ijtimoiy salohiyatining boshlang'ich imkoniyatlari bir xilda emas. Biroq davlatning eng muhim vazifalaridan biri o'z fuqarolari farovonligining barqaror o'sishini ta'minlash va barcha mintaqalarning rivojlanishi uchun bir xil sharoitlar yaratishdan iborat. Bunga esa davlatning moliyaviy resurslarini byudjetlararo munosabatlar orqali qayta taqsimlash orqali erishiladi.

O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining "Byudjetlararo munosabatlar" deb nomlangan alohida bobida byudjetlararo munosabatlarning huquqiy asoslari o'z aksini topgan.

Byudjetlararo munosabatlar turli darajadagi byudjetlar (masalan, respublika byudjeti bilan viloyat byudjeti), shuningdek, davlat byudjeti bilan davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlari o'rtasidagi tegishli byudjetlarni moliyaviy resurslar bilan ta'minlashga doir munosabatlardir

Davlat byudjetining mablag'lari turli darajadagi byudjetlar o'rtasida *byudjet transfertlari shakllari* asosida qayta taqsimlanadi. Byudjet transfertlarining Byudjet kodeksi bilan belgilab berilgan quyidagi shakllari amalda qo'llaniladi:

subvensiyalar – muayyan maqsadlarga sarflash sharti bilan yuqori turuvchi byudjetdan quyi turuvchi byudjetga qaytarmaslik sharti bilan ajratiladigan pul mablag'lari;

o'tkazib beriladigan daromadlar – tegishli ma'muriy-hududiy birlikda (masalan, biror tuman, shahar yoki viloyat hududida) shakllanadigan va yuqori turuvchi byudjetga o'tkaziladigan, keyinchalik ular qayerda shakllangan bo'lsa, o'sha ma'muriy-hududiy birlik byudjetiga o'tkazib beriladigan daromadlar;

dotatsiyalar – byudjet tizimi byudjetlariga ularning o'z daromadlari yetishmagan taqdirda daromadlar bilan xarajatlar o'rtasidagi farqni qoplash uchun qaytarmaslik sharti bilan ajratiladigan pul mablag'lari;

byudjet ssudalari – qaytarish sharti bilan yuqori turuvchi byudjetdan quyi turuvchi byudjetga, shuningdek, davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlariga ajratiladigan pul mablag'lari;

o'zaro hisob-kitoblar bo'yicha mablag'lar – moliya yili mobaynida byudjetlar parametrlari o'zgarganda yuqori va quyi turuvchi byudjetlar o'rtasida yuzaga keladigan o'zaro pul munosabatlari;

maqsadli ijtimoiy transfertlar – yuqori turuvchi byudjetdan quyi turuvchi byudjetga ta'lim va tibbiyot muassasalarining ish haqi va ijtimoiy soliq bo'yicha xarajatlarini qoplash uchun ajratiladigan pul mablag'lari.

Respublika byudjetidan mahalliy byudjetlarga ajratiladigan byudjet subvensiyalari va dotatsiyalari Byudjet kodeksida belgilangan tartibda amalga oshiriladi. Bunday ajratmalarning miqdori quyidagilarga bog'liq:

– hududlarning moliyaviy holatiga, jumladan, ularning o'z daromad bazalari mustahkamligiga;

– hududda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, ekologik, demografik va boshqa umumdavlat vazifalari va dasturlari ko'lamiga;

– hududlar bo'yicha Tovar (ish, xizmat)lar qiymatidagi farqlarga;

– hududlardagi aholi soniga;

– ushbu hududda joylashgan va tegishli byudjetdan mablag' oluvchi tashkilotlarning byudjet ajratmalariga bo'lgan ehtiyojiga;

– hududlar o'rtasidagi moliyaviy nomutanosiblikni bartaraf etish uchun hisobga olinadigan boshqa omillarga.

Byudjetlararo munosabatlarni tashkil etish va boshqarish tizimida mahalliy byudjetlarning rioya qilishi lozim bo'lgan cheklanishlar muhim ahamiyatga ega. Xususan, mahalliy byudjetlar byudjet qonunchiligiga ko'ra, balanslashgan daromadlar va xarajatlar tizimiga ega bo'lishlari zarur. Mahalliy byudjetlarning haqiqatdagi taqchilligiga yo'l qo'yilmasligi lozim.

Bundan tashqari, Byudjet kodeksi bilan mahalliy byudjetlar uchun quyidagi cheklovlar o'rnatilgan, ya'ni Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlarini qabul qilish va ijro etishda quyidagilarga yo'l qo'yilmaydi:

– mablag'lar jalb qilishni amalga oshirish (bundan yuqori turuvchi byudjetlardan byudjet ssudalari olish mustasno);

– tasdiqlangan byudjetdan ajratilgan mablag'lardan ortiq xarajatlarni amalga oshirish;

– tegishli byudjetlar mablag'lari hisobidan boshqa yuridik va jismoniy shaxslar foydasiga moliyaviy kafolatlar va kafilliklar berish;

– yuridik va jismoniy shaxslarga byudjet ssudalari va kredit liniyalari berish.

Shunday qilib, "Byudjetlararo munosabatlar – byudjet mexanizmining muhim ajralmas elementi bo'lib, mamlakatning ma'muriy-hududiy tuzilmalari (subyektlari) o'rtasida markaziy boshqaruv tomonidan barcha moliyaviy oqimlarni taqsimlash jarayonini oqilona tartibga solishni ta'minlaydi va bundan tashqari, markaziy hukumatning aniq funksiyalarini davlat boshqaruvining turli darajalarida huquq va majburiyatlarni o'zaro taqsimlab olish orqali

bajarish uchun davlat byudjetida jamlangan pul mablag'larining bir qismini ushbu subyektlar o'rtasida qayta taqsimlanishini o'z ichiga oluvchi munosabatlarni anglatadi"[36].

7.3. Davlat byudjetining daromadlari tizimi

Ma'lumki, davlat byudjeti mamlakatda yaratilgan yalpi ichki mahsulot va uning tarkibiga kiruvchi milliy daromadning qiymatini qayta taqsimlashda ishtirok etadi.

Bunday qayta taqsimlash jarayonlari natijasida byudjet daromadlari shakllanadi. Byudjet daromadlari davlat markazlashgan moliyaviy resurslarining bir qismi bo'lib, davlatning funksiyalarini bajarish uchun zarurdir. Ular pul mablag'lari fondlarini shakllantirish jarayonida vujudga keladigan iqtisodiy (moliyaviy) munosabatlarni o'zida ifoda etadi va turli darajadagi hokimiyat organlarining ixtiyoriga kelib tushadi.

Davlat byudjeti daromadlari – davlat bilan korxonalar, tashkilotlar, muassasalar va aholi o'rtasidagi davlat markazlashgan pul fondining shakllanishi yuzasidan vujudga keladigan iqtisodiy pul munosabatlari hisoblanadi.

Byudjet daromadlarining asosiy moddiy manbai milliy daromaddir. Agar davlatning moliyaviy ehtiyojlarini qondirish uchun milliy daromad yetarli bo'lmasa, davlat bunday ehtiyojni qondirishga milliy boylikning bir qismini jalb etishi mumkin. *Milliy boylik* deganda ma'lum bir davrda jamiyatning ixtiyorida bo'lgan, hozirgi va o'tgan avlodning mehnatlari evaziga yaratilgan moddiy ne'matlar hamda kengaytirilgan takror ishlab chiqarish jarayoniga jalb qilingan tabiiy resurslar majmui nazarda tutiladi.

Milliy daromadni davlat tomonidan davlatlashtirish (davlat ixtiyoriga o'tkazish) turli usullar yordamida amalga oshiriladi. Soliqlar, davlat krediti va pul emissiyasi davlat hokimiyat organlari tomonidan milliy daromadni qayta taqsimlash va byudjet

[36] А.Вахобов, Х.Жамолов. Согласование межбюджетных отношений. «Молия». Т.; 2002г.

daromadlarini shakllantirish uchun foydalaniladigan usullarning asosiylari bo'lib hisoblanadi. Bu usullar o'rtasidagi nisbat mamlakatlar va davrlar bo'yicha turlicha bo'lib, mamlakatdagi iqtisodiy vaziyat, ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa qarama-qarshiliklarning o'tkirlik darajasi, davlatning moliyaviy siyosati va moliyaviy ahvoli bilan belgilanadi.

Milliy daromadni qayta taqsimlashning asosiy usuli soliqlar hisoblanadi. Ular yordamida byudjet daromadlarining asosiy qismi shakllantiriladi. Turli mamlakatlar markaziy byudjetlarining daromadlarida soliq tushumlari qariyb 60-95 foizni tashkil etadi.

Byudjet daromadlarining asosiy qismi soliqlar yordamida byudjetga undirilishi tufayli ularga nisbatan bu jarayonda quyidagi prinsiplardan foydalaniladi:

– soliqlarning byudjetga undirilishi mamlakat milliy daromadi va milliy boyligi manbalarining tugashiga olib kelmasligi;

– soliqlar ularni to'lovchilar o'rtasida teng (adolatli) taqsimlanishi;

– soliqlarning ishlab chiqaruvchilar aylanma fondlari hajmiga salbiy ta'sir ko'rsatmasligi;

– soliqlarning sof daromadga nisbatan hisoblanishi;

– davlat uchun soliqlarning undirilishi iloji boricha arzonroq bo'lishi;

– soliqlarning undirilish jarayoni xususiy sektorni siqib chiqarmasligi.

Davlat byudjeti daromadlarining amal qilish mexanizmi haqida so'z borar ekan, avvalo byudjet daromadlarining nazariy asoslariga to'xtalish maqsadga muvofiq. Ayrim adabiyotlarda va ilmiy ishlarda "davlat byudjeti daromadlarining asosiy bosh manbai soliqlardir", degan bizning nazarimizda birmuncha noto'g'ri bo'lgan fikrlarni uchratish mumkin. Aslida, davlat byudjeti daromadlarining asosiy manbai bo'lib mamlakat yalpi milliy mahsuloti va milliy daromadi hisoblanadi, davlat markazlashgan pul fondiga mablag'larni jalb qilish quroli esa soliqlardir.

Soliqlar majburiy pullik to'lovni ifoda etuvchi pul munosabatlarini bildirib, bu munosabatlar soliq to'lovchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) bilan soliqni o'z mulkiga aylantiruvchi subyekt sifatida davlat o'rtasida sodir bo'ladi.

Soliqlar davlat byudjetiga, davlatning boshqa maqsadli jamg'armalariga kelib tushadigan mablag'lar bo'lib, majburiy xarakterga ega bo'lgan pul munosabatlarini ifoda etadi. Shuningdek, soliqlar iqtisodiy kategoriya bo'lganligi uchun bozor iqtisodiyoti munosabatlari, shu jumladan, moliyaviy munosabatlar tarkibiga kiradi. Bozor iqtisodiyoti erkin iqtisodiyotdir, ya'ni har bir yuridik shaxs, tadbirkor o'z tovariga erkin baho belgilashi, mahsulot yetkazib beruvchini ixtiyoriy tanlashi va iste'molchini o'zi topib, unga mahsulotini sotish huquqiga ega. Shuning uchun davlat ular daromadlarining bir qismini taqsimlab, byudjetga oddiy ajratma sifatida ololmaydi. Soliq shaklida daromadlarni undirish uchun qonun chiqaruvchi organning qarori zarur, ya'ni qonuniy asosda undirilgan to'lov davlat byudjetiga kelib tushadi. Erkin iqtisodiyot sharoitida soliqlar ham erkin, ochiq, aniq bo'ladi, demokratik to'lovga aylanadi.

Soliqlar iqtisodiy kategoriya hisoblanadi, soliq munosabatlarini tashkil etishda soliq to'lovchilar va davlat o'rtasida daromadlar taqsimlanayotganda tomonlarning iqtisodiy manfaatlarini albatta e'tiborga olish zarur. Davlat soliq to'lovchilar daromadini istaganicha ololmaydi, soliqlarni byudjetga undirishning ma'lum chegarasi mavjud. Bu chegarani davlat, soliq to'lovchilarning mahsulot ishlab chiqarish va foyda olishdagi faoliyatini hisobga olib belgilaydi. Ikkinchi tomondan, soliqlardan makrodarajada iqtisodiyotni rivojlantirish, bozor infratuzilmasini yaratish va boshqa umumdavlat maqsadlari uchun yetarli moliyaviy resurslar to'plash uchun foydalaniladi. Soliqlarning mohiyati soliq to'lovchilar bilan davlat o'rtasidagi doimiy, uzoq muddatli munosabatlarda o'z ifodasini topadi.

Davlat byudjeti daromadlari tarkibi va tuzilishi. Bir xil mohiyatga ega markazlashgan pul fondi bo'lgan davlat byudjeti va

davlat maqsadli jamg'armalari daromadlarini tashkil qiluvchi soliqlar va yig'imlar turlarining yig'indisiga *soliq tizimi* deb ataladi.

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi yangi tahririning *17-"Soliqlarning va yig'imlarning turlari"* nomli moddasiga binoan, O'zbekiston Respublikasi soliq tizimi tarkibiga quyidagilar kiradi:

1) qo'shilgan qiymat solig'i;

2) aksiz solig'i;

3) foyda solig'i;

4) jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i;

5) yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq;

6) suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;

7) mol-mulk solig'i;

8) yer solig'i;

9) ijtimoiy soliq.

Shuningdek, soliq to'lovchilarning ayrim toifalari uchun O'zbekiston Respublikasi hududida quyidagi maxsus soliq rejimlari belgilanadi:

1) aylanmadan olinadigan soliq;

2) mahsulot taqsimotiga oid bitimlar ishtirokchilariga soliq solishning alohida tartibi;

3) maxsus iqtisodiy zonalar ishtirokchilariga va ayrim toifadagi soliq to'lovchilarga soliq solishning alohida tartibi.

Maxsus iqtisodiy zonalar ishtirokchilariga va ayrim toifadagi soliq to'lovchilarga soliq solishning alohida tartibi qonun hujjatlarida yoki investitsiya bitimlarida nazarda tutilgan investitsiyalarni amalga oshirish hamda boshqa shartlarni bajarish bilan bog'liq holda muayyan muddat uchun belgilanadi.

Maxsus soliq rejimlari ayrim soliqlarni to'lashdan ozod etishni, pasaytirilgan soliq stavkalarini va boshqa soliq imtiyozlarini qo'llashni nazarda tutishi mumkin.

Barcha soliqlarni soliqqa tortish obyekti, iqtisodiy mohiyati, to'lovchilari va byudjet tizimi bo'g'inlari daromadlarini shakllantirishiga ko'ra quyidagicha guruhlash mumkin:

Soliqqa tortish obyektiga ko'ra soliqlar quyidagi mezonlarga qarab guruhlanadi:

1. Aylanmadan olinadigan soliqlar;
2. Daromaddan olinadigan soliqlar;
3. Mol-mulk qiymatidan olinadigan soliqlar;
4. Yer maydoniga qarab olinadigan soliqlar.

Aylanmadan olinadigan soliqlarga qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz solig'i, bojxona bojlari va yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq kabilar kiradi.

Daromaddan olinadigan soliqlarga yuridik va jismoniy shaxslarning daromadiga solinadigan soliq, savdo tashkilotlarining yalpi daromadidan olinadigan soliqlar kiradi.



7.4-rasm. **Soliqlarning turli mezonlarga ko'ra guruhlanishi**[37]

Mol-mulk qiymatidan olinadigan soliqlarga yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan to'lanadigan mol-mulk solig'i kiradi.

[37] Nurmuxamedova B. Davlat byudjeti. O'quv qo'llanma. -T.: "IQTISOD-MOLIYA". 2018. 210-bet.

Yer maydonlaridan olinadigan soliqlarga yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan to'lanadigan yer solig'i kiradi.

Iqtisodiy mohiyatiga ko'ra soliqlar *egri va to'g'ri* yoki *bevosita va bilvosita* soliqlarga bo'linadi. To'g'ri soliqlarni to'g'ridan to'g'ri soliq to'lovchilarning o'zi to'laydi, ya'ni soliqning huquqiy jihatdan to'lovchisi ham, haqiqiy to'lovchisi ham bitta shaxs bo'ladi. To'g'ri soliq yukini boshqalar zimmasiga ortish holati bu yerda bo'lmaydi. Bu soliqlarga daromad va mulkdan to'lanadigan barcha soliqlar kiradi.

To'g'ri soliqlar bo'yicha to'g'ridan to'g'ri daromaddan soliq to'langanligi uchun soliqlar stavkasining kamaytirilishi korxonalar daromadining ko'p qismini ularga qoldirib, ular investitsiya faoliyatini kengaytirish imkonini yaratadi va shu yo'l bilan bozor iqtisodiyotining rivojlanishiga turtki beriladi. Bu soliqlarning stavkalari ko'paytirilsa, korxonalarning biznes imkoniyatlari kamaya borib, iqtisodiy rivojlanishni susaytiradi.

Egri soliqlarning yuridik jihatdan to'lovchilari mahsulot (ish, xizmat) yuklab yuboruvchilar (xizmat ko'rsatuvchilar) bo'lib, soliqning haqiqiy og'irligi keyingi (so'nggi) iste'molchining zimmasiga tushadi, ya'ni bu yerda haqiqiy soliq to'lovchi yashiringan. Bu soliqlarning summasi tovar (ish, xizmat) narxi ustiga ustama ravishda qo'yiladi. Bu soliqlarning ijobiy tomoni respublikada ishlab chiqarilgan tovarlarning chetga chiqib ketishini chegaralab, mamlakat ichida tovarlar taklifining ko'payishiga yordam beradi. Egri soliqlar orqali tovarlar qiymati oshirilmasa, bozorlarda ularning taqchilligi ortadi. Egri soliqlar stavkasining asosli ravishda oshirilishi korxonalar faoliyatining moliyaviy yakuniga to'g'ridan to'g'ri ta'sir etmaydi, ya'ni investitsion faoliyatini qisqartirmaydi. Ammo soliq stavkasi tahlil qilinmasdan oshirib yuborilsa, korxonalar sotish qiyinchiligiga uchrab, foyda olishni ham, davlat byudjetiga to'lovlarni ham kamaytirishi mumkin. Bu soliqlarning yana bir tomoni – muomaladagi

ortiqcha pul massasini kamaytirib, inflyatsiyani jilovlab boradi. Biroq bu soliqlar mehnat bilan band bo'lgan aholining real daromadlarini pasaytiradi.

Jahon soliq amaliyotida to'g'ri va egri soliqlar nisbatiga qarab u yoki bu mamlakat iqtisodiyotining rivojlanish darajasini yoki iqtisodiy qiyinchiliklarini tahlil qilish mumkin. Masalan: AQShda to'g'ri soliqlar salmog'ining byudjet daromadida 90 foizga yaqin bo'lishi bu yerda rivojlangan bozor iqtisodiyoti amal qilayotganidan darak beradi.

Egri soliqlar tarkibiga qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz solig'i, bojxona boji, yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq kabi soliqlar kiradi.

Byudjet tizimi byudjetlari daromadlarini shakllantirishiga ko'ra soliqlarning *umumdavlat va mahalliy soliqlarga* bo'linishi hukumat idoralarining markaziy hukumat va mahalliy hukumatlarga bo'linishi asosida kelib chiqadi. Davlat boshqaruvining har bir pog'onasidagi hokimiyat idoralari o'zlarining bajaradigan muhim vazifalaridan kelib chiqib, o'z byudjetiga va uni ta'minlaydigan soliqlarga ega bo'lishi kerak. Respublika hukumati umumdavlat miqyosida katta vazifalarni – mudofaa, davlatning milliy xavfsizligini ta'minlash, huquqni muhofaza qilish infratuzilmasini yaratish, turli ijtimoiy xizmatlarni moliyalashtirish, fuqarolar ijtimoiy himoyasini tashkil etish va boshqa bir qator yirik vazifalarni bajaradi. Shuning uchun uning byudjeti ham, soliqlari hajmi ham salmoqli bo'lishi shart. Qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz solig'i, yuridik shaxslarning daromadi (foydasi)dan, jismoniy shaxslar daromadidan olingan soliqlar aksariyat hollarda respublika byudjeti daromadlarini tashkil qiladi.

Umumdavlat soliqlarining muhim xususiyati shundaki, respublika byudjetiga tushadigan soliqlardan mahalliy byudjetlarga ajratmalar ajratilishi mumkin. Umumdavlat soliqlaridan ajratmalar evaziga ham mahalliy byudjetlarning xarajatlari qoplanmagan taqdirda mahalliy

byudjetlarning daromadlilik darajasini tartibga solish maqsadida byudjetlararo transfertlar mexanizmlaridan (subvensiya, dotatsiya, byudjet ssudasi kabi) foydalaniladi.

Mahalliy soliqlar mahalliy hukumatlar bajaradigan vazifalariga ko'ra belgilanib, ularga doimiy va to'liq biriktirib beriladi. Mahalliy hukumatlar asosan mehnatkashlarga yaqin bo'lganligi sababli ijtimoiy masalalar – maorif, sog'liqni saqlash, madaniyat, shahar va qishloqlar obodonchiligi kabi vazifalarni bajaradi. Lekin odatda bu soliqlar va yig'imlar ularning byudjetlari xarajatlarini 30-40 foizini qoplaydi, xolos. Mahalliy byudjetlar daromadlarini ko'paytirish eng dolzarb masalalardan biridir. Faqat o'z daromad manbaiga to'liq ega bo'lgan mahalliy hukumatgina o'z faoliyatlarini to'laqonli amalga oshirishi mumkin. Mahalliy soliqlarning muhim xususiyati shundaki, ular faqat shu hududning byudjetiga tushadi. Ular hisobidan boshqa byudjetlarga ajratmalar berilmaydi.

Byudjet kodeksining IV bo'limi "Byudjet tizimi byudjetlarining daromadlari" deb nomlanadi, uning 9-bobi 50-"Davlat byudjeti daromadlarini shakllantirish" deb nomlanadigan moddasida davlat byudjeti qanday daromadlar hisobidan shakllantirilishi belgilab qo'yilgan (7.5-rasm).

Byudjet kodeksining 51-moddasida O'zbekiston Respublikasining respublika byudjeti daromadlarini shakllantirish manbalari belgilab berilgan bo'lib, ular quyidagilar hisobidan shakllantiriladi:

1) umumdavlat soliqlari, shu jumladan:
- yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i;
- jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i;
- qo'shilgan qiymat solig'i;
- aksiz solig'i;
- yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq;

2) bojxona bojlari;

3) boshqa daromadlar.



7.5-rasm. **Davlat byudjeti daromadlari tarkibi**[38]

Byudjet kodeksining 52-moddasida Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlarining daromadlarini shakllantirish manbalari ko'rsatilgan bo'lib, ular:

1) belgilangan normativlarga muvofiq umumdavlat soliqlari, shu jumladan:

- yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i;
- jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i;
- qo'shilgan qiymat solig'i;
- aksiz solig'i;
- yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq;
- suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq.

2) mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar, shu jumladan:

- mol-mulk solig'i;
- yer solig'i.

3) yuridik va jismoniy shaxslar, shuningdek chet davlatlardan tushgan qaytarilmaydigan pul tushumlari.

4) bozorlardan tushadigan daromadlar.

[38] O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksiga asosan.

5) boshqa daromadlar.

Xulosa qilib aytganda, byudjet daromadlarining shakllanishi mamlakat yalpi ichki mahsulotini taqsimlash va qayta taqsimlash umumiy jarayonining elementlaridan biri bo'lib, oraliq xarakterga ega. Ular yuridik va jismoniy shaxslarga tegishli bo'lgan daromadlar va jamg'armalarning bir qismini davlat byudjetiga o'tkazilishi natijasida vujudga keladi. Byudjet daromadlarining moddiy-buyumlashgan mazmunini davlat ixtiyoriga borib tushgan pul mablag'lari tashkil etadi. Byudjetning qayta taqsimlash funksiyasi namoyon bo'lish shakli davlat byudjetiga tushuvchi turli soliqlar, to'lovlar, yig'imlar, bojlar va ajratmalarning harakatida namoyon bo'ladi.

Miqdor jihatdan byudjetning daromadlari yaratilgan yalpi ichki mahsulotda davlatning ulushini ko'rsatadi. Ularning absolyut hajmi va salmog'i mamlakatning yalpi ichki mahsuloti va milliy daromadining umumiy hajmi, u yoki bu davrda davlatning oldida turgan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, mudofaa va boshqa vazifalar bilan belgilanadi. Ana shularga muvofiq ravishda davlat byudjetida to'planadigan mablag'larning miqdori va ularni undirishning shakl va usullari belgilanadi.

Davlat byudjetining soliqsiz daromadlari tarkibi va tuzilishi. Davlat byudjetining soliqsiz daromadlari tarkibiga davlatga tegishli mulklarni sotishdan va xususiylashtirishdan kelgan daromadlar, tashqi iqtisodiy faoliyatdan kelgan daromadlar, xorijiy davlatlardan olingan moliyaviy yordamlar va davlatning maxsus maqsadli fondlari kiradi.

O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksiga ko'ra, davlat byudjetining soliqsiz daromadlariga yuridik va jismoniy shaxslardan, shuningdek, chet davlatlardan kelgan qaytarilmaydigan pul tushumlari, rezident-yuridik shaxslarga va chet davlatlarga berilgan byudjet ssudalarini qaytarish hisobiga tushadigan to'lovlar va davlatning moliyaviy va boshqa aktivlarining joylashtirilishi, foydalanishga berilishi va sotilishidan olingan daromadlar kiritilgan.

Soliqqa kirmaydigan, ya'ni soliqsiz daromadlarning ko'pchiligi doimiy, qat'iy belgilangan stavkada undiriladigan xazina (byudjet)

daromadlari ko'rinishiga ega bo'lmaydi. Byudjetning soliqsiz daromadlari qat'iy rejalashtirilmasligi kerak, lekin amaliyotda ko'p hollarda ular, odatda ilgarigi yildagi tushumlar darajasida rejalashtiriladi. Soliqsiz daromadlar, soliq daromadlari kabi, O'zbekiston Respublikasining vakillik organlari tomonidan jismoniy va yuridik shaxslar uchun joriy qilinadi. Soliqsiz daromadlar ham majburiy, ham ixtiyoriy shakllarda bo'lishi mumkin.

Soliqsiz daromadlar ro'yxati hamma darajadagi byudjetlar uchun yagona bo'lib, byudjet tasnifi bilan belgilanadi va o'z ichiga quyidagilarni oladi:

1. Davlat yoki mahalliy hokimiyat egaligida bo'lgan mulkdan yoki xo'jalik faoliyatidan olingan daromadlar, shu jumladan:

- davlat yoki mahalliy hokimiyat egaligidagi mulkni foydalanishga berishdan olingan daromadlar;
- davlatga tegishli aksiyalar bo'yicha dividendlar;
- davlat yoki mahalliy hokimiyat egaligida bo'lgan mulkni jaraga berishdan, shu jumladan qishloq xo'jaligi va noqishloq xo'jaligi maqsadlaridagi yerlar uchun ijara to'lovidan olingan daromadlar;
- vaqtinchalik bo'sh turgan byudjet mablag'larini bank va kredit tashkilotlarida joylashtirishdan olingan daromadlar;
- xizmat ko'rsatish va davlat xarajatlarini qoplashdan olingan daromadlar;
- davlat va mahalliy tashkilotlardan to'lovlar;
- davlat yoki mahalliy hokimiyat egaligida bo'lgan mulkdan yoki xo'jalik faoliyatidan olinadigan boshqa tushumlar.

2. Davlat yoki mahalliy hokimiyat egaligida bo'lgan mulkni sotishdan olingan daromadlar, shu jumladan:

- davlat mulki bo'lgan korxonalar va tashkilotlarni xususiylashtirish va davlat tasarrufidan chiqarishdan olingan tushumlar;
- davlatga tegishli uy-joylarni sotishdan tushumlar;

– davlatning ishlab-chiqarish va noishlab-chiqarish fondlarini, transport vositalari va boshqa uskuna-jihozlarni sotishdan olingan daromadlar;

– musodara qilinib, davlat va mahalliy hokimiyat egaligiga o'tgan egasiz mol-mulkni sotishdan olingan daromadlar.

3. Davlat zaxiralarini sotishdan olingan daromadlar.

4. Yer va nomoddiy aktivlarni sotishdan olingan daromadlar.

5. Davlatga qarashli bo'lmagan manbalardan kapital transfertlar tizimlari.

6. Jarima-jazolarni qo'llash, yetkazilgan zararni qoplash, shu jumladan:

– standartlar va texnik shartlardan chetlashgan holda tayyorlangan mahsulotni ishlab chiqarganlik va sotganlik uchun tushumlar summasi;

– narxlarni qo'llash tartibini buzganlik uchun jazolar;

– jinoyatlar qilish va moddiy boyliklar kamomadida aybdor bo'lgan shaxslardan undiriladigan summalar.

7. Tashqi iqtisodiy faoliyatdan olingan daromadlar, shu jumladan:

– davlat kreditlari bo'yicha foizlar;

– davlat zaxiralarini sotishdan olingan daromadlar;

– markazlashtirilgan eksportdan tushumlar summasi;

– tashqi iqtisodiy faoliyatdan olingan boshqa tushumlar.

8. Boshqa turli soliqsiz tushumlar.

Davlat byudjetining soliqsiz daromadlari hududiy belgiga (muayyan darajadagi byudjetga kiritish), jalb qilish va shakllantirish usuliga (majburiy yoki ixtiyoriy) va to'lovlarni undirishning aniq asoslariga ko'ra (davlat mulkini sotishdan olingan daromadlar) tasniflanadi.

Pul mablag'larining muayyan qismi davlat xazinasiga soliqsiz to'lovlar tarzida kelib tushadi. Ular ham soliqlar va boshqa yig'imlar singari davlat oliy hokimiyat idorasi tomonidan belgilanadi.

Shu bilan birga, soliqlar va soliqsiz to'lovlar o'rtasida muayyan farqlar mavjud. Jumladan, bu farqlarni quyidagicha tavsiflash mumkin:

– soliqsiz to‘lovlar soliqlardan farq qilib, ikki tomonlama huquq va burchlar kelib chiqishiga sabab bo‘ladi. Masalan, faoliyatning muayyan turi bilan shug‘ullanish huquqini beradigan litsenziyalarni olish maqsadida belgilangan to‘lovlarning amalga oshirilishi boshqa shartlar bajarilgani taqdirda vakolatli ruxsatnomani berishi lozim bo‘ladi;

– soliqlardan farq qilib, soliqsiz to‘lovlar ko‘pchilik hollarda majburiy ravishda to‘lanmaydi. Soliq esa uni to‘lash obyekti mavjud bo‘lganida to‘lanadi;

– soliqlardan farq qilib, soliqsiz to‘lovlar muayyan maqsadga mo‘ljallanadi hamda ana shu maqsadda undan foydalanish lozim.

Respublika byudjeti va mahalliy byudjetlar soliqsiz daromadlarining guruhlanishi. Soliqsiz to‘lovlar respublika byudjeti va mahalliy byudjetlar daromadlarida jamlanadi. Ushbu mahalliy soliq va yig‘imlarning to‘lovchilar doirasi, soliq solish obyektlari, soliq va yig‘imlar yuzasidan yengillik va imtiyozlar, soliq va yig‘imni hisoblab chiqish va to‘lash tartiblari mahalliy hokimiyat idoralarining bevosita o‘zlari tomonidan belgilanadi.

Soliqsiz to‘lovlar hududiy belgisiga ko‘ra: umumdavlat miqyosidagi va mahalliy to‘lovlarga; shakllanish usuliga ko‘ra: majburiy va ixtiyoriy; jamlanish usuliga ko‘ra: davlat byudjetida yoki byudjetdan tashqari jamlanadigan turlarga bo‘linadi.

Soliqsiz to‘lovlar olinish asoslariga ko‘ra quyidagi turlarga bo‘linadi:

– tabiiy resurslardan foydalanganlik uchun to‘lovlar, bu to‘lovlarning tabiiy resurslardan tejab-tergab, samarali foydalanishda ahamiyati kattadir;

– davlat idoralari tomonidan yuridik va jismoniy shaxslarga huquqiy ahamiyatga ega bo‘lgan turli xizmatlar ko‘rsatishdan olinadigan to‘lovlar. Ular jumlasiga:

– tashqi iqtisodiy va boshqa faoliyat tufayli bojxona idoralariga to‘lanadigan to‘lovlar;

– sud va boshqa huquq-tartibot idoralariga murojaat qilinganda to'lanadigan davlat boji;

– davlat ro'yxatidan o'tkazish, litsenziya (ruxsatnoma) olish va tovarlar uchun sertifikatlar olishdagi to'lovlar;

– bozorlar, yarmarkalar va boshqa savdo shoxobchalaridan olinadigan bir martalik patta to'lovlari;

– qimmatli qog'ozlar chiqarish va joylashtirish, lotereya o'yinlarini o'tkazish uchun to'lovlar;

– davlat mulkini xususiylashtirishdan kelib tushadigan daromadlar;

– jarima tarzidagi to'lovlar (jarimalar, penyalar va boshqalar).

Davlat byudjetining soliqsiz daromadlari daromad manbalari sifatida nobarqaror va doimiy xususiyatga ega bo'lgan daromadlar hisoblanadi. Buning sababi shundaki, *birinchidan*, davlat mulkini xususiylashtirish jarayoni mohiyatiga ko'ra nobarqaror jarayon bo'lib, xususiylashtirishdan olinadigan daromadlarning nobarqaror bo'lishiga olib keladi; *ikkinchidan*, davlatga tegishli oltin-valyuta zaxiralarini bozor stavkalarida joylashtirish natijasida olinadigan daromadlar joylashtiriladigan moliyaviy aktivlarning miqdoriga va bozor stavkalarining o'zgarishiga bog'liq bo'lgani sababli ulardan olinadigan daromadlarning summasi doimiy ravishda tebranib turadi; *uchinchidan*, xorijiy moliya-kredit tashkilotlari va davlatlardan olinadigan moliyaviy yordamlarning miqdori ularni beruvchilar tomonidan mustaqil ravishda belgilanadi. Bu esa ularning miqdorini oldindan belgilash imkonini bermaydi.

7.4. Davlat byudjetining xarajatlari tizimi

Ma'lumki, davlat jamiyat va mamlakat fuqarolariga zarur tovarlar ishlab chiqarish, xizmatlar ko'rsatish, iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohalarning samarali faoliyat yuritishi uchun qonuniy-huquqiy, me'yoriy va institutsional asoslarini yaratish va shu bilan o'z fuqarolarining yashashi va ishlashi uchun zarur shart-sharoitlarni

yaratib berish vazifalarini bajaradi. Ushbu vazifalarni bajarishning moddiy-moliyaviy asosini yaratish maqsadida mamlakatda yaratilgan moliyaviy resurslarning ma'lum bir qismi davlat byudjetida markazlashadi va markaziy hukumat hamda mahalliy hokimiyatlarning jamiyat oldidagi vazifa va funksiyalarini to'laqonli bajarishga yo'naltiriladi.

Iqtisodiy mazmun-mohiyatiga ko'ra, ***davlat byudjeti xarajatlari*** **–** davlatning markazlashgan pul fondida jamlanadigan pul mablag'larini taqsimlash, qayta taqsimlash va ishlatish bilan bog'liq bo'lgan, davlat bilan davlat byudjetidan mablag' oluvchilar o'rtasida sodir bo'ladigan iqtisodiy pul munosabatlaridir

Moddiy ma'noda davlat byudjetining xarajatlari markaziy hukumat va mahalliy hokimiyatlar zimmasidagi vazifalarni bajarish bilan bog'liq bo'lgan faoliyatini moliyaviy ta'minlashga yo'naltiriladigan byudjet mablag'lari bo'lib, ularning turlari, amalga oshirish shakllari, tarkibi va tuzilishi qator omillarga bog'liq:

- davlatning tabiati va bajaradigan funksiyalariga;
- mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlanganlik darajasiga;
- davlat byudjetining iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohalar bilan aloqalarining ko'lamiga;
- davlatning ma'muriy-hududiy tuzilishiga;
- byudjet mablag'larini taqdim etish shakllariga va b.

Masalan, agar davlatning asosiy e'tibori iqtisodiyot tarmoqlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashga qaratilgan bo'lsa, qabul qilinayotgan iqtisodiy rivojlanish dasturlarini amalga oshirishning moliyaviy manbalarida davlat byudjetining ulushi yuqori bo'ladi, byudjet xarajatlari tarkibida ham yirik markazlashgan investitsiyalarni davlat resurslari hisobidan moliyalashtirish xarajatlari ustun bo'ladi. Davlatning asosiy e'tibori jamiyatdagi ijtimoiy muammolarni hal qilish, aholini ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy dasturlarni davlat mablag'lari hisobidan amalga oshirishga qaratilgan bo'lsa,

xarajatlar tarkibida ijtimoiy maqsadlardagi xarajatlar ustun darajada bo'ladi.

Byudjet xarajatlari tarkibi va tuzilmasi muayyan byudjet yili uchun tasdiqlanadigan davlat byudjeti parametrlarida bevosita ko'rsatiladi va, byudjet daromadlari kabi, mamlakatda u yoki bu davrda qaror topgan iqtisodiy vaziyat hamda ijtimoiy ustuvorliklar ko'lamiga bog'liq bo'ladi.

Davlat byudjetining barqarorligi mamlakat iqtisodiyoti va ijtimoiy sohalarning holatini tavsiflaydigan muhim ko'rsatkichlardan biridir. Milliy iqtisodiyotning ayrim korxonalarini moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlash, davlat investitsiya dasturlarida ko'zda tutilgan investitsiya loyihalarini qo'shma moliyalashtirish, ijtimoiy soha (ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat, sport, fan, ijtimoiy ta'minot) muassasa va tashkilotlarini saqlash, ijtimoiy jihatdan yordamga muhtoj oilalarga ijtimoiy nafaqalar va boshqa turdagi moliyaviy yordam berish, davlat boshqaruvi va hokimiyati, sud organlari, fuqarolarning o'z-o'zini boshqarish organlarini saqlash, davlat xavfsizligi, jamoat tartibini saqlash, mamlakatning mudofaa qobiliyatini mustahkamlash kabi vazifalarning to'laqonli va o'z vaqtida bajarilishini ta'minlashda davlat byudjetining muhim moliyaviy manba sifatidagi ahamiyati juda katta.

Byudjet xarajatlarining tarkibi va tuzilishi. *Iqtisodiy mazmun-mohiyatiga ko'ra, byudjet* xarajatlari joriy va kapital xarajatlarga bo'linadi.

Davlat byudjetining joriy xarajatlari markaziy va mahalliy davlat hokimiyati organlari, mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlari, byudjet tashkilotlari va byudjetdan mablag' oluvchi yuridik shaxslarning joriy faoliyatini ta'minlash, shuningdek, davlat tomonidan byudjet tizimi byudjetlariga va iqtisodiyotning ayrim tarmoqlariga dotatsiya, subvensiya va subsidiya shaklidagi moliyaviy yordam ko'rsatish uchun ajratiladigan pul mablag'laridir.

Davlat byudjetining kapital xarajatlari – byudjet xarajatlarining innovatsiya va investitsiya faoliyatini mablag' bilan ta'minlash

maqsadlariga yo'naltirilgan pul mablag'lari bo'lib, ular tarkibiga Davlat investitsiya dasturiga kiritilgan investitsiya loyihalari bo'yicha yangi qurilish, kapital rekonstruksiya va kapital ta'mirlash maqsadlari uchun ishlab turgan yoki yangidan barpo qilinadigan korxona, tashkilot va muassasalarga, shuningdek, alohida loyihalarni moliyalashtirishga ajratiladigan moliyaviy mablag'lar kiradi.

Funksional tayinlanishiga (vazifa jihatidan) ko'ra, davlat byudjeti xarajatlari quyidagi guruhlar bo'yicha tasniflanadi (ularning tarkibi O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining 69-moddasi bilan belgilab qo'yilgan):

1. Ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xarajatlari.
2. Nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash xarajatlari.
3. Iqtisodiyot xarajatlari.
4. Markazlashtirilgan investitsiyalarni moliyalashtirish xarajatlari.
5. Davlat hokimiyati va boshqaruvi, adliya va prokuratura organlarini saqlab turish xarajatlari.
6. Sudlarni saqlab turish xarajatlari.
7. Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlarini saqlab turish xarajatlari.
8. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika byudjeti, viloyatlar viloyat byudjetlarining va Toshkent shahri shahar byudjeti, tumanlar va shaharlar byudjetlarining zaxira jamg'armalari.
9. Boshqa xarajatlar.

Sanab o'tilgan har bir guruh xarajatlar, o'z navbatida, *mahkamaviy va maqsadli belgisiga ko'ra* guruhlanadi. Mahkamaviy belgisiga ko'ra xarajatlar byudjet mablag'larini oluvchi vazirlik, davlat qo'mitasi yoki boshqa davlat boshqaruv organining xarajatlariga bo'linadi. Xarajatlar tarkibini ushbu belgiga ko'ra tahlil qilishda ularning qaysi tarmoq va sohalarga yo'naltirilayotgani haqida xulosa qilish mumkin bo'ladi. Masalan, davlat byudjetidan funksional

tayinlanishiga ko‘ra ta’lim sohasiga ajratilgan pul mablag‘lari Oliy va o‘rta maxsus ta’lim, Xalq ta’limi, Maktabgacha ta’lim vazirligi kabi mahkamalar tomonidan tasarruf etiladi. O‘z navbatida, har bir vazirlik, davlat qo‘mitasi, idorasi yoki alohida byudjet tashkilotiga ajratilgan byudjet mablag‘lari maqsadli belgisiga ko‘ra xarajatlarning aniq turlari bo‘yicha aniqlashtiriladi. Masalan, byudjet tashkilotiga ajratilgan byudjet mablag‘lari ish haqi, kommunal xizmatlar haqini to‘lash, joriy ta’mirlash, asbob-uskunalar va jihozlar, oziq-ovqat, dori-darmon sotib olish kabi xarajat turlari (muassasaning xarajatlar smetasiga kiritilgan xarajatlar turlari) bo‘yicha rejalashtiriladi va moliyalashtiriladi.

7.1-jadval

Davlat byudjeti xarajatlari tarkibi va tuzilishi

(2021-yil davlat byudjeti xarajatlari misolida)

№	Xarajatlar turlari	miqdori, mlrd. so‘m	ulushi, %
1.	Ijtimoiy xarajatlar	86386	52,1
2.	Iqtisodiyotga xarajatlar	13837	8,4
3.	Markazlashgan investitsiyalarni moliyalashtirish	17200	10,4
4.	Davlat boshqaruv organlarini saqlash	4911	3,0
5.	Adliya, prokuratura va sud organlarini saqlash	1588	1,0
6.	O‘z-o‘zini boshqarish organlari va NNT ni qo‘llab-quvvatlash xarajatlari	937	0,6
7.	Vazirlar mahkamasi, Qoraqalpog‘iston respublikasi, viloyatlar, shaharlar va tumanlar byudjetlarining zaxira jamg‘armalari	1450	0,9
8.	Ish haqi va kommunal xizmatlar tariflarini oshirish bilan bog‘liq xarajatlar	8401	5,1
9.	Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish	3500	2,1
10.	Davlat qarziga xizmat ko‘rsatish xarajatlari	3059	1,8
11.	Boshqa xarajatlar	24387	14,7
	Jami xarajatlar	**165656**	**100,0**

Hududiy belgisiga ko‘ra, byudjet xarajatlari markaziy va mahalliy hokimiyat organlarining xarajatlariga bo‘linadi. Markaziy hukumat

xarajatlari odatda davlat byudjetining respublika byudjetidan amalga oshiriladi va davlat ahamiyatidagi tadbirlarni moliyalashtirishga safarbar etiladi. Mahalliy hokimiyat organlari esa hududiy va mahalliy ehtiyojlardan kelib chiqib, byudjet xarajatlarini Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, Toshkent shahar va viloyatlar, shuningdek, shahar, tuman byudjetlari mablag'laridan amalga oshiradilar.

Umuman olganda, mamlakat miqyosida davlat byudjeti xarajatlari davlat tomonidan olib borilayotgan islohotlarning tom ma'nodagi ifodasini o'zida aks ettiradi.

Davlat byudjeti xarajatlarida ijtimoiy maqsadlardagi xarajatlarning salmog'i yuqori bo'lib, bu turkum xarajatlar jami byudjet xarajatlarining o'rtacha 52-55 foizini tashkil qiladi.

Ijtimoiy maqsadlardagi xarajatlarning qariyb 40 foizini *ta'lim tizimiga sarflanadigan xarajatlar* tashkil qilmoqda. Bu xarajatlar davlat tomonidan kafolatlangan ta'lim xizmatlarini ko'rsatuvchi maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim, kasbiy ta'lim, oliy ta'lim va uzluksiz ta'lim tizimining boshqa muassasalarini saqlash bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarni o'z ichiga oladi.

Sog'liqni saqlash xarajatlari ham davlatning ijtimoiy sohani bu tarmog'iga bo'lgan e'tiborining ortib borishiga monand ravishda yildan yilga ko'paymoqda va ijtimoiy maqsadlardagi xarajatlarning o'rtacha 23-24 foizini tashkil qilmoqda.

Ijtimoiy xarajatlarning tarkibida 10-12 foizni tashkil qilib turgan *"Ijtimoiy himoya"* xarajat guruhi ijtimoiy muhofazaga muhtoj bo'lgan oilalarga nafaqalar, moddiy yordam va kompensatsion to'lovlarni nazarda tutadi. Lekin bugungi kun voqeligi faqat ayrim fuqaro guruhlariga nafaqalar berishni nazarda tutuvchi passiv ijtimoiy siyosat mexanizmlarining aholini ijtimoiy muhofaza qilish uchun yetarli emasligini ko'rsatmoqda.

Tadbirkorlik uchun qulay sharoitlar yaratish, yangi ish o'rinlarini ochish hisobidan aholi bandligini yanada oshirish, aholining muhtoj qatlamlari bandligini oshirishni rag'batlantirishga qaratilgan aktiv ijtimoiy siyosat chora-tadbirlari O'zbekiston Respublikasini yanada

rivojlantirishning 2017–2021-yillarga mo‘ljallangan Harakatlar strategiyasining to‘rtinchi yo‘nalishida o‘z aksini topgan.

Davlat byudjetining iqtisodiy maqsadlardagi xarajatlariga quyidagi xarajat guruhlari kiradi:

– iqtisodiyotga xarajatlar;

– markazlashgan investitsiyalarni moliyalashtirish xarajatlari.

Davlat byudjetining iqtisodiyot sohalariga yo‘naltirilgan xarajatlari so‘nggi yillarda jami xarajatlarning 8-10 foizi atrofida, markazlashgan investitsiyalarni moliyalashtirish bilan bog‘liq xarajatlar esa o‘rta hisobda 10-11 foizni tashkil etgan.

Davlat byudjetining iqtisodiyotga xarajatlari tarkibiga qishloq va suv xo‘jaligi sohasidagi respublika nazorat organlarining xarajatlari, suv, qishloq, o‘rmon xo‘jaligi xarajatlari, qishloq xo‘jaligi ekinlari zararkunandalariga qarshi kurashish muassasalarining xizmatlariga haq to‘lash va ularni saqlab turish, hosildorligi past yerlarda davlat ehtiyojlari uchun qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtiruvchi fermer xo‘jaliklarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash, standartlashtirish va sertifikatlashtirish, topografiya-geodeziya, kartografiya va kadastr, shuningdek, geologiya qidiruv ishlari, davlat shaharsozlik kadastrini yuritish xarajatlari, gidrometeorologiya xizmati muassasalarini saqlab turish, atrof-muhit va landshaftning, biologik xilma-xillikning himoya qilinishini ta’minlash bilan bog‘liq bo‘lgan xarajatlar kiradi.

Markazlashgan investitsiyalarni moliyalashtirish xarajatlari tarkibiga respublika vazirliklari, davlat qo‘mitalari va idoralari buyurtmachi bo‘lgan markazlashtirilgan investitsiyalarni moliyalashtirish xarajatlari, jumladan: respublika iqtisodiyotini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha investitsiya loyihalari, davlat maqsadli dasturlari va davlatlararo bitimlarni amalga oshirish; sug‘oriladigan yerlarni tiklash va yangilarini o‘zlashtirish, suv xo‘jaligi qurilishi hamda kichik gidroenergetikani rivojlantirish; aholi punktlarining muhandislik infratuzilmasi, birinchi navbatda, yakka tartibdagi qurilish massivlarini rivojlantirish; ta’lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat obyektlari va ijtimoiy infratuzilmaning boshqa tarmoqlarini

qurish; davlat ilmiy muassasalarini rivojlantirish; davlat boshqaruvi, huquqni muhofaza qilish organlari, davlat ilmiy muassasalarining moddiy-texnika bazasini rivojlantirish va mustahkamlash; umumdavlat tabiatni muhofaza qilish tadbirlarini amalga oshirish va tabiiy ofatlardan himoya qiluvchi inshootlarni qurish xarajatlari kiradi.

Barcha davlatlarning byudjet xarajatlari tarkibida mamlakatni boshqarish, hukumat idoralarini saqlash bilan bog'liq xarajatlar ko'zda tutiladi. O'zbekiston Respublikasi byudjet amaliyotida ham ushbu maqsadlarga yo'naltiriladigan byudjet mablag'lari tarkibiga davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, adliya, prokuratura va sud organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarini saqlash xarajatlari kiradi, bu turkum xarajatlar so'nggi yillarda davlat byudjeti xarajatlarining 4,5-4,9 foizini tashkil qilib kelmoqda.

Davlat byudjeti xarajatlari tarkibida "Boshqa xarajatlar" guruhi jami byudjet xarajatlarining qariyb 15 foizini tashkil qilayotganligini ko'rish mumkin. Bunga sabab, asosan respublika byudjetidan moliyalashtiriladigan yirik xarajatlar, jumladan:

– saylovlar va referendumlarga tayyorgarlik ko'rish va ularni o'tkazish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi xarajatlari, shu jumladan, okrug va uchastka saylov komissiyalarini, siyosiy partiyalarni moliyalashtirish;

– O'zbekiston Respublikasining xalqaro tashkilotlarda (BMT, YuNESKO va boshqa tashkilotlar) ishtirok etish va a'zolik badallarini to'lash bilan bog'liq xarajatlar;

– O'zbekiston Respublikasining davlat qarziga xizmat ko'rsatish va davlatning kafolatli majburiyatlarini bajarish bilan bog'liq xarajatlar;

– davlat buyurtmasi bo'yicha statistika ishlariga haq to'lash xarajatlari;

– jamoat tartibini saqlash, davlat xavfsizligi, bojxona organlarini saqlash, mamlakatning mudofaa qobiliyatini ta'minlash kabi xarajatlar byudjet parametrlarida "boshqa xarajatlar" guruhida aks ettiriladi.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash va uning sifat ko'rsatkichlarini yaxshilash maqsadida davlat byudjeti xarajatlari orqali iqtisodiyotda yalpi talabni rag'batlantirishning ilg'or usullari hamda mexanizmlaridan foydalanish lozim. Bunda davlat byudjet xarajatlarini rejalashtirish va ijro etishning zamonaviy vositalari va ilg'or usullarini qo'llashga alohida e'tibor qaratish orqali kelajakda davlat byudjeti xarajatlarining maqsadliligi va natijadorligiga erishiladi.

7.5. Davlat byudjetining holatlari

Iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishning bugungi bosqichida byudjet daromadlari ishlab chiqarishning rivojlanishi, xo'jalik subyektlari va aholi daromadlarining oshib borishi, soliq bazalarining kengayishi, mulk shakllarining ko'payishi bilan ortib bormoqda. Lekin bu davrda jamiyatning ko'ptomonlama ehtiyojlari ham kamaygani yo'q, aksincha, davlat byudjeti hisobidan moliyalashtirilishi obyektiv zaruriyat bo'lgan, mohiyat jihatidan yangi-yangi tadbirlar, loyihalar, yo'nalishlar paydo bo'ldi. Ularni to'liq hajmda moliyalashtirish yanada ko'proq mablag'larni jalb qilishni taqozo etadi. Lekin daromadlarni muttasil oshirib borish (xususan, soliqlarni oshirish orqali) imkoniyati amaldagi soliq qonunchiligi hamda soliq to'lovchilarning iqtisodiy imkoniyatlari bilan chegaralangan. Shu bilan birga, soliqlarni asossiz ravishda oshirish iqtisodiy subyektlarning xo'jalik faoliyatiga jiddiy putur yetkazadi, ularning ishlab chiqarishni rivojlantirish, uning samaradorligini oshirishga bo'lgan qiziqishlarini so'ndiradi. Bunday sharoitda byudjet xarajatlarining byudjet daromadlari bilan balanslangan bo'lishiga har doim ham erishib bo'lmaydi.

Amaliyotda byudjet daromadlari va xarajatlarining tengligiga hamma vaqt ham erishilavermaydi. Ayrim hollarda byudjetning daromadlari uning xarajatlaridan ko'p bo'lishi mumkin. Bunday byudjet *profitsitli byudjet* deyiladi. Aksincha, ba'zi hollarda esa

byudjetning xarajatlari uning daromadlaridan ko'proq bo'ladi. Shunga muvofiq ravishda byudjet xarajatlarining byudjet daromadlaridan ko'p bo'lishiga byudjet defitsiti deyiladi.

O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksida davlat byudjetining holatini belgilab beruvchi tushunchalarga quyidagicha ta'riflar berilgan[39]:

Davlat byudjeti profitsiti –
muayyan davrda O'zbekiston Respublikasining davlat byudjeti daromadlarining uning xarajatlaridan oshib ketishi

Davlat byudjeti taqchilligi –
muayyan davrda O'zbekiston Respublikasining davlat byudjeti xarajatlarining uning daromadlaridan oshib ketishi

Davlat byudjeti daromadlarining byudjet xarajatlaridan oshish holati yuzaga kelganda, *byudjet profitsiti* paydo bo'ladi. Byudjet profitsiti, odatda, davlatning qarz majburiyatlarini to'lashga va likvidli mablag'larini ko'paytirishga jalb etiladi.

Sobiq Ittifoqda ma'muriy-buyruqbozlik yillarida davlat byudjeti aqchilligi uzoq vaqtlargacha mustaqil iqtisodiy kategoriya sifatida tan olinmagan. Davlat byudjetini shakllantirishda moliyaviy resurslarga bo'lgan talabdan kelib chiqqan holda, ularni moliyalashtirish uchun mablag'lar qidirib topilardi va shu asosda davlatning moliyaviy manfaatlari ta'minlanar edi. Rejali iqtisodiyot ma'lum davrlargacha hech qanaqa larzalarsiz, bir tekisda ma'muriy-buyruqbozlik asosida rivojlanib borishi daromadlar va xarajatlar orasida "kasallik" alomatlarini aniq ko'rsatmadi. Ammo, keyingi davrlarda (80-yillarning oxiriga kelib) sobiq Ittifoqda byudjet taqchilligi holati yuzaga chiqa boshladi. Dastlabki yillardagi byudjet taqchilligi jamg'arma kassalardagi aholiga tegishli bo'lgan mablag'lar, uzoq muddatli hayot sug'urtasi badallarining o'sishi va aholi o'rtasida davlatning ichki yutuqli zayom obligatsiyalarini chiqarish va sotish

[39] O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksi (O'RQ–360-son. 26.12.2013). 3-modda.

hisobiga qoplab borildi. Bu turdagi qarzlar oldindan mavjud bo'lgan resurslarni qayta taqsimlash asosida amalga oshirilganligi uchun mamlakat miqyosida moliyaviy-moddiy balansning buzilishiga olib kelmadi, ammo bu jarayon davlat qarzlarining o'sishiga olib keldi. 1986-yilda byudjet taqchilligining juda tez sur'atda o'sib ketishi (45,5 mlrd. rubl) Ittifoq moliya tizimining parokandalik holatini boshlab berdi.

Ammo byudjet taqchilligini favqulodda, mustasno hodisa deb qarab bo'lmaydi. O'zining tarixiy va iqtisodiy rivojlanishining u yoki bu bosqichida byudjet taqchilligiga duch kelmagan davlat bo'lmasa kerak. Masalan, AQSh da federal byudjet keyingi yarim asr mobaynida faqat 1969-yildagina taqchilliksiz ijro etilgan.

Dunyoning ko'pgina mamlakatlarida har yilgi taqchillikning va tez o'sib boruvchi davlat qarzining mavjud bo'lishi kuzatiladi. 70-yillar boshlariga kelib, byudjet taqchilligining YalMga nisbatan foiz hisobida o'sgan davlatlar bu ko'rsatkich pasaygan mamlakatlarga nisbatan ko'pchilikni tashkil etgan. AQShda Ikkinchi jahon urushi yillarigacha byudjet taqchilligi bo'lmagan, faqat urush yillarida davlat byudjetida taqchillik yuzaga kelgan

Taqchillikning hajmi:

- milliy valyutada absolyut summada;
- mamlakat yalpi ichki mahsuloti hajmiga nisbatan foizlarda;
- milliy daromad hajmiga nisbatan foizlarda;
- byudjet daromadlari va xarajatlariga nisbatan foizlarda aniqlanadi.

Byudjet taqchilligining shakllari. Taqchillikni keltirib chiqaruvchi omillar. Taqchillikni qoplash manbalari.

Boshqa hollar teng bo'lgan sharoitda, byudjet defitsiti vujudga kelishining eng umumiy sabablari quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin:

– iqtisodiyotni rivojlantirish uchun yirik davlat kapital qo'yilmalarini amalga oshirishning zarurligi;

– favqulodda hodisalarning mavjudligi;

– iqtisodiyotdagi tanazzulli (inqirozli) holatlar va uning yemirilishi;

– moliya-kredit aloqalarining yetarli darajada samarali emasligi;

– hukumat tomonidan mamlakatdagi moliyaviy holat ustidan yetarli darajada nazorat qila olmaslik;

– ijtimoiy ishlab chiqarishning nisbatan past darajada samaradorligi;

– tashqi iqtisodiy aloqalarning nisbatan kam natijaliligi;

– byudjet xarajatlarining nooqilona tarkibiy tuzilishi;

– mamlakat miqyosida mavjud bo'lmagan mablag'lar hisobidan yashashga intilish;

– yirik davlat investitsiyalarini amalga oshirish amaliyotining mavjudligi;

– harbiy xarajatlar darajasining nisbatan kattaligi;

– ichki real imkoniyatni yetarli darajada inobatga olmagan holda boshqa mamlakatlarga yordam berilishi;

– davlatga iqtisodiyot va ijtimoiy sohani rivojlantirishni rag'batlantirish imkonini bermaydigan va yetarli darajada samarali bo'lmagan byudjet mexanizmining mavjudligi va boshqa sabablar.

Byudjet defitsiti vujudga kelganda, unga nisbatan strategik yondashuv quyidagilarga alohida e'tibor berilishini taqozo etadi:

– byudjet defitsitining mavjudligini matematik yo'l bilan hal qilishga harakat qilmaslik kerak. Chunki, bu holda, iqtisodiyotni "davolash" o'rniga uning "kasalligi" kuchayadi;

– byudjetning balansliligi, daromadlarning xarajatlardan ko'pligi sog'lom va uzluksiz rivojlanayotgan iqtisodiyotdan dalolat bermaydi.

Byudjet defitsitining miqdori, odatda, mamlakat yalpi milliy mahsulotining 2-3 foizidan oshmasligi lozim. Ana shu chegaradan oshib ketsa, uni tezroq qisqartirish choralarini ko'rish kerak.

Byudjet defitsitini qoplash uchun, eng avvalo, davlat kreditining turli shakllaridan foydalanish, shuningdek, davlat qimmatbaho

qog'ozlarini moliyaviy bozorda joylashtirish maqsadga muvofiq. Byudjet defitsitining darajasini kamaytirish yoki unga barham berish uchun, birinchi navbatda, iqtisodiyotning o'zini "davolamoq" lozim. Aks holda, ana shu maqsadga erishish uchun ko'zda tutilgan har qanday tadbir, albatta, muvaffaqiyatsizlikka uchraydi.

Byudjet defitsitining darajasini kamaytirish yoki unga barham berish borasidagi amalga oshirilishi lozim bo'lgan chora-tadbirlarning eng asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

- byudjet xarajatlarining investitsion yo'nalishini o'zgartirish, ularni eng ko'p samara beradigan yo'nalishlarga yo'naltirish;
- xo'jalik yuritishning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga oluvchi moliyaviy imtiyoz va jazolardan keng foydalanish;
- davlatdan moliyalashtirishni va davlat iqtisodiyoti sohasini qisqartirish, xorijiy davlatlarga yordam ko'rsatishni kamaytirish;
- harbiy xarajatlarni qisqartirish;
- eng muhim ijtimoiy dasturlarnigina moliyalashtirishni saqlab qolish, yirik byudjet xarajatlarini talab etuvchi dasturlarni qabul qilishni cheklab turish;
- qarzlarni davlat qimmatbaho qog'ozlari shaklida rasmiylashtirmasdan turib Markaziy bank uchun hukumat organlariga kredit berishni taqiqlab qo'yish;
- xorijiy sarmoyalarni jalb etish va boshqalar.

Byudjet defitsiti vujudga kelgan paytda uni moliyalashtirish manbalarini aniqlab olmoq zarur. Byudjet defitsitini moliyalashtirishning barcha manbalarini ikki guruhga bo'lish qabul qilingan:

1) ichki manbalar;

2) tashqi manbalar.

Byudjet defitsitini moliyalashtirishning ichki manbalari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

- mamlakat hukumati tomonidan shu mamlakatning milliy valyutasida kredit tashkilotlaridan olingan kreditlar;

– mamlakat hukumati nomidan qimmatbaho qog'ozlarni chiqarish orqali amalga oshiriladigan davlat zayomlari;

– davlat mulkiga tegishli bo'lgan mol-mulkni sotishdan olingan tushumlar;

– davlat zaxiralari bo'yicha daromadlarning xarajatlardan o'sgan qismi summasi;

– byudjet mablag'larini hisobga oluvchi hisobvaraqlaridagi mablag'lar qoldig'ining o'zgarishi va boshqalar.

Byudjet defitsitini moliyalashtirishning tashqi manbalari qatoriga quyidagilar kiradi:

– mamlakat hukumati nomidan qimmatbaho qog'ozlarni chiqarish va jahon moliya bozorlarida joylashtirish orqali xorijiy valyutada amalga oshirilgan davlat zayomlari;

– xorijiy valyutada taqdim etilgan va mamlakat hukumati tomonidan jalb qilingan xorijiy davlatlar, banklar va firmalar, xalqaro moliyaviy tashkilotlarning kreditlari.

7.6. Byudjet jarayoni

Byudjet jarayoni – byudjet loyihasini tuzish, ko'rib chiqish, qabul qilish va ijro etish, uning ijro etilishini nazorat qilish, ijrosi haqidagi hisobotni tayyorlash va tasdiqlash bilan bog'liq bo'lgan maqsadli faoliyat jarayonidir. Uning mazmuni mamlakatning davlat va byudjet qurilishi, tegishli vakolatli organlar va yuridik shaxslarning byudjet huquqlari bilan belgilanadi.

Byudjet jarayoni, odatda, byudjet faoliyatining quyidagi bosqichlarini o'z ichiga oladi (7.6-rasmga qarang):

– byudjet loyihasini tuzish;

– byudjetni ko'rib chiqish va qabul qilish;

– byudjetni ijro etish va nazorat qilish;

– byudjetning ijrosi to'g'risidagi hisobotni tayyorlash va uni tasdiqlash.



7.6-rasm. **Byudjet jarayoni bosqichlari**

Byudjet jarayonining davomiyligi yuqoridagi bosqichlarni o'z ichiga olib, odatda, bir byudjet yilidan ancha avval boshlanib (6-8 oy), byudjet yili tugagandan keyingi bir necha oyni o'z ichiga oladi.

O'zbekiston Respublikasida byudjet yili kalendar yiliga mos keladi va 1-yanvarda boshlanib 31-dekabrda tugaydi. Lekin dunyoning turli davlatlarida byudjet yili kalendar yilining turli davrlariga to'g'ri keladi. Bu, odatda, parlament sessiyalarini o'tkazish davri, shu mamlakatda qaror topgan tarixiy an'analar, muhim sanalar bilan bog'liq. Masalan, Fransiya, Germaniya, Italiyada byudjet yili 1-yanvardan, Buyuk Britaniya, Yaponiya, Kanadada – 1-apreldan, Shvetsiya, Norvegiya, Pokistonda – 1-iyuldan boshlanadi.

Davlat byudjeti loyihasini tuzish. Navbatdagi yil uchun Davlat byudjeti to'g'risidagi qonun loyihasi hamda kelgusi ikki yilga byudjet mo'ljallari o'rta muddatli davr uchun ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari va makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognozi asosida ishlab chiqiladi.

Davlat byudjeti hamda davlat maqsadli jamg'armalari loyihasini tuzish uchun mas'ul organlar O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, shuningdek, byudjetlar loyihalarini tuzish, Moliya vazirligi so'ragan axborot va ma'lumotlarni taqdim etishga taalluqli qismi bo'yicha –vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralar, mahalliy davlat hokimiyati organlari, davlat maqsadli jamg'armalarini taqsimlovchi organlar hisoblanadi.

Byudjet loyihasini tuzish quyidagilarni nazarda tutadi[40]:

[40] O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining 83-moddasiga asosan.



Byudjet so'rovi – kelgusi davr uchun byudjetdan ajratiladigan mablag'larni olishga bo'lgan ehtiyojni asoslashni nazarda tutuvchi hujjat bo'lib:

– byudjet tashkilotining, byudjet mablag'lari oluvchining va byudjet mablag'larini taqsimlovchining byudjet tizimi byudjetlari mablag'laridan foydalanish bilan bog'liq faoliyatining miqdor va sifat ko'rsatkichlarini o'z ichiga oluvchi, o'tgan yilda erishilgan natijalar va joriy yilda kutilayotgan natijalar to'g'risidagi *tahliliy hisobotni*;

– *xarajat majburiyatlarining* ularni kiritish (ijro etish) uchun asos bo'ladigan hamda moliyalashtirish manbalari va amal qilish muddatlarini belgilaydigan normativ-huquqiy hujjatlar, shartnomalar va (yoki) ularning alohida qoidalari ko'rsatilgan *reestrini*;

– byudjet mablag'larini taqsimlovchining *rivojlantirish dasturini*;

– byudjet mablag'larini taqsimlovchining rivojlantirish dasturi bilan uzviy bog'liq holda tuzilgan kelgusi davr uchun *byudjet buyurtmasini* o'z ichiga oladi.

Byudjet buyurtmasi byudjet tashkiloti, byudjetdan mablag' oluvchi yoki byudjet mablag'larini taqsimlovchi tomonidan tuziladi va tegishli moliya organiga byudjet so'rovini taqdim etish muddatidan kechiktirmasdan taqdim etiladi. Byudjet buyurtmasida o'tgan va joriy yillar hamda kelgusi uch yil uchun byudjet tizimi byudjetlarining mablag'lari hisobidan amalga oshiriladigan xarajatlar byudjet tasnifiga muvofiq aks ettiriladi.

Davlat byudjetining loyihasini O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi ishlab chiqadi. Byudjet loyihasini ishlab chiqishga quyidagilar asos qilib olinadi:

– makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar prognozi;

– daromadlarning tashkil topish manbalari bo‘yicha Davlat byudjeti daromadlari prognozi;

– byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarning byudjet so‘rovlari va O‘zbekiston Respublikasining respublika byudjeti hisobidan ayrim tadbirlar uchun xarajatlar hajmining prognozi;

– Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahrining mahalliy byudjetlari loyihalari.

Byudjetnoma – erishilgan natijalar hisobga olingan holda mamlakatni kelgusi davrda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlarini nazarda tutuvchi hujjat

Mamlakatni kelgusi davrda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari asosida davlat byudjeti to‘g‘risidagi qonun loyihasi ishlab chiqiladi.

Byudjetnoma quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

– mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning o‘tgan yilgi asosiy yakunlari va mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning joriy yilgi yakunlarining prognoz bahosi, shuningdek, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning o‘rta muddatli davr uchun asosiy yo‘nalishlari;

– davlat byudjetining va davlat maqsadli jamg‘armalari byudjetlarining loyihasini ishlab chiqishda foydalanilgan asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarning o‘rta muddatli davr uchun prognozi;

– davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg‘armalari byudjetlari joriy yildagi ijrosining prognoz bahosi;

– fiskal tavakkalchiliklar tahlili hisobga olingan holda o‘rta muddatli davr uchun fiskal strategiyasi;

– prognoz yil uchun Davlat byudjetining va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlarining loyihasi, O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi daromadlari va xarajatlarining hamda kelgusi ikki yilga oid byudjet mo'ljallari;

– davlat qarzining holati to'g'risidagi ma'lumotlar, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi tomonidan yoki uning kafolati ostida jalb qilinadigan kreditlarning yillik chegaraviy miqdori.

Davlat byudjeti to'g'risidagi qonun loyihasi va byudjetnoma O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga, Vazirlar Mahkamasi tomonidan esa O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasiga qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda kiritiladi. Shuningdek, Vazirlar Mahkamasi qonun loyihasi va byudjetnomani O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasiga belgilangan muddatlarda loyiha yuzasidan xulosa taqdim etishi uchun kiritadi. Hisob Palatasi Vazirlar Mahkamasiga davlat byudjeti to'g'risidagi qonun loyihasi va o'rta muddatli davr uchun fiskal strategiya bo'yicha xulosani qonun hujjatlarida belgilangan muddatlardan kechiktirmay taqdim etadi. Byudjet loyihasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga hamda Senatiga Hisob palatasining xulosasi bilan taqdim etiladi.



7.7-rasm. **Davlat byudjeti to'g'risidagi qonun loyihasi va byudjetnomaning qabul qilinishi**

Davlat byudjeti to‘g‘risidagi qonun loyihasi, o‘rta muddatli davr uchun fiskal strategiya, davlat byudjetining va davlat maqsadli jamg‘armalari byudjetlarining ijrosi to‘g‘risidagi hisobotlar O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga yuborilishidan oldin majburiy ravishda jamoatchilik muhokamasiga qo‘yiladi, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan ishlab chiqiladigan “Fuqarolar uchun byudjet” axborot nashri jamoatchilik muhokamasi uchun parallel ravishda e’lon qilinadi.

Byudjet loyihasini ko‘rib chiqish va qabul qilish. Davlat byudjeti to‘g‘risidagi qonun loyihasi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi tomonidan, qonun hujjatlarida belgilangan muddatlardan kechiktirmay ko‘rib chiqilishi kerak.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilingan Davlat byudjeti to‘g‘risidagi Qonun O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senatiga ko‘rib chiqish uchun qabul qilingan kundan e’tiboran besh kun ichida yuboriladi. Davlat byudjeti to‘g‘risidagi Qonun Oliy Majlisning Senati tomonidan o‘rnatilgan tartibda va muddatlarda ma’qullanadi. Shunday qilib, *davlat byudjeti O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan qonun shaklida qabul qilinadi.*

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining navbatdagi yil uchun Davlat byudjeti to‘g‘risidagi qonunini ijro etish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori qabul qilinadi.

Davlat byudjeti to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi qonuni qabul qilingandan so‘ng qonunchilikda belgilangan muddatlarda va tartibda byudjet tizimining tegishli byudjetlari qabul qilinadi.

Byudjetni ijro etish va nazorat qilish. Byudjet tizimi byudjetlarining ijrosi O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan g‘azna ijrosi yo‘li bilan amalga oshiriladi. Byudjet ijrosini tashkil qilishda O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining yagona axborot tizimida byudjet tizimi byudjetlari, byudjet tashkilotlari va

byudjetdan mablag‘ oluvchilar uchun shaxsiy g‘azna hisobvaraqlari ochiladi.

Byudjet tizimi byudjetlarining ijrosi byudjet to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida belgilangan byudjet tizimi byudjetlari daromadlarining tushishini ta’minlash va xarajatlarini amalga oshirishni, shuningdek, ularning ijrosi bilan bog‘liq operatsiyalarni hisobga olishni nazarda tutadi

Byudjet tashkilotlari va byudjetdan mablag‘ oluvchilar o‘z xarajatlar smetalarida nazarda tutilgan byudjetdan ajratiladigan mablag‘larni moliya yili tugaguniga qadar sarflaydilar. Byudjet tizimi byudjetlarining ijrosi moliya yili va qo‘shimcha vaqt mobaynida amalga oshiriladi. Keyingi yilning yanvar oyi moliya yiliga qo‘shimcha vaqt davri bo‘lib, bu davr mobaynida o‘tgan yil uchun byudjet tizimi byudjetlarining ijrosi amalga oshiriladi. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi byudjet tizimi byudjetlarining qo‘shimcha vaqt davridagi ijrosi bo‘yicha operatsiyalarni o‘tkazish tartibi va eng kech muddatlarini belgilaydi.



7.8-rasm. **Byudjet tizimi byudjetlari daromadlari ijrosini tashkil etish**[41]

[41] O‘zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining VII bo‘lim, 19-bob, 109-moddasi asosida keltirildi.

Byudjet tizimi byudjetlarining xarajatlari daromadlar va xarajatlar yoyilmasida nazarda tutilgan byudjetdan ajratiladigan mablag'lar doirasida hamda byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilar faoliyat ko'rsatishini ta'minlaydigan muddatlarda, daromadlarning tushishi hisobga olingan holda amalga oshiriladi.

Byudjet kodeksining 117-moddasida byudjet tizimi byudjetlari daromad qismining ijrosi nimalarni o'z ichiga olishi ko'rsatilgan (7.8-rasm):

Davlat byudjetiga va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlariga daromadlarni yig'ishga vakolatli bo'lgan organ va tashkilotlar (bundan davlat soliq xizmati organlari va bojxona organlari mustasno) daromadlarning to'g'ri hisoblab chiqilishi, to'liq va o'z vaqtida to'lanishi ustidan nazoratni amalga oshirishi, shuningdek, agar qonun hujjatlarida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, davlat soliq xizmati organiga hisobot taqdim etishi shart.

Byudjet ijrosi jarayonida byudjet tashkilotlari va byudjetdan mablag' oluvchilarga turli darajadagi byudjetlardan byudjet mablag'larini ajratishga yo'l qo'yilmaydi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va boshqa moliya organlari davlat byudjeti ijrosini nazorat qilishda:

– turli darajadagi byudjetlar ijrosi yakunlarini ko'rib chiqadi;

– turli darajadagi byudjetlarga mablag'lar tushumi to'g'risida soliq va bojxona organlari, davlat maqsadli jamg'armalarini taqsimlovchi organlardan axborotlar oladi;

– byudjet mablag'lari oluvchilardan byudjetdan ajratiladigan mablag'larning tushumi va sarfi to'g'risida ma'lumotlarni talab qilib oladi;

– qonun hujjatlariga muvofiq banklardan byudjet mablag'lari harakati to'g'risida ma'lumotlar oladi;

– o'z vakolatlari doirasida byudjet mablag'lari oluvchilarning moliya-xo'jalik faoliyatini taftish qiladi va tekshiradi.

Byudjet tizimi byudjetlari xarajatlar qismining ijrosi quyidagilarni nazarda tutadi (7.9-rasm):

Byudjetning ijrosi to'g'risidagi hisobotni tayyorlash va uni tasdiqlash. Davlat byudjetining ijrosi to'g'risidagi hisobot byudjet tasnifiga muvofiq muayyan davr uchun Davlat byudjeti daromadlari va xarajatlarining ijrosi natijalaridan iborat bo'ladi. Davlat byudjetining ijrosi to'g'risidagi yillik hisobotni O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tuzadi va o'rnatilgan tartibda va muddatlarda Vazirlar Mahkamasiga taqdim etadi.



7.9-rasm. **Byudjet tizimi byudjetlari xarajatlari ijrosini tashkil etish**[42]

Vazirlar Mahkamasi Davlat byudjetining va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlarining ijrosi to'g'risidagi yillik hisobotni O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasiga tashqi audit o'tkazish va baholash uchun hisobot yilidan keyingi yilning 5 apreligacha yuboradi. Hisob palatasi hisobotga doir xulosani hisobot yilidan keyingi yilning 10 mayidan kechiktirmay Vazirlar Mahkamasiga yuboradi. Hisob palatasining xulosalari majburiy ravishda e'lon qilinadi. Vazirlar Mahkamasi byudjet ijrosi to'g'risidagi yillik

[42] O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining VII bo'lim, 19-bob, 120-moddasi asosida keltirildi.

hisobotni Hisob palatasining xulosasi bilan birga O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga taqdim etadi.

Qonunchilik palatasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tegishli hisobot davri uchun taqdim etilgan Davlat byudjetining va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlarining ijrosi to'g'risidagi hisobotni Oliy Majlis Qonunchilik palatasining siyosiy partiyalar fraksiyalari va qo'mitalarida muhokama qilish asosida ko'rib chiqadi. Shundan so'ng Qonunchilik palatasining majlisida ko'rib chiqiladi hamda uning qarori bilan tasdiqlanadi. Byudjetning ijrosi to'g'risidagi yillik hisobot Oliy Majlisning Qonunchilik palatasi tomonidan tasdiqlangandan so'ng hisobot yili uchun Davlat byudjetining va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlarining ijrosi to'g'risidagi axborot O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining rasmiy veb-saytiga joylashtiriladi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Davlat byudjetining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati nimada? Davlat byudjetining iqtisodiy kategoriya, moddiy tushuncha, huquqiy kategoriya sifatida amal qilishini tushuntirib bering.

2. Davlat byudjeti mamlakat moliya tizimida qanday o'rin egallaydi, uning boshqa bo'g'inlari bilan qanday munosabatlarga kirishadi?

3. Unitar va federativ davlat tuzilishiga ega bo'lgan mamlakatlarda byudjet tuzilishi modellarini tavsiflab bering.

4. Byudjet tizimiga ta'rif bering. O'zbekiston Respublikasi byudjet tizimi qanday tamoyillarga asoslanadi?

5. Byudjetlararo munosabatlar nima va O'zbekiston Respublikasi byudjet amaliyotida byudjetlararo munosabatlarning qaysi shakllaridan foydalaniladi?

6. Byudjet daromadlari qanday mezonlar asosida tasniflanadi? Byudjet daromadlari manbalariga ko'ra qanday guruhlanadi?

7. Byudjetning soliqli daromadlari tarkibi nimalardan iborat? Soliq tizimi deb nimaga aytiladi?

8. Davlat byudjeti xarajatlarining funksional (vazifa jihatdan) tayinlanishiga ko'ra tarkibi va tuzilishi qanday?

9. Byudjet defitsiti deb nimaga aytiladi? Byudjet defitsitini keltirib chiqaruvchi omillar qaysilar?

10. Iqtisodiy rivojlanishning turli davrlarida O'zbekiston Respublikasida mavjud bo'lgan byudjet defitsitining sabablarini aniqlang. Hukumatning qanday tadbirlari byudjet defitsiti muammosining hal qilinishiga qaratildi?

11. Byudjet jarayoni nima, u qanday bosqichlarda amalga oshiriladi?

12. Xorijiy davlatlarda byudjet jarayonini tashkil etish xususiyatlari nimalarda namoyon bo'ladi?

Mavzu yuzasidan topshiriqlar

1. Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda yalpi ichki mahsulotning davlat byudjeti orqali qayta taqsimlash nisbatlarini xarakterlovchi ma'lumotlarni to'plang, solishtiring va taqsimlash nisbatlarining turlicha bo'lish sabablarini tushuntirib bering.

2. Xorijiy davlatlar byudjet tizimlari va O'zbekiston Respublikasi byudjet tizimi bo'yicha taqdimot tayyorlang.

3. Byudjet qonunchiligini tashkil qiluvchi hujjatlar ro'yxatini tuzing va har biriga qisqacha izoh yozing.

4. O'zbekiston Respublikasi davlat byudjeti daromadlari tarkibi va tuzilishining tahlili asosida tahliliy ish tayyorlang va himoya qiling.

5. Davlat moliyasini sog'lomlashtirish va byudjet daromadlari barqarorligini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar tizimini ishlab chiqing va shu asosda taqdimot tayyorlang.

6. Davlat byudjetining iqtisodiy maqsadlardagi xarajatlarining so'nggi 3 yillik ijrosi ma'lumotlari asosida tahliliy ish bajaring.

7. Davlat byudjetining markazlashgan investitsiyalarni moliyalashtirish xarajatlarining byudjet xarajatlari tarkibidagi hamda Davlat investitsiya dasturini moliyalashtirish manbalari tarkibidagi o'rni va ahamiyati yuzasidan ko'rgazmali ma'lumot tayyorlang.

8. O'zbekiston Respublikasi davlat byudjeti daromadlari, xarajatlari va byudjet defitsitining dinamikasini aks ettiruvchi ma'lumotlarni to'plang, ularni jadval (diagramma, grafik) tarzida rasmiylashtiring va qisqacha xulosa yozing.

9. Internet resurs manbalaridan foydalanib, xorijiy davlatlar byudjetlarining holati to'g'risida taqdimot tayyorlang.

8-BOB. DAVLAT MAQSADLI VA BYUDJETDAN TASHQARI JAMG'ARMALARI

8.1. Davlat maqsadli jamg'armalarining zarurligi, mohiyati, ahamiyati va vazifalari

Har bir jamiyat o'zining milliy, madaniy, tarixiy qadriyatlaridan kelib chiqqan holda, asosan ijtimoiy siyosatni amalga oshirish va iqtisodiyotni rivojlantirish, mehnatga qobiliyatsiz va vaqtinchalik ishsiz aholi qatlamini himoya qilish bilan bog'liq vazifalarni o'z zimmasiga oladi. Ushbu vazifalarni moliyaviy jihatdan ta'minlash uchun ikki usuldan foydalanish mumkin:

- ma'lum maqsadli qismini davlat byudjetidan ajratish;
- hukumat qarorlariga asosan aniq maqsadli yo'nalishga ega bo'lgan yangi byudjetdan tashqari jamg'armalarni tashkil etish.

Iqtisodiy rivojlanishning hozirgi bosqichida ikkala usuldan ham foydalanilmoqda.

Byudjetdan tashqari jamg'armalarni tashkil etishdan maqsad jamiyat uchun muhim bo'lgan xarajatlarni byudjet mablag'laridan tashqari mustaqil manbalar hisobidan ta'minlashdir.

Byudjetdan tashqari jamg'armalar dastlab, maxsus jamg'armalar shaklida yoki davlat byudjeti paydo bo'lgunga qadar maxsus hisoblar shaklida mavjud bo'lgan. Hukumat faoliyatining kengayishi bilan ularni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan mablag'larni talab etuvchi yangi xarajatlarga ehtiyoj sezilgan. Bu mablag'lar maxsus maqsadlar uchun mo'ljallangan alohida jamg'armalarda yig'ilgan. Bu jamg'armalar qoidaga ko'ra, vaqtinchalik xarakterga ega bo'lgan. Davlat faoliyat doirasining kengayishi bilan tobora yangi xarajatlarga ehtiyoj sezila boshladi. Ularni qoplash uchun mablag'lar maxsus jamg'armalarda to'plandi va maxsus maqsadlarga qaratildi. Davlatning rejalashtirgan tadbirlarini amalga oshirib bo'lganidan keyin ushbu jamg'armalar o'z faoliyatini to'xtatar, buning natijasida jamg'armalar soni doimiy o'zgarib kelar edi.

Byudjetdan tashqari maqsadli jamg'armalar jamiyatdagi ayrim xarajatlarni moliyalashtirish va kompleks ravishda tezkor mustaqillik asosida mablag'larni sarflash, davlat orqali jalb qilinadigan moliyaviy resurslarni qayta taqsimlash va foydalanish usulidir.

Byudjetdan tashqari jamg'armalar – davlat organlari tomonidan milliy daromadni aholining ma'lum ijtimoiy guruhlari manfaatlarini nazarda tutgan holda qayta taqsimlashning bir usulidir. Davlat miqyosidagi muayyan yo'nalishdagi tadbirlarni moliyalashtirish uchun aholi daromadlarining bir qismini jamg'armalarga jalb etadi.

Byudjetdan tashqari jamg'armalarning mohiyati quyida keltirilgan rasmda o'z aksini topgan (8.1-rasmga qarang).



8.1-rasm. **Byudjetdan tashqari jamg'armalarning mohiyati**

Ko'plab rivojlangan mamlakatlarda byudjetdan tashqari jamg'armalar yaxshi tashkil etilgan institutsional asosga ega. Byudjetdan tashqari jamg'armalar ikki asosiy vazifani bajaradi:

– iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarini qo'shimcha mablag'lar bilan ta'minlash;

– aholi uchun ijtimoiy xizmatlarni kengaytirish va ularni moliyalashtirish.

Byudjetdan tashqari jamg'armalar moliya tizimining muhim bo'g'ini bo'lishi bilan birgalikda, bir qator o'ziga xos xususiyatlarga ham ega:

- davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tomonidan rejalashtiriladi hamda qat'iy maqsadli yo'naltirilgan bo'ladi;
- jamg'armalar mablag'laridan byudjetga kiritilmagan davlat xarajatlarini moliyalashtirish uchun foydalaniladi;
- asosan yuridik va jismoniy shaxslarning ajratmalari asosida shakllantiriladi;
- jamg'armalarga sug'urta badallari va ularni to'lashda yuzaga keladigan o'zaro aloqalar soliqli xarakterga ega, badallar tarifi davlat tomonidan belgilanadi va majburiy hisoblanadi;
- jamg'armalarning mablag'lari davlatga tegishli bo'lib, ular davlat byudjeti, shuningdek, boshqa jamg'armalar tarkibiga kirmaydi hamda qonun hujjatlarida ko'zda tutilmagan maqsadlarga sarflanmaydi;
- jamg'armalar mablag'laridan foydalanish hukumatning maxsus ko'rsatmalari asosida amalga oshiradi.

Byudjetdan tashqari jamg'armalar – davlat tomonidan byudjetga kiritilmaydigan ba'zi jamoat ehtiyojlarini moliyalashtirish uchun mustaqil tezkorlik asosida moliyaviy resurslardan qat'iy maqsadli foydalanishning shaklidir.

Byudjetdan tashqari davlat jamg'armalari davlat tomonidan jamiyat ehtiyojlarini mustaqillik asosida kompleks ravishda xarajat qilish uchun jalb etilgan mablag'larni qayta taqsimlash va ulardan foydalanish bilan bog'liq munosabatlar hisoblanadi va ularning afzalliklariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- ijtimoiy va iqtisodiy maqsadlardagi xarajatlarni moliyaviy mablag'lar bilan ta'minlashning qoldiq tamoyillarini bartaraf etish imkonini beradi;
- jamg'armalar byudjet xarajatlarining bir qismini o'z zimmasiga oladi va byudjetdan mablag' bilan ta'minlash muammosini ma'lum darajada hal qiladi;

– jamg‘armalarning mablag‘laridan maqsadli foydalaniladi va moliyaviy resurslarni ko‘paytirish imkoni yaratiladi.

8.2. Davlat maqsadli jamg‘armalarining turlari, ularning tashkiliy-huquqiy asoslari

Byudjetdan tashqari jamg‘armalar har doim ham davlatga tegishli bo‘lmaydi. Jamiyat taraqqiyoti, ijtimoiy-iqtisodiy va ma’naviy ehtiyojlarning kengayishi jamiyat a’zolarining ortib borayotgan qiziqishlarini qondirishga yo‘naltirilgan nodavlat byudjetdan tashqari jamg‘armalarning rivojlanishiga turtki bo‘ldi.



8.2-rasm. **Byudjetdan tashqari fondlarning tasniflanishi**[43]

Mablag‘lar sarflanishining maqsadli yo‘naltirilishiga ko‘ra, byudjetdan tashqari jamg‘armalar ijtimoiy, iqtisodiy, ekologik va boshqa jamg‘armalarga ajratiladi. Ijtimoiy ahamiyatdagi jamg‘armalar davlat organlariga faol ijtimoiy siyosatni yuritishga ko‘mak beradi.

[43] Nurmuxamedova B., Kabirova N. Moliya. O‘quv qo‘llanma. T:, "IQTISOD-MOLIYA", 2017. 146-b.

Ushbu jamg'armalarni shakllantirishda, asosan, sug'urta qilingan shaxslarning hamda tadbirkorlarning sug'urta badallaridan, davlat subsidiyalari va foizsiz ssudalaridan foydalaniladi.

Byudjetdan tashqari jamg'armalarni quyidagi xususiyatlar bo'yicha tasniflash mumkin (8.2-rasm).

Davlat ijtimoiy jamg'armalari fuqarolarning pensiya bilan ta'minlanish, kasalligi, nogironligi, boquvchisini yo'qotganligi sababli, shuningdek, tibbiy yordam olish, ishsizlikdan himoya qilinish va boshqalar uchun ijtimoiy nafaqalarni olishdek konstitutsion huquqlarni ta'minlashga yo'naltirilgan.

Iqtisodiy jamg'armalar jamiyatning xo'jalik va ijtimoiy hayotining rivojlanishida davlatning ta'sir etish imkoniyatlarini kengaytiradi. Ushbu jamg'armalarning daromad qismini shakllantirishda byudjet mablag'lari qatorida, yirik kompaniyalarning mablag'lari, moliya institutlarining badallari va boshqa manbalardan foydalaniladi.

Turli mamlakatlarda turli yo'nalishlarga qaratilgan jamg'armalar ularda yuritilayotgan moliyaviy siyosatga mos ravishda tashkil etiladi. Bir mamlakatda amalda bo'lgan byudjetdan tashqari jamg'armaning mavjudligi ikkinchi bir mamlakatda ham xuddi shu jamg'armaning mavjud bo'lishini taqozo qilmaydi. Davriylik xususiyatiga ko'ra byudjetdan tashqari jamg'armalarni doimiy va vaqtinchalik jamg'armalarga ajratish mumkin. Vaqtinchalik jamg'armalar ma'lum bir davrga tuzulib, o'zining oldiga qo'yilgan maqsad va vazifalarni bajarib bo'lgach, ularning amal qilishi to'xtatiladi.

O'zbekiston Respublikasida davlat maqsadli jamg'armalari davlat byudjetida konsolidatsiyalashadi va davlat byudjeti bilan birgalikda jamlanma byudjet (konsolidatsiyalashgan byudjet)ni tashkil qiladi. Konsolidatsiyalashgan byudjet O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan moliya yili yakunlari bo'yicha tahliliy maqsadlar uchun hamda byudjet tizimi byudjetlarining barcha tushumlari va xarajatlarini, ular o'rtasidagi transfertlarni hisobga olmagan holda

hisobga olib borish uchun tuziladi. O'zbekiston Respublikasining Byudjet kodeksiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasining konsolidatsiyalashgan byudjeti tarkibiga kiritiladigan davlat maqsadli jamg'armalarining ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori bilan tasdiqlanadi[44].

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarda byudjetdan tashqari maqsadli jamg'armalarning ham ahamiyati yuqori bo'lmoqda. Bu hol ular daromadlarining shakllanish ko'lamlarida yaqqol namoyon bo'ladi. Xususan, maqsadli jamg'armalar daromadlari oxirgi yillarda konsolidatsiyalashgan byudjet daromadlarining o'rtacha 33,7-35,7 foizni tashkil qilmoqda.

Dastlab ayrim ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni aniq manbalar bilan ta'minlash maqsadida davlat byudjeti tarkibidan ma'lum maqsadlarga mo'ljallangan byudjetdan tashqari maqsadli fondlar shakllangan. Masalan, davlat byudjeti tarkibiga kiruvchi Ijtimoiy sug'urta fondi negizida byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi tuzilgan. Bu va shu kabi boshqa fondlar davlat byudjetidan ajralib chiqqani bois adabiyotlarda "nobyudjet fondlar" yoki "byudjetdan tashqari fondlar" deb yuritilgan. Shuningdek, Byudjet kodeksining qabul qilinishi va amalga kiritilishigacha bo'lgan oxirgi o'n yilliklar davomida "Byudjet tizimi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 20-moddasi bilan bir qator jamg'armalarning davlat byudjetida konsolidatsiyalanishi (jamlanishi) belgilab berildi va ular byudjet nazariyasi va amaliyotida "davlat maqsadli jamg'armalari" degan umumiy nom oldi. Lekin konsolidatsiyalashgan byudjet tarkibiga kirmagan, shakllanish manbalari va ishlatish yo'nalishlari hukumatning tegishli qarorlari bilan belgilab qo'yilgan, vazirliklar va boshqa davlat idoralari tasarrufidagi jamg'armalar ham bugungi kunda davlatning ayrim ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarini qo'shimcha mablag' bilan ta'minlash uchun xizmat qilib kelmoqda va ularga nisbatan

[44] O'zbekiston Respublikasining Byudjet kodeksi. 2013-y., 26-dekabr. 46-modda.

adabiyotlarda "nobyudjet fondlar" iborasi qo'llanilmoqda.

O'zbekiston Respublikasining Byudjet kodeksiga muvofiq, mablag'lari soliqlar, majburiy to'lovlar va jarimalar, shuningdek, byudjet subsidiyalaridan shakllantiriladigan davlat maqsadli jamg'armalari davlat funksiyalarini amalga oshirish uchun tashkil etiladi. Davlat maqsadli jamg'armalari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan tashkil etiladi. Davlat maqsadli jamg'armalari yuridik shaxs shaklida yoki yuridik shaxs tashkil etmasdan tuzilishi mumkin[45].

2021-yilning 1-yanvar holatida konsolidatsiyalashgan byudjet tarkibidagi davlat maqsadli jamg'armalari qatoriga quyidagi jamg'armalar kiritilgan[46]:

– O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi;

– O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligining "El-yurt umidi" jamg'armasi;

– O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat va jamiyat ehtiyojlari uchun yer uchastkalarining olib qo'yilishi munosabati bilan jismoniy va yuridik shaxslarga yetkazilgan zararlarni qoplash bo'yicha markazlashtirilgan jamg'arma;

– O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi huzuridagi Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi;

– O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi huzuridagi Xorijda mehnat faoliyatini amalga oshiruvchi shaxslarni qo'llab-quvvatlash hamda ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish jamg'armasi;

– O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi huzuridagi Jamoat ishlari jamg'armasi;

– Tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi;

---

[45] O'zbekiston Respublikasining Byudjet kodeksi. 2013-y., 26-dekabr. 36-modda.

[46] O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 25-dekabrdagi O'RQ-657-son "2021-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risida"gi Qonuni. 4-modda.

– O‘zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi huzuridagi byudjetdan tashqari Davlat aktivlarini boshqarish, transformatsiya va xususiylashtirish jamg‘armasi;

– Xotin-qizlarni va oilani qo‘llab-quvvatlash davlat maqsadli jamg‘armasi;

– Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish jamg‘armasi;

– O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Respublika maqsadli kitob jamg‘armasi;

– O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi huzuridagi Tez tibbiy yordamni rivojlantirish jamg‘armasi;

– O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi huzuridagi Nogironligi bo‘lgan shaxslarni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi;

– O‘zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi huzuridagi byudjetdan tashqari Turizm sohasini qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi;

– O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Bog‘dorchilik va issiqxona xo‘jaligini rivojlantirish agentligi qoshidagi Bog‘dorchilik va issiqxona xo‘jaligini rivojlantirish jamg‘armasi;

– O‘zbekiston Respublikasi Alkogol va tamaki bozorini tartibga solish hamda vinochilikni rivojlantirish agentligining Vinochilikni rivojlantirish jamg‘armasi;

– “O‘zbekbaliqsanoat” uyushmasining Baliqchilikni rivojlantirish jamg‘armasi;

– O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G‘aznachiligi huzuridagi Davlat qarziga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha kafolat jamg‘armasi;

– O‘zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi.

Yuqorida nomlari qayd etilgan jamg‘armalar faoliyati amaldagi qabul qilingan huquqiy-me’yoriy hujjatlar bilan tartibga solinadi.

8.3. Davlat maqsadli jamg'armalari mablag'larini shakllantirish va ulardan foydalanish

Byudjetdan tashqari jamg'armalarning mablag'lari maqsadli ishlatilishga yo'naltirilgan. Odatda, ularning nomlanishida mablag'larning ishlatilish maqsadi qayd etiladi. Byudjetdan tashqari jamg'armalarni shakllantirishning manbalari ular tashkil etgan vazifalarning xarakteri va ko'lamiga qarab aniqlanadi. Manbalarning turi va hajmiga rivojlanishning u yoki bu bosqichidagi mamlakatning iqtisodiy va moliyaviy holati ta'sir etadi.

Byudjetdan tashqari jamg'armalarni shakllantirish manbalari nisbatan doimiy va vaqtinchalik xarakterga ega. Ular davlat hududida turli xil bo'lishi mumkin (8.3-rasm).



8.3-rasm. **Byudjetdan tashqari jamg'armalarni shakllantirish manbalarining guruhlanishi**[47]

Byudjetdan tashqari jamg'armalarning mablag'laridan foydalanish yo'nalishlari jamg'armalarning maqsadi, aniq iqtisodiy

[47] Nurmuxamedova B., Kabirova N. Moliya. O'quv qo'llanma. T:, "IQTISOD-MOLIYA", 2017. 152-b.

sharoitlar, ishlab chiqilgan va amalga oshirilayotgan dasturlardan kelib chiqib belgilanadi.



8.4-rasm. **Pensiya jamg'armasi daromadlarini shakllantirish manbalari**[48]

Mablag'larning ma'lum bir qismi ta'sischilik faoliyatiga hamda qimmatli qog'ozlarga joylashtiriladi. Byudjetdan tashqari

[48] O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 19-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 30-son qarori asosida keltirildi.

jamg'armalar investor sifatida hamda moliya bozori ishtirokchisi sifatida ishtirok etishi mumkin, chunki ko'p hollarda fondlar mablag'larining shakllanish vaqti bilan ishlatish vaqti mos kelmaydi va natijada fondlar ixtiyorida vaqtincha bo'sh mablag'lar paydo bo'ladi, ularni moliya bozorida foydali joylashtirishga imkon tug'iladi, ikkinchidan, mablag'larni investitsiyalashdan olingan daromadlar tegishli fondga qo'shimcha daromad keltiradi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti, ijtimoiy nafaqalar to'lash, kompensatsiya to'lovlari va boshqa to'lovlar bo'yicha xarajatlarni moliyalashtirishga yo'naltiriladigan majburiy to'lovlar, badallar, shuningdek, boshqa manbalardan tushadigan mablag'larni jamlaydi.



8.5-rasm. **Pensiya jamg'armasi xarajatlarining asosiy yo'nalishlari**[49]

O'zbekiston Respublikasida Pensiya jamg'armasi daromadlarini shakllantirish manbalari 8.4-rasmda o'z aksini topgan.

Pensiya jamg'armasi xarajatlarining asosiy qismi, ya'ni o'rtacha

[49] O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 19-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 30-son qarori asosida keltirildi.

jami xarajatlarning 96%ga yaqini ishlamaydigan fuqarolarning pensiya to'lovlariga yo'naltiriladi.

Quyida O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining mablag'laridan foydalanishning asosiy yo'nalishlari keltirib o'tilgan (8.5-rasmga qarang).

"El-yurt umidi" jamg'armasi. Xorijda yashayotgan va professional faoliyatini yuritayotgan vatandoshlarimiz, ayniqsa, katta ilmiy salohiyatga ega olimlar, mutaxassislar va iste'dodli yoshlar bilan yaqin hamkorlikni yo'lga qo'yish, shuningdek, O'zbekistonning har tomonlama va jadal rivojlanishi uchun zarur, jahon mehnat bozorida raqobatbardosh va yuqori malakali mutaxassislarni yetakchi xorijiy ta'lim muassasalarida hamda O'zbekistonda tayyorlash va malakasini oshirish orqali kadrlar bilan ta'minlash maqsadida 2018-yil 25-sentyabrdagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF–5545-sonli "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Mutaxassislarni xorijda tayyorlash va vatandoshlar bilan muloqot qilish bo'yicha "El-yurt umidi" jamg'armasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi Farmoniga asosan *"El-yurt umidi" jamg'armasi* tashkil etilgan bo'lib, 2019-yil 3-oktyabrdagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF–5843-sonli "O'zbekiston Respublikasida kadrlar siyosati va davlat fuqarolik xizmati tizimini tubdan takomillashtirish choralari to'g'risida"gi Farmoniga asosan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi tarkibiga o'tkazildi va uning asosiy vazifalari sifatida quyidagilar belgilandi:

– xorijdagi nufuzli ilmiy-tadqiqot, ta'lim va tibbiyot muassasalarida, iqtisodiyotning istiqbolli tarmoqlarida, ayniqsa, eng yangi materiallar va innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqarish va qo'llash sohalarida ishlayotgan, qimmatli ilmiy va amaliy tajribaga ega vatandoshlarimiz bilan aloqalar o'rnatish;

– davlat organlarining kadrlar bo'yicha xizmatlari tomonidan foydalanilishi va onlayn tarzda izlash amalga oshirilishi mumkin

bo‘lgan jahon mamlakatlari va mutaxassisliklar bo‘yicha kataloglashtirilgan qimmatli ilmiy va amaliy tajribaga ega vatandoshlarning elektron reestri (ma’lumotlar bazasi)ni yaratish va yuritish;

– xorijiy olimlar, o‘qituvchilar, muhandislar va boshqa mutaxassislar, shu jumladan vatandoshlarni ta’lim, sog‘liqni saqlash, iqtisodiyot va davlat boshqaruvi sohalariga, ayniqsa, yangi, istiqbolli tarmoqlarga jalb etish, ular uchun qulay sharoitlar yaratish, dolzarb muammolarini hal etish, ularning salohiyatidan samarali foydalanishni ta’minlash bo‘yicha takliflar ishlab chiqish va tadbirlarni amalga oshirish;

– ta’lim, sog‘liqni saqlash va iqtisodiyot sohalarida ishlayotgan vatandoshlar orasida O‘zbekistonning ijobiy qiyofasini shakllantirish, O‘zbekiston Respublikasida iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohani rivojlantirish masalalari bo‘yicha ularning g‘oya va fikrlarini to‘plash, umumlashtirish va tegishli tashkilotlarga yetkazish, shuningdek, to‘plangan materiallarni tayyorlash va tarqatishning samarali tizimini yaratish;

– xorijda O‘zbekistonning ijobiy imidjini shakllantirish va qo‘llab-quvvatlashda, shuningdek, rivojlangan mamlakatlarning nufuzli ta’lim va ilmiy markazlari bilan aloqalarni yo‘lga qo‘yish va hamkorlikni rivojlantirishda vatandoshlar salohiyatidan faol foydalanish;

– rivojlangan mamlakatlarning yetakchi ta’lim va ilmiy muassasalarida magistratura va doktorantura hamda malaka oshirish va stajirovka dasturlari bo‘yicha ta’lim, sog‘liqni saqlash, iqtisodiyot va davlat boshqaruvi sohalaridagi istiqbolli mutaxassislar, shu jumladan pedagoglar va ilmiy kadrlarni tanlab olish va tayyorlashni tashkil etish;

– nufuzli xorijiy ta’lim va ilmiy muassasalarda istiqbolli mutaxassislarni o‘qishini monitoring qilish, ularning O‘zbekistonda munosib ishga joylashishiga ko‘maklashish, ushbu mutaxassislarning

mehnat faoliyatini monitoring qilish, ularning kasbiy jihatdan o'sishiga va mansab pillapoyalarida ko'tarilishiga ko'maklashish;

– mamlakatimizdagi hamda xorijiy ekspertlarning, shu jumladan vatandoshlarimizning O'zbekistondagi ijtimoiy-siyosiy va sotsial-iqtisodiy islohotlarning borishiga oid tahliliy materiallari chop etiladigan jurnallar, ilmiy to'plamlarni tayyorlash va keng tarqatish;

– davlat organlari va boshqa tashkilotlarda kadrlarni xorijda tayyorlash va xorijiy mutaxassislarni jalb etish borasidagi ishlar holatini monitoring qilish hamda ushbu tizimni takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

– ta'lim, sog'liqni saqlash, iqtisodiyot va davlat boshqaruvi sohalarida xalqaro tashkilotlar, xorijiy mamlakatlarning davlat tuzilmalari va nodavlat tashkilotlari bilan aloqalarni yo'lga qo'yish, ularni hamkorlik va rivojlanish bo'yicha loyihalarni amalga oshirishga jalb etish.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligining "El-yurt umidi" jamg'armasining moliyalashtirish manbalari va ulardan foydalanishning asosiy yo'nalishlari darslikning 1-ilovasida keltirilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 27-iyulda qabul qilingan "Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF–5490-son Farmoniga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 26-dekabrdagi 1047-son qarori bilan *O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining davlat va jamiyat ehtiyojlari uchun yer uchastkalarining olib qo'yilishi munosabati bilan jismoniy va yuridik shaxslarga yetkazilgan zararlarni qoplash bo'yicha markazlashtirilgan jamg'arma*si tashkil etildi. Mazkur qarorga muvofiq, Davlat va jamiyat ehtiyojlari uchun yer- uchastkalarining olib qo'yilishi munosabati bilan jismoniy va yuridik shaxslarga yetkazilgan zararlarni qoplash bo'yicha markazlashtirilgan jamg'armalar yuridik shaxs hisoblanmaydi hamda O'zbekiston

Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida – respublika miqyosida va Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari huzurida – hududiy miqyosda tashkil etildi.

Davlat va jamiyat ehtiyojlari uchun yer uchastkalarining olib qo'yilishi munosabati bilan jismoniy va yuridik shaxslarga yetkazilgan zararlarni qoplash bo'yicha markazlashtirilgan jamg'armasi moliyalashtirish manbalari va ulardan foydalanishning asosiy yo'nalishlari darslikning 2-ilovasida keltirilgan.

O'zbekiston Respublikasi Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi yuridik shaxs tashkil etilmagan holda respublika va mahalliy darajalarda tuziladigan davlat maqsadli jamg'armasidir. O'zbekiston Respublikasi Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasining mablag'lari uning mustaqil balansida aks ettiriladi hamda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar bo'yicha g'aznachilik boshqarmalari tomonidan ochiladigan g'azna hisobvaraqlarida jamlanadi. Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasining daromadlari soliq solish obyekti bo'lmaydi va moliya yili davomida qayta ko'rib chiqilishi mumkin emas. Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasining g'azna hisobvaraqlaridagi bo'sh turgan mablag'lar yil boshida Davlat byudjetining defitsitini qoplash uchun yo'naltirilishi mumkin emas. O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, hududiy mehnat organlari O'zbekiston Respublikasi Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasining mablag'larini tasarruf etuvchilari hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasida shakllantirilgan mablag'lardan (3-ilovaga qarang) quyidagi yo'nalishlarda foydalaniladi:

– ishsizlik nafaqalarini, ishsiz shaxslar mehnat organlarining taklifiga binoan ishlash uchun boshqa joyga ixtiyoriy ravishda ko'chib ketishi munosabati bilan kompensatsiyalar to'lash, ishsiz shaxslarga moddiy yordam ko'rsatish;

– ish qidirayotgan shaxslar va ishsiz shaxslarni kasbga tayyorlash, qayta tayyorlash hamda ularning malakasini oshirishni moliyalashtirish, shu jumladan grantlar va stipendiyalar ajratish;

– O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari asosida amalga oshiriladigan bir martalik to'lovlar uchun;

– ish qidirayotgan shaxslarga va ishsiz shaxslarga muddatidan ilgari pensiyalar tayinlanishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining xarajatlari o'rnini qoplash;

– kasbga o'qitish markazlariga (keyinchalik xizmatlari uchun haq to'lagan holda) kasbga o'qitishga doir davlat buyurtmasini moliyalashtirish;

– mehnat organlari va tasarrufidagi tashkilotlar, vaqtincha bir martalik ish bilan ta'minlash markazlari, kasbga o'qitish markazlari, malakani baholash markazlari uchun binolar va xonalarni qurish, rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash, saqlab turish, qayta ixtisoslashtirish, moddiy-texnik jihatdan ta'minlash, shuningdek, sotib olish;

– kovorking-markazlarining, ishsiz shaxslarning bandligini qo'llab-quvvatlash "Mahalla guzari" mahalla markazlarining tashkil etilishi va saqlanishini moliyalashtirish;

– nogironligi bo'lgan shaxslar va boshqa aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalariga mansub shaxslarning mehnatidan foydalanish uchun ixtisoslashtirilgan ish o'rinlarini tashkil etishga doir tadbirlarni qisman moliyalashtirish;

– bandlik, mehnatni muhofaza qilish, mehnat munosabatlarini tartibga solish, mehnatni normalash hamda unga haq to'lash masalalari bo'yicha normativ-uslubiy va yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi materiallar ishlab chiqilishini moliyalashtirish;

– aholining ayrim guruhlari o'rtasida bandlik, mehnatni muhofaza qilish va mehnat migratsiyasi masalalari bo'yicha respublika hamda hududiy darajalarda sotsiologik tekshiruvlar, so'rovnomalar o'tkazish;

– band bo'lmagan aholiga ishga joylashish bo'yicha yordam ko'rsatish bilan bog'liq xarajatlarning o'rnini qoplash;

– mehnat bozoridagi vaziyat keskin bo'lgan tumanlar va shaharlarda aholi bandligiga ko'maklashish hududiy dasturlari ishlab chiqilishini moliyalashtirish;

– ishga joylashtirish, aholi bandligini ta'minlash va mehnatni muhofaza qilish, bo'sh (vakant) ish o'rinlarini hamda band bo'lmagan aholini hisobga olish sohasida axborot-kommunikatsiya tizimlari va texnologiyalarini yaratish, rivojlantirish hamda texnik jihatdan qo'llab-quvvatlash;

– mehnat organlarining, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi markaziy devonining moddiy-texnika bazasini rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlarni moliyalashtirish;

– aholi bandligi sohasidagi xalqaro hamkorlikni, shuningdek, O'zbekiston Respublikasidan tashqariga ishga yuborilgan fuqarolarni ishga joylashtirish va ularning ijtimoiy himoya qilinishini ta'minlash masalalariga doir xalqaro loyihalar hamda shartnomalarni amalga oshirish bilan bog'liq xarajatlarni moliyalashtirish;

– O'zbekiston Respublikasidan tashqarida ishga joylashtirish bilan bog'liq xarajatlarni to'lash uchun tijorat banklarida ochiladigan kredit liniyalari bo'yicha mehnat migrantlariga mikroqarzlar berish;

– fuqarolar O'zbekiston Respublikasidan tashqarida vaqtinchalik mehnat faoliyatini amalga oshirgan davrda ularning hayoti va sog'lig'ini hamda boshqa tavakkalchiliklarini sug'urtalash bo'yicha sug'urta puli summasining o'rnini qoplash uchun sug'urta kompaniyalariga bir yo'la beriladigan subsidiyalar berish;

– mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan kasblar bo'yicha kasbiy standartlar va malaka talablari ishlab chiqilishini moliyalashtirish;

– keyinchalik yangi ish o'rinlari tashkil etilishini nazarda tutuvchi loyihalarni amalga oshirishga banklar tomonidan kreditlar ajratilishi uchun tijorat banklarida ochiladigan kredit liniyalari bo'yicha resurslarni joylashtirish;

– tadbirkorlik faoliyatini boshlashni xohlayotgan ish qidirayotgan shaxslarga va ishsiz shaxslarga yakka tartibdagi tadbirkor sifatida ro'yxatdan o'tishga, kichik korxonalar va mikrofirmalarni davlat ro'yxatidan o'tkazishga doir xarajatlarni to'lash uchun bir yo'la beriladigan subsidiyalar berish;

– aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalaridan bo'lgan shaxslarni ishga belgilangan zaxiraga qo'yilgan ish o'rinlarining eng kam sonidan ortiq miqdorda qabul qilgan tashkilotlarga bir yo'la beriladigan subsidiyalar berish;

– mahalliy mehnat organlarining yo'llanmasi bo'yicha ishga qabul qilingan aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalaridan bo'lgan xodimlarni kasbga o'qitish va ularning malakasini oshirishga doir xarajatlarni moliyalashtirish uchun ish beruvchilarga bir yo'la beriladigan subsidiyalar berish;

– yengil konstruksiyali issiqxonalar o'rnatish, urug'liklar, ko'chatlar va sug'orish vositalari sotib olish uchun jismoniy shaxslarga subsidiyalar berish;

– ish qidirayotgan shaxslarni va ishsiz shaxslarni kasbga tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish uchun grantlar ajratish;

– ish qidirayotgan shaxslarni va ishsiz shaxslarni, ayniqsa kam ta'minlangan oilalardan bo'lgan xotin-qizlarni kasbga qayta o'qitishga doir xarajatlarni moliyalashtirish uchun kasb-hunar ta'limi muassasalariga grantlar ajratish;

– kasbga o'qitish markazlarida, kollejlarda va oliy ta'lim muassasalarida fermer xo'jaliklari rahbarlari hamda xodimlarini, dehqon xo'jaliklari rahbarlari va a'zolarini, tomorqa yer uchastkalari egalarini agrotexnologiyalar, bog'dorchilik, sabzavotchilik, chorvachilik, parrandachilik, baliqchilik va asalarichilik sohasida kasbga tayyorlash, qayta tayyorlash hamda ularning malakasini oshirish uchun grantlar ajratish;

– mehnat bozoridagi vaziyat keskin bo‘lgan hududlarda ish o‘rinlari tashkil etuvchi tadbirkorlik subyektlarining ustav fondini shakllantirish (ko‘pi bilan ellik foiz);

– ish o‘rinlarini tashkil etish uchun davlat buyurtmasini olgan tashkilotlarga va ish o‘rinlari tashkil etish uchun tadbirkorlik subyektlariga O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki qayta moliyalashtirish stavkasining ellik foizidan ko‘p bo‘lmagan stavka bo‘yicha ssudalar berish;

– O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan boshqa tadbirlar.

O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi huzuridagi Jamoat ishlari jamg‘armasi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Bandlik sohasida davlat siyosatini yanada takomillashtirish va mehnat organlari faoliyati samaradorligini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2017-yil 24-maydagi PF–5052-son Farmoni talablariga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-oktyabrdagi 799-son “O‘zbekiston Respublikasi bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi huzuridagi jamoat ishlari jamg‘armasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi qaroriga asosan O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi huzuridagi Jamoat ishlari jamg‘armasi tashkil etildi.

Jamoat ishlari jamg‘armasi daromadlari soliq solish obyekti bo‘lmaydi va moliya yili davomida qayta ko‘rib chiqilishi mumkin emas. Jamoat ishlari jamg‘armasining joriy yilda foydalanilmagan mablag‘larining qoldiqlari keyingi moliya yiliga o‘tkaziladi va keyingi yil uchun mablag‘lar ajratilayotganda hisobga olinadi. Darslikning 4-ilovasida Jamoat ishlari jamg‘armasining mablag‘larini shakllantirish manbalari va ulardan foydalanishning asosiy yo‘nalishlari keltirib o‘tilgan.

Xorijda mehnat faoliyatini amalga oshiruvchi fuqarolarni qo‘llab-quvvatlash hamda ularning huquq va manfaatlarini himoya

qilish jamg'armasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-iyuldagi PQ–3839-son "O'zbekiston Respublikasining tashqi mehnat migratsiya tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-il 12-sentyabrdagi 725-son "O'zbekiston Respublikasi fuqarolarini xorijda uyushgan holda ishga joylashtirish tizimini yanada takomillashtirish va tubdan qayta ko'rib chiqish chora- tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga asosan *O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi huzuridagi Xorijda mehnat faoliyatini amalga oshiruvchi fuqarolarni qo'llab-quvvatlash hamda ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish jamg'armasi* faoliyati tashkil etildi. 5-ilovada Xorijda mehnat faoliyatini amalga oshiruvchi fuqarolarni qo'llab-quvvatlash hamda ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish jamg'armasining mablag'larini shakllantirish manbalari va ulardan foydalanishning asosiy yo'nalishlari keltirilgan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi. Xususiy tadbirkorlik faoliyatini himoya qilishning huquqiy mexanizmlari va kafolatlarini yanada mustahkamlash, ularni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning yangi vositalarini yaratish, tadbirkorlik subyektlarining kredit resurslaridan foydalanishini kengaytirish, shu asosda yangi ish o'rinlarini tashkil etishni rag'batlantirish va respublika bank-moliya tizimi faoliyatini yanada takomillashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-avgustdagi PQ–3225-son qaroriga asosan *O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi* tashkil etildi.

Tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi resurs bazasining manbalari:

– Toshkent shahridagi Kichik sanoat zonalari kafolat jamg'armasini va Kichik tadbirkorlikni rivojlantirish kafolat jamg'armasini keyinchalik tugatish va ularning tegishli ravishda

50 million dollar hamda 100 milliard so'm miqdoridagi pul mablag'lari shaklida qayd etilgan tashkilotlar badallari hisobidan shakllantiriladigan Jamg'armaning boshlang'ich badali;

– Davlat byudjetining ushbu maqsadlar uchun har yili tasdiqlanadigan ajratmalar doirasidagi mablag'lari. 2017-yilda Jamg'arma resurs bazasini shakllantirish uchun — 100 milliard so'm;

– O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki yillik sof daromadining O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetiga yo'naltiriladigan qismi;

– xalqaro moliya institutlari, xorijiy hukumat tashkilotlari va boshqa donorlarning Jamg'arma zimmasiga yuklatilgan vazifalarni amalga oshirish uchun jalb etiladigan kreditlari (qarzlari) va grantlari;

– Jamg'armaning, jumladan, depozitlarni joylashtirish, kafolatlar berishdan tushadigan daromadlari, shuningdek, qonun hujjatlariga zid bo'lmagan boshqa manbalar.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi 2018-yildan boshlab, O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetidan Jamg'arma resurs bazasini to'ldirish uchun har yili mablag' ajratishni ko'zda tutilishi belgilandi.

Tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi tomonidan taqdim etiladigan kafolatlarning maksimal umumiy miqdori Jamg'arma mablag'larining 10 barobari miqdoridan oshmasligi kerak.

Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi zimmasiga kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga har tomonlama ko'mak berish maqsadida qator vazifalar yuklatilmoqda. Jumladan, tijorat banklariga kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga kredit ajratish uchun milliy va xorijiy valyutada, xorijiy kredit liniyalarini jalb qilish hisobidan resurslar taqdim etiladi. Jamg'armaning tijorat banklari tomonidan berilayotgan kredit miqdorining 50 foizigacha (kredit miqdori 500 ming AQSh dollaridan ko'p bo'lmagan taqdirda) yoki unga ekvivalent hajmdagi kreditlari bo'yicha kafil bo'lishi belgilab qo'yildi. Shuningdek,

jamg'arma tomonidan tijorat banklari kreditlari bo'yicha foizli xarajatlarni qoplash uchun kompensatsiya berish shaklida moliyaviy yordam ko'rsatilishi ko'zda tutildi.

Ta'kidlash kerakki, bugungi kunda amaldagi ta'minotning cheklangan miqdori 100 ming AQSh dollariga teng hajmdagi mablag'ni tashkil etadi. Ushbu mablag' miqdorini besh barobar ko'paytirish, shubhasiz, tijorat banklari kreditlarini jalb etgan holda yirik loyihalarni amalga oshirish borasida qo'shimcha imkoniyatlar yaratdi. Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi tijorat banklarining kreditlari bo'yicha kafolat va kompensatsiyalar, tijorat banklariga esa quyidagi yo'nalishdagi loyihalar bo'yicha kredit ajratish uchun resurslar taqdim etadi:

– qishloq xo'jaligi sohasida, birinchi navbatda, energiya tejamkorligi yuqori zamonaviy issiqxonalar qurish, chorvachilik, parrandachilik, baliqchilik, quyonchilik, asalarichilik, uzumchilik va bog'dorchilikni, jumladan, intensiv bog'larni rivojlantirish;

– qishloq xo'jaligi mahsulotlarini, jumladan, intensiv bog'larda yetishtirilgan mahsulotlarni qayta ishlash sohasida — ushbu mahsulotlarni saqlash bo'yicha infratuzilma va transportirovka qilish bilan bog'liq logistika markazlarini tashkil etish;

– ko'p qavatli uylar atrofidagi umumiy foydalanishga mo'ljallangan joylarni xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlari va boshqaruv kompaniyalari tomonidan obodonlashtirish va ta'mirlash;

– tadbirkorlik faoliyatining O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilaydigan boshqa yo'nalishlari uchun.

O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi huzuridagi byudjetdan tashqari Davlat aktivlarini boshqarish, transformatsiya va xususiylashtirish jamg'armasi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat aktivlarini boshqarish, monopoliyaga qarshi kurashishni tartibga solish tizimini va kapital bozorini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2019-yil 14-yanvardagi PF–5630-son Farmoniga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Xususiylashtirilgan korxonalarga ko'maklashish va

raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi huzuridagi Xususiylashtirilgan korxonalarga ko'maklashish jamg'armasi negizida yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan holda tashkil etilgan. Bugungi kunda uning faoliyati O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 15-maydagi 404-son "O'zbekiston Respublikasi davlat aktivlarini boshqarish agentligi faoliyatini tashkil etish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaroriga asosan tashkil etilgan.

Jamg'arma mablag'larini shakllantirish manbai quyidagilar hisoblanadi:

a) Jamg'armaga yo'naltiriladigan davlat mulki ijarasidan tushadigan mablag'lar, ijara to'lovini amalga oshirishni kechiktirilgani uchun penya va shartnoma majburiyatlarini buzganligi uchun jarimalar summasi;

b) Jamg'armaga yo'naltiriladigan korxonalarni, xo'jalik jamiyatlarining ustav fondidagi aksiyalar (ulushlar)ni, yer uchastkalariga egalik qilish huquqi va davlat mulki hisoblanadigan boshqa mulklarni sotishdan tushgan mablag'lar;

d) jamlanadigan boshqa manbalar, shu jumladan:

– jamg'arma mablag'lari hisobidan ilgari berilgan qarzlar bo'yicha qarz oluvchilar tomonidan olingan qarzlarning asosiy summasi va ular bo'yicha hisoblangan foizlar tarzida qaytarilgan tushumlar;

– tuzilgan va bekor qilingan davlat aktivlari oldi-sotdi shartnomalari (bitimlari), berilgan qarzlar bo'yicha tushgan penyalar va jarimalar;

– xo'jalik jamiyatlari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tugatilganda davlat ulushi bo'yicha tushumlar;

– O'zbekiston Respublikasining davlat aktivlarini boshqarish agentligi oldidagi davlat ulushi mavjud bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyektlarning qarzlarini qoplash uchun jamg'armaga tushgan mablag'lar;

– bayonnomani yoki oldi-sotdi shartnomasini imzolashdan bosh tortgan yoki uni rad etgan auksionlar, tanlovlar (tenderlar) yoki ommaviy oferta g'oliblaridan ushlab qolingan zakalat summalari;

– davlat aktivlarini sotishda ixtisoslashtirilgan tashkilotlar tomonidan shartnoma majburiyatlari buzilganligi uchun neustoyka summalari;

– xususiylashtirilgan korxonalarga ko'maklashish jamg'armasidan ilgari o'tkazilgan mablag'lar qaytarilishidan tushumlar;

– Jamg'armaning vaqtincha bo'sh mablag'larini tijorat banklari depozitlariga joylashtirishdan olinadigan daromadlar;

– xalqaro institutlar va tashkilotlarning, yuridik va jismoniy shaxslarning grant mablag'lari hamda homiylik xayriyalari;

– sud aktlari bo'yicha tushumlar;

– qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar.

Davlat aktivlarini boshqarish, transformatsiya va xususiylashtirish jamg'armasiga kelib tushgan mablag'larni taqsimlash quyidagi nisbatlarda amalga oshiriladi:

73 foizi – O'zbekiston Respublikasining respublika byudjetiga;

24 foizi – Jamg'armaga;

3 foizi – mablag'larni maqsadli ravishda bozor infratuzilmasini rivojlantirish va tadbirkorlarni huquqiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, shu jumladan, tadbirkorlar uchun tashkil etiladigan o'quv kurslarini moliyalashtirishga yo'naltirgan holda O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasiga.

Davlat mulkini ijaraga berishdan tushgan mablag'lar quyidagi nisbatlarda taqsimlanadi:

40 foiz – davlat mulkini balans saqlovchisiga;

25 foiz – tegishli mahalliy byudjet daromadiga;

20 foiz – Jamg'armaga;

15 foiz – tegishli davlat mulkini ijaraga berish markazlariga.

Ijara to'lovini to'lash kechiktirilganligi uchun undirilgan penya va shartnoma majburiyatlari buzilganligi uchun jarima summasidan tushgan mablag'lar quyidagi nisbatlarda taqsimlanadi:

50 foizi – Jamg'armaga;

50 foizi – tegishli davlat mulkini ijaraga berish markazlariga.

Mablag'larni taqsimlash quyidagilarni chegirgan holda amalga oshiriladi:

– O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoki O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlariga asosan Jamg'armaning umumiy mablag'lari hisobidan bir yo'la to'lovlar;

– belgilangan tartibda bekor qilingan davlat aktivlari oldi-sotdi shartnomalari (bitimlari) bo'yicha Agentlik va uning hududiy boshqarmalari tomonidan xaridorlarga qaytarilgan mablag'lar;

– talabgorlar tomonidan davlat aktivlari oldi-sotdi shartnomalari (bitimlari) tuzish uchun deponentlangan, lekin ular bo'yicha shartnomalar (bitimlar) tuzilmagan va ularning egalariga qaytarilishi kerak bo'lgan mablag'lar;

– Jamg'armaga noto'g'ri tushgan va ortiqcha o'tkazilgan, shuningdek, aniqlashtirilgungacha summalar;

– davlat aktivlarini sotish, shu jumladan aksiyalarni ikkilamchi ommaviy taklif qilish, davlatga tegishli aksiyalarga bo'lgan huquq hisobini yuritish bo'yicha depozitariy xizmatlarini to'lash bilan bog'liq xarajatlar;

– Agentlik yoki uning hududiy boshqarmalari buyurtmalariga asosan davlat aktivlarini xususiylashtirish, davlat korxonalarini qayta tashkil etish, davlat aktivlarini xo'jalik jamiyatlariga operativ boshqarish huquqi bilan va ustav fondiga berish maqsadida hamda davlat manfaatlarini ko'zlab boshqa hollarda baholashda baholovchi tashkilotlar xizmatlarini to'lash bilan bog'liq xarajatlar;

– yuridik shaxslarning aksiyalari (ulushlari, paylari)ni, shuningdek, boshqa aktivlarni davlat manfaatlarini ko'zlab sotib olish bilan bog'liq xarajatlar;

– davlat ulushi mavjud bo'lgan xo'jalik jamiyatlarining boshqaruv organlari manfaatlarini ifodalovchi davlat vakillari – jismoniy shaxslarga xizmat ko'rsatish uchun haq to'lash bilan bog'liq xarajatlar;

– sud qarorlari asosida amalga oshirilgan xarajatlar.

Jamg'armaning tasarrufida qolgan mablag'lar quyidagilarga sarflanadi:

– davlat aktivlarini boshqarish, transformatsiya va xususiylashtirish bilan bog'liq tadbirlarni (simpoziumlar, konferensiyalar, forumlar, seminarlar, trening va o'quv kurslari, tashriflar, aksiyalar, ko'rgazma va tanlovlar, ommaviy axborot vositalarida chiqish va yoritishlar hamda boshqalarni) o'tkazishga;

– xo'jalik jamiyatlarini xususiylashtirishdan oldin tayyorlashga;

– ilmiy-tadqiqot, auditorlik, moliyaviy, konsalting xizmatlari, boshqa mahalliy va xorijiy tashkilotlar, amaliy tadqiqotlarni amalga oshirish bo'yicha mustaqil ekspertlar, normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish, uslubiy hujjatlar, davlat aktivlarini oldindan sotishda mutaxassislarni, shu jumladan xorijiy va konsalting tashkilotlarini jalb qilishga – Davlat mulkini sotish yuzasidan tender savdolarini o'tkazish bo'yicha davlat komissiyasi tomonidan belgilangan shartlarga va mezonlarga muvofiq jalb etilgan taqdirda;

– xususiylashtirishdan oldin chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun Agentlik tomonidan aksiyalari (ulushlari) boshqariladigan xo'jalik jamiyatlariga foizsiz qarz (zayom) mablag'larini ajratishga;

– Agentlikning ma'muriy va boshqaruv funksiyalarini amalga oshirish bilan bog'liq xarajatlarni, shu jumladan, davlat aktivlari elektron ma'lumotlar bazasini shakllantirish va yuritish xarajatlariga;

– Agentlik xodimlarini moddiy rag'batlantirish va ijtimoiy ta'minlashga, shu jumladan, ular tomonidan uy-joy sotib olishlari uchun imtiyozli moliyalashtirishga, shuningdek, Agentlik rahbarlari va mutaxassislarini o'qitish, tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishga, shuningdek, Agentlik faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan tadbirlarga.

Xotin-qizlarni va oilani qo'llab-quvvatlash davlat maqsadli jamg'armasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2018-yil 2-fevraldagi PF-5325-son Farmoniga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi va uning huzuridagi "Mahalla va oila" ilmiy-tadqiqot instituti muassisligida Xotin-qizlarni va oilani qo'llab-quvvatlash davlat maqsadli jamg'armasi tashkil etildi va uning faoliyati O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 14-martdagi 201-son "Xotin-qizlarni va oilani qo'llab-quvvatlash davlat maqsadli jamg'armasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi qaroriga asosan tashkil etib kelinmoqda.

Xotin-qizlarni va oilani qo'llab-quvvatlash davlat maqsadli jamg'armasining asosiy vazifalari etib xotin-qizlarni va oilani har tomonlama qo'llab-quvvatlash, shu jumladan, og'ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan xotin-qizlar va oilalarga, nogironligi bo'lgan ayollarga moddiy yordam ko'rsatish, xotin-qizlarga oilaviy va xususiy tadbirkorlik, hunarmandchilikni tashkil etishda, mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan kasblar bo'yicha bilim va ko'nikmalarni egallashda ko'maklashish belgilandi.

Xotin-qizlarni va oilani qo'llab-quvvatlash davlat maqsadli jamg'armasi mablag'larini shakllantirish manbalari quyidagilar:

– asoslangan hisob-kitoblariga muvofiq har yili 300 mlrd. so'mgacha bo'lgan miqdorda davlat byudjeti mablag'lari;

– vaqtincha bo'sh turgan mablag'larni tijorat banklari depozitlariga joylashtirish hisobidan olingan daromadlar;

– yuridik va jismoniy shaxslarning homiylik xayriyalari;

– qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar.

Xotin-qizlarni va oilani qo'llab-quvvatlash davlat maqsadli jamg'armasining mablag'lari Vasiylik kengashining qaroriga muvofiq quyidagi tadbirlarni moliyalashtirishga yo'naltirilishi mumkin:

– xotin-qizlarni va oilani har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, shu jumladan, og‘ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan xotin-qizlar va oilalarga, nogironligi bo‘lgan ayollarga moddiy yordam ko‘rsatish;

– xotin-qizlarga oilaviy va xususiy tadbirkorlik, hunarmandchilikni tashkil etishda, mehnat bozorida talab yuqori bo‘lgan kasblar bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarni egallashda ko‘maklashish;

– xotin-qizlarga oilaviy va xususiy tadbirkorlikni tashkil etishda imtiyozli kreditlar berish;

– onalik va bolalikni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, oila institutini mustahkamlash bo‘yicha vazifalarning amalga oshirilishini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash;

– yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, zamonaviy namunali oilani shakllantirish, uning ma’naviy-axloqiy negizlari va an’anaviy oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash bo‘yicha maqsadli ishlar olib borilishiga ko‘maklashish;

– og‘ir ijtimoiy vaziyatga tushib qolgan xotin-qizlarni, shu jumladan, nogironligi bo‘lgan, kam ta’minlangan, farzandlarini to‘liqsiz oilada tarbiyalayotgan va uy-joy sharoitini yaxshilashga muhtoj onalarni turar-joy bilan ta’minlashda boshlang‘ich badallarini qaytarilmaslik sharti bilan to‘lab berish;

– Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi va “Mahalla va oila” institutining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va tizimda faoliyat yuritayotgan xodimlarni moddiy qo‘llab-quvvatlash;

– Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligining xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash, ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalar bilan ishlash, xotin-qizlar masalalari bo‘yicha davlat va jamoat tashkilotlari bilan aloqalar hamda xotin-qizlar muammolari bilan ishlash yo‘nalishlaridan hamda “Mahalla va oila” institutining asosiy faoliyat yo‘nalishlaridan kelib chiquvchi tadbirlarni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash;

– zo‘rlik ishlatishdan jabr ko‘rgan shaxslarni reabilitatsiya qilish va moslashtirish hamda o‘z joniga qasd qilishning oldini olish

respublika markazi hamda hududiy bo'limlari xodimlarining ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar bilan bog'liq xarajatlarni jamg'arma mablag'lari hisobidan qoplash;

– Ijro etuvchi direksiyani saqlash.

Jamg'armaga O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetidan ajratiladigan mablag'larning:

20 foizi – O'zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi huzuridagi "Obod va xavfsiz mahalla" jamg'armasiga;

10 foizi – "Mahalla va oila" institutining asosiy faoliyat yo'nalishlaridan kelib chiquvchi tadbirlarga, shundan 5 foizi – "Mahalla va oila" institutining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va faoliyat yuritayotgan xodimlarni moddiy qo'llab-quvvatlashga;

70 foizi yuqorida keltirib o'tilgan tadbirlar uchun ajratiladi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish jamg'armasi. Aloqa, axborotlashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish sohasida ustuvor va ijtimoiy ahamiyatga molik bo'lgan loyihalar, ilmiy-tadqiqot ishlarini mablag' bilan ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 19-dekabrdagi 356-son "Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish jamg'armasini yanada rivojlantirish va uning mablag'laridan samarali foydalanish to'g'risida"gi qaroriga asosan *Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish jamg'armasi* faoliyati tashkil etilgan.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish jamg'armasi mablag'larini shakllantirish manbalari quyidagilar hisoblanadi:

– telekommunikatsiyalar sohasidagi faoliyatni amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziya berilganligi uchun davlat boji to'lashdan tushuvchi mablag'larning 50 foizi;

– 2018-yil 1-yanvargacha abonent raqamidan foydalanganlik uchun haq to'lashdan tushgan mablag'larning 20 foizi;

– 2018-yil 1-yanvardan boshlab abonent raqamidan foydalanganlik uchun haq to'lashdan tushgan mablag'larning 70 foizi;

– aloqa sohasida normativ-huquqiy hujjatlar talablari, standartlar, ko'rsatilayotgan xizmatlar sifati buzilganligi uchun mulkchilik shakllari va idoraviy bo'ysunishidan qat'i nazar, aloqa sohasida faoliyatni amalga oshirayotgan yuridik shaxslardan jarima jazolari sifatida undiriladigan mablag'larning 45 foizi, raqobat to'g'risidagi qonun hujjatlari buzilganligi uchun solinadigan iqtisodiy jazolar va jarimalar bundan mustasno;

– Jamg'armaning vaqtincha bo'sh mablag'larini amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq bank depozitlari shaklida va boshqa shakllarda joylashtirishdan tushgan daromadlar;

– yuridik va jismoniy shaxslarning, shuningdek, xalqaro tashkilotlarning xayriya ehsonlari.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish jamg'armasi hisob raqamlarida jamlangan mablag'lardan quyidagi maqsadlarda va yo'nalishlarda foydalaniladi:

– davlat boshqaruvi organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlarining idoralararo integratsiyalashtirilgan axborot tizimlarini joriy etishni, ma'lumotlar uzatishning idoralararo tarmoqlarini tashkil etishni, "Elektron Hukumat" tizimlarini va qidirish tizimlarining milliy segmentini shakllantirish bo'yicha loyihalarni ishlab chiqish, amalga oshirish va kuzatib borishni;

– xalqaro standartlarga muvofiq va mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning uzoq muddatli istiqbollarini hisobga olgan holda aloqa, televideniye va radioeshittirish sohasida telekommunikatsiya tarmoqlari va tizimlarini rivojlantirish va modernizatsiya qilishni;

– Internet tarmog'ining milliy segmentini shakllantirishni, turli yo'nalishdagi zamonaviy mahalliy axborot resurslarini, shu jumladan

aholining, ayniqsa yosh avlodning axborotga bo'lgan va intellektual ehtiyojlarini qondirish uchun tarmoq resurslarini shakllantirishni;

– davlat axborot resurslari va ma'lumotlar bazasini shakllantirish, saqlash va ulardan foydalanishning yagona tizimini ishlab chiqish, amalga oshirish va kuzatib borishni;

– ma'lumotlar uzatish tarmoqlarini va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish sohasida ustuvor loyihalarni amalga oshirishni, normativ-huquqiy hujjatlar, ilmiy-tadqiqot ishlari va dasturlarni ishlab chiqish, shuningdek, ushbu sohada loyihalarni tayyorlash uchun tadqiqotlar o'tkazishni;

– aloqa, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, respublikaning butun hududida ma'lumotlarni uzatish milliy va xalqaro axborot tarmoqlaridan yuqori tezlikda foydalanish sohasida xizmatlarning yangi turlarini ishlab chiqish va joriy etishni;

– aloqa, kompyuter va tarmoqli texnologiyalar, dasturlashtirish va elektron ma'lumotlar bazasini yaratish sohasida mutaxassislar tayyorlash va ularni qayta tayyorlash tizimini rivojlantirishni, shuningdek, kompyuter va axborot texnologiyalaridan keng foydalanishga asoslangan o'qitish tizimini;

– Aloqa, axborotlashtirish va telekommunikatsiya texnologiyalari sohasida nazorat bo'yicha davlat inspeksiyasi va Muhammad al-Xorazmiy nomidagi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yo'nalishiga oid fanlarni chuqurlashtirib o'qitishga ixtisoslashtirilgan maktab faoliyatini xodimlarni qo'shimcha ravishda moddiy rag'batlantirish va moddiy-texnika bazasini mustahkamlash yuzasidan;

– Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi tizimiga kiruvchi telekommunikatsiya va axborot tizimlari ustidan boshqarish va nazorat qilish organlarini, shuningdek, aloqa obyektlari davlat kadastri xizmatlari, elektron raqamli imzolar kalitlarini ro'yxatdan o'tkazish markazlari faoliyatini, terminologiya va lug'atlarni, standartlashtirish bo'yicha bazaviy tashkilotlarni va bazaviy metrologik xizmatni, shuningdek, axborotlashtirishni joriy

etish va rivojlantirish bo‘yicha mustaqil daromad manbaiga ega bo‘lmagan xizmatlarni rivojlantirishga ko‘maklashishni;

– axborot va pochta xavfsizligi, telekommunikatsiya tarmoqlari tizimini, axborot tizimlari va resurslarini himoya qilish texnologiyalarini joriy etishni, zamonaviy talablar va standartlarga muvofiq axborot va pochta xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha texnik infratuzilmani rivojlantirishni;

– tanlov asosida tanlab olinadigan aloqa, axborotlashtirish va telekommunikatsiya texnologiyalari sohasini rekonstruksiya qilish, ularni rivojlantirish va kompyuterlashtirish bo‘yicha loyihalarni amalga oshirishni;

– efirga ruxsat berilmagan chiqishlarning va davlat tuzilmalari radio vositalariga to‘sqinlik qilishning oldini olish maqsadida radio chastota spektridan foydalanish ustidan davlat nazorati uchun maxsus nazorat-o‘lchov texnikasi sotib olish xarajatlarini qisman qoplashni;

– axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining sifatli vositalarini va mahalliy dasturiy mahsulotlarni, shu jumladan ijtimoiy-ko‘ngilochar va ta’lim yo‘nalishidagi dasturiy mahsulotlarni ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirishni;

– qishloq joylarda xizmatlar ko‘rsatuvchi aloqa, radioeshittirish va televideniye tashkilotlariga vaqtincha moliyaviy yordam berishni;

– O‘zbekiston Respublikasining qishloqlari va chekka aholi punktlarining telekommunikatsiya infratuzilmasini maqsadli qayta jihozlash va yanada rivojlantirishni;

– operatorlar va provayderlar tomonidan ko‘rsatiladigan universal aloqa xizmatlarini rivojlantirishni;

– dasturlashtirish, tizimli ma’muriyatchilik, kompyuter dizayni, animatsiyalar va axborot texnologiyalarining boshqa yo‘nalishlari bo‘yicha tanlovlar, musobaqalar va bellashuvlar o‘tkazish yo‘li bilan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida mutaxassislar faoliyatini rag‘batlantirishni;

– litsenziyalar berilganligi, abonent raqamidan foydalanganlik uchun mobil aloqa operatorlari tomonidan to‘lanadigan to‘lov, aloqa

sohasida faoliyatni amalga oshiruvchi yuridik shaxslardan olingan jarima sanksiyalarining undirishdan tushgan mablag'lar summasining 2 foizi miqdorida davlat boji O'zbekiston Milliy kutubxonasi huzuridagi byudjetdan tashqari Axborot-kutubxona muassasalarini rivojlantirish jamg'armasiga ajratilishi bo'yicha xarajatlarni moliyalashtirishda foydalanish;

– elektron tijorat sohasida davlat miqyosidagi ijtimoiy ahamiyatga ega loyihalarni ishlab chiqish, amalga oshirish va qo'llab-quvvatlash;

– "Xavfsiz shahar" yagona apparat-dasturiy kompleksini yaratish bo'yicha loyihalarni ishlab chiqish, amalga oshirish va qo'llab-quvvatlash hamda uni yanada rivojlantirish;

– Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi hamda zarurat bo'lganda Axborot xavfsizligi va jamoat tartibini ta'minlashga ko'maklashish markazi faoliyati;

– hududlarda axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish dasturlarini, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan manzilli ro'yxatga kiritilgan ustuvor loyihalarni amalga oshirish;

– belgilangan tartibda axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasida xalqaro konsalting kompaniyalari va ekspertlarni jalb qilish, o'zining IT-infratuzilmasini rivojlantirish va moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligining xodimlarini, shuningdek, davlat organlari bo'linmalarining va boshqa byudjet tashkilotlarining axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish uchun mas'ul bo'lgan rahbarlarini moddiy rag'batlantirish chora-tadbirlarini amalga oshirish;

– elektron hukumat va raqamli iqtisodiyotning idoralararo loyihalarini moliyalashtirish maqsadida "Elektron hukumat loyihalarini boshqarish markazi" va "Raqamli iqtisodiyot tadqiqotlari markazi" davlat muassasalarining joriy ta'minoti, moddiy-texnik bazasini mustahkamlash hamda ularning xodimlari mehnatini

qo‘shimcha moddiy rag‘batlantirish bo‘yicha ajratiladigan xarajatlar hamda “Binolardan foydalanish va kapital qurilish direksiyasi” davlat muassasasi faoliyatini moliyalashtirish.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari:

– beg‘araz moliyaviy qo‘yilmalar va grantlar, tasdiqlangan xarajatlar smetalari doirasida maqsadli beg‘araz moliyalashtirish;

– Jamg‘arma tomonidan Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligining maxsus komissiyasi tanlovidan va Aksiyadorlik tijorat “Aloqabank”da ekspertizadan o‘tgan aloqa, axborotlashtirish va telekommunikatsiya texnologiyalari sohasida rivojlantirish loyihalari uchun beriladigan qarzlar;

– Jamg‘armaning aksiyadorlik tijorat “Aloqabank”da ochilgan kredit liniyasi orqali kreditlar shaklida ajratiladi.

Respublika kitob jamg‘armasi 2006-yil 1-iyundagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ–363-son “O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzurida Respublika maqsadli kitob jamg‘armasini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga asosan tashkil etilib, bugungi kunda ushbu jamg‘armaning faoliyati O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xalq ta’limi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2018-yil 5-sentyabrdagi
PQ–3931-son qarori ijrosini ta’minlash maqsadida qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 22-fevraldagi 155-son “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi huzuridagi xalq ta’limini rivojlantirish jamg‘armasi va byudjetdan tashqari Respublika maqsadli kitob jamg‘armasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq tashkil etib kelinmoqda.

Respublika maqsadli kitob jamg‘armasining asosiy vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

– umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim muassasalarining kutubxona jamg‘armalari uchun umumta’lim fanlari bo‘yicha

darsliklar va o‘quv-metodik majmualar bilan ta’minlashga qaratilgan O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti mablag‘lari va homiylik xayriyalari, xalqaro moliya institutlarining kredit va grantlari, darsliklar va chet tillari bo‘yicha mashq daftarlarining ijara to‘lovlarini jamlash, ushbu mablag‘lardan samarali foydalanishni tashkil etish;

– umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim muassasalarining ayrim toifadagi, ya’ni birinchi sinf o‘quvchilarini, “Mehribonlik” uylari tarbiyalanuvchilarini, jismoniy yoki psixik rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktablar va maktab-internatlarning o‘quvchilarini, ijtimoiy yordamga muhtoj bo‘lgan oilalardagi o‘quvchilarni hamda o‘qituvchilarni davlat byudjeti mablag‘lari hisobidan bepul ta’minlash maqsadida umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining kutubxona jamg‘armalari uchun umumta’lim fanlaridan darsliklar va o‘quv-metodik majmualarni xarid qilish va yetkazib berishni moliyalashtirish;

– umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim muassasalari o‘quvchilarini ijara asosida ta’minlash uchun umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining kutubxona jamg‘armalariga umumta’lim fanlaridan darsliklar va chet tillari bo‘yicha mashq daftarlarini xarid qilish va yetkazib berishni moliyalashtirish;

– ayrim fanlar chuqur o‘rganiladigan ixtisoslashtirilgan davlat umumta’lim muassasalari hamda o‘rta maxsus ta’lim muassasalari uchun bepul va ijara asosida umumta’lim fanlaridan darsliklarni umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining kutubxona jamg‘armalariga xarid qilish va yetkazib berishni moliyalashtirish;

– xarid qilishning tasdiqlangan istiqbol kvotalaridagi darsliklar va o‘quv-metodik majmualarni chop etuvchi nashriyotlar va bosmaxonalarga darsliklarni chakana savdo tarmog‘i orqali sotilishini qo‘llab-quvvatlash uchun qisqa muddatli maqsadli ssudalar ajratish orqali yordam ko‘rsatish;

– Jamg‘arma mablag‘larini o‘z vaqtida tushishini ta’minlash va tahlil qilib borish.

Ushbu darslikning 6-ilovasida Respublika maqsadli kitob jamg'armasining mablag'larini shakllantirish manbalari va ulardan foydalanish yo'nalishlari keltirilgan.

Tez tibbiy yordamni rivojlantirish jamg'armasi. Tez tibbiy yordam xizmatini jadal rivojlantirish, uning moliyaviy barqarorligini ta'minlash, bu yo'nalishda tezkor, texnologik va samarali faoliyat ko'rsatishga erishish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 16-oktyabrdagi PQ–3973-son "O'zbekiston Respublikasida tez tibbiy yordam xizmatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori asosida tez tibbiy yordam xizmatini rivojlantirishga amaliy ko'maklashish va uning moddiy-texnika bazasini yaxshilash uchun O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi huzurida yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan *Tez tibbiy yordamni rivojlantirish jamg'armasi* tashkil etildi.

Tez tibbiy yordamni rivojlantirish jamg'armasi mablag'larini shakllantirish manbalari:

– davlat byudjetiga tushadigan mablag'larni 29 foizdan 10 foizga kamaytirgan holda, mobil aloqa xizmatlarini ko'rsatuvchi yuridik shaxslar (uyali aloqa kompaniyalari) tomonidan abonent raqamidan foydalanganlik uchun to'lanadigan to'lov summasining 19 foizi;

– xalqaro va xorijiy moliya institutlarining, hukumat va nohukumat tashkilotlarning grantlari va texnik ko'mak mablag'lari;

– Jamg'armaning vaqtincha bo'sh turgan mablag'larini joylashtirishdan tushgan daromadlar;

– jismoniy va yuridik shaxslarning, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi norezidentlarining xayriya mablag'lari;

– qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa mablag'lar.

Tez tibbiy yordamni rivojlantirish jamg'armasining mablag'lari quyidagilarga sarflanadi:

– tez tibbiy yordam xizmatining maxsus avtotransportini xarid qilish va transport parkini o'z vaqtida yangilash, shuningdek, ularni zamonaviy tibbiyot uskunalari bilan jihozlash, ehtiyot qismlar va sarflanadigan materiallarni xarid qilish;

– tez tibbiy yordam xizmatining xodimlarini o‘qitish, malakasini oshirish va amaliyot o‘tashini, shu jumladan xorijiy davlatlarning ilmiy-tadqiqot, ta’lim va boshqa muassasalarida amaliyot o‘tashini tashkil etish;

– tez tibbiy yordam xizmati xodimlariga ustamalar, mukofot pullari va boshqa rag‘batlantiruvchi to‘lovlarni to‘lash;

– tez tibbiy yordam xizmati faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish.

O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi huzuridagi Nogironligi bo‘lgan shaxslarni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Nogironligi bo‘lgan shaxslarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2017-yil 1-dekabrdagi PF–5270-son Farmoni ijrosini ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 9-martdagi 190-son “O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi huzuridagi Nogironligi bo‘lgan shaxslarni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi qaroriga asosan, nogironligi bo‘lgan shaxslarning ahvolini yaxshilash, tibbiy-ijtimoiy yordam berish va reabilitatsiya sifatini oshirish, protez-ortopediya buyumlari va texnik reabilitatsiya vositalarini ishlab chiqarishni modernizatsiya qilishga va texnologik yangilashga ko‘maklashish maqsadida *O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi huzuridagi Nogironligi bo‘lgan shaxslarni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi* faoliyati tashkil etildi.

Darslikning 7-ilovasida Nogironligi bo‘lgan shaxslarni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi mablag‘larini shakllantirish manbalari va ulardan foydalanish yo‘nalishlari keltirilgan.

Turizm sohasini qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2016-yil 2-dekabrdagi PF–4861-sonli Farmoni ijrosini ta’minlash, shuningdek, turizm sohasi va turizm infratuzilmasini rivojlantirishni

yanada qo'llab-quvvatlash, milliy turizm mahsulotlari va brendlarini xalqaro turizm bozorlarida faol targ'ibot qilish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 15-martdagi 137-son "O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini yanada qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi huzuridagi byudjetdan tashqari *Turizm sohasini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi* tashkil etildi.

Turizm sohasini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi quyidagi manbalar hisobiga shakllantiriladi:

– joylashtirish vositalaridan (mehmonxonalar, turizm bazalari va majmualari, dam olish uylari va zonalari, pansionatlar, kempinglar, motellar, oilaviy mehmon uylari, o'tovli oromgohlar, sanatoriylar va boshqa mehmonxona xizmatlari – vaqtincha yashash xizmatlari ko'rsatuvchi obyektlar) undiriladigan turistik (mehmonxona) yig'imdan tushumlar;

– xalqaro moliya institutlari va boshqa xorijiy donorlarning grantlari;

– xayr-ehson qiluvchi yuridik va jismoniy shaxslarning, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi norezidentlarining mablag'lari;

– Jamg'armaning vaqtincha bo'sh mablag'larini depozitlarga joylashtirishdan tushadigan daromadlar bo'yicha tushumlar;

– turistik (mehmonxona) yig'im o'z vaqtida to'lanmaganligi uchun undirilgan penya;

– qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar.

Turizm sohasini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi mablag'laridan quyidagi maqsadlarda foydalaniladi:

– turizm sohasidagi maqsadli dasturlarni moliyalashtirish;

– turizm infratuzilmasi obyektlarini tashkil etish va rivojlantirish bo'yicha investitsiya loyihalarining loyihaoldi hujjatlarini tayyorlash;

– turizm sohasida kadrlar tayyorlash va ularni qayta tayyorlash, shuningdek, ularning malakasini oshirish, shu jumladan sohaviy

xorijiy o‘quv markazlarida va ta’lim muassasalarida stajirovkalardan o‘tish;

– hududlardagi salohiyatli turizm obyekti va maskanlarini birlamchi choralarni ko‘rgan holda turistlar tashrifi uchun tayyorlash va ularni targ‘ib qilish;

– xorijiy turizm yarmarkalarida, ko‘rgazmalarda, loyihalar va dasturlarda qatnashish;

– BMTning Jahon Turistik Tashkiloti(YUNVTO)ga a’zolik badallari to‘lash;

– Qo‘mita, shu jumladan uning hududiy boshqarmalari va “Ipak yo‘li ofisi” unitar korxonasi faoliyatini moliyalashtirish, vakillik xarajatlari va sovg‘alar xarid qilish;

– Qo‘mita xodimlarini moddiy rag‘batlantirish va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash;

– Qo‘mita tomonidan davlat unitar korxonalarining ustav jamg‘armalarini shakllantirish hamda to‘g‘ridan to‘g‘ri tuziladigan shartnomalar asosida ularning ustavlariga muvofiq ular tomonidan ajariladigan (ko‘rsatiladigan) ishlar (xizmatlar) uchun to‘lov;

– O‘zbekiston Respublikasi davlat kafolati ostida turizm tarmog‘ini rivojlantirish uchun jalb etilgan kreditlarni va ular bo‘yicha foizlarni qaytarish;

– Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasining davlat unitar korxonalariga aviachiptalar xarid qilish, xizmat safarlari xarajatlarini qoplash, a’zolik badallarini to‘lash, xorijiy adabiyotlar xarid qilish va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan xorijiy valyutadagi boshqa xarajatlarga haq to‘lash uchun xorijiy valyutada mablag‘lar ajratish;

– Turizmni rivojlantirish instituti hamda Kongress va ko‘rgazmalar markazi faoliyatini moliyalashtirish;

– “Turizm fidoiysi” ko‘krak nishoni va uning guvohnomalarini tayyorlash hamda turizm sohasini rivojlantirish va ommalashtirishga munosib hissa qo‘shganlarni taqdirlash bilan bog‘liq xarajatlarni qoplash;

– nodavlat notijorat tashkilotlari bilan hamkorlikda amalga oshiriladigan loyihalarni moliyalashtirish, ular faoliyatini rag'batlantirish, turizm sohasidagi loyihalarga grantlar ajratish, shuningdek, faoliyati turizm sohasi bilan bevosita bog'liq bo'lgan jamoat tashkilotlarining xalqaro tashkilotlarga a'zolik badallarini Qo'mita raisining qarori bilan to'lab berish;

– hukumat topshiriqlari asosida turizm sohasidagi tadbirlar bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarni moliyalashtirish (qoplash);

– turizm sohasida tadbirkorlik subyektlarini, shu jumladan yosh tadbirkorlarni rag'batlantirish (mazkur rag'batlantirish shartlari Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi tomonidan belgilanadi);

– O'zbekistonning turistik salohiyatini tashqi bozorlarga va respublika hududida har chorakda tegishli hisobraqamlarga mablag'lar o'tkazish orqali ilgari surish.

O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi Bog'dorchilik va issiqxona xo'jaligini rivojlantirish agentligining Bog'dorchilik va issiqxona xo'jaligini rivojlantirish jamg'armasi faoliyati O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida bog'dorchilik va issiqxona xo'jaligini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2019-yil 20-martdagi PQ–4246-son qarori ijrosini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining tomonidan 2019-yil 11-iyunda qabul qilingan 481-son "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi bog'dorchilik va issiqxona xo'jaligini rivojlantirish agentligi faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi qaroriga muvofiq tashkil etilgan.

Ushbu jamg'arma bog'dorchilik va issiqxona xo'jaligini rivojlantirish bo'yicha loyihalarni moliyalashtirish, shuningdek, ularning moliyaviy faolligini qo'llab-quvvatlash, Agentlikning markaziy apparati ta'minoti va unga idoraviy mansub tashkilotlarning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, shuningdek, Agentlik faoliyati bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarni moliyalashtirish hamda

Agentlik markaziy apparatining xodimlarini moddiy rag'batlantirish va ijtimoiy himoya qilish maqsadlarida tashkil etilgan.

Bog'dorchilik va issiqxona xo'jaligini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari quyidagi manbalardan shakllantiriladi:

– davlat byudjetidan ajratiladigan O'zbekiston Respublikasining TIF TN kodi 07 va 08 bo'lgan tovar guruhlari bo'yicha qishloq xo'jaligi mahsulotlarini import qilishdan tushgan bojxona to'lovlari (bojxona rasmiylashtiruvi uchun yig'imlar bundan mustasno) summasining
10 foiziga teng miqdordagi ajratmalar;

– O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi qoshidagi "Elektron onlayn-auksionlarni tashkil qilish markazi" davlat unitar korxonasining ochiq savdolarida sotilgan yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarning boshlang'ich bahosidan oshgan summaning
50 foizi;

– xalqaro moliya institutlari, xorijiy hukumat tashkilotlarining kreditlari (qarz mablag'lari) va grantlari;

– qonun hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa mablag'lar.

Bog'dorchilik va issiqxona xo'jaligini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari quyidagi maqsadlar uchun sarflanadi:

– bog'dorchilik va issiqxona xo'jaliklarini barqaror rivojlantirishni ta'minlashga qaratilgan maqsadli kompleks dasturlarni, shuningdek, sarimsoqpiyoz yetishtirish loyihalarini amalga oshirish shu jumladan, yangi limonzorlarni barpo etish va limon ko'chatlarini xarid qilishga;

– qonunchilikda belgilangan maqsadlar uchun subsidiyalar berish;

– Agentlik va uning idoraviy mansub tashkilotlarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, xodimlarning xizmat safarlari bo'yicha xarajatlarni moliyalashtirish, shu jumladan, Agentlik xodimlarini moddiy rag'batlantirish, qo'shimcha haq, ustamalar, mukofotlar va qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa to'lovlarni amalga oshirish;

– bog‘dorchilik va issiqxonachilik sohasiga xorijiy mutaxassislar va konsultantlarni jalb etish, shuningdek, Agentlik xodimlari, bog‘dorchilik va issiqxona xo‘jaliklari egalarini kasbiy tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish;

– mamlakatimizda ishlab chiqarilgan meva va issiqxonalarda yetishtirilgan mahsulotlar, shu jumladan, ushbu mahsulotlarni tanishtirish bo‘yicha konferensiyalar, seminarlar, treninglar, mahorat darslari, festivallar, ko‘rgazmalar va yarmarkalarda ishtirok etish va tashkil qilish bilan bog‘liq xarajatlarni moliyalashtirish, ushbu tadbirlarda, shu jumladan, chet elda o‘tkaziladigan bog‘dorchilik va issiqxonachilik sohasi korxonalari ishtirok etishida ko‘maklashish, madaniy-ommaviy tadbirlarni o‘tkazish bilan bog‘liq bo‘lgan xarajatlarni qoplash;

– mahalliy tashkilotlar va xalqaro tashkilotlarda a’zolik badallarini va boshqa badallarni to‘lash;

– ilmiy-texnik va ilmiy-metodik adabiyotlar (shu jumladan, davriy nashrlar, e’lonlar, risolalar, bukletlar, kitoblar, to‘plamlar va boshqa axborot-ma’rifiy materiallar)ni tayyorlash va nashr qilish, shuningdek, bog‘dorchilik va issiqxona xo‘jaliklari sohasida videoroliklar va taqdimot materiallarini yaratishga sarflangan xarajatlarni moliyalashtirish;

ilmiy-tadqiqot ishlarini, shuningdek, ilmiy va ilmiy-tadqiqot tashkilotlari tomonidan bog‘dorchilik va issiqxonachilik sohasida normalar, reglamentlar va qoidalar ishlab chiqilishini moliyalashtirish.

O‘zbekiston Respublikasi Alkogol va tamaki bozorini tartibga solish hamda vinochilikni rivojlantirish agentligining Vinochilikni rivojlantirish jamg‘armasi faoliyati O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Alkogol va tamaki bozorini tartibga solish hamda vinochilikni rivojlantirish agentligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi 2020-yil 23-iyuldagi PQ–4787-son qarori ijrosini ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2020-yil 30-noyabrda qabul qilingan 753-son “O‘zbekiston Respublikasi alkogol va tamaki bozorini tartibga solish

hamda vinochilikni rivojlantirish agentligi faoliyatiga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq tashkil etilgan.

Vinochilikni rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari quyidagi manbalardan shakllantiriladi:

– O‘zbekiston Respublikasining respublika byudjetidan har yili ajratiladigan subsidiyalar;

– alkogol mahsulotlarining (pivo va tabiiy vino bundan mustasno) ulgurji savdosi bilan shug‘ullanuvchi korxonalar sof tushumining besh foizi miqdoridagi ajratmalar (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-iyuldagi PF–6029-son Farmoniga asosan ushbu ajratma miqdori 2020-yil 31-dekabrgacha 3 foiz qilib belgilanganligi inobatga olingan holda, 2022-yil 1-yanvarga qadar amal qiladi);

– Agentlik huzuridagi “Enologiya laboratoriyasi” va “Uzumchilik o‘quv markazi” davlat unitar korxonalarining sof foydasidan belgilangan tartibda amalga oshiriladigan ajratmalar;

– alkogol va tamaki mahsulotlarini noqonuniy ishlab chiqarganlik yoki etil spirti hamda alkogol mahsulotlarining noqonuniy aylanmasi uchun to‘lanadigan jarima summasining 50 foizi;

– iste’mol va texnik etil spirti, alkogol va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilar, shuningdek, alkogol mahsulotlarining ulgurji savdosi bilan shug‘ullanadigan korxonalar tomonidan litsenziya talablari buzilganligi uchun tayinlanadigan jarimalar;

– tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish faoliyatini amalga oshirish huquqiga litsenziya berganlik uchun davlat boji to‘lovining 80 foizi miqdorida, shuningdek, iste’mol va texnik etil spirti, alkogol mahsulotlarini ishlab chiqarishga, alkogol mahsulotlarining ulgurji savdosini amalga oshirishga litsenziyalar berish uchun to‘lanadigan yig‘imlar va yillik litsenziya to‘lovlari;

– xalqaro moliya institutlari, xorijiy hukumat va xalqaro moliya tashkilotlarining kreditlari (qarz mablag‘lari) va grantlari;

– qonun hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa manbalar.

Vinochilikni rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari quyidagi maqsadlar uchun sarflanadi:

– Agentlikning texnik navli uzumzorlar va vinochilik sohasini jadal rivojlantirishni ta’minlashga qaratilgan kompleks maqsadli dasturlarini amalga oshirish, shu jumladan, uzum ko‘chatlarini xarid qilish, uzumning seleksiya navlarini yaratish va ularni ekishni tashkil etish bilan bog‘liq vazifalarning samarali bajarilishi;

– suvni tejovchi, shu jumladan, tomchilatib sug‘orish texnologiyalarini joriy etishga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda va miqdorda subsidiyalar berish;

– sanoatbop tokzorlarda irrigatsiya tadbirlarini o‘tkazish, jumladan, suv yetkazib berish, artezian quduqlar, quvurlar va rezervuarlar barpo etish, suv yetkazib berish uchun nasos va quvurlar, suv saqlash uchun sig‘imlar sotib olish;

– texnik navli uzum plantatsiyalarini yaratish hamda uzum, mevalar va rezavorlardan alkogol mahsulotlari ishlab chiqarish uchun O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki asosiy stavkasining 50 foizidan oshmaydigan foiz stavkasi bo‘yicha qarz berish hamda O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining asosiy stavkasidan 4 foiz punktigacha chegirgan holda tijorat banklariga kredit resurslarini berish;

– mahalliy sharoitda yetishtirilgan intensiv ko‘chatlar hamda payvandtaglarni sotib olish xarajatlarining bir qismini qoplash uchun subsidiyalar ajratish;

– mahalliy sharoitda tok o‘simligi to‘qimalaridan (meristema hujayra) “In vitro” usulida yetishtirilgan tok ko‘chatlarini sotib olish xarajatlarining bir qismini qoplash uchun subsidiyalar ajratish;

– umumiy qiymatining kamida 15 foizi loyiha tashabbuskori tomonidan moliyalashtiriladigan texnik navli uzumchilik yo‘nalishidagi investitsiya loyihalarini moliyalashtirish uchun tijorat banklari tomonidan ajratiladigan kreditlar bo‘yicha bo‘lg‘usi hosil, tokzor va (yoki) yer uchastkasiga bo‘lgan huquqni garovga olgan holda kafillik taqdim etish;

– texnik navli uzum ko‘chatlarini shpaleraga ko‘tarish uchun subsidiyalar ajratish;

– vinochilik sohasidagi xorijiy mutaxassislar va konsultantlarni jalb etish, uzum yetishtiruvchilarni, Agentlik va vinochilik korxonalari xodimlarini, shu jumladan, xorijda, tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;

– mahalliy alkogol, shu jumladan, vino mahsulotlarini targ‘ib qilish bo‘yicha festivallar, ko‘rgazmalar va yarmarkalar tashkil etish, alkogol sohasi korxonalarining, shu jumladan xorijda o‘tkaziladigan tadbirlarda ishtirok etishiga ko‘maklashish hamda ularning bunday tadbirlardagi ishtiroki bilan bog‘liq xarajatlarni qoplash;

– sanoatbop uzumchilik va vinochilik, yangi turdagi alkogol mahsulotlar ishlab chiqarish va marketingda “nou-xau” bilan bog‘liq bo‘lgan ilmiy loyihalarni moliyalashtirish;

– texnik navli uzumlarning onalik maydonlari va kolleksiya uchastkalari, ko‘chatxona (pitomnik)lar barpo etish;

– kolleksion vino va konyak distillyati mahsulotlarini zaxiraga qo‘yish;

– Agentlik va uning idoraviy bo‘ysunuvidagi tashkilotlar moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, uning markaziy apparatini ta’minlash, shu jumladan, Agentlik xodimlarini moddiy rag‘batlantirish, xususan, ustamalar to‘lash, shuningdek, Agentlik faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan, qonun hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa tadbirlar.

Baliqchilikni rivojlantirish jamg‘armasi “O‘zbekbaliqsanoat” uyushmasining Baliqchilikni rivojlantirish jamg‘armasi faoliyati O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Baliqchilik tarmog‘ini boshqarish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2017-yil 1-maydagi PQ–2939-son qarori ijrosini ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 7-avgustdagi 593-son “Tabiiy suv havza uchastkalarini baliq ovlash xo‘jaliklariga ijaraga berish va Baliqchilikni rivojlantirish

jamg‘armasini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq tashkil etilgan.

Baliqchilikni rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari quyidagi manbalar hisobidan shakllantiriladi:

– tabiiy suv havzalarini baliq ovlash xo‘jaliklariga ijaraga berishdan tushgan mablag‘lar;

– yuridik va jismoniy shaxslarning homiylik xayriyalari;

– qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar.

Baliqchilikni rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘laridan quyidagilarni moliyalashtirish uchun foydalaniladi:

– baliqchilik tarmog‘ida ilmiy-tadqiqot va seleksiya-naslchilik ishlarini amalga oshirish;

– tabiiy suv havzalarida baliq zaxiralarini ko‘paytirish maqsadida baliqlantirish ishlarini amalga oshirish;

– baliqlarni oziqlantirish uchun ozuqalarning zamonaviy retsepturasi va uslubiy qo‘llanmalarini ishlab chiqish;

– baliqchilik tarmog‘ida zamonaviy intensiv va innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish va moddiy texnika bazasini rivojlantirish;

– baliqlar kasalliklarini oldini olish va davolashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish;

– baliqchilik tarmog‘ini rivojlantirish bo‘yicha investitsiya loyihalari shakllantirilishini moliyalashtirish;

– tabiiy va sun’iy suv havzalarida baliqchilik faoliyati bilan shug‘ullanayotgan tadbirkorlarning faoliyatini qonuniylashtirish maqsadida mazkur suv havzalari bo‘yicha kadastr hujjatlarini tuzish va ro‘yxatdan o‘tkazish.

Davlat qarziga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha kafolat jamg‘armasi. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G‘aznachiligi huzurida Davlat qarziga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha kafolat jamg‘armasi faoliyati ilg‘or xalqaro tajriba asosida davlat qarziga o‘z vaqtida, to‘liq va kafolatli xizmat ko‘rsatilishini ta’minlash maqsadida O‘zbekiston

Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 21-sentyabrdagi 573-son "O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligi huzurida Davlat qarziga xizmat ko'rsatish bo'yicha kafolat jamg'armasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi qarori bilan tashkil etildi.

Kafolat jamg'armasi mablag'larini shakllantirish manbalari quyidagilar:

– jalb etiladigan kreditlar (qarzlar) bo'yicha O'zbekiston Respublikasining davlat kafolatlari berilganligi uchun undiriladigan taqdirlash puli;

– O'zbekiston Respublikasi nomidan chet el valyutasida jalb qilinadigan va shu valyutada qayta kreditlanadigan bitimlardagi kredit (qarz) bo'yicha qarzdorlik to'liq to'langan taqdirda, kredit (qarz) bo'yicha O'zbekiston Respublikasi marjasining foydalanilmay qolgan summasiga teng miqdorda O'zbekiston Respublikasi respublika byudjetidan o'tkaziladigan mablag'lar;

– O'zbekiston Respublikasi nomidan chet el valyutasida jalb qilinadigan va milliy valyuta, shuningdek, chet el valyutasida qayta kreditlanadigan bitimlar bo'yicha to'lov muddatlarining talablari to'liq bajarilmaganda muddati o'tgan qarzdorliklar (asosiy qarz, foiz, marja va boshqa to'lovlar) yuzasidan hisoblangan va to'langan (undirilgan) penyalar (jarimalar);

– O'zbekiston Respublikasi nomidan tuziladigan barcha turdagi xalqaro va mahalliy qarz bitimlarida, qayta kreditlash bitimlarida, Moliya vazirligi tomonidan chet el valyutasida mablag'larni depozitga qo'yish, ssuda va kredit liniyalarini ajratish hamda Moliya vazirligi oldidagi boshqa majburiyatlar bo'yicha shartnomalarda belgilangan moliyaviy shartlar va talablarning (kovenantlar) buzilishi holatlari aniqlanganda undiriladigan to'lovlar;

– O'zbekiston Respublikasi nomidan xorijdan mablag' jalb qilish to'g'risida O'zbekiston Respublikasi nomidan shartnomalar tuzish huquqiga ega bo'lgan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti,

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi yoki ular vakolat bergan organ tomonidan chet el valyutasida jalb qilinadigan yoki milliy valyutada qayta kreditlanadigan bitimlarda kreditlarning foiz to‘lovlari o‘rtasidagi ijobiy farqdan tushadigan tushumlar;

– Moliya vazirligida vaqtincha bo‘sh turgan xalqaro moliya institutlari, xorijiy hukumat moliya tashkilotlaridan jalb qilingan qarzlarni O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki va tijorat banklariga belgilangan tartibda depozitga joylashtirishdan olinadigan daromadlar;

– O‘zbekiston Respublikasining xalqaro obligatsiyalarini joylashtirishdan tushgan mablag‘larni O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki va tijorat banklariga belgilangan tartibda depozitga joylashtirishdan olinadigan foiz to‘lovlari o‘rtasidagi ijobiy farq bo‘yicha daromadlar;

– qayta kreditlash shartnomalariga asosan qarzdorlar tomonidan qaytarilgan mablag‘larning davlat tashqi qarzi to‘lovlaridan ortib qolgan qismini kelgusida davlat tashqi qarzi to‘lovlari uchun zaxira sifatida O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki va tijorat banklariga belgilangan tartibda depozitga joylashtirishdan olinadigan daromadlar;

– Kafolat jamg‘armasining vaqtincha bo‘sh turgan milliy va chet el valyutasidagi mablag‘larini O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki va tijorat banklariga belgilangan tartibda depozitga joylashtirishdan hamda yuqori likvidli qimmatli qog‘ozlarga investitsiya qilishdan olinadigan daromadlar;

– O‘zbekiston Respublikasi respublika byudjetiga tushadigan O‘zbekiston Respublikasining xalqaro obligatsiyalarini joylashtirishdan tushgan mablag‘larni depozitga joylashtirish, kredit liniyasi ochish va byudjet ssudasini ajratishdan foiz tarzida to‘lanadigan daromadlardan olingan foyda solig‘i miqdorida O‘zbekiston Respublikasi respublika byudjetidan ajratmalar;

– O'zbekiston Respublikasi respublika byudjetiga tushadigan yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqning prognozdan orttirib bajarilgan qismining 50 foizi miqdorida O'zbekiston Respublikasi respublika byudjetidan ajratmalar;

– qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar.

Kafolat jamg'armasi mablag'laridan quyidagi maqsadlar uchun foydalaniladi:

– qarzdor tashkilotlar davlat qarzi bo'yicha to'lovlarni o'z vaqtida va to'liq amalga oshirmagan holatlarda qarzdor tashkilotlar tomonidan qayta qoplash sharti bilan qarz to'lovlarini amalga oshirish;

– O'zbekiston Respublikasi nomidan chet el valyutasida jalb qilingan davlat tashqi qarz mablag'larini milliy valyuta hamda chet el valyutasida amalga oshiriladigan loyihalarni moliyalashtirish natijasida yuzaga keladigan valyuta kursi xatarlarining oldini olish uchun. Bunda chet el valyutasida jalb qilingan va milliy valyuta hamda chet el valyutasida berilgan kreditlarning foiz to'lovlari o'rtasidagi ijobiy farq Kafolat jamg'armasida jamlanadi va valyuta kursi o'zgarishi ta'sirida yuzaga keladigan tafovutlar ushbu mablag'lar hisobiga qoplanadi;

– chet el valyutasini sotish va sotib olish.

O'zbekiston Respublikasining Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi iqtisodiyotning yetakchi, eng avvalo bazaviy tarmoqlarini modernizatsiyalash va texnikaviy qayta qurollantirish loyihalari amalga oshirilishini ta'minlash, mamlakatni muttasil, barqaror va mutanosib ravishda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga erishish, shuningdek, samarali tarkibiy va investitsiyaviy siyosatni amalga oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining Tiklanish va taraqqiyot Jamg'armasini tashkil etish to'g'risida"gi 2006-yil 11-maydagi PF–3751-sonli Farmoniga muvofiq tashkil etilgan.

O‘zbekiston Respublikasining Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi mablag‘larini shakllantirish manbalari quyidagilardan iborat:

– O‘zbekiston Respublikasining asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlarini tasdiqlash vaqtida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari bilan strategik resurslarga belgilanadigan chegara narxdan jahon narxining oshishi natijasida tushadigan mablag‘lar;

– davlat mulkini xorijiy investorlarga chet el valyutasiga sotishda davlat byudjeti daromadlarini shakllantirish chog‘ida hisobga olingan hajmlardan ortiqcha tushadigan mablag‘lar;

– Jamg‘armaning aktivlarini boshqarishdan, shu jumladan Jamg‘arma mablag‘larining bo‘sh qoldiqlarini joylashtirishdan keladigan daromadlar;

– qonun hujjatlariga muvofiq boshqa manbalar.

O‘zbekiston Respublikasining Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi mablag‘lari quyidagi maqsadlar uchun foydalaniladi:

– avvalo yoqilg‘i-energetika kompleksi, kimyo sanoati, mashinasozlik, rangli metallurgiya va iqtisodiyotning boshqa bazaviy tarmoqlarida, shuningdek transport va telekommunikatsiya sohasida rivojlanish davlat dasturlariga kiritilgan g‘oyat muhim loyihalarni moliyalashtirish, shu jumladan xalqaro va xorijiy moliyaviy institutlar ishtirokidagi loyihalarda O‘zbekiston Respublikasi ulushini qo‘shma moliyalashtirish;

– kelajakda, birinchi navbatda qishloq hududlarida, yangi sanoat ishlab chiqarishlarini joylashtirish uchun ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish va tiklash loyihalarini moliyalash maqsadida, shu jumladan Davlat byudjeti mablag‘lari hisobidan qoplanadigan imtiyozli kreditlar berish;

– yangi tashkil etilayotgan moliyaviy institutlar hamda iqtisodiyotning bazaviy tarmoqlarida xorijiy investitsiyalar ishtirokida

strategik ahamiyatga ega bo'lgan korxonalarning ustav kapitaliga investitsiya kiritish;

– davlatning tashqi qarzlari bo'yicha xalqaro moliya institutlari va xorijiy kreditorlar oldidagi majburiyatlarni muddatidan oldin to'lash;

– O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlangan modernizatsiyalash, texnik va texnologik qayta jihozlash dasturlari doirasida tijorat banklariga xorijiy valyutada ochilayotgan kredit liniyalari orqali investitsiya loyihalarini jadal moliyalashtirish hamda amalga oshirish;

– ayrim loyihalarning dastlabki yoki yakuniy texnik-iqtisodiy asoslarini ishlab chiqishni grant asosida yoki foizsiz kreditlar ajratish yo'li bilan moliyalashtirish;

– yangi zamonaviy xorijiy texnologiyalar, texnika va uskunalar hamda strategik ahamiyatga ega bo'lgan boshqa tovarlarni tasdiqlangan davlat dasturlariga muvofiq xarid qilish uchun imtiyozli kreditlar berish;

– birinchi navbatda istiqbolli, ammo yetarlicha rivojlanmagan hududlarda ishlab chiqarish va noishlab chiqarish infratuzilmasini shakllantirish bo'yicha ijtimoiy jihatdan ahamiyatli milliy davlat dasturlari va loyihalarini, Davlat byudjeti va rivojlanish davlat dasturlarining tasdiqlangan parametrlari doirasida, grant asosida moliyalashtirish (qo'shma moliyalashtirish);

– tijorat banklari bilan birgalikda qarz oluvchi korxonalarning investitsiya dasturi (biznes-rejalari)ni, shu jumladan ishlab chiqarishni texnik jihatdan qayta jihozlash, ishlab chiqarish quvvatlarining ishlatilishini ko'paytirish, raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish va uni eksport qilish hajmlarini oshirish hamda qo'shilgan qiymat o'sishini ta'minlashga imkoniyat beruvchi loyihalarni qo'shma moliyalashtirish;

– Jamg'arma boshqaruvi va ijro etuvchi apparatining ta'minoti bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarni qoplash.

Xulosa qilib aytganda, mamlakatning barqaror rivojlanishini ta'minlash, iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va yangilash, aholi farovonligini barqaror oshirib borish vazifalarini bajarish uchun ichki resurslarni jalb qilishda byudjetdan tashqari fondlarning ahamiyati ortib bormoqda. Bunda infratuzilmani rivojlantirish orqali aholi yashash sharoitlarini yanada yaxshilash, turmush darajasini oshirish va xalq farovonligini ta'minlash maqsadlariga erishish ko'zda tutilgan. Bugungi kunda davlatning byudjetdan tashqari jamg'armalari mablag'lari

2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning Harakatlar strategiyasida nazarda tutilgan keng ko'lamli tadbirlar va dasturlarni moliyalashtirishga safarbar etilmoqda, faqatgina davlat maqsadli jamg'armalari mablag'lari emas, balki to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar, xalqaro moliya institutlari va korxonalarning mablag'larini jalb qilish yo'li bilan iqtisodiyot tarmoqlarini bosqichma-bosqich modernizatsiyalash, texnik va texnologik qayta jihozlash ishlari ham amalga oshirilmoqda.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Byudjetdan tashqari jamg'armalarga ta'rif bering.
2. Davlat maqsadli jamg'armalarini shakllantirish zarurati nimada? Ular qanday vazifalarni bajaradi?
3. Davlat maqsadli jamg'armalarini shakllantirish usullarini aytib bering.
4. Davlat maqsadli jamg'armalarining xususiyatlarini aytib bering va izohlang.
5. Davlat moliya tizimida davlatning byudjetdan tashqari jamg'armalarining roli va ahamiyati nimalardan iborat?
6. O'zbekiston Respublikasi jamlanma byudjeti tarkibidagi davlat maqsadli jamg'armalarining maqsad va vazifalari nimalardan iborat?

7. O‘zbekiston Respublikasi jamlanma byudjetida davlat maqsadli jamg‘armalari mablag‘larining shakllanish manbalari va ishlatilish yo‘nalishlarini aytib bering.

Mavzu yuzasidan topshiriqlar

1. Davlat maqsadli jamg‘armalari evolyutsiyasini aks ettiruvchi chizma tayyorlang.
2. Ijtimoiy yo‘nalishdagi davlat maqsadli va byudjetdan tashqari jamg‘armalar faoliyati, ularning maqsadi, vazifalari, shakllanish manbalari va mablag‘lar sarfi yo‘nalishlarini aks ettiruvchi grafik organayzerlarini shakllantiring.
3. Xorijiy davlatlarda davlatning maqsadli jamg‘armalari faoliyatiga doir tahliliy ma’lumot tayyorlang.

9-BOB. DAVLAT KREDITI VA DAVLAT QARZLARINI BOSHQARISH

9.1. Davlat kreditining zarurligi, mohiyati va ahamiyati

Ma'lumki, davlatning jamiyat hayotining barcha sohalaridagi rolining uzluksiz o'sib borishi, uning iqtisodiy va ijtimoiy vazifalarining kengayishi davlat byudjeti xarajatlarining daromadlarga nisbatan ortib ketishiga, ya'ni byudjet taqchilligiga olib keladi. Byudjet taqchilligining vujudga kelishiga quyidagilar sabab bo'ladi:

– ishlab chiqarishning pasayib ketishi;

– xarajatlarning haddan tashqari o'sib ketishi;

– tovarlar bilan ta'minlanmagan pul emissiyasi;

– harbiy sanoat majmuasini moliyalashtirish bo'yicha sarf-xarajatlarning o'sishi;

– yashirin, ya'ni nolegal iqtisodiyot, unumsiz xarajatlar, yo'qotishlar hajmining o'sib borishi va boshqalar.

Agar davlat byudjeti izchil ravishda bir necha yillar mobaynida defitsit holatida bo'lsa, unda bu davlatning ichki va tashqi manbalardan qarzining ortishiga va natijada kutilayotgan istiqbolli daromad va xarajatlarning kamayishiga olib keladi.

Davlat krediti – davlat bilan yuridik va jismoniy shaxslar, xorijiy davlatlar, xalqaro moliya tashkilotlari o'rtasidagi qarz olish, qarz berish yoki qarz oluvchilarga kafolat berish bilan bog'liq bo'lgan pul munosabatlari yig'indisini ifodalaydi

Davlat kreditining ahamiyati quyidagilarda namoyon bo'ladi:

– davlat byudjetiga qo'shimcha tushumlar manbaini ta'minlaydi;

– davlatning emission faoliyatini cheklaydi (bu bilan inflyatsiyani jilovlab turadi);

– pul muomalasining hamda milliy valyuta barqarorligining muhim omili bo'lib xizmat qiladi.

Davlat kreditini iqtisodiy voqelik sifatida "bank krediti" tushunchasi bilan o'xshash va farqli jihatlarini aniqlab olish lozim.

Bank krediti – banklarning mijozlarga vaqtinchalik foydalanish uchun kapital berishi bo'lib, banklar qaytarishlik, bank foiz to'lovi va muddatlilik shartlarida o'z mablag'lari va jalb etilgan mablag'lar hisobidan kreditlar beradi. Bu bilan vazifasi va tayinlanishi jihatidan davlat kreditidan farq qiladi.

9.1-jadval

Bank krediti va davlat kreditining umumiy va farqli jihatlari

Kreditlarning turlari	
Bank krediti	**Davlat krediti**
Muddatlilik, qaytarishlik, to'lovlilik	
Subyektlar teng huquqlarga ega, ularning munosabatlari bank ssudasi shartnomasi bilan o'rnatiladi	Subyektlar teng huquqlarga ega emas. Bu munosabatlarda davlatning ustuvorligi bir tomonlama kreditning shartlarini (zayomlarning muddati, ular bo'yicha daromad to'lab berish va boshqa shartlarini) belgilashda namoyon bo'ladi
Kreditning ta'minlanganligi tamoyili ko'zda tutilgan	Uzoq muddatli zayomlarning biron zalog bilan ta'minlanishi ko'zda tutilmaydi
Safarbar qilingan mablag'lar xo'jalik subyektlari va aholining ehtiyojlariga yo'naltiriladi	Safarbar qilingan mablag'lar davlat va jamiyat ehtiyojlarini qoplashga yo'naltiriladi

Byudjet taqchilligining o'zgarishi xo'jalik konyunkturasidagi joriy tebranishlar, ishlab chiqarishdagi davriy inqiroz va yuksalishlarni ham aks ettiradi, inqirozlar davrida davlat byudjet mablag'lari hisobidan iqtisodiyotning ma'lum sektorlarini moliyaviy ta'minlab turishga, umummilliy ahamiyatga ega bo'lgan tarmoqlarda investitsiyalar hajmini saqlab qolishga majbur bo'ladi. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida byudjet taqchilligining kuchayish holati ayniqsa 2010-yilda Irlandiya (32 foiz), Gretsiya (15,4 foiz), Buyuk Britaniya (11,1 foiz) singari mamlakatlarda keskin

namoyon bo'lgan bo'lsa, mazkur ko'rsatkichning 2012-yilda Yaponiya (10 foiz), AQSh (8,7 foiz), Buyuk Britaniya (8,3 foiz) va boshqa mamlakatlardagi darajasi hamon yuqoriligicha qolmoqda.

Byudjet taqchilligining ortib borishi muqarrar ravishda davlat qarzini keltirib chiqaradi. Ya'ni, byudjet taqchilligi asosan davlat qarzi hisobidan qoplanib, u ichki va tashqi qarzlardan iborat bo'ladi. Ichki qarz davlatning mamlakat ichida zayomlar va boshqa qimmatli qog'ozlarni chiqarish, byudjetdan tashqari turli fondlar (sug'urta fondi, ishsizlik bo'yicha sug'urtalash fondi, pensiya fondi) olingan qarzlardan iborat bo'lsa, tashqi qarz xorijiy davlatlardan, ulardagi jismoniy va yuridik shaxslardan, shuningdek, xalqaro moliyaviy tashkilotlardan olingan qarz hisoblanadi.



9.1-rasm. **Davlat kreditining shakllari**

Tashqi qarzning me'yoridan oshib ketishi milliy iqtisodiyot rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Agar tashqi qarz bo'yicha to'lovlar mamlakatning tovar va xizmatlar eksportidan keladigan tushumning sezilarli qismi, masalan, 20-25 foizidan oshib ketsa, bu holat davlatning kredit bo'yicha reytingini pasaytirib yuboradi. Natijada chetdan yangi qarz mablag'larini jalb etish mushkullashadi. Shunga ko'ra, davlatlar muntazam ravishda tashqi qarzni tartibga solish chora-

tadbirlarini amalga oshirib boradi. Bunday chora-tadbirlar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

– mamlakatning oltin-valyuta zaxirasi hisobidan qarzlarni to'lab borish;

– kreditorlarning qarzlarni to'lash muddatlarini o'zgartirishlari, ayrim hollarda ularning ma'lum qismidan voz kechishlariga erishish;

– qarzlarni mamlakatdagi ko'chmas mulk, qimmatli qog'ozlar, kapitalda ishtirok etish va boshqa huquqlarni sotish hisobidan to'lash;

– xalqaro banklar va boshqa moliyaviy tashkilotlardan yordam olish va h.k.



9.2-rasm. **Jahon mamlakatlarida tashqi qarz hajmi, YaIMga nisbatan foizda**[50]

Jahondagi 50 ta yirik davlatning tashqi qarzi 65 trillion dollarga yetdi, biroq bu hali so'nggi chegara emas: Yevropa komissiyasining ma'lumotiga ko'ra, yevrohududdagi aksariyat davlatlarning tashqi qarzi faqat o'sib bormoqda. Xususan, Ispaniya, Fransiya, Gretsiya,

[50] Госдолг стран мира. Рейтинг стран по уровню государственного долга. Источник: http://howtoshka.ru/novosti-i-obshhestvo/76083-gosdolg-stran-mira-rejting-stran-po-urovnju.html

Portugaliya va Irlandiyada so‘nggi yillarda YaIMga nisbatan davlatlarning tashqi qarzi ko‘payib bormoqda.

Xalqaro kreditorlar tashkiloti (WOC) tahlilchilari mavjud holatni o‘rgangan holda, keyingi yillarda yirik iqtisodiyotga ega bo‘lgan mamlakatlarning tashqi qarzi qisqarmasdan, aksincha o‘sib boradi, degan xulosaga keldilar.

Tashqi qarz hajmi bo‘yicha mamlakatlar ko‘rsatkichlariga nazar tashlaydigan bo‘lsak, bunda aksariyat hollarda yetakchi davlatlarning ham tashqi qarzlar bo‘yicha holatlari achinarli ekanligini kuzatish mumkin (9.3-rasm).



9.3-rasm. **Tashqi qarz hajmi bo‘yicha mamlakatlarning ko‘rsatkichlari, 2015-yil boshiga**[51]

AQShning tashqi qarzi, 2014-yil yakunlari bo‘yicha, YaIM hajmining 60,8 foizini tashkil qilgan. Biroq, mazkur ko‘rsatkich

[51] Prezident I.A.Karimovning "Bosh maqsadimiz – keng ko‘lamli islohotlar va modernizatsiya yo‘lini qat’iyat bilan davom ettirish" nomli ma’ruzasini o‘rganish bo‘yicha o‘quv qo‘llanma. T.: O‘qituvchi NMIU. 2013. 13-bet.

bo'yicha reytingda AQSh yetakchi o'rinlarda emas. Germaniyaning tashqi qarzi mamlakat YaIM hajmining 62,6 foizini, Fransiyada – 67,0 foizini, Italiyada 103,7 foizini, Yaponiyada esa 170,4 foizini tashkil qilgan. Yaponiyaning ichki qarzdorlikni ham o'z ichiga oladigan davlat qarzi darajasi YaIMga nisbatan 226 foizni tashkil etadi. Bunday yuqori ko'rsatkich mamlakatda 2011-yilda ro'y bergan sunami oqibatlariga qarshi kurash ko'proq milliy valyutadagi ichki moliyaviy mablag'lar hisobidan olib borilayotgani bilan izohlanadi[52].

Jahon bankining "Xalqaro qarzdorlik statistikasi" ma'lumotiga ko'ra, 2019-yil 1-yanvar holatiga ko'ra davlat tashqi qarzining YaIMga nisbati Armanistonda 43,2%, Gruziyada – 38,7%, Tojikistonda – 38%, Belarus Respublikasida – 33,5%, Ozarbayjonda – 29,7%, Ukrainada – 27,7%, O'zbekistonda – 23,8%, Vyetnamda – 21,8%, Turkiyada – 15,8% va Qozog'istonda – 14,2% ni tashkil etadi[53].



9.4-rasm. **Ayrim mamlakatlarda davlat qarzining YaIMga nisbati, (01.01.2019-yil holatiga)[54]**

[52] Рейтинг стран по объему внешнего долга http://www.vestifinance.ru/articles/11572
[53] Manba: dmo.mf.uz.
[54] Manba: dmo.mf.uz.

9.2. Davlat qarzi, uning shakllari

Davlat qarzi davlatning ehtiyojlari uchun mablag‘ jalb qilishi natijasida yuzaga keladi. Davlat ichki va tashqi manbalardan mablag‘ jalb qilishi mumkin.

> ***Davlat tomonidan mablag‘ jalb qilish*** – aktivlarni jalb etish, bu bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining qarz oluvchi sifatidagi yoki qarz oluvchi-rezidentlarning kreditlarini (qarzlarini) to‘lashga kafil sifatidagi majburiyatlari yuzaga kelishi

Davlat tomonidan ichki manbalardan mablag‘ jalb qilish O‘zbekiston Respublikasi rezidentlaridan mablag‘larni jalb etish bo‘lib, bu mablag‘lar bo‘yicha davlatning qarz oluvchi yoki qarz oluvchi-rezidentlarning kreditlarini (qarzlarini) to‘lashga kafil sifatidagi majburiyatlari yuzaga keladi.

Xorijiy manbalardan (xorijiy davlatlar, xalqaro tashkilotlar, xalqaro moliya va iqtisodiy institutlar, chet el hukumatlarining moliya tashkilotlari va mamlakatning boshqa norezidentlaridan) mablag‘larni jalb etish – davlat tomonidan tashqi (xorijdan) mablag‘ jalb qilish bo‘lib, bu mablag‘ bo‘yicha davlatning qarz oluvchi yoki qarz oluvchi-rezidentlarning kreditlarini (qarzlarini) to‘lashga kafil sifatidagi majburiyatlari yuzaga keladi.

Davlat tomonidan mablag‘ jalb etish bo‘yicha mamlakat hukumatining belgilangan tartibda maxsus qarorlari qabul qilinadi.

Masalan, 2019-yilning fevral oyida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 21-iyuldagi PQ–3877-son “Tashqi moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiyalash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq, ilk marotaba jahon moliya bozorlarida O‘zbekiston Respublikasining umumiy hajmi 1 milliard AQSh dollari miqdoridagi 5 va 10 yil muddatli suveren xalqaro obligatsiyalari joylashtirildi. Dunyoning eng obro‘li birjalaridan hisoblangan London fond birjasida O‘zbekiston tarixida birinchi marta yevrobondlar, ya’ni yevroobligatsiyalarni bozorga

qo'ydi. Bunda 5 yillik 500 million dollarlik yevrobondlarni 4,75 foizdan, 10 yillik 500 million dollarlik yevrobondlarni esa 5,375 foizdan joylashtirdi. Qarz obligatsiyalarini qaytarish muddatlari etib 2024-yil va 2029-yillar belgilandi.

Davlatlar kesimida tahlil qilinganda, xarid qilingan 5 yillik va 10 yillik obligatsiyalarning katta qismi Buyuk Britaniya investorlari (tegishincha 39 foiz va 32 foiz), amerikalik investorlar esa 23 va 31 foiz obligatsiyalarni xarid qildi. Yevropalik investorlar 32 foiz va 27 foiz, Osiyo, Yaqin Sharq va Shimoliy Afrika mamlakatlari investorlari esa 6 va 10 foizni tashkil qildi, yevrobondlarning aksariyatini – 75 foiz va 78 foizini boshqaruv fondlari, 20 foiz va 16 foizini sug'urta kompaniyalari va pensiya fondlari, 5 foiz va 6 foizini banklar xarid qildi.

Suveren xalqaro obligatsiyalarni joylashtirishdan tushgan mablag'larning asosiy qismi tijorat banklari depozitlariga joylashtirilishi davlat byudjeti xarajatlarini oshirmasligi va byudjetdan qo'shimcha xarajat qilinmasligi bilan ham ahamiyatli bo'ldi[55].

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida davlat tomonidan mablag' jalb qilish:

– iqtisodiyotni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini, shu jumladan davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dasturlarini moliyalashtirish;

– davlat qarzini qayta moliyalashtirish;

– davlat byudjeti taqchilligini qoplash uchun amalga oshiriladi.

Davlat qarzining eng yuqori miqdori har yili O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari tomonidan navbatdagi yil uchun davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg'armalarining byudjetlari qabul qilinayotganda belgilanadi.

Masalan, "2021-yil uchun O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti to'g'risida"gi Qonunning 10-moddasi bilan O'zbekiston

---

[55] Toshmatov sh.a. o'zbekiston xalqaro obligatsiyalarining jahon moliyaviy bozorlarida joylashtirilishi: risk va prognozlar. manba: https://review.uz/

Respublikasi nomidan va uning kafolati ostida jalb qilingan davlat qarzining cheklangan miqdori yalpi ichki mahsulotga nisbatan 60 foizdan oshmasligi belgilab qo'yildi. 2021-yil oxirigacha Davlat qarzi 25,5 mlrd. AQSh dollari miqdorida prognoz qilingan bo'lib, shundan 18 mlrd. AQSh dollari O'zbekiston nomidan amalga oshirilgan va 7,5 mlrd. AQSh dollari davlat tomonidan kafolatlangan tashqi qarzi hisoblanadi. 2021-yilda davlat qarziga xizmat ko'rsatish (asosiy qarz va foiz) xarajatlari 1,5 mlrd. AQSh dollari miqdorida, jumladan Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan 0,5 mlrd. AQSh dollari miqdorida mablag' ajratish prognoz qilingan[56].

Davlat tomonidan mablag' jalb qilish quyidagi shakllarda amalga oshirilishi mumkin[57]:

– O'zbekiston Respublikasi tomonidan qarz oluvchi sifatida chet davlatlardan, xalqaro tashkilotlardan, xalqaro moliya va iqtisodiy institutlardan, chet el hukumatlarining moliya tashkilotlaridan hamda O'zbekiston Respublikasining boshqa rezidentlari va norezidentlaridan jalb qilingan kreditlar (qarzlar) bo'yicha qarz majburiyatlari shaklida;

– O'zbekiston Respublikasining davlat kafolatlari bo'yicha qarz majburiyatlari shaklida;

– O'zbekiston Respublikasi nomidan chiqarilgan davlat qimmatli qog'ozlari bo'yicha qarz majburiyatlari shaklida.

Shuningdek, amal qilish davriga ko'ra yuqoridagi har bir turdagi qarz majburiyatlari qisqa muddatli (bir yilgacha bo'lgan muddatga), o'rta muddatli (bir yildan besh yilgacha muddatga) va uzoq muddatli (besh yil va undan ortiq muddatga) bo'lishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi tomonidan xorijiy banklardan, davlatlardan, xalqaro moliya va iqtisodiy institutlardan, chet el hukumatlarining moliya tashkilotlaridan jalb qilinadigan kreditlar

[56] O'zbekiston Respublikasining "2021-yil uchun O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti to'g'risida"gi Qonuni loyihasi va 2021-yil uchun Byudjetnoma bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasining Xulosasi. Manba: https://ach.gov.uz/uploads/50a88c2b-2d6e-bd8d-3cb0-d4654c663b8a.pdf

[57] O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksi, 153-modda.

(qarzlar) davlat tomonidan xorijdan mablag‘ jalb qilish jumlasiga kiradi.

O‘zbekiston Respublikasi tomonidan jalb qilinadigan kreditlar (qarzlar) belgilangan tartibda:

– rivojlanish davlat dasturlarini moliyalashtirishga yoki birgalikda moliyalashtirishga;

– iqtisodiyot tarmoqlarini, sohalarini va mintaqalarni rivojlantirish dasturlarini amalga oshirish bo‘yicha tadbirlarni moliyalashtirish uchun kreditlarni (qarzlarni) qaytadan kreditlashga yo‘naltiriladi.

Davlat nomidan jalb qilingan kreditlarni (qarzlarni) qaytadan kreditlashda kredit (qarz) bo‘yicha xizmat ko‘rsatish yuzasidan ehtimoldagi tavakkalchiliklarni qoplashda foydalanish uchun jalb qilinayotgan kredit (qarz) stavkasining 50 foizidan oshmaydigan miqdorda O‘zbekiston Respublikasi marjasi belgilanishi mumkin. Kredit (qarz) bo‘yicha qarzdorlik to‘liq to‘langan taqdirda kredit (qarz) bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi marjasining foydalanilmay qolgan summasi O‘zbekiston Respublikasi respublika byudjetining daromadiga kiritiladi.

O‘zbekiston Respublikasining davlat kafolati qarz oluvchi-rezident o‘zidan undiriladigan summani qarz (kredit) bo‘yicha bitimlarda belgilangan muddatda to‘lamagan taqdirda davlatning qarz beruvchi oldidagi qarzni to‘liq yoki qisman to‘lab berish majburiyatidir.

O‘zbekiston Respublikasining davlat kafolatlari qarz beruvchilarga qarz oluvchi-rezidentlar o‘zi olgan kreditlar (qarzlar) bo‘yicha majburiyatlarni bajarishining ta’minoti sifatida beriladi. Jismoniy shaxslarning majburiyatlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining davlat kafolatlari berilmaydi.

O‘zbekiston Respublikasining davlat kafolatlari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining yoki O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga ko‘ra beriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi O‘zbekiston Respublikasining davlat kafolatlarini rasmiylashtirish bo‘yicha vakolatli organ hisoblanadi. Moliya vazirligi O‘zbekiston Respublikasining berilgan davlat kafolatlari bilan shart qilib qo‘yilgan to‘lovlarni amalga oshirgach, amalga oshirilgan to‘lovlar va ular bilan bog‘liq xarajatlar summasini qarz oluvchi-rezidentdan so‘zsiz undirib olish huquqiga ega.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi davlatning nomidan davlat qimmatli qog‘ozlarini chiqaradi. Davlat qimmatli qog‘ozlarini chiqarish va ularning cheklangan hajmi to‘g‘risidagi qaror belgilangan tartibda qabul qilinadi.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki:

– O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan emissiya qilingan davlat qimmatli qog‘ozlarini joylashtirishda;

– davlat qimmatli qog‘ozlari bo‘yicha qiymatni, foizlarni va boshqa to‘lovlarni to‘lashda;

– davlat qimmatli qog‘ozlari bo‘yicha boshqa operatsiyalarni amalga oshirishda *fiskal agent* sifatida ishtirok etishi mumkin.

Davlat qimmatli qog‘ozlarini chiqarishdan olingan tushumlar davlat byudjeti taqchilligini qoplash uchun hamda mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi bo‘yicha chora-tadbirlar, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari bilan belgilanadigan yirik investitsiya loyihalari va boshqa chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun yo‘naltiriladi.

9.3. O‘zbekiston Respublikasida davlat qarzini samarali boshqarish choralari

2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi doirasida mamlakatimizning jahon moliya tizimiga jadal integratsiyalashuvi sharoitlarida davlat qarzini xavfsiz darajada saqlash va samarali boshqarish o‘rta va uzoq muddatli istiqbolda barqaror iqtisodiy

o'sishni ta'minlash uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Hukumati nomidan yoki uning kafolati ostida jalb qilinayotgan mablag'larning asosiy qismi mamlakatimiz aholisining yashash sharoitini yaxshilashga qaratilgan loyihalar (ichimlik suvi va barqaror elektroenergiyasi bilan ta'minlash, uy-joylar qurish, ta'lim va sog'liqni saqlash loyihalari) bilan birga infratuzilma va bazaviy tarmoqlarni rivojlantirish loyihalariga yo'naltirilgan. Mazkur loyihalar iqtisodiyotimizda uzoq yillar davomida investitsiyalarga bo'lgan yuqori talab shakllangan holatda iqtisodiyotni rivojlantirish uchun zarur infratuzilmani yaratish, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish, ularni modernizatsiya qilish va raqobatbardoshligini oshirish hamda tadbirkorlikni rivojlashtirishga qaratilgan.

Ayni vaqtda, davlat qarzini xavfsiz darajada saqlab turilishi kelgusida makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashning asosiy omillaridan biri ekanligini inobatga olib, bugungi kunda davlat qarzini boshqarish tizimi samaradorligini xalqaro andozalar asosida oshirish choralariga alohida ahamiyat berilmoqda.

Qayd etish joizki, mamlakatimizda so'nggi yillarda davlat qarzi oshishining kuzatilishi davlat byudjeti taqchilligining moliyalashtirilishi tufayli yuzaga kelmagan bo'lib, asosan strategik ahamiyatga ega hamda kechiktirib bo'lmaydigan ijtimoiy loyihalarni amalga oshirish uchun qarz mablag'lari jalb qilinganligi bilan izohlanadi, xususan:

– mamlakat aholisining yashash sharoitini yaxshilashga qaratilgan loyihalarga (ichimlik suvi va barqaror elektr energiyasi bilan ta'minlash, qishloq joylarda namunaviy uy-joylar qurish, ta'lim va sog'liqni saqlash sohalarini rivojlantirish va boshqalar) hukumat nomidan tashqi qarz mablag'larini jalb qilish;

– barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashga qaratilgan va strategik iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lgan yirik investitsion va infratuzilmaviy loyihalar uchun tashqi qarz mablag'larini davlat kafolati ostida imtiyozli shartlarda jalb qilish.



9.5-rasm. **O'zbekiston Respublikasida davlat qarzining dinamikasi**[58] (mlrd. AQSh dollarida)

Davlat qarzining so'nggi yillardagi o'sish dinamikasiga qaramay, xalqaro me'yorlarga ko'ra O'zbekiston Respublikasi davlat qarzi (YalMga nisbatan 36,8 foiz), shu jumladan davlat tashqi qarzi (YalMga nisbatan 23,8 foiz) mo'tadil darajada saqlanib qolmoqda. Xususan, Xalqaro valyuta jamg'armasining 2019-yil aprel oyidagi "Qarz barqarorligi tahlili" hisobotida, O'zbekiston Respublikasining davlat tashqi qarzi va umumiy davlat qarzi bo'yicha xatarlar past darajada ekanligi qayd etilgan.

> Jahon banki va Xalqaro valyuta jamg'armasining tasnifiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Davlat qarziga xizmat ko'rsatish salohiyati "kuchli" deya baholangan bo'lib, mazkur tasnifdagi davlatlar uchun jami davlat qarzi YalMga nisbatan 75 foizdan (diskontlanganda 70 foiz), davlat tashqi qarzi YalMga nisbatan 55 foizdan (diskontlanganda 50 foiz) oshmasligi tavsiya etilgan
>
> *Manba: Jahon banki va Xalqaro valyuta jamg'armasi*

Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi davlat qarzini xalqaro andozalar asosida boshqarish tizimini takomillashtirish, davlat qarzini

[58] Manba: dmo.mf.uz.

makroiqtisodiy barqarorlik uchun xavfsiz darajada saqlab turish hamda jalb qilinayotgan qarz mablag'laridan unumli foydalanishni ta'minlash mexanizmlarini ishlab chiqish maqsadida quyidagilar amalga oshirilmoqda:

– Jahon banki va Xalqaro valyuta jamg'armasi bilan hamkorlikda "Davlat qarzini boshqarishning o'rta muddatli strategiyasi" loyihasi ishlab chiqildi;

– Xalqaro valyuta jamg'armasining fiskal qoidalarni tatbiq etish bo'yicha yo'riqnomasi asosida davlat qarzining YaIMga nisbatan maksimal miqdori hamda ko'p ssenariyli prognozlar asosida davlat qarzini makroiqtisodiy barqarorlik uchun xavfsiz darajada saqlash bo'yicha hisob-kitoblar amalga oshirildi;

– O'rta va uzoq muddatli istiqbolda davlat qarzini makroiqtisodiy barqarorlik uchun xavfsiz darajada saqlab turishni nazarda tutuvchi choralar ishlab chiqildi;

– O'zbekiston Respublikasi davlat qarzi monitoringini yuritish, unga xizmat ko'rsatish, hisob va hisobotlarni avtomatlashtirish jarayoni davom etmoqda ("DMFAS-6" – "Qarzlarni boshqarish va moliyaviy tahlil tizimi" dasturiy majmuasi o'rnatildi va ma'lumotlar kiritilmoqda);

– Davlat qarziga oid ma'lumotlarning ochiqligini ta'minlash choralari amalga oshirildi;

– Davlat qarzi bilan bog'liq xatarlarning davlat byudjeti barqarorligiga salbiy ta'sirining oldini olish maqsadida hamda xorijiy tajribani o'rgangan holda davlat kafolatlarini taqdim etish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari ishlab chiqilmoqda.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Davlat qarzi deganda nima tushuniladi?
2. Davlat qarzining kelib chiqishi va oshib borishiga qanday omillar ta'sir ko'rsatadi?

3. Davlat qarzini moliyalashtirish va boshqarish dastak-vositalariga nimalar kiradi?

4. Jahon mamlakatlarida davlat qarzi holati haqida nimalarni bilasiz?

5. O'zbekiston Respublikasida davlat qarzi, uning tarkibi va moliyalash manbalari to'g'risida nimalarni bilasiz?

6. Xorijiy davlatlarda davlat qarzi, uni boshqarish, tartibga solish va moliyalashtirish to'g'risida nimalarni bilib oldingiz?

Mavzu yuzasidan topshiriqlar

1. Davlat qarzini moliyalashtirish va boshqarish dastak-vositalarini aks ettiruvchi klaster tayyorlang.

2. O'zbekiston Respublikasida YaIM o'sish darajasining o'zgarishi dinamikasi va davlat qarzi darajasining bog'liqligini aks ettiruvchi diagramma tayyorlang va izoh yozing.

3. Xorijiy davlatlarning davlat qarzi darajasi bo'yicha reytingini aks ettiruvchi jadval ishlab chiqing va izoh yozing.

10-BOB. MAHALLIY MOLIYA

10.1. Mahalliy moliyaning mazmuni, tarkibi va vazifalari

So'nggi o'n yilliklar davomida bir qator mamlakatlarda iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarning hududiylashuvi kuzatilmoqda. Bu jarayonlarni boshqarish funksiyalari tobora ko'proq markaziy hokimiyat organlaridan hududiy boshqaruv organlariga o'tib bormoqda. XX asrning so'nggi yillariga kelib butun dunyoda davlat tuzumi va boshqaruvida demokratik tamoyillarning rivojlanishi jadallashdi. Ko'pgina mamlakatlarda demokratik davlat tuzumining majburiy tarkibiy qismi – mahalliy o'z-o'zini boshqarish bo'lib, uning mohiyatini aholi qatlamlarining o'zi ular tomonidan erkin asosda saylangan vakillik organlari orqali boshqarishi tashkil qiladi. Hududiy vakillik va ijroiya organlariga yuklatilgan funksiyalarni to'laqonli bajarish uchun ular ma'lum darajada mulkiy va moliyaviy-byudjet huquqlariga egadirlar. Bu huquqlarning amalga oshirilishi doirasida mahalliy moliyaning o'rni va ahamiyati oshib bormoqda.

Mahalliy moliya – O'zbekiston Respublikasi mahalliy ma'muriy-hududiy tuzilmalarining naqd va naqdsiz shakldagi pul resurslari va oqimlari yig'indisi bo'lib, mahalliy xo'jalik ehtiyojlarini normal darajada ta'minlashga hamda mahalliy hududdagi aholiga ijtimoiy-madaniy xizmatlarni pul mablag'lari bilan ta'minlashga xizmat qiladi.

Bugungi kunda mahalliy moliya hududiy ijtimoiy-iqtisodiy siyosatni amalga oshirish quroliga aylanib bormoqda.

Mahalliy moliya:

– mahalliy ahamiyatdagi ishlab chiqarishning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatishga;

– aholi bandligining oshishini ta'minlashga;

– hududiy xo'jalik kompleksining uzoq muddatli taraqqiyotini ta'minlovchi soha va tarmoqlarga investitsiyalarni jalb qilishga;

– hududdagi aholining zarur ijtimoiy ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladi.

Mahalliy moliya – iqtisodiy munosabatlar tizimi bo'lib, uning yordamida hududning ijtimoiy va iqtisodiy riojlanishiga yo'naltiriladigan milliy daromad taqsimlanadi va qayta taqsimlanadi. Shu bilan bir qatorda, mahalliy moliya tushunchasida mahalliy ahamiyatga ega masalalarni hal etish uchun shakllantiriladigan va foydalaniladigan pul mablag'lari yig'indisi tushuniladi.

Ma'lumki, moliyaning amal qilishi davlatning va tovar-pul munosabatlarining mavjudligi bilan bog'liq bo'lsa, mahalliy moliyaning vujudga kelishi bevosita hududiy boshqaruv organlarining oldiga qo'yilgan vazifa va funksiyalar mavjudligi bilan bog'liqdir.

Mahalliy moliya davlat moliyasining tarkibiy qismi bo'lib, ijtimoiy va iqtisodiy sohalarni, aholining ijtimoiy muhofazasini moliyalashtirishni ta'minlaydi. Mahalliy moliya yordamida davlat o'z ijtimoiy siyosatini amalga oshiradi, ta'lim va tibbiyot sohasini, ayrim iqtisodiy sohalarni moliyalashtiradi, hududlarning ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishini tenglashtiradi.

Mahalliy moliya tizimining tarkibiga quyidagi bo'g'inlar kiradi:

– mahalliy byudjetlar;

– mahalliy maxsus jamg'armalar;

– mahalliy korxonalar moliyasi.

Mahalliy moliyaning asosiy xususiyatlari (vazifalari) quyidagilardan iborat:

– makroiqtisodiyotni tartibga soluvchi muhim dastak hisoblanadi, chunki, YalM ning ma'lum bir qismi aynan ular orqali qayta taqsimlanadi;

– hududlarning bir tekisda rivojlanishi uchun shart-sharoit yaratadi, bu esa moliyaviy tenglashtirishning muhim dastagi hisoblanadi;

– hududiy siyosatni amalga oshirish hamda iqtisodiyotni tarkibiy qayta tuzish, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini tenglashtirish, hududlararo mehnat taqsimotining samaradorligi,

mahalliy xo'jalikni rivojlantirish, hududlarni obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish kabi murakkab masalalarni yechishning dastagi hisoblanadi;

– mahalliy moliya orqali ko'pgina xarajatlar, xususan, ijtimoiy yo'naltirilgan xarajatlar moliyalashtiriladi;

– mahalliy moliya orqali markazlashgan investitsiya masalalari hal etiladi va boshqalar.

Mahalliy moliya, taqsimlash, nazorat, boshqaruv, rag'batlantirish va barqarorlikni ta'minlash kabi asosiy funksiyalarni bajaradi.

Taqsimlash funksiyasi. YaIMning bir qismini mahalliy byudjetlar orqali jamlashni, markazlashgan va markazlashmagan pul fondlarini shakllantirish va ulardan foydalanishni nazarda tutadi.

Nazorat funksiyasi. Qonunchilik bilan belgilangan tushumlarni, ularni belgilangan miqdorlardagi taqsimlanishi va maqsadli ishlatilishi ustidan nazoratni nazarda tutadi.

Boshqaruv funksiyasi. Yuridik va jismoniy shaxslarning faoliyatini soliqqa tortish, kreditlash, fiskal disbalanslilikni kamaytirish, hududlarni byudjet mablag'lari bilan ta'minlanishini tenglashtirish maqsadida mahalliy byudjet xarajatlarini aniqlashtirish, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishdagi farqlarni bartaraf etish, taraqqiyot omillarini rag'batlantirish. Bundan tashqari, umumiy xizmatlarni taqdim etish ham boshqaruv funksiyasiga xosdir.

Rag'batlantiruvchi funksiya mahalliy hokimiyat organlarining mahalliy byudjetlar daromadlarini ko'paytirish, qo'shimcha daromadlarni jalb etish va mablag'lardan samarali foydalanishni rag'batlantirishda namoyon bo'ladi.

Barqarorlikni ta'minlash funksiyasi. Iqtisodiy muvozanatning buzilishi va byujetning ta'minlanganligidagi notekisliklarni kamaytirish, hududlarning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash maqsadida ma'muriy to'siqlarni bartaraf etishni nazarda tutadi.

10.2. Mahalliy byudjetlar va ularning tarkibi

Mahalliy byudjetlar, O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksiga muvofiq, Qoraqalpog'iston Respublikasi davlat byudjeti, Toshkent shahar byudjeti, viloyatlar byudjetlari, viloyatlar byudjetlariga kiruvchi quyi (shahar, tuman) byudjetlarni o'z ichiga oladi[59]. Ularning daromadlari va xarajatlari tarkibi, byudjet jarayoni va byudjet huquqi qonun bilan belgilangan. O'zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksining 5-bob, 35-moddasida mahalliy byudjetlar tuzilmasiga kiruvchi byudjetlar to'g'risida quyidagilar ta'kidlab o'tilgan:

– Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti tuzilmasiga Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika byudjeti, Qoraqalpog'iston Respublikasiga qarashli bo'lgan tumanlar va shaharlarning byudjetlari kiradi;

– viloyatlar mahalliy byudjetlari tuzilmasiga viloyat byudjeti, viloyatlar tarkibidagi tumanlar va shaharlar byudjetlari kiradi;

– Toshkent shahar mahalliy byudjeti tuzilmasiga shahar byudjeti va shahar tarkibiga kiruvchi tumanlarning byudjetlari kiradi.

Huquqiy jihatdan mahalliy byudjetlar byudjet yili davomida daromad manbalari va ulardan tushumlar miqdori, aniq maqsadlar uchun mo'ljallangan xarajat yo'nalishlari aks ettiriladigan moliyaviy hujjat hisoblanadi.

Mahalliy byudjetlar davlat byudjetining tegishli viloyat, tuman, shahar pul mablag'lari jamg'armasi bo'lib, ikki pog'onali byudjet tizimining muhim bo'g'ini hisoblanadi. Mahalliy byudjetlarning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati ularning quyidagi funksiyalarida namoyon bo'ladi (10.1-rasmga qarang):

[59] O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksi, 35-modda. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 09.01.2019 y., 03/19/512/2435-son.



10.1-rasm. **Mahalliy byudjetlarning funksiyalari**

Mahalliy byudjetlar orqali mahalliy hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlantirish moliyaviy manbalar bilan ta'minlab boriladi. Mahalliy byudjetlar aholini ijtimoiy himoya qilish borasida davlatning olib borayotgan siyosatining joylardagi asosiy tayanchi hisoblanadi. Mahalliy byudjetlarga xos bo'lgan xususiyatlarning namoyon bo'lishi, ulardan milliy daromadni hududiy darajada taqsimlash va qayta taqsimlash hamda bu jarayonlarni nazorat qilish quroli sifatida foydalanish faqat inson faoliyati jarayonidagina mumkin bo'ladi. Bu byudjet mexanizmida o'z aksini topadi. Byudjet mexanizmi davlat byudjet siyosatini amalga oshirishning dastak va vositalari yig'indisi bo'lib, davlat tomonidan tashkil etiladi va byudjet munosabatlarini davlat oldida turgan ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni bajarishga yo'naltirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksining 4-bob, 27-moddasi bilan Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesining, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar Kengashlarining, 28-moddasi bilan Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining, viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar hokimlarining, 30-moddasi bilan esa hududiy moliya organlarining byudjet sohasidagi vakolatlari belgilab qo'yilgan.

Kodeksning tegishli moddasiga ko‘ra Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar Kengashlari[60]:

– Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjetini, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlarini, tumanlar va shaharlar byudjetlarini tegishincha Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar hokimlarining taqdimnomasiga muvofiq ko‘rib chiqadi va qabul qiladi;

– Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari, tumanlar va shaharlar byudjetlarining tegishli davrdagi ijrosi to‘g‘risidagi hisobotlarni tegishincha Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar hokimlarining taqdimnomasiga muvofiq har chorakda ko‘rib chiqadi va tasdiqlaydi;

– mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning stavkalarini qonun hujjatlarida belgilangan miqdorlar doirasida belgilaydi.

Byudjet Kodeksining tegishli bob va moddalarida hududiy moliya organlarining byudjet sohasidagi vakolatlari (30-modda), mahalliy byudjetlarning daromadlari va xarajatlari tarkibi, ularning byudjet tizimi bo‘g‘inlari o‘rtasida taqsimlash tartiblari belgilab berilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-iyunda “Mahalliy byudjetlarni shakllantirishda joylardagi davlat hokimiyati organlarining vakolatlarini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF–5075-son Farmoni qabul qilindi. Farmonga asosan aholining real daromadlari, turmush darajasi va sifatini oshirish maqsadida hududlarni kompleks rivojlantirishni barqaror moliyalashtirilishini ta’minlash, markaz byudjetiga qaramlikni keskin kamaytirish, byudjetlararo munosabatlarni tubdan isloh qilish orqali mahalliy byudjetlar mablag‘larini boshqarishda joylardagi davlat hokimiyati organlarining mustaqil ish olib borishini kuchaytirish mamlakat byudjet siyosatining asosiy vazifalari etib belgilandi. O‘zbekiston

[60] O‘zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksi, 27-modda. O‘RQHT, 2014-y., 36-son, 452-modda

Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi 2017-yil 7-fevraldagi PF–4947-son va "Mahalliy byudjetlarni shakllantirishda joylardagi davlat hokimiyati organlarining vakolatlarini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2017-yil 7-iyundagi PF–5075-son farmonlarini ijro etish yuzasidan, shuningdek, mahalliy byudjetlarning daromadlar bazasini kengaytirish va yangi ijtimoiy loyihalarni amalga oshirish uchun qo'shimcha mablag'larni jalb qilish maqsadida Vazirlar Mahkamasi "Mahalliy byudjetlarning daromadlar bazasini kengaytirish zaxiralarini aniqlash ishlarini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2017-yil 29-iyunda 445-son qarori qabul qilindi. Qaror asosida moliya organlari va davlat soliq xizmati organlari, shuningdek, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining davlat byudjetiga tushumlarni ko'paytirishga va soliq solinadigan bazani kengaytirishga yo'naltirilgan ishlarini takomillashtirish borasidagi faoliyatini tartibga solish va o'zaro hamkorlik qilish tartibi to'g'risidagi Vaqtinchalik nizom qabul qilindi. Vaqtinchalik nizom doirasida Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining, viloyatlar, tumanlar (shaharlar) hokimlarining birinchi o'rinbosarlari davlat soliq xizmati, moliya organlari va boshqa tegishli mahalliy organlar hamda tijorat banklari bilan birgalikda har bir tuman (shahar)ning o'ziga xos xususiyati va salohiyatidan kelib chiqqan holda qo'shimcha manbalarni izlash va shu asosda mahalliy byudjet daromadlari bazasini kengaytirish yo'li bilan davlat byudjeti daromadlari parametrlarini so'zsiz bajarish bo'yicha faoliyat muvofiqlashtirilgan holda amalga oshirilishi ko'zda tutildi. Bu borada qabul qilingan keyingi me'yoriy-huquqiy hujjat O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 13-dekabrda PF–5283-son "Mahalliy davlat hokimiyati organlarining moliyaviy erkinligini oshirish, mahalliy byudjetlarga tushumlarning to'liqligini ta'minlash bo'yicha soliq va moliya organlari javobgarligini kuchaytirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni mahalliy byudjetlar darajasida soliq-byudjet siyosatining ustuvor vazifalarini belgilab berdi.

Mahalliy byudjetlarning daromadlari tizimini ikki guruhga, ya'ni mahalliy byudjetlarning biriktirilgan va tartibga soluvchi daromadlari tizimiga ajratish mumkin.

Biriktirilgan daromadlar – bu byudjet huquqi subyektiga tegishli mablag' bo'lib, doimiy asosda, qat'iy belgilangan ulushda yoki to'liqligicha tegishli byudjetga kelib tushuvchi mablag'lardir. Biriktirilgan daromadlar asosini mahalliy soliqlar va yig'imlar, qat'iy ulushda va doimiy asosda mahalliy byudjetlarga berilgan umumdavlat soliqlaridan o'tkazmalar tashkil etadi. Davlat mahalliy hukumat organlariga ularga biriktirilgan daromadlar va tushumlarni moliyaviy resurs sifatida, ularga biriktirilgan vazifalarni bajarish uchun taqdim etadi. O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksiga ko'ra, Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjetining, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlarining daromadlari tarkibi quyidagi rasmda keltirilgan.



10.2-rasm. **Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjetining, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlarining daromadlari tarkibi**[61]

[61] O'zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksi, 52-modda. O'RQHT, 2014-y., 36-son, 452-modda.

Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlarining boshqa daromadlari tarkibiga quyidagilar kiradi:

– Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjetiga, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlariga yo'naltiriladigan davlat daromadiga o'tkazilgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan tushgan tushumlar;

– belgilangan normativlar bo'yicha davlat aktivlarini joylashtirishdan, foydalanishga berishdan va sotishdan olingan daromadlar;

– davlat bojlari, yig'imlar, tovon pullari va jarima sanksiyalari, egasiz mol-mulkni, meros huquqi bo'yicha davlat ixtiyoriga o'tgan mol-mulkni, huquq bo'yicha davlat daromadiga o'tkazilishi lozim bo'lgan xazinalarni realizatsiya qilishdan tushgan tushumlar;

– mahalliy davlat hokimiyati organlarining ulushi bo'yicha dividendlar (daromadlar);

– qonunchilikka muvofiq boshqa daromadlar.

O'zbekiston Respublikasining respublika byudjetiga tushadigan ayrim soliqlar va boshqa daromadlar Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika byudjetiga, viloyatlarning viloyat byudjetlariga, Toshkent shahrining shahar byudjetiga qonunchilikda belgilangan miqdorlarda va tartibda taqsimlanishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasining respublika byudjetidan ajratiladigan byudjetlararo transfertlar Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika byudjetining viloyatlar, viloyat byudjetlarining va Toshkent shahri shahar byudjetining daromadlari hisoblanadi.

Byudjetlararo transfertlar – O'zbekiston Respublikasining respublika byudjetidan Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjetiga, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlariga, davlat maqsadli jamg'armalariga hamda buning aksicha o'tkaziladigan, shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika byudjetidan, viloyatlarning viloyat byudjetlaridan va Toshkent shahrining shahar byudjetidan tumanlar va shaharlar byudjetlariga hamda buning

aksicha o'tkaziladigan mablag'lar hisoblanib, ular subvensiyalar, o'tkazib beriladigan daromadlar, dotatsiyalar, byudjet ssudasi, o'zaro hisob-kitoblar bo'yicha mablag'lar, tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar va maqsadli ijtimoiy transfertlar shaklida amalga oshirilishi mumkin.

Ularning hajmlari joriy moliya yilida turli darajadagi byudjetlar daromadlari va xarajatlari o'zgarishiga sabab bo'luvchi qonun hujjatlari qabul qilinganda hamda tegishli barcha soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning to'liq tushishidan hamda byudjetdan ajratiladigan mablag'larning o'zlashtirilishidan kelib chiqqan holda aniqlanadi. Ta'kidlash lozimki, yuqori turuvchi moliya organi tashabbusi bilan yuqori turuvchi byudjet quyi turuvchi byudjet oldidagi byudjetlararo transfertning bir shakli bo'yicha majburiyatlari quyi turuvchi byudjetning yuqori turuvchi byudjet oldidagi byudjetlararo transfertining boshqa shakli bo'yicha majburiyatlarini kamaytirish evaziga hisobga olinishi mumkin.

Subvensiya – muayyan maqsadlarga sarflash sharti bilan yuqori turuvchi byudjetdan quyi turuvchi byudjetga qaytarmaslik sharti bilan ajratiladigan pul mablag'lari hisoblanadi va O'zbekiston Respublikasining respublika byudjetidan Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjetiga, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlariga beriladigan subvensiyalarning miqdorlari Davlat byudjeti to'g'risidagi qonun loyihasi qabul qilinayotganda belgilanadi. Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika byudjetidan, viloyatlarning viloyat byudjetlari va Toshkent shahrining shahar byudjetidan tumanlar va shaharlar byudjetlariga beriladigan subvensiyalarning miqdorlari Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari tomonidan Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari to'g'risidagi qarorlar qabul qilinayotganda belgilanadi. Foydalanilmagan subvensiyalar esa joriy moliya yili oxirida tegishli yuqori turuvchi byudjetga qaytarilishi zarur.

Dotatsiya – byudjet tizimi byudjetlariga ularning o‘z daromadlari yetishmagan taqdirda daromadlar bilan xarajatlar o‘rtasidagi farqni qoplash uchun qaytarmaslik sharti bilan ajratiladigan pul mablag‘lari hisoblanib, u quyi turuvchi byudjet xarajatlarining rejalashtirilgan hajmi subvensiyalar va o‘tkazib beriladigan daromadlar hisobga olingan holda mazkur byudjet daromadlarining prognoz qilingan hajmidan oshib ketgan taqdirda ajratiladi. O‘zbekiston Respublikasining respublika byudjetidan quyi turuvchi byudjetlarga ajratiladigan dotatsiya miqdori Davlat byudjeti to‘g‘risidagi qonun loyihasi qabul qilinayotganda, Qoraqalpog‘iston Respublikasining respublika byudjetidan, viloyatlarning viloyat byudjetlaridan va Toshkent shahrining shahar byudjetidan tumanlar va shaharlar byudjetlariga ajratilganda esa, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari tomonidan Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari to‘g‘risidagi qarorlar qabul qilinayotganda belgilanadi.

Byudjet ssudasi — qaytarish sharti bilan yuqori turuvchi byudjetdan quyi turuvchi byudjetga, shuningdek, davlat maqsadli jamg‘armalariga, rezident-yuridik shaxsga ajratiladigan pul mablag‘lari hisoblanadi. U byudjet manbalarining to‘liq safarbar qilinishi tegishli byudjetlarda nazarda tutilgan xarajatlar qoplanishini ta’minlamagan taqdirda, qaytarish sharti bilan foizsiz yoki foiz to‘lash sharti bilan beriladi. Byudjet ssudasi:

– bir moliya yilida prognoz qilingan daromadlar va rejalashtirilgan xarajatlar o‘rtasidagi rejali vaqtinchalik kassa uzilishini qoplash uchun – 9 oygacha bo‘lgan muddatga foizsiz asosda;

– daromadlar tushumlari va xarajatlarni amalga oshirish o‘rtasida kutilayotgan vaqtinchalik kassa uzilishlarini qoplash uchun – bir moliya yili ichida 6 oygacha bo‘lgan muddatga foizsiz asosda hamda bir moliya yilidan ortiq, ammo uch moliya yilidan ortiq bo‘lmagan muddatga yillik ikki foizli miqdorda beriladi.

Rejali byudjet ssudasi daromadlarning prognoz qilingan tushumlari, nazarda tutilgan byudjetlararo transfertlar, aylanma kassa mablag'laridan va yil boshidagi erkin qoldiqlardan vaqtinchalik mablag' jalb qilish, tegishli tasdiqlangan byudjetlarda nazarda tutilgan ayrim choraklardagi xarajatlarning qoplanishini ta'minlamagan hollarda beriladi.

Byudjet ssudasi yuqori byudjetlardan quyi byudjetlarga, ularning daromadlari hamda xarajatlari o'rtasidagi rejali yoki kutilayotgan vaqtinchalik kassa uzilishini qoplash uchun beriladi. Tegishli byudjetlarga daromadlar to'liq tushmagan yoki ularning moliya yili uchun tegishli byudjetlarda nazarda tutilgan xarajatlarni muddatidan oldin amalga oshirish zarurati yuzaga kelgan, tegishli byudjet daromadlari va xarajatlarini muvozanatlashtirish bo'lmagan taqdirda, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga, Qoraqalpog'iston Respublikasi Moliya vazirligiga, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining moliya boshqarmalariga yozma yoki elektron shaklda murojaat qilish byudjet ssudasi ajratilishi uchun asos bo'lishi mumkin. Ajratiladigan byudjet ssudalarining miqdorlari kelgusi moliya yili uchun alohida choraklardagi daromadlar va xarajatlar o'rtasida yuzaga keladigan rejali vaqtinchalik kassa uzilishini qoplash uchun tegishli byudjetning yillik rejali daromadlari hamda xarajatlari har chorakda qayta taqsimlanayotganda belgilanadi.

Byudjet ssudalarini berishning majburiy sharti ulardan belgilangan maqsadda foydalanish, shuningdek, byudjet ssudasini ajratish to'g'risidagi shartnomada belgilangan muddatga muvofiq ularni o'z vaqtida qoplashdan iboratdir. Byudjet ssudasi Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va tegishli hokimliklarning, davlat maqsadli jamg'armasini taqsimlovchi organ rahbarining byudjet ssudasiga bo'lgan ehtiyojni asoslovchi hisob-kitoblar ilova qilingan so'rovi asosida beriladi. Byudjet ssudasi olish to'g'risidagi so'rovda so'ralayotgan byudjet ssudasining miqdori va u so'ralayotgan davr, shuningdek, byudjet ssudasini qaytarishning kafolatlangan manbalari ko'rsatiladi.

Byudjet ssudalarini qaytarish muddatlari kelgusi moliya yiliga uzaytirilganda, byudjet ssudalarining qaytarilmagan qismidan yillik ikki foiz miqdorida to'lov belgilanadi va byudjet ssudalari qaysi tegishli byudjetlardan berilgan bo'lsa, o'sha byudjetlarga yo'naltiriladi. Byudjet ssudasini oluvchi tegishli moliya organiga byudjet ssudasini to'lash muddatini uzaytirish to'g'risidagi so'rov bilan uni to'lash muddati tugashidan kamida besh ish kuni oldin murojaat qiladi.

Tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar qaytarilmaslik sharti bilan Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari xarajatlarining tegishli daromadlar prognozlaridan oshgan qismini qoplash uchun beriladi. O'zbekiston Respublikasining respublika byudjetidan Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjetiga, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlariga, shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika byudjetidan, viloyatlarning viloyat byudjetlaridan va Toshkent shahrining shahar byudjetidan tumanlar va shaharlar byudjetlariga ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar miqdorlarini, quyi turuvchi byudjetlarning daromadlari prognozlarining ijrosidan qat'i nazar, kamaytirishga yo'l qo'yilmaydi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari balanslashtirilgan daromadlar va xarajatlarga ega bo'lishi lozim. Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari taqchilligiga yo'l qo'yilmaydi va ularni qabul qilish va ijro etishda quyidagilarga:

– mablag'lar jalb qilishni amalga oshirish (yuqori turuvchi byudjetlardan byudjet ssudalari olish bundan mustasno);

– tasdiqlangan byudjetdan ajratilgan mablag'lardan ortiq xarajatlarni amalga oshirish (qonunchilikda nazarda tutilgan hollar bundan mustasno);

– tegishli byudjetlar mablag'lari hisobidan boshqa yuridik va jismoniy shaxslar foydasiga moliyaviy kafolatlar va kafilliklar berish;

– Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika byudjetining, viloyatlar viloyat byudjetlarining, Toshkent shahri shahar byudjetining, shuningdek, tumanlar va shaharlar byudjetlarining mablag'lari hisobidan moliyalashtirish manbasi aniq bo'lmasdan boshlangan tadbirlarni moliyalashtirishga va (yoki) parallel loyihalashtirish, tender savdolarini o'tkazmasdan amalga oshirilgan qurish va ta'mirlash ishlarini moliyalashtirish;

– yuridik va jismoniy shaxslarga byudjet ssudalari va kredit liniyalari berishga yo'l qo'yilmaydi .

Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida mahalliy byudjetlarning ahamiyati ularning xarajatlar qismida yaqqolroq namoyon bo'ladi. Ma'lumki, bugungi kunda hududiy iqtisodiy va ijtimoiy infratuzilmani saqlash va rivojlantirish, aholiga turli ijtimoiy xizmatlarni taqdim etish, aholini ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, mahalliy boshqaruv organlarini saqlash kabi vakolatlar mahalliy hukumat organlari zimmasiga yuklatilgan. Bu vakolatlarni bajarish esa mahalliy byudjetlardan muayyan sarf-xarajatlar qilishni taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining 71-moddasiga muvofiq, Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika byudjeti, viloyatlarning viloyat byudjetlari va Toshkent shahrining shahar byudjetidan quyidagi xarajatlar amalga oshiriladi:

1) ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xarajatlari, shu jumladan:

– umumiy o'rta ta'lim, maktabdan tashqari ta'lim, pedagog kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash, boshqa yordamchi va uslubiy ta'lim muassasalarini saqlab turish xarajatlari;

– bolalar uylari, davlat bolalar shaharchalarini saqlab turish, qonun hujjatlarida Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika byudjetidan, viloyatlarning viloyat byudjetlari va Toshkent shahrining shahar byudjetidan moliyalashtirilishi nazarda tutilgan ta'lim tizimidagi yordamchi xizmatlar va maqsadli tadbirlar xarajatlari;

– Respublika shoshilinch tibbiy yordam markazi filialini, ko'p tarmoqli va ixtisoslashtirilgan tibbiyot markazlarini, ixtisoslashtirilgan

kasalxonalar va dispanserlarni, tug'ruqxonalar va akusherlik majmualarini, tibbiy tashxis qo'yish markazlarini hamda hududiy sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi boshqarmalarini, qon quyish xizmati va sud-tibbiyot ekspertizasi muassasalarini, Salomatlik va tibbiyot statistikasi instituti filialini, hududiy sog'liqni saqlashni boshqarish organlari tasarrufidagi boshqa davolash-profilaktika muassasalari va yordamchi tashkilotlarni, tibbiy-mehnat ekspert komissiyalarini saqlab turish, shuningdek, qonun hujjatlarida Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika byudjeti, viloyatlarning viloyat byudjetlari va Toshkent shahrining shahar byudjetidan moliyalashtirilishi nazarda tutilgan xizmatlarga haq to'lash xarajatlari;

– qabul qilingan davlat dasturlariga muvofiq fuqarolarning sog'lig'ini saqlash tadbirlarini amalga oshirish xarajatlari;

– hududiy madaniyat, jismoniy tarbiya va sportni boshqarish organlari tasarrufidagi madaniyat, jismoniy tarbiya va sport muassasalarini saqlab turish, shuningdek, madaniyat va sportni rivojlantirishga doir maqsadli tadbirlarni amalga oshirish xarajatlari;

– Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tasarrufidagi arxivlarni saqlab turish xarajatlari;

– Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tasarrufidagi qariyalar va nogironlarning internat-uylari, pansionatlari va sanatoriylari, nogironlarni reabilitatsiya qilish markazlarini, boshqa muassasalarni saqlab turish xarajatlari, shuningdek, aholini ijtimoiy muhofaza qilishga doir maqsadli tadbirlar xarajatlari;

– shahar yo'lovchilar transporti tashuvchilarining yo'lovchilarni va bagajni cheklangan tariflar bo'yicha tashish, shuningdek, alohida toifadagi fuqarolarni imtiyozli tashish xizmatlarini ko'rsatish bilan bog'liq zararlarning o'rnini qoplash xarajatlari;

– kam ta'minlangan oilalarga to'lanadigan ijtimoiy nafaqalar, moddiy yordam hamda tabiiy ofatlardan jabrlangan oilalarga moddiy yordam.

2) iqtisodiyot xarajatlari, shu jumladan:

– qishloq xo'jaligi tashkilotlarini saqlab turish, shu jumladan hayvonlar kasalliklariga qarshi kurashuvchi muassasalar xizmatlariga haq to'lash, yerlarni rekultivatsiya qilish ishlarini bajarish, shuningdek, suv xo'jaligi tashkilotlarini saqlab turish;

– uy-joy-kommunal xo'jaligi obyektlarida ta'mirlash ishlarini olib borish;

– suv yo'llarining ayrim texnik uchastkalarini saqlab turish;

– aholi punktlarini obodonlashtirish;

– issiqlik energiyasini ishlab chiqaruvchilarning aholiga ko'rsatilgan issiqlik ta'minoti xizmatlari uchun pasaytirilgan tariflarni qo'llash natijasida yuzaga keladigan zararlarining o'rnini qoplash xarajatlari;

– qonun hujjatlarida nazarda tutilgan o'rmon xo'jaligini, o'simliklar karantinini saqlab turish xarajatlari.

3) Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari buyurtmachi bo'lgan markazlashtirilgan investitsiyalarni moliyalashtirish xarajatlari.

4) mahalliy davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarini, shu jumladan:

– Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesini;

– Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, Qoraqalpog'iston Respublikasi vazirliklari, davlat qo'mitalari va idoralari, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, ularning boshqarmalari va bo'limlarini hamda Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika byudjeti, viloyatlarning viloyat byudjetlari va Toshkent shahrining shahar byudjeti mablag'lari hisobidan moliyalashtirilishi nazarda tutilgan davlat boshqaruvi organlarining boshqa hududiy bo'linmalarini saqlab turish xarajatlari.

5) Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika byudjetining, viloyatlar viloyat byudjetlarining va Toshkent shahri shahar byudjetining zaxira jamg'armalarini shakllantirish xarajatlari;

6) Davlat yoki jamoat ehtiyojlari uchun yer uchastkalarining olib qo'yilishi munosabati bilan, shuningdek, davlat organlarining yoki ushbu organlar mansabdor shaxslarining qonunga xilof harakatlari (harakatsizligi) natijasida yuridik va jismoniy shaxslarga yetkazilgan zararning o'rnini qoplash xarajatlari.

7) Harbiy-ma'muriy sektorga yuklatilgan tadbirlarni va vazifalarni amalga oshirish va hal qilish xarajatlari.

8) Davlat grantlari, subsidiyalar va ijtimoiy buyurtma shaklida nodavlat notijorat tashkilotlari hamda fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari faoliyatini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash xarajatlari.

9) Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika byudjetining, viloyatlar viloyat byudjetlarining va Toshkent shahri shahar byudjetining mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladigan tashkilotlar va tadbirlarning xarajatlari.

O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining 72-moddasiga muvofiq, tumanlar va shaharlar byudjetlaridan quyidagi xarajatlar amalga oshiriladi:

1. Ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xarajatlari, shu jumladan:

– tumanlar (shaharlar) xalq ta'limi bo'limlari va maktabgacha ta'lim bo'limlarini, shuningdek, ular tasarrufidagi maktabgacha ta'lim tashkilotlarini, umumiy o'rta ta'lim, maktabdan tashqari ta'lim muassasalarini saqlab turish hamda qonun hujjatlarida tumanlar va shaharlar byudjetlaridan moliyalashtirilishi nazarda tutilgan ta'lim tizimidagi tadbirlar xarajatlari;

– tuman tibbiyot birlashmalari, tuman markaziy poliklinikalari va koykasiz dispanserlar, tumanlar (shaharlar) tibbiyot birlashmalari tasarrufidagi davolash-profilaktika muassasalari, oilaviy poliklinikalar, qishloq vrachlik punktlarini, tuman (shahar) sanitariya-

epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi bo'limlarini saqlab turish xarajatlari;

– qabul qilingan davlat dasturlariga muvofiq fuqarolarning sog'lig'ini saqlash tadbirlarini amalga oshirish xarajatlari;

– tumanlar (shaharlar) madaniyat bo'limlari tasarrufidagi madaniyat muassasalarini, tumanlar (shaharlar) jismoniy tarbiya va sport bo'limlari tasarrufidagi jismoniy tarbiya va sport muassasalarini saqlab turish, shuningdek, madaniyatni, jismoniy tarbiya va sportni, bolalar musiqa va san'at maktablarini rivojlantirishga doir maqsadli tadbirlar xarajatlari;

– uyda ijtimoiy yordam ko'rsatish, Chernobil AES halokati oqibatlarini tugatishda ishtirok etgan shaxslarni va radiatsiya-yadro obyektlarida harbiy xizmatni o'tagan pensiya yoshidagi shaxslarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xarajatlari;

– kam ta'minlangan oilalarga ijtimoiy nafaqalar, moddiy yordam, shuningdek, tabiiy ofatlardan jabrlangan oilalarga moddiy yordam to'lash xarajatlari.

2. Iqtisodiyot xarajatlari, shu jumladan:

– tumanlar va shaharlar veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo'limlari, laboratoriyalarni, irrigatsiya tizimlarining havza boshqarmalari huzuridagi tumanlar irrigatsiya bo'limlarini saqlab turish;

– shaharlar va boshqa aholi punktlaridagi ko'chalarni, shuningdek, xo'jaliklararo qishloq avtomobil yo'llarini ta'mirlash;

– uy-joy-kommunal xo'jaligi obyektlarida ta'mirlash ishlarini olib borish;

– aholi punktlarini obodonlashtirish xarajatlari.

3. Tuman va shahar hokimliklarini hamda ularning bo'limlarini, shuningdek, tumanlar va shaharlar byudjetlari mablag'lari hisobidan moliyalashtirilishi nazarda tutilgan davlat boshqaruvi organlarining boshqa hududiy bo'linmalarini saqlab turish xarajatlari.

4. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarini saqlab turish xarajatlari.

5. Tumanlar va shaharlar byudjetlarining zaxira jamg'armalarini shakllantirish xarajatlari.

6. Boshqa xarajatlar, shu jumladan qonun hujjatlarida tumanlar va shaharlar byudjetlaridan moliyalashtirilishi nazarda tutilgan ayrim tashkilotlar va tadbirlarning xarajatlari.

10.3. Mahalliy hokimiyat organlarining mahalliy moliyani boshqarishdagi huquq va majburiyatlari

Hududlardagi ijtimoiy jarayonlarni boshqarish va tartibga solishda mahalliy davlat hokimiyati organlari alohida o'rin egallaydi. 1993-yil 2-sentyabrda qabul qilingan "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi № 913–XII-son O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq, "Viloyatlar, tumanlar va shaharlarda (tumanga bo'ysunadigan shaharlardan, shuningdek, shaharlar tarkibiga kiruvchi tumanlardan tashqari) xalq deputatlari Kengashlari davlat hokimiyatining vakillik organlari"[62] hisoblanadi. Xalq deputatlari Kengashi va hokim viloyat, tuman va shahar uchun umumiy bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish vazifalari amalga oshirilishini, joylarda qonunlar, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasi qabul qilgan hujjatlar, yuqori turuvchi xalq deputatlari Kengashlari va hokimlar qarorlarining ijrosini, O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari bilan fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari o'rtasidagi aloqalarni, aholini viloyat, tuman va shaharni boshqarishga jalb etishni ta'minlaydi. Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashi va viloyat, tuman, shahar hokimi tegishli hududda o'zini-o'zi boshqarishni rivojlantirishga ko'maklashish asosida o'zini-o'zi boshqarish organlarining faoliyatini yo'naltirib turadilar.

Mahalliy byudjetlarni shakllantirish hamda hududlar ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlashda mahalliy byudjetlardan

[62] "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi (02.09.93.) 913-XII-son O'zbekiston Respublikasi Qonuni, 1-modda.

foydalanish jarayonlari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksi, har moliyaviy yil uchun ishlab chiqiladigan va qabul qilinadigan O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risidagi qonunlari va boshqa qonun hujjatlari asosida belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga ko'ra, mahalliy hokimiyat organlari ixtiyoriga "mahalliy byudjetni shakllantirish va uni ijro etish, mahalliy soliqlar, yig'imlarni belgilash, byudjetdan tashqari jamg'armalarni hosil qilish"[63] vakolati berilgan. Shu bilan mahalliy hokimiyat organlarining byudjet sohasidagi faoliyatining konstitutsiyaviy asosi o'rnatilgan. Joylardagi mahalliy vakillik hokimiyati va ijro hokimiyati organlarining bu sohadagi vazifalari, vakolatlari turlicha bo'lib, ular avvalo "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunda belgilangan.

O'zbekistonda olib borilayotgan islohotlarning chuqurlashuvi mahalliy hokimiyat organlarining ularga tegishli hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi rolini yanada oshirib, moliya-byudjet sohasidagi huquqlarini kengaytirish va ularning moliyaviy bazasini mustahkamlashni talab qiladi. Mahalliy byudjetlarning salmog'i oshishi ustun ravishda xarajatlarning oshib borishi bilan bog'liq, ya'ni markaziy hokimiyat hududiy iqtisodiyotni rivojlantirish, ijtimoiy infratuzilmani saqlash, ishchi kuchini qayta tayyorlash bilan bog'liq vakolatlarni joylarga berib bormoqda. Mahalliy byudjetlardan davlat takror ishlab chiqarish jarayoniga ta'sir etishda keng foydalanmoqda, mahalliy boshqaruv organlari hududiy darajada davlatning maqsadga muvofiq vazifalarini tobora ko'proq bajarmoqda.

O'zbekiston Respublikasining "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 7-moddasiga muvofiq, "Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashi va viloyat, tuman, shahar hokimi faoliyatining iqtisodiy asosini ma'muriy-hududiy tuzilmalarning davlat mulki (kommunal mulk) hamda viloyat, tuman va shaharda mavjud bo'lib, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishga xizmat qiluvchi

[63] O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. O'R QHT, 2014 y., 16-son, 176-modda.

boshqa mulk tashkil etadi. Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashi va viloyat, tuman, shahar hokimi mutloq O'zbekiston Respublikasi mulkida bo'lgan davlat mulki obyektlariga nisbatan ishlab chiqarish va ijtimoiy obyektlarni samarali joylashtirish, tabiiy va mehnat resurslaridan oqilona foydalanish, atrof-muhitni muhofaza etish, aholini ijtimoiy himoya qilish sohasida nazoratni amalga oshiradilar. Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashi, viloyat, tuman, shahar hokimi o'zlari idora qilayotgan hududdagi mulkchilikning turli shakliga asoslangan korxonalar uchun O'zbekiston Respublikasining qonunlarida nazarda tutilmagan, tadbirkorlik va xo'jalik faoliyatini erkin yuritishga to'sqinlik qiladigan cheklovlarni joriy etishga haqli emaslar".

Yuqoridagi Qonunning 8-moddasiga muvofiq esa "Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashi davlat mulkini chegaralash natijasida o'ziga berilgan yoki qonunlarga muvofiq o'zi sotib olgan obyektlarga nisbatan mulkdor vakolatlarini to'liq amalga oshiradi. Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashining mol-mulki, mahalliy byudjetlarning mablag'lari va byudjetdan tashqari amg'armalarning mablag'lari viloyat, tuman, shahar mulkidir. Viloyat, tuman, shahar ahamiyatiga ega bo'lgan muhandislik infratuzilmasi obyektlari va boshqa obyektlar, korxona va birlashmalar, xalq ta'limi, sog'liqni saqlash, ijtimoiy ta'minot, fan va madaniyat muassasalari, viloyat, tuman, shahar mablag'lari hisobidan tashkil etilgan yoki sotib olingan, shuningdek, ulushbay asoslarda tashkil etilgan yoki sotib olingan yoxud xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashiga boshqa manbalardan bepul berilgan qimmatli qog'ozlar va moliya aktivlari viloyat, tuman, shahar mulki bo'lishi mumkin"[64].

Mahalliy byudjetlar orqali xalq ta'limi, sog'liqni saqlash, madaniyat va sport muassasalari, mahalliy hokimiyat boshqaruv

[64] "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunning 8-moddasi (O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 29-avgustdagi O'RQ-439-sonli Qonuni tahririda -O'R QHT, 2017-y., 35-son, 914-modda)

organlari, kam ta'minlangan oilalarga nafaqalar berish xarajatlari moliyalashtirib boriladi.

"Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunning 8^1-moddasida[65] Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashi byudjetdan tashqari jamg'armalar tashkil etishi mumkinligi belgilab qo'yilgan, ularga quyidagilar kiritiladi:

– fuqarolar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlarning (bundan byudjet tashkilotlari mustasno) ixtiyoriy badallari va xayriyalari;

– qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa byudjetdan tashqari mablag'lar.

Mahalliy hokimiyat organlari viloyat, tuman, shahar byudjetdan tashqari jamg'armalarining mablag'lari shaxsiy g'azna hisobvaraqlarida turadi, olib qo'yilmaydi hamda tegishli xalq deputatlari Kengashi va hokimning qaroriga ko'ra sarflanadi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, amaldagi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni 1993-yil 2-sentyabrda qabul qilingan bo'lib, mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatida yuzaga keladigan dolzarb muammolarni hal qilishda ijobiy rol o'ynadi. Shu bilan birga, ushbu qonun qabul qilingan davrdan beri markaziy va mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatining ham normativ-huquqiy, ham tashkiliy-amaliy jihatlari tubdan o'zgartirildi va qayta tashkil etildi. Shu sababli ushbu qonunga bir qator o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish va uni takomillashtirish zarurati yuzaga keldi. Yangi qonunning asosiy maqsadi mahalliy davlat hokimiyati organlari vakolatlarini O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va boshqa qonunlariga mos ravishda muvofiqlashtirishdan iborat. Umuman olganda, qonunga quyidagi yo'nalishlarda o'zgartish va qo'shimchalar kiritilgan:

– Mahalliy davlat hokimiyati organlarining asosiy vazifalari va vakolatlari;

[65] 8^1-modda O'zbekiston Respublikasining 2013-yil 27-dekabrdagi O'RQ-361-sonli Qonuniga asosan kiritilgan (O'R QHT, 2013 y., 52-son, 686-modda)

– Toshkent shahri va viloyat hokimlarining aholi tomonidan saylanishi tizimi;

– Mahalliy davlat hokimiyati organlarining moliyaviy imkoniyatlarini kengaytirish;

– Hokimlarning aholi oldida hisobdorligi va hokimlarning faoliyatini baholash;

– Xalq deputatlari tomonidan hokim, prokuror, sud raislari, ichki ishlar organlari rahbarlarining hisobotlari eshitilishi;

– Mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatining iqtisodiy asoslari, jumladan, hududning rivojlanish strategiyasi, mahalliy byudjet, fiskal nomarkazlashtirish mexanizmlarini joriy etish;

– Mahalliy davlat hokimiyati organlarining boshqa davlat organlari (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati, Vazirlar Mahkamasi, davlat boshqaruvi organlari, o'zini-o'zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari) bilan o'zaro munosabatlari.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining 4-bob, 27-moddasi bilan Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesining, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar Kengashlarining, 28-moddasi bilan Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining, viloyatlar va Toshkent shahar, túmanlar va shaharlar hokimlarining, 30-moddasi bilan esa' hududiy moliya organlarining byudjet sohasidagi vakolatlari belgilab qo'yilgan.

Kodeksning tegishli moddasiga ko'ra, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar Kengashlari[66]:

– Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjetini, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlarini, tumanlar va shaharlar byudjetlarini tegishincha Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar

[66] O'zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksi, 27-modda. O'RQHT, 2014 y., 36-son, 452-modda

Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar hokimlarining taqdimnomasiga muvofiq ko‘rib chiqadi va qabul qiladi;

– Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari, tumanlar va shaharlar byudjetlarining tegishli davrdagi ijrosi to‘g‘risidagi hisobotlarni tegishincha Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar hokimlarining taqdimnomasiga muvofiq har chorakda ko‘rib chiqadi va tasdiqlaydi;

– mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning stavkalarini qonun hujjatlarida belgilangan miqdorlar doirasida belgilaydi.

Byudjet kodeksining tegishli bob va moddalarida hududiy moliya organlarining byudjet sohasidagi vakolatlari (30-modda), mahalliy byudjetlarning daromadlari va xarajatlari tarkibi va ularning byudjet tizimi bo‘g‘inlari o‘rtasida taqsimlash tartiblari belgilab berilgan.

Xulosa qilib aytganda, keyingi yillarda byudjet amaliyotidagi o‘zgarishlar, O‘zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining qabul qilinishi, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi 913–XII-sonli Qonunga qator o‘zgartirishlar kiritilishi, har moliyaviy yil uchun O‘zbekiston Respublikasining davlat byudjeti to‘g‘risidagi Qonunlarida davlat byudjeti, ayniqsa uning tarkibidagi mahalliy byudjetlarning shakllanishi va ijro etilishi bo‘yicha norma va tartib-taomillarning o‘zgarishi bilan mahalliy byudjetlar amal qilishining huquqiy asoslari takomillashib bormoqda. Bu holatlar mahalliy byudjetlarning amal qilishini yangi sifat pog‘onasiga ko‘tardi va byudjet resurslarining chegaralanganligi sharoitida butun mamlakatni va uning alohida hududlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda davlat byudjetidan samarali foydalanish, barcha darajadagi byudjetlar daromadlarining barqarorligini va xarajatlarining oqilona ijrosini ta’minlash masalalariga yangicha talablarni qo‘ymoqda.

Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta’minlashda mahalliy byudjetlarning barqarorligini oshirish, mahalliy

hokimiyatlarning mahalliy byudjetlarning daromad bazalarini mustahkamlashga qaratilgan iqtisodiy dastaklarni ishlab chiqish, hududlarni rivojlantirishda mahalliy byudjetlar barqarorligini oshirishning boshqa dastaklaridan (masalan, hududiy investitsion dasturlarni moliyalashtirish, hudud taraqqiyotida mahalliy korxonalarning ishtiroki, kichik biznesning moliyaviy imkoniyatlari) foydalanish masalalari kompleks ravishda o'rganilmagan.

Shuningdek, mahalliy byudjetlarning daromadlari shakllanishi bilan bog'liq huquqiy asosni takomillashtirishda asosiy e'tiborni hududlarning iqtisodiy holatini yaxshilash va shu asosda ular byudjet potensialini mustahkamlashga qaratish kerak. Shundagina mahalliy byudjetlar daromadliligining barqaror bo'lishiga erishiladi.

2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha qabul qilingan Harakatlar strategiyasida ko'rsatilgan mahalliy byudjetlar moliyaviy barqarorligini ta'minlash uchun quyidagilarni amalga oshirish naqsadga muvofiq:

– iqtisodiyotning o'sish sur'atlarini 5-6 foiz darajasida ushlab turishga erishish;

– mahalliy byudjet daromadlarini shakllantirishda mahalliy hokimiyat organlarining mustaqilligini oshirish va soliqqa tortiladigan bazani kengaytirish hisobiga mahalliy byudjetlar daromadlari prognoz ko'rsatkichlarining oshishiga erishish;

– ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha davlat va hududiy dasturlar ijrosini ta'minlash, aholining bandlik darajasini va daromadlarini oshirish, chet davlatlar bilan o'zaro manfaatli hamkorlikni yo'lga qo'yish.

Hududiy iqtisodiyotni boshqarish va tartibga solishda, hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashda, har bir hududning ustuvor taraqqiyot vazifalarini muvaffaqiyatli bajarishda davlatning boshqa iqtisodiy dastaklari qatori, mahalliy byudjetlarning

shakllanish mexanizmlari ham muhim ahamiyat kasb etadi va doimiy takomillashtirib borishga muhtoj.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Mahalliy moliyaning ahamiyati nimalarda namoyon bo'ladi?
2. Mahalliy moliyaning tarkibiy qismlari qanday bo'g'inlarni o'z ichiga oladi?
3. Mahalliy byudjetlar mahalliy moliyada qanday o'ringa ega?
4. Mahalliy byudjetlarning shakllanish manbalari nimalardan iborat?
5. Mahalliy byudjetlarning biriktirilgan daromadlari tuzilmasi qanday tarkibdan iborat?
6. Mahalliy byudjetlar tartibga soluvchi daromadlari qanday tarkibdan iborat?
7. Byudjet transfertlarining tarkibi nimalardan iborat?
8. Byudjetlar balansliligini ta'minlashda byudjetlararo transfertlardan foydalanish deganda nima tushuniladi?

Mustaqil o'rganish uchun topshiriqlar

1. Mahalliy moliyaning moliyaviy resurslarining shakllanish manbalari va ishlatish yo'nalishlarini aks ettiruvchi klaster tayyorlang.
2. Mahalliy byudjetlar daromadlarining shakllanishi, taqsimlanishi va ishlatilishi to'g'risida tahliliy ish tayyorlang.
3. Mahalliy byudjetlar mablag'larining yo'nalishlarini tartibga solinishga xizmat qiluvchi umumiy va maxsus qabul qilingan me'yoriy hujjatlarning guruhlanishini aks ettiruvchi chizma tayyorlang.
4. Xorijiy mamlakat misolida mahalliy moliyaning ko'rsatkichlarini O'zbekiston Respublikasi mahalliy moliyasining ko'rsatkichlari bilan solishtirish asosida tahliliy ma'lumot tayyorlang.

11-BOB. DAVLAT KORXONALARI VA TASHKILOTLARI MOLIYASI

11.1. Davlat korxonalari to'g'risida tushuncha. Davlat korxonalarining tashkiliy shakllari

Iqtisodiyotda sodir bo'ladigan moliyaviy munosabatlar tarkibida korxonalar moliyasi boshlang'ich, hal qiluvchi o'rin egallaydi. Korxonalar moliyasi mamlakatda yaratiladigan moliyaviy resurslarning aksariyat qismini shakllantiruvchi iqtisodiyotning muhim bo'g'inidir.

Iqtisodiyot va ijtimoiy hayot sohalari ikki yirik sohadan iborat (11.1-rasm):

1. Moddiy ishlab chiqarish sohasi.
2. Nomoddiy ishlab chiqarish (yoki noishlab chiqarish) sohasi.



11.1-rasm. **Iqtisodiyot va ijtimoiy hayot sohalari**[67]

Moddiy ishlab chiqarish sohasida moddiy qiymatliklar yaratiladi, tovarlar ishlab chiqariladi, xizmatlar ko'rsatiladi, ishlar bajariladi. Noishlab chiqarish sohasida turli xizmatlar (maishiy, kommunal,

[67] Nurmuxamedova B. Kabirova N. Moliya. O'quv qo'llanma. T.: IQTISOD-MOLIYA. 2017. – 184-bet.

ijtimoiy, davlat boshqaruvi, mamlakat mudofaasi, davlat xavfsizligi, ichki ishlar xizmatlari) ko'rsatiladi.

Moddiy ishlab chiqarish sohasi korxonalarida va ularning bevosita ishtirokida quyidagi turdagi moliyaviy munosabatlar sodir bo'ladi (11.2-rasm), bu munosabatlar korxonalar moliyasining asosiy mazmunini tashkil qiladi.



11.2-rasm. **Moddiy ishlab chiqarish sohasi korxonalarida va ularning ishtirokida sodir bo'ladigan moliyaviy munosabatlarning guruhlanishi**

Moddiy ishlab chiqarish sohasi moliyasining qator o'ziga xos xususiyatlari mavjud:

– moddiy ishlab chiqarishda turli-tuman, ko'p qirrali moliyaviy munosabatlar yuz beradi, bunga turli mulk shakllarining mavjudligi, tarmoq xususiyatlari, tabiiy-iqlim sharoitlari kabi omillar ta'sir etadi;

– moddiy ishlab chiqarish sohasi moliyasi ishlab chiqarish fondlarining shakllanishi, doimiy to'lib borishi, yangilanishi va o'sishini ta'minlaydi;

– moddiy ishlab chiqarish korxonalari moliyasi mamlakat moliya tizimining boshlang'ich asosini tashkil qiladi;

– moddiy ishlab chiqarish moliyasi yuqori aktivlikka, xo'jalik yuritishning barcha tomonlariga ta'sir etishning keng imkoniyatlariga ega.

Barcha moddiy ishlab chiqarish korxonalari, shuningdek, noishlab chiqarish sohasi muassasa va tashkilotlarining bir qismi bozor iqtisodiyoti sharoitida tijorat hisobi asosida ish yuritadilar.

Korxonalar moliyasini tashkil qilishga quyidagi omillar ta'sir ko'rsatadi:

– xo'jalik yuritishning tashkiliy-huquqiy shakllari;

– tarmoq xususiyatlari.

Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish xo'jalik yuritishning turli tashkiliy-huquqiy shakllarini shakllantirdiki, buning natijasida turli mulkka asoslangan har xil turdagi korxonalar faoliyat olib bormoqda. Ular:

– tadbirkorlik faoliyatini olib borishda teng huquqqa egadirlar;

– ularga bozor qonunlariga bo'ysunishda bir xil talablar qo'yiladi.

Lekin ularning tashkiliy-huquqiy shakllaridagi farqlar ular moliyasini tashkil etishda o'ziga xos xususiyatlarning bo'lishini taqozo etadi, ya'ni:

– ustav kapitalini shakllantirish manbalari va tartibida;

– foyda (daromad)ning taqsimlanishida;

– moliya-bank tizimi bilan bo'ladigan munosabatlarida.

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga binoan mamlakatimizda xo'jalik yuritishning quyidagi turdagi tashkiliy-huquqiy shakllari mavjud:

– davlat korxonalari;

– xususiy korxonalar;

– aksiyadorlik jamiyatlari;
– mas'uliyati cheklangan va qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar;
– xo'jalik shirkatlari va sh.k.

Bundan tashqari, kichik biznes subyektlari, kasanachilik asosida faoliyat yurituvchilar, yakka tadbirkorlar ham bugungi kunda iqtisodiyotimizning hal qiluvchi bo'g'inlariga aylanib bormoqda.

Yuqorida sanab o'tilgan tashkiliy-huquqiy shakllardagi korxonalar haqidagi umumiy qoidalar, ularning vakolatlari, mulkiy munosabatlari, ustav kapitalining shakllanishi, moliya-xo'jalik faoliyati, bu faoliyat ustidan nazoratni tashkil qilish va shu kabi boshqa masalalar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006-yil 16-oktyabrdagi "Ustav fondida davlat ulushi bo'lgan korxonalarning samarali boshqarilishini va davlat mulkining zarur darajada hisobga olinishini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi 215-son qarori bilan tasdiqlangan "Davlat korxonalari to'g'risida"gi Nizom, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-maydagi "Davlat korxonalari va ustav kapitalida davlat ishtirok etayotgan tijorat banklarini restrukturizatsiya va isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori va boshqa me'yoriy hujjatlar bilan belgilab berilgan.

Davlat korxonalari – mulki to'liq yoki qisman davlatga qarashli bo'lgan mustaqil xo'jalik-moliyaviy faoliyat yurituvchi korxona va tashkilotlar. Davlat mulkiga asoslangan korxona va tashkilotlarning quyidagi shakllari mavjud: byudjet tashkilotlari; ulushida davlatning ishtiroki bo'lgan aralash mulkka asoslangan korxonalar, to'liq davlat unitar korxonalari.

Aksiyadorlik jamiyati – ko'rsatilgan nominal qiymatiga teng aksiyalarning muayyan miqdoriga bo'lingan ustav fondiga ega bo'lgan hamda majburiyatlari bo'yicha faqat o'z mol-mulki bilan javobgar bo'ladigan jamiyatdir. Aksiyadorlik jamiyati ochiq va yopiq turda bo'lishi mumkin.

Qatnashchilari o'zlariga tegishli aksiyalarini o'zga aksiyadorlarning roziligisiz boshqa shaxslarga berishi mumkin bo'lgan

aksiyadorlik jamiyati ochiq aksiyadorlik jamiyati deb hisoblanadi. Ochiq turdagi jamiyat o'zi chiqarayotgan aksiyalarga ochiq obuna o'tkazishga va qonun hujjatlarining talablarini hisobga olgan holda ularni erkin sotishga haqlidir. Ochiq turdagi jamiyat o'zi chiqarayotgan aksiyalarga yopiq obuna o'tkazishga haqli, jamiyat ustavida va qonun hujjatlarida yopiq obunani o'tkazish imkoniyati cheklab qo'yilgan hollar bundan mustasno. Ochiq turdagi jamiyat aksiyadorlarining soni chegaralanmaydi.

Aksiyalari faqat o'z muassislari yoki oldindan belgilangan doiradagi shaxslar orasida taqsimlanadigan aksiyadorlik jamiyati yopiq aksiyadorlik jamiyati deb hisoblanadi. Bunday jamiyat o'zi chiqarayotgan aksiyalarga ochiq obuna o'tkazishga yoxud ularni cheklanmagan doiradagi shaxslarga sotib olish uchun boshqacha tarzda taklif etishga haqli emas. Yopiq turdagi jamiyat aksiyadorlarining soni ellik nafardan ziyod bo'lishi mumkin emas. Belgilangan chegaradan ortib ketgan taqdirda u yopiq aksiyadorlik jamiyatlari uchun miqdori aksiyadorlarning chegaralangan limitidan ortib ketgan shaxslar aksiyadorlar reyestrida ro'yxatga olingan kundan e'tiboran olti oy ichida ochiq aksiyadorlik jamiyatiga aylantirilishi, ushbu muddat tugagach, sud tartibida tugatilishi lozim. Yopiq turdagi jamiyat aksiyadorlari ushbu jamiyatning boshqa aksiyadorlari sotayotgan aksiyalarni o'zga shaxsga taklif etilayotgan narxda sotib olishda imtiyozli huquqqa ega bo'ladilar. Agar aksiyadorlar aksiyalarni sotib olishda o'z imtiyozli huquqlaridan foydalanmasalar, jamiyat aksiyadorlar tomonidan sotiladigan aksiyalarni sotib olish uchun imtiyozli huquqqa ega bo'lishi uning ustavida ko'zda tutilishi mumkin.

2008-yilda O'zbekistonda aksiyadorlik jamiyatlari ustav fondining eng kam miqdori – jamiyat davlat tomonidan ro'yxatga olingan sanada Markaziy Bank kursi bo'yicha ekvivalenti kamida 400 ming AQSh dollariga teng summa tasdiqlangan (2008-yil 18-noyabrdagi PF–4053-son Farmonga asosan). Ushbu qiymat keyinchalik "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini

himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunning yangi tahririda mustahkamlangan.

Biroq Prezidentning 2017-yil 2-sentyabrdagi PF–5177-son Farmoni bilan belgilanishicha, jamiyatlarning ustav kapitaliga qo‘yiladigan minimal talablar faqat milliy valyutada belgilanadi. Shu sababli ustav fondining eng kam qiymati o‘sha paytda amal qilgan kurs bo‘yicha so‘mga qayta hisoblanib, qonunga o‘zgartirishlar kiritmagan holda 1600 mln. so‘m darajasida qayd etildi. Ushbu raqam “Tadbirkorlik subyektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish tartibi to‘g‘risida”gi yangi nizomda aks ettirildi va amalda qo‘llaniladigan bo‘ldi.

Endi esa aksiyadorlik jamiyati ustav fondining eng kam miqdorini 400 mln. so‘m miqdorigacha, ya’ni 4 baravar kamaytirishga qaror qilindi. Bu vaziyatda “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunga tuzatishlar kiritilishi zarur edi. Shu sababli Davlat raqobat qo‘mitasi, Loyiha boshqaruvi milliy agentligi, Iqtisodiyot vazirligi va Adliya vazirligiga 2018-yil 15-sentyabrgacha tegishli qonun loyihasini ishlab chiqish vazifasi topshirildi[68].

Mas’uliyati cheklangan jamiyat – miqdori ta’sis hujjatlarida belgilab beriladigan ulushlarga bo‘lingan ustav fondiga ega bo‘lgan hamda o‘z majburiyatlari yuzasidan o‘z mol-mulki doirasidagina javobgar bo‘lgan jamiyatdir, bunda jamiyat qatnashchilari qo‘shgan hissalari doirasida javobgar bo‘ladilar.

Qo‘shimcha mas’uliyatli jamiyat – miqdori ta’sis hujjatlarida belgilab beriladigan ulushlarga bo‘lingan ustav fondiga ega bo‘lgan jamiyat bo‘lib, uning mol-mulki kamlik qilgan taqdirda jamiyat qatnashchilari uning majburiyatlari yuzasidan o‘z mol-mulklari bilan ham, barcha qatnashchilar uchun teng miqdorda, qo‘shgan hissalariga monand summada javobgar bo‘ladilar.

Xo‘jalik shirkatlari – bu shaxslarning ixtiyoriy birlashmasi bo‘lib, unda qatnashchilar mulkiy badallar bilangina emas, balki

[68] Batafsil: https://www.norma.uz.

shaxsiy faoliyatlari bilan ham ishtirok etadilar. Xo'jalik shirkatlari to'liq va kommandit shirkatlarga bo'linadi.

To'liq shirkatlar – barcha qatnashchilari birgalikda tadbirkorlik faoliyati olib boradigan hamda shirkat majburiyatlari yuzasidan o'zlariga tegishli bor mol-mulki bilan birdamlikda javobgar bo'ladigan xo'jalik shirkatlaridir.

Kommandit (aralash) shirkatlar – shirkatning majburiyatlari yuzasidan o'zining butun mol-mulki bilan javobgar bo'lgan bir yoki bir necha qatnashchisi bilan bir qatorda, javobgarligi qo'shgan hissalar summasi doirasidagina cheklanadigan bir yoki bir necha qatnashchi (kommanditchi)lar ham bo'lgan xo'jalik shirkatidir.

Xususiy korxona – mulkdor yagona jismoniy shaxs tomonidan tuzilgan va boshqariladigan tijoratchi tashkilot xususiy korxona deb e'tirof etiladi[69].

11.2. Davlat korxonalari moliyasining mazmuni va o'ziga xos xususiyatlari

Korxonalar moliyasini tashkil qilishda korxonalar faoliyatining tarmoq xususiyatlari ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Iqtisodiyot sektorlari tuzilmalarining ular moliyasini tashkil etishga ta'sir etuvchi tarmoq xususiyatlari quyidagilardan iborat (11.3-rasmga qarang):

Mazkur xususiyatlar korxonalarning, moliyaviy resurslari tarkibining turlicha bo'lishiga, o'z mablag'lari bilan jalb qilingan va qarzga olingan mablag'lar o'rtasidagi nisbatlarning har xil bo'lishiga, asosiy va aylanma mablag'larning tarkibi va tuzilishiga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatadi.

"Korxonalar moliyasi – xo'jalik subyektlarining pul daromadlari va jamg'armalarini tashkil qilish va taqsimlash, ulardan moliyaviy majburiyatlarni bajarish, ishlab chiqarishni kengaytirish, xodimlar uchun ijtimoiy xizmatlarni amalga oshirish va moddiy rag'batlantirish

[69] O'zbekiston Respublikasining "Xususiy korxona to'g'risida"gi 69, 2003-yil 11-dekabr 558–II-son Qonuni. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 21.03.2019 y., 03/19/531/2799-son.

xarajatlarini moliyalashtirish maqsadlarida foydalanish bilan bog'liq bo'lgan pul munosabatlari tizimidir"[70].



11.3-rasm. **Iqtisodiyot sektorlari korxonalari moliyasini tashkil etishga ta'sir etuvchi tarmoq xususiyatlari**

Ma'lumki, bozor iqtisodiyoti sharoitida barcha moddiy ishlab chiqarish korxonalari tijorat hisobi asosida ish yuritadilar. *Tijorat hisobi* – xo'jalik faoliyati davomida amalga oshirilgan xarajatlarni va faoliyat natijalarini pul shaklida solishtirishga asoslangan xo'jalik yuritish usuli bo'lib, uning maqsadi eng kam xarajat qilib maksimum darajada foyda olish hisoblanadi. Tijorat hisobi tadbirkorlik faoliyatini davom ettirish va kengaytirish maqsadida so'zsiz foyda olish va yetarli rentabellik darajasiga erishishni nazarda tutadi.

Tijorat siri – korxona uchun o'zining raqobatchilari oldida ustunlikka erishish va maksimum foyda olish uchun xizmat qiladigan har qanday konfidensial boshqaruv, iqtisodiy, ishlab chiqarish, ilmiy-texnik, savdo, moliyaviy va boshqa turdagi axborot. Tijorat hisobi asosida va tijorat sirining ta'siri sharoitida xo'jalik faoliyatini yuritish korxonalar moliyasini tashkil qilishga ham o'z ta'sirini o'tkazadi. Tijorat hisobi asosida ish yurituvchi korxonalar moliyasining o'ziga xos xususiyatlari quyidagi chizmada aks ettirilgan (11.4-rasm):

[70] Nurmuxamedova B. Kabirova N. Moliya. O'quv qo'llanma. T.: IQTISOD-MOLIYA. 2017. – 186-bet.



11.4-rasm. **Tijorat hisobi asosida faoliyat yurituvchi korxonalar moliyasining xususiyatlari**[71]

Bozor iqtisodiyoti sharoitida tadbirkorlik faoliyati bilan mulkdorning o'zi yoki uning nomidan u yollagan shaxs shug'ullanishi mumkin. Korxonalarning aksariyat ko'pchiligida (masalan, aksiyadorlik jamiyati) mulkka egalik korxonani bevosita boshqarishdan ajralgan holda bo'ladi. Yirik korxonalarda esa tadbirkorlik (umumiy iqtisodiy boshqaruv) jarayonida moliyaviy boshqaruv alohida vazifa sifatida ajralib chiqadi va tegishli xodimlar tomonidan amalga oshiriladi. Kichik korxonalarda esa moliyaviy boshqaruv umumiy boshqaruvdan ajralmagan holda olib boriladi.

Moliyaviy boshqaruv alohida xodim zimmasiga yuklanganda korxona bilan mazkur xodim o'rtasidagi munosabatlar shartnomaviy negizda yo'lga qo'yiladi.

Mulk egasi o'zi mustaqil ravishda tadbirkorlik bilan shug'ullanganda uning zimmasida quyidagi vazifalar vujudga keladi:

– yangi g'oyalarni topish va ularni baholash;

[71] Nurmuxamedova B. Kabirova N. Moliya. O'quv qo'llanma. T.: IQTISOD-MOLIYA. 2017. – 193-bet.

– biznes-rejani tuzish;
– mablag‘ yoki investitsiya manbasini topish;
– tuzilgan korxonani boshqarish.



11.5-rasm. **Mulkdor – tadbirkor – moliyaviy menejer aloqadorligi**[72]

Yuqorida sanab o‘tilgan vazifalarni bajarishda moliyaviy menejmentni qo‘llash zarur, chunki bu vazifalar moliyaviy faoliyat bilan chambarchas bog‘liq. Bu holda moliyaviy menejmentning zarurligi quyidagi omillar asosida yuzaga keladi:

– o‘zini-o‘zi moliyalashtirishning zarurligi;
– bozordagi baholar ta’sirini o‘rganish;
– mehnat bozorini o‘rganish lozimligi;
– pul bozoridagi o‘zgarishlarni hisobga olish;

[72] Yuldashev A. Sirojiddinov I. Xusainov M. Moliyaviy menejment. T.: «Voris-Nashriyot». – 2016. – 19-bet.

– korxonaning davlat oldidagi majburiyatlarini tartibga soluvchi qonunchilik hujjatlari talablarini bajarish.

Tadbirkor bilan mulkdor o'z faoliyatini bir-biridan ajralgan holda olib borganda mulkdor bilan tadbirkor (menejer) o'rtasida tegishli shartnoma tuzilib, mulkni boshqarish huquqlari va ularga muvofiq majburiyatlar tadbirkor zimmasiga o'tadi.

Tadbirkor korxona faoliyatidagi barcha muammo va masalalarni mustaqil hal etadi va amal qilayotgan qonunlarga asoslangan holda korxonaning nizomiga muvofiq faoliyat ko'rsatadi.

Tadbirkorlarning quyidagi huquqlari mavjud:

– banklarda hisobraqami va valyuta hisobraqamlarini ochish;

– har xil bitimlar va shartnomalar tuzish (mehnat shartnomasini ham);

– korxona va firma pul mablag'larini tasarruf qilish, xarajatlarni qoplash va resurslar xarid qilish uchun foydalanish;

– korxona nomidan iqtisodiy huquqiy va ma'muriy faoliyatni olib borish;

– korxona, firmani boshqarish va boshqalar.

Tadbirkorlikni yuritishdagi asosiy majburiyatlar quyidagilardir:

– ishni tashkil etish va boshqarish hamda korxonada, bo'limlar ichidagi samarali aloqalarni tashkil etish;

– joriy va strategik reja topshiriqlarning bajarilishini tashkil etish;

– korxonaning to'lov qobiliyati va likvidligini ta'minlash;

– korxonani moliya-xo'jalik faoliyati hisobotlarini tuzib chiqish va uni tegishli tashkilotlarga taqdim etish;

– korxona faoliyatini qonun doirasida yuritish;

– tijorat sirlarini saqlash va korxona faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlarni boshqalarga bermaslik;

– moliya, soliq va bank organlariga buxgalteriya, moliyaviy hisobotlarni o'z vaqtida topshirish;

– O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi asosida soliq majburiyatlarni bajarib borish;

– boshqa majburiyatlarni, korxona nizomidagi bandlarni to'la bajarish hamda bitim va shartnomalardan kelib chiqadigan majburiyatlarni bajarib borish.

Tadbirkor o'zining vazifalarini bajarish jarayonida korxona faoliyatiga qasddan moddiy zarar yetkazgan taqdirda, belgilangan tartibda keltirilgan zararni qoplashi lozim.

Biznes va tadbirkorlikning, turli mulkka asoslangan korxonalarning taraqqiyoti va ulardagi moliyaviy munosabatlarni takomillashtirish o'zaro bog'liq muammolardandir. Iqtisodiyotning turli mulk va xo'jalik yuritish shakllaridan keng foydalanishga o'tishi, xususiy tadbirkorlik va kichik biznesning taraqqiyoti bilan moliya munosabatlari ham bozor talablari asosida rivojlanishi uchun muhim turtki bo'ldi. Shu bilan birga, moliya munosabatlari korxonalar taraqqiyotini rag'batlantirishning muhim dastaklariga egadir. Bu narsa shu bilan bog'liqki, korxonalarda mukammal taqsimot tizimining yaratilishi natijasida markazlashgan va rezerv fondlarining tashkil etilishi orqali kengaytirilgan takror ishlab chiqarish imkoniyatlarining yanada mustahkamlanishiga erishish hamda turli soliq imtiyozlarining qo'llanilishi asosida korxonalar kelgusi taraqqiyoti uchun qulay iqtisodiy sharoitlar yaratiladi.

11.3. Davlat korxonalarining moliyaviy resurslari

Ma'lumki, har qanday xo'jalik yurituvchi subyekt raqobatbardoshligiga uning moliyaviy resurslari harakatini samarali boshqarish orqali erishiladi. Moliyaviy resurslarning shakllanishi va ishlatilishi mexanizmi ularning mohiyatini tushunib olishni, amaliyotda moliyaviy menejment uslublari va ko'rsatmalaridan, shu jumladan moliyaviy tahlil, prognozlar tuzish va rejalashtirish kabi vositalardan foydalanishni talab etadi. Shu jihatdan qaraganda, korxonalar moliyaviy resurslari mohiyatini o'rganish va ularning yanada samaraliroq harakatini tashkil etish yo'llarini qidirib topish xo'jalik amaliyoti nazariyasi uchun dolzarb ahamiyatga ega.

"Moliyaviy resurslar" tushunchasini talqin etishda uning ichki mohiyatini, korxona mablag'lari doiraviy aylanishi jarayonidagi ahamiyatini hamda unga xos funksiyalarni ajratib ko'rsatish lozim.

Korxona moliyaviy resurslari – kengaytirilgan takror ishlab chiqarish yuzasidan xarajatlarni amalga oshirishga, moliya-kredit tizimi oldidagi majburiyatlarni bajarishga hamda xodimlarni moddiy rag'batlantirishga qaratilgan pul daromadlari va jamg'armalaridir.

Moliyaviy resurslar kengaytirilgan takror ishlab chiqarish ehtiyojlarini moliyaviy ta'minlashga qaratilgan pul mablag'larining bir qismidir.

Korxonalar moliyasi tizimida tadbirkorlik kapitali degan tushuncha ham mavjud bo'lib, u korxona aylanmasiga solingan va ushbu aylanmadan daromad keltiruvchi pul yoki "o'z-o'zidan o'suvchi qiymat"dir.

Shunday qilib, korxona moliyaviy menejmentida boshqarish obyekti sifatida nafaqat moliyaviy resurslar, balki aylanma va aylanmadan tashqari mablag'lar ham maydonga chiqadi. Moliyaviy resurslarni tashkil etish ularni boshqarish samaradorligini oshirish muammolari ichida belgilovchi o'rinni egallaydi.

Moliyaviy resurslarni tashkil etishning asosiy tamoyillariga quyidagilar kiradi:

– moliyaviy resurlar tarkibi va tuzilishi;
– moliyaviy resurslarning tashkil topish manbalari;
– moliyaviy resurslardan maqsadli foydalanish;
– moliyaviy resurslar saqlanishini ta'minlash.

Moliyaviy resurslar tarkibi va tuzilishi iqtisodiyotning turli tarmoqlari va sohalari korxonalarida bir-biridan farq qiladi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, moliyaviy resurslar ikki shaklda: fondlar tashkil etish orqali va fond tashkil etmasdan ishlatilishi mumkin. Moliyaviy resurslar tashkil topishi va ishlatilishining birinchi shakli moliyaviy fondlar tashkil etilishining to'laligi, o'z vaqtidaligi va maqsadli ishlatilishini nazorat qilish nuqtayi nazaridan qulaydir.

Ikkinchi shakl esa – moliyaviy resurslarning muhim xususiyati bo'lmish harakatchanlikni ta'minlaydi.

Korxonalarda mahsulot (ish, xizmat) sotishdan tushumning taqsimlanishida birlamchi moliyaviy resurslar (amortizatsiya fondi, foyda va boshqalar) shakllanadi. Ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish zarurligi tufayli moliyaviy resurslar qayta taqsimlanadi: ularning ma'lum qismi byudjet va byudjetdan tashqari fondlarga ajratiladi. Umumdavlat moliyaviy resurslari, o'z navbatida, qayta taqsimlanadi va ularning ma'lum qismi korxonalar ixtiyoriga kelib tushadi.

Moliyaviy resurslarning tashkil topish manbalari turli-tuman bo'lib, korxonaning ishlab chiqarish, investitsion va moliyaviy faoliyati ko'lamlariga bog'liq. Korxona moliyaviy resurslarining tashkil topish manbalari umumlashgan tarzda chizmada aks ettirilgan (11.6-rasm).



11.6-rasm. **Korxonalar moliyaviy resurslari tarkibi**[73]

Korxona nizom jamg'armasining tashkil topish manbaiga xo'jalik yuritishning tashkiliy-huquqiy shakllariga ko'ra quyidagilar kiradi: shaxsiy (oilaviy) jamg'armalar (xususiy korxona uchun); hissadorlik kapitali; shirkatlar yoki mas'uliyati cheklangan jamiyatlar a'zolarining pay badallari; jismoniy shaxslarning shaxsiy mablag'lari.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida moliyaviy resurslarning saqlanishi va maqsadli ishlatilishini nazorat qilish muammosi mulk egalari

[73] Nurmuxamedova B. Kabirova N. Moliya. O'quv qo'llanma. T.: IQTISOD-MOLIYA. 2017. – 195-bet.

manfaatlari himoya etilishini ta'minlash bilan bog'liq. Shu nuqtayi nazardan moliyaviy resurslarni tashkil etish korxonada moliyaviy menejmentning bosh masalalaridan biridir.

Bozor munosabatlarining taraqqiyoti sharoitida korxonalarning samarali faoliyatiga ularning ixtiyorida yetarli miqdordagi moliyaviy resurslarsiz erishib bo'lmaydi. Korxonalarda moliyaviy resurslarning yetarliligi – uning hamkor sifatida mol yetkazib beruvchilar bilan munosabatlarida to'lovga layoqatliligi garovi hamda xaridorlar oldida majburiyatlarini o'z vaqtida bajarish, byudjetga va byudjetdan tashqari fondlarga to'lovlarning va kreditlarning o'z vaqtida qaytarilishini ta'minlash kafolatidir.

Darhaqiqat, moliyaviy resurslarning tashkil topish shakllari va usullari (daromadlar va tushumlar) ulardan foydalanish shakllari va usullari (pul mablag'lari fondlari) singari, korxona moliyaviy resurslari o'sishi uchun bir xilda muhim ahamiyatga ega. Biroq pul mablag'lari fondlari – korxona moliyaviy resurslarini ishlatishning yagona yo'nalishi emas. Ularning bir qismi mazkur fondlar doiraviy aylanishining uzluksizligini ta'minlashga xizmat qiladi. Bundan tashqari, moliyaviy resurslar butunlay ishlatilmasligi yoki fondlar tashkil qilinmasdan ham ishlatilishi mumkin. Mahsulot yuklab jo'natish bo'yicha sotish operatsiyasini buxgalteriya hisobida aks ettiruvchi korxonalar moliyaviy resurslarning muhim manbai bo'lgan foydaga ega bo'lishlari mumkin, biroq bu hali korxonaning byudjetga, byudjetdan tashqari fondlarga, mol yetkazib beruvchilarga to'lovlarining o'z vaqtida o'tkazilishini kafolatlamaydi.

Shunga alohida e'tibor berish lozimki, rivojlangan bozor iqtisodiyoti mamlakatlarida "pul mablag'lari" tushunchasi ostida korxonaning bevosita uning kassasi va bank hisob raqamlaridagi pul mablag'lari hamda qimmatli qog'ozlarda ifodalanuvchi qisqa muddatli yuqori likvid sarmoyalar sifatidagi pul ekvivalentlari tushuniladi. Albatta, moliya bozorining rivojlanib borishi bilan bizning mamlakatimiz iqtisodiyotida ham qimmatli qog'ozlarning qisqa muddatli va yuqori likvid turlari o'z o'rnini egallaydi. Qimmatli

qog'ozlar bozorining rivojlanishi korxonalar moliyaviy resurslarining shakllanishida muhim ahamiyatga ega. Biroq asosiy muammo korxonalarning qimmatli qog'ozlar bozoridagi faol ishtirokini ta'minlashdadir.

Moliyaviy resurslarning dastlabki shakllanishi korxona ta'sischilari tomonidan uning ustav kapitali tashkil etilayotgan vaqtga to'g'ri keladi. Korxona ustav kapitalining tashkil topish manbaiga xo'jalik yuritishning tashkiliy-huquqiy shakllariga ko'ra quyidagilar kiradi:

– shaxsiy (oilaviy) jamg'armalar (xususiy korxona uchun);
– aksiyadorlik kapitali;
– shirkatlar yoki mas'uliyati cheklangan jamiyatlar a'zolarining pay badallari;
– jismoniy shaxslarning shaxsiy mablag'lari.

Korxonaning ustav kapitali korxona boshlang'ich aktivlarining (asosiy fondlar va aylanma mablag'lar) shakllanishiga qanday mablag'lar ishlatilishini va ishlab chiqarishga sarmoyalar jalb qilinishini ko'rsatadi.

Moliyaviy resurslarning asosiy qismi, ayniqsa, yangi tashkil etilayotgan korxonada moliya bozoridan jalb qilinishi mumkin. Moliya bozoridan mablag'larni jalb qilish shakllariga korxona chiqargan aksiyalar, obligatsiyalar va qimmatli qog'ozlarning boshqa turlarini sotish kiradi.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonada moliyaviy resurslar takror ishlab chiqarish jarayonida tashkil topadi, ularning shakllanish manbai – mahsulot sotishdan kelgan tushum yoki tushumni taqsimlash jarayonida pul daromadlari va jamg'armalari shaklini oladigan sotishdan olingan daromad hisoblanadi.

Shuningdek, ishlab turgan korxonalarda moliyaviy resurslar asosiy va asosiy bo'lmagan faoliyat turlaridan olingan foyda hisobiga hamda amortizatsiya ajratmalari hisobiga shakllanadi.

Amortizatsiyaning ahamiyati korxona asosiy fondlarini oddiy takror ishlab chiqarish bilangina cheklanib qolmaydi. Hisoblangan va

korxona hisobiga olingan amortizatsiya eskirgan asosiy fondlar almashtirilgunga qadar korxonaning vaqtincha bo'sh pul mablag'i hisoblanadi va moliyaviy resurslarning qo'shimcha manbaini tashkil etadi. Lekin hozirgi zamon xo'jalik amaliyoti amortizatsiya fondini asosiy fondlarni takror ishlab chiqarishning maqsadli manbai deb emas, balki harakatchan moliyaviy resurslar elementi sifatida talqin etmoqda.

Bundan tashqari korxonalardagi moliyaviy resurslar manbalariga quyidagilar kiradi:

– hisobdan chiqarilgan mulkni sotishdan kelgan tushum;

– barqaror passivlar (barqaror qarz);

– turli maqsadli tushumlar (masalan, korxona balansidagi uy-joy va kommunal xo'jaligidan tushgan mablag'lar, ota-onalardan maktabgacha bolalar muassasalarini saqlash uchun to'lovlar);

– qurilishdagi ichki resurslarni jalb etish;

– boshqa manbalar.

Moliyaviy resurslarning ishlatilishi qator yo'nalishlar bo'yicha olib boriladi, ularning asosiylari quyidagilar:

– moliya-bank tizimiga to'lovlar (soliq va to'lovlar, kredit uchun foiz to'lovlari, kreditning qaytarilishi, sug'urta to'lovlari);

– korxona o'z mablag'larining ishlab chiqarishni kengaytirish, texnik qayta qurollantirish bilan bog'liq kapital xarajatlarga investitsiya qilinishi;

– mablag'larning qimmatli qog'ozlarga investitsiya qilinishi;

– moddiy rag'batlantirish va ijtimoiy-madaniy maqsadlardagi fondlarning tashkil etilishi;

– xayr-ehson maqsadlarida ishlatish va boshqalar.

Korxonalarda ishlab chiqarish jarayonining moddiy-texnik asosini asosiy ishlab chiqarish fondlari tashkil qiladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida asosiy fondlarning dastlabki shakllanishi, faoliyat qilishi va kengaytirilgan takror ishlab chiqarilishi bevosita moliyaning ishtirokida amalga oshiriladi.

Dastlab tashkil etilayotgan korxonalarda asosiy fondlarning dastlabki shakllanishi korxona ustav kapitalining bir qismi – asosiy kapital hisobidan amalga oshiriladi. Asosiy capital – bu ishlab chiqarish va noishlab chiqarish maqsadlaridagi asosiy fondlarga investitsiyalangan pul mablag'lari.

Asosiy kapital ilk bor korxona ishga tushgan paytida miqdor jihatdan asosiy fondlar qiymatiga teng bo'ladi. Vaqt o'tishi bilan asosiy fondlar ishlab chiqarish jarayonida qatnashadi va ularning qiymati ikkiga ajraladi. Asosiy fondlar qiymatining bir qismi eskirish summasi sifatida mahsulot tannarxiga qo'shiladi va uning sotilishi bilan tushumdan amortizatsiya ajratmalari sifatida amortizatsiya fondiga kelib tushadi, qolgan qismi asosiy fondlarning qoldiq qiymati shaklida hisobga olinadi. Amortizatsiya fondida to'plangan mablag'lar asosiy fondlar qiymatining oddiy takror ishlab chiqarilishida ishtirok etadi. Shu tariqa asosiy fondlarga avanslangan qiymatning doiraviy aylanishi sodir bo'ladi.

Amortizatsiya fondining miqdori har yili asosiy fondlarning balans qiymatini amortizatsiya me'yoriga ko'paytirish yo'li bilan aniqlanadi. Iqtisodiy jihatdan asoslangan amortizatsiya me'yorlari katta iqtisodiy ahamiyatga ega, bir tomondan, ular ekspluatatsiyadan chiqayotgan asosiy fondlar qiymatining to'liq qoplanishini ta'minlasa, ikkinchidan, mahsulotning haqiqiy tannarxini hisoblash imkonini beradi, chunki amortizatsiya ajratmalari tannarxning asosiy tarkibiy elementi hisoblanadi.

Lekin asosiy fondlarning kengaytirilgan takror ishlab chiqarilishini faqatgina amortizatsiya ajratmalari hisobidan ta'minlab bo'lmaydi, chunki amortizatsiya fondi asosiy fondlarning asosan oddiy takror ishlab chiqarilishiga xizmat qiladi. Asosiy vositalarning to'liq tiklanishiga kapital qo'yilmalar quyidagi manbalardan safarbar etiladi:

- foyda va korxonaning boshqa o'z mablag'lari;
- aksiyadorlik yoki ulushli kapital;
- uzoq muddatli investitsion kreditlar;

- byudjet ajratmalari;
- byudjetdan tashqari fondlarning mablag'lari;
- lizing.



11.7-rasm. **Korxonalarda asosiy fondlar qiymatining doiraviy aylanishida moliyaning o'rni**[74]

Rasmda korxonalarda asosiy fondlar qiymatining doiraviy aylanishi aks ettirilgan bo'lib (11.7-rasmga qarang), asosiy fondlarning to'liq tiklanishida moliyaning o'rnini ilg'ab olish qiyin emas.

11.4. Davlat korxonalarida foyda, uning shakllanishi, taqsimlanishi va ishlatilishi

Korxonalar o'z nizomi va qonunchilik doirasida xo'jalik faoliyatini olib borishda bozor muhitining xo'jalik-operativ mustaqillik, xarajatlarning qiyosiy tahlili va natijalarning olinishi, korxona ishlab chiqarish-moliyaviy natijalariga moddiy manfaatdorlik

[74] Nurmuxamedova B. Kabirova N. Moliya. O'quv qo'llanma. T.: IQTISOD-MOLIYA. 2017. – 200-bet.

va javobgarlik kabi tamoyillarga asoslanadi. Aynan mana shuning uchun korxonalar foydasini taqsimlash tizimi quyidagi asosiy talablarga javob berishi lozim:

– birinchidan, korxona kelgusi taraqqiyoti va imkoniyatlarini takror ishlab chiqarish uchun muhim resurslar hamda jamg'arish va iste'mol fondining shakllanishida zarur ehtiyojlarni moliyalashtirishning barqaror manbai yaratilishi zarur;

– ikkinchidan, mehnat jamoasi a'zolari uchun taqsimlanadigan foydaning shunday hajmi ta'minlanishi lozimki, buning natijasida jamoa a'zolarining ishlab chiqarishdagi ishtirokidan manfaatdorligini qo'llab-quvvatlash uchun mablag' yetarli bo'lsin.

Foyda sifatida qo'shilgan qiymatning mahsulot sotish, ishlar bajarish va xizmatlar ko'rsatish natijasida yaratilgan qismigina maydonga chiqishi mumkin. Boshqa aktivlarni sotishdan, moliyaviy operatsiyalardan tushumlar va boshqa tushumlar korxona daromadini tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida soliq bazasi qilib olinayotgan foyda sifatida yalpi foyda ilgari surilgan, uning tarkibiga mahsulot (ish, xizmat)ni sotishdan olingan foyda, asosiy fondlar va boshqa aktivlarni sotishdan olingan foyda, realizatsiyadan tashqari foyda va zararlar hamda favqulodda foyda va zararlar kiritilishi ta'kidlangan, yalpi foyda tarkibiga foyda va daromadlarning kiritilishi bu tushunchalarni chalkashtirib yuborishga olib keldi. Buning natijasida asosiy faoliyatdagi mahsulot sotishdan olingan foyda bilan asosiy fondlar va ko'chmas mulkni sotish hisobiga kapitalning o'sishi tushunchalari bir-biriga aralashib ketgan. Rivojlangan davlatlar amaliyotida ushbu tushunchalar farqlanadi va turli stavkalarda soliqqa tortiladi.

Foydaning taqsimlanishi jarayonini o'rganishda asosiy hujjat O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2002-yil 27-dekabrdagi 140-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot" (2-shakl) hisoblanadi. Ushbu hisobot nafaqat

korxonaning asosiy va qo'shimcha faoliyatidan olingan buxgalteriya foydasining umumiy qiymatini, balki sof foydani ham aks ettiradi.

Korxonalarda foydaning taqsimlanishini quyidagi shartli chizma asosida ko'rib chiqamiz (11.8-rasm). Mazkur rasmdan ko'rinishicha, soliq to'langunga qadar bo'lgan korxona foydasi uch xil yo'nalishda taqsimlanadi:

1) birinchi navbatdagi to'lovlar;
2) taqsimlanishi lozim bo'lgan foyda;
3) taqsimlanmagan foyda.



11.8-rasm. **Soliq to'langunga qadar bo'lgan korxona foydasining taqsimlanishi**[75]

Buxgalteriya hisobidagi foydaning umumiy qiymati va birinchi navbatdagi to'lovlar farqi korxonaning sof foydasini tashkil etadi. Birinchi navbatdagi to'lovlar tarkibiga byudjetga soliqlar, bank kreditlari uchun va boshqa qarzlar uchun foizlar, chiqarilgan obligatsiyalar uchun foizlar, boshqa to'lovlar kiradi.

Korxona sof foydasi ikki yo'nalish bo'yicha taqsimlanadi:

a) taqsimlanishi lozim bo'lgan foydaga, ya'ni dividendlar to'lash uchun ajratiladigan to'lovlarga;

[75] Nurmuxamedova B., Kabirova N. "Moliya", O'quv qo'llanma. T:, "IQTISOD-MOLIYA", 2017. 203-b.

b) taqsimlanmagan foydaga, ya'ni asosiy va aylanma kapitalni moliyalashtirish, moliyaviy zaxirani to'ldirish, qayta investitsiyalash maqsadlariga ishlatiladigan mablag'larga. Taqsimlanmagan foyda miqdorining o'zgarishi korxonaning qaroriga bog'liq bo'lib, mohiyati jihatidan kapitallashuvi lozim bo'lgan foydani ifodalaydi.

Korxona foydasining taqsimlanishi rasmda yana bir muhim bosqich – qayta investitsiyalash maqsadidagi foyda va amortizatsiya fondi mablag'lari hisobiga asosiy va aylanma kapital o'sishini moliyalashtirishning maxsus fondi (manbai) tashkil etilishi jarayonidir. Ushbu maxsus fond (manba)ni korxonaning "o'z-o'zini moliyalashtirish fondi" deb atash mumkin.

Ma'lumki, korxona foydasi va uning taqsimlanish nisbatlari bozor iqtisodiyotining umumiy holati (sanoat sikli), korxonaning bozorda egallagan o'rni (ishchan konyunktura sikli) hamda korxona taraqqiyotining tegishli bosqichlari (shakllanish, jonlanish, yuksalish, yetuklik, inqiroz) bilan uzviy bog'liqdir. Ishlab chiqarish siklining turli davrlarida korxona moliyaviy menejerlari oldiga foydaning taqsimlanishi yuzasidan turlicha vazifalar qo'yilishi mumkin. Ishlab chiqarishning umumiy pasayishi va inqiroz davrida korxona foydasi uning zarari bilan almashinadi va buning natijasida korxona moliyaviy menejerlari oldida foydaning taqsimlanishi muammosi emas, balki korxonaning yashab qolishi muammosi turadi. Korxona ishchan faolligining pasayishi davrida (korxona mahsuloti va xizmati bo'yicha talabning taklifga nisbatan pasayishi) ham agar korxona innovatsion faoliyatni takomillashtirish choralarini ko'rmasa, yuqoridagi holatga tushib qolishi mumkin. Albatta, korxona ishlab chiqarish sur'atlarining pasayishi sharoitida ham ma'lum vaqt ichida foyda olishi mumkin. Lekin foydaning taqsimlanishi joriy majburiyatlarni to'lash xususiyatigagina ega bo'ladi va sof foydaning taqsimlanishi uchun imkoniyat qolmaydi.

Foydani taqsimlash nisbatlari haqidagi masala moliyaviy menejmentning muhim masalalaridan biridir. Shu tufayli korxona faoliyatida, avvalo, qayta investitsiyalash maqsadida ishlatiladigan

foyda va sotish hajmining o'sishini ifodalovchi ko'rsatkich o'rtasidagi bog'liqlikni o'rnatish lozim. Albatta, bunday bog'liqlik mavjud, ya'ni qayta investitsiyalash maqsadida ishlatiladigan foyda sotish hajmi o'sishining funksiyasidir. Qayta investitsiyalash maqsadida ishlatiladigan foyda asosiy va aylanma kapitallarni moliyalashtirishga yo'naltiriladi. Bunda aylanma kapitalning o'sishi boshqa teng iqtisodiy sharoitlarda, mahsulot sotish hajmining o'sishiga bog'liq, asosiy kapitalning o'sishi faqat uzoq muddatli davrdagina sotish hajmiga bog'liq. Bundan tashqari, asosiy kapitalning o'sishi nafaqat miqdoriy xususiyatga (joriy ishlab chiqarish maqsadlari uchun), balki sifat xususiyatlariga ham ega (ishlab chiqarishning yangilanishi uchun), mazkur o'sish qisqa muddatli davrda ham, uzoq muddatda ham zarurdirki, bunda korxona mahsulotining iste'mol qiymatining o'sishi uchun moddiy imkoniyatlar doimo mavjud bo'lishi muhimdir (11.9-rasm).



11.9-rasm. **Ishlab chiqarish faoliyatidan olingan foydaning hajmiga ta'sir etuvchi omillar**[76]

[76] Nurmuxamedova B., Kabirova N. "Moliya", O'quv qo'llanma. T:, "IQTISOD-MOLIYA", 2017. 205-b.

Shunday qilib, korxona sof foydasining taqsimlanishi qayta investitsiyalash maqsadida ishlatiladigan (taqsimlanmagan) foydaning hisoblangan miqdoriga asoslanadiki, uning darajasi moliyalashtirishning qo'shimcha manbalari orqali tartibga solinadi hamda taqsimlanadigan foyda miqdori va me'yorini belgilaydi.

Xulosa qilib aytganda, korxona foydasi bozor sharoitida muhim iqtisodiy va rag'batlantiruvchi omil sifatida tadbirkorlik faoliyatining yanada rivojlanishida va kengayishida muhim ahamiyatga ega.

11.5. Korxona pul fondlarining shakllanishi va taqsimlanishi

Zamonaviy bozor vazifalarining keng ko'lamligi, ziddiyatliligi turli xo'jalik yuritish shakllarining taraqqiyoti darajasidagi farqlar hamda aholining ijtimoiy himoyalanishi muammosi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni nafaqat jamiyat miqyosida, balki alohida xo'jalik yuritish shakllari miqyosida davlat tomonidan tartibga solishni talab etadi. Bunday moliyaviy tartibga solish korxona faoliyati sharoitlari va natijalariga muhim ta'sirlardan biri hisoblanadi va uning dolzarbligi hozirgi sharoitda shu bilan yanada kuchayadiki, mazkur mexanizm moliyaviy holatning barqarorlashuvi va uning bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida korxona yashovchanligini ta'minlashi va umuman, korxona moliyasini boshqarishning tegishli tizimini barqarorlashtirish asosi bo'lib xizmat qiladi.

Bozor munosabatlarining shakllanishi ularga mos holda iqtisodiyotning o'z-o'zini tartibga solish mexanizmlarining amal qilishini talab etadiki, bu narsa korxonalar moliyasini boshqarishning yangi sharoitida xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini moliyaviy tartibga solishning yangi tizimi amal qilishining asosiy sababi bo'ladi. Iqtisodiyotda tanho hukmronlikka qarshi kurashish, mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish, o'z-o'zini tashkil etish jarayonlarining taraqqiyoti turli tashkiliy-huquqiy shakllardagi korxonalar darajasida yangi sharoitlarga mos moliyaviy tartibga solish va boshqarish asoslarining yaratilishini talab etdi. Aynan mana shu

omillar, mustaqil xo'jalik yuritish qatnashchilari sifatida biznes uchun muhim asos yaratadiki, bu narsa bozor iqtisodiyoti shartlariga mos keluvchi korxonalar moliyaviy resurslarini boshqarish va tartibga solish tizimini talab etadi.

Moliyaviy resurslar manbalari oqilona tarkibini shakllantirish, boshqarish va tartibga solishning muhim vositalaridan biri korxona aylanma aktivlari va passivlarini kreditlar orqali tartibga solishdir.

Korxona aylanma mablag'larini tartibga solish muammosi bozor munosabatlariga o'tish davriga xos inflyatsiya, to'lov tizimining inqirozi, ishlab chiqarish sur'atlarining pasayishi kabi obyektiv jarayonlarning kuchayishi bilan yanada dolzarb ahamiyat kasb etdi. Moliyaviy resurslarni yuqoridan taqsimlash tizimidan bozor raqobatiga o'tish jarayoni O'zbekiston Respublikasi uchun pul-kredit resurslaridan foydalanish samaradorligining mezoni asosida iqtisodiyotning real va moliyaviy sektorlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni tahlil etishga majbur qilmoqda. Ushbu mezonga ko'ra pul-kredit resurslaridan foydalanish samaradorligi kreditlar orqali tartibga solish mexanizmi asosidagi operatsiyalar daromadliligini aniqlashni talab etadi.

Ma'lumki, korxonalar xo'jalik yuritish sharoitlarining o'zgarishi ular aylanma mablag'larini tashkil etish, ularni moliyalashtirish manbalarini aniqlash jarayoniga yangicha talablar qo'ymoqda. Korxonalar aylanma mablag'larni boshqarish yuzasidan to'la mustaqillik va ularga egalik qilish huquqining kafolatlarini olgach o'z xohishlariga ko'ra ularning miqdori va moliyalashtirish manbalarini rejalashtirmoqdalar. Biroq aylanma mablag'larga bo'lgan ehtiyoj xo'jalik faoliyati hajmi va korxonaning takror ishlab chiqarish jarayoni uzluksizligini ta'minlash uchun aylanma kapital miqdorini mukammallashtirish hamda korxona imkoniyatlarini qidirib topish bilan bog'liqdirki, bu o'z navbatida uni tartibga solishning faol va samarali mexanizmini talab qiladi.

Korxona faoliyatida uning debitorlik qarzlari aylanuvchanligi koeffitsiyenti qanchalik kichik va muddati o'tib ketgan debitorlik

qarzlari koeffitsiyenti qanchalik katta bo'lsa, aylanma mablag'lar aylanuvchanligi koeffitsiyenti shunchalik kichik bo'ladi. Korxona faoliyatida kreditorlik qarzlari darajasi qanchalik kichik bo'lsa, jalb etilgan kapital miqdori shuncha kam bo'ladi va natijada jalb etilgan va o'zlik mablag'lari nisbati koeffitsiyenti shuncha kam va o'zlik kapitali esa shuncha yuqori bo'ladi. Bunday sharoitda korxonada o'zlik kapitaliga olinadigan foyda miqdori hamda o'zlik kapitali rentabelligi ko'rsatkichlari yaxshilanadi.

Moliyaviy resurslarni boshqarishga yangicha yondashuvlar shunga muvofiq tarzda moliyaviy investitsiyalar samaradorligini baholashga ham yangicha yondashuvni talab etadi. Ma'lumki, korxonalar moliyaviy holatini xususiyatlovchi ko'rsatkichlar shartli tarzda uch guruhga bo'linadi:

- moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlari;
- to'lovga layoqatlilik ko'rsatkichlari;
- moliyaviy investitsiyalar samaradorligi ko'rsatkichlari.

Hozirgi kunda korxonalarda hisobning yangi tizimiga o'tilganligi ularda xo'jalik, savdo-vositachilik va moliyaviy operatsiyalar hisobining alohida-alohida yuritilishini talab etadi.

Ma'lumki, korxonalar garchi ularda asosiy faoliyat turi mahsulot ishlab chiqarish bo'lsada va hatto ular ishlab chiqarish maqsadida kredit olgan bo'lsalar ham, o'z faoliyatlarida savdo-vositachilik operatsiyalari bajaradilar. Shu munosabat bilan bu korxonalar moliyaviy resurslari ishlab chiqarish sohasi uchun ham, muomala sohasi uchun ham ishlatiladi. Shuning uchun ishlab chiqarish sohasi uchun ahamiyatli bo'lgan foyda yoki muomala sohasi uchun baholovchi ko'rsatkich bo'lgan yalpi daromad ko'rsatkichlaridan qaysi biri orqali korxona faoliyatiga baho berish hozirgi kundagi o'ta tortishuvli va dolzarb muammodir.

Bizning fikrimizcha, hozirgi sharoitda yuqoridagi ko'rsatkichlar emas, balki xo'jalik oborotiga solingan barcha investitsiyalar

samaradorligi ko'rsatkichi korxonalar faoliyatiga umumiy tarzda obyektiv baho berish mezoni hisoblanadi.

Korxonalar moliyaviy resurslari holatining aynan shu masalalari iqtisodiy nazariya va amaliyotimizda chuqur o'rganilmagan muammolardan hisoblanadi.

Moliyaviy investitsiyalar samaradorligini tartibga solishning uslubiy asosi sifatida nafaqat foyda ko'rsatkichidan, balki rentabellik ko'rsatkichlari tizimidan ham foydalanish lozimki, u sof foydaning xo'jalik oborotiga solingan mablag'lar miqdoriga nisbati orqali aniqlanadi. Korxona xo'jalik oborotiga solingan mablag'lar tarkibiga jami avanslangan kapital, o'z va qarz mablag'lari, tadbirkorlik faoliyatiga qo'yilgan mablag'lar kiradi. Bunday ko'rsatkichlar tizimidan foydalanish quyidagilarga imkon beradi: moliyaviy investitsiyalar samaradorligini o'lchash orqali moliyaviy boshqarish samaradorligini baholash; iqtisodiy tahlil va baholash asosida korxonani boshqarish umumiy strategiyasining asosiy tarkibiy qismi sifatida korxona moliyaviy strategiyasini ishlab chiqish; tashkiliy-huquqiy shakli va tarmoq xususiyatidan qat'iy nazar xo'jalik faoliyati bo'yicha hamma korxonalarni tabaqalashtirish.

Ma'lumki, korxona faoliyatini moliyalashtirish ichki va tashqi manbalar hisobiga amalga oshirilishi mumkin. Biroq, ayrim holatlarda korxonalar tashqi moliyalashtirish manbalaridan foydalanmaslikni afzal ko'radilar. Bunday holat ko'proq korxona ta'sischilari ro'yxatining kengayishida yoki innovatsion faoliyatni xususiyatlovchi ma'lum loyihani amalga oshirishda foydaga sherik korxonalar ro'yxatini cheklashda uchraydi. Mazkur sharoitda korxona moliyaviy menejeri oldida, asosan, tashqi moliyalashtirish manbalarini cheklash evaziga korxona moliyaviy imkoniyatlarining o'sishini ta'minlash muammosi yotadi. Agar korxona moliyalashtirish muammosini taqsimlanmog'i lozim bo'lgan foydadan qayta investitsiyalash maqsadida foydalanish hamda ssuda kapitalini jalb etish hisobiga hal etsa, u holda bunday o'sish darajasi o'z-o'zini ta'minlagan o'sish deb ataladi.

Shunday qilib, korxona ta'sischilari o'z kapitalining o'sish sur'atlari o'z kapitaliga qaytim darajasi hamda qayta investitsiyalash koeffitsiyenti miqdoriga bog'liqdir.

Agar korxona moliyaviy menejeri korxonaning o'z kapitali o'sishining tezligini oshirishga intilsa, buning uchun o'z kapitalidan foydalanish samaradorligini oshirish hamda qayta investitsiyalash maqsadida ishlatiladigan taqsimlanmagan foyda miqdorini ko'paytirish chora-tadbirlarini ko'rish muhimdir.

Ba'zi korxonalar fondlardan foydalanish samaradorligining yuqori darajasini ta'minlaydi, lekin shunga qaramay rentabellik darajasi past bo'lishi mumkin yoki aksincha, yuqori rentabelli korxonada fondlar aylanish tezligi unchalik yuqori bo'lmasligi (ya'ni, iqtisodiy faollikning past darajasi) mumkin.

11.6. Byudjet tashkilotlari, ular moliyasining o'ziga xos xususiyatlari

O'zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksining 4-moddasida byudjet tashkilotlariga quyidagicha ta'rif berilgan: "*Byudjet tashkiloti* – davlat funksiyalarini amalga oshirish uchun belgilangan tartibda davlat hokimiyati organlarining qaroriga ko'ra tashkil etilgan, davlat byudjeti mablag'lari hisobidan saqlab turiladigan notijorat tashkilot"[77]. Bu tashkilotlar asosan yuridik shaxs maqomiga ega bo'lib, ularning faoliyati bu maqomning barcha talablariga (moddiy-texnika bazasi va faoliyat sohasi bo'yicha xo'jalik faoliyati bilan shug'ullanish uchun yetarli sharoitning mavjudligi, buxgalter kadrlarning mavjud bo'lishi, shaxsiy hisob raqamining mavjud bo'lishi va sh.k.) javob berishi kerak. Lekin bugungi kunda yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan byudjet tashkilotlari ham faoliyat yuritib kelmoqda. Ularga tegishli davlat boshqaruv organlari (bosh bo'linma sifatidagi byudjet tashkiloti) huzuridagi markazlashtirilgan buxgalteriyalar va tegishli hokimiyatlarning buxgalteriyalari tomonidan xizmat ko'rsatiladi

[77] O'zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksi. 4-modda.

(masalan, tuman madaniyat bo'limiga qarashli markaziy kutubxonalar tizimi, tegishli hokimiyatlar bo'linmalariga qarashli veterinariya uchastkalari va punktlari va sh.k.).

Byudjet tashkilotlari bo'ysunuviga ko'ra respublika byudjeti va mahalliy (viloyat, tuman, shahar) byudjetlardan mablag' bilan ta'minlanadilar, ularning joriy faoliyati byudjet tashkilotlarini mablag' bilan ta'minlashning o'rnatilgan tartibiga asosan moliyalashtiriladi, bunda yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan tashkilotlar mustaqil ravishda o'z moliyaviy rejalarini *xarajatlar smetasi* shaklida qonunchilik bilan belgilangan tartibda ishlab chiqadilar.

11.7. Xarajatlar smetasi – byudjet tashkilotlari moliyaviy rejasi sifatida. Smetaning elementlari. Smetalarning turlari

Xarajatlar smetasi – byudjet tashkilotining unga ajratilgan byudjet mablag'larining hajmi, maqsadli yo'nalishi va yil choraklari (har bir chorakning oylari) bo'yicha taqsimlanishini belgilab beruvchi asosiy moliyaviy hujjati.



11.10-rasm. **Byudjet tashkilotlari xarajatlar smetalarining guruhlanishi**[78]

[78] "Byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallarini tuzish, tasdiqlash va ro'yxatdan o'tkazish tartibi to'g'risida"gi Nizom asosida

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirining O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2014-yil 15-dekabrda 2634-son bilan ro‘yxatga olingan “Byudjet tashkilotlari va byudjet mablag‘lari oluvchilarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallarini tuzish, tasdiqlash va ro‘yxatdan o‘tkazish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom[79]ga muvofiq, byudjet tashkilotlarida smetalarning quyidagi *turlari* amalda qo‘llaniladi:

– yakka (individual) smetalar;
– jamlanma smetalar;
– byudjetdan tashqari mablag‘lar bo‘yicha smetalar;
– markazlashgan tadbirlar uchun smetalar.

Yakka smetalar yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lgan alohida olingan muassasa bo‘yicha tuziladi. Masalan, muayyan hududda (tuman yoki shaharda) joylashgan yuridik shaxs maqomida faoliyat qiluvchi davlat sog‘liqni saqlash muassasasi (kasalxona, qishloq vrachlik punkti, ixtisoslashgan dispanser va sh.k.) mustaqil ravishda byudjetdan to‘lanishi ko‘zda tutilgan o‘z xarajatlarini yakka smeta asosida rejalashtiradi.

Jamlanma smetalar yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lmagan va tegishli davlat boshqaruv organlari huzuridagi markazlashtirilgan buxgalteriyalar va tegishli hokimiyatlarning buxgalteriyalari tomonidan xizmat ko‘rsatilayotgan tashkilotlar bo‘yicha tuziladi (masalan, tuman madaniyat bo‘limiga qarashli markaziy kutubxonalar tizimi bo‘yicha).

O‘zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksida keltirilishicha, “jamlanma xarajatlar smetasi – byudjet mablag‘larini taqsimlovchi tomonidan uning tasarrufidagi byudjet tashkilotlarining va byudjet mablag‘lari oluvchilarning xarajatlar smetalari asosida tuziladigan xarajatlar smetasi” hisoblanadi.

[79] “O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami”, 2014 yil, 51-son, 612-modda.

"Yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan va tegishli davlat boshqaruv organlari (bosh bo'linma sifatidagi byudjet tashkiloti) huzuridagi markazlashtirilgan buxgalteriyalar va tegishli hokimiyatlarning buxgalteriyalari tomonidan xizmat ko'rsatilayotgan tashkilotlar bo'yicha quyidagi alohida hollarda *jamlanma xarajatlar smetasi* tuzilishi mumkin:

– bir turdagi kichik tashkilotlar bo'yicha – veterinar uchastkalar va punktlar hamda boshqa tashkilotlar bo'yicha;

– bir turdagi yirik tashkilotlar bo'yicha, qachonki ularga xo'jalik xizmatlarini ko'rsatish xo'jalik xizmatlarni ko'rsatuvchi maxsus guruhlar orqali markazlashtirilgan holda amalga oshirilsa;

– fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari bo'yicha;

– ozodlikdan mahrum etilgan joylardan qaytgan shaxslarga ijtimoiy moslashuv markazlari hamda voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markazlari bo'yicha".*

**Izoh: 2634-son bilan ro'yxatga olingan "Byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallarini tuzish, tasdiqlash va ro'yxatdan o'tkazish tartibi to'g'risida"gi Nizomdan (II-bob, 1-§, 13-band).*

Byudjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha smeta – tashkilotlar tomonidan joriy moliya yili uchun tuziladigan va tasdiqlanadigan hujjat bo'lib, unda tashkil bo'lish manbalari va ushbu mablag'larning qonunchilikka muvofiq foydalanish yo'nalishlari ko'rsatilgan holda byudjetdan tashqari daromadlar tushumlarining prognoz hajmlari aks ettiriladi. Masalan, oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida talabalarni o'qitishning to'lov-kontrakt shaklidan tushgan mablag'lar va ularni ishlatish yo'nalishlari byudjet qonunchiligi (xususan, 2634-sonli Nizom) bilan belgilangan tartibda byudjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha smeta asosida rejalashtiriladi.

"Tashkilotlar quyidagi byudjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha smetalarni tuzadilar:

– Byudjet tashkilotlarini rivojlantirish jamg'armasi;

– tibbiyot muassasalarini moddiy rag'batlantirish va rivojlantirish jamg'armasi;

– ta'lim muassasalarida o'qitishning to'lov-kontrakt shaklidan tushumlar;

– qonunchilikda belgilangan boshqa barcha byudjetdan tashqari mablag'lar, jumladan, vazirliklar va idoralarning byudjetdan tashqari jamg'armalariga yo'naltirilayotgan davlat bojlari, yig'imlar va soliq bo'lmagan to'lovlardan, ma'muriy va moliyaviy jazolardan ajratmalar.

Byudjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha (Byudjet tashkilotlarini rivojlantirish jamg'armasi va Tibbiyot muassasalarini moddiy rag'batlantirish va rivojlantirish jamg'armasi bundan mustasno) smetalar tegishli moliya organlarida xarajatlar smetasi uchun belgilangan muddatlarda va tartibda ro'yxatdan o'tkaziladi".*

**Izoh: 2634-son bilan ro'yxatga olingan "Byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallarini tuzish, tasdiqlash va ro'yxatdan o'tkazish tartibi to'g'risida"gi Nizomdan (IV-bob, 30-band).*

Markazlashgan tadbirlar uchun smetalar – vazirliklar, idoralar va hokimiyatlar boshqarmalari va bo'limlari tomonidan markazlashtirilgan holda amalga oshiriladigan xarajatlar bo'yicha tuziladi va har bir markazlashgan tadbir uchun alohida ishlab chiqiladi. Masalan, boshlang'ich sinf o'quvchilarini qishki kiyim-bosh bilan ta'minlash, birinchi sinf o'quvchilariga o'quv qurollari va anjomlari komplekti taqdim qilish bilan bog'liq tadbirlar uchun tegishli vazirlik darajasida markazlashgan tadbirlar uchun smetalar ishlab chiqiladi.

Xarajatlar smetasi va byudjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha smeta bir yillik muddatga – 1 yanvardan 31 dekabrgacha bo'lgan davrga tuziladi (mavsumiy tadbirlar uchun yoki joriy moliya yilida ishga tushiriladigan tashkilotlar bo'yicha esa ularning mazkur yildagi faoliyat ko'rsatish oylariga tuziladi va amal qiladi).

Byudjet qonunchiligida kelgusi moliya yili uchun davlat byudjeti yil boshlangunga qadar qabul qilinmagan holatdagi xatti-harakatlar belgilab berilgan. Xususan, agar moliya yili boshlangunga qadar shu

yilga mo'ljallangan davlat byudjeti mamlakat qonun chiqaruvchi organi tomonidan qabul qilinmasa, byudjet tashkilotlarini mablag' bilan ta'minlash ular tomonidan tuzilgan *vaqtinchalik xarajatlar smetasi* asosida amalga oshiriladi.

Vaqtinchalik xarajatlar smetasi – byudjet tashkilotining (yoki byudjet mablag'lari oluvchining) xarajatlar smetasi tasdiqlanguniga va ro'yxatdan o'tkazilguniga qadar amal qiladigan hujjat bo'lib, unda qonun hujjatlaridagi o'zgartirishlar hisobga olingan holda uning uchun nazarda tutilgan byudjetdan ajratiladigan mablag'lar har oy uchun aks ettiriladi. Vaqtinchalik xarajatlar smetasi oylar kesimida birinchi chorakdan oshmagan davr uchun tuziladi, ko'rib chiqiladi va tasdiqlanadi. Bunda har oylik xarajatlar o'tgan moliya yilining oxirgi choragida byudjet tashkiloti tomonidan sarflangan byudjet mablag'larining uchdan bir qismidan oshib ketmasligi shart.

"Kelgusi moliya yilining birinchi choragi uchun byudjet tashkilotlarining va byudjet mablag'lari oluvchilarning vaqtinchalik xarajatlar smetalari joriy moliya yilining 25 dekabrigacha tuziladi, tasdiqlanadi va ro'yxatdan o'tkaziladi"[80].

Vaqtinchalik xarajatlar smetasi asosiy smeta tasdiqlangunga qadar amalda bo'ladi, bunda belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan xarajatlar smetasidagi birinchi chorak uchun ko'zda tutilgan xarajatlar summasi tashkilotlarning vaqtinchalik xarajatlar smetasida rejalashtirilgan xarajatlar summasidan kam bo'lishi mumkin emas.

Byudjet tashkilotlari o'zlarining xarajatlarini hisoblab chiqishda va smetalarni rejalashtirishda quyidagilarga amal qiladilar:

– O'zbekiston Respublikasi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qarorlari, Prezident farmonlari va qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining normativ hujjatlariga;

– byudjet tashkilotlari xarajatlarini rejalashtirishning normativ uslubiga;

[80] O'zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksi. 104-modda.

– tovar va xizmatlarning davlat tomonidan tartibga solinadigan baholari va tariflariga, shuningdek, nodavlat korxonalar va tashkilotlarning ayrim tovarlari va xizmatlari baholariga;

– yuqori turuvchi tashkilotlar rahbarlarining o'zlari tasarrufidagi muassasalarning kelgusi yil uchun xarajatlar smetalarini tuzish masalalari bo'yicha ko'rsatmalari va takliflariga, agarda ular qonun hujjatlariga zid bo'lmasa,

– bolalar va boshqa ijtimoiy-madaniy tashkilotlarda ovqatlanishga ketadigan xarajatlar summasi tashkilotlarning ayrim turlari uchun qonun hujjatlari bilan tasdiqlangan ovqatlanish me'yorlari va ovqatlanish kunlari sonidan kelib chiqib hisoblanadi;

– dori-darmonlarga ketadigan xarajatlar summasi qonun hujjatlari bilan belgilangan pul xarajatlari me'yoriga qarab hisoblab chiqiladi;

– ijtimoiy-madaniy tashkilotlarning ayrim guruhi uchun kiyim-kechak, poyafzal, choyshab, yotoq anjomlari va boshqa yumshoq jihozlar sotib olishga ketadigan xarajatlar moddiy ta'minotning amaldagi me'yorlari asosida, lekin ajratilgan mablag'lar doirasida hisoblanadi.

11.8. Smeta xarajatlarining tarkibi, xarajat guruhlari va moddalari. Smetalarni tuzish, tekshirish, tasdiqlash, ro'yxatga olish va moliyalashtirish tartibi

"Byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallarini tuzish, tasdiqlash va ro'yxatdan o'tkazish tartibi to'g'risida"gi Nizom[81] bugungi kunda byudjet tashkilotlari xarajatlarini smeta asosida rejalashtirish va moliyalashtirish tartibini belgilab beradi.

Byudjet tashkilotlarining xarajatlar smetasi Davlat byudjeti xarajatlarining iqtisodiy tasnifiga muvofiq xarajatlar guruhlari bo'yicha, 4 guruh xarajatlarining to'liq yoyilmasi va hisob-kitoblarni o'z ichiga olgan holdagi ilova bilan birgalikda tuziladi.

[81] O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2014-yil 15-dekabrda 2634-son bilan ro'yxatga olingan.

Ilova xarajatlar smetasining ajralmas qismi bo'lib, smetaning prognoz hisob-kitoblarini asoslaydi va hisobot tuzish maqsadida foydalaniladi.

Xarajatlar smetasini tuzish bo'yicha ishlarni tashkil etish davomida O'zbekiston va Qoraqalpog'iston Respublikasi vazirliklari, idoralari, tegishli hokimiyatlarning boshqarma va bo'limlari o'zlariga bo'ysunuvchi tashkilotlarga tegishli xalq deputatlari Kengashi sessiyasining byudjetni tuzish tartibi va muddati to'g'risidagi qarori va moliya organining ushbu masala bo'yicha ko'rsatmalaridan kelib chiqib, kelgusi yil uchun smetalarni tuzish tartibi va muddatlari to'g'risida ko'rsatmalar beradilar.

Buning uchun O'zbekiston va Qoraqalpog'iston Respublikasi vazirliklari va idoralari, tegishli hokimiyatlarning boshqarma va bo'limlari o'zlariga qarashli tashkilotlarning rahbarlari hamda tegishli xodimlari kengashini chaqiradilar va xarajatlar smetasini tuzish tartibi va muddatlari to'g'risida yo'l-yo'riqlar ko'rsatadilar, ularga tashkilotlarning moliyaviy-xo'jalik faoliyatiga va ularga xarajatlar smetasini tuzish masalalari bo'yicha qonunchilik talablarini tushuntiradilar, byudjet mablag'lari bo'yicha xarajatlar smetasi hisob-kitoblarini albatta qonunchilikka muvofiq kelishi, xarajat qilishda moliya intizomi, iqtisod qilish tartibiga rioya qilish haqida ko'rsatmalar beradilar, shuningdek, xarajatlar smetasini tuzish hamda blankalarni to'ldirish texnikasi masalalari bo'yicha yo'l-yo'riqlar ko'rsatadilar.

Bir vaqtning o'zida o'zlariga qarashli tashkilotlarga ijtimoiy rivojlanishning iqtisodiy ko'rsatkichlari asosida (sinflar, o'quvchilar, bolalar, shifoxonalarda joy-kunlar, bola-kunlar soni va boshqalar) kelgusi yil uchun ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini yozma ravishda xabar qiladilar.

Xarajatlar smetasi bo'yicha xarajatlarni hisoblab chiqish mablag'larga bo'lgan ehtiyojga muvofiq iqtisodiy va ijtimoiy

rivojlanish ko'rsatkichlarini va iqtisod qilishning qat'iy tartibini amalga oshirishni hisobga olgan holda amalga oshirilishi shart.

Xarajatlarni hisoblab chiqishda quyidagilarga amal qilish kerak:

– O'zbekiston Respublikasi qonunlari va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti hamda Hukumatining qarorlari va farmoyishlari, shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, tegishli hokimiyatlarning ularga berilgan huquq va vakolatlar doirasida qabul qilingan qaror va farmoyishlariga;

– byudjet tashkilotlarining belgilangan tartibda tasdiqlangan xarajatlar me'yorlariga;

– tovar va xizmatlarni davlat tomonidan tartibga solinadigan baholari va tariflariga.

Jumladan:

– xarajatlar smetasiga ish haqi uchun mablag'lar qonunchilik bilan belgilangan maoshlari va ish haqi stavkalari va ularga qo'shimcha to'lovlardan, amaldagi namunaviy shtatlar va me'yorlarga rioya qilishdan kelib chiqib kiritiladi. Ishbay usul bilan bajariladigan ishlar uchun ish haqi xarajatlar smetasiga byudjet yiliga xarajatlar smetasida ko'zda tutilgan ish hajmlaridan kelib chiqib kiritiladi;

– pedagog xodimlar ish haqi uchun mablag'larni ajratishda, qonunchilikda belgilangan ish haqi stavkalaridan va o'quv rejasiga muvofiq daftar tekshirish, sinf rahbarligi va boshqalar uchun qo'shimcha haq to'lashni hisobga olgan holda tuzilgan tarifikatsiyalardan kelib chiqilishi lozim;

– tibbiyot xodimlari ish haqi uchun mablag'larni ajratishda, ish haqi stavkalari va qonunchilikka muvofiq mehnatga haq to'lash shartlarini hisobga olgan holda tuzilgan tibbiyot xodimlari tarifikatsiyalaridan kelib chiqilishi lozim;

– oliy o'quv yurtidan keyingi ta'limda ta'lim oluvchilarning stipendiya xarajatlari belgilangan stipendiyalar miqdori va stipendiya ta'minoti tartibidan kelib chiqqan holda hisoblanadi;

– mehnatga haq to'lash jamg'armasidan ijtimoiy soliqni to'lash

xarajatlari xarajatlar smetasiga O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlariga muvofiq belgilangan stavkalarda, qonunchilikka muvofiq ijtimoiy soliq to‘lanadigan barcha to‘lov summalaridan kelib chiqqan holda kiritiladi;

– ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish bo‘yicha sug‘urta mukofotini to‘lash xarajatlari xarajatlar smetasiga qonunchilikda belgilangan tartibda ish beruvchining barcha xodimlarining o‘tgan yilgi ish haqining haqiqiy xarajatlaridan kelib chiqqan holda kiritiladi;

– xo‘jalik xarajatlari, jumladan, kommunal xizmatlar uchun xarajatlar limitlar doirasida kommunal xizmatlar uchun baho va tariflarni hisobga olgan holda hisoblanadi;

– telefon va boshqa telekommunikatsiya xizmatlari xarajatlari abonent raqamlari soni va xizmatlar uchun tasdiqlangan tariflaridan kelib chiqib hisoblanadi. Bunda, limitdan oshiq foydalanilgan shaharlararo (davlatlararo) so‘zlashuvlar uchun aloqa xizmatlari, internet bo‘yicha xizmatlar va boshqa aloqa xizmatlari xarajatlari byudjet tashkilotlarining xarajatlar smetasida tegishli moliya organlari bilan kelishilgan holda o‘zlarining faoliyat xususiyatlari va ushbu xizmatlarga bo‘lgan talabdan kelib chiqib ko‘zda tutiladi;

– davolash, bolalar va boshqa ijtimoiy soha muassasalarida ovqatlanishga ketadigan xarajatlar tashkilotlarning har bir turi uchun tasdiqlangan ovqatlanish kunining o‘rtacha yillik soni va natural me’yorlaridan kelib chiqib hisoblanadi;

– dori-darmonlarga ketadigan xarajatlar qonunchilikda belgilangan pul xarajatlari me’yoriga qarab:

– statsionarlarda – har bir joy-kunga, shifoxonalarda – har bir shifokor qabuliga belgilanadi;

– ijtimoiy-madaniy tashkilotlarning ayrim guruhi uchun kiyim-kechak, poyabzal, choyshab, yotoq anjomlari va boshqa yumshoq buyumlar sotib olishga ketadigan xarajatlar moddiy ta’minotning me’yorlari asosida, lekin ajratilgan mablag‘lar doirasida hisoblanadi;

– suv, o‘rmon xo‘jaligi va boshqa tashkilotlarni saqlash xarajatlari ularning bajarayotgan ish me’yori va hajmidan kelib chiqqan holda aniqlanadi;

– inspeksiya va qo‘riqlash faoliyati bilan bog‘liq xizmatlar to‘lovi xarajatlari tashkilotlar va ushbu xizmatlarni yetkazib beruvchilar o‘rtasidagi shartnomaga muvofiq aniqlanadi;

– tashkilotlarning binolar, inshootlar va transport vositalaridan foydalanish, binolar va transport vositalari, shuningdek, boshqa davlat mulklari ijarasi bilan bog‘liq xarajatlari belgilangan limitlar va natural ko‘rsatkichlardan kelib chiqib aniqlanadi;

– xizmat safarlari bilan bog‘liq xarajatlar tashkilotlarning oldiga qo‘yilgan vazifalaridan, shuningdek, qonunchilikda belgilangan me’yorlardan kelib chiqqan holda aniqlanadi;

– epizootik kasalliklarga qarshi tadbirlar va qishloq xo‘jaligi zararkunandalariga (chigirtkalar, tut parvonasi va boshqalar) qarshi kurashish bilan bog‘liq xarajatlar prognoz ish hajmlari va kimyoviy preparatlarga bo‘lgan ehtiyojlar, shuningdek, bajariladigan ish turlaridan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Yuqorida ko‘rsatilgan xarajatlar, shuningdek, Davlat byudjeti xarajatlarining iqtisodiy tasnifi bo‘yicha boshqa xarajatlarni aniqlashda boshqa ko‘rsatkichlar va uslublar qo‘llanishi mumkin, ularning asoslanganligi xarajatlar smetasini ro‘yxatdan o‘tkazuvchi tegishli moliya organlari tomonidan tekshiriladi.

Yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lmagan va tegishli davlat boshqaruv organlari (bosh bo‘linma sifatidagi byudjet tashkiloti) huzuridagi markazlashtirilgan buxgalteriyalar va tegishli hokimiyatlarning buxgalteriyalari tomonidan xizmat ko‘rsatilayotgan tashkilotlar bo‘yicha jamlanma xarajatlar smetasi tuziladi.

Markazlashtirilgan buxgalteriyalar tashkil etilgan tegishli davlat boshqaruv organlari (bosh tashkilotlar) rahbarlari va tegishli hudud hokimlari (ular vakolat bergan mansabdor shaxslar) jamlanma xarajatlar smetasi bo‘yicha byudjetdan ajratilgan mablag‘larni taqsim qiluvchilar bo‘lib hisoblanadilar.

Jamlanma xarajatlar smetasi, xizmat ko‘rsatiladigan tashkilotlarning rahbarlaridan olingan buyurtmalar asosida hamda markazlashtirilgan buxgalteriyada mavjud bo‘lgan hisob va hisobot, shuningdek, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish ko‘rsatkichlariga muvofiq markazlashtirilgan buxgalteriya tomonidan tuziladi.

Jamlanma xarajatlar smetasini tuzish uchun buyurtmalar hokimiyatlarning tegishli boshqarma va bo‘limlari tomonidan belgilangan shakllar yoki ko‘rsatkichlar ro‘yxati bo‘yicha xarajatlarning guruhlari bo‘yicha va ilovalarni hamda smetalarga qilingan hisob-kitoblarni ilova qilgan holda tashkilotlar tomonidan taqdim qilinadi.

Buyurtmalarda quyidagi ma’lumotlar ko‘rsatiladi:

– isitish, yoritish, suv ta’minoti xarajatlarini hisoblash uchun zarur natural ko‘rsatkichlar;

– sotib olish uchun mo‘ljallangan asbob-uskunalar va jihozlar ro‘yxati;

– kapital va joriy ta’mirlash bo‘yicha asosiy ishlar ro‘yxati;

– o‘rmon xo‘jaligi tashkilotlarining bajaradigan ishlari hajmi;

– qonunchilikka muvofiq belgilangan kadastr yuritish bo‘yicha ishlar hajmi va boshqa ko‘rsatkichlar hisobi;

– bino va inshootlarni kapital ta’mirlash bo‘yicha manzilli ro‘yxatga kiritish uchun hisob-kitoblarning asoslanganligi;

– byudjetdan mablag‘lar ajratishni asoslash uchun boshqa kerakli hisob-kitoblar.

Tashkilotlar tomonidan berilgan buyurtmalar markazlashtirilgan buxgalteriyalar tomonidan tegishli tashkilotlarning vakillari ishtirokida oldindan ko‘rib chiqiladi hamda jamlanma xarajatlar smetasini tuzishda hisobga olinadi.

Markazlashtirilgan buxgalteriya tomonidan tuzilgan jamlanma xarajatlar smetasining loyihalari tegishli tashkilotlar rahbarlari ishtirokida ko‘rib chiqiladi va tasdiqlanadi.

Markazlashtirilgan buxgalteriyalar tomonidan xizmat ko‘rsatiladigan tashkilotlarning xarajatlar smetasi tashkilotlar bilan

markazlashtirilgan buxgalteriyalar bosh (katta) hisobchilari yoki iqtisodchilari ishtirokida tuziladi.

O'zbekiston va Qoraqalpog'iston Respublikasi vazirliklari, idoralari va hokimiyatlar boshqarmalari va bo'limlari markazlashtirilgan holda amalga oshiriladigan xarajatlar bo'yicha ularning o'zini saqlash uchun xarajatlar smetasidan tashqari, tashkilotning markazlashtirilgan tadbirlari uchun xarajatlar smetasini tuzadilar. Bunda, O'zbekiston va Qoraqalpog'iston Respublikasi vazirliklari, idoralari va hokimiyatlar boshqarmalari va bo'limlari tomonidan markazlashtirilgan holda bir necha tadbirlar (tizimdagi barcha tashkilotlar bo'yicha qo'riqlash xizmatini to'lash, xizmat kiyimini sotib olish, yagona axborot-kompyuter tizimiga xizmat ko'rsatish, seminarlar o'tkazish va boshqalar) bo'yicha xarajatlar amalga oshirilayotganda, xarajatlar smetasiga har bir to'lanadigan markazlashtirilgan tadbirlar bo'yicha hisob-kitoblar ilova qilinadi.

Kelgusi yilga ochilishi kerak bo'lgan tashkilotlarni tashkil etish, saqlash bo'yicha xarajatlar smetasi tegishli vazirliklar, idoralar hamda tegishli hokimiyatlarning boshqarmalari, bo'limlari tomonidan har bir tashkilotga alohida, mehnatga haq to'lash shartlari va faoliyat ko'rsatayotgan shunga o'xshash tashkilotlarda mavjud bo'lgan xarajatlarining o'rtacha me'yorlaridan kelib chiqqan holda tuziladi.

Bunda, yangi tashkilotlarni saqlash xarajatlari ushbu tashkilotlar faoliyatining boshlanishi mo'ljallanayotgan muddatlardan kelib chiqqan holda hisoblanadi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, smeta xarajatlari quyidagi xarajat guruhlari bo'yicha rejalashtiriladi:

I guruh – Ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar (stipendiyalar va boshqalar);

II guruh – Ish beruvchilarning ajratmalari;

III guruh – Kapital qo'yilmalar;

IV guruh – Boshqa xarajatlar.

Xarajatlarni moliyalashtirish (to'lash) byudjet ijrosi jarayonida xarajatlar ro'yxati va smetasiga kiritiladigan o'zgartirishlarni hisobga

olgan holda tegishli yil uchun tasdiqlangan byudjet parametrlari hamda byudjet tashkilotlarining xarajatlar smetalariga muvofiq tuzilgan byudjet xarajatlarining choraklar bo'yicha taqsimlangan yillik ro'yxatiga binoan amalga oshiriladi.

I guruh – Ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlarga quyidagi xarajat turlari kiradi:

– "Ish haqi";

– "Ta'lim muassasalarining o'rnak ko'rsatgan xodimlarini rag'batlantirish Direktor fondi mablag'lari" (umumta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari va akademik litseylarda);

– Stipendiyalar.

Umuman olganda, byudjet tashkilotlari xodimlari ish haqini hisoblashda ular mehnatiga haq to'lashning Yagona Tarif Setkasi (YaTS) qo'llaniladi. YaTS O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan o'rnatiladi va har bir razryad uchun o'rnatilgan tegishli tarif koeffitsiyentlaridan iborat. Yagona Tarif Setkasi qonunan o'rnatilgan ish haqini hisoblashning bazaviy miqdoriga asoslanadi va byudjet tashkilotlari xodimlari lavozim okladlarini aniqlash uchun qo'llaniladi. Ayrim tarmoqlar uchun esa mehnatga haq to'lashning tarmoq setkasi qo'llaniladi. Masalan, oily ta'lim, xalq ta'limi muassasalari, sog'liqni saqlash davlat tashkilotlari uchun ular xodimlari mehnatining xususiyatidan kelib chiqqan holda haq to'lashning tarmoq setkalari ishlab chiqilgan.

II guruh – "Ish beruvchilarning ajratmalari". Bu guruhda mehnat haqi fondiga nisbatan foizlarda hisoblanadigan ijtimoiy soliq summasi aks ettiriladi. Xarajatlar hisoblab chiqilgan mehnat haqi fondi summasiga nisbatan o'rnatilgan foizlarda hisoblanadi.

III guruh – "Kapital qo'yilmalar" guruhi bo'yicha xarajatlar Davlat investitsiya dasturida nazarda tutilgan aniq ro'yxatlarga muvofiq alohida tarzda rejalashtiriladi. Bu xarajatlar alohida byudjet tashkilotining bir moliyaviy yil uchun tuziladigan smetasida rejalashtirilmaydi.

IV guruh – "Boshqa xarajatlar" tarkibiga quyidagi xarajat turlari va ularga mos xarajat kodlari kiradi:

– "Xizmat safar xarajatlari";

– "Kommunal xizmatlarni to'lash xarajatlari";

– "Telefon, telekommunikatsion va axborot xizmatlari xarajatlari";

– "Joriy ta'mirlash xarajatlari";

– "Saqlash, ekspluatatsion xarajatlar va boshqa xizmatlarni to'lash xarajatlari";

– "Texnika, uskunalar, joriy maqsadlardagi boshqa buyumlar va oziq-ovqat mahsulotlarini sotib olish xarajatlari";

– "Boshqa joriy xarajatlar".

IV guruh moddalari bo'yicha xarajatlarni rejalashtirish va hisob-kitob qilishning eng umumiy bo'lgan *o'ziga xos xususiyatlari* quyidagilardan iborat:

– amaldagi narxlar va tariflar asosida hisoblab chiqariladi;

– natural shaklda ajratilgan limitlar asosida aniqlanadi;

– hisoblagichlarning ko'rsatkichlari bo'yicha o'tgan yildagi haqiqiy xarajatlar inobatga olinadi;

– har bir birlik uchun o'rnatilgan xarajat me'yorlariga rioya etiladi;

– energo-yoqilg'i va boshqa resurslarni iqtisod qilish rejimiga rioya etiladi.

Xulosa qilib aytganda, keyingi yillarda byudjet amaliyotidagi o'zgarishlar natijasida byudjet tashkilotlari xarajatlarini rejalashtirish va to'lovlarini amalga oshirish tartiblari tubdan o'zgardi. Jumladan, davlat byudjetining g'azna ijrosiga o'tgan byudjet tashkilotlari xarajatlari Moliya vazirligi G'aznachiligi va uning hududiy bo'linmalari tomonidan yagona g'azna hisob raqamidan, shuningdek, smetada ko'rsatilgan xarajatlar guruhlarining har bir moddasi bo'yicha g'aznachilik hisob raqamidan amalga oshiriladi. Bu tadbirlar byudjet tashkilotlari xarajatlarini to'g'ri va oqilona rejalashtirish, mavjud

resurslardan samarali foydalanish, mablag'larni iqtisod qilish, byudjetdan tashqari mablag'larni jalb qilishga yangicha talablarni qo'ymoqdaki, ushbu talablar byudjetdan moliyalashtirish, byudjet tashkilotlarida moliyaviy rejalashtirish va xarajatlar smetasini tuzish va ijro etish jarayonlarini chuqurroq o'rganishni talab etadi.

11.9. Byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag'lari: manbalari va ishlatish yo'nalishlari

Byudjet tashkilotlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 3-sentyabrdagi "Byudjet tashkilotlarini mablag' bilan ta'minlash tartibini takomillashtirish to'g'risida"gi 414-sonli Qaror[82] bilan belgilab berilgan byudjetdan tashqari mablag'larga ham ega bo'lishi mumkin. Ushbu qarorga asosan, yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan byudjet tashkilotlari quyidagi byudjetdan tashqari mablag'larni jalb qilish va o'zining daromadlarini kengaytirish huquqiga ega:

– faoliyat turi bo'yicha tovarlar (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarish va sotishdan olingan daromadlar;

– byudjet tashkilotlari tomonidan vaqtincha foydalanilmayotgan binolar va davlatning boshqa mol-mulkini boshqa tashkilotlarga ijaraga berishdan tushumlar;

– yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan byudjet tashkilotlariga homiylik (beg'araz) yordami berilishidan olinadigan qo'shimcha daromadlar.

Ushbu manbalardan qo'shimcha daromad olayotgan byudjet tashkilotlari 2000-yil 1-yanvardan boshlab 2023-yil 1-yanvargacha[83] davlat byudjetiga undiriladigan soliqlar, Respublika yo'l jamg'armasiga yig'imlar va davlat maqsadli jamg'armalariga majburiy ajratmalardan ozod qilingan (bu davr ichida ko'rsatilgan

[82] Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 24.05.2018 y., 09/18/384/1266-son

[83] Vazirlar Mahkamasining 414-sonli qarorining (03.09.1999) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 22-maydagi 384-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 24.05.2018 y., 09/18/384/1266-son.

muddat hukumatning tegishli qarorlari bilan bir necha marotaba uzaytirilgan), bo'shab qolgan mablag'lar byudjet tashkilotining moddiy-texnika va ijtimoiy bazasini mustahkamlash, shuningdek, xodimlarni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda moddiy rag'batlantirishga maqsadli yo'naltiriladi.

Byudjet tashkilotlari byudjetdan tashqari mablag'lar hisobidan Byudjet tashkilotini rivojlantirish jamg'armasini shakllantiradilar. Ushbu jamg'arma quyidagi daromadlar va tushumlardan shakllantiriladi:

– hisobot choragining so'nggi ish kuni oxirida xarajatlar smetasi bo'yicha tejalgan mablag'lar (kapital qo'yilmalarni moliyalashtirish uchun nazarda tutilgan mablag'lar bundan mustasno);

– faoliyat ixtisosligi bo'yicha tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan daromadlar;

– byudjet tashkiloti balansida turgan mol-mulkni ijaraga berishdan olingan mablag'larning bir qismi;

– belgilangan tartibda byudjet tashkilotlari tasarrufida qoldiriladigan mablag'lar;

– homiylikdan olingan mablag'lar.

O'z navbatida, Byudjet tashkilotini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari quyidagi yo'nalishlarda ishlatilishi mumkin:

– avvalo vaqtincha mehnatga layoqatsizlik bo'yicha nafaqalarni va mavjud kreditorlik qarzlarni to'lashga;

– byudjet tashkilotining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash tadbirlariga;

– ijtimoiy rivojlantirish va xodimlarni moddiy rag'batlantirish tadbirlariga.

Byudjet tashkilotida vaqtincha mehnatga layoqatsizlik bo'yicha to'lanmagan nafaqalar bo'yicha muddati o'tkazib yuborilgan kreditor qarzdorlik mavjud bo'lsa, Byudjet tashkilotini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan tejab qolingan byudjet mablag'lari doirasida ushbu qarzlarni to'lashga (ishlar, xizmatlar, tovarlar ishlab

chiqarish va sotish bo'yicha jami xarajatlar o'rni qoplangandan so'ng) sarflanadi. Agar kreditor qarzdorlik byudjet tashkilotining xarajatlari vaqtincha yetarli miqdorda mablag' bilan ta'minlanmaganligi munosabati bilan paydo bo'lgan taqdirda, kreditor qarzdorlikning Byudjet tashkilotini rivojlantirish jamg'armasi hisobiga to'langan miqdori joriy moliya yiliga belgilangan xarajatlar limiti doirasida byudjetdan qoplanadi.

Byudjet tashkilotida vaqtincha mehnatga layoqatsizlik bo'yicha to'lanmagan nafaqalar va kreditorlik qarz mavjud bo'lmasa yoxud ushbu qarzlar to'langan taqdirda, tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish bo'yicha jami xarajatlarning o'rni to'ldirilgandan keyin Byudjet tashkilotini rivojlantirish jamg'armasining qolgan mablag'lari (homiylik yordami, beg'araz yordam miqdori bundan mustasno):

– tushgan barcha mablag'larning kamida 75 foizi moddiy-texnika bazasini mustahkamlashga;

– ko'pi bilan 25 foizi byudjet tashkilotlari xodimlarini ijtimoiy himoya qilish va moddiy rag'batlantirish tadbirlariga sarflanadi.

Yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan byudjet tashkilotiga ko'rsatilgan homiylik mablag'larining barcha summasi, agar homiy bilan maxsus holda kelishilmagan bo'lsa, byudjet tashkilotining moddiy-texnika bazasini mustahkamlashga sarflanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 22-dekabrdagi PQ–1275-sonli Qarorining 25-bandiga muvofiq, 2010-yildan boshlab vazirlik va idoralarning, byudjet tashkilotlarining barcha byudjetdan tashqari jamg'armalari mablag'larini davlat byudjetining g'azna ijrosi mexanizmi bilan qamrab olish amalga oshiriladi. Bunda, byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag'lari bo'yicha bank hisobvaraqlari yopilib, G'aznachilikda tegishli shaxsiy hisobvaraqlar ochiladi.

Byudjet tashkilotlarining davlat byudjetining g'azna ijrosi bilan qamrab olingan byudjetdan tashqari mablag'lari quyidagilardan iborat:

– Byudjet tashkilotlarini rivojlantirish jamg‘armasi;

– O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasining ijtimoiy nafaqalarni to‘lash uchun mablag‘lari;

– Tibbiyot muassasalarini moddiy rag‘batlantirish va rivojlantirish jamg‘armasi;

– o‘tgan yillar debitorlik qarzlarining tushgan summasi;

– maktabgacha ta’lim muassasalarida bolalar ta’minoti uchun ota-onalardan tushumlar;

– maktabdan tashqari muassasalarda (musiqa va san’at maktablari) bolalar ta’minoti uchun ota-onalardan tushumlar;

– xodimlardan, ular ishlayotgan joyida ovqatlanganligi bo‘yicha hisob-kitoblardan tushadigan tushumlar;

– maktab-internatlar va litseylarda bolalarning ta’minoti uchun ota-onalardan tushumlar;

– ta’lim muassasalarida o‘qishdan tushadigan mablag‘lar;

– vazirlik va idoralarning ajratmalar hisobiga shakllanadigan byudjetdan tashqari jamg‘armalari;

– umumta’lim muassasalarida darsliklar ijarasi to‘lovidan tushgan byudjetdan tashqari mablag‘lar;

– kapital qo‘yilma mablag‘lari bo‘yicha depozitlar;

– turg‘un davolash-profilaktika muassasalarida davolanayotgan bemorlardan ovqatlanish uchun undiriladigan to‘lovlar.

Xulosa qilib aytganda, byudjet tashkilotlarining qonunchilik bilan belgilab qo‘yilgan rasmiy manbalardan oladigan daromadlari va tushumlari hamda ular bo‘yicha xarajatlarni amalga oshirish davlat byudjeti g‘azna ijrosi mexanizmlari bilan qamrab olingan bo‘lib, byudjet tashkilotiga tegishli mablag‘larning (byudjet va nobyudjet) samarali, maqsadga muvofiq va oqilona ishlatilishini ta’minlash uchun xizmat qiladi, bu mablag‘larning shakllanishi va ishlatilishining dastlabki va joriy nazoratini amalga oshirish imkonini beradi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Davlat korxonalarining qanday tashkiliy shakllari mavjud, ularnng faoliyati qaysi me'yoriy hijjatlar bilan tartibga solinadi?

2. Davlat korxonalari moliyasining mazmuni va o'ziga xos xususiyatlari nimalarda namoyon bo'ladi?

3. Davlat korxonalari moliyaviy resurslarining shakllanish manbalari va ishlatish yo'nalishlari nimalardan iborat?

4. Davlat korxonalarida foydaning shakllanishi, taqsimlanishi va ishlatilishini tushuntirib bering.

5. Davlat korxonalarida pul fondlarining shakllanishi va taqsimlanishi qanday amalga oshiriladi?

6. Byudjet tashkilotlari moliyasining o'ziga xos xususiyatlari nimalarda namoyon bo'ladi?

7. Byudjet tashkilotlari moliyaviy rejasi bo'lgan smetaning elementlari va smetalarning turlarini tushuntirib bering.

8. Smetalarni tuzish, tekshirish, tasdiqlash, ro'yxatga olish va moliyalashtirish tartibi qanday, bu jarayonlar qaysi me'yoriy hijjatlar bilan tartibga solinadi?

9. Byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag'lari manbalari va ularni ishlatish yo'nalishlari nimalardan iborat?

10. Byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag'lari bo'yicha jamg'armalar qanday guruhlanadi?

Mustaqil o'rganish uchun topshiriqlar

1. Davlat korxonalari moliyaviy resurslarining shakllanish manbalari va ishlatish yo'nalishlarini aks ettiruvchi klaster tayyorlang.

2. Davlat korxonalarida foydaning shakllanishi, taqsimlanishi va ishlatilishi to'g'risida tahliliy ish tayyorlang.

3. Byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag'lari manbalari va ularni ishlatish yo'nalishlari qaysi umumiy va maxsus

qabul qilingan me'yoriy hujjatlar bilan tartibga solinishini aks ettiruvchi chizma tayyorlang.

4. Me'yoriy hujjatlarni o'rganish asosida byudjet tashkilotlari byudjetdan tashqari mablag'larining guruhlanishi, ular bo'yicha shaxsiy hisobraqamlarning yuritilishi, yuridik va moliyaviy majburiyatlarni bajarish bo'yicha javobgarlik kabilarni aks ettiruvchi umumlashma jadval tayyorlang.

12-BOB. DAVLAT MOLIYASINING IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDAGI O‘RNI VA AHAMIYATI

12.1. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari

Mustaqillik yillarida mamlakatda huquqiy demokratik davlat, kuchli fuqarolik jamiyati qurishga, erkin bozor munosabatlariga va xususiy mulk ustuvorligiga asoslangan iqtisodiyotni rivojlantirishga, xalq osoyishta va farovon hayot kechirishi uchun shart-sharoitlar yaratishga, xalqaro maydonda O‘zbekistonning munosib o‘rin egallashiga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Bosib o‘tilgan yo‘l va orttirilgan tajribani xolisona baholashdan, mustaqillik yillarida erishilgan yutuqlarni tahlil qilishdan hamda zamon talablaridan kelib chiqqan holda, oldimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va mamlakat taraqqiyotini jadallashtirishning muhim ustuvorliklarini hamda aniq marralarini belgilash vazifasi turgan edi.

Mazkur vazifani amalga oshirish yo‘lida aholining keng qatlamlari, jamoatchilik va ishbilarmon doiralar vakillari, davlat organlarining rahbarlari va mutaxassislari bilan amaliy suhbat hamda muhokamalar olib borildi, shuningdek amaldagi qonun hujjatlari, milliy va xalqaro tashkilotlarning axborot-tahliliy materiallari, ma’ruzalari, tavsiyalari va sharhlari o‘rganildi, rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasi tahlil qilindi.

Kelib tushgan takliflarni jamlash, chuqur o‘rganish hamda umumlashtirish asosida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni loyihasi ishlab chiqilib, u bilan:

2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi (keyingi o‘rinlarda – Harakatlar strategiyasi);

Harakatlar strategiyasini "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturi (keyingi o'rinlarda – Davlat dasturi) tasdiqlandi.

Loyihalarni tayyorlash davomida aholining keng qatlamlari orasida qizg'in muhokamalar olib borildi. Loyihalar muhokama uchun turli axborot maydonlariga joylashtirildi, ularning natijasida ko'plab taklif va mulohazalar kelib tushdi. Fuqarolar siyosiy-huquqiy borada yuksak faollik ko'rsatib, olib borilayotgan islohotlarga alohida qiziqish va daxldorlikni namoyon qildilar.

Xususan, loyihalarning "Qonun hujjatlari ta'sirini baholash tizimi" portalida yo'lga qo'yilgan jamoatchilik muhokamasi natijalari bo'yicha 1 310 ta taklif va mulohaza kelib tushib, ular asosida Davlat dasturining 41 ta bandi qayta ko'rib chiqildi.

Shu bilan birga, 2017-yil 23-27-yanvar kunlari Toshkent shahrida media-haftalik va xalqaro davra suhbati tashkil etilib, ularda 1 300 dan ortiq mutaxassis va ekspert, jamoatchilikning, ommaviy axborot vositalarining, diplomatik korpus va xalqaro tashkilotlarning, shuningdek, O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan yirik xorijiy investorlarning vakillari ishtirok etishdi.

Harakatlar strategiyasiga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan saylovoldi jarayoni, jamoatchilik, ishbilarmon doiralar vakillari hamda davlat organlari bilan uchrashuvlar chog'ida bildirilgan mamlakatni ijtimoiy-siyosiy, sotsial-iqtisodiy, madaniy-gumanitar rivojlantirishning konseptual masalalari kiritildi.

Harakatlar strategiyasining maqsadi olib borilayotgan islohotlar samaradorligini tubdan oshirishdan, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishini ta'minlash uchun shart-sharoitlar yaratishdan, mamlakatni modernizatsiyalash va hayotning barcha sohalarini erkinlashtirishdan iboratdir.

Xususan, mamlakatni rivojlantirishning quyidagi 5 ta ustuvor yo'nalishi belgilangan:

1. Davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirish;

2. Qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilish;

3. Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirish;

4. Ijtimoiy sohani rivojlantirish;

5. Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash, chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosat yuritish.

Mazkur yo'nalishlarning har biri mamlakatdagi islohotlarni va yangilanishlarni yanada chuqurlashtirishga oid aniq bo'limlardan iborat.

Harakatlar strategiyasini besh bosqichda amalga oshirish nazarda tutilmoqda, bunda yillarga beriladigan nomlarga muvofiq har yili uni amalga oshirish bo'yicha Davlat dasturi tasdiqlanadi.

12.2. Harakatlar strategiyasida davlatning iqtisodiy rivojlanish dasturlarini moliyaviy ta'minlash masalalari

Davlat dasturining "Davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirish" deb nomlangan birinchi yo'nalishini amalga oshirishda davlat hokimiyati tizimida Oliy Majlisning rolini kuchaytirish, qonun ijodkorligi faoliyatining sifatini tubdan yaxshilash, davlatning hayotida siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish nazarda tutilgan.

Davlat boshqaruvini takomillashtirish, eng avvalo davlat xizmatini isloh qilish, iqtisodiyotda davlat boshqaruvini kamaytirish, davlat va xususiy sektorlarning o'zaro foydali hamkorligining zamonaviy shakllarini, "Elektron hukumat" tizimini rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish rejalashtirilgan.

Xalq bilan samarali muloqotni ta'minlash Davlat dasturining eng muhim va dolzarb vazifalaridan biri bo'ldi. Shu munosabat bilan jamoatchilik nazoratini takomillashtirish, nodavlat notijorat

tashkilotlarini, ommaviy axborot vositalarini yanada rivojlantirish, shuningdek, mahallaning jamiyat hayotidagi rolini kuchaytirish nazarda tutilmoqda.

Davlat dasturining ikkinchi yo'nalishi qonun ustuvorligini va sudning chinakam mustaqilligini ta'minlash chora-tadbirlarini nazarda tutadi. Jumladan, qarorlar qabul qilishda sudlar mustaqilligini ta'minlashi kerak bo'lgan Oliy sud kengashini tuzish, professional sudyalar korpusini shakllantirish, sudyalarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga doir chora-tadbirlarni amalga oshirish rejalashtirilmoqda.

Ma'muriy sudlarni, xo'jalik sudlari tizimida mintaqaviy apellyatsiya sudlarini tuzish, sudya yordamchisi lavozimini ta'sis etish orqali sudlarni kelgusida ixtisoslashtirish va ularning devonini mustahkamlash nazarda tutilmoqda.

Sansalorlikka va ishlarning ko'rib chiqilishi sudlar tomonidan asossiz cho'zib yuborilishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida protsessual qonun hujjatlarini takomillashtirish, quyi instansiya sudlarining kamchiliklarini mustaqil bartaraf etish va uzil-kesil qaror qabul qilish yuzasidan yuqori sud instansiyalarining vakolatlarini kengaytirish rejalashtirilmoqda.

Ushbu yo'nalish doirasida barcha huquqni muhofaza qilish va nazorat organlari, davlat hamda xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari rahbarlarining xalq bilan bevosita muloqotini yo'lga qo'yish chora-tadbirlarini ro'yobga chiqarish, aholi ularga erkin murojaat eta olishini ta'minlash, jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari hamda erkinliklari buzilganligi to'g'risidagi murojaatlarning, xabarlarning o'z vaqtida olinishini ta'minlash nazarda tutilmoqda.

Huquqbuzarliklarning oldini olish tizimiga, jinoyatchilikka qarshi kurashish va jamoat tartibini saqlash bo'yicha ichki ishlar organlarining faoliyatini tubdan takomillashtirishga alohida e'tibor qaratiladi.

Shuningdek, ushbu yo‘nalish 2018–2021-yillarda jinoyat va jinoyat-protsessual qonun hujjatlarini yanada takomillashtirish konsepsiyasini ishlab chiqishni, sud, huquqni muhofaza qilish va nazorat organlari xodimlarini o‘qitish, tanlash va joy-joyiga qo‘yish tizimini takomillashtirishni, murojaatlarni muntazam tahlil qilishni hamda vaqti-vaqti bilan uning natijalarini e’lon qilib borishni, advokaturani rivojlantirishni, notariat tizimini va FHDYO organlarini isloh qilishni ham o‘z ichiga oladi.

“Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirish”, deb nomlangan uchinchi yo‘nalishda ko‘rsatilgan chora-tadbirlarni ro‘yobga chiqarish uchun milliy valyuta va narxlarning barqarorligini ta’minlash, valyutani tartibga solishning zamonaviy bozor mexanizmlarini bosqichma-bosqich joriy etish, mahalliy byudjetlarning daromad bazasini kengaytirish, tashqi iqtisodiy aloqalarni kengaytirish, eksportga mo‘ljallangan mahsulot va materiallar ishlab chiqarish uchun zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, transport-logistika infratuzilmasini, tadbirkorlikni rivojlantirish hamda xorijiy investorlar uchun investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish, soliq ma’murchiligini yaxshilash, bank faoliyatini tartibga solishning zamonaviy prinsiplari va mexanizmlarini joriy etish, ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaliklarini rivojlantirish, shuningdek, turizm industriyasini jadal rivojlantirish nazarda tutilmoqda.

Shuningdek, ushbu yo‘nalish xususiy mulkni, moliya bozorini himoya qilish, qishloq xo‘jaligini modernizatsiyalash, zargarlik sohasini rivojlantirish, ayrim milliy korxonalarning aksiyalarini (IPO) nufuzli xorijiy fond birjalariga dastlabki tarzda joylashtirishga tayyorgarlik ko‘rish chora-tadbirlarini ham o‘z ichiga oladi.

2017–2021-yillarda umumiy qiymati 40 milliard AQSh dollari miqdoridagi 649 ta investitsiya loyihasini nazarda tutuvchi tarmoq dasturlarini ro‘yobga chiqarish rejalashtirilmoqda. Natijada keyingi 5 yilda sanoat mahsulotini ishlab chiqarish 1,5 baravar, uning yalpi

ichki mahsulotdagi ulushi 33,6 foizdan 36 foizgacha, qayta ishlash tarmog'i ulushi 80 foizdan 85 foizgacha oshadi.

"Ijtimoiy sohani rivojlantirish" deb nomlangan to'rtinchi yo'nalish aholi bandligini oshirish, fuqarolarni ijtimoiy himoya qilish va ularning salomatligini saqlash, yo'l-transport, muhandislik-kommunikatsiya hamda ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish va modernizatsiyalash, aholini elektr energiya, gaz bilan ta'minlashni yaxshilash, aholining muhtoj qatlamlariga ko'rsatiladigan ijtimoiy yordam sifatini oshirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy hayotdagi maqomini oshirish, sog'liqni saqlash sohasini isloh qilish, maktabgacha ta'lim muassasalarining qulayligini ta'minlash, umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus va oliy ta'lim sifatini yaxshilash hamda ularni rivojlantirish chora-tadbirlarini amalga oshirishni nazarda tutadi.

Xususan, hududlarni har tomonlama rivojlantirish bo'yicha qariyb 25 mingta investitsiya loyihasini ro'yobga chiqarish hisobiga 256,4 ming ish o'rni tashkil etish orqali aholini ish bilan ta'minlash dasturlarini to'liq ijro etish nazarda tutilgan. Ishsizlik darajasi eng yuqori bo'lgan mintaqalarda 46,8 ming yangi ish o'rni tashkil etish, tadbirkorlik faoliyatini boshlash uchun ta'lim muassasalarining 10 ming nafar bitiruvchisiga kreditlar ajratish rejalashtirilmoqda.

Katta yoshli avlodni qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy nafaqalar berish tartibini takomillashtirish, sog'liqni saqlash sohasini isloh qilish chora-tadbirlari kiritilgan. Jumladan, 78 ta tuman tibbiyot birlashmasini, 7 ta shahar va 2 ta viloyat ko'p tarmoqli tibbiyot markazini qayta qurish, tez tibbiy yordam xizmatini 1200 ta maxsus avtotransport bilan ta'minlash rejalashtirilmoqda.

Qishloq joylarda 15 mingta arzon uy-joy, 415 kilometrlik suv ta'minoti quvurlari, 316 kilometrlik gaz ta'minoti quvurlari va 291 kilometrlik ichki yo'llar qurish rejalashtirilgan. Aholiga transport xizmatlari ko'rsatish sifatini yaxshilash maqsadida 86 ta yangi avtobus

yo‘nalishini joriy etish va 537 ta zamonaviy avtobus xarid qilish nazarda tutilmoqda.

“Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta’minlash, chuqur o‘ylangan, o‘zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosat yuritish”, deb nomlangan beshinchi yo‘nalish doirasida respublikaning konstitutsiyaviy tuzumini, suverenitetini, hududiy yaxlitligini himoya qilishga doir chora-tadbirlarni ro‘yobga chiqarish, kiberxavfsizlik sohasida axborot, normativ-huquqiy asoslar tizimini takomillashtirish, aholini favqulodda vaziyatlardan xabardor qilish tizimini tashkil etish va rivojlantirish, Orol fojiasining oqibatlarini yumshatish, shuningdek, Millatlararo munosabatlar sohasidagi siyosatning ustuvor yo‘nalishlari konsepsiyasini hamda Diniy sohadagi davlat siyosati konsepsiyasini ishlab chiqish nazarda tutilmoqda.

Shu bilan birga, xorijiy hamkorlar bilan siyosiy-diplomatik sohadagi hamkorlikni rivojlantirishga doir “Yo‘l xaritalari”ni ishlab chiqish, O‘zbekistonning xorijiy hamkorlar bilan 2017-yilga mo‘ljallangan savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy, texnologik va moliyaviy-texnik hamkorligini tubdan rivojlantirish va kengaytirish rejalashtirilmoqda.

Davlat dasturining yuqorida qayd etilgan barcha chora-tadbirlarini amalga oshirishga 37,7 trillion so‘m va 8,3 milliard AQSh dollari yo‘naltiriladi.

Kelgusi besh yilda mamlakatni rivojlantirishning strategik va ustuvor yo‘nalishlarini belgilash maqsadida Farmon asosida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti boshchiligida Harakatlar strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha Milliy komissiya tuzilmoqda.

Davlat dasturiga kiritilgan tadbirlar to‘liq, o‘z vaqtida va sifatli bajarilishini nazorat qilish Harakatlar strategiyasi beshta yo‘nalishining har biri bo‘yicha tuzilgan komissiyalar zimmasiga yuklatilgan.

Ushbu komissiyalar zimmasiga nafaqat yuqorida qayd etilgan vazifalarni amalga oshirish, balki 2018–2021-yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasini amalga oshirish bo'yicha tegishli yillik davlat dasturlari loyihalarini tayyorlash ham yuklatilmoqda.

Harakatlar strategiyasining amalga oshirilishi O'zbekiston Respublikasining mamlakatni isloh qilish va modernizatsiyalash, rivojlangan bozor iqtisodiyotiga asoslangan huquqiy demokratik davlat, kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish, qonun ustuvorligini, xavfsizlik va huquq-tartibotni, davlat chegaralarining daxlsizligini, jamiyatda millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash yo'lidagi shaxdam harakatlariga yangi kuch bag'ishlaydi.

12.3. Iqtisodiyotni liberallashtirish va erkinlashtirishga qaratilgan davlat dasturlari, mazmuni, amalga oshirish chora-tadbirlari, moliyaviy manbalari

Bugungi kunda keng jamoatchilik muhokamasi natijasida ishlab chiqilgan hamda Prezident qarori bilan tasdiqlangan 2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning Harakatlar strategiyasi va uning alohida ustuvor yo'nalishlari ham inson hayoti va uning manfaatlarini himoyalash bilan bog'liq yo'nalish va tarmoqlarni o'zida mujassam etgan ijtimoiy soha rivojini ta'minlash, uni yangi bosqichga ko'tarish, bu sohadagi muammolarni yechish, bu sohalar rivojining qonuniy-huquqiy asoslarini mustahkamlashga qaratilganligi bilan ayniqsa ahamiyatlidir. Bu boradagi mavjud muammolarni bartaraf etish, jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, oddiy odamlarning mamlakatda olib borilayotgan islohotlar va ularning natijalaridan qoniqishlariga erishish, aholining ta'sirchan ijtimoiy muhofazasini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida qator chora-tadbirlar ko'zda

tutilgan bo‘lib, ularni quyidagi yo‘nalishlarda olib borish belgilangan, jumladan:

– aholiga majburiy ijtimoiy kafolatlarni ta’minlash, aholining ehtiyojmand qatlamlari ijtimoiy himoyasini hamda keksalar va imkoniyati cheklangan shaxslarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirish, ijtimoiy xizmat ko‘rsatishni yaxshilash, aholiga ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatishda davlat-xususiy sherikligini rivojlantirish;

– pensionerlar, nogiron, yolg‘iz keksalar, aholining boshqa ehtiyojmand toifalarining to‘laqonli hayot kechirishlarini ta’minlash uchun ularga tibbiy-ijtimoiy yordam ko‘rsatish tizimini yanada rivojlantirish va takomillashtirish[84].

Aholini ijtimoiy muhofaza qilish borasida Davlat dasturini amalga oshirishning ustuvor vazifa va yo‘nalishlari doirasida quyidagilar belgilandi[85]:

– hududlarni, ayniqsa ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishda nisbatan orqada qolayotgan tumanlar va shaharlarni, chekka aholi punktlarini kompleks, jadal rivojlantirish, tijorat banklarining faol ishtirokida yangi ish o‘rinlari yaratilishini ta’minlash va shu asosda ish haqi, pensiyalar, nafaqalar va stipendiyalar miqdorlarini bosqichma-bosqich ko‘paytirish, aholining hayoti darajasi va sifatini oshirish;

– ta’lim, ijtimoiy ta’minot va sog‘liqni saqlash tizimlarini, shu jumladan onalik va bolalikni muhofaza qilishni yanada rivojlantirish, oila institutini mustahkamlash, sog‘lom va barkamol avlodni tarbiyalash, yoshlarning iqtidorlari va qobiliyatlarini ro‘yobga chiqarish, ularning hayotda munosib o‘ringa ega bo‘lishlari uchun

---

[84] 2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yichaHarakatlar strategiyasi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF–4947-sonli Farmoniga 1-ilova. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 6-son, 70-modda.

[85] “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili” Davlat dasturini ishlab chiqish va amalga oshirishning tashkiliy chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 17-dekabr F–4760-son farmoyishi. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 8-son, 119-modda.

keng imkoniyatlar yaratish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish va Davlat dasturida nazarda tutilgan boshqa tadbirlar.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 12-sentyabrdagi “Aholining kam ta’minlangan qatlamini qo‘llab-quvvatlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–3268-sonli qarori[86] qabul qilindi. Bir qator idora va tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilayotgan aholining kam ta’minlangan qatlamini 2017–2018-yillarda ijtimoiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash hududiy manzilli dasturlari ma’qullandi.

Ushbu hududiy manzilli dasturlar quyidagilarni nazarda tutdi:

a) mehnat bilan bandlikning ma’lum bir turlari bilan shug‘ullanish istagida bo‘lgan kam ta’minlangan oilalarga ularning oilasini o‘ziga yetarliligini ta’minlovchi mikrokreditlar tijorat banklarining imtiyozli kreditlash maxsus fondi mablag‘lari hisobidan quyidagi maqsadlarga ajratiladi:

– tikuv mashinalari, matolar va boshqa sarf materiallari, kosibchilik faoliyati uchun inventarlar, maishiy, kompyuter va boshqa texnikalar, shuningdek, mehnat bilan bandlikni ta’minlovchi boshqa asbob-uskunalar xarid qilish uchun;

– shaxsiy tomorqa uchastkalarini rivojlantirish (mini-issiqxonalar barpo etish, chorva mollari, parranda sotib olish, og‘ilxona va tovuqxona qurish, bog‘dorchilik inventarlari va asboblari xarid qilish) va uy joy ta’miri uchun;

b) og‘ir uy-joy va maishiy sharoitlarda yashovchi, boquvchisini yo‘qotgan, nogironlarni parvarishlayotgan oilalarga quyidagi maqsadlarda beg‘araz yordam ko‘rsatilishi belgilangan edi:

– 2017–2018-yillarda respublikada uy-joyi bo‘lmagan yoki avariya holatidagi va puturdan ketgan uy-joylarda yashovchi har bir tumandan 2 ta, har bir shahardan esa 5 oilaga 10 yil mobaynida ixtiyoriga olish huquqisiz arzon uy-joylar xarid qilishda;

– 2017–2018-yillarda respublikadagi tumanlarning har biridan

[86] O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 37-son, 988-modda

10 ta, shaharlardan esa 25 ta kam ta'minlangan oilaga turar-joy ta'miri (tomni ta'mirlash, yangi pol o'rnatish, derazalarni almashtirish va sh.k.) o'tkazishda;

– respublikaning har bir tumani va shaharidan 70 tadan oilaga har yili maishiy texnika (gaz va elektr pechlar, muzlatkichlar, tikuv mashinalari va sh.k.) yoki bir bosh yirik shoxli qoramol xarid qilishda;

– respublikaning har bir tumani va shaharida og'ir kasali mavjud, davolatish uchun to'lov qilishda mablag'i yo'qligi aniqlangan o'rtacha 6 tagacha kam ta'minlangan oilaga tibbiy xizmatlarini to'lashda.

PQ–3268-sonli Qaroriga ko'ra O'zbekiston Respublikasi bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi qoshida Jamoatchilik ishlari fondi tuzildi.

O'zbekiston Respublikasi bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari bilan birgalikda mamlakatning barcha hududlaridagi, ayniqsa qishloq joylar va chekka hududlardagi mehnat bilan band bo'lmagan fuqarolarini aholi punktlarini, mahallalarni, obodonlashtirish bo'yicha jamoat ishlariga – ariqlarni va irrigatsiya tarmoqlarini tozalashga, turar-joy-kommunal xo'jalik obyektlarini ta'mirlashga, infratuzilmani yaxshilashga, yo'llar va ko'chalar, turar-joy fondi va unga yondosh hududlarni obyektlarini ta'mirlashga, shuningdek, qishloq xo'jaligi ishlariga keng jalb qilish borasida chora-tadbirlar ishlab chiqish vazifasi belgilandi.

Aholining band bo'lmagan qatlamini mehnatga jalb qilish 2017-yilning 1-oktyabridan Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrining bittadan tumanida tajriba tariqasida, 2018-yilning 1-yanvaridan bosqichma-bosqich respublikaning barcha tumanlarida amalga oshirilishi belgilab qo'yildi.

Ushbu tartibga ko'ra:

– jamoat ishlariga jalb qilingan jismoniy shaxslar ularning Jamoatchilik ishlari fondi mablag'laridan olgan daromadi jismoniy shaxslarning daromadidan to'lanadigan soliqdan ozod qilinadi;

– jamoat ishlariga jalb qilinayotgan jismoniy shaxslarning Jamoatchilik ishlari fondi mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladigan mehnat haqi yagona ijtimoiy to'lovga tortilmaydi.

Qarorga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari va Moliya vazirliklariga 2017–2018-yillarda 14 yoshgacha farzandlari bo'lgan oilalarga yordam puli va kam ta'minlangan oilalarga moddiy yordam berish ko'rinishida kam ta'minlangan oilalarni qo'llab-quvvatlash uchun byudjet mablag'larini ko'paytirish, yordam pullari oluvchi kontingentni mos ravishda 1,5 va 2 barobar kengaytirishni ta'minlash belgilandi. Bu maqsadda Moliya vazirligiga 14 yoshgacha farzand tarbiyalayotgan oilalarga yordam puli va kam ta'minlangan oilalarga moddiy yordam to'lashni moliyalashtirish uchun qo'shimcha byudjet mablag'lari ajratish vazifasi topshirildi. 2018-yilning 22-yanvar kuni mamlakatimizning kelgusi istiqbolini belgilashga xizmat qiluvchi yana bir muhim huquqiy hujjat qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF–5308-son Farmoni bilan 2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturi qabul qilindi. Davlat dasturining 4.1. "Aholining ijtimoiy himoyasini yanada kuchaytirish" nomli bo'limida ushbu maqsadlar uchun quyidagi chora-tadbirlar belgilangan[87]:

– ilg'or xorijiy tajriba asosida aholining munosib hayot kechirishi uchun zarur bo'lgan daromadlarni aniqlash bo'yicha "iste'mol savatchasi"ga oid munosabatlarni huquqiy tartibga solish;

– davlat tomonidan nogironligi bo'lgan shaxslarga bepul taqdim etiladigan protez-ortopediya buyumlari va texnik reabilitatsiya

[87] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 22-yanvardagi "2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturi to'g'risida"gi PF–5308-son Farmoni. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 23.01.2018 y., 06/18/5308/0610-son.

vositalari turlarini ko'paytirish hamda ularning tegishli standartlarini joriy qilish;

– "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni loyihasini ishlab chiqish;

– og'ir maishiy sharoitlarda yashayotgan, boquvchisini yo'qotgan, nogironlarni parvarish qilayotgan oilalarga ijtimoiy yordam ko'rsatish.

Xulosa qilib aytganda, aholiga majburiy ijtimoiy kafolatlarni ta'minlash, uning ehtiyojmand qatlamlari ijtimoiy himoyasini hamda keksalar va imkoniyati cheklangan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashni kuchaytirishda davlat hal qiluvchi o'rin egallaydi. Boshqa tuzilmalar va fuqarolik institutlari mazkur yo'nalishlardagi davlat tomonidan belgilangan maqsadlarga erishishda davlatga ko'maklashadilar. Davlat aholini ijtimoiy himoya qilishning boshqa institutlari bilan munosabatlarini ijtimoiy sherikchilik asosida yo'lga qo'yadi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Harakatlar strategiyasining davlatning iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanish dasturlarini moliyaviy ta'minlash manbalari nimalardan iborat?
2. Iqtisodiyotni liberallashtirish va erkinlashtirishga qaratilgan davlat dasturlari, mazmuni, amalga oshirish chora-tadbirlari, moliyaviy manbalari qaysilar?
3. Ijtimoiy dasturlarning yo'nalishlari va moliyalash manbalarining tarkibi va tuzilishi qanday? Bu borada qanday o'zgarishlar bo'ldi?

Mavzu yuzasidan topshiriqlar

1. Davlat moliyasining iqtisodiyotni rivojlantirishdagi o‘rni va ahamiyatini aks ettiruvchi klaster tayyorlang.

2. Iqtisodiyotni liberallashtirish va erkinlashtirishga qaratilgan davlat dasturlari doirasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar va ularni moliyaviy manbalari to‘g‘risida taqdimot tayyorlang.

3. Xorijiy davlatlarda davlat moliyasining iqtisodiyotdagi o‘rni va ahamiyati haqida mustaqil ish tayyorlang.

13-BOB. DAVLAT MOLIYASINING INVESTITSION JARAYONLARGA TA'SIRI

13.1. Iqtisodiyotga investitsiyalarni jalb qilishda davlat moliyasining orni va ahamiyati

"Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, qaysi davlat faol investitsiya siyosatini yuritgan bo'lsa, o'z iqtisodiyotining barqaror o'sishiga erishgan. Shu sababli ham investitsiya – bu iqtisodiyot drayveri, o'zbekcha aytganda, iqtisodiyotning yuragi, desak, mubolag'a bo'lmaydi", deb ta'kidlagan edi Prezident Sh.Mirziyoyev o'z ma'ruzalarining birida.

Haqiqatan ham, iqtisodiyotda investitsiyalarni keng miqyosda jalb etishga erishish ko'plab sohalar, tarmoqlar hamda hududlarga yangi texnologiyalar, ilg'or tajribalar, yuksak malakali mutaxassislar kirib kelishi va tadbirkorlikning jadal rivojlanishiga ulkan poydevor bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekiston respublikasi Prezidentining 2020-yil 18-avgustdagi "Respublikada eksport va investitsiya salohiyatini yanada rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF–6042-son Farmoni ham mamlakatda investitsiya salohiyatini rivojlantirishga qaratilgani bilan o'ta ahamiyatlidir.

Unga ko'ra, eksport salohiyatini yanada kengaytirish, investitsiya dasturiga kiritilgan loyihalar, xalqaro moliya institutlari va xorijiy hukumat moliya tashkilotlari ishtirokidagi investitsiya loyihalari hamda oliy darajadagi tashriflar davomida imzolangan hujjatlarni amalga oshirish bo'yicha "yo'l xaritalariga kiritilgan tadbirlarning ijrosini o'z vaqtida va sifatli ta'minlash maqsadida Eksport va investitsiyalarni rivojlantirish masalalari bo'yicha Hukumat komissiyasining vazifalari va tarkibi yangilandi.

Endilikda Hukumat komissiyasi Prezidentning hududlarga tashriflari yakunlari bo'yicha qabul qilingan bayonnoma topshiriqlarining eksport, investitsiyalar, hududiy sanoatni

rivojlantirish va ishlab chiqarishni mahalliylashtirish hamda boshqa tashqi iqtisodiy aloqalar sohasidagi qismining ijrosini ta'minlaydi.

Farmonda belgilab qo'yilganidek, Hukumat komissiyasiga bir qator vakolatlar ham berildi:

birinchidan, jahon va ichki bozorda narx va talab konyunkturasi, ishlab chiqarish va taqsimot balanslaridan kelib chiqib, eksport prognozining yillik umumiy ko'rsatkichlarini saqlagan holda eksport prognoz ko'rsatkichlariga o'zgartirish kiritish;

ikkinchidan, investitsiya dasturlariga ularning umumiy parametrlari hamda ko'rsatkichlarini saqlagan holda tuzatish, qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish;

uchinchidan, oliy darajadagi tashriflar davomida imzolangan hujjatlarni amalga oshirish yuzasidan tasdiqlangan "yo'l xaritalari" hamda XMI va XHMT bilan hamkorlik bo'yicha "yo'l xaritalari"ga Prezident Administratsiyasi bilan kelishilgan holda o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish.

Komissiya belgilangan vazifalarning sifatli va o'z vaqtida bajarilishini o'rganish uchun doimiy ravishda viloyatlarga tashriflarni amalga oshiradi hamda har chorakda Prezident Administratsiyasiga tegishli axborot kiritib boradi.

Farmonga asosan Vazirlar Mahkamasi tuzilmasida Investitsiya loyihalarining amalga oshirilishi va tashqi savdoni monitoring qilish inspeksiyasi tashkil etildi.

Uning zimmasiga Hisob palatasining mamlakatimiz Prezidentining oliy darajadagi tashriflari davomida imzolangan hujjatlari ijrosini nazorat qilish, strategik korxonalar ishtirokidagi investitsiya loyihalarining to'liq va o'z vaqtida bajarilishi ustidan nazoratni tashkil etish hamda mahalliylashtirish jarayonini yanada takomillashtirish, byudjet tashkilotlari, byudjet mablag'larini oluvchilar va monitoring yuritiladigan korxonalar tomonidan import qilingan mahsulotlarning asoslanganligini o'rganish kabi funksiyalari yuklandi. Hukumat komissiyasi esa inspeksiya faoliyatini muvofiqlashtiradi.

Xulosa qilib aytganda, investitsiya bo'lmasa, iqtisodiyot rivojlanmaydi. Demak, endi investitsiyalarni nafaqat iqtisodiyot tarmoqlariga, balki ilmiy ishlanmalar va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlashga yo'naltirish o'ta muhimdir. Zero, mamlakat iqtisodiyotini taraqqiy ettirishda investitsiyalarning ahamiyati beqiyos.

13.2. Innovatsion iqtisodiyotga investitsiyalarni jalb qilish va ularni samarali boshqarish

Iqtisodiyotning turli tarmoqlaridagi innovatsion faoliyat iqtisodiy o'sishning muhim omili bo'lib hisoblanadi. Shu sababli investitsion jarayonlarning samarali kechishi uchun davlat, mahalliy hokimiyatlar, alohida korxonalar hamda jismoniy shaxslar tomonidan moddiy, moliyaviy, mehnat resurslarini jalb qilish, axborot va huquqiy ta'minotni yaxshilash, boshqaruvning samaradorligini oshirish talab etiladi. Investitsiyalar jalb qilinmas ekan, malakali mutaxassislar faoliyati ta'minlanmas ekan, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tadbirlari ko'rilmas ekan, bironta ham ilmiy g'oya yoki tajriba-konstruktorlik ishi o'zining amaliy ahamiyatini ko'rsata olmaydi.

"Mamlakatda qisqa muddatda innovatsiyaga yo'naltirilgan iqtisodiyotni shakllantirish va innovatsiyalarni keng joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi. Respublikani innovatsion va ilmiy-texnik rivojlantirish sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshiruvchi organ tashkil etilganligi, uning huzurida Innovatsion rivojlanish va novatorlik g'oyalarini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi shakllantirilganligi mazkur yo'nalishdagi muhim bosqichlardan biri bo'ldi"[88].

Investitsion faoliyat va ilmiy-texnika taraqqiyoti o'zaro uzviy bog'liqligining bir nechta muhim jihatlari mavjud. Avvalo, ilm-fanning jamiyatning bevosita ishlab chiqarish kuchiga aylanib

[88] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 7-maydagi "Iqtisodiyot tarmoqlari va sohalariga innovatsiyalarni joriy etish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3698-son Qarori. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 08.05.2018 y., 07/18/3698/1178-son.

borayotgan sharoitida, investitsiyalarga ilmiy tadqiqotlarning o'ziga xos katalizatori sifatida qarash lozim. Shu munosabat bilan innovatsiyalar asosida fan-texnika taraqqiyotining so'nggi yutuqlari bazasida iqtisodiyot real sektorini rivojlantirishga imkoniyat yaratadigan iqtisodiy o'sishni moliyalashtirish modelini yaratish lozim.

Iqtisodiyotga investitsiyalarni jalb qilishning zarurligi va shart-sharoitlari haqida gap borar ekan, shuni ta'kidlash lozimki, bozor munosabatlarining asosini tashkil etuvchi subyektlar iqtisodiy faoliyatlari ular moddiy bazasining rivojlanganlik darajasiga bog'liq, chunki moddiy resurslardan samarali foydalanish har qanday iqtisodiy o'sishning sharti va bosh omili hisoblanadi.

Bilimga asoslangan iqtisodiyot iqtisodiyotning sanoat rivojlanishidan keyingi va innovatsion iqtisodiyotning oliy bosqichi hisoblanadi. Bunda ko'pincha "bilimga asoslangan iqtisodiyot" atamasi "innovatsion iqtisodiyot" sinonimi sifatida ishlatiladi. Ammo bilimga asoslangan iqtisodiyot – innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirishning oliy bosqichidir.

Jahon Banki ekspertlarining ta'rifiga ko'ra: "Bilimga asoslangan iqtisodiyot – o'zining o'sishi va raqobatdoshligini oshirish uchun bilimlarni yaratadigan, tarqatadigan va ulardan foydalanadigan iqtisodiyotdir"[89].

Birlashgan Millatlar Tashkilotining mutaxassislari tomonidan bilimga asoslangan iqtisodiyotga batafsilroq ta'rif berilgan, ya'ni u "bilimlar barcha tarmoqlar, barcha sektorlar, iqtisodiy jarayonlarning barcha qatnashchilarini boyitadigan iqtisodiyotdir. Ayni paytda bunday iqtisodiyot turli shakllardagi bilimlardan foydalanibgina qolmasdan, balki mazkur bilimlarni yuqori texnologiyali mahsulotlar, yuqori malakali xizmatlar, ilmiy mahsulot va ta'lim sifatida yaratadi"[90] (13.1-rasm).

---

[89]Manba: http: // www.worldbank.org.

[90] Birlashgan Millatlar Tashkilotining O'zbekiston Respublikasidagi vakolatxonasi materiallari.Manba: http: // www.undp.uz.



13.1-rasm. **Jahon banki ekspertlari fikricha, bilimlarga asoslangan iqtisodiyotning tarkibiy qismlari**[91]

Bilimga asoslangan iqtisodiyot "moddiy iqtisodiyot"dan "intellektual iqtisodiyot"ga o'tishni nazarda tutadi. Buning mohiyati shundan iboratki, bilimlar va maxsus noyob ko'nikmalar barqaror iqtisodiy o'sishning asosiy manbai va hal qiluvchi omiliga aylanadi. Akademik V.L.Makarovning fikricha, "Bilimga asoslangan iqtisodiyotda, bir tomondan, olimlar tomonidan qanchalik ko'p bilim yaratilsa, ikkinchi tomondan, odamlar bu bilimlarni qanchalik ko'p iste'mol qilsalar, shunchalik ko'p mahsulot hajmi ortadi. Ya'ni bilimlarni pirovard iste'molchilarga yetkazadigan olimlarning ham, uni iste'mol qiladigan odamlarning ham ishi muhimdir"[92].

Bilimga asoslangan iqtisodiyot infratuzilmasiga iqtisodiy o'sishni ta'minlaydigan quyidagi omillar kiradi:

– yuksak turmush sifatini amalga oshiradigan samarali davlat institutlari;

– yuqori sifatli ta'lim, samarali ilm-fan;

– samarali ilmiy-texnikaviy venchur biznesi;

– yuqori sifatli inson kapitali;

[91] Abdurahmonov Q.X. Inson taraqqiyoti. Darslik. – T.: Iqtisodiyot, 2013. – B.497.

[92] Макаров В.Л. Экономика знаний: уроки для России // Вестник Российской академии наук, 2013, №5.- С.73.

– bilimlar va yuqori texnologiyalarning yaratilishi;

– axborot jamiyati yoki bilimlar jamiyati.

Hozirgi vaqtda faqat AQSH hamda Yevropa Ittifoqiga a'zo ayrim davlatlarning iqtisodiyotini "bilimga asoslangan iqtisodiyot" deb atash mumkin. Jahonning ushbu taraqqiy etgan davlatlari olimlar tomonidan yaratilgan ilmiy g'oyalarni tovarlar va mahsulotlarga tez va samarali aylantirish uchun eng maqbul shart-sharoitlarni yaratdilar. Bevosita ilmiy tadqiqotlar, inson kapitaliga investitsiyalarning ortishi va buning natijasida eng yangi texnologiyalarning o'zlashtirilishi jahonning yetakchi mamlakatlariga iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atlarini ta'minlash imkoniyatini bermoqda.

Mehnatni bilimlar bilan almashtirish bilan bog'liq tub o'zgarishlarning mohiyati shundan iboratki, bilimlar resurslarni qayta ishlashga jalb qilinar ekan, mehnat emas, balki bevosita bilimlar qiymat manbai sifatida namoyon bo'ladi. Mohiyat jihatidan "qiymatning mehnat nazariyasi" "bilimlar tomonidan yaratiladigan qiymat" nazariyasi bilan almashtirilmoqda.



13.2-rasm. **Bilimga asoslangan iqtisodiyot tizimi**[93]

[93]Abdurahmonov Q.X. Inson taraqqiyoti. Darslik. – T.: Iqtisodiyot, 2013. – B.500.

Bilimlarga asoslangan iqtisodiyot – bilimlardan o'zining o'sishi va raqobatbardoshligini ta'minlash uchun foydalanayotgan iqtisodiyotdir. Bunday iqtisodiyotda bilimlar iqtisodiyot barcha tarmoqlarini, iqtisodiy jarayonlarning barcha qatnashchilarini boyitib boradi. Bilimlarga asoslangan iqtisodiyot nafaqat iqtisodiy (tannarxning arzonlashishi, strategik raqobat ustunligi), balki ulkan ijtimoiy ahamiyatga ega, u turmush sifatini yaxshilash prinsiplariga asoslangan (13.2-rasm).

Insoniyatning bugungi kunda ega bo'lgan bilimlarini 90 foizi so'nggi 30 yil ichida yaratilgan. Umuman, jahonda bilimlarni birinchi marta ikki barobarga ko'paytirish uchun bir ming yetti yuz yil (milodiy I-XVII asrlar) kerak bo'ldi. Bilimlarning ikkinchi bor yana ikki marotabaga ortishi esa 1900-yilda sodir bo'ldi. Bilimlarning uchinchi marta yana ikka karraga ko'paygan sanasi sifatida 1950-yil ko'rsatiladi.

Sivilizatsiyaning butun tarixi davomida yetishib chiqqan olimlar va muhandislarning 90,0 foizi ham zamondoshlarimizdir.

XXI asrni – axborot asri deb atalishi bejiz emas. Ushbu ming yillik boshiga kelib axborot hajmi 30 barobarga ortdi.

Bilimlarga asoslangan iqtisodiyot tizimida bilimlardan resurs sifatida foydalanish – bilimlarni joriy etish, birinchi navbatda, innovatsion jarayonni amalga oshirish bilan bog'liq. Bilimlarni joriy etish samarasi, eng avvalo inson farovonligini aks ettiradigan uning salomatligi, turmush darajasining sifati va umr ko'rish davomiyligida o'z ifodasini topadi.

Tovarlar va xizmatlar tannarxini arzonlashtirishga xizmat qiladigan bilimlardan foydalanish ishlab chiqaruvchilarga raqobatda strategik ustunlik beradi. Natijada korxonalar va ular xodimlarining daromadlari ortadi. Pirovard natijada esa bu milliy iqtisodiyotning barqaror yuqori sur'atlarda o'sishini ta'minlaydi. Bundan tashqari, daromadlarni qayta taqsimlashga qaratilgan davlat siyosati ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat sohalarini, aholini ijtimoiy himoya qilish dasturlarini moliyalashtirishni ko'paytiradi.

Innovatsiya (inglizcha "innovationas" –"kiritilgan yangilik", "ixtiro" so'zidan) – fan-texnika yutuqlari va ilg'or tajribaga asoslangan texnika, texnologiya, boshqarish va mehnatni tashkil etish kabi sohalardagi yangiliklar, shuningdek, ularning turli sohalar va faoliyat doiralarida qo'llanilishidir.

Keng ma'noda innovatsiya deyilganda yangi texnologiyalar, mahsulot va xizmatlar turlari sifatidagi yangiliklar, ishlab chiqarish, moliya, tijorat, ma'muriy yoki boshqa xususiyatlarga ega tashkiliy-texnikaviy va ijtimoiy-iqtisodiy qarorlardan samarali foydalanish tushuniladi. Yangilik g'oyasining tug'ilishi, uning yaratilishi va ommalashishidan boshlab foydalanishgacha bo'lgan vaqtni innovatsiyaning hayotiy sikli deb atashadi. Ana shular bilan bog'liq ishlarni olib borish tartibi hisobga olingan holda innovatsiyaning hayotiy sikliga innovatsiya jarayoni sifatida qaraladi. Mamlakatdagi innovatsion tizimni quyidagicha ifodalash mumkin (13.3-rasm).



13.3-rasm. **Innovatsion tizimning amal qilishi**

Bozor iqtisodiyoti sharoitida innovatsion faoliyat innovatsiyalarni kiritishdan iborat. Yangilik – yangiliklar bozorini, investitsiyalar – kapital (investitsiya) bozorini yaratganidek, yangilik kiritish – yangilik kiritishning sof raqobat bozorini yaratadi.

Xalqaro standartlarga ko‘ra, innovatsiya bozorida joriy etilgan yangi yoki takomillashtirilgan mahsulot, amaliy faoliyatda qo‘llaniladigan yangi yoki takomillashtirilgan texnologik jarayon yoxud ijtimoiy xizmatlarga yangicha yondashuv – innovatsiya faoliyatining pirovard natijasi sifatida baholanadi.

Ekspertlar tomonidan ilmiy tadqiqot va ilmiy ishlanmalarga sarf qilingan har 1 AQSH dollari texnikaga sarf qilingan 1 AQSH dollariga nisbatan sakkiz barobar ko‘p foyda keltirishi hisoblab chiqilgan.



13.4-rasm. **Milliy innovatsion tizimning amal qilishi**

Milliy innovatsion tizimda unsurlarning birinchi guruhi inson kapitali, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sektori, intellektual mulkni himoya qilish tizimi, shuningdek, umumiy tadbirkorlik muhitini qamrab oladi. Milliy innovatsion tizim uchun ushbu unsurlar zarur, lekin yetarli emas, shuning uchun ularni qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish talab qilinadi.

Unsurlarning ikkinchi guruhiga innovatsiyalarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash vositalari (grantlar, imtiyozli yoki kafolatli kreditlash) tashkiliy vositalar (ilmiy-texnikaviy biznes-inkubatorlar, texnologiya bog'lari, texnologiyani o'zlashtirish bo'yicha tashkilotlar) hamda yangi mahsulotlar, xizmatlar, texnologiyalar, nou-xaular, patentlar kiradi.

Innovatsion faoliyat innovatsiyalarni amalga oshirishga qaratilgan ilmiy, texnologik, tashkiliy, moliyaviy va tijorat xatti-harakatlari yig'indisidir. Innovatsion faoliyatning natijalari mehnat unumdorligining va milliy ishlab chiqaruvchilarning ichki hamda tashqi bozorlardagi raqobatbardoshliklari ortishida, resurslarning tejalishida, umuman iqtisodiyotning barqaror o'sishida o'z ifodasini topadi.

Xulosa qilib aytganda, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish va rivojlantirish ma'lum moliyaviy manbalarni jalb qilishni zarur qilib qo'yadi, bu esa davlatning innovatsion siyosati strategik yo'nalishlarida o'z aksini topishi, innovatsion iqtisodiyotga investitsiyalarni jalb qilish uchun yetarlicha tashkiliy, iqtisodiy, huquqiy va moliyaviy shart-sharoitlarning yaratilishini taqozo qiladi, zero ular innovatsion iqtisodiyotga o'tishning samaradorligini ta'minlaydi va milliy iqtisodiyotning raqobatdoshligini mustahkamlaydi.

Mamlakatimiz iqtisodiyotini modernizatsiyalash sharoitida innovatsion iqtisodiyotga investitsiyalarni jalb qilish va ularni samarali boshqarish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Shu sababli ham, iqtisodiyotga, ayniqsa, hududlar iqtisodiyotiga investitsiyalarni yo'naltirishga ilmiy asoslangan holda ish tutish, kapital sarmoyalarning qaytishini jadallashtirish, investitsiya loyihalarining ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik jihatlariga e'tibor qaratish, investitsiya mablag'larining tarmoq va soha taqsimotiga oid ilmiy tadqiqotlar olib borish muhim. Bu masala xususida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev: "Biz faqat investitsiyalarni faol jalb qilish, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushirish

hisobidan iqtisodiyotimizni jadal rivojlantirishga erishamiz"[94], - deb ta'kidlagan edi.

Bugungi kunda mamlakatimizda innovatsion faoliyat bir qator hukumat qarorlari, Prezident farmonlari va qarorlari, fan va texnologiyalarni tatbiq etishni muvofiqlashtiruvchi tuzilmalar me'yoriy hujjatlari bilan tartibga solinadi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 29-noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligini tashkil etish to'g'risida"gi PF–5264-son Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 27-apreldagi "Innovatsion g'oyalar, texnologiyalar va loyihalarni amaliy joriy qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ–3682-son Qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 7-maydagi "Iqtisodiyot tarmoqlari va sohalariga innovatsiyalarni joriy etish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ–3698-son Qarori va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarning qabul qilinganligi va amalda bajarilayotganligi mamlakatimizda innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish va innovatsion faoliyatni rivojlantirishning huquqiy asoslari ma'lum darajada shakllanganligidan dalolat beradi.

13.3. Iqtisodiyotning rivojlanishida xorijiy investitsiyalarning ahamiyatini oshirish

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab rivojlangan mamlakatlar milliy iqtisodiyotining o'sishi ahamiyatli darajada innovatsiyalar natijasida ta'minlanmoqda. Amerika Qo'shma Shtatlari, Yaponiya va Germaniyada innovatsiyalarga har yili mamlakat YaIMining 2,5-2,8 foizi, Fransiya va Buyuk Britaniyada – 2,3-2,4 foizi yo'naltiriladi.

Jahon mamlakatlari tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, barqaror iqtisodiy o'sishga erishish uchun iqtisodiyotda yuqori texnologiyalarga asoslangan yangi korxona va ishlab chiqarish

[94] Sh.Mirziyoyev. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. T.: "O'zbekiston" NMIU. 2019-y. 10-bet.

tarmoqlarini shakllantirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va texnik yangilash kerak boladi. Bunga ayniqsa to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va ulardan oqilona foydalanish muhim ahamiyatga ega.

Transmilliy kompaniyalarning global ishlab chiqarish, daromad me’yori va hajmini ko‘paytirishga intilishi investor mamlakatlar uchun kapitalni chiqarishda asosiy harakatlantiruvchi kuch hisoblanadi. To‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni qabul qiluvchi retsipiyent mamlakat uchun esa investitsiyalarni jalb etishdagi asosiy motiv – bu iqtisodiy rivojlanish uchun ichki resurslar yoki mablag‘larning cheklanganligidir. Retsipiyent mamlakat uchun to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning asosiy ahamiyati quyidagi yo‘nalishlarda o‘z ifodasini topadi:

– to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar kapital to‘planishining qo‘shimcha manbasi sifatida iqtisodiy o‘sish sur’atlarini tezlashtiradi va iqtisodiyotni tarkibiy qayta qurishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi;

– to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar oqimi boshqa shakldagi kapital importi, ya’ni portfel investitsiyalar va bank ssudalarining kirishini rag‘batlantiradi;

– to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar oqimi ular ishtirokida tashkil etilgan korxonalarning eksport va import operatsiyalari hisobiga mamlakat tashqi iqtisodiy faoliyatini rag‘batlantiradi;

– to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar oqimi mamlakatga yangi texnika va texnologiyalar kirishini rag‘batlantiradi va yangi ish o‘rinlarini yaratish orqali yuqori malakali ishchilarga bo‘lgan talabni oshiradi.

Jahon tajribasining ko‘rsatishicha, iqtisodiyotni shakllantirishga investitsiyalarni jalb qilish va shu asosda mintaqalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha ko‘p mamlakatlarda turlicha yondashuvlar mavjud, biroq ular bir-biridan jiddiy farq qilmaydi. Bu davlatlarda

iqtisodiy siyosatni amalga oshirish maqsadlari quyidagi vazifalarni hal qilishga qaratilgan:

– rivojlanish jihatidan orqada qolayotgan mintaqalarda iqtisodiy o'sishni ta'minlash;

– markaziy hokimiyat organlari vakolatlarining katta qismini mahalliy boshqaruv tizimi zimmasiga yuklash;

– sanoat ishlab chiqarishning yirik shaharlarda to'planishini cheklash;

– yangi o'zlashtirilgan hududlarda ishlab chiqaruvchi kuchlarni joylashtirish va ishlab chiqarishni rivojlantirishni rag'batlantirish.

Xitoy Xalq Respublikasining iqtisodiy rivojlanish modeli va xorijiy investitsiyalarni jalb etish tajribasi O'zbekiston uchun alohida ahamiyat kasb etadi. Bu Xitoyning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotidagi xususiyatlar, undagi demografik vaziyatning o'ziga xosligi, qishloq xo'jaligining iqtisodiyotdagi yuqori ahamiyati, qayta ishlash sanoatining kam taraqqiy etganligi, uning agrar-industrial mamlakat ekanligi, o'ziga xos ijtimoiy shart-sharoitlar bilan tafsiflanadi.

Bu mamlakatning innovatsion iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda erishgan yutuqlari esa ko'p jihatdan uning mintaqalarida qulay nvestitsiya muhitining yaratilganligiga bog'liq. Xitoyda ishchi kuchi qiymatining arzonligi, yerdan foydalanish, ishlab chiqarishga kiritilgan kapital uchun keng ko'lamli imtiyozlar, ijtimoiy-maishiy infratuzilmaning rivojlanganligi va boshqa holatlar bu mamlakatning so'nggi yillar ichida xorijiy investorlar uchun kapital kiritish obyektiga aylanishiga olib keldi.

Xitoyda shakllangan boj belgilash tartibi, rivojlangan tashqi iqtisodiy aloqalar va valyuta qonunchiligi xorijiy investitsiyalar kirib kelishiga qulay imkoniyatlar yaratdi.

Rivojlangan mamlakatlar orasida Yaponiyaning bu sohadagi tajribasi alohida ahamiyatga ega. Aniq maqsadga yo'naltirilgan uzoq muddatli mintaqalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarining izchil amalga oshirilishi natijasida Yaponiya tarixan qisqa davr ichida dunyodagi eng taraqqiy etgan mamlakatlar qatoriga qo'shildi.

Yaponiyaning investitsiya siyosati yer va tabiiy resurslarning cheklanganligini, kishilar faoliyatini tabiiy sharoitlarga moslashtirish zaruriyatini, mamlakat turli hududlari aholisining turmush darajasidagi farqlarni kamaytirish talablarini hisobga olgan holda amalga oshiriladi.

To‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning maqsadga muvofiq mexanizmini izlab topishda nisbatan qisqa davr mobaynida iqtisodiy rivojlanishda ulkan natijalarga erishgan rivojlanayotgan va o‘tish iqtisodiyotiga ega bo‘lgan mamlakatlar tajribasi alohida diqqatga sazovordir. Jahonning rivojlangan davlatlaridan farqli ravishda, bu mamlakatlar tajribasi shunisi bilan qiziqish uyg‘otadiki, ular avvalda rivojlanish darajasi bo‘yicha O‘zbekistonga yaqin bo‘lgan holda, faol investitsiya siyosatini amalga oshirishda katta ijobiy natijalarga erishdilar.

Xitoyda investitsiya siyosati islohotlari va bozor mexanizmlari iqtisodiy rivojlanishning turli bosqichlarida turlicha amalga oshirildi, iqtisodiyotning “qizib” ketishi bosqichida tartibga solishning ma’muriy metodlaridan ko‘proq foydalanildi. Xitoy “iqtisodiy g‘aroyiboti” bir qancha tayanch momentlarga asoslanadi: qishloq xo‘jaligini isloh qilish, soliqlarni kamaytirish, davlat xarajatlarini qisqartirish, erkin iqtisodiy hududlarni tashkil etish (eksportni erkinlashtirish). Xitoy ma’muriyati hali jahon iqtisodiy amaliyotida kuzatilmagan soliq yukini – 1979-yildagi YaIMga nisbatan 30,4 foizdan 1996-yilda 10,3 foizgacha kamaytirishni amalga oshirdilar. Bu salbiy makroiqtisodiy oqibatlarga olib kelmadi, chunki shu vaqtning o‘zida barcha davlat xarajatlari 36,4 foizdan 13,1 foizgacha qisqarib bordi[95].

Xitoy investitsiya siyosatining vositalaridan biri bu investitsiyalarga soliqlardir. Bu vosita orqali hukumat kapital qurilishning me’yordan ortiq o‘sib borishiga qarshi kurashdi. Biroq, agar korxonalar texnologik modernizatsiyalash uchun ichki bozordan

[95] Механизм инвестиций: международный опыт в контексте Узбекистан.// Экономическое обозрение. – Ташкент, 2012. - №7. – С.16.

jihozlarni sotib oladigan bo'lsa, ular yalpi foydaning 40 foiziga to'lanadigan soliqdan ozod bo'lish imtiyozidan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

90-yillar oxirlarida, YaIMning o'sish sur'atlari tushib ketganida hukumat davlat g'azna majburiyatlarini emissiya qilish orqali investitsiya faolligini rag'batlantirishga kirishdi. 1998–2002-yillar mobaynida mazkur vosita yordamida 80,5 mlrd. AQSH doll. jalb qilindi, ya'ni, irrigatsiya inshootlarini, avtomobil yo'llarini, aeroportlar, don saqlash omborlarini qurishga, o'rmonlarni yaratish va qisman davlat korxonalarini modernizatsiyalashga sarflandi.

Hindiston investitsiya siyosati samaradorligi to'g'risida 4,1 ga teng bo'lgan global raqobatbardoshlikning yuqori indeksining (Yegipet, Xorvatiya va Chexiya darajasi), va shuningdek, so'nggi yillarda tayyor mahsulotlarning to'rtdan uch qismini tashkil etuvchi eksport tarkibining yaxshilanishi dalolat beradi.

Iqtisodiy va investitsiyaviy faollikning qator ko'rsatkichlari bo'yicha Hindiston dunyoning rivojlanayotgan davlatlari orasida yetakchi o'rinlardan birini egallaydi. YaIMning o'rtacha o'sish sur'atlari 2000–2004-yillarda (jahondagi rivojlanayotgan davlatlar bo'yicha 4,5 foiz darajasidagi o'rtacha ko'rsatkichga nisbatan) 5,7 foizni, yalpi investitsiyalar esa (5,2 foizga nisbatan) 7,7 foizni tashkil etadi.

Iqtisodiyot tarmoqlari va sohalarini investitsiyalashda quyidagi ustuvorliklar belgilandi: sanoatning xomashyo ishlab chiqarmaydigan tarmoqlari; nobank moliya xizmatlari; oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish; infratuzilma – avtomagistrallarni, bandargohlarni, elektroenergetika obyektlarini, ommaviy tezyurar transport tizimlarini qurish; fuqarolar aviatsiyasi, meditsina va farmatsevtika; mehmonxona biznesi va turizm; elektron jihozlar va dasturiy ta'minot; xususiy neftni qayta ishlash korxonalari; mineral xomashyoni qidirish va qazib olish; maslahat xizmatlari va boshqalar.

Kichik tadbirkorlik uchun aksiyadorlik kapitaliga xorijiy investitsiyalar hajmi bo'yicha maxsus cheklovlar amal qiladi. Bu sektor korxonalariga ustav kapitalida xorijiy ishtirok 24 foizgacha hajmda

bo'lishiga ruxsat berilgan. Xorijliklar ishtiroki bu darajadan oshib ketgan taqdirda korxona mahsulotning 50 foizini majburiy eksport qilishni ko'zlovchi ishlab chiqarish litsenziyasini olishi kerak bo'ladi.

Hindiston investitsiyalarni rag'batlantirish va himoya qilish bo'yicha 20 dan ortiq mamlakatlar bilan xalqaro va ikki tomonlama bitimlarni tuzgan. Bu bitimlar investitsiyalarning erkin harakat qilishi va qaytarilishi imkonini beradi, milliylashtirishga, agar ular mamlakat milliy manfaatlariga zid kelmasa, yo'l qo'ymaydilar.

Turli mamlakatlar (Xitoy, Hindiston) investitsiya siyosatidagi farqlar va o'ziga xos xususiyatlarga qaramasdan bu davlatlarning investitsiya strategiyasi va mexanizmlarida umumiy jihatlar mavjud. Bular quyidagilar:

1. Samarali investitsiya siyosatini tashkil qilishda (ayniqsa uning shakllanish bosqichlarida) davlatning yuqori roli. Bunda davlatning funksiyalari faqat qulay investitsiya muhitini shakllantirish, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, infratuzilma tarmoqlarini rivojlantirish, zarur me'yoriy-huquqiy bazani yaratish va unga rioya qilish monitoringini amalga oshirish bilan cheklanmaydi. Bu yo'nalishda inson va ijtimoiy kapitalni rivojlantirish, davlat institutlari institutsional salohiyatinimustahkamlash, iqtisodiyotni yangi innovatsion sektorlarini rivojlantirishga investitsiyalarni ko'paytirish singari masalalarni hal qilish muhim bo'lib hisoblanadi. Shu bilan birga, erkinlashtirish jarayonlarining chuqurlashib borishi bilan investitsiyalash jarayonlarini davlat tomonidan to'g'ridan-to'g'ri tartibga solish miqyoslari qisqarib boradi, bilvosita vositalar orqali investitsiya oqimlarini rag'batlantirish funksiyalari esa muhim ahamiyat kasb eta boshlaydi.

2. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning kirib kelishini rag'batlantiruvchi qulay va mustahkam investitsiya muhiti. Bu holat jamg'armalar darajasini YaIMga nisbatan 20 foizdan kam bo'lmasligini, shuningdek investitsiyalar o'sish sur'atlarini YaIM o'sish sur'atlaridan yuqori (2-4 punkt) bo'lishini ta'minlaydi. Oxirgisi ustun darajada xususiy investitsiyalar hisobiga amalga oshiriladi.

Bunga xususiy sektorga katta hajmdagi kreditlarning ajratilishi (Tailand, Hindiston) ijtimoiy iqtisodiy muammolarni hal qilishda erkin bozor kuchlari bilan davlatning faol rolining uyg'unlashuvi (inflyatsiyaning past darajasini ta'minlash, yangi ish o'rinlarini yaratish, kambag'allikka qarshi kurashish va h.k.)

3. Bank sektori va moliya bozorining barqaror rivojlanishi. Jahonning ko'pgina raqobatbardosh rivojlanayotgan mamlakatlarida monetizatsiya darajasi 50 foizdan ortiqni tashkil etadi. Faqat shunday holdagina aholi va tadbirkorlarning bo'sh mablag'larini ishga solish, investitsiya resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish, faol inflyatsiyaga qarshi siyosatni olib borish uchun shart-sharoitlar yaratiladi.

4. Investitsiya siyosatining tizimliligi va yaxlitligi. Ma'lumki, investitsiya siyosati mamlakat iqtisodiy rivojlanish strategiyasining asosiy tarkibiy qismlaridan biri bo'lib hisoblanadi. (masalan, Hindistonning yangi sanoat siyosati, Tailandning sanoat siyosati, Chilining eksport salohiyatini rivojlantirish siyosati) va umummilliy manfaatlarga asoslanadi. Jumladan, Xitoy investitsiya siyosati tsikllarga qarshi tartibga solish, barqaror rivojlanishni ta'minlash, erishilgan yuqori o'sish sur'atlarini saqlab turishning (Xitoy iqtisodiyotining tsiklik rivojlanishi xususiyatini hisobga olgan holda) faol vositasi bo'lib hisoblanadi.

5. Yuqori texnologiyalarni rivojlantirishga kapital oqimlarini yo'naltirish. Ko'pgina rivojlanayotgan mamlakatlar bunda rivojlangan mamlakatlar bilan ular o'rtasidagi iqtisodiy rivojlanish sur'atlaridagi farqni tezroq bartaraf etish imkonini beruvchi rivojlanishning"quvib yetish" strategiyalaridan foydalanganlar. Bunda asosiy mexanizm bo'lib davlat va xususiy sektor hamkorligi, davlat va biznes o'rtasida riskni taqsimlash, marketing tadqiqotlariga ketadigan xarajatlarni davlat tomonidan birlashtirib moliyalashtirish, personalni o'qitish, yangi mahsulotni sertifikatlashga ko'maklashish hisoblanadi.

6. Inson va ijtimoiy kapitalni oshirishni investitsiyalashga o'ziga xos ustuvorlik berish. Fan sig'imi yuqori bo'lgan iqtisodiyotni tezkorlik

bilan barpo etish sharoitida raqobatbardoshlikning o'sishini ta'minlash zaruriyati rivojlanayotgan mamlakatlarning inson va ijtimoiy kapitalga keng miqyosdagi investitsiyalarni jalb qilish ko'rinishidagi o'ziga xos ustuvorlikni keltirib chiqaradi. Ta'lim sohasiga e'tibor, rivojlangan mamlakatlarga "aqllarning oqib o'tishi"ni kamaytirish bo'yicha ko'rilgan jiddiy choralar rivojlanayotgan mamlakatlarning iqtisodiy o'sish istiqbollarini baholashning eng muhim mezoniga aylandi.

O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning Harakatlar strategiyasida belgilanganidek, yurtimizda izchil davom etayotgan islohotlarning hozirgi bosqichi talablarini bajarish omillaridan biri – innovatsion rivojlanish hisoblanadi. Bugungi kunda O'zbekistonda innovatsion rivojlanish strategiyasi ishlab chiqilmoqda. Bunda asosiy maqsad – jahon tajribasini o'rgangan holda innovatsiya masalasiga keng qamrovli yondashuvga tayanishdan iborat, ya'ni dunyoning global innovatsion indeksida belgilab berilgan yettita yo'nalishga e'tibor berilmoqda. Bunda, masalan, institutsional shart-sharoit, qonunchilik va davlat boshqaruvining sifati muhim o'rin tutadi. Chunki xorijiy investor o'z sarmoyasini jalb qilmoqchi bo'lsa, avvalo, tegishli qonunning mavjudligi va uning ijrosi bilan qiziqadi. Ikkinchidan, inson kapitali, aholining oliy ta'lim bilan qamrovi masalasi alohida o'rin egallaydi. Zero, yetarlicha bilimga ega mutaxassisni yetishtirmasdan turib innovatsiyani joriy qilish mumkin emas. Shu munosabat bilan respublikamizda xorijiy oliy ta'lim muassasalarining filiallarini ochish amalga oshirilmoqda. Bundan tashqari, ilmiy faoliyat, ilmiy izlanish va innovatsiyalarga investitsiyani jalb qilish, ilmiy unvonlarni berish masalasiga jiddiy e'tibor qaratish, universitetlarning ilmiy salohiyatini yuksaltirish ham katta ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, har qanday g'oyani hayotga tatbiq etish, unga investitsiya jalb qilishda infratuzilmaviy shart-sharoit zarurligi tabiiy hol. Shuningdek, kredit olish masalasi, fond bozorini rivojlantirish, uning YaIMdagi ulushini oshirish, venchur fondlarini tashkil etish mamlakatimiz iqtisodiyotiga nafaqat mahalliy va xorijiy sarmoyani jalb qilish, balki shu orqali innovatsion

faoliyatni jahon standartlari darajasida kengaytirishga imkon beradi. Bu kabi vazifalarni bajarishda esa xorijiy tajribani chuqur o'rganish, olimlar, ekspertlarning ilmiy tahlillaridan foydalanish maqsadga muvofiq.

13.4. Mamlakatda investitsion muhitni shakllantirish mexanizmlari

Ma'lumki, 2019-yil mamlakatimizda "Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili" deb e'lon qilindi. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad mamlakatning rivojlanishini yanada barqarorlashtirish, iqtisodiyot tarmoqlari raqobatbardoshligini ta'minlashdan iborat. Iqtisodiyotni innovatsion faoliyatni amalga oshirish orqali rivojlantirishning zaruriyati nafaqat mazkur yil dasturi doirasida, balki jahon mamlakatlari miqyosida shakllantiriladigan innovatsion indeksda munosib o'rin olish bilan ham belgilanadi, desak xato bo'lmaydi.

Mamlakatlarning innovatsion rivojlanishi ko'p jihatdan inson kapitali bilan bog'liq bo'lib, mamlakatning makroiqtisodiy ko'rsatkichlarida o'z aksini topadi. Jumladan, eksport mahsulotlarining tarkibi, sanoat mahsulotlarining raqobatbardoshligi kabi omillar muhim hisoblanadi.

O'zbekistonning savdo balansiga e'tibor qaratsak, eksport va import miqdori mos ravishda 10,8 mlrd va 13,6 mlrd. AQSh dollarini, savdo balansining salbiy farqi esa 2,8 mlrd. AQSh dollarini tashkil etdi[96]. Mazkur holatning shakllanishi sharoitida mamlakatimizdan chetga valyuta oqimining kuchayib borayotganligini ko'rsatib turibdi.

Mazkur holat milliy mahsulotlar eksporti hajmini oshirish orqali ijobiy farqqa erishish imkoniyatini ko'rsatmoqda. Buning uchun albatta, ilmiy sig'imkorlikka asoslangan raqobatbardoshlikni ta'minlab beruvchi mahsulotlar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish talab

[96] O'zbekiston Respublikasining to'lov balansi, xalqaro investitsion pozitsiyasi va tashqi qarzi 2020,
9 oylik. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, 2020.

etiladi. Bu borada, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 21-sentyabrdagi “2019–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF–5544-sonli farmonining qabul qilinishi mavjud muammolarning bartaraf etishga qaratildi. Mazkur farmonda bir qator muhim yo‘nalishlar belgilab berildi. Iinovatsiyalarni moliyalashtirish mexanizmi va hajmini optimallashtirish, inson kapitalini rivojlantirish kabilar shular jumlasidandir.

2021-yilga qadar tadqiqotlarni davlat mablag‘lari hisobidan moliyalashtirishda yalpi ichki mahsulotga nisbatan 0,8 foizga yetkazish belgilangan. Hozirgi kunda ushbu ko‘rsatkichning 0,3 foiz ekanligini inobatga olsak, uning 0,5 foiz punktga oshirilishiga keyingi ikki yil davomida erishilishi sohada keskin moliyaviy o‘zgarishlar bo‘lishiga ishora bo‘lmoqda.

Innovatsion faoliyatga asoslangan o‘zgarishlar asosida iqtisodiy o‘sish va rivojlanishning farqli jihatlarga ega. Jumladan, iqtisodiy o‘sish – ma’lum davr mobaynida ishlab chiqarish va iste’molning ko‘payishi o‘zaro uyg‘unlikda yuz berishini qayd etadi. Iqtisodiy rivojlanishni esa, ma’lum bir innovatsiya asosida iqtisodiy o‘zgarishning yuzaga kelishi bilan izohlash mumkin. Shuningdek, innovatsiyalar orqali ishlab chiqaruvchilar samarali raqobat ustunligiga ega bo‘lishi mumkinligini alohida qayd etish lozim.

Innovatsiyalar iqtisodiy rivojlanishga o‘zining sezilarli hissasini qo‘shish bilan birga, birinchidan, innovatsion mahsulot (ish, xizmat)larning asl nusxalari yaratuvchida qolib, iste’molchiga uning nusxasi sotiladi, ikkinchidan, cheklangan resurslar sharoitida cheklanmagan inson salohiyati resursidan foydalanish imkoni, shart-sharoiti yaratiladi. Natijada, innovatsion faoliyatning rentabellik darajasi sezilarli ortib, ilmiy sig‘imkorlik oshib borgan sari tannarxning kamayib borish tendensiyasi yuzaga keladi.

2017-yilda e’lon qilingan Xalqaro innovatsion indeksning umumiy reytingida O‘zbekiston qayd etilmagan bo‘lsa-da, subko‘rsatkichlardan birida ko‘rsatib o‘tilgan. Jumladan, oliy ta’limda qishloq xo‘jaligi yo‘nalishida ta’lim oluvchi talabalarning ulushi

bo'yicha dastlabki beshta iqtisodiyotning ikkinchisi sifatida qayd etib o'tildi. Umuman olganda, 2017-yilda mazkur indeks oziq-ovqat xavfsizligi nuqtayi nazaridan ishlab chiqilgan.

2018-yilda e'lon qilingan xalqaro innovatsion indeks esa, mamlakatda qayta tiklanuvchi energiya tizimining yaratilishi nuqtai nazaridan ishlab chiqildi. Mazkur hisobotda O'zbekiston umuman qayd etib o'tilmagan. Zotan 2017-yilda subko'rsatkichda bor edi. Ushbu 2018-yilgi hisobotda quyidagi muhim holatlar alohida qayd etib o'tilgan:

– sanoat va eksport tarkibi diversifikatsiyalangan yuqori daromadli mamlakatlar innovatsiya yaratilishida yetakchi ekanligi;

– innovatsiyalarning yuzaga kelishida investitsiyalar muhim ekanligi;

– inson kapitali darajasi va tadqiqotlar samarasi.

Umuman olganda, 2017–2018-yillarda e'lon qilingan innovatsiyalar bo'yicha hisobotda inson kapitali muhim omil sifatida ta'kidlab o'tiladi. Xususan, inson kapitali nuqtai nazardan BMT tomonidan e'lon qilingan inson taraqqiyoti indeksi bo'yicha oldingi qatorda bo'lgan mamlakatlar innovatsion indeksda ham yetakchi ekanligi ko'zga tashlanadi. 2018-yilda chop etilgan hisobotda Xitoyning tajribasi alohida qayd etib o'tilgan. Sababi, o'rta daromadli davlat sifatida yuqori daromadli dastlabki 30 mamlakatlar qatorida 10-o'rinda qayd etildi. Buni albatta, jahon miqyosida yetakchi islohotlar natijasida yuzaga kelgan natija sifatida qayd etish lozim[97].

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Iqtisodiyotga investitsiyalarni jalb qilishda davlat moliyasining o'rni va ahamiyati nimalarda namoyon bo'ladi?
2. Iqtisodiyotga ichki investitsiyalarni jalb qilish chora-tadbirlari va moliyaviy manbalari nimalardan iborat?

[97] Raxmonov D.A. Innovatsiya: mohiyati va uni moliyalashtirish asoslari. "Xalqaro moliya va hisob" ilmiy elektron jurnali. № 1, fevral, 2019-yil.

3. Iqtisodiyotning rivojlanishida xorijiy investitsiyalarning ahamiyati nimalarda namoyon bo'ladi?

4. Mamlakatda investitsion muhitni shakllantirish mexanizmlari sifatida nimalarni ko'rsatish mumkin, bugungi kunda ulardan qay darajada samarali foydalanilmoqda? Bu borada qanday o'zgarishlar sodir bo'ldi?

Mavzu yuzasidan topshiriqlar

1. Investitsion jarayonlarni jadallashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar va investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari to'g'risida taqdimot tayyorlang.

2. Xorijiy davlatlarda iqtisodiyotni rivojlantirishga investitsiyalarni jalb qilish masalalari haqida mustaqil ish tayyorlang.

3. Investitsiyalarni jalb qilish orqali iqtisodiyotni rivojlantirishning xorijiy mamlakatlar ijobiy tajribalaridan O'zbekistonda foydalanish yo'llari to'g'risida mustaqil ish majmuini tayyorlang.

14-BOB. DAVLAT MOLIYASINING JAMIYAT IJTIMOIY TARAQQIYOTIDAGI O‘RNI VA AHAMIYATI

14.1. Jamiyat ijtimoiy taraqqiyotida davlat moliyasining o‘rni va ahamiyati. Ijtimoiy rivojlanishning iqtisodiy va moliyaviy negizlari

2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning Harakatlar strategiyasi va uning alohida ustuvor yo‘nalishlari inson hayoti va uning manfaatlarini himoyalash bilan bog‘liq yo‘nalish va tarmoqlarni o‘zida mujassam etgan ijtimoiy soha rivojini ta’minlash, uni yangi bosqichga ko‘tarish, bu sohadagi muammolarni yechish, bu sohalar rivojining qonuniy-huquqiy asoslarini mustahkamlashga qaratilganligi bilan ayniqsa ahamiyatli. Bu boradagi mavjud muammolarni bartaraf etish, jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash, oddiy odamlarning mamlakatda olib borilayotgan islohotlar va ularning natijalaridan qoniqishlariga erishish, aholining ta’sirchan ijtimoiy muhofazasini ta’minlash maqsadida Harakatlar strategiyasida qator chora-tadbirlar ko‘zda tutilgan bo‘lib, ularni quyidagi yo‘nalishlarda olib borish belgilangan, jumladan:

– aholiga majburiy ijtimoiy kafolatlarni ta’minlash, aholining ehtiyojmand qatlamlari ijtimoiy himoyasini hamda keksalar va imkoniyati cheklangan shaxslarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirish, ijtimoiy xizmat ko‘rsatishni yaxshilash, aholiga ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatishda davlat-xususiy sherikligini rivojlantirish;

– pensionerlar, nogironligi bo‘lgan shaxslar, yolg‘iz keksalar, aholining boshqa ehtiyojmand toifalarining to‘laqonli hayot kechirishlarini ta’minlash uchun ularga tibbiy-ijtimoiy yordam ko‘rsatish tizimini yanada rivojlantirish va takomillashtirish[98].

[98] 2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi

Aholini ijtimoiy muhofaza qilish borasida 2017-yilning "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili" deb e'lon qilinishi va bu nomdagi davlat dasturining qabul qilinishi ham alohida ahamiyatga ega. Xususan, "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili" Davlat dasturini amalga oshirishning ustuvor vazifa va yo'nalishlari doirasida quyidagilar belgilandi[99]:

– hududlarni, ayniqsa, ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishda nisbatan orqada qolayotgan tumanlar va shaharlarni, chekka aholi punktlarini kompleks, jadal rivojlantirish, tijorat banklarining faol ishtirokida yangi ish o'rinlari yaratilishini ta'minlash va shu asosda ish haqi, pensiyalar, nafaqalar va stipendiyalar miqdorlarini bosqichma-bosqich ko'paytirish, aholining hayoti darajasi va sifatini oshirish;

– ta'lim, ijtimoiy ta'minot va sog'liqni saqlash tizimlarini, shu jumladan onalik va bolalikni muhofaza qilishni yanada rivojlantirish, oila institutini mustahkamlash, sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalash, yoshlarning iqtidorlari va qobiliyatlarini ro'yobga chiqarish, ularning hayotda munosib o'ringa ega bo'lishlari uchun keng imkoniyatlar yaratish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish va Davlat dasturida nazarda tutilgan boshqa tadbirlar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 12-sentyabrdagi "Aholining kam ta'minlangan qatlamini qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ–3268-sonli qarori[100] bilan bir qator idora va tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilayotgan aholining kam ta'minlangan qatlamini 2017–2018-yillarda ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlash hududiy manzilli dasturlari ma'qabul qilindi.

PF–4947-sonli Farmoniga 1-ilova. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 6-son, 70-modda.

[99] "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili" Davlat dasturini ishlab chiqish va amalga oshirishning tashkiliy chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016- yil 17-dekabr F–4760-son farmoyishi. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 8-son, 119-modda.

[100] O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 37-son, 988-modda

Ushbu hududiy manzilli dasturlar quyidagilarni nazarda tutadi:

a) mehnat bilan bandlikning ma'lum bir turlari bilan shug'ullanish istagida bo'lgan kam ta'minlangan oilalarga ularning oilasini o'ziga yetarliligini ta'minlovchi mikrokreditlar tijorat banklarining imtiyozli kreditlash maxsus fondi mablag'lari hisobidan quyidagi maqsadlarga ajratiladi:

– tikuv mashinalari, matolar va boshqa sarf materiallari, kosibchilik faoliyati uchun inventarlar, maishiy, kompyuter va boshqa texnikalar, shuningdek, mehnat bilan bandlikni ta'minlovchi boshqa asbob-uskunalar xarid qilish uchun;

– shaxsiy tomorqa uchastkalarini rivojlantirish (mini-issiqxonalar barpo etish, chorva mollari, parranda sotib olish, og'ilxona va tovuqxona qurish, bog'dorchilik inventarlari va asboblari xarid qilish) va uy-joy ta'miri uchun;

b) og'ir uy-joy va maishiy sharoitlarda yashovchi, boquvchisini yo'qotgan, nogironlarni parvarishlayotgan oilalarga quyidagi maqsadlarda beg'araz yordam ko'rsatiladi:

– 2017-va 2018-yillarda respublikada uy-joyi bo'lmagan yoki avariya holatidagi va puturdan ketgan uy-joylarda yashovchi har bir tumandan 2 ta, har bir shahardan esa 5 oilaga 10 yil mobaynida ixtiyoriga olish huquqisiz arzon uy-joylar xarid qilishda;

– 2017- va 2018-yillarda respublikadagi tumanlarning har biridan 10 ta, shaharlardan esa 25 ta kam ta'minlangan oilaga turar-joy ta'miri (tomni ta'mirlash, yangi pol o'rnatish, derazalarni almashtirish va sh.k.) o'tkazishda;

– respublikaning har bir tumani va shaharidan 70 tadan oilaga har yili maishiy texnika (gaz va elektr pechlar, muzlatkichlar, tikuv mashinalari va sh.k.) yoki bir bosh yirik shoxli qoramol xarid qilishda;

– respublikaning har bir tumani va shaharida og'ir kasali mavjud, davolatish uchun to'lov qilishda mablag'i yo'qligi aniqlangan o'rtacha 6 tagacha kam ta'minlangan oilaga tibbiy xizmatlarini to'lashda.

PQ–3268-sonli Qaroriga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi qoshida Jamoatchilik ishlari fondi tuzildi.

O‘zbekiston Respublikasi bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari bilan birgalikda mamlakatning barcha hududlaridagi, ayniqsa qishloq joylar va chekka hududlardagi mehnat bilan band bo‘lmagan fuqarolarini aholi punktlarini, mahallalarni, obodonlashtirish bo‘yicha jamoat ishlariga – ariqlarni va irrigatsiya tarmoqlarini tozalashga, turar-joy-kommunal xo‘jalik obyektlarini ta’mirlashga, infratuzilmani yaxshilashga, yo‘llar va ko‘chalar, turar-joy fondi va unga yondosh hududlarning obyektlarini ta’mirlashga, shuningdek, qishloq xo‘jaligi ishlariga keng jalb qilish borasida chora-tadbirlar ishlab chiqish vazifasi belgilandi.

Aholining band bo‘lmagan qatlamini mehnatga jalb qilish 2017-yilning 1-oktyabridan Qorqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrining bittadan tumanida tajriba tariqasida, 2018-yilning 1-yanvaridan bosqichma-bosqich respublikaning barcha tumanlarida amalga oshirilishi belgilab qo‘yildi.

O‘rnatilayotgan tartibga ko‘ra:

– jamoat ishlariga jalb qilingan jismoniy shaxslar ularning Jamoatchilik ishlari fondi mablag‘laridan olgan daromadi jismoniy shaxslarning daromadidan to‘lanadigan soliqdan ozod qilinadi;

– jamoat ishlariga jalb qilinayotgan jismoniy shaxslarning Jamoatchilik ishlari fondi mablag‘lari hisobidan moliyalashtiriladigan mehnat haqi yagona ijtimoiy to‘lovga tortilmaydi.

Qarorga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari va Moliya vazirliklariga 2017–2018-yillarda 14 yoshgacha farzandlari bo‘lgan oilalarga yordam puli va kam ta’minlangan oilalarga moddiy yordam berish ko‘rinishida kam ta’minlangan oilalarni qo‘llab-quvvatlash uchun byudjet mablag‘larini

ko‘paytirish, yordam pullari oluvchi kontingentni mos ravishda 1,5 va 2 barobar kengaytirishni ta’minlash belgilandi. Bu maqsadda Moliya vazirligiga 14 yoshgacha farzand tarbiyalayotgan oilalarga yordam puli va kam ta’minlangan oilalarga moddiy yordam to‘lashni moliyalashtirish uchun qo‘shimcha byudjet mablag‘lari ajratish vazifasi topshirildi.

2018-yilning 22-yanvar kuni mamlakatimizning kelgusi istiqbolini belgilashga xizmat qiluvchi yana bir muhim huquqiy hujjat qabul qilindi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF–5308-son Farmoni bilan 2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturi qabul qilindi. Davlat dasturining 4.1. “Aholining ijtimoiy himoyasini yanada kuchaytirish” nomli bo‘limida ushbu maqsadlar uchun quyidagi chora-tadbirlar belgilandi[101]:

– ilg‘or xorijiy tajriba asosida aholining munosib hayot kechirishi uchun zarur bo‘lgan daromadlarni aniqlash bo‘yicha iste’mol savatchasi”ga oid munosabatlarni huquqiy tartibga solish;

– davlat tomonidan nogironligi bo‘lgan shaxslarga bepul taqdim etiladigan protez-ortopediya buyumlari va texnik reabilitatsiya vositalari turlarini ko‘paytirish hamda ularning tegishli standartlarini joriy qilish;

– “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni loyihasini ishlab chiqish;

– og‘ir maishiy sharoitlarda yashayotgan, boquvchisini yo‘qotgan, nogironlarni parvarish qilayotgan oilalarga ijtimoiy yordam ko‘rsatish.

[101] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 22-yanvardagi “2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturi to‘g‘risida”gi PF–5308-son Farmoni. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 23.01.2018-y., 06/18/5308/0610-son.

Harakatlar strategiyasini 2019-yil – "Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturida ham [102] ijtimoiy rivojlanish sohasida – aholi o'rtasida ishsizlikni kamaytirish, odamlarning daromadlarini oshirish, fan va uzluksiz ta'limni rivojlantirish, tibbiy xizmatlar sifatini yaxshilash va ular bilan aholini qamrab olishni kengaytirish, xotin-qizlar va yoshlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish, odamlarning turmush sharoitlarini yaxshilash, ularni munosib turar joy bilan ta'minlash va farovonligini oshirish, jamiyatda sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, jismoniy tarbiya va sportni yanada ommalashtirish, turizmni rivojlantirish kabi chora-tadbirlar belgilangan.

2020-yil – "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturida ham ijtimoiy rivojlanishning ustuvor vazifalari belgilab berildi. Jumladan, 2020-yil oxiriga qadar 6 yoshli bolalarni maktabga tayyorlash tizimini joriy etgan holda, maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish darajasining 60 foizga yetkazilishini ta'minlash; 2020/2021-o'quv yilidan boshlab O'zbekiston Respublikasining oliy ta'lim muassasalariga davlat granti asosida o'qishga qabul qilish bo'yicha davlat buyurtmasi parametrlarini bosqichma-bosqich ikki baravarga oshirish; 2020-yil 1-sentabrga qadar ilm-fanning ishlab chiqarish bilan faol integratsiyalashuvini ta'minlash maqsadida fundamental va innovatsion tadqiqotlar uchun maqsadli grant mablag'larini ajratish mexanizmi tubdan qayta ko'rib chiqish; 2020-yilda majburiy tibbiy sug'urta tizimini joriy etishga tayyorgarlik ishlarini yakuniga yetkazish; tadbirkorlik subyektlariga moliyaviy resurslardan, shu jumladan mikromoliyalashtirish xizmatlari va davlat xaridlaridan foydalanishda keng imkoniyatlar berish uchun sharoit yaratish; pensiya tizimidagi islohotlarni davom ettirish kabilar Dasturning "Ijtimoiy rivojlanish" sohasidagi vazifalardir.

[102] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-yanvardagi PF–5635-son Farmoni

Xulosa qilib aytganda, aholiga majburiy ijtimoiy kafolatlarni ta'minlash, uning ehtiyojmand qatlamlari ijtimoiy himoyasini hamda keksalar va imkoniyati cheklangan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashni kuchaytirishda davlat hal qiluvchi o'rin egallaydi. Boshqa tuzilmalar va fuqarolik institutlari mazkur yo'nalishlardagi davlat tomonidan belgilangan maqsadlarga erishishda davlatga ko'maklashadilar. Davlat aholini ijtimoiy himoya qilishning boshqa institutlari bilan munosabatlarini ijtimoiy sherikchilik asosida yo'lga qo'yadi.

14.2. Harakatlar strategiyasida davlatning ijtimoiy rivojlanish dasturlari, ularni moliyaviy ta'minlash masalalari

Mamlakatimizda ijtimoiy himoyaga va yordamga muhtoj toifalarga kam ta'minlanganlar, ko'p bolali oilalar, nogironlar, yolg'iz qariyalar va boshqalar kiradi. Har qanday tuzum va jamiyatda aholining bunday toifalari u yoki bu darajada uchraydi. Adolatli jamiyat hamisha ularni himoya qilishni o'z zimmasiga oladi. Shuning uchun ham O'zbekiston o'z mustaqilligiga erishganidan keyin kuchli ijtimoiy siyosat yuritdi. Ijtimoiy sohaga muhim e'tibor hozirgi paytda ham davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Aholining ijtimoiy himoyaga ehtiyojmand qatlamlari ijtimoiy himoyasini faqat davlat byudjetidan ajratiladigan mablag'lar hisobiga samarali ta'minlab bo'lmaydi, albatta. Demak, kam ta'minlangan oilalar a'zolariga o'z ishini ochishi, mustaqil biznesini yo'lga qo'yishi uchun ularga beg'araz ssuda va grant berish institutini joriy qilish muhim ahamiyatga ega. Agar ular o'z ishini yo'lga qo'yib, barqaror daromad manbaiga ega bo'lsa, nafaqat ularning ijtimoiy himoyasi uchun davlat moliyaviy resurslari hisobidan mablag' ajratishga hojat qolmaydi, balki ularning o'zlari soliq to'lovchilar safida davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishda ishtirok etadi.



14.1-rasm. **Aholini ijtimoiy himoya qilish sohasidagi ijtimoiy siyosat yo'nalishlari**

Bugungi kun voqeligi faqat ayrim fuqaro guruhlariga nafaqalar va ijtimoiy ahamiyatdagi moliyaviy yordam berishni nazarda tutuvchi passiv ijtimoiy siyosat mexanizmlarining aholini ijtimoiy muhofaza qilish uchun yetarli emasligini ko'rsatmoqda. Tadbirkorlik uchun qulay sharoitlar yaratish, yangi ish o'rinlarni ochish hisobidan aholi bandligini yanada oshirish, aholining muhtoj qatlamlari bandligini oshirishni rag'batlantirishga qaratilgan aktiv ijtimoiy siyosat chora-tadbirlari Harakatlar strategiyasining to'rtinchi yo'nalishida o'z aksini topgan. Bu chora-tadbirlar, jumladan, quyidagilardan iborat[103]:

– ishsizlik darajasi yuqori bo'lgan va mehnat bozorida vaziyat murakkab bo'lgan 34 ta tumanda 4 300 000,0 mln.so'm miqdoridagi korxonalar mablag'lari va tijorat banklari kreditlarini jalb qilgan holda 46,8 mingta ish o'rni tashkil etish yo'li bilan qishloq joylarda barqaror ish o'rinlari tashkil etish hisobiga aholi bandligini oshirish;

– aholi bandligini ta'minlash maqsadida 10 ming nafar ta'lim muassasalari bitiruvchisiga o'z tadbirkorlik faoliyatini boshlashi

[103] 2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF–4947-sonli Farmoniga 1-ilova.

uchun tijorat banklari kreditlari hisobidan 60 000,0 mln.so'm miqdorida kredit mablag'lari ajratish orqali bandlikni va oila daromadlarini oshirish;

– respublika hududlarida aholi bandligini ta'minlash hamda qo'shimcha daromad manbaini yaratish maqsadida tijorat banklari tomonidan 400 000,0 mln.so'm hajmida bank kreditlarini ajratish orqali fuqarolarning shaxsiy yordamchi xo'jaliklarida qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish, qoramol, qo'y, echki, quyon boqish va go'sht yetishtirish, parrandachilik va asalarichilikni rivojlantirish, ixcham issiqxonalar tashkil etish, shuningdek, urug' va ko'chatlar uchun mikrokreditlar ajratish hajmini yanada oshirish, shu yo'l bilan aholi tomorqasidan foydalanish samaradorligini oshirish, sifatli qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini ko'paytirish;

– Bandlik va mehnat masalalari vazirligi tizimida Koreya Respublikasi, Yaponiya va boshqa davlatlar hamda xalqaro moliya institutlarining 8,5 mln.doll. (o'rtacha 1 ta markazni tashkil etish uchun – 3 000,0 mln.doll.) grant mablag'lari va imtiyozli kreditlarini, shuningdek, Bandlikka ko'maklashish Davlat jamg'armasi mablag'larini jalb etgan holda viloyat markazlarida ishsiz fuqarolarni kasbga o'qitish markazlarini bosqichma-bosqich tashkil etish orqali ishsiz fuqarolarni kasbga tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini kengaytirish.

Aholini ijtimoiy muhofaza qilish borasidagi chora-tadbirlar tizimida keksa avlod vakillari, pensionerlar to'g'risida g'amxo'rlik qilish, ularning turmush sharoiti va hayot sifatini yaxshilash muhim o'rin tutadi. Harakatlar strategiyasida ham "nuroniylarni qo'llab-quvvatlash, rag'batlantirish, ularning madaniy hordiq chiqarishiga va sog'liqlarini mustahkamlashga, keksalarning maishiy holatlarini yaxshilash, ularning muammolarini o'rganish, mahallalarda istiqomat qilayotgan ko'makka muhtoj keksalar, imkoniyati cheklangan shaxslar bilan bir qatorda, "Muruvvat", "Sahovat" uylarida yashovchilar holidan muntazam xabar olish, bu ishlarga yoshlarni keng jalb etish maqsadida "Nuroniylar e'zozimizda" patronaj yoshlar harakatini

tashkil etishga, jamoa shartnomalari va kelishuvlari orqali keksa avlod vakillarini ma'naviy va moddiy qo'llab-quvvatlashga qaratilgan" bir qator chora-tadbirlar, ularni amalga oshirish uchun mas'ul tashkilotlar, bu ishlarni bajarish uchun zarur mablag'lar va ularning manbalari ko'zda tutilgan.



14.2-rasm. **Aholini ijtimoiy muhofaza qilish tadbirlarini moliyalashtirish manbalari**

O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining ilk kunlaridanoq yolg'iz pensionerlar va nogironlarning ijtimoiy himoyasi bilan bog'liq masalalar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1991-yil 27-maydagi "O'zgalar parvarishiga muhtoj yolg'iz pensionerlarni ijtimoiy himoyalash yuzasidan qo'shimcha tadbirlar to'g'risida"gi PF–212-son Farmoni va "O'zbekiston Respublikasida nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunida o'z aksini topdi.

So'nggi yillar mobaynida respublikada yolg'iz keksalar, pensionerlar va nogironlarga ko'rsatiladigan tibbiy-ijtimoiy yordamni kuchaytirish bo'yicha katta ishlar amalga oshirildi. Misol tariqasida, faqatgina 2010–2015-yillar mobaynida keksalar va pensionerlar uchun mo'ljallangan 12 ta "Saxovat" va "Muruvvat" internat uylari moddiy-texnika bazalari, 14,6 ming yolg'iz keksalar, pensioner,

nogironlarning turar-joy sharoitlari yaxshilandi, 5,4 ming odam reabilitatsiya texnik-vositalari va protez-ortopediya mahsulotlari bilan ta'minlandi, 6,4 ming nogiron va pensioner sanatoriylarda sog'liqlarini tiklashdi. Ko'rsatilgan tibbiy-ijtimoiy yordamning umumiy hajmi 132,2 milliard so'mni tashkil etdi.

2017-yil 14-iyulda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ezgu maqsad" xalqaro xayriya jamoat fondini tashkil etish to'g'risida"gi PQ–3135-son qarori bilan "Ezgu maqsad" xalqaro xayriya jamoat fondi tashkil etildi.

Fondning asosiy mablag'lari jismoniy va yuridik shaxslar, shu jumladan, xorijiy fuqarolar va tashkilotlarning xayriya yordami hamda qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa mablag'lar hisobidan shakllantiriladi.

Aholining himoyaga muhtoj qatlamlari salomatligini muhofaza qilish, ularga tibbiy yordam ko'rsatish sifatini oshirishni ta'minlash, yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan yoki xavfli guruhga kiradigan bolalar, "Mehribonlik", "Muruvvat", "Saxovat" uylari va ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilariga yordam berishga yo'naltirilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlari, ko'p bolali oilalarni qo'llab-quvvatlash Fondning asosiy vazifalari sirasiga kiradi.

Fond O'zbekiston Respublikasining yuridik va jismoniy shaxslari, xorijiy fuqarolar va tashkilotlar, fuqaroligi bo'lmagan shaxslar, xalqaro tashkilotlarning xayriya mablag'larini jalb etish va jamlash bo'yicha ishlarni amalga oshiradi hamda ulardan Fond xayriya dasturlarini amalga oshirish uchun maqsadli foydalanadi.

Fondga istisno tariqasida O'zbekiston Respublikasi hududida Fond xayriya dasturlari doirasida hisob-kitoblar va to'lovlarni xorijiy valyutada amalga oshirish, Fond xayriya dasturlarini amalga oshirish uchun jalb etiladigan xorijiy fuqarolar – mutaxassislarni mehmonxona va boshqa joylarda joylashtirish xizmatlari uchun to'lovlarni milliy valyutada to'lashga ruxsat etildi.

Fond soliqlarning barcha turlari va davlat maqsadli jamg'armalariga majburiy ajratmalardan va Fond tomonidan chetdan keltiriladigan tovarlar bojxona to'lovlaridan (bojxona rasmiylashtiruvi yig'imlari bundan mustasno) ozod qilindi.

Respublikadagi qator vazirlik va idora hamda tashkilotlarga Fond xayriya dasturlari amalga oshirilishini ta'minlashda Fond bilan faol hamkorlik qilish tavsiya etildi.

Shu kabi davlat ijtimoiy dasturlarining amalga oshirilishi natijasida o'tgan davrda aholi salomatligi sezilarli darajada mustahkamlandi, onalar o'limi – 3,2, bolalar o'limi – 3,4 barobar kamaydi, o'rtacha umr ko'rish darajasi 66 yoshdan 74 yoshgacha, ayollar o'rtasida esa 76 yoshgacha uzaydi[104].

2018-yilgi "Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturini ro'yobga chiqarish doirasida 21 trillion so'm va 1 milliard AQSh dollariga teng 76 mingta loyiha amalga oshirildi.

"Obod qishloq" va "Obod mahalla" dasturlariga muvofiq 400 dan ortiq qishloq va mahallalarda munosib turmush sharoitlarini yaratishga qaratilgan qurilish va obodonlashtirish ishlariga 3 trillion so'm mablag' yo'naltirildi.

"Har bir oila – tadbirkor" va "Yoshlar – kelajagimiz" dasturlari doirasida 2 trillion so'mga yaqin mablag' ajratilib, joylarda 2 600 dan ortiq biznes-loyihalar amalga oshirildi.

Ijtimoiy sohani rivojlantirish, aholining ijtimoiy himoyasini kuchaytirish va mehnatga haq to'lash tizimini yanada takomillashtirishga alohida e'tibor qaratildi hamda bu aholining real daromadlarini 2017-yilga nisbatan 12 foizga oshirish imkonini berdi.

Yangi o'quv yo'nalishlarni ochish va qabul kvotalarini oshirish hisobiga oliy ta'lim olish imkoniyatlari salmoqli darajada kengaytirildi.

Davlat ijtimoiy dasturlarining amalga oshirilishi natijasida jamiyat va davlatni barqaror, izchil rivojlantirish, aholi farovonligini oshirish

[104] http://press-service.uz/uz/lists/view/794

hamda hayot sifatini yaxshilash, oila salomatligini mustahkamlash, onalik va bolalikni muhofaza qilish, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarining sifatli tibbiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, fuqarolar, jumladan, imkoniyati cheklangan shaxslarga ijtimoiy xizmat ko'rsatish tizimini yaxshilash, kam ta'minlangan oilalarni moddiy qo'llab-quvvatlashga erishilmoqda. Davlat moliyasi orqali esa bu tadbirlar moliyaviy jihatdan ta'minlanishi uchun zarur mablag'lar safarbar etilmoqda.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Jamiyat ijtimoiy taraqqiyotida davlat moliyasining o'rni va ahamiyati nimalarda namoyon bo'ladi?
2. Ijtimoiy rivojlanishning iqtisodiy va moliyaviy negizlari nimalardan iborat?
3. Ijtimoiy maqsadlardagi xarajatlarni davlat byudjeti hisobidan moliyalashtirish tartiblari qanday?
4. Harakatlar strategiyasini amalga oshirish chora-tadbirlari doirasida davlatning qanday ijtimoiy rivojlanish dasturlari ko'zda tutilgan, ularni moliyaviy ta'minlash manbalari nimalardan iborat?

Mavzu yuzasidan topshiriqlar

1. Davlat moliyasining mamlakatni ijtimoiy rivojlantirishdagi o'rni va ahamiyatini aks ettiruvchi klaster tayyorlang.
2. Mamlakatni ijtimoiy rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar va ularni moliyalashtirish manbalari to'g'risida taqdimot tayyorlang.
3. Xorijiy davlatlarda ijtimoiy muammolarni davlat moliyasi yordamida hal qilish masalalari haqida mustaqil ish tayyorlang.

15-BOB. DAVLAT MOLIYASI TIZIMIDA IJTIMOIY SUG'URTA VA IJTIMOIY TA'MINOT

15.1. Ijtimoiy sug'urtaning mazmuni, davlat moliyasi tizimidagi o'rni va ahamiyati

Ijtimoiy sug'urta – fuqarolarning qarilik, kasallik, onalik, mehnat qobiliyatining to'liq yoki qisman yo'qotilishi, boquvchisini yo'qotish, ishsizlik kabi holatlarda moddiy ta'minot olishning moliyaviy asosini yaratish bilan bog'liq bo'lgan iqtisodiy munosabatlar yig'indisi hisoblanadi. Ijtimoiy sug'urta munosabatlari orqali jamiyat miqyosida turli ijtimoiy iste'mol fondlari shakllanadi va belgilangan tartibda ishlatiladi. Ijtmoiy sug'urta ajratmalari hisobidan shakllanadigan pul jamg'armalari fuqarolarning ijtimoiy jihatdan himoyalanish shakllari va usullarining moliyaviy asosini yaratishga xizmat qiladi. Bizning mamlakatimizda ijtimoiy sug'urta ajratmalari sifatida yuridik shaxslardan undiriladigan yagona ijtimoiy soliq (yoki byudjet tashkilotlari tomonidan ular xarajatlarining II-guruhi bo'yicha rejalashtiriladigan va ajratiladigan ijtimoiy ehtiyojlarga ajratmalar) o'rnatilgan nisbatlarda taqsimlanib, byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi, Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi va Kasaba uyushmalari Federatsiyasining ijtimoiy sug'urta byudjetini shakllantirishga yo'naltiriladi. Shuningdek, ishlovchi xodimlar ham o'z ish haqlaridan ijtimoiy sug'urta badallarini Pensiya jamg'armasiga sug'urta badali, Kasaba uyushmalariga sug'urta badali shaklida muayyan to'lovlarni to'laydilar. Ijtimoiy sug'urtaning bunday namoyon bo'lishi uning majburiylik xususiyatini ko'rsatadi va davlat tomonidan tartibga solinadi. Ijtimoiy sug'urta ajratmalari (yagona ijtimoiy soliq ko'rinishida) soliqlarga tenglashtirilgan bo'lib, bu o'tkazmalarning amalga oshirilishi soliq organlari tomonidan nazorat qilinadi.

Ijtimoiy sug'urtaning mohiyati, zarurligi va ahamiyati, kishilik taraqqiyotida uning paydo bo'lishi, rivojlanishi, mehnatkashlarni turli

xavf-xatarlardan himoya qilishdagi ahamiyati, ijtimoiy sug'urta bilan bog'liq munosabatlarning xususiyatlari turli adabiyotlarda, darslik va o'quv qo'llanmalarda, ilmiy maqolalar va tezislarda yetarlicha yoritilgan, bu mavzuda qator ilmiy ishlar olib borilgan.

"Families and social security" nomli maqolada muallif quyidagilarni tadqiq qilgan: "agar ijtimoiy sug'urta va ijtimoiy ta'minot bilan davlat tuzilmalari shug'ullanmasa, bu sohani to'lig'icha xususiy sektorning vakolatlariga topshirib qo'yilsa, ko'pchilik oilalarning, jumladan, yolg'iz va keksa oilalar, nikohdan ajrashganlar va shu kabi aholi guruhlarining ahvoli nochorlashadi. Agar ishchilarning ijtimoiy sug'urtasi kafolatlab qo'yilmasa, kapitalning jamg'arilishi 40 foizga, ish kuchining taklifi 30 foizga, yalpi samaradorlik hatto 36 foizgacha pasayib ketishi mumkin. G'arb davlatlari ijtimoiy hayotida oilalarning ajralib ketishi, to'liqsiz oilalarning, yolg'iz fuqarolarning ko'payishi ularni davlat tomonidan ijtimoiy sug'urta qilinishi va ularga nisbatan ijtimoiy ta'minot dasturlarini ishlab chiqishni talab etadi. Shularni hisobga olgan holda, kelgusida ijtimoiy sug'urta va ijtimoiy ta'minot qisqarishi emas, ksincha, rivojlanishi va mustahkamlanishi kerak"[105].

Amerika Qo'shma Shtatlarida ijtimoiy sug'urta va ijtimoiy ta'minot asosan "Medicare" va "Medicaid" dasturlari orqali aholiga yetkaziladi. Medicare dasturi AQShda 65 yosh va undan katta yoshdagi fuqarolarni tibbiy sug'urtalash milliy tizimi hisoblanadi. Dastur fuqarolarga ko'rsatiladigan tibbiy xizmatlarning bir qismini qoplashga xizmat qiladi. "Medicare" dasturi ish beruvchilar va ishlovchilarning daromadi va ish haqisidan olinadigan soliqlarning bir qismi, shuningdek, Ijtimoiy ta'minot fondlaridan har oylik badallar hisobidan moliyalashtiriladi[106].

[105] HansFehr, Manuel Kallweit' Fabian Kindermann. Families and social security. European Economic Review. January 2017, Pages 30-56.www.sciencedirect.com
[106] Social Security Administration "Medicare" // SSA Publication. — № 05-10043-RU.

"Medicaid" – AQShda nochor fuqarolarga tibbiy yordam ko'rsatishning davlat dasturi hisoblanadi. Bu dastur bo'yicha rasmiy kambag'allik chegarasidan past daromadga ega bo'lgan fuqarolarga tibbiy xizmat ko'rsatiladi. U shtatlar darajasida federal hukumatning yordamida amalga oshiriladi. Ushbu dastur 1960-yilda Kerr Milss (Kerr -Mills Act) qonuniga ko'ra qabul qilingan va 1965-yildan beri amal qiladi[107].

"AQShda ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar asosan Medicare va Medicaid milliy dasturlarining moliyaviy ta'minotiga safarbar etiladi. Bu milliy dasturlar tomonidan tibbiy xizmatlar haqini to'lashga sarflanadigan mablag'lar mamlakat bo'yicha jamoat sog'lig'ini saqlash sohasida xarajatlarning oshib ketishiga olib keladi"[108]. Umuman olganda, AQSh sog'liqni saqlash tizimiga eng ko'p mablag' safarbar etadigan davlat hisoblanadi, bu xarajatlar mamlakat yalpi ichki mahsulotining qariyb 17 foizini tashkil qiladi.

O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksida davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha barcha xodimlar davlat yo'li bilan ijtimoiy sug'urta qilinishlari belgilab qo'yilgan[109]. Davlat ijtimoiy sug'urtasi uchun ish beruvchilar, shuningdek, sug'urta qilingan xodimlarning o'zlari sug'urta badallarini to'laydilar. Shu bilan birga, ish beruvchilarning davlat ijtimoiy sug'urtasi uchun badal to'lamaganliklari sug'urta qilingan xodimni davlat ijtimoiy sug'urtasi mablag'lari hisobidan ta'minlanish huquqidan mahrum qilmaydi. Sug'urta qilingan xodimlar, tegishli hollarda esa, ularning oilalari ham davlat ijtimoiy sug'urtasi mablag'lari hisobidan (15.1-rasm):

– vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqalari, ayollar esa, bundan tashqari, homiladorlik va tug'ish nafaqalari;

---

[107] Лебедева Л.Ф.– США: государство и социальная политика.- М.: Наука. - 2007. 148-стр.
[108] KaiZhao. Social security and the rise in health spending. Journal of Monetary Economics. May 2014, Pages 21-37. www.sciencedirect.com
[109] O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi. XVI bob. Davlat ijtimoiy sug'urtasi. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 19.04.2018 y., 03/18/476/1087-son



15.1-rasm. **Davlat ijtimoiy sug'urtasi mablag'lari hisobidan ta'minlanadigan to'lovlar**[110]

– bola tug'ilganda beriladigan nafaqalar;

– davlat tomonidan beriladigan yoshga doir, nogironlik va boquvchisini yo'qotganlik pensiyalari;

– qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa to'lovlar bilan ta'minlanadilar.

Davlat ijtimoiy sug'urtasi mablag'laridan sanatoriy-kurortlarda davolanish, dam olish, sug'urta qilingan xodimlarning shifobaxsh (parhez) taomlari uchun haq to'lash, bolalarning sog'lomlashtirish lagerlarini ta'minlab turish, davlat ijtimoiy sug'urtasiga doir boshqa tadbirlar uchun ham belgilangan tartibda foydalaniladi.

Ijtimoiy sug'urta aholini turli xavf-xatarlardan ijtimoiy himoyalash hisoblanadi, ya'ni ishdan ketish, mehnatga layoqatlilikni, daromadni yo'qotish kabi xavf-xatarlar yig'indisi hisoblanadi. Ijtimoiy sug'urtaning muhim jihati shundaki, u ish beruvchi va ishlovchilarning maqsadli badallari asosida maxsus nobyudjet fondlarni shakllantirish jarayonida yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlarda namoyon bo'ladi. Ijtimoiy sug'urta munosabatlarida

[110] O'zbekiston Respublikasi Mehnat Kodeksi, 284-modda (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 19.04.2018 y., 03/18/476/1087-son) asosida tayyorlandi.

sug‘urta to‘lovi mehnat ulushi hamda sug‘urta muddatiga bog‘liq bo‘ladi.

Mehnatga layoqatlilikni va daromadni yo‘qotishga olib keladigan ijtimoiy xavf-xatarlarga quyidagilar kiradi: kasallik, ishlab chiqarishdagi jarohat, kasbiy kasallik, baxtsiz hodisa, onalik va bolalik, ishsizlik, qarilik, boquvchisini yo‘qotish.

Jamiyat rivojlanishi bilan ijtimoiy sug‘urtaning o‘rni va roli sezilarli oshib boradi, bunga aholining majburiy ijtimoiy sug‘urtalanganlik darajasining oshishi, ijtimoiy sug‘urta dasturlarining kengayishi, to‘lanadigan pensiya, nafaqalar hajmining hamda ko‘rsatiladigan xizmatlar sifatining o‘sishi, ularning qiymati va aholi real daromadlarining oshishi sabab bo‘ladi.

Ijtimoiy-siyosiy nuqtayi nazardan qaraganda, ijtimoiy sug‘urta fuqarolarning qarilik, kasallik holatlari, onalik, mehnat qobiliyatini to‘liq yoki qisman yo‘qotishi, boquvchisini yo‘qotish, ishsizlik kabi holatlarda moddiy ta’minot olishga konstitutsiyaviy huquqi borligini ko‘rsatadi. To‘lanadigan mablag‘ miqdori mehnat staji, oylik ish haqi, mehnat qobiliyatini yo‘qotganlik darajasini hisobga olgan holda aniqlanadi va amaldagi qonunchilikka asoslanadi.

Ijtimoiy sug‘urtaning eng muhim iqtisodiy funksiyasi shundaki, u mehnat resurslarini takror ishlab chiqarish uchun zarur sharoitlarini yaratadi, shu bilan birga, ijtimoiy sohada davlat siyosatining ajralmas qismi hisoblanadi. Shuningdek, ijtimoiy sug‘urta tizimi jamiyatda ijtimoiy adolatni ta’minlash, siyosiy birdamlikni yaratish va uni saqlab qolishning dastlabki shartlaridan biri hisoblanadi.

Ijtimoiy sug‘urtaning yordami bilan jamiyat quyidagi vazifalarni bajaradi:

– ishga layoqatsiz va mehnat jarayonida ishtirok etmaydigan shaxslarning xarajatlarini qoplashga qaratilgan pullik fondlarni shakllantirish;

– mehnat resurslarini takror ishlab chiqarishning tuzilma va zarur miqdorini ta’minlash;

– jamiyatning ishlovchi va ishsiz a'zolarining moddiy ta'minotidagi uzilishlarni kamaytirish;

– aholining mehnat jarayoniga jalb etilmagan guruhlarining yashash darajasini ko'tarishga erishish.

Ijtimoiy sug'urta ikki yo'nalishdagi chora-tadbirlarni moliyaviy jihatdan ta'minlashga qaratilgan:

– birinchisi – ishchilarni sog'lomlashtirish va qayta tayyorlash tadbirlarini o'tkazgan holda mehnat qobiliyatini qayta tiklash va uning saqlanishini ta'minlash;

– ikkinchisi – mehnat qobiliyatini yo'qotganlarga yoki unga umuman ega bo'lmaganlarga moddiy ta'minotni kafolatlash.

Ijtimoiy sug'urta tizimining moddiy asosini unga muvofiq keluvchi fondlar tashkil etadi. Ijtimoiy sug'urta fondlari quyidagi manbalar hisobidan shakllanadi (15.2-rasm):

– ishchilarning sug'urta badallari;

– ish beruvchilarning badallari;

– davlat subsidiyalari.



15.2-rasm. **Ijtimoiy sug'urtaning mazmuni va ijtimoiy sug'urta fondlarining shakllanish manbalari**[111]

[111] Alimova G.Ijtimoiy sug'urtaning mazmun-mohiyati va nazariy asoslari. BIZNES-EKSPERT.№6(54)-2012. 15-18-b.

Ishlovchilarning sug'urta badallari ularning daromadidan olib qolinadi. Mohiyati jihatidan bu to'lovlar aniq maqsadli soliq hisoblanadi. Sug'urta badali stavkasi yalpi ish haqiga nisbatan foizlarda aniqlanadi va ko'p hollarda daromadning katta-kichikligiga bog'liq bo'lmaydi.

Davlat subsidiyalari ishlamaydigan fuqarolar, harbiy xizmatchilar va davlat xizmatchilari uchun majburiy ijtimoiy sug'urta fondlariga dotatsiyalarni, ijtimoiy fondlar taqchilligini qoplashga xizmat qiluvchi dotatsiyalarni hamda soliq imtiyozlarini o'z ichiga oladi.

Majburiy ijtimoiy sug'urta mablag'lari pul to'lovlari, ijtimoiy xizmatlarni moliyalashtirish, imtiyozli yordam ko'rinishida ishlatiladi.

Resurslardan foydalanish hajmi jihatidan birinchi o'rinda pul to'lovlari turadi. Ular pensiya va nafaqalar ko'rinishida namoyon bo'ladi.

Ijtimoiy sug'urta mablag'lari orqali sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot muassasalari xizmatlari, sanatoriya-kurort tashkilotlarining fuqarolarning mehnat qobiliyatini tiklash bo'yicha xizmatlari, sog'lomlashtirish-profilaktika tadbirlarining o'tkazilishi kabi tadbirlar mablag' bilan ta'minlanadi.

Ijtimoiy sug'urta to'lovlari, badallari va ajratmalari pensiya ta'minotining moddiy asosini tashkil qiladi. Insoniyat tarixida keksalik tufayli mehnat qobiliyatini yo'qotganlarni ijtimoiy himoyalashning turli vositalari qo'llanib kelingan. Masalan, Qadimgi Rimda, Yuliy Sezar tomonidan harbiy pensiyalar joriy etilgan. Xususiy sektorda band bo'lganlarning yoshiga ko'ra davlat tomonidan tashkil etilgan birinchi pensiya tizimi 1889-yilda Germaniyada amalga kiritilgan. Uning o'ziga xos xususiyati shundaki, ijtimoiy sug'urta majburiy bo'lib, badallar kiritishga asoslangan. Bu tizimda pensiya olish huquqi ilgari to'langan badallarga asoslanar edi. Daniyada 1891-yilda va Yangi Zelandiyada – 1898-yilda kambag'allarga maqsadli yordam ko'rsatishi lozim bo'lgan pensiya tizimi joriy etilgan. U umumiy soliq daromadlari hisobidan moliyalashtirilar, muhtojlik darajasini

baholashni nazarda tutar va to'lovlarning minimal darajasini kafolatlar edi.

XX asrda rivojlangan mamlakatlar pensiya tizimlari xususiyatlari bir-biriga yaqinlashib bordi. Pensiya tizimi sug'urta badallari to'lashga asoslangan mamlakatlarda (masalan, Germaniyada) ilgari to'langan badallarga bog'liq bo'lmagan pensiya eng kam miqdorining kafolatlari belgilandi. Pensiya tizimi umumiy daromadlar hisobidan shakllanadigan byudjetlar hisobidan mablag' bilan ta'minlanadigan teng pensiyalarga qarab mo'ljal oluvchi mamlakatlarda muhtojlikni nazorat qilishdan voz kechildi. Buyuk Britaniyada eng kam pensiya miqdoriga qo'shimcha ravishda majburiy ijtimoiy sug'urta tizimi joriy etildi.

Shimoliy Amerikada qarilik bo'yicha davlat pensiya tizimi nisbatan kech vujudga keldi. Amerika Qo'shma Shtatlarida muhtojlik mezoniga asoslangan pensiya tizimlari XX asrning 20-yillarida joriy etila boshlandi. 1935-yil AQShda pensiya sug'urtasi federal tizimi joriy etildi.

O'rta asrlardagi O'zbekiston tarixiga nazar soladigan bo'lsak, ijtimoiy ta'minot faqat xayriya mablag'lari hisobidan amalga oshirilganligi ayon bo'ladi. O'zbek xalqining mentaliteti, axloq-odobi, urf-odatlari hamda qadimiy an'analari fuqarolarning imkoniyat darajasida, ijtimoiy himoyaga olinishini bildiradi.

Turkiston o'lkasi XIX asrning 60-yillaridan boshlab, Chor Rossiyasi mustamlakasiga aylantirilgan va tegishli ravishda boshqarilgan. Mahalliy aholining ijtimoiy ta'minoti masalasi haqida hech qanday farmonlar qabul qilinmagan. Chor hokimiyati davrida 1882–1909-yillarda Sirdaryo viloyati bo'yicha 14 kishiga, Farg'ona viloyati bo'yicha 9 kishiga, Samarqand viloyati bo'yicha 2 kishiga pensiya tayinlangan bo'lib, bular ham xonning qarindoshlari, yuzboshi va imperatorning homiylari edi[112].

[112] Xaitov A.A., Ziyadullayev M. O'zbekistonda pensiya ta'minoti va xorij tajribasi. –T.: "Adolat". 2009. 25-b.

Sobiq Ittifoq davrida pensiya ta'minoti bo'yicha bir qator ishlar amalga oshirilgan. 1918-yil 31-oktyabrda "Pensiya ta'minoti to'g'risida"gi Nizom qabul qilingan. "Davlat pensiyalari to'g'risida"gi birinchi Qonun 1956-yilda qabul qilingan. Bu Qonunga asosan pensiyalarning barcha turlari yagona qonunga asoslanib tayinlangan. 1964-yilda "Kolxoz a'zolariga pensiya va nafaqalar tayinlash to'g'risida"gi Qonun qabul qilinishi munosabati bilan kolxozchilarning markazlashtirilgan ijtimoiy sug'urta fondi tashkil qilingan va kolxoz a'zolari shu fond hisobidan pensiya bilan ta'minlana boshlangan. 1989-yil 1-avgustda "Aholining pensiya ta'minoti va ijtimoiy xizmatning kechiktirib bo'lmaydigan tadbirlari to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi va shu davrdan boshlab shahar va qishloq o'rtasidagi tafovutga barham berilib, ishchi-xizmatchi va kolxozchilarga bir xilda pensiyalar tayinlana boshlandi.

Mamlakat iqtisodiyotiga bozor munosabatlarining joriy etilishi pensiya ta'minotini qayta ko'rib chiqishni va isloh qilishni taqozo qildi. Shuning uchun 1991-yildan "Fuqarolarning pensiya ta'minoti to'g'risida"gi Qonun kuchga kiritildi. Qonun asosida islohotlar boshlanib, davlat ijtimoiy sug'urtasi, ijtimoiy pensiyalar, daromadlar indeksatsiyasi kabi yangi mexanizmlar amal qila boshladi. Bu Qonun mustaqil respublikamizning qonuni – "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi Qonuni (1993-yil, 3-sentyabr) qabul qilinib, kuchga kirgunga qadar amalda bo'ldi[113].

15.2. Ijtimoiy ta'minot tizimining mohiyati, vazifalari va ahamiyati

Ijtimoiy ta'minot doimo davlat va jamiyat hayotida markaziy va hal qiluvchi o'rinni egallab kelgan. Mamlakatda yashaydigan fuqarolarda o'z hayot faoliyatining ma'lum bosqichlarida va alohida holatlarda ijtimoiy ta'minot tizimi xizmatlariga ehtiyojlar yuzaga keladi. Uning holati mamlakat iqtisodiy rivojlanish darajasiga,

[113] Sh.Allayarov, D.Toshmuxamedova. Davlat pensiya ta'minoti. O'quv qo'llanma. T.: IQTISOD-MOLIYA. 2015. 35-36-b.

mamlakatda olib borilayotgan ijtimoiy siyosatga, shuningdek, mehnat-kashlar hamda ma'lum sabablarga ko'ra ishlamaydigan aholi qatlamlarining ijtimoiy ahvoliga bog'liq.

"Ijtimoiy ta'minot" tushunchasining mazmuni, uning holatini belgilab beruvchi omillar bizning mamlakatimizda ijtimoiy ta'minot tizimining rivojlanishi bilan shakllanib bordi. Iqtisodiy ta'limotlar va fanda "ijtimoiy ta'minot" tushunchasining turlicha talqin etilganligini ko'rish mumkin. Masalan, tarixan ancha ilgari yaratilgan rus izohli lug'atida[114] ijtimoiy ta'minotga "jamiyat tomonidan u yoki bu shaxsga hayot uchun yetarli bo'lgan moddiy mablag'larni taqdim etish", deb ta'rif berilgan, ushbu ta'rifda jamiyat a'zolariga jamiyat tomonidan taqdim etiladigan yordamnnig turli shakllari ijtimoiy ta'minot hisoblanadi, degan fikr ilgari surilgan. Lekin bunday yordamning shakllari va turlari turli-tuman bo'lishi, turli toifadagi aholi qatlamlarini qamrab olishi, turli manbalardan mablag' bilan ta'minlanishi, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning har bir bosqichida o'zgarib turishi mumkin. Shundan kelib chiqqan holda, fanda ijtimoiy ta'minot tushunchasi mazmunini yoritish bo'yicha ikkita konsepsiya shakllanganligini ko'rish mumkin: iqtisodiy va huquqiy.

Iqtisodiy konsepsiya tarafdorlari ijtimoiy ta'minotga jamiyat a'zolari uchun ijtimoiy iste'mol fondlaridan taqdim etiladigan yordamning barcha turlarini (shu jumladan, bepul ta'lim, uy-joy bilan bepul ta'minlash, madaniyat muassasalarini saqlash, pensiya va nafaqalarning barcha turlari, ayrim fuqarolarga ijtimoiy, tibbiy yordam ko'rsatish va turli imtiyozlar berish) kiritadilar. Bu konsepsiyaning asosini moddiy va moliyaviy ne'matliklarni ijtimoiy iste'mol fondlari orqali taqsimlash usuli tashkil etgan.

Huquqiy konsepsiya vakillari ijtimoiy ta'minot jamiyatning barcha a'zolariga emas, faqat alohida qatlamlariga – davlat tomonidan muhofaza qilinishi lozim bo'lgan guruhlariga qaratilishi kerakligini e'tirof etganlar. Aholining bunday guruhlariga jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining turli bosqichlarida turli toifadagi fuqarolar

[114] Qaralsin: Ожегов С. И. Словарь русского языка. –М: Русский язык, 1984. С. 374, 670.

kiritilgan. Xususan, sovet hukumati davrida ijtimoiy ta'minot bilan avval yollanib ishlovchi ishchi-xizmatchilar, keyinroq kolxoz a'zolari, bolalar, ko'p bolali oilalar, yolg'iz onalar qamrab olingan.

Ijtimoiy ta'minot tushunchasini o'rgangan olimlarning izlanishlarini o'rganish shundan dalolat beradiki, ayrimlar ijtimoiy ta'minot faqat ayrim aholi qatlamlariga qaratilishi kerak, deb da'vo qilsalar, boshqalar ijtimoiy ta'minot barcha aholiga qaratilgan bo'lishi kerak, deb ta'kidlaydilar va bepul ta'lim hamda bepul tibbiy xizmat va davolash xizmatlarini ham ijtimoiy ta'minot tizimiga kiritadilar. Shuningdek, bir qator olimlar ijtimoiy ta'minot faqat davlat byudjetidan moliyalashtirilishi zarurligini ta'kidlasalar, boshqalari ijtimoiy ta'minotning ko'pkanalli moliyalash manbalari shakllanganligi va ijtimoiy ta'minot masalalari bilan shug'ullanadigan bir nechta mahkama mavjudligini e'tirof etadilar.

Bu borada A.Vahobov va T.Malikovlarning "Moliya" nomli darsliklarida berilgan ta'rifga to'xtaladigan bo'lsak, ularning fikricha, "iqtisodiy kategoriya sifatida ijtimoiy ta'minotga quyidagicha ta'rif berish mumkin: ... fuqarolarni moddiy ta'minlash va ularga xizmat ko'rsatish uchun milliy daromadning bir qismi hisobidan pul mablag'larining ijtimoiy fondlarini shakllantiradigan va ulardan foydalanadigan taqsimlash munosabatlari tizimiga ijtimoiy ta'minot deyiladi. Mana shunday keng ko'lamda, ijtimoiy ta'minot fondlarini shakllantirish manbalari va ta'minotni tashkil etishga bog'liq bo'lmagan holda jamiyatning barcha a'zolarini tegishli tarzda ta'minlanishini o'z ichiga qamrab oladi"[115]. Mualliflar ijtimoiy ta'minotning mazmuni borasida iqtisodchilar o'rtasida yagona fikr mavjud emasligini haqli ravishda e'tirof etadilar.

Internet resurs manbalaridagi ma'lumotlarda, masalan jamoat ensiklopediyasida "ijtimoiy ta'minot – keksaygan, mehnatga layoqatsiz bo'lgan va boquvchisini yo'qotgan fuqarolarga moddiy, tibbiy va ijtimoiy yordam ko'rsatish bo'yicha davlat tomonidan

[115] Vahobov A.V., Malikov T.S. Moliya. Darslik. T.: "NOSHIR", 2011. 449-bet.

belgilangan ijtimoiy-iqtisodiy tadbirlar tizimi bo'lib, ijtimoiy himoyaning muhim tarmog'i hisoblanadi"[116], deb ta'riflangan.

Ijtimoiy ta'minot tushunchasining talqiniga bo'lgan qarashlarni inobatga olgan holda, uning u yoki bu yordam turini ijtimoiy ta'minotga tegishli ekanligini belgilab beruvchi asosiy zamonaviy mezonlarini (belgilarini) aniqlab olish lozim. Fikrimizcha, bunday belgilarga quyidagilarni kiritish mumkin:

1) *moliyalashtirish manbalari:* barcha olimlar va tadqiqotchilarning fikriga qo'shilgan holda, ijtimoiy ta'minot davlat tomonidan shakllantiriladigan maxsus jamg'armalar hisobidan amalga oshirilishi lozim. Haqiqatan ham, bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy ta'minotni mablag' bilan ta'minlash quyidagi manbalar hisobidan amalga oshirilmoqda: byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi, Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi, davlat byudjeti (respublika byudjeti va mahalliy byudjetlar), kasaba uyushmalarining mablag'lari (Kasaba uyushmalari federatsiyasi kengashining ijtimoiy sug'urta byudjeti).

2) ijtimoiy ta'minot bilan qamrab olingan fuqarolar guruhlari: huquqiy jihatdan "har kim qariganda, mehnat layoqatini yo'qotganda, shuningdek, boquvchisidan mahrum bo'lganda va qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda ijtimoiy ta'minot olish huquqiga ega"[117]. Fuqarolarning bu huquqlari davlatimiz Konstitutsiyasi bilan mustahkamlab qo'yilgan. Konstitutsiyamizning ushbu huquqlarni belgilab bergan 39-moddasi mazmunidan ham ko'rinib turibdiki, ijtimoiy ta'minot fuqarolarning alohida toifalari – qariyalar, nogironlar, bolalikdan nogironlar, boquvchisini yo'qotgan fuqarolar, vaqtinchalik mehnat qobiliyatini yo'qotgan fuqarolar, homilador ayollar, vaqtincha ishsiz maqomi berilgan fuqarolar, ijtimoiy yordamga muhtoj yolg'iz fuqarolarga qaratiladi.

[116] Manba: https://uz.wikipedia.org/
[117] O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 39-modda.

Ijtimoiy ta'minot turlarining ko'pligini e'tirof etgan holda, har bir turining ***asosiy maqsadi*** – fuqarolarning alohida toifalarining ijtimoiy ahvolini jamiyatning boshqa a'zolarining holatiga yaqinlashtirish, ular orasidagi ijtimoiy farqlarni kamaytirish, yuqori moddiy xarajatlarni yoxud qo'shimcha jismoniy, ruhiy va ma'naviy harakatlarni talab qiluvchi turli hayotiy hodisalar tufayli yordamga muhtoj bo'lib qolgan fuqarolarni qo'llab-quvvatlashdan iborat

Ijtimoiy ta'minotning mazmunini shakllantirishda yana shuni ham inobatga olish kerakki, ijtimoiy ta'minot rivojlanishning u yoki bu bosqichidagi davlatning ijtimoiy siyosati yo'nalishlarini aks ettiradi. Ijtimoiy siyosatdagi ustuvorliklarning o'zgarishi ijtimoiy ta'minotning ham usul va shakllari o'zgarishiga olib keladi. Xususan, taraqqiyotning ma'lum davrlarida (70–80-yillarda) ijtimoiy siyosat aholining son jihatdan ko'payishini rag'batlantirishga qaratilgan edi, shu sababli bu davrda ijtimoiy ta'minot orqali ko'p bolali onalarga nafaqalar joriy etilgan. Mustaqillik davrida esa bu boradagi ijtimoiy siyosat onalik va bolalikni muhofaza qilish, tug'ish yoshidagi ayollarni sog'lomlashtirish, "sog'lom ona – sog'lom bola" tamoyilini mustahkamlash, barkamol avlodni tarbiyalash va fuqarolarga munosib yashash va ishlash sharoitlarini yaratishga qaratilgan. Ijtimoiy ta'minotning shakl va usullari ham shu maqsadga bo'ysundirilgan. Bu maqsadlar yo'lida insonlarning mehnati va sog'lig'i muhofaza qilinadi, oilalar, onalar va bolalar, nogironlar va keksa yoshdagi fuqarolar davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadi, ijtimoiy xizmatlar tizimi rivojlantiriladi, davlat pensiyalari, nafaqalar va ijtimoiy himoyaning boshqa kafolatlari o'rnatiladi.

Shunday qilib, **ijtimoiy ta'minot** – davlat ijtimoiy siyosatining namoyon bo'lish shakli bo'lib, aholining alohida toifalarini moddiy ta'minlashga qaratilgan, rivojlanishning muayyan bosqichida davlat tomonidan ijtimoiy ahamiyatli deb topilgan holatlarda ularning ijtimoiy holatini jamiyatning boshqa a'zolariga nisbatan tenglashtirishga yo'naltirilgan, davlat byudjeti va boshqa maxsus maqsadli jamg'armalar hisobidan amalga oshiriladigan ijtimoiy-iqtisodiy tadbirlar tizimidir

Ushbu ta'rifdan kelib chiqqan holda, mamlakatimizda bugungi kunda ijtimoiy ta'minot tizimiga quyidagilar kiradi (15.3-rasm):

– barcha turdagi pensiyalar;

– ijtimoiy nafaqalar;

– turli kompensatsion to'lovlar;

– fuqarolarning alohida toifalariga tibbiy yordam va davolash xizmatlari;

– fuqarolarning alohida toifalariga imtiyozlar;

– uy-internatlarda keksa va mehnatga layoqatsiz fuqarolarga qarash va xizmat ko'rsatish;

– nogironlarni ortopediya-protez buyumlar va harakatlanish vositalari bilan ta'minlash;

– bolalar uylari, internatlar va boshqa muassasalarda bolalarga qarash va ularni tarbiyalash;

– nogironlarni ishlab chiqarish va kasbiy reabilitatsiya qilish;

– aholiga sanatoriya-kurort xizmatlari ko'rsatish;

– imtiyozli aholi qatlamlarini dori-darmonlar bilan ta'minlash;

– uyda ijtimoiy xizmat ko'rsatish va boshqalar.



15.3-rasm. **Ijtimoiy ta'minot xizmatlari**

Bu xizmatlarning ayrimlari byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi hisobidan moliyalashtirilsa (masalan: yoshga doir, boquvchisini yo'qotganlik va nogironlik pensiyalari, bola tug'ilganda beriladigan bir martalik nafaqa, dafn marosimlari uchun nafaqa kabi), ayrimlari (masalan: qariyalar va nogironlar uylarini saqlash, bepul ortopediya-protezlash vositalari bilan ta'minlash, uyda ijtimoiy yordam ko'rsatish kabi) davlat byudjeti (respublika byudjeti va mahalliy byudjetlar) hisobidan, boshqa birlari (masalan, aholiga sanatoriya-kurort xizmatlari ko'rsatish) kasaba uyushmalari hisobidan mablag' bilan ta'minlanadi.

Ijtimoiy ta'minot tushunchasini yoritishga bag'ishlangan fikrlarimizni nihoyasiga yetkazib shuni ta'kidlaymizki, bepul ta'lim, uy-joy bilan bepul ta'minlash kabi ijtimoiy yordam turlari, garchi aholining ijtimoiy ahvolini yengillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar sirasiga kirsa-da, ijtimoiy ta'minot tarkibiga kirmaydi, balki davlatning ijtimoiy kafolatlarini ta'minlash chora-tadbirlari qatorida davlat byudjeti va boshqa davlat mablag'laridan moliyalashtiriladi.

Ijtimoiy ta'minot tizimining zarurligi va ahamiyati uning funksiyalarida namoyon bo'ladi. Iqtisodiy va huquqiy adabiyotlarda ijtimoiy ta'minotning quyidagi funksiyalarni bajarishi ko'rsatilgan: *iqtisodiy, siyosiy, demografik, ijtimoiy-reabilitatsion funksiyalar.*

Ijtimoiy ta'minotning iqtisodiy funksiyasi fuqarolarning qiyin hayotiy holatlarda moddiy qo'llab-quvvatlanishida, fuqarolarga mehnat qobiliyatini qayta tiklab olish uchun moddiy yordam berilishi natijasida mehnat unumdorligining oshishi va ishlab chiqarishning rivojlanishiga turtki berishda namoyon bo'ladi.

Ijtimoiy ta'minotning siyosiy funksiyasi aholining turli ijtimoiy qatlamlari ijtimoiy holati darajasini bir-biriga yaqinlashtirish, har bir insonga munosib hayot kechirish uchun sharoit yaratish, aholini ijtimoiy himoya qilish borasida ijtimoiy munosabatlarni barqarorlashtirishga qaratilgan.

Demografik funksiyasi mamlakat aholisining son jihatdan o'sishini rag'batlantirish, sog'lom avlodni yetishtirish, fuqarolarning umr ko'rish davomiyligini oshirish kabilarga qaratilgan.

Ijtimoiy ta'minotning ijtimoiy-reabilitatsion funksiyasi keksa va mehnat qobiliyati bo'lmagan fuqarolarning o'ziga xos spetsifik ehtiyojlarini qondirish bilan bog'liq bo'lib, ularning huquqiy maqomini saqlash va sog'lig'ini muhofaza qilish uchun qulay sharoitlarni yaratishda namoyon bo'ladi. Amalda bu funksiyaning namoyon bo'lishini fuqarolarning ayrim toifalarini qariyalar uylarida saqlash, boshqa bir toifadagilarni ortopediya-protezlash vositalari bilan ta'minlash, uchinchilariga uyda ijtimoiy yordam ko'rsatishda ko'rish mumkin.

Ijtimoiy ta'minot yana bir, nazarimizda juda muhim funksiya – *ijtimoiy himoyalash funksiyasini* bajaradi. Jamiyat, o'z fuqarolariga ijtimoiy ta'minotni taqdim etar ekan, birinchi navbatda o'z oldiga ularni ijtimoiy himoya qilishdek o'ta muhim vazifani qo'yadi, zero qiyin hayotiy holatlarda ularni himoyalash, turli (moddiy, jismoniy, ruhiy, yosh bilan, oilaviy vaziyat bilan bog'liq) muammolarni hal qilishda yordam berish ijtimoiy ta'minotning zarurligi va ahamiyatini belgilab beradi.

15.3. O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy ta'minot tizimining moliyaviy manbalari

Yuqorida ta'kidlanganidek, bugungi kunda mamlakatimizda ijtimoiy ta'minot o'zining shakllari va turlari xilma-xil bo'lishi bilan birga, moliyalashtirish manbalarining ham bir nechta ekanligi bilan xarakterlanadi. Ijtimoiy ta'minot maqsadlaridagi xizmat va to'lovlar uchun moliyaviy resurslar turli ijtimoiy yo'nalishdagi jamg'armalarda mujassamlanadi va davlat boshqaruvining turli idoralari orqali tasarruf etiladi. Ijtimoiy ta'minot xizmatlari va to'lovlari quyidagi manbalardan amalga oshiriladi:



15.4-rasm. **Ijtimoiy ta'minot xizmatlari va to'lovlarini moliyalashtirish manbalari**

– davlat byudjeti (respublika byudjeti va mahalliy byudjetlar);
– byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi;
– Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi;
– O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi Kengashining ijtimoiy sug'urta byudjeti mablag'lari.

Davlat byudjetidan an'anaviy ravishda ijtimoiy ta'minotning quyidagi shakllari va turlari moliyalashtiriladi:

a) respublika byudjetidan:

– respublika tasarrufidagi bolalar uylarini saqlab turish xarajatlari;

– respublika vazirliklari va idoralari tasarrufidagi urush hamda mehnat faxriylari uchun pansionat va sanatoriylar, aholini ijtimoiy muhofaza qilish muassasalarini saqlab turish, shuningdek, aholini ijtimoiy muhofaza qilishga doir maqsadli tadbirlar xarajatlari;

– bolalikdan nogironlarga va bola tug'ilganda beriladigan nafaqalarni, qonun hujjatlarida ayrim toifadagi shaxslarga belgilangan kompensatsiyalarni to'lash uchun vakolatli organga mablag'lar ajratish xarajatlari;

– Chernobil AES halokati oqibatlarini tugatishda ishtirok etgan va radiatsiya-yadro obyektlarida harbiy xizmatni o'tagan pensiya

yoshidagi shaxslarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, ayrim toifadagi shaxslarga qonun hujjatlarida belgilangan imtiyozlar va kompensatsiyalarni to'lash xarajatlari va b.

b) mahalliy byudjetlardan:

– mahalliy hokimiyatlar tasarrufidagi bolalar uylari, davlat bolalar shaharchalarini saqlab turish xarajatlari;

– mahalliy hokimiyatlar tasarrufidagi qariyalar va nogironlarning internat-uylari, pansionat va sanatoriylari, nogironlarni reabilitatsiya qilish markazlari, boshqa muassasalarni saqlab turish xarajatlari, shuningdek, aholini ijtimoiy muhofaza qilishga doir maqsadli tadbirlar xarajatlari;

– uyda ijtimoiy yordam ko'rsatish xarajatlari;

– shahar yo'lovchilar transporti tashuvchilarining yo'lovchilarni va bagajni cheklangan tariflar bo'yicha tashish, shuningdek, alohida toifadagi fuqarolarni imtiyozli tashish xizmatlarini ko'rsatish bilan bog'liq zararlarning o'rnini qoplash xarajatlari va b.

Ma'lumki, ijtimoiy ta'minotning markazida pensiya ta'minoti turadi. Ko'pchilik davlatlarda pensiya ta'minotini mablag' bilan ta'minlash maqsadida markazlashgan tartibda maxsus fondlar – Pensiya fondlari tuziladi. Ularning asosiy maqsadi shu mamlakat pensiya qonunchiligi bilan belgilangan pensiyalar va boshqa ijtimoiy to'lovlarni moliyalashtirishdan iborat.

Bizning mamlakatimizda ijtimoiy ta'minot vazifalarini davlat byudjeti bilan birga, byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi bajaradi

Bugungi kunda byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasidan quyidagi pensiyalar va ijtimoiy nafaqalar to'lanadi, shuningdek, fuqarolarning ijtimoiy ta'minoti bilan bog'liq bo'lgan boshqa sarfiyotlar amalga oshiriladi:

– ishlayotgan pensionerlarga davlat pensiyalarini to'lash;

– ishlamaydigan pensionerlarga davlat pensiyalarini to'lash;

– davlat pensiya ta'minoti huquqiga ega bo'lmagan qariyalar va mehnatga qobiliyatsiz fuqarolarga nafaqalar;

– dafn marosimlari uchun nafaqalar;

– belgilangan tartibda aniqlanadigan boshqa xarajatlar.

Fuqarolar ijtimoiy ta'minotining ayrim shakllari va turlari *Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi* tomonidan moliyalashtiriladi, ular jumlasiga quyidagilar kiradi:

– ishsiz deb topilgan shaxslarni kasbiy tayyorlash, ularning malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash xarajatlari;

– ishsizlik bo'yicha nafaqalar, bandlikka ko'maklashish va aholini ijtimoiy muhofaza qilish markazlari taklifiga binoan ishlash uchun boshqa joyga ixtiyoriy ravishda ko'chib o'tish munosabati bilan kompensatsiyalar to'lash hamda ishsizlarga moddiy yordam berish;

– ishsiz deb topilgan shaxslarga muddatidan ilgari pensiya tayinlanishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi xarajatlarining o'rnini qoplash;

– nogironlar, fuqarolarning ijtimoiy himoyaga muhtoj bo'lgan boshqa toifalari mehnatidan foydalanish uchun ixtisoslashtirilgan ish o'rinlari va ishlab chiqarishlarni tashkil etishga doir tadbirlarni qisman moliyalashtirish;

– ish bilan band bo'lmagan aholiga yordam ko'rsatish, shu jumladan, ishga joylashtirishga ko'maklashish va maslahat xizmatlari ko'rsatish bilan bog'liq xarajatlar;

– aholi bandligi bilan bog'liq masalalar bo'yicha xalqaro hamkorlik hamda xalqaro loyihalar va shartnomalarni amalga oshirishni moliyalashtirish;

– chet elga ishga yuborilgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining ishga joylashtirilishini tashkil etish va ularning ijtimoiy muhofaza qilinishini ta'minlash bilan bog'liq xarajatlar va b.

O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi Kengashining ijtimoiy sug'urta byudjeti quyidagi manbalar hisobiga shakllantiriladi:

– O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari bilan belgilanadigan, O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi

Kengashiga xodimlar va ularning oila a'zolarini sog'lomlashtirish uchun yagona ijtimoiy to'lovdan yo'naltirilgan ajratmalar hisobiga;

– belgilangan tartibda xodimlarga davolanish va dam olish uchun berilgan yo'llanmalar uchun ulardan olingan mablag'lar hisobiga;

– qonun hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa mablag'lar hisobiga.

Kasaba uyushmalari Federatsiyasi Kengashining mablag'lari tegishli kasaba uyushmalari organlarining qarorlari bilan tasdiqlanadigan byudjet va smetalarida belgilangan maqsadlarga muvofiq xodimlar va ularning oila a'zolarini sog'lomlashtirish uchun quyidagilarga sarflanadi:

– sanatoriy-kurortlarda davolanish, pansionat va dam olish uylariga yo'llanmalar olishga;

– korxonalar va o'quv muassasalaridagi sanatoriy-profilaktoriylarda, sanatoriy-profilaktoriylarning ijtimoiy sug'urta uchun tasdiqlangan smetasiga muvofiq, xodimlar yoki talabalarni sog'lomlashtirish xarajatlarini qisman qoplashga (xodimlarning mehnatiga haq to'lash, davolanuvchilarning ovqatlanishi, davolanishi, ularga madaniy xizmat ko'rsatishga);

– bolalarni sog'lomlashtirish oromgohlarida bolalarning ta'minotida, bolalarni sog'lomlashtirish oromgohlarining tasdiqlangan smetalariga muvofiq, hissali ishtirok etishga (xodimlarning mehnatiga haq to'lash, bolalarning ovqatlanishi, davolanishi, ularga madaniy xizmat ko'rsatishga);

– kasaba uyushmalari huzuridagi bolalar va o'smirlar sport maktablari (BO'SM) xodimlarining mehnatiga haq to'lash va moliyaviy imkoniyatlari darajasida sport anjomlarini xarid qilish, o'quv-sport tadbirlarini o'tkazish uchun qisman mablag' ajratishga;

– o'z sport bazalari bo'lmagan taqdirda, hududiy birlashmalar tomonidan tasdiqlangan BO'SMning smetasiga muvofiq, istisno tariqasida, binolarni ijaraga olishga;

– ijtimoiy sug‘urta bo‘yicha tashkiliy-ma’muriy xarajatlarni moliyalashtirishga, kadrlarni tayyorlash, o‘qitish, sog‘lomlashtirish tadbirlarida ishtirok etuvchi shifokorlar va boshqa kadrlarning ta’minotiga;

– O‘zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi Kengashining tasdiqlangan smetasi, qurilish va rekonstruktsiya qilinadigan obyektlarning manzilli ro‘yxatiga muvofiq kasaba uyushmalari sog‘lomlashtirish muassasalari va BO’SM sport inshootlarini rekonstruktsiya qilinishiga;

– ijtimoiy sug‘urta mablag‘lari hisobiga amalga oshiriladigan xodimlar va ularning oila a’zolarini sog‘lomlashtirish bilan bog‘liq boshqa tadbirlarga.

15.4. Ijtimoiy ta’minot xarajatlarini davlat byudjetidan mablag‘ bilan ta’minlash

Ijtimoiy ta’minotga ehtiyoj jamiyat paydo bo‘lishi bilan tug‘ildi. Har qanday jamiyatda – uning iqtisodiy va siyosiy tuzilishidan qat’i nazar – o‘zlariga bog‘liq bo‘lmagan vaziyatlar sababli tirikchilik kechirish uchun mablag‘ topishga qodir bo‘lmagan aholi toifalari bo‘ladi. Ularga, eng avvalo, bolalar va keksa kishilar, nogironlar, yetimlar, yolg‘iz fuqarolar kiradi. Bundan tashqari, ijtimoiy yordamga muhtojlar safini vaqtincha yoki bir umr mehnatga layoqatsizligini yo‘qotgan odamlar to‘ldirishi mumkin. Jamiyat rivojlanishi va ijtimoiy aloqalar murakkablashishi bilan ijtimoiy yordamga muhtoj bo‘lgan fuqarolar qatoriga iqtisodiy sabablar oqibatidagi ishsizlar, kambag‘allar, shuningdek, inflyatsiyaning yuqori sur’atlaridan moddiy ahvollari og‘irlashganlar kiradi. Bunday toifadagi fuqarolarni ijtimoiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash jamiyat miqyosida muayyan moliyaviy resurslarni jamlash va ijtimoiy ta’minot maqsadlariga safarbar qilishni talab etadi. Bu maqsadlardagi moliyaviy resurslar bir qancha manbalardan moliyalashtirilishini oldingi bobda ta’kidlagan edik. Quyida keltirilgan jadvalda O‘zbekiston Respublikasi Adliya

vazirligida 2010-yil 11-oktabrda 2146-son bilan ro'yxatga olingan "O'zbekiston Respublikasi byudjet tasnifini qo'llash bo'yicha yo'riqnoma"ga muvofiq, aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va ijtimoiy ta'minlash bilan bog'liq xarajatlari tarkibiga qanday xarajatlar kiritilganligi va ularni mablag' bilan ta'minlash manbalari keltirilgan (15.1-jadval).

15.1-jadval

Davlatning ijtimoiy ta'minot va ijtimoiy himoya xarajatlari tarkibi va moliyalash manbalari[118]

Byudjet tasnifi bo'yicha xarajat kodi			Xarajat turi	Mablag' bilan ta'minlash manbai
7	100	000	**IJTIMOIY HIMOYA**	
7	101	000	Kasallik, mehnatga layoqatsizlik va kam ta'minlanganlik	
7	101	100	Kasallik	
7	101	200	Mehnatga layoqatsizlik	
7	101	201	Bolalikdan nogironlarga nafaqa	Respublika byudjeti mablag'lari
7	101	202	Nogironlarni o'qitish va ish bilan ta'minlash	Bandlik jamg'armasi mablag'lari
7	101	203	Qariyalar va nogironlar uchun sanatoriyalar	Davlat byudjeti mablag'lari, jismoniy va yuridik shaxslarning xayr-ehsonlari va boshqa manbalar
7	101	204	Qariyalar va nogironlar uchun internat-uylari	
7	101	205	Kichik yoshdagi nogiron bolalar uchun internat-uylari	
7	102	000	Qarilik	
7	102	100	Uyda ijtimoiy yordam xizmati bo'limlari	Qoraqalpog'iston Respublikasi va

[118] O'zbekiston Respublikasi byudjet tasnifini qo'llash bo'yicha Yo'riqnomaning (16.09.2010. 2146-son) 4-ilovasi asosida

				mahalliy byudjetlar mablag‘lari (ijtimoiy ta’minotga ajratilgan mablag‘lar doirasida)
7	102	400	Pensiya bilan ta’minlanganlik	Byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi mablag‘lari
7	102	401	Ishlamaydigan pensionerlarga pensiya va nafaqalar xarajatlari	
7	102	402	Ishlaydigan pensionerlarga pensiya va nafaqalar xarajatlari	
7	102	403	Pensiya, nafaqa va kompensatsiya to‘lovlarini yetkazib berish bo‘yicha pochta xizmatlari xarajatlari	
7	102	404	Blanka mahsulotlari, pensiya ruxsatnomalarini tayyorlash, pensiya to‘lash vedomostlari uchun qog‘oz sotib olish, mamlakat tashqarisiga pensiya ishlarini o‘tkazish, tashkilotlarda pensiya va nafaqalarni to‘g‘ri tayinlanishini tekshirish uchun safar xarajatlari	
7	103	000	Oila va bolalar	Qoraqalpog‘iston Respublikasi va mahalliy byudjetlar mablag‘lari (aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashga ajratilgan mablag‘lar doirasida)
7	103	100	Bolasi 18 yoshgacha bo‘lgan oilalarga har oylik nafaqalar	
7	103	200	2 yoshgacha bo‘lgan bolalarni parvarishlayotgan onalarga har oylik nafaqalar	
7	103	300	Kam daromadli oilalarga har oylik moddiy yordamlar	
7	103	400	Tabiiy ofatlar natijasida zarar ko‘rgan oilalarga moddiy yordamlar	
7	104	000	Ishsizlik	O‘zbekiston Respublikasining Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi mablag‘lari
7	104	100	Ishsizlarni moddiy qo‘llab-quvvatlash yuzasidan davlat kafolatlarini amalga oshirish	
7	104	101	Ishsizlik bo‘yicha nafaqalar, Bandlikka ko‘maklashish va aholini ijtimoiy muhofaza qilish markazlarining taklifiga binoan ishlash	

			uchun boshqa joyga ixtiyoriy ravishda ko‘chib o‘tish uchun kompensatsiyalar to‘lash va qonun hujjatlariga muvofiq ishsizlarga moddiy yordam berish	
7	104	102	Haq to‘lanadigan jamoat ishlarini qonun hujjatlarida belgilangan tartibda mablag‘ bilan ta’minlash	
7	104	103	Ishsizlarga muddatidan oldin pensiya tayinlanganligi sababli O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi xarajatlarini qoplash	
7	106	300	Ijtimoiy sug‘urta bo‘yicha xarajatlar	
7	106	310	Byudjet tashkilotlarida ishlovchi ayollarga homiladorlik va tug‘ish bo‘yicha nafaqa	Davlat byudjeti mablag‘lari
7	106	320	Bola tug‘ilganda beriladigan bir martalik nafaqa	Byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi mablag‘lari
7	109	300	Ijtimoiy ta’minotning boshqa tadbirlari	Respublika byudjeti, Qoraqalpog‘iston Respublikasi va mahalliy byudjetlar mablag‘lari (ijtimoiy ta’minotga ajratilgan mablag‘lar doirasida)
7	109	400	Ijtimoiy moslashuv va reabilitatsiya markazlarini saqlash	
7	109	401	Ijtimoiy moslashuv markazlarini saqlash	
7	109	402	Muayyan yashash joyiga va mashg‘ulot turiga ega bo‘lmagan shaxslarni reabilitatsiya qilish markazlari	
7	109	403	Voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam berish markazlari	
7	109	404	Odam savdosi jabrdiydalariga yordam berish va ularni himoya qilish bo‘yicha Respublika reabilitatsiya markazi	
7	109	405	Nogironlar uchun mintaqaviy reabilitatsiya markazlari	

15.1-jadvalda byudjet tasnifining “Xarajatlarning vazifa jihatdan tasnifi” bo‘yicha xarajatlarning guruhlanishini va ularni mablag‘ bilan ta’minlash manbalarini ko‘rib o‘tdik va shuning guvohi bo‘ldikki,

ijtimoiy ta'minot turlariga kiruvchi bir qator xizmatlar: ijtimoiy nafaqalar, ijtimoiy xizmatlar va ijtimoiy xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlarni saqlash bo'yicha xarajatlar bir necha manbalardan amalga oshirilar ekan. Bular: davlat byudjeti (respublika va mahalliy byudjetlar), Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi mablag'lari, Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi mablag'lari va boshqa nobyudjet va nodavlat manbalar.

Davlat byudjetidan moliyalashtiriladigan ijtimoiy xizmatlar ko'rsatuvchi davlat tashkilotlariga bir qator ijtimoiy ta'minot muassasalari kiradi, ular quyidagilardan iborat:

– "Saxovat" keksalar va nogironlar uchun internat uylari;
– "Muruvvat" nogironlar uchun internat uylari;
– "Muruvvat" nogiron bolalar uchun internat uylari;
– Keksalar va nogironlar, urush va mehnat faxriylari uchun sanatoriylar;
– Urush va mehnat faxriylari uchun respublika pansionati.

"Saxovat" keksalar va nogironlar uchun internat uylari O'zbekiston Respublikasida doimiy yashaydigan, O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksiga muvofiq ularni parvarish qilishi shart bo'lgan qarindoshlari yoki boshqa shaxslar bo'lmagan yolg'iz keksalar hamda 18 yoshidan boshlab I va II guruhlar nogironlari (vasiylikka olinuvchilar) uchun davlat tibbiy-ijtimoiy muassasalari hisoblanadi.

"Muruvvat" nogironlar uchun internat uylari O'zbekiston Respublikasida doimiy yashaydigan, ruhiyatida sezilarli yoki ancha sezilarli nuqsonlar bor bo'lgan, 18 yoshidan boshlab I va II guruhlar nogironlari (vasiylikka olinuvchilar) uchun davlat tibbiy-ijtimoiy muassasalari hisoblanadi.

"Muruvvat" nogiron bolalar uchun internat uylari O'zbekiston Respublikasida doimiy yashaydigan, ruhiyatida sezilarli yoki ancha sezilarli nuqsonlar bor bo'lgan, 4 yoshdan 18 yoshgacha nogiron bolalar uchun davlat tibbiy-ijtimoiy muassasalari hisoblanadi.

Keksalar va nogironlar, urush va mehnat faxriylari uchun sanatoriylar keksalar va nogironlar, urush va mehnat faxriylarini (dam oluvchilar) sog'lomlashtirish va ularning dam olishi uchun mo'ljallangan davlat davolash-profilaktika muassasalari hisoblanadi.

Urush va mehnat faxriylari uchun respublika pansionati O'zbekiston Respublikasida doimiy yashaydigan I va II guruh nogironlari hisoblangan hamda O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksiga muvofiq ularni ta'minlashga majbur bo'lgan qarindoshlar yoki boshqa shaxslarga ega bo'lmagan yolg'iz urush va mehnat faxriylari (vasiylikka olinganlar) uchun davlat tibbiy-ijtimoiy muassasasi hisoblanadi.

Yuqorida sanab o'tilgan barcha turdagi ijtimoiy muassasalar faoliyati davlat byudjetidan ajratiladigan mablag'lar, jismoniy va yuridik shaxslarning xayriya ehsonlari va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalardan belgilangan tartibda tegishli moliya organlarida tasdiqlangan va ro'yxatdan o'tkazilgan xarajatlar smetasi asosida moliyalashtiriladi. Byudjet va byudjetdan tashqari mablag'larni sarflash qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi. Muassasalarning shtatlar jadvallari O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishgan holda Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan namunaviy shtatlarga muvofiq tasdiqlanadi.

Davlat byudjetidan moliyalashtiriladigan ijtimoiy ta'minot xarajatlari tarkibiga yuqorida ko'rib o'tilgan xarajatlar va muassasalar bilan birgalikda, o'zgalar parvarishiga muhtoj yolg'iz fuqarolarga uyda xizmat ko'rsatish xarajatlari ham kiradi.

O'zgalar parvarishiga muhtoj yolg'iz fuqarolarga uyda xizmat ko'rsatish "Yolg'iz qariyalar va mehnatga layoqatsiz fuqarolarga uyda ijtimoiy yordam ko'rsatish xizmati" tomonidan tashkil qilinadi. Ushbu xizmat tuman va shahar Bandlikka ko'maklashish va aholini ijtimoiy muhofaza qilish markazlari tarkibiy tuzilmasi hisoblanadi va yolg'iz fuqarolarga xizmat ko'rsatuvchi ijtimoiy xodimlardan tashkil topadi.

Ijtimoiy yordam ko'rsatish xizmatining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

– fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari va sog‘liqni saqlash muassasalari bilan birgalikda uyida o‘zgalar parvarishiga muhtoj, yolg‘iz fuqarolarni aniqlash va hisobini yuritish;

– yolg‘iz fuqarolarga homiylik yordamlarini ko‘rsatish maqsadida ularning ilgari ishlagan mehnat jamoalari, jamoat birlashmalari va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari bilan aloqalarini olib borish;

– yolg‘iz fuqarolarni internat-uylariga joylashtirish uchun ko‘maklashish.

Tuman yoki shahar bo‘yicha uyda ijtimoiy yordam ko‘rsatish xizmatida qayd etilgan yolg‘iz fuqarolarga ushbu bo‘linmaning ijtimoiy xodimlari tomonidan bevosita quyidagi ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatiladi:

– zarur oziq-ovqat, sanoat mahsulotlari va dori-darmonlarni uyga yetkazib berish;

– uy-joy ashyolari va kiyim-kechaklarni yuvish, kimyoviy tozalashga topshirish, ta’mirlash va ularni yetkazib berish;

– zarur tibbiy yordam ko‘rsatish ishlarida, uy-joyni tozalashda, xonadon ichidagi santexnik jihozlarni ta’mirlashda ko‘maklashish;

– qarindosh va do‘stlar bilan yozishmalar olib borish bilan bog‘liq iltimoslar va boshqa turdagi bir martalik topshiriqlarni bajarish.

Tuman (shahar) Bandlikka ko‘maklashish va aholini ijtimoiy muhofaza qilish markazlari o‘zlarida ro‘yxatda turuvchi yolg‘iz fuqarolarga uyda ijtimoiy xizmat ko‘rsatish ishlari bo‘yicha har haftalik monitoring olib boradi va ijtimoiy xodimlarning xizmat ko‘rsatish faoliyatiga baho beradi. Shuningdek, Markazlar yolg‘iz fuqarolarga uyda ijtimoiy xizmat ko‘rsatish bo‘yicha har chorak yakunida tegishliligiga ko‘ra, Qoraqalpog‘iston Respublikasi mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligiga, viloyatlar va Toshkent shahar Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish bosh boshqarmalariga, ular esa o‘z navbatida O‘zbekiston Respublikasi

Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligiga ma'lumot taqdim etib boradi.

O'zgalar parvarishiga muhtoj yolg'iz fuqarolarga uyda ijtimoiy yordam ko'rsatish haqidagi Nizom[119] bilan Ijtimoiy yordam ko'rsatish xizmati tomonidan xizmat ko'rsatiladigan yolg'iz fuqarolar toifalari belgilangan bo'lib, unga ko'ra, yolg'iz fuqarolarning quyidagi toifalari uyda xizmat ko'rsatish uchun qabul qilinadi:

– sog'lig'iga ko'ra o'zgalar parvarishiga muhtoj, farzandlari (jumladan farzandlikka olingan bolalar) va yaqin qarindoshlari bilan birga yashamaydigan pensiya yoshidagi (erkaklar 60 yosh va undan yuqori, ayollar 55 yosh va undan yuqori) shaxslar, I va IIguruh nogironlari, keksa yoki I va IIguruh nogironi bo'lgan er-xotinlar;

– o'zgalar parvarishiga muhtoj, voyaga yetmagan yoxud I va II guruh nogiron farzandlari bilan birga yashaydigan pensiya yoshidagi (erkaklar 60 yosh va undan yuqori, ayollar 55 yosh va undan yuqori) shaxslar, I va IIguruh nogironlari, keksa yoki I va II guruh nogironi bo'lgan er-xotinlar;

– o'zgalar parvarishiga muhtoj, farzandlari jazo muddatini o'tayotgan yoki uzoq muddatli davolanishda bo'lgan (ruhiy, sil va boshqa kasalliklar) davri mobaynida pensiya yoshidagi (erkaklar 60 yosh va undan yuqori, ayollar 55 yosh va undan yuqori) shaxslar, I va II guruh nogironlari, keksa yoki I va II guruh nogironi bo'lgan er-xotinlar;

– farzandlari (jumladan farzandlikka olingan bolalar) va yaqin qarindoshlari hamda homiylari yoki vasiylari bo'lmagan va qonunchilikka asosan bepul eng zarur mollarni olish imtiyozidan foydalanayotgan o'zgalar parvarishiga muhtoj yolg'iz pensionerlar.

Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari va nogironlari hamda ularga tenglashtirilgan shaxslar, halok bo'lgan harbiy xizmatchilarning oila a'zolari, front ortida xizmat qilgan shaxslar uyda ijtimoiy xizmat ko'rsatishga birinchi navbatda qabul qilinadi.

---

[119] O'zbekiston Respublikasi mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirining 2011-yil 1-iyuldagi 38–B-son buyrug'iga ilova

Yuqumli hamda ruhiy kasalliklarga chalingan shaxslar uyda ijtimoiy xizmat ko'rsatish uchun qabul qilinmaydi.

Yolg'iz fuqarolarning shaxsiy ro'yxatlari tuman (shahar) Bandlikka ko'maklashish va aholini ijtimoiy muhofaza qilish markazlari tomonidan fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari ishtirokida aniqlanib, ro'yxatga olinadi va tuman (shahar) hokimlari tomonidan tasdiqlanadi.

Ijtimoiy yordam ko'rsatish xizmati ijtimoiy xodimlari lavozimi ushbu bo'linmaning shtat jadvalida:

– qishloq joylarida – 6-8 nafar yolg'iz fuqaroga 1 ta lavozim;

– shahar joylarida – 8-10 nafar yolg'iz fuqaroga 1 ta lavozim hisobida belgilanadi.

Ijtimoiy xodimlarning shtatdagi soni ushbu me'yorlarga muvofiq tuman (shahar)da ijtimoiy yordam ko'rsatish xizmati tomonidan ro'yxatga olingan va xizmat ko'rsatiladigan yolg'iz fuqarolar sonidan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Ijtimoiy xodimlar maxsus xo'jalik sumkalari (bir yilga bitta sumka), xalat (bir yilga bitta xalat) hamda xonalarni tozalash uchun inventar bilan ta'minlanadi.

Ijtimoiy xodimlarning lavozim-maoshlari ijtimoiy ta'minot xodimlari uchun o'rnatilgan tartibda tasdiqlangan mehnatga haq to'lash tarif setkasiga muvofiq belgilanadi. Ijtimoiy xodimlarga yo'l haqi uchun kompensatsiya to'lovlari qonunchilikda belgilangan miqdorlarda joriy qilinadi.

Ijtimoiy yordam ko'rsatish xizmatining ta'minot xarajatlari o'rnatilgan tartibda tasdiqlangan xarajatlar smetasiga muvofiq Qoraqalpog'iston Respublikasi va mahalliy byudjet mablag'lari hisobidan ijtimoiy ta'minotga ajratilgan mablag'lar doirasida amalga oshiriladi. Smeta xarajatlarida ijtimoiy yordam ko'rsatish xizmati faoliyatini amalga oshirish uchun ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar, kanselyariya jihozlari va boshqa inventarlarga bo'lgan ish beruvchilarning ajratmalari hamda o'zgalar parvarishiga muhtoj yolg'iz pensionerlar uchun qonunchilikda belgilangan tartibda va

miqdorlarda eng zarur mollarni xarid qilish bilan bog‘liq xarajatlar ko‘zda tutiladi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Ijtimoiy sug‘urtaning ijtimoiy ta’minotning moddiy-moliyaviy asosi sifatidagi mohiyati nimada namoyon bo‘ladi?
2. Ijtimoiy ta’minot xizmatlarining davlat byudjeti hisobidan mablag‘ bilan ta’minlanishini asoslab bering.
3. Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi orqali ijtimoiy ta’minot xizmatlarining moliyalashtirilishi qanday amalga oshiriladi?
4. O‘zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi Kengashining ijtimoiy sug‘urta byudjeti mablag‘larining shakllanish manbalari va ishlatish yo‘nalishlari to‘g‘risida ma’lumot bering.

Mavzu yuzasidan topshiriqlar

1. O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining qanday holatlarda ijtimoiy ta’minlanish huquqlari O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi bilan kafolatlanganini va ijtimoiy ta’minot shakllarini tavsiflang.
2. Ijtimoiy ta’minot to‘lovlarini moliyalashtirishda O‘zbekiston Respublikasi Pensiya jamg‘armasining ahamiyati nimadan iboratligi to‘g‘risida qisqacha xulosa yozing
3. Davlat byudjeti ijtimoiy ta’minot tashkilotlari xarajatlarini rejalashtirish va moliyalashtirish tartibini takomillashtirish borasida qanday o‘zgarishlar sodir bo‘lganligi to‘g‘risida taqdimot tayyorlang.

16-BOB. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA DAVLAT MOLIYASI TIZIMIDAGI ISLOHOTLARNING ASOSIY YO‘NALISHLARI

16.1. O‘zbekiston Respublikasida davlat moliyasi tizimidagi islohotlarning asosiy yo‘nalishlari

Davlat moliyasini boshqarish va soliq ma’muriyatchiligini takomillashtirish bir-biriga bog‘liq jarayon hisoblanib, ayni shu sohadagi islohotlar samaradorligiga e’tiborni kuchaytirish dolzarb hisoblanadi. Zero, 2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi haqida, Ma’muriy islohotlar konsepsiyasida alohida qayd etilgan. Prezidentimizning parlamentga taqdim etgan Murojaatnomasida esa bu sohada yechimini kutayotgan vazifalar belgilab berilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 22-dekabrdagi Parlamentga yo‘llagan murojaatida byudjet tizimini qayta ko‘rib chiqish, byudjet daromadlari va xarajatlarining oshkoraligini ta’minlash, byudjet sohasida qarorlar qabul qilishda aholining manfaatlariga alohida e’tibor berish zarurligi ta’kidlangan edi.

O‘tgan yilda joylardagi davlat boshqaruv organlarining mahalliy byudjetlarni shakllantirishdagi vakolatlarini, ularning mahalliy byudjetlarning daromadlar bazasini kengaytirish va zaxiralarini aniqlashdan manfaatdorligi va javobgarligini oshirish, shuningdek, shaffoflik va byudjet jarayoni ustidan jamoatchilik nazoratini kuchaytirish, byudjetdan moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish va byudjet intizomini mustahkamlash hamda Davlat byudjeti barqarorligini ta’minlashga qaratilgan amaliy chora-tadbirlar qabul qilindi.

Shu bilan birga, amaldagi davlat moliyasi tizimi zamonaviy talablarga javob bermaydi va olib borilayotgan byudjet siyosatiga,

o‘rta muddatli davrda qabul qilingan davlat dasturlari bilan bog‘liq byudjet xarajatlariga obyektiv va ishonchli baho berishga imkon bermaydi, byudjetni rejalashtirishning xalqaro e’tirof etilgan usullari kam joriy etiladi.

Birinchidan, byudjetdan ajratiladigan mablag‘lar bilan rivojlantirish dasturlari o‘rtasida bog‘liqlik yo‘q, byudjet mablag‘lari byudjet resurslarini qayta taqsimlash mexanizmlarining past darajada rasmiylashtirilishi hamda moliyalashtiriladigan tadbirlar va yo‘nalishlarni tanlashning aniq mezon va tartiblari mavjud bo‘lmagan sharoitda o‘tgan yillardagi byudjet mablag‘larini indeksatsiya qilish asosida taqdim etiladi.

Byudjetni rejalashtirishning amaldagi tizimi yillik byudjetning balanslashgan ijrosiga yo‘naltirilgan. Biroq makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlash, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish dasturlarini amalga oshirish, soliq-byudjet siyosatining oldindan ko‘ra bilish nuqtayi nazaridan yillik rejalashtirishning salohiyati juda cheklangan. Byudjet mablag‘larini taqsimlovchilar va oluvchilar o‘zlarining istiqbolli rejalarini rejalashtirilgan yildan ortig‘iga prognozlashtira olmaydi.

Yillik rejalashtirishda fiskal intizomning rejalashtirilgan natijalarga yaqinlashishiga erishish mumkin. Biroq bunday fiskal intizomning foydasi yillik davr bilan chegaralanadi. Daromadlar va xarajatlar qismida yillik rejalashtirilgan byudjetni bajarish, lekin oxirida o‘rta muddatli davrda defitsitga duch kelish mumkin. Bu o‘rta muddatli makroiqtisodiy prognozlarning va ularning byudjet daromadlariga ta’sirini baholashning mavjud emasligi bilan izohlanadi.

Byudjetni rejalashtirishda joriy byudjetning Davlat rivojlanish dasturlari bilan bog‘liqligi kuchsizligicha qolmoqda. Ushbu dasturlar doirasida amalga oshiriladigan loyihalar (yangi inshootlarni qurish, foydalanishga mo‘ljallangan uskunalarni yetkazib berish) foydalanishga topshirilganidan keyin ularni joriy saqlash xarajatlarini talab qiladi. Biroq yillik byudjetni rejalashtirishda yangi obyektlarni

foydalanishga topshirish byudjet prognozi bilan muvofiqlashtirilmaganlik hollari ham mavjud, ya'ni ularni joriy saqlash xarajatlari hisobga olinmaydi.

Byudjet mablag'larini shakllantirish va ijro etishda byudjet mablag'lari taqsimlovchilarining vakolati va, tegishlicha, mas'uliyati cheklangan. Byudjetni boshqarish, asosan, haqiqatdagi va rejalashtirilgan ko'rsatkichlarning bajarilishini nazorat qiladi, bu esa byudjet mablag'laridan foydalanishning yakuniy natijalarini va aniq maqsadlarini, shuningdek, vazirlik va idoralar – byudjet mablag'larini taqsimlovchilarning amalga oshiriladigan dasturlari baholash mezonlarini aniq ifodalamaydi.

Byudjet mablag'laridan foydalanish samaradorligi va natijadorligi ustidan ichki audit tartib-taomillari va metodologiyasi mavjud bo'lmagan holda, kassa xarajatlarining rejali ko'rsatkichlarga muvofiqligi ustidan tashqi nazorat ustunlik qiladi.

Ikkinchidan, byudjetni rejalashtirish davlat moliya tizimining bo'linganligi hisobiga makroiqtisodiy tartibga solishning samarali vositasi bo'la olmadi.

Uchinchidan, Davlat byudjetini shakllantirishning amaldagi mexanizmlari hududiy rivojlanishning barcha muammoli masalalarini qamrab olish imkonini bermaydi.

Ko'p yillar davomida Davlat byudjetidan qishloq joylardagi muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasini takomillashtirish, shu jumladan, ularni ichimlik suvi bilan ta'minlash va qishloq yo'llarini qurish uchun yetarlicha mablag' ajratilmagan, bu olis va borish qiyin bo'lgan joylarda yashovchi aholi turmush darajasiga o'z ta'sirini ko'rsatdi.

Byudjetni rejalashtirishning haddan tashqari markazlashuvi tufayli hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha loyihalarni amalga oshirishda mahalliy boshqaruv organlarining shaxsiy mas'uliyat hissi sezilmaydi, xarajatlarga oid majburiyatlari bo'yicha qarorlar moliyalashtirish imkoniyatini hisobga olmagan holda qabul qilinadi.

Bugungi kunga qadar mahalliy byudjetlarni shakllantirish va ijro etish sohasida ijro etuvchi boshqaruv organlari rahbarlarining aholi va xalq deputatlari Kengashlari oldida hisobot berishlari yetarli darajada emas.

Joylardagi davlat boshqaruv organlari kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, yangi ish o'rinlarini tashkil qilish va aholi bandligini ta'minlash orqali soliqlar salohiyatini kengaytirish orqali moliyaviy mustaqilligining oshishidan kam manfaatdor, shuningdek, xarajatlarni rejalashtirishda va optimallashtirishda faol ishtirok etmayapti.

To'rtinchidan, Davlat byudjetini tuzish, rejalashtirish va ijro etish jarayonida byudjet jarayonining oshkoraligini ta'minlashda innovatsion mexanizmlar va yondashuvlar joriy etilmagan.

Texnologik infratuzilmaning rivojlanishiga qaramasdan, byudjet jarayonining to'liq avtomatlashtirilmagani, vaqt va resurslarni ortiqcha sarflash kabi noqulayliklarga olib kelmoqda.

Beshinchidan, davlat qimmatli qog'ozlar bozori, uning infratuzilmasi va boshqa zamonaviy vositalar yo'qligi Davlat byudjeti defitsitini qoplash va maqsadli davlat dasturlarini moliyalashtirish uchun inflyatsiyasiz manbalarni safarbar qilish imkonini bermaydi.

Oltinchidan, amaldagi pensiya tizimi fuqarolarni qarilikda ijtimoiy himoya qilish uchun eng qulay sharoitlar yaratmaydi, pensiya miqdorini belgilash tartibi fuqarolarni sug'urta badallarini to'lash uchun rag'batlantirmaydi, pensiya miqdori va xodimning mehnatga qo'shadigan hissasi o'rtasidagi bog'liqlik past, pensiya to'lovlari yuki oshadi, ish beruvchi va ishchi o'rtasida Pensiya jamg'armasiga majburiy badallar to'lash bo'yicha javobgarliklar aniq taqsimlanmagan.

Shu munosabat bilan, davlat moliyasi tizimini tubdan qayta ko'rib chiqish, byudjet mablag'laridan foydalanish samaradorligini oshirish, byudjetni rejalashtirishning xalqaro e'tirof etilgan usullarini, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilish va

fuqarolarni davlat moliyasini boshqarishga jalb qilish orqali byudjet tizimini isloh qilish zarur.

1. Belgilangan vazifalarni amalga oshirish uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan belgilab berilgan ustuvor yo'nalishlar va 2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha Harakatlar strategiyasi asosida shakllantirilgan byudjet siyosatini takomillashtirishning quyidagi asosiy yo'nalishlarini belgilash lozim:

a) byudjetni rejalashtirishni takomillashtirish va Davlat byudjeti ijrosi sifatini oshirish, byudjet jarayoniga innovatsion mexanizmlar va yondashuvlarni joriy etish sohasida:

2019–2021-yillarga mo'ljallangan Davlat byudjeti loyihasidan boshlab, kelgusi yil uchun yillik byudjetni va keyingi 2 yil uchun byudjet asoslarini tasdiqlashni ko'zda tutadigan o'rta muddatli byudjetni rejalashtirishni joriy etish;

Byudjetdan ajratiladigan mablag'larning taqsimlashni haqiqatdagi yoki rejalashtirilayotgan natijalar bilan to'g'ridan to'g'ri bog'liqlikni hamda davlat, tarmoq va hududiy dasturlarni ijrosiga yo'naltirilganini ta'minlovchi byudjetni rejalashtirishning dasturiy-maqsadli uslublariga o'tish orqali byudjet jarayonini "byudjet resurslari (xarajatlari)ni boshqarish"dan "natijalarni boshqarish"ga bosqichma-bosqich yo'naltirish.

Byudjet jarayoni ishtirokchilarining mustaqilligini oshirish, jumladan mahalliy byudjetdan moliyalashtiriladigan quyi turuvchi tashkilotlarning byudjet so'rovini ko'rib chiqish funksiyasini qo'shish hamda har yilgi byudjetdan ajratilgan mablag'larni "o'zlashtirish"dan aniq natijalarga erishish yo'nalishiga o'tkazish orqali vazirliklar – byudjet mablag'larini taqsimlovchilarning byudjetni shakllantirish bo'yicha vakolatlarini kengaytirish, shuningdek, sohalar byudjetlarini tegishli vazirliklar tomonidan Oliy Majlisda himoya qilishni amaliyotga kiritish;

byudjet so‘rovlarini, byudjet tashkilotlarining xarajatlar smetalarini va xodimlar jadvallarini tuzish hamda taqdim etish jarayonini to‘liq avtomatlashtirish;

mahalliy byudjetlardan moliyalashtiriladigan byudjet tashkilotlarining shuningdek, yuqori turuvchi vazirlik va idoralardan moliyaviy hisobdorligi;

Davlat byudjeti loyihasini Davlat dasturlari va rivojlanish dasturlarining funksional va jamlangan iqtisodiy tasnif shaklida kiritish;

Investitsiyalarga byudjet xarajatlari samaradorligini “Davlat investitsiyalarini boshqarishni baholash” (Public investment management assessment) bo‘yicha baholash prinsiplarini kiritish;

o‘rta muddatli byudjet qoidalarini belgilash, shu jumladan, davlat qarzining va Davlat byudjeti taqchilligining eng yuqori miqdorlarini belgilash;

b) davlat mablag‘larini konsolidatsiyalash sohasida:

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash jamg‘armasi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Respublika yo‘l jamg‘armasi, O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Byudjetdan tashqari ta’lim va tibbiyot muassasalarining moddiy-texnik bazasini rivojlantirish jamg‘armasi, “Toza ichimlik suvi” jamg‘armasi hamda boshqa kam samarali jamg‘armalarni tugatish, tugatilgan jamg‘armalar xarajatlarini investitsiya va infratuzilma loyihalarini moliyalashtirishning dasturiy-maqsadli uslublarini kiritish yo‘li bilan Davlat byudjeti mablag‘lari hisobidan rejalashtirish va amalga oshirish;

vazirlik va idoralarning davlat bojlaridan, yig‘imlar va soliq bo‘lmagan to‘lovlardan shakllanadigan byudjetdan tashqari jamg‘armalarini, ma’muriy va moliyaviy sanksiyalarni ularning maqsadga muvofiqligi hamda Davlat byudjetining birligini ta’minlashi nuqtayi nazaridan tanqidiy o‘rganish;

vazirlik va idoralarning byudjetdan tashqari jamg'armalari, shuningdek, xalqaro moliya institutlari mablag'lari hisobiga;

moliyalashtiriladigan ijtimoiy va infratuzilma loyihalarini O'zbekiston Respublikasining konsolidatsiyalashgan byudjetiga kiritish;

c) byudjetlararo munosabatlarni takomillashtirish, joylardagi davlat hokimiyati organlarining hududlar soliq salohiyatini kengaytirish va xarajatlarni rejalashtirishdan manfaatdorligini oshirish borasida:

yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i, yagona soliq to'lovi, tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlariga belgilanadigan qat'iy belgilangan soliq, benzin, dizel yoqilg'isi va gazni iste'mol qilganlik uchun olinadigan soliq, yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq, jismoniy shaxslarning mol-mulk solig'i, yuridik shaxslarning yer solig'i, jismoniy shaxslar yer solig'i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, shuningdek, ruda foydali boyliklari bo'lmagan qazilmalar bo'yicha yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqlardan tushumlarni to'liq hajmda mahalliy byudjetlarda qoldirish;

jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini respublika byudjeti va mahalliy byudjetlar o'rtasida teng ulushlarda taqsimlash;

tuman va shaharlar mahalliy byudjetlarining bazaviy yilda aniqlangan qo'shimcha daromad manbalaridan qat'i nazar, o'rta muddatli byudjetga (kamaytirmasdan) soliq va boshqa majburiy to'lovlardan ajratmalar normalarini biriktirish;

O'zbekiston Respublikasining respublika byudjetidan o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasalarini, pedagoglarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish institutlarini, axborot-resurs markazlarini, muzeylar, ko'rgazma zallari, teatrlar, filarmoniya, musiqa ansambllari, davlat boshqaruv organlarining hududiy bo'linmalari, shu jumladan soliq va moliya organlarini, xususiylashtirilgan korxonalarga ko'maklashish va raqobatni rivojlantirish organlarini, O'MKHTM hududiy boshqarmalari va

boshqa muassasalarni moliyalashtirish bo‘yicha vakolatni Qoraqalpog‘iston Respublikasi respublika byudjetiga, viloyatlarning viloyat byudjetlariga va Toshkent shahrining shahar byudjetiga o‘tkazish;

mahalliy byudjetlar xarajatlarini, mahalliy xalq deputatlari Kengashi tomonidan tasdiqlangan, moliyalashtirish manbasi aniq bo‘lgan o‘rta muddatli hududlarni rivojlantirish dasturlari asosida amalga oshirish tartibini joriy qilish;

egasiz va davlat daromadiga o‘tkazilgan mol-mulklarning bozor mexanizmlari bo‘yicha baholanishini hamda ularning byudjet hisobi yuritilishini ta’minlash;

mahalliy boshqaruv organlariga mahalliy byudjetlarning qo‘shimcha mablag‘larini tijorat banklari depozitlariga qo‘yish va lotereyalarni tashkil etish huquqini berish;

d) byudjet ochiqligini ta’minlash va byudjet jarayoniga fuqarolarni jalb qilish sohasida:

byudjet jarayonining shaffofligini ta’minlash va “partisipatorli byudjetlashtirishni” (participatory budgeting) joriy etish yo‘li bilan Davlat byudjetini shakllantirishda fuqarolarni faol jalb qilish;

2019–2021-yillar Davlat byudjeti loyihasi va soliq-byudjet siyosatini takomillashtirish Konsepsiyasidan boshlab “Fuqarolar uchun byudjet”ni amaliyotga tatbiq etish;

barcha foydalanuvchilar uchun oshkoralik, ishonchlilik va ochiqlik darajasini oshirish maqsadida byudjet hisobini davlat sektorida (IPSAS) moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlari bilan muvofiqlashtirish;

PEFA (Davlat xarajatlari va moliyaviy hisobdorlik) va Jahon banki hamda boshqa xalqaro moliya institutlari va donorlarning PIMA tizimlari bo‘yicha 2018-yilda o‘tkazilgan baholash yakunlariga asosan o‘rta muddatli davrga Davlat moliyasini boshqarish strategiyasini ishlab chiqish;

Xalqaro valyuta jamg'armasining umumiy ma'lumot tarqatish tizimining talablariga binoan davlat moliyaviy statistikasini nashr etish;

e) Davlat byudjetining g'azna ijrosini takomillashtirish sohasida:

Davlat byudjetining daromadlari va xarajatlarning moliyalashtirilishi o'rtasidagi muvozanatlashuvni ta'minlash imkonini beruvchi mexanizm sifatida daromadlarni kassali prognoz qilishning zamonaviy usullarini joriy etish;

vaqtinchalik bo'sh mablag'larni tijorat banklarida qisqa muddatli depozitlarga joylashtirish;

yuridik va moliyaviy majburiyatlarni ro'yxatdan o'tkazish jarayonida byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilariga bevosita aloqasiz xizmat ko'rsatish mexanizmini joriy etish;

byudjet tashkilotlarining xorijiy valyutadagi mablag'larini g'aznachilik ijrosi bilan qamrab olish;

Davlat dasturlarini amalga oshirish doirasida moliyalashtirish nazarda tutilgan obyektlar bo'yicha maqsadli byudjet mablag'larini g'aznachilik kuzatib borishni joriy qilish;

f) davlat pensiya tizimini isloh qilish sohasida:

O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi Qonunini yangi tahrirda ishlab chiqish, bunda pensiyalarni hisoblashning soddalashtirilgan va oshkora mexanizmlarini joriy etish hamda asossiz imtiyozlar va qo'shimcha to'lovlarni taqdim etish amaliyotini to'xtatishni nazarda tutish;

pensiya ta'minoti sohasida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini faol joriy etish, shu jumladan fuqarolarning mehnat stajini elektron tarzda hisobga olish mexanizmlarini ishlab chiqish;

pensiya ta'minoti tizimining ijtimoiy adolatliligi va samaradorligini oshirish;

rag'batlantirish mexanizmlarini joriy etish, xodimning pensiya miqdori va mehnatga bo'lgan hissasi o'rtasidagi bog'liqlikni oshirish;

ijtimoiy sug‘urta tizimida ixtiyoriy ravishda ishtirok etishni rag‘batlantirish choralarini qo‘llash;

j) davlat qimmatli qog‘ozlar bozorini rivojlantirish sohasida:

O‘zbekiston Respublikasi Davlat qimmatli qog‘ozlar bozorini tartibga solish bazasi hamda normativ-huquqiy bazasini ishlab chiqish va takomillashtirish;

davlat qimmatli qog‘ozlar bozorining zamonaviy vositalarini Davlat byudjeti defitsitini qoplashning qadrsizlanmaydigan manbasi sifatida joriy etish va ulardan foydalanish;

moliyaviy bozor institutlari va ularning resurslarini davlat qimmatli qog‘ozlar bozoriga faol jalb qilish;

qimmatli qog‘ozlar bozorining jozibadorligini va likvidligini oshirish;

zamonaviy axborot texnologiyalarini keng qo‘llash orqali bozor infratuzilmasini takomillashtirish;

qimmatli qog‘ozlar bozori sohasida kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish bo‘yicha tizimli ishlarni amalga oshirish;

h) sug‘urta xizmatlari bozorini rivojlantirish sohasida:

“Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunini Xalqaro sug‘urta nazorati assotsiatsiyasining talablarini inobatga olgan holda yangi nashrda qabul qilish;

sug‘urta bozori ishtirokchilari va tartibga soluvchi organ o‘rtasida onlayn sug‘urta xizmatlarini va elektron ma’lumot almashinuvini ta’minlash uchun zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish, biznes-jarayonlarni raqamlashtirish va sug‘urta tartib-qoidalarini joriy etish;

qonunchilikda belgilangan eng kam talablarni, sug‘urta tashkilotlarining ustav kapitalini, operatsiyalarni kengaytirish va mijozlar bazasini ko‘paytirish uchun oshirish;

tibbiy sug‘urtalash tizimini yanada rivojlantirish, shu jumladan majburiy tibbiy sug‘urta tizimini bosqichma-bosqich joriy etish;

transport egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalash tizimini takomillashtirish, ularning haqiqiy xarajatlarini qoplashni hisobga olgan holda sug'urta badali miqdorini oshirish.

16.2. Davlat moliyasi barqarorligini oshirish masalalari

Milliy iqtisodiyotni isloh qilish jarayonida islohotlarning davlat iqtisodiy siyosatiga ta'siri nafaqat iqtisodiy siyosatni erkinlashtirishda, balki moliya tizimini institutsional o'zgartirish uchun globallashuv oqibatlarini hisobga olishda ham namoyon bo'ladi. Moliyaviy oqimlarning aniqligini ta'minlovchi moliyaviy tizimning institutsional tarkibini yaratish davlat siyosatining muhim unsuri hisoblanadi.

Bunda davlat moliyasini isloh etish, bu moliyani tartibga solish va nazorat qilish organlari tomonidan belgilanadigan muayyan axborotdan foydalanishni nazarda tutuvchi erkin moliya bozori faoliyat ko'rsatishi muhim shart hisoblanadi.

Iqtisodiyotning o'sish sur'atlarini ta'minlagan hamda moliyaviy barqarorlikka erishgan islohotlar hozirgi davrda davlat moliyasi va ayniqsa, byudjet tizimi barqarorligini mustahkamlashda muhim strategik vazifalar qatorida namoyon bo'lmoqda. Davlat moliyasi rivojlangan mamlakatlar yalpi ichki mahsulotining katta qismini qayta taqsimlash vositasi hisoblanadi: Yaponiyada – 1/3, Fransiya, Niderlandiya, Norvegiyada – 1/2, Shvetsiyada – 2/3, Rossiyada – 1/32, O'zbekistonda ham davlat moliyasining asosiy daromadlari va shunga mos ravishdagi xarajatlari aynan Davlat byudjeti orqali amalga oshiriladi. Qolgan qismi esa byudjetdan tashqari davlat jamg'armalari hissasiga to'g'ri keladi[120]. Shuning uchun ham Davlat moliyasi tizimida Davlat byudjeti uning markaziy va asosiy bo'g'ini hisoblanadi.

Iqtisodiyotning ulushi bozor orqali, shu jumladan talab va taklifni hisobga olgan holda moliyaviy bozor orqali shakllanadigan bozor

[120] T.SH. Eshnazarov "Davlat moliyasi tizimini takomillashtirish va uni rivojlantirish omillari" "Iqtisod va moliya" jurnali №2 2012 yil 51-b.

xo'jaligi sharoitida byudjet siyosati moliyaviy resurslarni qayta taqsimlash iqtisodiy vositasi sifatida o'z ta'siri sohasini qisqartirishiga qaramasdan, aniq maqsadga yo'naltirilgan iqtisodiy va ijtimoiy siyosatni amalga oshirishda davlatning asosiy vositalaridan biri bo'lib qoladi.

Davlat moliyasi tizimida yagona yondashuv, byudjet islohotlarining asosiy yo'nalishlarini ishlab chiqishdagi moliyaviy strategiyani shakllantirish va milliy byudjet-soliq siyosatini amalga oshirishda uzoq muddatli strategiyani ishlab chiqish taqozo qilinadi. Bunda davlat moliya tizimining istiqbolli maqsadlari uning joriy byudjet ehtiyojlari, barcha bo'g'indagi hokimiyatning byudjet vakolatlari va javobgarlik darajasi bilan bog'lanish va mamlakat milliy byudjet mulkini boshqarish, foydalanish va taqsimlash g'aznachilik tizimi orqali amalga oshirish imkonini beradi. Davlatning moliyaviy-iqtisodiy tuzilmalarini isloh qilish jarayonida axborotning ahamiyati doimiy o'sib boradi va tashkil qilinayotgan yagona telekommunikatsion tarmoqlar davlat boshqaruv organlari, viloyat, shahar va tumanlarni yaxlit majmuaga bog'laydi. Bu, davlat byudjet tizimini kompleks monitoring va iqtisodiy tashxislash imkonini berib, davlat g'aznachiligining bo'limlari oldida turgan vazifalarni samarali hal qilishga xizmat qiladi. O'z navbatida, davlat moliyaviy jarayonlariga yagona axborot makonini joriy etish, undan samarali foydalanish uning, huquqiy himoyalash obyektlarini belgilab beruvchi, konseptual asoslarni ishlab chiqishni taqozo etadi[121].

Soliq yukini izchillik bilan kamaytirish, soliq solish tizimini soddalashtirish va soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish iqtisodiyotni jadal rivojlantirish hamda mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligini yaxshilashning eng muhim shartlari hisoblanadi.

Shu bilan birga, o'rganishlar natijalari mazkur sohada bir maromda iqtisodiy o'sishga, ishbilarmonlik va investitsiyaviy faollikni oshirishga, sog'lom raqobat muhitini shakllantirishga,

[121] Mansurov M.A. Davlat moliya tizimini rivojlantirishning amaliy jihatlari // Iqtisodiyot va ta'lim. – T.: 2014. №4. – B. 100-104. (08.00.00; №11)

shuningdek, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar yig'iluvchanligining zarur darajasini ta'minlashga to'sqinlik qilayotgan bir qator tizimli muammolarni ko'rsatdi[122], xususan:

birinchidan, umumbelgilangan soliqlarni to'lovchilar uchun soliq yuki darajasining yuqoriligi, shuningdek, soliq solishning soddalashtirilgan va umumbelgilangan tizimida soliqlarni to'laydigan xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasidagi soliq yuki darajasidagi farqning sezilarliligi;

ikkinchidan, qo'shilgan qiymat solig'ini undirishning samarasiz tizimi, soliq to'lovchilarning aylanma mablag'larini jalb qiladigan, shuningdek, iste'mol mahsulotining oraliq va yakuniy qiymati qimmatlashishiga olib keladigan hamda yirik va kichik biznes o'rtasidagi kooperatsiyaning rivojlanishiga to'sqinlik qiladigan majburiy to'lovlarning mavjudligi;

uchinchidan, soliq to'lovchilar tomonidan xodimlarning real sonini va mehnatga haq to'lash fondini yashirishga olib keluvchi mehnatga haq to'lash fondi soliq stavkalarining yuqoriligi;

to'rtinchidan, imtiyozlarning samaradorligini monitoring va nazorat qilish bo'yicha ta'sirchan tizimning mavjud emasligi sababli sog'lom raqobatni ta'minlashga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi, xo'jalik yurituvchi subyektlarni soliq va bojxona, shu jumladan individual xususiyatga ega bo'lgan imtiyozlar hisobiga qo'llab-quvvatlash amaliyotining keng tarqalganligi;

beshinchidan, davlat organlari va tashkilotlari o'rtasida axborot almashish mexanizmlarining, elektron soliq ma'muriyatchiligi hamda soliq nazoratini amalga oshirish shakl va uslublarining takomillashmaganligi;

oltinchidan, o'tkaziladigan nazorat tadbirlarining sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi va insofli tadbirkorlik subyektlarining faoliyatiga aralashishlarni kamaytirishga to'sqinlik qiluvchi nazorat faoliyatini

---

[122] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 29-iyundagi "O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi to'g'risida"gi PF–5468-son Farmoni. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 30.06.2018 y., 06/18/5468/1420-son

amalga oshirishda xavf-xatarlarni tahlil qilish va boshqarishning aniq tizimi yo‘qligi;

yettinchidan, mahalliy soliq va yig‘imlarning ma’muriyatchiligi mexanizmlarining samarasizligi oqibatida ularning yig‘iluvchanlik darajasi yetarli emasligi, shuningdek, ko‘chmas mulk va yer uchastkalarini to‘liq hisobga olish va qiymatini obyektiv aniqlashning mavjud emasligi.

O‘zbekiston Respublikasining soliq siyosatidagi tizimli muammolarni bartaraf etish, 2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan soliq yukini kamaytirish va soliq solish tizimini soddalashtirish, soliq ma’muriyatchiligini takomillashtirish vazifalarini amalga oshirish maqsadida, shuningdek, keng jamoatchilik muhokamasi natijalari hamda Xalqaro valyuta jamg‘armasi, Jahon banki va xalqaro ekspertlarning tavsiyalaridan kelib chiqib O‘zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasining asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

– iqtisodiyotga soliq yukining darajasini kamaytirish, shuningdek, soliq solishning soddalashtirilgan va umumbelgilangan tizimi bo‘yicha soliqlarni to‘laydigan xo‘jalik yurituvchi subyektlar o‘rtasidagi soliq yuki darajasidagi nomutanosibliklarni bartaraf etish;

– soliqlarni unifikatsiya qilish orqali ularning sonini optimallashtirish, shuningdek, o‘xshash soliq solish bazasiga ega bo‘lgan soliqlarni birlashtirish, soliq hisobotlarini qisqartirish va soddalashtirish, operatsion xarajatlarni minimallashtirish;

– makroiqtisodiy vaziyatning barqarorligini, O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti va uning daromadlarini shakllantirishning mustahkamligini ta’minlash;

– soliq qonunchiligini soddalashtirish, soliq munosabatlari sohasida normativ-huquqiy hujjatlardagi qarama-qarshiliklar va ziddiyatlarni bartaraf etish, insofli soliq to‘lovchilarning huquqlari va qonuniy manfaatlari himoyasini kuchaytirish;

– soliq solish masalalarini tartibga soladigan havolaki normalar va qonunosti hujjatlarini maksimal darajada cheklagan holda, soliq qonunchiligining barqarorligini hamda O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi normalarining to'g'ridan to'g'ri amal qilishini ta'minlash, shu jumladan kodeksda soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar stavkalarining miqdorlarini belgilash;

– xorijiy investorlar va investitsiyalar uchun qulay rejimni saqlab qolish, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va ishonchli huquqiy himoyalash;

– soliq nazoratining shakl va mexanizmlarini, shu jumladan soliq solish obyektlari hamda soliq to'lovchilarni yanada to'liq qamrab olish va hisobini ta'minlaydigan zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish hisobiga takomillashtirish, transfer narxlarni shakllantirish bilan bog'liq operatsiyalarga soliq solish tartibini joriy etish.

16.3. Strategik rivojlanish va uning moliyaviy asoslari

Davlat boshqaruvini takomillashtirish, eng avvalo davlat xizmatini isloh qilish, iqtisodiyotda davlat boshqaruvini kamaytirish, davlat va xususiy sektorlarning o'zaro foydali hamkorligining zamonaviy shakllarini, "Elektron hukumat" tizimini rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish rejalashtirilgan.

Xalq bilan samarali muloqotni ta'minlash Davlat dasturining eng muhim va dolzarb vazifalaridan biri bo'ldi. Shu munosabat bilan jamoatchilik nazoratini takomillashtirish, nodavlat notijorat tashkilotlarini, ommaviy axborot vositalarini yanada rivojlantirish, shuningdek, mahallaning jamiyat hayotidagi rolini kuchaytirish nazarda tutilmoqda.

Davlat dasturining ikkinchi yo'nalishi qonun ustuvorligini va sudning chinakam mustaqilligini ta'minlash chora-tadbirlarini nazarda tutadi. Jumladan, qarorlar qabul qilishda sudlar mustaqilligini ta'minlashi kerak bo'lgan Oliy sud kengashini tuzish, professional

sudyalar korpusini shakllantirish, sudyalarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga doir chora-tadbirlarni amalga oshirish rejalashtirilmoqda.

Ma'muriy sudlarni, xo'jalik sudlari tizimida mintaqaviy apellyatsiya sudlarini tuzish, sudya yordamchisi lavozimini ta'sis etish orqali sudlarni kelgusida ixtisoslashtirish va ularning devonini mustahkamlash nazarda tutilmoqda.

Sansalorlikka va ishlarning ko'rib chiqilishi sudlar tomonidan asossiz cho'zib yuborilishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida protsessual qonun hujjatlarini takomillashtirish, quyi instansiya sudlarining kamchiliklarini mustaqil bartaraf etish va uzil-kesil qaror qabul qilish yuzasidan yuqori sud instansiyalarining vakolatlarini kengaytirish rejalashtirilmoqda.

Ushbu yo'nalish doirasida barcha huquqni muhofaza qilish va nazorat organlari, davlat hamda xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari rahbarlarining xalq bilan bevosita muloqotini yo'lga qo'yish chora-tadbirlarini ro'yobga chiqarish, aholi ularga erkin murojaat eta olishini ta'minlash, jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari hamda erkinliklari buzilganligi to'g'risidagi murojaatlarning, xabarlarning o'z vaqtida olinishini a'minlash nazarda tutilmoqda.

Huquqbuzarliklarning oldini olish tizimiga, jinoyatchilikka qarshi kurashish va jamoat tartibini saqlash bo'yicha ichki ishlar organlarining faoliyatini tubdan takomillashtirishga alohida e'tibor qaratiladi.

Shuningdek, ushbu yo'nalish 2018–2021-yillarda jinoyat va jinoyat-protsessual qonun hujjatlarini yanada takomillashtirish konsepsiyasini ishlab chiqishni, sud, huquqni muhofaza qilish va nazorat organlari xodimlarini o'qitish, tanlash va joy-joyiga qo'yish tizimini takomillashtirishni, murojaatlarni muntazam tahlil qilishni hamda vaqti-vaqti bilan uning natijalarini e'lon qilib borishni, advokaturani rivojlantirishni, notarial tizimini va FHDYO organlarini isloh qilishni ham o'z ichiga oladi.

"Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirish", deb nomlangan uchinchi yo'nalishda ko'rsatilgan chora-tadbirlarni ro'yobga chiqarish uchun milliy valyuta va narxlarning barqarorligini ta'minlash, valyutani tartibga solishning zamonaviy bozor mexanizmlarini bosqichma-bosqich joriy etish, mahalliy byudjetlarning daromad bazasini kengaytirish, tashqi iqtisodiy aloqalarni kengaytirish, eksportga mo'ljallangan mahsulot va materiallar ishlab chiqarish uchun zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, transport-logistika infratuzilmasini, tadbirkorlikni rivojlantirish hamda xorijiy investorlar uchun investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish, soliq ma'murchiligini yaxshilash, bank faoliyatini tartibga solishning zamonaviy prinsiplari va mexanizmlarini joriy etish, ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklarini rivojlantirish, shuningdek, turizm industriyasini jadal rivojlantirish nazarda tutilmoqda.

Shuningdek, ushbu yo'nalish xususiy mulkni, moliya bozorini himoya qilish, qishloq xo'jaligini modernizatsiyalash, zargarlik sohasini rivojlantirish, ayrim milliy korxonalarning aksiyalarini (IPO) nufuzli xorijiy fond birjalariga dastlabki tarzda joylashtirishga tayyorgarlik ko'rish chora-tadbirlarini ham o'z ichiga oladi.

Har qanday davlatda pensiya ta'minoti tizimi mehnatga layoqatsiz va kam ta'minlangan fuqarolarning turmush darajasni ta'minlashga va qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan iqtisodiy, huquqiy, ijtimoiy va tashkiliy xarakterga ega bo'lgan qator chora-tadbirlar kompleksining amalga oshirilishini nazarda tutadi.

Fuqarolarning ijtimoiy sug'urtalash tizimidagi uzluksiz ishtirokini rag'batlantirishning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish, pensionerlarning moddiy ta'minlanganlik darajasini oshirish, mehnatga haq to'lash jamg'armasiga fiskal yukning mo'tadilligini qo'llab-quvvatlash, shuningdek, barqaror pensiya tizimiga erishish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi hamda byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi tomonidan fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti tizimini isloh etish bo'yicha Konsepsiya loyihasi ishlab chiqildi. Ushbu Konsepsiya loyihasi Birlashgan

Millatlar Tashkilotining Taraqqiyot Dasturi, Jahon bankining pensiya ta'minoti sohasidagi loyihalari hamda Koreya Respublikasining davlat xizmatchilari Milliy Pensiya Servisi tavsiyalariga asoslanib ishlab chiqilgan.

Amaldagi pensiya ta'minoti tizimi hozirgi zamon talablariga to'liq javob bera olmaydi, fuqarolarni keksaygan yoshda, mehnat qobiliyatini yo'qotganda va boquvchisini yo'qotganda ijtimoiy himoyasi uchun maksimal darajadagi maqbul shart-sharoitlarni ta'minlay olmaydi. Xususan:

– amaldagi O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi Qonuni 1993-yilda qabul qilingan bo'lib, unda to'g'ri ta'sir etuvchi normalar mavjud emas, pensiya ta'minoti va aholining ijtimoiy himoyasi masalalarini tartibga soluvchi ko'plab normalar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari, Hukumat qarorlari bilan tasdiqlangan bo'lib, bu, o'z navbatida, ularni turli xil talqin etishga olib kelmoqda;

– fuqarolarning ijtimoiy sug'urta tizimida uzluksiz va uzoq muddatli ishtirokini rag'batlantirish mexanizmi murakkab va shaffof bo'lmasdan qolmoqda, buning natijasida mehnatga layoqatli aholining deyarli 60 foizi davlat ijtimoiy sug'urtasi bilan qamrab olinmagan;

– imtiyozli pensiya ta'minotining, bugungi kunda dunyo maliyotida deyarli qo'llanilmaydigan alohida toifadagi shaxslarning pensiyalariga asossiz ustama va qo'shimchalarning keng amaliyoti yuzaga kelgan;

– pensiya miqdori va xodimning mehnat hissasi (ulushi) o'rtasidagi bog'liqlik ham zaiflashgan, pensiya to'lovlari yuki oshgan, shu munosabat bilan yaqin kelajakda Pensiya jamg'armasining daromadlari va xarajatlari o'rtasida nomutanosibliklar kutilmoqda, bu esa, o'z navbatida, pensiya va boshqa ijtimoiy to'lovlarni moliyalashtirishga salbiy ta'sir ko'rsatadi;

– pensiya ta'minoti tizimi yaxlitlashtirilgan va barcha uchun tenglashtirilgan bo'lib, quyidagi asosiy tamoyillarga javob bermaydi: ijtimoiy sug'urta badallari Pensiya jamg'armasi mablag'lari asosini

tashkil etishi va qat'iy maqsadga – pensiya sug'urtasida ishtirok etgan shaxslarning pensiya to'loviga yo'naltirilgan bo'lishi hamda Pensiya jamg'armasiga to'lanadigan majburiy to'lovlar bo'yicha ish beruvchi va xodim o'rtasidagi javobgarlik aniq taqsimlanishi lozim.

2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida ustuvor yo'nalishlardan biri ijtimoiy sohani rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lib, aholining majburiy ijtimoiy kafolatlarini ta'minlash, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarining ijtimoiy himoyasini kuchaytirish, shuningdek, keksalarni va imkoniyati cheklangan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashni o'z ichiga oladi.

Qo'yilgan vazifalarni hal etish maqsadida quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

a) pensiya ta'minotining normativ-huquqiy bazasini takomillashtirish sohasida:

– to'g'ridan to'g'ri ta'sir etuvchi me'yorlarga ega bo'lgan, zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda pensiyalarni hisoblashning sodda va shaffof mexanizmlarini hamda rag'batlantiruvchi xarakterdagi aniq, shu jumladan jamg'arib boriladigan mexanizmlarni joriy etish, asossiz imtiyozlar, qo'shimchalar va ustamalar berish amaliyotidan voz kechilgan normalarni nazarda tutgan O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi Qonunining yangi tahririni ishlab chiqish va tasdiqlash;

b) pensiya ta'minoti tizimiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish sohasida:

– pensiya ta'minoti sohasiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini faol tatbiq etish, "Pensiya" dasturiy majmuini modernizatsiyalash, navbatni yuzaga keltiradigan, buning natijasida korrupsiya va qog'ozbozlik holatlarini keltirib chiqaradigan qog'oz hujjat aylanishini bartaraf etish. Pensiyalarni hisoblashda asos sifatida 2015-yildan tashkil etilgan fuqarolarning Pensiya jamg'armasiga

o‘tkazib borilgan sug‘urta badallarining markazlashtirilgan Reestri ma’lumotlarini inobatga olishni joriy etish;

c) pensiya ta’minoti tizimining ijtimoiy adolat va samaradorligini oshirish sohasida:

– barcha ishlovchi pensionerlarga pensiyalarini to‘liq miqdorda olish huquqini berish;

– qariyalar va nogironlar internat uylarida (pansionatlarida) yashovchi yolg‘iz pensionerlarga to‘lanadigan pensiya miqdorini oshirish;

– III guruh nogironligi bor shaxslarga qat’iy belgilangan miqdorlarda nafaqalarni joriy etish;

d) rag‘batlantiruvchi mexanizmlarni joriy etish, pensiya miqdori va xodimning mehnat hissasi o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni oshirish sohasida:

– pensiya hisoblab chiqarish uchun hisobga olinadigan o‘rtacha ish haqini pensiya tayinlanish kunidagi belgilangan eng kam ish haqining 8 barobaridan 12 barobarigacha oshirish (ushbu yo‘nalish fuqarolarning mehnat faoliyatining davomiyligini va yuqoriroq miqdorda ish haqi oluvchilarni rag‘batlantirishga qaratilgan. Bunday mexanizmlar Yevropa davlatlari, AQSh, Belorus, Ukraina, Moldova va boshqa bir qator davlatlar qonunchiligida nazarda tutilgan);

d) ijtimoiy sug‘urta tizimida fuqarolarning ixtiyoriy ishtirokini rag‘batlantirish choralarini qo‘llash sohasida:

– pensiya yoshiga yetgan, ammo zarur ish stajiga ega bo‘lmagan fuqarolarga, davlat pensiyalarini hisoblashda yetishmayotgan stajning har bir oyi uchun Pensiya jamg‘armasiga bir martalik sug‘urta badallarini to‘lash huquqini taklif etish;

– ishlovchi er (xotin)ning mehnatga haq to‘lash ko‘rinishidagi daromadlari hisobidan ishlamayotgan turmush o‘rtog‘i uchun ixtiyoriy ravishda Pensiya jamg‘armasiga sug‘urta badallari to‘lash huquqini taklif etish. Er (xotin) ishlamayotgan turmush o‘rtog‘i uchun Pensiya jamg‘armasiga ixtiyoriy sug‘urta badallari to‘lash tizimi dunyoning ko‘plab davlatlarida mavjud. Misol uchun, Yaponiyada bu

tizim majburiy xarakterga ega, bunday tizim Shvetsiya va Buyuk Britaniyada ham mavjud;

e) avlodlarning moliyaviy ishtiroki ekvivalentligini ta'minlash sohasida:

– yoshga doir pensiya tayinlash uchun talab etiladigan minimal staj davomiyligini (7 yil) oshirish ("Ijtimoiy ta'minotning minimal me'yorlari to'g'risida"gi 102-sonli Konvensiyasida yoshga doir pensiya tayinlash uchun talab etilgan eng kam staj 15 yil qilib belgilangan. Dunyoning ko'plab davlatlari, jumladan MDH davlatlarida talab etilgan eng kam ish staji 10 – 15 yilga yetkazilgan).

Demografik bashoratlarga ko'ra, 2018–2025-yillarda pensiya yoshidagi aholining ulushi (1,2 million kishiga) oshishi kutilmoqda. Bu esa, o'z navbatida, Pensiya jamg'armasi xarajatlarining mutanosib ravishda oshishiga olib keladi.

Fuqarolar pensiya ta'minoti tizimining asosiy ko'rsatkichlaridan biri pensiya yoshi hisoblanadi. Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, dunyoda o'rtacha pensiya yoshi erkaklar va ayollar uchun 62 yosh bo'lsa, O'zbekistonda bu ko'rsatkich 57,5 yoshni tashkil etadi (ayollar uchun 55 yosh, erkaklar uchun 60 yosh).

Fuqarolarning ijtimoiy sug'urta tizimida uzluksiz va uzoq muddatli ishtirokini rag'batlantirish mexanizmi murakkab va shaffof bo'lmasdan qolmoqda. Mehnatga layoqatli aholi 60 foiz (qariyb 17 million kishi)ni tashkil etsa, taxminan 10,2 million kishi davlat ijtimoiy sug'urtasi bilan qamrab olinmagan. Ya'ni, ular byudjetdan tashqari Ppensiya jamg'armasiga ijtimoiy ajratmalarni amalga oshirmayapti.

Xalqaro mehnat tashkiloti talablariga muvofiq, fuqarolarning pensiya ta'minoti tizimi barqaror rivojlanishi uchun badal to'lovchilar sonining pensiya oluvchilarga o'zaro nisbati 1:4 darajada bo'lishi kerak. Biroq bugungi kunda O'zbekistonda bu ko'rsatkich o'rtacha 1:1,5 ga teng.

Xalqaro mehnat tashkilotining "Ijtimoiy ta'minotning minimal me'yorlari to'g'risida"gi konvensiyasida yoshga doir pensiyani

tayinlash uchun talab etiladigan eng kam ish staji 15 yil qilib belgilangan. Ko‘plab davlatlar, shu jumladan, MDH mamlakatlarida talab etilgan eng kam ish staji 10-15 yil darajasiga yetkazilgan.

Ishlovchilarning ijtimoiy sug‘urtadagi uzoq muddat va uzluksiz ishtirokini rag‘batlantirishdagi zaif mexanizmlar ularni sug‘urta badallarini to‘lamaslikning yangi usullarini qidirishga majbur etadi.

Pensiya ta’minoti tizimini yanada rivojlantirishning bosh maqsadi pensionerga munosib turmush farovonligi va hayot darajasini ta’minlab berishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun: pensiya ta’minoti tizimining huquqiy-me’yoriy asoslarini takomillashtirish, yangi tahrirdagi “Pensiya ta’minoti to‘g‘risida”gi qonunni ishlab chiqish va qabul qilish; ilg‘or xorij tajribalari asosida “Nodavlat pensiya ta’minoti to‘g‘risida”gi qonunni ishlab chiqish va qabul qilish, xususiy pensiya fondlarining barqaror rivojlanishini ta’minlovchi, ular faoliyatini tartibga solishning samarali tizimini yaratish maqsadga muvofiq.

2018–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasida pensiya ta’minoti tizimini rivojlantirishning Davlat dasturi ishlab chiqilishi zarur. Dasturning tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat bo‘lishi maqsadga muvofiq:

1. Pensiya ta’minoti tizimining joriy holati va omillari (ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va demografik).

2. Pensiya ta’minoti tizimini yanada rivojlantirishning maqsadi va yo‘nalishlari (pensionerga munosib turmush farovonligi va hayot darajasini ta’minlab berishi nuqtayi nazaridan).

3. Pensiya ta’minoti tizimining huquqiy-me’yoriy bazasini takomillashtirish (1993-yil 3-sentyabrda qabul qilingan “Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to‘g‘risida”gi hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 8-sentyabrdagi qarori asosida tasdiqlangan “Davlat pensiyalarini tayinlash va to‘lash tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga tegishli o‘zgartirishlar kiritish, ularni yangi tahrirda qabul qilish).

4. Nodavlat pensiya ta'minoti tizimini tashkil etish va ular faoliyatini tartibga solishning samarali tizimini yaratish.

5. Ijtimoiy sug'urta tizimida ishtirok etishning rag'batlantiruvchi omillari.

6. Pensiya ta'minoti tizimida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilishni faollashtirish.

7. Jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti tizimini yanada rivojlantirish.

Har bir bo'limda Davlat dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari, shakllari, bajarish muddatlari va mas'ul bajaruvchilar belgilab olinishi kerak.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasida harbiy xizmatchilarning pensiya ta'minoti 1990-yilda tasdiqlangan "О государственном пенсионном обеспечении военнослужащих" nomli qonun asosida tartibga solinadi. Bu qonun sobiq Ittifoq davrida qabul qilinib O'zbekiston mustaqilligi davrida ham amalda bo'lgan qonunlar qatoriga kiradi. Lekin ushbu qonunning bir qator me'yorlari bugungi kun talablariga javob bermaydi. Harbiy xizmatchilarga pensiya hisoblash, tayinlash va to'lash, ularga ustamalar belgilash, imtiyozlar berish, harbiy xizmatchilarning oila a'zolarini ijtimoiy ta'minlash bilan bog'liq munosabatlarni tartibga soluvchi yagona huquqiy hujjatning mavjud bo'lmaganligini inobatga olib, "Harbiy xizmatchilarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi yangi Qonunni ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

Respublikamizning bank-moliya tizimida, iqtisodiyotning real sektorida, sanoatning birmuncha rivojlangan tarmoqlarida, masalan, og'ir sanoat, neft-gaz, energetika, oziq-ovqat, yengil sanoat sohalarida ko'plab aksiyadorlik kompaniyalarining mavjudligi va ularning muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatayotganligini hisobga olib hamda xorij tajribalarini chuqur o'rgangan holda, "Korporativ pensiya ta'minoti to'g'risida"gi Qonun ishlab chiqish va amaliyotga joriy qilish, shu asosda mamlakatimizda davlat tomonidan kafolatlangan pensiya ta'minotiga muqobil bo'lgan korporativ pensiya ta'minotini yo'lga

qo'yish maqsadga muvofiq, bu esa fuqarolarning ijtimoiy ta'minotini yanada yaxshilash imkonini beradi.

Respublikamizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar zamirida xalq farovonligi, milliy iqtisodiyotning barqarorligi va vatan ravnaqini ta'minlash kabi maqsadlar jamlangan. Shuningdek, davlat pensiya ta'minoti tizimini ham isloh qilish muhim masalalardan biri bo'lib kelmoqda. To'g'ri, oddiy fuqaro sifatida ko'pchilik aholi pensiya miqdorining oshirilishidan manfaatdor, lekin byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining bu miqdorni oshirish uchun yetarlicha mablag'i bormikan, degan savolga avvalo javob topishimiz kerak. Fikrimizcha, mamlakatimizda samarali bandlikni tashkil etsak, shunda o'z-o'zidan sug'urta badallarini to'lovchilar soni ham ma'lum miqdorda oshgan bo'lardi. Bu esa albatta byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining daromadlarining oshishiga olib kelardi.

Mutaxassislarning fikricha, uzoq umr ko'radigan odamlarning ortib borishi kafolatli pensiya ta'minotini yaratish, tibbiy va ijtimoiy xizmatlar sifatini yanada yaxshilash bo'yicha davlatlar zimmasiga katta mas'uliyat yuklamoqda.

Umuman olganda, aholini ijtimoiy himoya qilishga bag'ishlangan adqiqotlarda surunkali kasalliklar, tabiiy va texnogen ofatlarning ko'payishi, kambag'allik kabi turli omillar ta'sirida so'nggi yillarda yer yuzida ijtimoiy muhofazaga muhtoj kishilar soni sezilarli darajada o'sib borayotgani, bunday kishilarning qonuniy huquqlarini ta'minlash bo'yicha zarur choralar ko'rilmayotgani qayd etilmoqda.

Xalqaro ekspertlar dunyoning ayrim davlatlarida yaqqol sezilib qolayotgan bu holat ijtimoiy barqarorlikka, jamiyatdagi umuminsoniy munosabatlarga, taraqqiyot muvozanatiga putur yetkazayotganligini tobora ko'proq ta'kidlamoqdalar. Munosib hayot kechirish, ilm olish, davolanish kabi insonning eng oliy huquqlari kafolati xavf ostida qolayotir. Shuning uchun ham jahon mamlakatlarida ijtimoiy himoya bilan bog'liq fakt va raqamlar tahlil qilinib, bu boradagi kafolatlarni, qonunchilikni mustahkamlab borishga doimiy e'tibor qaratilmoqda.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Davlat moliyasini isloh etishning moddiy-moliyaviy asosi sifatidagi mohiyati nimada namoyon bo'ladi?
2. Yangi qabul qilgan Soliq konsepsiyasining mazmuni va mohiyati.
3. Harakatlar strategiyasni amalga oshirilishining moliyaviy jihatlari?
4. Davlat moliyasi tizimidagi islohotlarning asosiy yo'nalishlari.

Mavzu yuzasidan topshiriqlar

1. Davlat moliyasi tizimidagi muammolar, ularning asosiy mazmuni va yechimlariga oid konseptual jadval tuzing.
2. Davlat moliyasi islohotlari tarkibida aks ettirilgan islohot-uning asosiy mazmuni va yo'nalishlarini qamrab olgan chizmalarni tayyorlang.
3. Davlat moliyasi islohotlariga o'z qarashlaringiz aks etgan esse tayyorlang.

TAYANCH SO‘Z VA IBORALAR BO‘YICHA GLOSSARIY

Aylanma kassa mablag‘i – moliya yilida O‘zbekiston Respublikasi respublika byudjetining, Qoraqalpog‘iston Respublikasi respublika byudjetining, viloyatlar viloyat byudjetlarining va Toshkent shahri shahar byudjetining, tumanlar va shaharlar byudjetlarining shaxsiy g‘azna hisobvaraqlarida turgan byudjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori;

Bevosita soliqlar – soliq to‘lovchilarning o‘zi to‘g‘ridan-to‘g‘ri to‘laydigan, ya’ni soliqning huquqiy jihatdan to‘lovchisi ham, haqiqiy to‘lovchisi ham bitta shaxs bo‘ladigan, soliq yukini boshqalar zimmasiga yuklash holati bo‘lmaydigan soliqlar, ularga daromaddan va mulkdan to‘lanadigan soliqlar kiradi;

Bilvosita soliqlar – yuridik jihatdan to‘lovchilari mahsulot (ishlar, xizmatlarni) yuklab yuboruvchilar (xizmat ko‘rsatuvchilar) bo‘lib, soliqning haqiqiy og‘irligi keyingi (so‘nggi) iste’molchining zimmasiga tushadigan, soliq summasi tovar (ish, xizmat) narxi ustiga ustama ravishda qo‘yiladigan soliqlar;

Byudjet daromadlari tasnifi – barcha darajadagi byudjetlar daromadlari, davlat maqsadli jamg‘armalari hamda byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari daromadlarining mablag‘lar manbasi va byudjetlar darajasiga, daromadlar turiga va hududiga ko‘ra guruhlanishi;

Byudjet defitsiti – muayyan davrda byudjet xarajatlarining byudjet daromadlaridan ortishi;

Byudjet defitsitini qoplash manbalari – defitsitni qoplashga jalb qilingan mablag‘lar va ularning manbalari;

Byudjet dotatsiyasi – o‘z daromadlari va byudjetni tartibga soluvchi boshqa mablag‘lar yetishmagan taqdirda quyi byudjetning xarajatlari bilan daromadlari o‘rtasidagi farqni qoplash uchun yuqori

byudjetdan quyi byudjetga qaytarmaslik sharti bilan ajratiladigan pul mablag'lari;

Byudjet huquqi – davlat byudjeti mablag'larini shakllantirish, taqsimlash va ulardan foydalanish bo'yicha yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi moliyaviy-huquqiy normalar majmui;

Byudjet huquqi subyektlari – davlat pul mablag'larining markazlashtirilgan jamg'armasini shakllantirish, taqsimlash va undan foydalanish bilan bog'liq munosabatlarda qonunchilik bilan tegishli yuridik majburiyat va huquqlar berilgan davlat va uning ma'muriy-hududiy tuzilmalari, davlat hokimiyati va barcha darajadagi boshqaruv organlari, davlat va munitsipal korxonalar, tashkilotlar va muassasalar;

Byudjet jarayoni – byudjet loyihasini tuzish, ko'rib chiqish, qabul qilish va ijro etish, ijro etilishini nazorat qilish, ijrosi haqidagi hisobotni tayyorlash va tasdiqlash bilan bog'liq bo'lgan qonun hujjatlariga muvofiq tartibga solinadigan maqsadli faoliyat;

Byudjet jarayoni bosqichlari – byudjet loyihasini tuzish, uni ko'rib chiqish va tasdiqlash, byudjetni ijro etish va uning nazoratini olib borish, byudjetning ijrosi to'g'risidagi hisobotni tayyorlash va uni tasdiqlashdan iborat bo'lgan uzluksiz jarayon;

Byudjet nazorati – barcha darajadagi byudjetlarning, davlat maqsadli jamg'armalari va boshqa nobyudjet fondlarining shakllanishi va ishlatilishi, davlat moliyaviy resurslarining qonuniy va maqsadga muvofiq ishlatilishi ustidan nazorat;

Byudjet nazoratining shakllari – dastlabki, joriy va so'nggi byudjet nazorati;

Byudjet profitsiti – muayyan davrda byudjet daromadlarining byudjet xarajatlaridan ortishi;

Byudjet qonunchiligi – byudjet munosabatlari va byudjetlararo munosabatlarni tartibga solishga xizmat qiluvchi qonuniy-huquqiy hujjatlar yig'indisi;

Byudjet siyosati – davlat moliya siyosatining tarkibiy qismi bo'lib, umumdavlat moliyaviy resurslarini (manbalarini) shakllantirish va jalb etish, taqsimlash, ulardan maqsadga muvofiq foydalanishga qaratilgan davlatning chora-tadbirlari va asosiy yo'nalishlari yig'indisi;

Byudjet siyosati strategiyasi – uzoq muddatli maqsadlarni tanlash va maqsadli dasturlarni zarur moliyaviy resurslar bilan ta'minlash, ularni iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning asosiy yo'nalishlariga safarbar qilishni nazarda tutuvchi strategiya;

Byudjet siyosati taktikasi – byudjet strategiyasi belgilab bergan vazifalarni jamiyat rivojlanishining aniq bosqichida va sharoitlarida moliya-byudjet munosabatlarini tashkil etish usullari va vositalari yig'indisi;

Byudjet so'rovi – byudjet tasnifi bo'yicha tushumlarni shakllantirish va byudjetdan mablag' ajratish to'g'risidagi so'rov;

Byudjet ssudasi – yuqori byudjetdan quyi byudjetga yoxud respublika byudjetidan rezident-yuridik shaxsga yoki chet el davlatiga qaytarish sharti bilan ajratiladigan mablag';

Byudjet subvensiyasi – qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda muayyan maqsadlarga sarflash sharti bilan yuqori byudjetdan quyi byudjetga qaytarmaslik sharti bilan ajratiladigan pul mablag'lari;

Byudjet taqchilligini qoplash manbalari tasnifi – taqchillikni qoplashning ichki va tashqi manbalari bo'yicha guruhlash;

Byudjet tashkiloti – davlat funksiyalarini amalga oshirish uchun belgilangan tartibda davlat hokimiyati organlarining qaroriga ko'ra tashkil etilgan, davlat byudjeti mablag'lari hisobidan saqlab turiladigan notijorat tashkilot;

Byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag'lari – qonun hujjatlarida nazarda tutilgan byudjetdan tashqari manbalar hisobidan byudjet tashkiloti tasarrufiga kelib tushadigan mablag'lar;

Byudjet tasnifi – davlat byudjeti, davlat maqsadli jamg'armalari tuzilmasiga kiruvchi byudjetlar daromadlari va xarajatlarining,

shuningdek, davlat byudjetining taqchilligini qoplash manbalarining muayyan belgilariga ko'ra guruhlanishi;

Byudjet tizimi – barcha darajadagi byudjetlar, davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlari va byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari jamg'armalari, byudjet tizimi byudjetlarini tuzish va tashkil etish prinsiplari, ular o'rtasida byudjet jarayoni mobaynida yuzaga keladigan o'zaro munosabatlar yig'indisi;

Byudjet tizimi byudjetlari – O'zbekiston Respublikasining davlat byudjeti, davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlari va byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari jamg'armalari;

Byudjet tizimini boshqarish – byudjet tizimining asosiy tamoyillariga amal qilgan holda byudjet munosabatlarini, byudjet jarayonini, byudjet munosabatlarida ishtirok etuvchi subyektlar, alohida vakolatli organlar va byudjet mablag'larini oluvchilar faoliyatini boshqarishga qaratilgan maqsadli faoliyat;

Byudjet tizimini boshqarish obyektlari – byudjet munosabatlari, byudjetning daromadlar bo'yicha shakllanishi va xarajatlar bo'yicha ijro etilishi, byudjetlararo munosabatlar va shu kabi ijtimoiy-iqtisodiy pul munosabatlari;

Byudjet tizimini boshqarish subyektlari – byudjet munosabatlarini boshqarish, tashkil etish, muvofiqlashtirish va nazorat qilishda ishtirok etuvchi muayyan vakolatlarga ega bo'lgan davlatning qonunchilik-ijroiya institutlari – boshqaruv organlari;

Byudjet transferti – byudjetdan yuridik yoki jismoniy shaxsga bevosita yoxud vakolatli organ orqali ajratiladigan qaytarilmaydigan pul mablag'lari;

Byudjet xarajatlari tasnifi – davlat byudjeti, davlat maqsadli va boshqa byudjetdan tashqari jamg'armalar xarajatlarining mablag'larning manbasi va byudjetlar darajasiga, hududiga, bajaradigan vazifasiga, xarajatlarning iqtisodiy mazmuniga va tashkiliy tegishliligiga ko'ra guruhlanishi;

Byudjetdan mablag' ajratish – qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda davlat byudjetidan byudjet tashkilotlariga hamda boshqa byudjet mablag'lari oluvchilarga pul mablag'larini ajratish;

Byudjetlararo munosabatlar – davlat byudjetida jamlangan pul mablag'larining mamlakat ma'muriy-hududiy tuzilmalari subyektlari o'rtasida qayta taqsimlanishini o'z ichiga oluvchi munosabatlar yig'indisi;

Byudjetlararo munosabatlar shakllari – davlat byudjeti mablag'larini turli darajadagi byudjetlar o'rtasida qayta taqsimlash shakllari;

Byudjetning daromadlar bo'yicha ijro etilishi – daromadlarni davlat byudjetining yagona hisobraqamiga o'tkazish va yozish, tasdiqlangan byudjetga muvofiq ravishda tartibga soluvchi daromadlarni taqsimlash, byudjetga ortiqcha to'langan daromadlar summasini qaytarish, byudjet daromadlari hisobini yuritish va daromadlar to'g'risida hisobotni tuzish bilan bog'liq bo'lgan jarayon;

Byudjetning ijtimoiy funksiyasi – davlat ijtimoiy siyosatini amalga oshirish, davlatning ijtimoiy kafolatlari doirasidagi xizmatlarni mablag' bilan ta'minlash, aholining kam ta'minlangan qatlamlarini ijtimoiy himoya qilish, ijtimoiy siyosatning ustuvor yo'nalishlaridagi davlat tadbirlarini mablag' bilan ta'minlashda namoyon bo'ladi;

Byudjetning ijtimoiy xarajatlari – davlat byudjetining ijtimoiy-madaniy sohalarni moliyalashtirish va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xarajatlari;

Byudjetning iqtisodiy funksiyasi – byudjetning iqtisodiy funksiyasi orqali davlat byudjeti soliqlar va byudjet xarajatlari orqali iqtisodiyotni tartibga solish, investitsiyalarni rag'bat-lantirish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning hal qiluvchi va muhim quroli bo'lib xizmat qiladi;

Byudjetning iqtisodiy xarajatlari – byudjetdan iqtisodiyot tarmoqlarini qo'llab-quvvatlashga va markazlashgan investitsiyalarni moliyalashtirishga ajratiladigan mablag'lar;

Byudjetning joriy xarajatlari – davlat hokimiyati organlarining, mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlarining, byudjet tashkilotlarining joriy faoliyatini ta'minlashga, davlat tomonidan quyi pog'onadagi byudjetlar va iqtisodiyotning ayrim tarmoqlariga mablag' ajratish, dotatsiyalar, subventsiyalar va subsidiyalar shaklida yordam ko'rsatish uchun ajratilagan mablag'lar;

Byudjetning kapital xarajatlari – davlat investitsiya dasturiga muvofiq, ishlab turgan yoki yangidan tashkil qilinadigan korxonalar, tashkilotlar va muassasalarga innovatsiya va investitsiya faoliyatini ta'minlashga mo'ljal-langan byudjet xarajatlari;

Byudjetning nazorat funksiyasi – byudjetning nazorat funksiyasi orqali byudjet daromadlarining shakllanishi, byudjet mablag'larining oqilona va maqsadga muvofiq ishlatilishi, byudjetdan mablag' oluvchilarning moliya-xo'jalik faoliyati, ular tomonidan byudjet qonunchiligiga rioya qilish holati, yalpi ichki mahsulot va milliy daromadning taqsimlanish va qayta taqsimlanish nisbatlari nazorat qilinadi;

Byudjetning taqsimlash funksiyasi – mamlakatda yaratilgan yalpi ichki mahsulot va milliy daromadning qiymatini qayta taqsimlashda namoyon bo'ladi;

Byudjetning xarajatlar bo'yicha ijro etilishi – byudjetning yagona hisobraqamida haqiqatda mavjud bo'lgan byudjet mablag'lari doirasida byudjetdan mablag' oluv-chilarning xarajatlarini to'lab berish bilan bog'liq bo'lgan jarayon;

Daromadlar va xarajatlar smetasi – byudjet tashkilotlari byudjetdan tashqari jamg'armalarining tegishli yil choragi yoki moliya yili uchun kutilayotgan tushumlari va xarajatlari aks ettiriladigan hujjat;

Dastlabki byudjet nazorati – turli darajadagi byudjetlar loyhalarini tuzish, ko'rib chiqish, tasdiqlash; daromad va xarajatlar smetasi, byudjet bilan bog'liq qonun loyihalarini ishlab chiqish va qabul qilish jarayonida amalga oshiriladigan nazorat shakli;

Davlat byudjeti daromadlari – davlat bilan korxonalar, tashkilotlar, muassasalar va aholi o'rtasidagi davlat byudjetining shakllanishi jarayonida yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlar yig'indisi;

Davlat byudjeti xarajatlari – yalpi ichki mahsulotning qayta taqsimlanishi natijasida davlat byudjetida jamlangan pul mablag'larining maqsadga muvofiq qayta taqsimlanishi va ishlatilishi bilan bog'liq byudjet qonunchiligi bilan tartibga solinadigan pul munosabatlari yig'indisi;

Davlat byudjetining funksiyalari – davlat byudjetining iqtisodiy kategoriya sifatida obyektiv tarzda bajaradigan funksiyalari;

Davlat byudjetining g'azna ijrosi – davlat byudjetining barcha daromadlarini yagona g'azna hisobraqamiga to'plash va uning barcha xarajatlarini shu yagona hisobraqamdan amalga oshirish;

Davlat byudjetining soliqsiz daromadlari – davlat byudjetining soliq xarakteriga ega bo'lmagan majburiy va ixtiyoriy shakllarda tushuvchi daromadlari va tushumlari (yuridik va jismoniy shaxslardan, shuningdek, chet davlatlardan kelgan qaytarilmaydigan pul tushumlari, rezident-yuridik shaxslarga va chet davlatlarga berilgan byudjet ssudalarini qaytarish hisobiga tushadigan to'lovlar, davlatning moliyaviy va boshqa aktivlarining joylashtirilishi, foydalanishga berilishi va sotilishidan olingan daromadlar va sh.k.);

Davlat sog'liqni saqlash tizimi – davlat mulki bo'lgan va davlat sog'liqni saqlash tizimining boshqaruv organlariga bo'ysunuvchi davolash-profilaktika va ilmiy-tadqiqot muassasalari, tibbiyot va farmatsevtika xodimlari tayyorlaydigan hamda ularni qayta tayyorgarlikdan o'tkazadigan o'quv yurtlari, farmatsevtika korxonalari va tashkilotlari, sanitariya-profilaktika muassasalari, sud-tibbiy ekspertiza muassasalari, dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnika ishlab chiqaradigan korxonalar hamda asosiy faoliyati fuqarolar sog'lig'ini saqlash bilan bog'liq boshqa korxona, muassasa va tashkilotlar;

Davlat xaridlari – byudjet tizimi byudjetlarining mablag'lari hisobidan amalga oshiriladigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) xaridlari;

Defitsitning hajmi – byudjet defitsitining milliy valyutada absolyut summada, YaIM hajmiga nisbatan foizda, byudjet daromadlari va xarajatlariga nisbatan foizlarda aniqlanadigan kattalik;

Direktor jamg'armasi – umumta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari va akademik litseylarning o'rnak ko'rsatgan xodimlarini rag'batlantirish maqsadida davlat byudjeti hisobidan tuziladigan jamg'arma;

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi – posyolka, qishloq va ovul, shuningdek, shaharlarning mahallalari fuqarolar yig'ini;

G'aznachilik memorial orderi – mablag'larni bir shaxsiy g'azna hisobvarag'idan boshqa shaxsiy g'azna hisobvarag'iga o'tkazish uchun foydalaniladigan to'lov hujjati;

G'aznachilik organlari – yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan, Moliya vazirligi tarkibidagi davlat organi;

G'aznachilikning axborot tizimi – byudjet operatsiyalari bo'yicha kodlashtirilgan va tasniflangan ma'lumotlar avtomatik ravishda yuklanadigan davlat mablag'larini boshqarishning axborot tizimi;

G'aznachilikning yagona hisobraqami – G'aznachilik tomonidan boshqariladigan, davlat byudjeti mablag'lari hamda byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag'lari kiritiladigan, davlat byudjetida mablag'lari nazarda tutilgan yuridik va jismoniy shaxslarning xarajatlari, shuningdek, davlat maqsadli jamg'armalarining xarajatlari amalga oshiriladigan maxsus bank hisobraqami;

Huquqiy kategoriya sifatida davlat byudjeti – markaziy va tegishli mahalliy hokimiyat va ijroiya organlari tomonidan ishlab chiqiladigan va belgilangan tartibda tasdiqlanadigan, markazlashtirilgan pul mablag'lari fondini shakllantirish, taqsimlash va maqsadli ishlatishni ko'zda tutuvchi asosiy moliyaviy reja, yuridik hujjat;

Ijtimoiy sug'urta – fuqarolarning qarilik, kasallik, onalik, mehnat qobiliyatining to'liq yoki qisman yo'qotilishi, boquvchisini yo'qotish, ishsizlik kabi holatlarda moddiy ta'minot olishning moliyaviy asosini yaratish bilan bogliq bo'lgan iqtisodiy munosabatlar yig'indisi;

Ijtimoiy ta'minot – davlat ijtimoiy siyosatining namoyon bo'lish shakli bo'lib, aholining alohida toifalarini moddiy ta'minlashga qaratilgan, rivojlanishning muayyan bosqichida davlat tomonidan ijtimoiy ahamiyatli deb topilgan holatlarda ularning ijtimoiy holatini jamiyatning boshqa a'zolariga nisbatan tenglashtirishga yo'naltirilgan, davlat byudjeti va boshqa maxsus maqsadli jamg'armalar hisobidan amalga oshiriladigan ijtimoiy-iqtisodiy tadbirlar tizimi;

Ijtimoiy ta'minotning moliyaviy manbalari – ijtimoiy ta'minot maqsadlaridagi xizmatlar va to'lovlar uchun mo'ljallangan moliyaviy resurslarning manbalari;

Iqtisodiy kategoriya sifatida davlat byudjeti – davlat bilan yuridik va jismoniy shaxslar o'rtasida mamlakatda yaratilgan yalpi ichki mahsulotni, uning faol qismi bo'lgan milliy daromadni (qisman milliy boylikni) qayta taqsimlash yuzasidan kelib chiqadigan pul munosabatlari tizimi;

Jamlanma xarajatlar smetasi – byudjet mablag'larini taqsimlovchi tomonidan o'z tasarrufidagi byudjet tashkilotlarining va byudjet mablag'lari oluvchilarning xarajatlar smetalari asosida tuziladigan xarajatlar smetasi;

Joriy byudjet nazorati – byudjet operatsiyalarini amalga oshirish chog'ida, dotatsiya, subvensiya, ssudalar va byudjet subsidiyalarini ajratish paytida, ajratilayotgan byudjet mablag'larining rejaviy ko'rsatkichlarga muvofiqligini aniqlashda amalga oshiriladigan nazorat shakli;

Kam ta'minlangan oilalarga ijtimoiy nafaqalar va moddiy yordam – fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tomonidan 14 yoshgacha bolalari bo'lgan oilalarga nafaqa, bola ikki yoshga to'lgunga qadar bola parvarishi bo'yicha nafaqa va kam ta'minlangan oilalarga moddiy yordamlar;

Mahalliy byudjetlar – Qoraqalpog'Iston Respublikasi davlat byudjeti, viloyatlar byudjetlari, viloyatlar byudjetlariga kiruvchi quyi (shahar, tuman) byudjetlar yig'indisi;

Majburiy tibbiy sug'urta – tibbiy xizmatlar uchun kelgusida qilinajak xarajatlarni qoplash maqsadidagi to'lovlarni nazarda tutadigan tizim;

Markazlashgan investitsiyalarni moliyalashtirish xarajatlari – davlat investitsiya dasturiga kirgan manzilli loyihalar bo'yicha byudjetdan ajratiladigan pul mablag'lari;

Moddiy tushuncha sifatida davlat byudjeti – markaziy hukumat va tegishli darajadagi mahalliy hokimiyat idoralari faoliyatini ta'minlovchi, ular oldidagi siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik vazifalarni bajarishga mo'ljallangan markazlashtirilgan pul mablag'lari fondi;

Moliya vazirligi G'aznachiligi – qonun hujjatlarida belgilab qo'yiladigan maxsus vakolatlarga hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, tumanlar, shaharlarda hududiy bo'linmalariga ega bo'lgan davlat byudjetining g'azna ijrosini amalga oshiruvchi moliya organi;

Moliyaviy majburiyatlar – byudjet tashkilotlarida va byudjet mablag'lari oluvchilarda ularga pul mablag'larini o'tkazish majburiyatini yuklovchi hujjatlar, shu jumladan ijro hujjatlari asosida yuzaga keladigan majburiyatlar;

Nafaqa – tegishli davlat mablag'lari hisobidan obyektiv sabablarga ko'ra ish haqining yo'qotilganligi, shuningdek aholining ayrim guruhlarini ijtimoiy himoya qilish hamda ijtimoiy jihatdan ta'minlash maqsadlarida tayinlanadigan moliyaviy yordam turi;

Nazorat tamoyillari – nazoratning ilmiy jihatdan ishlab chiqilgan va amaliy faoliyatda sinovdan o'tgan siyosiy, tashkiliy va huquqiy asoslari bo'lib, ularga og'ishmay amal qilish nazoratning samaradorligini ta'minlaydi;

Nogiron – jismoniy, aqliy, ruhiy yoki sensor (sezgi) nuqsonlari borligi tufayli turmush faoliyati cheklanganligi munosabati bilan

qonun hujjatlarida belgilangan tartibda nogiron deb topilgan hamda ijtimoiy yordamga va himoyaga muhtoj shaxs;

Nogironlarni ijtimoiy himoya qilish – nogironlarga turmush faoliyati cheklanganligini bartaraf etishi, qoplashi (kompensatsiya qilishi) uchun shart-sharoitlarni ta'minlovchi hamda ularga jamiyat hayotida boshqa fuqarolar bilan teng ishtirok etish imkoniyatlarini yaratishga qaratilgan, davlat tomonidan kafolatlangan iqtisodiy, ijtimoiy va huquqiy chora-tadbirlar tizimi;

O'zbekiston Respublikasining Moliya vazirligi – O'zbekiston Respublikasining vazifalari va funksiyalarini amalga oshirish uchun zarur moliyaviy negiz yaratishni, respublika byudjetini ishlab chiqish va ijro etishni, uning daromadlar qismi barqarorligini ta'minlashni, valyuta rejasini tuzish va ijro etishni, pul resurslaridan oqilona va tejab sarflashni ta'minlaydigan davlat boshqaruvi organi;

Pedagog xodimning oylik lavozim okladi – har bir xodimning lavozimi va malaka toifasi uchun o'rnatilgan bazaviy tarif stavkasi hamda qonun bilan belgilangan qo'shimchalar va ustamalar asosida shakllanadigan ish haqi miqdori;

Pedagogik stavkalar soni – sinf guruhlari bo'yicha haftalik o'quv soatlari sonini shu sinf guruhi bo'yicha o'qituvchining haftalik o'quv yuklama me'yoriga bo'lish orqali hisoblanadigan, o'qituvchilarning ish haqi xarajatlarini rejalashtirishda foydalaniladigan ko'rsatkich;

Pensiya – uni olish huquqi qonunda belgilangan shartlarga va me'yorlarga muvofiq aniqlanadigan hamda shaxslarga pensiya yoshiga to'lish, nogironlik yoki boquvchisini yo'qotganlik munosabati bilan beriladigan oylik pul to'lovi;

Respublika byudjeti – daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek, moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag'lar sarfi yo'nalishlari va miqdori nazarda tutiladigan davlat byudjetining umumdavlat ahamiyatidagi tadbirlarni moliyalashtirishda foydalaniladigan qismi;

Shaxsning turmush faoliyati cheklanganligi – shaxsning o'ziga o'zi xizmat qilish, harakatlanish, yo'lni topa olish, muloqot qilish, o'z

xatti-harakatini nazorat etish, shuningdek, o'qish va mehnat faoliyati bilan shug'ullanish qobiliyatini yoki imkoniyatini to'la yoxud qisman yo'qotganligi;

Shtatlar jadvali – doimiy xodimlar lavozimlari va bo'sh o'rinlar nomlarining soni va lavozim maoshlarining miqdorlari ko'rsatilgan ro'yxatni o'z ichiga oladigan, byudjet tashkiloti tomonidan tuziladigan hujjat;

So'nggi byudjet nazorati – hisobot davri va byudjet yili tugagandan so'ng amalga oshiriladigan, hisobot yilida byudjet mablag'larining ishlatilishi, rejaviy ko'rsatkichlarning va xarajatlar smetasining bajarilishi, byudjet limitlari va normativlariga rioya qilinganligi, buxgalteriya hisobi va moliyaviy natijalarni tahlil va taftish qilish asosida o'tkaziladigan nazorat shakli;

Sog'liqni saqlash tizimi – sog'liqni saqlashning davlat, xususiy va boshqa tizimlari yig'indisidan iborat yagona sog'liqni saqlash tizimi;

Sog'liqni saqlashning xususiy va boshqa xil tizimlari – o'z mablag'lari, jalb etilgan mablag'lar va qonun hujjatlariga muvofiq boshqa manbalar hisobidan moliyalashtiriladigan davolash-profilaktika muassasalari, dorixonalar, dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnika ishlab chiqaradigan korxonalar, shuningdek, farmatsevtika faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar;

Soliq tizimi – davlat byudjetini va davlatning boshqa fondlarini majburiy tashkil etadigan, tarkibi amaldagi soliq qonunchiligi bilan belgilab qo'yiladigan barcha soliqlar, majburiy to'lovlar va yig'imlar turlarining yig'indisi;

Soliqlar – majburiy pullik to'lovni ifoda etuvchi pul munosabatlarini bildiradi, bu munosabatlar soliq to'lovchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) bilan soliqni o'z mulkiga aylantiruvchi subyekt sifatida davlat o'rtasida sodir bo'ladi;

Ta'lim tizimi – davlat ta'lim standartlariga muvofiq ta'lim dasturlarini amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta'lim muassasalari, ta'lim tizimining faoliyat ko'rsatishi va rivojlanishini ta'minlash

uchun zarur bo'lgan tadqiqot ishlarini bajaruvchi ilmiy-pedagogik muassasalar, ta'lim sohasidagi davlat boshqaruv organlari, shuningdek, ularga qarashli korxonalar, muassasalar va tashkilotlar yig'indisi;

Ta'limni moliyalashtirish manbalari – ta'lim tizimining faoliyatini ta'minlash uchun ajratiladigan mablag'larning manbalari;

Tartibga soluvchi daromadlar – byudjet tizimi byudjetlari o'rtasida ajratmalar normativlari belgilanadigan umumdavlat soliqlari va boshqa majburiy to'lovlar, shuningdek, soliq bo'lmagan to'lovlar;

Vaqtinchalik kassa uzilishi – joriy moliya yilining muayyan davrida byudjet tizimi byudjetlarining xarajatlari daromadlaridan vaqtinchalik oshib ketishi;

Vaqtinchalik xarajatlar smetasi – byudjet tashkilotining yoki byudjet mablag'lari oluvchining xarajatlar smetasi tasdiqlanguniga va ro'yxatdan o'tkazilguniga qadar amal qiladigan moliyaviy reja, yuridik hujjat;

Xarajatlar smetasi – byudjet tashkiloti yoki byudjet mablag'lari oluvchi tomonidan moliya yili uchun tuziladigan va tasdiqlanadigan, uning uchun nazarda tutilgan byudjetdan ajratiladigan mablag'lar xarajatlar moddalari bo'yicha aks ettiriladigan hujjat;

Xususiy tibbiy sug'urta – sug'urtalanuvchi shaxs ixtisoslashgan xususiy sug'urta tashkiloti bilan kelishilgan ma'lum haq (sug'urta mukofoti) evaziga tibbiy xizmatdan foydalanish bo'yicha xarajatlarning yuzaga kelish xavfini yumshatish maqsadida tashkilot bilan kelishilgan miqdordagi sug'urta badallarini sug'urta tashkilotiga o'tkazib boradigan tizim;

Yuridik majburiyatlar – byudjet tashkilotlari va byudjetdan mablag' oluvchilar bilan ularga mol (tovar, xizmat, ish) yetkazib beruvchilar o'rtasida tuzilgan shartnomalar, shuningdek tegishli davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining qarorlari asosida byudjet tashkilotlarida va byudjetdan mablag' oluvchilarda yuzaga keladigan majburiyatlar.

"DAVLAT MOLIYASI" FANIDAN TESTLAR TO'PLAMI

1. Davlat qarzining eng yuqori miqdori kim tomonidan belgilanadi?

a) Oliy majlis palatalari;

b) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti;

c) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi;

d) O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi.

2. Quyidagilardan qaysi biri mahalliy byudjetlarning tartibga soluvchi daromadlari tarkibiga kirmaydi?

a) Yuridik va jismoniy shaxslardan hamda chet davlatlardan tushgan qaytarilmaydigan pul tushumlari;

b) Belgilangan me'yorlar asosida umumdavlat soliqlaridan ajratmalar;

c) Byudjet dotatsiyalari, subvensiyalari va ssudalari;

d) Byudjet ijrosi davomida turli darajadagi byudjetlar o'rtasida sodir bo'ladigan o'zaro hisob-kitoblar.

3. Joriy moliya yili uchun mo'ljallangan Davlat byudjeti taqchilligining tasdiqlangan cheklangan miqdori ortgan taqdirda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalariga Davlat byudjeti xarajatlarini qisqartirish to'g'risida takliflarni kim kiritadi?

a) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi;

b) O'zbekiston Respublikasi Hisob Palatasi;

c) O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi;

d) O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi G'aznachiligi.

4. O'zbekiston Respublikasi nomidan davlat qimmatli qog'ozlarini chiqarish vakolatiga kim ega?

a) O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi;

b) O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki;

c)O‘zbekiston Respublikasining Xususiylashtirish, monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo‘mitasi;

d)O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi.

5. Byudjetdan yuridik yoki jismoniy shaxsga bevosita yoxud vakolatli organ orqali ajratiladigan qaytarilmaydigan pul mablag‘lari:

a)Byudjet transferti;

b)Byudjet subsidiyasi;

c)Byudjet dotatsiyasi;

d)Byudjet ssudasi.

6. Daromadlari bilan xarajatlari o‘rtasidagi vaqtinchalik kassa uzilishini qoplash maqsadida shakllantiriladigan mablag‘lar:

a)Aylanma kassa mablag‘lari;

b)Byudjet subsidiyasi;

c)Byudjet ssudasi;

d)Byudjet dotatsiyasi.

7. Quyidagilardan qay biri mahalliy byudjetlar uchun cheklovlar tarkibiga kirmaydi?

a)yuqori turuvchi byudjetlardan byudjet ssudalari olish;

b)tasdiqlangan byudjetdan ajratilgan mablag‘lardan ortiq xarajatlarni amalga oshirish;

c)tegishli byudjetlar mablag‘lari hisobidan boshqa yuridik va jismoniy shaxslar foydasiga moliyaviy kafolatlar va kafilliklar berishga;

d)yuridik va jismoniy shaxslarga byudjet ssudalari va kredit liniyalari berish.

8. Tegishli ma’muriy-hududiy birlikda shakllanadigan va yuqori turuvchi byudjetga o‘tkaziladigan, ular qayerda

shakllangan bo'lsa, keyinchalik o'sha ma'muriy-hududiy birlik byudjetiga o'tkazib beriladigan daromadlar. Ta'rifning mazmuni qaysi bir tushunchaga tegishli:

a) O'tkazib beriladigan daromadlar;

b) Byudjet dotatsiyasi;

c) O'zaro hisob-kitoblar asosida olinadigan daromadlar;

d) Byudjet subvensiyasi.

9. Moliya yili mobaynida byudjetlar parametrlari o'zgarganda yuqori va quyi turuvchi byudjetlar o'rtasida yuzaga keladigan o'zaro pul munosabatlari:

a) Byudjetlararo o'zaro hisob-kitoblar;

b) Byudjet ssudasi;

c) Byudjet subventsiyasi;

d) Byudjet subsidiyasi.

10. O'zbekiston Respublikasi davlat byudjeti daromadlari tarkibida eng yuqori ulushni tashkil etuvchi soliq turi

a) Qo'shilgan qiymat solig'I;

b) Yuridik shaxslardan foyda solig'I;

c) Jismoniy shaxslardan daromad solig'I;

d) Aksiz solig'i.

11. O'zbekiston Respublikasi davlat byudjeti daromadlari tarkibida eng yuqori ulushni tashkil etuvchi soliq turi:

a) Egri (bilvosita) soliqlar;

b) To'g'ri (bevosita) soliqlar;

c) Resurs to'lovlari va mol-mulk solig'I;

d) Barcha soliqlar proporsional ravishda bir xil ko'rsatkichli tushumga ega.

12. Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti va mahalliy byudjetlar taqchilligi qaysi manbalardan moliyalashtiriladi?

a)Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti va mahalliy byudjetlar taqchilligiga yo'l qo'yilmaydi;

b)O'zbekiston Respublikasi Respublika byudjeti, Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjetidan;

c)O'zbekiston Respublikasi Respublika byudjetidan;

d)Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti va viloyat byudjetidan.

13. Mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning stavkalarini qonun hujjatlarida belgilangan miqdorlar doirasida belgilash qaysi organning vakolatiga kiradi?

a)Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar Kengashlari;

b)Hududiy moliya organlari;

c)Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar hokimlari;

d)O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi.

14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi to'g'risida"gi PF–5468-son Farmoni Qachon qabul qilindi?

a)2018-yil 29-iyunda;

b)2018-yil 20-iyulda;

c)2017-yil 25-avgustda;

d)2017-yil 29-dekabrda.

15. O'zbekiston Respublikasi respublika byudjetining vaqtincha bo'sh turgan mablag'larini joylashtirish va ularni tijorat banklarida depozitlarga joylashtirishdan olingan daromadlaridan foydalanish tartibini kim belgilaydi?

a)O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi;

b)O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi;

c)O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti;
d)O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi.

16. Amaldagi qonunchilikga asosan yoshga doir nafaqa necha yoshdan tayinlanadi?

a)Erkaklar 65 yoshga to‘lganda, ayollar 60 yoshga to‘lganda;
b)Erkaklar 60 yoshga to‘lganda, ayollar 55 yoshga to‘lganda;
c)Erkaklar 55 yoshga to‘lganda, ayollar 50 yoshga to‘lganda;
d)Erkaklar 60 yoshga to‘lganda, ayollar 55 (54) yoshga to‘lganda.

17. O‘zbekiston Respublikasining “Bolalikdan nogironlarga va o‘n sakkiz yoshga to‘lmagan OIV infeksiyasiga chalingan shaxslarga nafaqalar tayinlash va to‘lash tartibi to‘g‘risida”gi Nizom qachon tasdiqlangan?

a)O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 7-apreldagi 107-son qaroriga asosan tasdiqlangan;
b)O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 19-fevraldagi 30-son qaroriga asosan tasdiqlangan;
c)O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 14-oktabr, 63-son qaroriga asosan tasdiqlangan;
d)O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 8-sentabr, 252-son qaroriga asosan tasdiqlangan.

18. Maktabgacha ta’lim muassasalaridagi ota-ona to‘lovlarining hajmi qanday omilga bog‘liq bo‘lmaydi?

a)Yil davomida eng kam ish haqi miqdorining oshishi;
b)Muassasaning kunlik ishlash vaqti;
c)Muassasaning qaysi hududda joylashganligiga;
d)Muassasaga bir oiladan qatnovchi bolalar soniga.

19. Byudjet tashkiloti tomonidan amalga oshiriladigan faoliyat turlari va tadbirlarning byudjet tizimi byudjetlarining

mablag'lari hisobidan uni moliyalashtirish uchun asos bo'lgan tegishli qonun hujjati ko'rsatilgan ro'yxati

a) Xarajat majburiyatlarining reestri;

b) Xarajatlar smetasi;

c) Tarifikatsiya ro'yxati;

d) Konsolidatsiyalashgan byudjet.

20. Byudjet tashkilotlarining va byudjet mablag'lari oluvchilarning vaqtinchalik xarajatlar smetalari qanday muddatgacha tuziladi va tasdiqlanadi?

a) joriy moliya yilining 25-dekabrigacha;

b) joriy moliya yilining 31-dekabrigacha;

c) joriy moliya yilining 1-dekabrigacha;

d) joriy moliya yilining 20-dekabrigacha.

21. Byudjet kodeksiga muvofiq O'zbekiston Respublikasining beg'araz yordam ko'rsatishi to'g'risidagi qaror kim tomonidan qabul qilinadi?

a) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan;

b) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan;

c) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan;

d) O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan.

22. O'zbekiston Respublikasi nomidan beg'araz yordam ko'rsatgan vakolatli organ qanday muddatlarda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga moliyaviy hisobotlar taqdim etadi?

a) Hisobot yilidan keyingi yilning 1-martigacha;

b) Hisobot yilidan keyingi yilning 1-yanvarigacha;

c) Hisobot yilidan keyingi yilning 1-apreligacha;

d) Hisobot yilidan keyingi yilning 1-fevraligacha.

23. Faoliyatni chet elda amalga oshirayotgan byudjet tashkilotlariga va byudjet mablag'lari oluvchilarga g'azna ijrosi qanday tatbiq etiladi?

a)G'azna ijrosi tatbiq etilmaydi;

b)Barcha byudjet tashkilotlari va byujetdan mablag' oluvchilar singari;

c)G'aznachilik organlarida yuridik va moliyaviy majburiyatlarni ro'yxatga olish tizimi orqali;

d)G'aznachilik organlarida ro'yxatga olinadigan davlat xaridlari, yuridik va moliyaviy majburiyatlar tizimi orqali.

24. O'zbekiston Respublikasining davlat kafolatlarini rasmiylashtirish bo'yicha vakolatli organ

a)O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi

b)O'zbekiston Respublikasi Hisob Palatasi

c)O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi

d)O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

25. O'zbekiston Respublikasi davlat byudjeti xarajatlari tarkibida asosiy ulushni qaysi xarajat turi tashkil etadi?

a)Ta'lim xarajati;

b)Sog'liqni saqlash xarajati;

c)Mudofaa xarajati;

d)Aholini ijtimoiy himoyasi va ijtimoiy ta'minot xarajati.

26. Byudjet buyurtmasi kim tomonidan tuziladi?

a)Byudjet tashkiloti, byudjet mablag'lari oluvchi va byudjet mablag'larini taqsimlovchilar tomonidan;

b)O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan;

c)Qoraqalpog'iston Respublikasi Juqorg'i Kengesi va tegishli hududiy hokimiyat organlari tomonidan;

d)O'zbekiston Respublikasi Hisob Palatasi tomonidan.

27. O‘zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksi qachon qabul qilingan?

a) 2013-yil 26-dekabrda;

b) 2014-yil 2-yanvarda;

c) 2000-yil 14-dekabrda;

d) 2017-yil 22-dekabrda.

28. Manbalar bo‘yicha tegishli byudjet tizimi byudjetlari daromadlari tushumi hisobini yuiritish qanday tashkilotning asosiy funksiyalaridan biri hisoblanadi?

a) O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G‘aznachiligi;

b) O‘zbekiston Respublikasi Davlat Soliq Qo‘mitasi;

c) O‘zbekiston Respublikasi Hisob Palatasi;

d) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi.

29. Davlat moliyaviy nazoratining turlari

a) Dastlabki, joriy va yakuniy nazorat;

b) Yoppasiga va tanlov asosidagi nazorat;

c) Kompleks, mavzuli va muqobil nazorat;

d) Tekshirish va o‘rganish nazorati.

30. Bir shaxsiy g‘azna hisobvarag‘idan boshqa shaxsiy g‘azna hisobvarag‘iga mablag‘lar o‘tkazish uchun buyurtmachilar tomonidan g‘aznachilik bo‘linmalariga qanday hujjat taqdim qilinadi?

a) G‘aznachilik memorial orderlari;

b) To‘lov topshiriqnomasi;

c) Bayonnoma, xulosa yoki dalolatnomalar;

d) Shaxsiy g‘azna hisobvaraqlari ko‘rsatilgan vedomostni.

31. O‘zbekiston Respublikasining Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi qachon tashkil etildi?

a) 2006-yilda;

b)2003-yilda;
c)2008-yilda;
d)2005-yilda.

32. Davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlarining ijrosi to'g'risidagi hisobotlarning shakllari, taqdim etish tartibi va muddatlari qaysi davlat organi tomonidan belgilanadi?

a)O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan;
b)O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan;
c)O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan;
d)Davlat maqsadli Jamg'armalari Ijroiya qo'mitalari tomonidan.

33. Tegishli hisobot davri uchun davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlarining ijrosi to'g'risidagi hisobot kimning qarori bilan tasdiqlanadi?

a)O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi;
b)O'zbekiston Respublikasi Prezidenti;
c)O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi;
d)O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi.

34. Davlat maqsadli jamg'armalari g'azna ijrosi qachondan boshlab va qaysi hujjat asosida tatbiq etildi?

a)2009-yildan boshlab 2008-yil 29-dekabr PQ–1024-son qarori asosida;
b)2010-yildan boshlab 2009-yil 22-dekabr PQ–1245-son qarori asosida;
c)2011-yildan boshlab 2010-yil 24-dekabr PQ–1449-son qarori asosida;
d)2012-yildan boshlab 2011-yil 30-dekabr PQ–1675-son qarori asosida.

35. Aholi daromadlarining Detsil koeffitsiyenti nimani ifodalaydi?

a) Aholining eng ta'minlangan 10% daromadlarining eng kam ta'minlangan 10% o'rtasidagi farqni ko'rsatadi;

b) Kambag'allarning ta'minlanganlar soniga nisbatini ifodalaydi;

c) Aholining taqqoslanayotgan guruhlari ichidagi daromadlarning o'rtacha miqdorlari nisbati yoki ularning daromadlari umumiy hajmidagi ulushi;

d) Yalpi milliy mahsulot ko'rsatkichi ichida aholi daromadlarining ulushini ifodalaydi.

36. 2019-yil 1-yanvardan pensiyani hisob-kitob qilish uchun ish haqining maksimal miqdorini eng kam oylik ish haqining sakkiz barobaridan o'n barobarigacha oshirilishi qanday me'yoriy huquqiy hujjatga asosan belgilandi?

a) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 12-dekabrdagi PF–5597-son Farmoni;

b) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 10-noyabrdagi PF–5182-son Farmoni;

c) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 18-sentyabrdagi PF–4975-son Farmoni;

d) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 18-oktyabrdagi PF–5072-son Farmoni.

37. 2019-yil 1-yanvardan boshlab O'zbekiston Respublikasida ish beruvchilar tomonidan fuqarolarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga majburiy badallar jismoniy shaxslarning soliqqa tortiladigan daromadlariga nisbatan necha foiz o'rnatilgan?

a) 0,1%;

b) 1,0%;

c) 2,0%;

d) 0,2%.

38. Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi Kuzatuv kengashining tarkibi kimning qarori bilan tasdiqlanadi?

a) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti;

b) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi;

c) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi;

d) O'zbekiston Respublikasi Moliya vaziri.

39. Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga yuridik va jismoniy shaxslardan majburiy to'lovlar, badallar va boshqa to'lovlar tushishining va yig'ilishining to'liqligi yuzasidan nazoratni kim olib boradi?

a) Davlat soliq xizmati organlari;

b) Jamg'armaning hududiy boshqarmalari va tuman (shahar) bo'limlari;

c) Jamg'armaning ijro etuvchi apparati;

d) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi.

40. Shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga tartib raqami berish qanday ma'lumotlar asosida amalga oshiriladi?

a) Fuqarolarning pasportidagi ma'lumotlar asosida;

b) Xalq bankining unikal tartibli raqamlari asosida;

c) Davlat soliq inspeksiyalari tomonidan ro'yxatga olingan identifikatsion raqamlar asosida;

d) Shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya daftarchasi unikal raqami asosida.

41. Fuqarolarning pasportidagi ma'lumotlar o'zgargan taqdirda shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvarag'i tartib raqami qanday o'zgartiriladi?

a) O'zgarishsiz qoladi va yangi shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvarag'i ochish talab etilmaydi;

b)Yashash joyidagi Xalq banki bo'limlariga murojaat etilib, yangi ma'lumotlar asosida shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvarag'i tartib raqami olinadi;

c)Davlat soliq inspeksiyalari tomonidan ro'yxatga olingan identifikatsion raqamlar asosida Xalq banki bo'limlari tomonidan o'zgartiriladi;

d)Avval ochilgan shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvarag'i yo'q qilinib, shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvarag'i ochiladi.

42. Quyidagilardan qaysi biri jamg'arib boriladigan pensiya tizimi mablag'laridan foydalanish yo'nalishlariga kirmaydi?

a)Davlat pensiyalari va ijtimoiy nafaqa to'lovlarini amalga oshirish;

b)Jamg'arib boriladigan pensiya to'lovlari to'lash;

c)Mablag'lardan investitsiya va kredit resurslari sifatida foydalanish;

d)Mablag'larni moliyaviy vositalarga joylashtirish.

43. Pensiya miqdori nimalardan shakllanmaydi?

a)Yuqori sug'urta badali to'langanlik uchun yakka tartibdagi koeffetsiyentdan;

b)pensiyaning bazaviy miqdoridan;

c)ish staji uchun pensiya oshirilishidan;

d)pensiyaga ustama haqlardan.

44. Ish hajmining kamayishi natijasida shtatlarning qisqarishi tufayli ishdan bo'shatilgan va ishsiz deb topilgan shaxslarning pensiyaga chiqish yoshlari va stajlari qanday belgilangan?

a)Erkaklar - 58 yoshda va ish staji 25 yildan kam bo'lmaganda, ayollar - 53 yoshda va ish staji 20 yildan kam bo'lmaganda;

b)Erkaklar - 57 yoshda va ish staji 25 yildan kam bo'lmaganda, ayollar - 52 yoshda va ish staji 20 yildan kam bo'lmaganda;

c)Erkaklar - 56 yoshda va ish staji 23 yildan kam bo'lmaganda, ayollar - 52 yoshda va ish staji 18 yildan kam bo'lmaganda;

d)Erkaklar - 58 yoshda va ish staji 20 yildan kam bo'lmaganda, ayollar - 53 yoshda va ish staji 15 yildan kam bo'lmaganda.

45. O'zbekiston Respublikasida Ichki ishlar organlari xodimlariga pensiya va nafaqa to'lovlari qanday mablag'lar hisobidan amalga oshiriladi?

a)Respublika byudjeti;

b)Tuman (shahar) byudjeti;

c)Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi mablag'lari;

d)Ichki ishlar organlari xodimlarini moddiy rag'batlantirish fondi mablag'laridan.

46. Yakuniy nazorat tarzidagi davlat moliyaviy nazoratini amalga oshirish muddati

a)30 kalendar kundan oshmasligi lozim;

b)40 kalendar kundan oshmasligi lozim;

c)45 kalendar kundan oshmasligi lozim;

d)10 kalendar kundan oshmasligi lozim.

47. Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika byudjetidan moliyalashtiriladigan tashkilotlarning tasdiqlangan xarajatlar smetalari va shtat jadvallari qaysi organ tomonidan ro'yxatdan o'tkaziladi?

a)Qoraqalpog'iston Respublikasi Moliya vazirligi;

b)O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi;

c)O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi;

d)Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi.

48. Qaytarish sharti bilan yuqori turuvchi byudjetdan quyi turuvchi byudjetga, shuningdek, davlat maqsadli

jamg'armalariga, rezident-yuridik shaxsga ajratiladigan pul mablag'lari?

a) Byudjet ssudasi;

b) Byudjet dotatsiyasi;

c) Byudjet subsidiyasi;

d) Byudjet subvensiyasi.

49. O'zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksida ... aks ettirilmagan

a) Muayyan moliya yili uchun davlat byudjeti daromadlari va xarajatlari parametrlari;

b) Byudjet tizimi byudjetlari tuzilmasi;

c) Davlat byudjetining daromadlari va xarajatlari tarkibi;

d) Respublika va mahalliy byudjetlarning daromadlari va xarajatlari tarkibi.

50. Kelgusi davr uchun byudjetdan ajratiladigan mablag'larni olishga bo'lgan ehtiyojni asoslashni nazarda tutuvchi hujjat?

a) byudjet so'rovi;

b) byudjet buyurtmasi;

c) byudjetnoma;

d) byudjet parametrlari.

51. Byudjet kodeksiga muvofiq O'zbekiston Respublikasining beg'araz yordam ko'rsatishi to'g'risidagi qaror kim tomonidan qabul qilinadi?

a) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti;

b) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi;

c) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi;

d) O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi.

52. O‘zbekiston Respublikasining konsolidatsiyalashgan byudjetini hamda davlat dasturlarini amalga oshirish uchun chetdan jalb qilingan va O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti hisobidan qoplanadigan qarz mablag‘lari evaziga amalga oshiriladigan xarajatlarni o‘z ichiga olgan jamlanma balans bu...

a) Umumiy fiskal balans;

b) Umumiy buxgalteriya balansi;

c) Davlatning daromadlar va xarajatlar yoyilmasi;

d) Davlatning daromadlar va xarajatlar ijrosi bo‘yicha hosobot.

53. 2020-yil 1-yanvardan boshlab ijtimoiy soliq tushumlari byudjet tashkilotlari bo‘yicha qanday taqsimlanishi belgilandi?

a) Byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga — 99,2 foiz, Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasiga — 0,4 foiz, O‘zbekiston Kasaba uyushmalari federatsiyasi kengashiga — 0,4 foiz;

b) Byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga — 99,8 foiz, Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasiga — 0,1 foiz, O‘zbekiston Kasaba uyushmalari federatsiyasi kengashiga — 0,1 foiz;

c) Byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga — 99,6 foiz, Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasiga — 0,2 foiz, O‘zbekiston Kasaba uyushmalari federatsiyasi kengashiga — 0,2 foiz;

d) Byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga — 99,0 foiz, Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasiga — 0,5 foiz, O‘zbekiston Kasaba uyushmalari federatsiyasi kengashiga — 0,5 foiz.

54. O‘zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to‘g‘risida"gi Qonuni qachon qabul qilingan?

a) 2018-yil 9-aprel, O‘RQ-472;

b) 2019-yil 10-mart, O‘RQ-568;

c) 2017-yil 22-aprel, O‘RQ-257;

d) 2017-yil 22-mart, O‘RQ-302.

55. Sug‘urtalovchining (sug‘urta qildiruvchining) va boshqa buyurtmachining topshirig‘i bo‘yicha belgilangan xizmatlarni ko‘rsatuvchi, o‘z shtatida tegishli mutaxassislarga ega bo‘lgan yuridik shaxs yoki professional bilim va malakaga ega bo‘lgan jismoniy shaxs

a) Adjaster;
b) Aktuariy;
c) Sug‘urta syurveyeri;
d) Assistans.

56. Soliq to‘lovchi uchun noxush oqibatlarni (to‘liq yoki qisman) kamaytirish (kompensatsiya qilish) maqsadida muddatli bitimlarning moliyaviy vositalari amalga oshiriladigan operatsiyalar deganda qanday operatsiyalar tushuniladi?

a) Xedjirlash operatsiyalari;
b) Soliq bitimlari operatsiyalari;
c) Fiskal soliq operatsiyasi;
d) Soliq syurveyeri.

57. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mahalliy davlat hokimiyati organlarining moliyaviy erkinligini oshirish, mahalliy byudjetlarga tushumlarning to‘liqligini ta’minlash bo‘yicha soliq va moliya organlari javobgarligini kuchaytirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni qachon qabul qlingan?

a) 2017-yil 13-dekabr, PF–5283-son;
b) 2017-yil 7-iyun, PF–5075-son;
c) 2018-yil 10-oktabr, PF–4235-son;
d) 2018-yil 10-noyabr, PF–4485-son.

58. Byudjet ssudasini ajratish byudjet ssudasini berayotgan moliya organi va byudjet ssudasini oluvchi moliya organi (davlat maqsadli jamg'armalarini taqsimlovchi organ) o'rtasida byudjet ssudasi berish to'g'risidagi qanday hujjat bilan rasmiylashtiriladi?

a) Shartnoma;

b) xarajatlar smetasi;

c) memorial order;

d) xarajatlar reestri.

59. 2021-yil uchun O'zbekiston Respublikasi nomidan va O'zbekiston Respublikasining kafolati ostida ichki va tashqi qarzlarni jalb qilish bo'yicha yillik imzolanadigan yangi bitimlarning cheklangan sof hajmi

a) 5,5 mlrd. AQSh dollari;

b) 6,5 mlrd. AQSh dollari;

c) 3,5 mlrd. AQSh dollari;

d) 4,5 mlrd. AQSh dollari.

60. 2021-yilda quyidagi soliqlarning qay biri tumanlar va shaharlar byudjetlariga to'liq hajmda qoldirilmaydi?

a) Elektr stansiyalari tomonidan to'lanadigan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;

b) Qurilish materiallari bo'yicha yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq;

c) Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i;

d) Yakka tartibdagi tadbirkorlar to'laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i.

61. Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika byudjetining, viloyatlar viloyat byudjetlarining va Toshkent shahri shahar byudjetining, tumanlar va shaharlar byudjetlarining 2021-yil uchun zaxira jamg'armalari tegishli byudjetlar tasdiqlangan

umumiy xarajatlarining kamida necha foizi miqdorida shakllantiriladi?

a) 1,0;
b) 3,0;
c) 5,0;
d) 10,0.

62. Soliq to'lovchi soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarida belgilangan soliqlarni to'lash muddatini buzgan taqdirda to'lashi lozim bo'lgan pul summasi

a) Penya;
b) Soliq;
c) Jarima;
d) Unifikatsiyalashgan foiz.

63. O'zbekiston Respublikasida davlat byudjeti taqchilligi qanday mablag'lar hisobidan moliyalashtirilmaydi?

a) O'zbekiston Respublikasi respublika byudjeti mablag'larining moliya yili boshidagi qoldiqlari;
b) Davlat tomonidan mablag' jalb qilish;
c) Davlatning qimmatli qog'ozlarini joylashtirishdan kelgan mablag'lar;
d) O'zbekiston Respublikasi respublika byudjeti mablag'larining moliya yili boshidagi qoldiqlar.

64. 2021-yil uchun konsolidatsiyalashgan byudjet daromadlari prognozi

a) 178712,4 mlrd.so'm;
b) 216246,6 mlrd. so'm;
c) 147202,3 mlrd. so'm;
d) 149950,5 mlrd. so'm.

65. 2021-yil uchun konsolidatsiyalashgan byudjet xarajatlari prognozi

a)216246,6 mlrd. so‘m;

b)178712,4 mlrd.so‘m;

c)147202,3 mlrd. so‘m;

d)149950,5 mlrd. so‘m.

66. Quyidagi soliq turlari bo‘yicha qay birining daromadlar prognozining oshirib bajarilgan qismi to‘liq hajmda Qoraqalpog’iston Respublikasi respublika byudjeti, viloyatlar viloyat byudjeti va Toshkent shahrining shahar byudjetida qoldirilishi ko‘zda tutilgan?

a)jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig’i;

b)yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan aktsiz solig’i;

c)yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan qo‘shilgan qiymat solig’i;

d)norezidentlarning to‘lov manbaida ushlab qolinadigan daromadlaridan to‘lanadigan foyda solig‘i.

67. 2021-yilda quyidagi soliqlarning qay biri to‘liqligicha tuman yoki shahar byudjetiga o‘tkazilishi belgilangan?

a)qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq;

b)elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;

c)benzinni, dizel yoqilg‘isini va gazni yakuniy iste’molchilarga realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i;

d)ayrim turdagi tovarlarning chakana savdosiga doir huquq uchun yig‘imlar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

I. O'zbekiston Respublikasi qonunlari. O'zbekiston Respublikasi Prezident farmonlari va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. 2014. 16-son. 176-modda.

2. O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksi. O'zbekiston Respublikasi qonuni. O'RQ-360-son. 26.12.2013. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. 2015. 52-son. 645-modda.

3. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 1-iyuldagi Hisob Palatasi to'g'risidagi qonuni. O'RQ-546-son. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. 02.07.2019. 03/19/546/3359-son.

4. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 31-dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi (yangi tahriri)". Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. 31.12.2019. 02/19/SK/4256-son.

5. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 9-dekabrdagi "2020-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risida"gi O'RQ-589-son qonuni. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. 10.12.2019. 03/19/589/4126-son.

6. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 25-dekabrdagi "2021-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risida"gi O'RQ-567-son qonuni. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. 26.12.2020. 03/20/657/1669-son.

7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son farmoni // Xalq so'zi. 2017. 28 (6722)-son; O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. 2017. 6-son. 70-modda.

8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 18-martdagi "Moliya organlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2847-son qarori. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. 2017. 13-son. 201-modda.

9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 28-dekabrdagi "Mehnat faoliyatini olib borayotgan pensionerlarning alohida toifalariga qulay sharoitlar yaratishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-

5291-son farmoni. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. 29.12.2017. 06/18/5291/0488-son.

10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 22-yanvardagi "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasini "Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida" gi PF-5308-sonli farmoni. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. 23.01.2018. 06/18/5308/0610-son.

11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yilning 12-dekabrdagi "Fuqarolarning pensiya ta'minoti tizimi samaradorligini oshirish va pensionerlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni kuchaytirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5597-son farmoni. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. 13.12.2018. 06/18/5597/2300-son.

12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-yanvardagi "2017 - 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasini "Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida" PF-5635-son farmoni. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. 18.01.2019. 06/19/5635/2502-son.

13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-apreldagi PQ-4273-son "Davlat boshqaruvining ochiqligi va shaffofligini ta'minlash hamda mamlakatning statistika salohiyatini oshirish yuzasidan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" qarori. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. 10.04.2019. 07/19/4273/2914-son.

14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-maydagi "Mehnatga haq to'lash, pensiyalar va boshqa to'lovlar miqdorlarini aniqlash tartibini takomillashtirish to'g'risida"gi PF-5723-son farmoni. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. 21.05.2019. 06/19/5723/3160-son. 13.07.2019. 06/19/5765/3418-son.

15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 26-sentyabrdagi "O'zbekiston respublikasining soliq siyosatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-5837-son farmoni. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. 26.09.2019. 06/19/5837/3812-son.

16. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 26-dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasining 2019 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va davlat byudjeti parametrlari hamda 2020-2021

yillarga byudjet mo'ljallari to'g'risida"gi PQ-4086 son qarori. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. 27.12.2018. 07/18/4086/2354-son.

17. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasining "2020 yil uchun O'zbekiston Respublikasining davlat byudjeti to'g'risida"gi qonuni ijrosini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4555-son qarori. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. 01.01.2020. 07/20/4555/4257-son.

18. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 2-martdagi "2017 - 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasini "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi PF-5953-son farmoni. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. 03.03.2020. 06/20/5953/0246-son.

19. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasining "2021 yil uchun O'zbekiston Respublikasining davlat byudjeti to'g'risida"gi qonuni ijrosini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4938-son qarori. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. 31.12.2020. 07/20/4938/1680-son.

20. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 3-fevraldagi "2017 - 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasini "Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi PF-6155-son farmoni. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. 04.02.2021. 06/21/6155/0082-son.

21. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2014-yil 15-dekabrda 2634-son bilan ro'yxatga olingan "Byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallarini tuzish, tasdiqlash va ro'yxatdan o'tkazish tartibi" to'g'risidagi nizom. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. 2014. 51-son. 612-modda.

22. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoevning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga murojaatnomasi. T., 2017. 22-dekabr. Manba: https:// uza.uz - internet sayti.

23. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoevning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga murojaatnomasi. T., 2018. 28-dekabr. Manba: https:// uza.uz - internet sayti.

24. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoevning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga murojaatnomasi. T., 2020. 24-yanvar. Manba: https:// uza.uz - internet sayti.

25. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoevning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga murojaatnomasi. T., 2020. 29-dekabr. Manba: https:// uza.uz - internet sayti.

II. Asosiy va qo'shimcha adabiyotlar

1. M.Bekmurodov va bosh. Harakatlar strategiyasi asosida jadal taraqqiyot va yangilanish sari: Risola. T.: G'afur G'ulom, 2017. 108 b.

2. G'aybullayev O., O'roqov U. O'zbekiston Respublikasida byudjet tizimi va jarayoni: O'quv qo'llanma. T.: Baktria press, 2016. 168 b.

3. Malikov T.S., Xaydarov N.X. Davlat moliyasi: Test (savol-javob)lar. T.: Iqtisod-Moliya, 2014. 496 b.

4. Malikov T.S. Moliya: O'quv qo'llanma. T.:Iqtisod-Moliya, 2018. 268 b.

5. Malikov T.S. Moliyaviy savodxonlik asoslari: O'quv qo'llanma.T.: Iqtisod-Moliya, 2021. 404 b.

6. Nurmuxamedova B.I. Davlat byudjeti:Darslik. T.: Iqtisod-Moliya, 2018. 630 b.

7. Nurmuxamedova B., Kabirova N. Moliya: O'quv qo'llanma.T.: Iqtisod-Moliya, 2017. 224 b.

8. Nurmuxamedova B.I., Srojiddinova Z.X., Sugirbaev B.B. O'zbekiston Respublikasida ta'lim xarajatlarini rejalashtirish: O'quv qo'llanma. T.: InfoCapitalGroup, 2013. 447 b.

9. Po'latov D.X, Nurmuxamedova B.I. G'aznachilik: Darslik. T.: Sano-standart, 2014. 272 b.

10. Srojiddinova Z.X. Davlat byudjeti: umumta'lim maktablari xarajatlar smetasi: O'quv qo'llanma. T.: Iqtisod-Moliya, 2013. 102 b.

11. Tashmuxamedova D. Byudjet g'azna ijrosi: O'quv qo'llanma. T.: Iqtisod-Moliya, 2019. 440 b.

12. Tashmuxamedova D. G'aznachilik asoslari: O'quv qo'llanma. T.: Iqtisod-Moliya, 2018. 304 b.

13. Qosimova G.A. G'aznachilik:O'quv qo'llanma.T.:Iqtisod-Moliya, 2015. 448 b.

14. Жиянова Н. Управление государственными финансами: Учебник. Т.: Iqtisod-Moliya, 2019. 444 с.

15. Жиянова Н., Ташматова Р. Бюджетно-налоговая политика: Учебное пособие. Т.: Iqtisod-Moliya, 2019. 216 с.

16. Нурмухамедова Б.И., Срожиддинова З.Х. Планирование расходов на образование в Республике Узбекистан. Т.: InfoCapitalGroup, 2013. 400 с.

17. Юлдашева Н. Местные бюджеты: Учебно-методическое пособие. Т.: ТФИ, 2015. 362 с.

18. Public finance. Harvey S. Rosen, Ted Gayer.10 th ed.United States. 2014.

19. Robert D.Lee Jr., Ronald W.Johnson, Philip G.Joyce. Public budgeting systems. Jones & Bartlett Learning; 9 edition. USA, 2012. P. 667.

20. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqini o'rganish bo'yicha ilmiy-ommabop risola. T.: Ma'naviyat, 2017. 184 b.

21. I. Mamajonov va bosh. O'rta muddatli byudjet. Namangan shahar byudjeti misolida: Uslubiy qo'llanma. T.

22. 2017-2021yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturini o'rganish bo'yicha ilmiy-uslubiy risola. T.: Ma'naviyat, 2017. 416 b.

23. Н.И. Малис и др. Налоговая политика государства: Учебник и практикум для академического бакалавриата/Под ред. Н.И. Малис. М.: Юрайт, 2018. 361 с.

24. Ракитина И., Берёзина Н. Государственные и муниципальные финансы: Учебник и практикум. М.: Юрайт-М, 2017. 392 с.

25. С.Е. Прокофьев, А.И. Галкин, С.Г. Еремин, Н.Л. Красюкова. Управление государственной и муниципальной собственностью: Учебник и практикум для СПО / Под ред. С.Е. Прокофьева. М.: Юрайт, 2018. 305 с.

26. И.В. Ишина и др. Финансы некоммерческих организаций: Учебник и практикум для бакалавриата и магистратуры / Под ред. И.В. Ишиной. М.: Юрайт, 2018. 319 с.

27. Fuqarolar uchun byudjet [Matn]/ O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi. T.: Baqtriya press, 2018.104 b.

28. Fuqarolar uchun byudjet / O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi. T.: BAKTRIA PRESS, 2019.104 b.

29. Fuqarolar uchun byudjet / O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi. T.: BAKTRIA PRESS, 2020.104 b.

III. Internet saytlari

www.gov.uz (O‘zbekiston Respublikasi hukumat portali).
www.mf.uz (O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi).
www.lex.uz (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy ba’zasi).
www.publicfinance.uz (O‘zbekistonda byudjet islohotlari loyihasi).
www.stat.uz (O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistikasi qo‘mitasi).
www.ziyonet.uz (O‘zbekiston Respublikasi axborot ta’lim tarmog‘i).
www.interfinance.uz (Toshkent moliya institutining “Xalqaro moliya va hisob” ilmiy elektron jurnali).
www.sciencedirect.com (Ilmiy maqolalar va kitoblar elektron kutubxonasi).
www.ziyonet.uz (O‘zbekiston Respublikasi axborot ta’lim tarmog‘i);
www.soliq.uz (O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi).

ILOVALAR

1-ilova

"El-yurt umidi" jamg'armasining moliyalashtirish manbalari va ulardan foydalanishning asosiy yo'nalishlari[123]



[123] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 25-sentyabrdagi PF-5545-son "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi mutaxassislarni xorijda tayyorlash va vatandoshlar bilan muloqot qilish bo'yicha "El-yurt umidi" jamg'armasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi Farmoni vaO'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-yanvardagi PQ–4091-son "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi mutaxassislarni xorijda tayyorlash va vatandoshlar bilan muloqot qilish bo'yicha "El-yurt umidi" jamg'armasining dasturlari bo'yicha kadrlarnio'qitishni tashkil etishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori asosida.

2-ilova

Davlat va jamiyat ehtiyojlari uchun yer uchastkalarining olib qo'yilishi munosabati bilan jismoniy va yuridik shaxslarga yetkazilgan zararlarni qoplash bo'yicha markazlashtirilgan jamg'armasi mablag'larini shakllantirish va ulardan foydalanish[124]

Davlat va jamiyat ehtiyojlari uchun yer uchastkalarining olib qo'yilishi munosabati bilan jismoniy va yuridik shaxslarga yetkazilgan zararlarni qoplash bo'yicha markazlashtirilgan jamg'armasi

Moliyalashtirish manbalari

Respublika miqyosida:

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi zaxira jamg'armasi mablag'larining 15 foizidan kam bo'lmagan miqdorda respublika byudjeti va respublika byudjetining qo'shimcha manbalari mablag'lari;
- yuridik va jismoniy shaxslarning, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi norezidentlarining homiylik va xayriya yordamlari tarzidagi mablag'lar

Hududiy miqyosida:

- Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari zaxira jamg'armalari mablag'larining 15 foizidan kam bo'lmagan miqdorda Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlarining qo'shimcha manbalari mablag'lari;
- Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti va viloyatlar mahalliy byudjetlarining maxsus g'azna hisob raqamlariga qo'shimcha manba sifatida o'tkaziladigan «E-IJRO AUKSION» elektron savdo maydonchasida yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarni sotishdan tushgan mablag'lar;
- yuridik va jismoniy shaxslarning, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi norezidentlarining homiylik va xayriya yordamlari tarzidagi mablag'lar;
- qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar

Mablag'laridan foydalanish yo'nalishlari

- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumati tomonidan qabul qilingan dasturlar, topshiriqlar asosida jismoniy va yuridik shaxslarga yetkazilgan zararlarni qoplash;
- Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tashabbusi bilan jismoniy va yuridik shaxslarga yetkazilgan zararlarni qoplash

[124] O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 26-dekabrdagi 1047-son "Davlat va jamiyat ehtiyojlari uchun yer uchastkalarining olib qo'yilishi munosabati bilan jismoniy va yuridik shaxslarga yetkazilgan zararlarni qoplash bo'yicha markazlashtirilgan jamg'armalar mablag'larini shakllantirish va ulardan foydalanish tartibi to'g'risida nizomni tasdiqlash haqida" qarori asosida.

3-ilova

Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi mablag‘larini shakllantirish manbalari[125]



[125] O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 20-oktabrdagiO‘RQ-642-son “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi Qonunining 93- va 94-moddalari asosida.

4-ilova

Jamoat ishlari jamg‘armasining mablag‘larini shakllantirish manbalari va ulardan foydalanish yo‘nalishlari[126]

Jamoat ishlari jamg‘armasi

Moliyalashtirish manbalari

- Haq to‘lanadigan jamoat ishlarini tashkil etish bo‘yicha xarajatlarni moliyalashtirish uchun O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjetidan Jamoat ishlari jamg‘armasiga ajratiladigan mablag‘lar;
- Xalqaro moliya institutlari grantlari, jismoniy va yuridik shaxslarning, xayriya jamg‘armalarining ixtiyoriy xayriyalari, boshqa xorijiy donorlarning mablag‘lari;
- Asosiy vositalar, mini-uskunalar va ashyo-anjomlar ijarasidan olinadigan daromadlar;
- Jamoat ishlari jamg‘armasining vaqtincha bo‘sh turgan mablag‘larini joylashtirishdan olinadigan daromadlar va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar

Foydalanish yo‘nalishlari

- Haq to‘lanadigan jamoat ishlariga jalb etiladigan shaxslarning mehnatiga haq to‘lash;
- Haq to‘lanadigan jamoat ishlarida foydalanish, shu jumladan ularni jamoat ishlariga jalb etiladigan shaxslarga, bir martalik, vaqtincha yoki mavsumiy ishlar bilan shug‘ullanuvchi shaxslarga ijara shartlari asosida berish orqali foydalanish uchun mo‘ljallangan asosiy vositalar, mini-uskunalar va ashyo-anjomlarni olishni, shuningdek aholi bandligini ta’minlashni, shu jumladan davlat-xususiy sheriklik shartlari asosida ta’minlashni nazarda tutuvchi boshqa tadbirlarni amalga oshirish;
- Haq to‘lanadigan jamoat ishlarini bajarish uchun maxsus kiyim-bosh va xavfsizlik texnikasi vositalari olish;
- Qishloq, kommunal xo‘jaligi, yo‘l-transport sohasidagi va aholi bandligiga ko‘maklashishga doir chora-tadbirlarni rag‘batlantirishga qaratilgan boshqa tarmoqlardagi infratuzilmani yaratish bo‘yicha ishlarni amalga oshirish uchun subsidiyalar va grantlar;
- Haq to‘lanadigan jamoat ishlarini amalga oshirish masalalariga doir axborot materiallarini tayyorlash va e’lon qilishni, ko‘rgazmali axborot tayyorlashni, materiallarni ommaviy axborot vositalarida joylashtirish;
- Mehnat organlari xodimlarining mehnatini rag‘batlantirish va moddiy-texnika bazasini mustahkamlash jamg‘armasiga mablag‘larni tijorat banklariga joylashtirishdan olinadigan daromadlarning 50 foizi hajmida ajratmalar qilish

[126] O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 20-oktabrdagi O‘RQ-642-son “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi Qonunining 97 va 98-moddalari asosida.

5-ilova

Xorijda mehnat faoliyatini amalga oshiruvchi fuqarolarni qo‘llab-quvvatlash hamda ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish jamg‘armasi[127]

Jamg’arma
Moliyalashtirish manbalari
- Davlat byudjetining Xorijda mehnat faoliyatini amalga oshiruvchi fuqarolarni qo‘llab-quvvatlash hamda ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish jamg‘armasiga ajratiladigan mablag‘lari; - Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi bilan tuzilgan litsenziya bitimi doirasida fuqarolarni vaqtinchalik mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun O‘zbekiston Respublikasidan tashqariga yuborishni amalga oshiruvchi tashkilotlarning belgilangan miqdordagi mablag‘larini, zaxiraga qo‘yilgan summa sarflab yuborilgan taqdirda mablag‘larni to‘ldirish, shuningdek fuqarolarni O‘zbekiston Respublikasidan tashqarida ishga joylashtirish huquqi uchun litsenziyaning amal qilishi tugatilgan taqdirda mablag‘larni qaytarish sharti bilan zaxiraga qo‘yish; - Bo‘sh turgan mablag‘larni tijorat banklaridagi va boshqa moliyaviy vositalardagi depozitlarga joylashtirishdan olinadigan daromadlar; - Jismoniy va yuridik shaxslarning xayriya mablag‘lari, shuningdek, qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar
Foydalanish y o‘nalishlari
- Mehnat migratsiyasida bo‘lgan vaqtda vafot etgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining jasadlarini, shuningdek, xorijda mehnat faoliyati vaqtida mayib bo‘lgan yoki og‘ir jarohat olgan fuqarolarni olib kelish; - Xorijda mehnat faoliyatini amalga oshirish davrida zo‘ravonlikka, majburiy mehnatga va tahqirlanishga duchor bo‘lgan, mehnat va boshqa huquqlari buzilgan, murakkab moliyaviy ahvolga tushib qolgan va shaxsini tasdiqlovchi hujjatlarisiz, mablag‘larsiz qolgan O‘zbekiston fuqarolarini huquqiy va ijtimoiy himoya qilish hamda ularga moddiy yordam ko‘rsatish; - Mehnat migratsiyasida bo‘lgan vaqtda jarohat olishi, baxtsiz hodisaga uchrashi, og‘ir kasallikka chalinishi tufayli tibbiy yordam talab etilgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolariga mehnat migranti mablag‘lari yoki tibbiy sug‘urta hisobidan ko‘rsatilgan tibbiy xizmatlar qiymatini to‘lash imkoni bo‘lmaganda tibbiy xizmat ko‘rsatish; - Avval uyushgan holda tanlash doirasida xorijga ishga yuborilgan va borgan mamlakatning qonun hujjatlarini buzishi natijasida chiqarib yuborilgan (deportatsiya qilingan) O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarini qaytarish, keyinchalik to‘langan mablag‘larni mazkur shaxslar hisobidan qoplash, shuningdek, xorijiy ish beruvchilar tomonidan ishga joylashtirish bo‘yicha kelishilgan sharoitlar bilan ta’minlanmagan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarini qaytarish; - Mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun xorijga ketayotgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarini ketish oldidan moslashtirish, kasbga tayyorlash, ularga chet tillarni o‘qitish va chet tillarni bilishini imtihon qilish, ularning kasbiy malakasini tasdiqlash markazlarini respublika hududlarida tashkil etish va jihozlash; - Xorijda Agentlik vakolatxonalarini tashkil etish, jihozlash va saqlab turish; - Fuqarolarni xorijda uyushgan holda ishga joylashtirishni kengaytirish, noqonuniy mehnat migratsiyasining oldini olish masalalariga doir axborot-ma’rifiy tadbirlar o‘tkazish; - Xorijda mehnat faoliyatini amalga oshiruvchi O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari ish bilan ta’minlanishining ular ishga joylashgan joylarga borish orqali monitoringini yuritish

[127] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 12-sentyabrdagi 725-son “O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarini xorijda uyushgan holda ishga joylashtirish tizimini yanada takomillashtirish va tubdan qayta ko‘rib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori asosida.

6-ilova

Xalq ta'limi vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Respublika maqsadli kitob jamg'armasi mablag'larini shakllantirish manbalari va ulardan foydalanish yo'nalishlari[128]

Respublika maqsadli kitob jamg'armasi

Moliyalashtirish manbalari

- O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti mablag'lari;
- Umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim muassasalaridan tushadigan ijaraga berilgan darsliklar bo'yicha ijara to'lovlari;
- Grantlar, kreditlar hamda O'zbekiston Respublikasi rezidentlari va norezidentlari – yuridik va jismoniy shaxslar, xalqaro tashkilotlar va moliyaviy institutlarning homiylik xayriyalari;
- Jamg'armaning vaqtincha bo'sh turgan mablag'larini tijorat banklari depozitlariga joylashtirilishidan olinadigan daromadlar;
- Keyinchalik foydalanishga yaroqsiz bo'lgan darsliklar va o'quv-metodik majmualarni utilizatsiya qilishdan tushgan tushumlar;
- Nashriyotlar va bosmaxonalarga darsliklarni chakana savdo tarmog'i orqali sotilishini qo'llab-quvvatlash uchun qisqa muddatli maqsadli ssudalar ajratish evaziga tushgan foiz daromadlari va qonun hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa manbalar

Foydalanish yo'nalishlari

- O'rnatilgan tartibda shakllantirilgan va tasdiqlangan istiqbol kvotalariga asosan umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim muassasalariga O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti va Jamg'arma aylanma mablag'lari hisobidan nashr va qayta nashr etiladigan darsliklar va o'quv-metodik majmualarni xarid qilish va yetkazib berishni moliyalashtirish
- Darsliklarni chop etish bo'yicha tasdiqlangan kvotalarga ega bo'lgan nashriyotlar va bosmaxonalarga darsliklarni chakana savdo tarmog'i orqali sotilishini qo'llab-quvvatlash, ularning aylanma mablag'larini to'ldirishga O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining qayta moliyalash stavkasidan kam bo'lmagan foizda maqsadli ssudalar ajratish
- Darslik va o'quv-metodik majmualarni chop etish jarayoniga tayyorlash va ekspertiza qilish ishlarini moliyalashtirish
- Vasiylik kengashi tomonidan tasdiqlangan smeta xarajatlariga muvofiq darsliklarni yaratish, chop ettirish, etkazish hamda darsliklar bilan ta'minlash tizimini uzluksiz faoliyat ko'rsatishi bilan bog'liq xarajatlarni qoplash
- Vasiylik kengashi tomonidan tasdiqlangan xarajatlar smetalariga muvofiq Direksiyani saqlash xarajatlarini qoplash

[128] O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 22-fevraldagi 155-son "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi huzuridagi xalq ta'limini rivojlantirish jamg'armasi va byudjetdan tashqari Respublika maqsadli kitob jamg'armasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi qarori asosida.

7-ilova

Nogironligi bo‘lgan shaxslarni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi mablag‘larini shakllantirish manbalari va ulardan foydalanish yo‘nalishlari[129]

Nogironligi bo‘lgan shaxslarni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi
Moliyalashtirish manbalari
- Nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun belgilangan tartibda solinadigan jarimalar summasining 10 foizi miqdoridagi ajratmalar; - Nogironligi bo‘lgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish joylarining eng kam miqdorini yaratishga doir mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari bajarilmaganligi uchun belgilangan tartibda solinadigan jarimalar summasining 10 foizi miqdoridagi ajratmalar; - Yuridik va jismoniy shaxslarning, shuningdek, xalqaro tashkilotlarning homiylik xayriyalari hamda qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar
Foydalanish yo‘nalishlari
- nogironligi bo‘lgan shaxslarni protez-ortopediya buyumlari, texnik reabilitatsiya vositalari va kreslo-aravachalar bilan ta’minlash; - tashkilotlarda protez-ortopediya buyumlari va texnik reabilitatsiya vositalarini ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va texnologik yangilash loyihalarini amalga oshirish; - nogironligi bo‘lgan shaxslarni reabilitatsiya qilish, organizmning izdan chiqqan yoki yo‘qolgan funksiyalarini tiklash va ularni kompensatsiya qilish, hayot faoliyati cheklanganligini bartaraf etish chora-tadbirlarini amalga oshirish; - nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun yo‘naltirilgan ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari faoliyatiga ko‘maklashish; - nogironligi bo‘lgan shaxslarga jamiyat hayotida boshqa fuqarolar bilan teng ishtirok etish imkoniyatlarini yaratishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish; - nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun ixtisoslashtirilgan ish o‘rinlarini tashkil etish maqsadlarini moliyalashtirish

[129] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 9-martdagi 190-son “O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi huzuridagi Nogironligi bo‘lgan shaxslarni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”qarori asosida mualliflar tomonidan shakllantirildi.

MUNDARIJA

KIRISH 3

1-BOB. DAVLAT MOLIYASINING MOHIYATI VA AHAMIYATI 5

1.1. "Davlat moliyasi" faniga kirish: fanning predmeti, tarkibiy tuzilishi, maqsadi va vazifalari 5

1.2. Davlat moliyasining mohiyati va ahamiyati 7

1.3. Davlat moliyasining funksiyalari, ularni davlatning funksiyalari bilan bog'liqligi 12

2-BOB. DAVLAT MOLIYASI TO'G'RISIDAGI NAZARIYALAR 17

2.1. Turli davr va iqtisodiy maktablar namoyandalarining davlat moliyasiga oid nazariyalari 17

2.2. Siyosiy iqtisod klassiklari konsepsiyalarining moliyaviy jihatlari 19

2.3. Keyns moliyaviy konsepsiyasining asosiy g'oyasi 23

2.4. Neokeynschilar nazariyalarining moliyaviy jihatlari 26

2.5. Yangi klassik nazariyalarning moliyaviy jihatlari 27

3-BOB. DAVLAT MOLIYASI TIZIMI 31

3.1. Davlat moliyasi tizimi, uning tarkibi va tuzilishi 31

3.2. Davlat moliyasi tizimi bo'g'inlarining o'zaro bog'liqligi 36

4-BOB. DAVLAT MOLIYASI AMAL QILISHINING HUQUQIY ASOSLARI 40

4.1. Davlat moliyasi amal qilishining qonuniy-huquqiy asoslari, byudjet qonunchiligi 40

4.2. O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksi, mazmuni va ahamiyati 44

4.3. Soliq kodeksi, uning davlat moliyasining huquqiy asosi sifatidagi ahamiyati 48

5-BOB. DAVLATNING MOLIYAVIY SIYOSATI 54

5.1. Davlatning moliyaviy siyosati, uning turlari, maqsad va vazifalari. Moliya siyosatining taktikasi va strategiyasi 54

5.2. Mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasi davlat moliyaviy siyosatining rivojlanish bosqichlari 59

5.3. O'zbekiston Respublikasining yaqin va o'rta istiqboldagi byudjet-soliq siyosatining asosiy yo'nalishlari 64

6-BOB. DAVLAT MOLIYASINI BOSHQARISH 69

6.1. Davlat moliyasini boshqarish to'g'risida tushuncha. Boshqarish obyektlari, subyektlari, ularning guruhlanishi, asosiy vazifalari 69

6.2.Markaziy va mahalliy davlat hokimiyati organlarining davlat moliyasini boshqarish sohasidagi vakolatlari 72

6.3. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, uning davlat moliyasini boshqarishdagi vakolatlari 76

7-BOB. DAVLAT BYUDJETI 82

7.1. Davlat byudjetining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati va funksiyalari 82

7.2. Byudjet tuzilishi va byudjet tizimi, byudjetlararo munosabatlar 89

7.3. Davlat byudjetining daromadlari tizimi 102

7.4. Davlat byudjetining xarajatlari tizimi 115

7.5. Davlat byudjetining holatlari 123

7.6. Byudjet jarayoni 128

8-BOB. DAVLAT MAQSADLI VA BYUDJETDAN TASHQARI JAMG'ARMALARI 140

8.1. Davlat maqsadli jamg'armalarining zarurligi, mohiyati, ahamiyati va vazifalari 140

8.2. Davlat maqsadli jamg'armalarining turlari, ularning tashkiliy-huquqiy asoslari 143

8.3. Davlat maqsadli jamg'armalari mablag'larini shakllantirish va ulardan foydalanish 148

9-BOB. DAVLAT KREDITI VA DAVLAT QARZLARINI BOSHQARISH 193

9.1. Davlat kreditining zarurligi, mohiyati va ahamiyati 193

9.2. Davlat qarzi, uning shakllari 199

9.3. O'zbekiston Respublikasida davlat qarzini samarali boshqarish choralari 203

10-BOB. MAHALLIY MOLIYA 208

10.1. Mahalliy moliyaning mazmuni, tarkibi va vazifalari 208

10.2. Mahalliy byudjetlar va ularning tarkibi 211

10.3. Mahalliy hokimiyat organlarining mahalliy moliyani boshqarishdagi huquq va majburiyatlari 226

11-BOB. DAVLAT KORXONALARI VA TASHKILOTLARI MOLIYASI 234

11.1. Davlat korxonalari to'g'risida tushuncha. Davlat korxonalarining tashkiliy shakllari 234

11.2. Davlat korxonalari moliyasining mazmuni va o'ziga xos xususiyatlari 240

11.3. Davlat korxonalarining moliyaviy resurslari 245

11.4. Davlat korxonalarida foyda, uning shakllanishi, taqsimlanishi va ishlatilishi 252

11.5. Korxona pul fondlarining shakllanishi va taqsimlanishi 257

11.6. Byudjet tashkilotlari, ular moliyasining o'ziga xos xususiyatlari 261

11.7. Xarajatlar smetasi – byudjet tashkilotlari moliyaviy rejasi sifatida. Smetaning elementlari. Smetalarning turlari 262

11.8. Smeta xarajatlarining tarkibi, xarajat guruhlari va moddalari. Smetalarni tuzish, tekshirish, tasdiqlash, ro'yxatga olish va moliyalashtirish tartibi 267

11.9. Byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag'lari: manbalari va ishlatish yo'nalishlari 276

12-BOB. DAVLAT MOLIYASINING IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDAGI O'RNI VA AHAMIYATI 282

12.1. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari 282

12.2. Harakatlar strategiyasida davlatning iqtisodiy rivojlanish dasturlarini moliyaviy ta'minlash masalalari 284

12.3. Iqtisodiyotni liberallashtirish va erkinlashtirishga qaratilgan davlat dasturlari, mazmuni, amalga oshirish chora-tadbirlari, moliyaviy manbalari . 289

13-BOB. DAVLAT MOLIYASINING INVESTITSION JARAYONLARGA TA'SIRI 296

13.1. Iqtisodiyotga investitsiyalarni jalb qilishda davlat moliyasining orni va ahamiyati 296

13.2. Innovatsion iqtisodiyotga investitsiyalarni jalb qilish va ularni samarali boshqarish 298

13.3. Iqtisodiyotning rivojlanishida xorijiy investitsiyalarning ahamiyatini oshirish 306

13.4. Mamlakatda investitsion muhitni shakllantirish mexanizmlari 314

14-BOB. DAVLAT MOLIYASINING JAMIYAT IJTIMOIY TARAQQIYOTIDAGI O'RNI VA AHAMIYATI 318

14.1. Jamiyat ijtimoiy taraqqiyotida davlat moliyasining o'rni va ahamiyati. Ijtimoiy rivojlanishning iqtisodiy va moliyaviy negizlari 318

14.2. Harakatlar strategiyasida davlatning ijtimoiy rivojlanish dasturlari, ularni moliyaviy ta'minlash masalalari 324

15-BOB. DAVLAT MOLIYASI TIZIMIDA IJTIMOIY SUG'URTA VA IJTIMOIY TA'MINOT 331

15.1. Ijtimoiy sug'urtaning mazmuni, davlat moliyasi tizimidagi o'rni va ahamiyati 331

15.2. Ijtimoiy ta'minot tizimining mohiyati, vazifalari va ahamiyati 339

15.3. O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy ta'minot tizimining moliyaviy manbalari 346

15.4. Ijtimoiy ta'minot xarajatlarini davlat byudjetidan mablag' bilan ta'minlash 351

16-BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA DAVLAT MOLIYASI TIZIMIDAGI ISLOHOTLARNING ASOSIY YO'NALISHLARI 361

16.1. O'zbekiston Respublikasida davlat moliyasi tizimidagi islohotlarning asosiy yo'nalishlari 361

16.2. Davlat moliyasi barqarorligini oshirish masalalari 371

16.3. Strategik rivojlanish va uning moliyaviy asoslari 375

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR 418

TAYANCH SO'Z VA IBORALAR BO'YICHA GLOSSARIY 386

ILOVALAR 424

B.I. NURMUXAMEDOVA, SH.K. XAMDAMOV

DAVLAT MOLIYASI

Darslik

Muharrir **Sh. Bazarova**
Badiiy muharrir **K. Boyxo'jayev**
Kompyuterda sahifalovchi **Z. Ulug'bekova**

Nashr. lits. AI № 305.
Bosishga ruxsat 09.03.2021-yilda berildi.
Bichimi 60x84 $^{1}/_{16}$. Ofset qog'ozi №2.
"Times New Roman" garniturasi.
Shartli b.t. 25,1. Nashr hisob t. 26,0.
Adadi 100 dona. 15-buyurtma.

«IQTISOD-MOLIYA» nashriyoti
100000, Toshkent, Amir Temur, 60 «A».

«DAVR MATBUOT SAVDO» MChJ bosmaxonasida chop etildi.
100198, Toshkent, Qo'yliq, 4-mavze, 46.